



«KAMOLOT»  
KUTUBXONASI

Artur  
Konan Doyl

# Sherlok Xolms va doktor Uotsonning sarguzashtlari



YANGI ASR AVLODI  
TOSHKENT  
2015

821.111 Ulovuz apas  
D67

UO'K: 821. 512. 133

KBK: 84.4(Ingl)

K-67

**Artur Konan Doyl.** Sherlok Xolms va doktor Uotsonning sarguzashtlari/Hikoyalar va qissalar. –T.: Yangi asr avlodi, 2014. – 588 b.

ISBN 978-9943-27-363-4

Artur Konan Doylning «Yo'qotilgan dunyo», «Zaharlangan mintaq», «Dahshat vodiysi» kabi asarlari nafaqat Yevropada, balki butun dunyoga mashhur. Va ayni paytda yurtimiz kitobsevarlariga ham yaxshi tanish.

Bu to'plamda yozuvchining detektiv, ilmiy fantastika, sarguzasht asarlaridan saralab olingan, hayotiy dalillarga boy hikoya va qissalari joy olgan.

Charlz Baskervilning g'aroyib tarzda o'ldirilishi odamlarni dahshatga soladi. Hamma ulkan mulk sohibining fosiq ajdodlari aybi uchun jazo sifatida botqoq tubidan chiqqan dahshatli it haqida turli vahima gaplarni aytishadi. Xonaki itlardan mutlaqo farq qiladigan, salobati o'rmon qora ayig'ini eslatadigan, bir oilaning iziga tushgan Baskervillar iti insonlar kabi xufiyona ish tutadi. Faqat bugina emas, mashhur izquvarlar Sherlok Xolms va doktor Uotsonning qator jinoyatlarni fosh qilishdagi bir-biridan qiziqarli sarguzashtlarini mazkur kitobdan bilib olishingiz mumkin.

1990-yilda «Baskervillar iti» nomi bilan nashr etilgan mazkur asar kitobxonlar iltimosiga ko'ra qayta chop etilmoqda.

	Alisher Navoiy
2015/131	nomidagi
8943	O'zbekiston MK

UO'K: 821. 512. 133

KBK: 84.4(Ingl)

N1 32129  
3

ISBN 978-9943-27-363-4

© Artur Konan Doyl. «Sherlok Xolms va doktor Uotsonning sarguzashtlari». «Yangi asr avlodi», 2015.

o'makchi fond

Ulovuz apas

## RAQQOS ODAMCHALAR

Sherlok Xolms ichida nihoyatda badbo'y bir narsa biqirlab qaynayotgan shisha probirkadan bukchaygancha uzoq vaqt ko'z uzmay o'tirdi. Uning boshi ko'ksiga egilgan, shuning uchun ozib-to'zib ketgan, yopishqoq patli, qora kokilli g'alati qushga o'xshab ketardi.

– Demak, Uotson, – dedi u kutilmaganda, – siz, jamg'armangizni Janubiy Afrika zayomiga sarflamoqchi emassiz?

Men taajjubdan seskanib tushdim. Xolmsning g'ayritabiiy topqirlik layoqatiga ko'nikib qolgan bo'lsam ham, qanday qilib hozir dabdurustdan dilimdagi gapni topganiga hech aqlim bovar qilmadi.

– Iye, qanday bildingiz buni, azbaroyi shifo? – deb so'radim men.

U qo'lida bug'lanib turgan probirka bilan o'tirgan yerida men tomon burildi; topqirligidan qanoat qilgan chuqur ko'zlari porlab turardi.

– Uotson, hozir siz mutlaqo gangib qolgansiz, to'g'rimi? – deb so'radi u.

– To'g'ri.

– Shu iqroringizni qog'ozga yozdirib, tagiga imzo chektirishim lozim edi sizga.

– Nima uchun?

– Chunki siz besh daqiqadan keyin, iye, bu oddiygina narsa ekan-ku, deysiz.

– Yo‘q, aytmayman.

– Bilasizmi, azizim Uotson... – Xolms probirkani sepoyaga o‘rnatib qo‘yib, xuddi auditoriyaga kirgan professordek menga ma‘ruza o‘qiy ketdi. – Fikr yuritilganda erishilgan har bir xulosa o‘zidan oldingi xulosadan kelib chiqadi; shu zaylda xulosalar zanjirini osongina vujudga keltirish mumkin. Agar shundan keyin zanjirning o‘rta bo‘g‘inlarini olib tashlab, faqat birinchi va oxirgi bo‘g‘inini qoldirsak, bu hol kishiga, garchi soxta bo‘lsa ham, hayratomuz ta‘sir etadi. Shunga ko‘ra, chap qo‘lingizning bosh va ko‘rsatkich barmoqlari oralig‘iga ko‘zim tushgan hamonoq, topgan-tayangan sarmoyangizni oltin koni uchun sarflash niyatingiz yo‘q, degan xulosaga keldim.

– Axir bu ikki holat o‘rtasida hech qanday aloqa yo‘q-ku!

– Ha, to‘g‘ri. Ammo aloqa borligini sizga bir zumda isbotlab berishim mumkin. Mana o‘sha xulosalar zanjiridan olib tashlangan halqalar: birinchidan, kecha kechqurun klubdan qaytganimizda chap qo‘lingizning bosh va ko‘rsatkich barmog‘i orasida bo‘r yuqi bor edi; ikkinchidan, siz har gal bilyard o‘ynaganingizda, kiy yaxshi sirg‘anishi uchun qo‘lingizning shu yeriga bo‘r surasiz; uchinchidan, faqat Serston bilan bilyard o‘ynaysiz; to‘rtinchidan, bundan bir oy burun, Serston menga Janubiy Afrika zayomini sheriklikda sotib olishni taklif qilyapti, u bir oydan keyin sotila boshlar ekan, deb aytgan edingiz; beshinchidan, chek daftarchangiz

yozuv stolim g'aladonida qulflog'liq turibdi va siz hanuzgacha mendan kalit so'ramadingiz; oltinchidan, binobarin, siz Janubiy Afrika zayomi uchun pul sarflamoqchi emassiz.

– O, oppa-oson ekan-u! – dedim men.

– Bo'lmasam-chi, – dedi u xiyol ranjib, – har qanday jumboq ham to'qqiz puldek tushuntirilgandan keyin oson bo'lib ko'rinadi-da. Mana sizga hali yechilmagan yangi jumboq. Ko'ramiz, do'stim Uotson, uni yecha olarmikinsiz.

U stolda yotgan bir varaq qog'ozni olib menga uzatdi va o'zi yana kimyoviy tajriba bilan shug'ullana boshladi.

Men qog'ozga chizilgan allaqanday ma'nisiz belgilarni ko'rib hayron qoldim.

– Kechirasiz, Xolms, axir bu go'dak chizgan rasmlar-ku! – dedim men.

– Siz shunday deb o'ylaysizmi?

– Bo'lmasa, nima bo'lishi mumkin?

– Norfolkdagi Ridling-Torp-Menorda yashovchi mister Xilton Kyubitt ham buning nimaligini bilishni istaydi. Bu kichkina rebusni bizga shu odam ertalabki pochta bilan yuboribdi, o'zi esa izma-iz poyezdda yo'lga chiqqan. Ana, eshityapsizmi, Uotson, qo'ng'iroq jiringladi. Bu o'sha bo'lishi kerak.

Zinadan vazmin oyoq tovushi eshitildi, bir daqiqa o'tar-o'tmas baland bo'yli, soqol-mo'ylovi silliq qilib olingan, ikki yuzi anordek qip-qizil bir jentlmen xonaga kirdi. Chaqmoqdek ko'zlari va gul-gul yashnagan chehrasidan uning tumanli Beyker-stritdan olisda yashashi ko'rinib turardi. Hozir u go'yo xonamizga sharqiy sohilning


shiddatli va sof nafasini o'zi bilan olib kirgandek tuyildi. U biz bilan qo'l siqishib, endi kursiga o'tir-moqchi bo'lgan edi, birdan ko'zi hozirgina men ko'rib, stol ustiga qo'ygan alomat belgilar chizilgan qog'ozga tushdi.

– Bu haqda siz qanday fikrdasiz, mister Xolms? – dedi u. – Menga sizning har xil sirli voqealarga qiziqishingizni aytishuvdi, bunaqa alomat narsani uchratmagan bo'lsangiz kerak deb o'ylab, yetib kelgunimcha bosh qotirib ko'rarsiz degan umidda pochta orqali yubordim.

– Haqiqatan ham, bu nihoyatda qiziqarli surat, – dedi Xolms. – Birinchi qaraganda uni bolalar ermagi deb o'ylash mumkin. Ochig'i, raqs tushayotgan bu jajji odamchalarni bolalardan boshqa kim ham chizishi mumkin? Xo'sh, o'zingiz nega bunchalik e'tibor berdingiz bu arzimagan narsaga?

– Men-ku e'tibor bermasdim-a, agar xotinim e'tibor bermaganida. U buni ko'rib, qattiq qo'rqib ketdi. O'zi hech nima demayapti-yu, lekin ko'zlarida dahshat ko'ryapman. Mana shuning uchun ham qo'rquvning sababini bilmoqchi bo'ldim.

Xolms qog'ozni qo'liga oldi, quyosh nuri qog'oz betini yoritdi. Bu yon daftardan yirtib olingan varaq edi. Unga qalam bilan jajji odamchalar surati chizilgan edi. Mana ular:



Xolms qog'ozga diqqat bilan tikildi, so'ng uni avaylab bukladi-da, hamyoniga solib qo'ydi.

– Bu ko‘p qiziqarli va ajoyib narsa bo‘lishi kerak, – dedi u. – Siz, mister Xilton Kyubitt, menga yozgan xatingizda yuz bergan voqeani qisman bayon qilgan edingiz, lekin agar iltifot ko‘rsatib, hikoyangizni do‘stim doktor Uotson uchun takror so‘zlab bersangiz, meni behad xursand qilgan bo‘lardingiz.

– Men gapga no‘noqman, – dedi mehmonimiz kattakon va baquvvat kaftlarini asabdan goh yozib, goh musht tugarkan. – Agar bayonimda biron narsa tushunarli bo‘lmasa, iltimos, savol beringlar. Hikoyamni o‘tgan yili uylanganimdan boshlayman... Lekin oldindan shuni aytib qo‘yishim kerakki, garchi o‘zim badavlat odam bo‘lmasam ham, ajdodlarimiz Ridling-Torpda besh asrdan beri yashab keladi va butun Norfolk grafligida eng mashhur zotlar hisoblanadi. O‘tgan yili men bayramda Londonga kelib, Rassel bog‘idagi mehmonxonaga joylashgandim, chunki butxonamiz ruhoniysi hazrat Parker ham shu yerdan xona olgan edi. Bu mehmonxonada amerikalik yosh bir xonim yashardi, uning ismi sharifi Patrik, Ilsio Patrik edi. Biz u bilan bir zumda do‘stlashib oldik. Oradan bir oy o‘tar-o‘tmas, men uni chin yurakdan sevib qoldim. Keyin imi-jimida nikoh o‘qitdik-da, ikkalamiz mening uyimga, Norfolkka jo‘nab ketdik.

Nufuzli ko‘hna avlod namoyandasi bo‘lgan mendek odamning notanish bir ayolga uylana turib, uning o‘tmishini ham, ota-onasini ham so‘rab-surishtirmasligi sizga juda g‘alati tuyilgan bo‘lsa kerak, mister Xolms? Lekin siz agar xoti-

nimni ko'rganingizda, unga uylanishim sababini osongina tushungan bo'lardingiz. U, ya'ni xotinim Ilsi men bilan ro'y-rost, samimiy gaplashdi, ixtiyorimni o'zimga berib, agar xohlasam unga uylanmasligim mumkinligini aytdi. «Ilgari hayotimda nihoyatda ko'ngilsiz uchrashuvlar bo'lgan, – dedi u, – men ularni unutishni istayman. O'tmishimni xotirlamoqchi emasman, chunki u xotiralar meni qattiq iztirobga soladi. Agar menga uylanishni xohlasangiz, Xilton, o'z ixtiyori bilan isnodga qoldiradigan hech qanday ish qilmagan ayolga uylanasiz, ammo menga to'la ishonishingiz hamda shu paytgacha kechirgan hayotim haqida og'iz ochmasligimga imkon berishingiz lozim. Mabodo, bu shartim sizga og'ir botadigan bo'lsa, mayli, uyingizga – Norfolkka qayting, men ham yana boyagi-boyagidek so'qqabosh hayot kechiraveray».

Bu gapni u to'yimizdan bir kun oldin aytgan edi. Unga, xohishing men uchun qonun, deb aytdim, so'zimning ustidan chiqdim ham. Mana, bir yildirki er-xotinmiz, biz juda baxtiyor hayot kechirdik. Lekin bundan bir oy burun, iyun oyining oxirida tepamizga bostirib kelayotgan falokatning birinchi belgilari ko'rindi. Xotinim Amerikadan xat oldi – konvertga Amerika markasi yopishtirilgan edi. Ilsi xatni ko'rdi-yu, murdadek oqarib ketdi, o'qib chiqib, kamindagi olovga tashladi. Shundan keyin xat haqida u bir marta ham og'iz ochmadi, men ham hech nima so'ramadim, chunki surishtirmaslikka so'z bergan edim. Ammo xotinim o'sha daqiqadan boshlab butunlay tinchini yo'qotdi. Hozir u muttasil hayajonda, nazarimda, qanday-



dir falokat yuz berishini kutayotganday. Undan ko'ra yuragini menga yozsa yaxshi bo'lardi-ya. Ana unda qanchalik vafodor er ekanligimni bilgan bo'lardi. Gap shundaki, mister Xolms, Ilsiym hech alday olmaydi, uning o'tmishi qanchalik zulmatga chulg'angan bo'lmasin, baribir, unda zarracha ham gunoh yo'q. Men norfolklik kamtarin bir zamindorman. Ammo o'z avlodimiz nomini pok saqlashda butun Angliyada menga teng keladigan odam yo'q, desam ham bo'ladi. Ilsi buni biladi, to'yimizdan oldin ham bilardi. Shuning uchun agar bu nikoh sha'ninga zarracha dog' tushiradigan bo'lsa, menga sira ham turmushga chiqmagan bo'lardi.

Endi turmushimizda sodir bo'lgan ajabtovur voqeani so'zlay. Taxminan bir haftacha burun, seshanba kuni edi, shekilli, men derazalardan birining rafida boyagi qog'ozda chizilgan odamchalariga o'xshagan rasmlarni ko'rib qoldim. Raqqos odamchalarning surati bo'r bilan chizilgan edi. Men, buni otxonamda ishlaydigan bola chizgan bo'lsa kerak, deb o'yladim, lekin u, hech nimani bilmayman, deb ont ichdi. Odamchalarning surati kechasi paydo bo'lgan edi. Men uni yuvib tashladim, keyin, Ilsi bilan o'tirganimda tasodifan bu haqda gapirgan edim, xotinim bu gapni ko'ngliga yaqin olib, meni juda hayron qoldirdi va agar shunaqa odamchalar suratini yana uchratsangiz, menga ko'rsating, deb iltimos qildi. Shu o'tgan hafta ichida odamchalar suratini boshqa uchratmadim, lekin kecha ertalab bog'imizdagi quyosh soati ustida haligi qog'ozni ko'rib qoldim. Uni

Ilsiga ko'rsatgan edim, qog'ozni ko'rib hushidan ketdi. Shundan beri xotinim parishon bo'lib qoldi, ko'zlarida hamisha dahshat ko'raman. Shuning uchun ham, sizga xat yozib, haligi varaqni ilova qilib yuborgan edim, mister Xolms. Politsiyaga murojaat eta olmasdim, chunki u yerda, albatta, mazax qilib kulishgan bo'lardi, lekin siz menga yo'l-yo'riq ko'rsatishingiz mumkin. Men badavlat odam emasman, ammo agar xotinimga biror falokat tahdid solayotgan bo'lsa, uni himoya qilish uchun, butun boyligimni oxirgi tiyinigacha sarflashga tayyorman.

Bu ko'hna Angliya fuqarosi soddadil, istarasi issiq, yirik ko'zlari ko'm-ko'k, dili pok, quvlikni bilmaydigan rostgo'y, halol odam edi. U xotinini sevar, unga ishonardi. Xolms uning hikoyasini zo'r e'tibor bilan tingladi, keyin o'ygga tolib uzoq vaqt jim qoldi.

– Mister Kyubitt, – dedi u nihoyat, – birinchi navbatda siz to'g'ridan to'g'ri xotiningizga murojaat etsangiz-u, siringni mendan yashirma, deb iltimos qilsangiz to'g'ri bo'lmasmidi?

Xilton Kyubitt kattakon boshini chayqadi:

– So'z berganman, so'zimning ustidan chiqishim kerak, mister Xolms. Ilsining ixtiyori o'zida: xohlasa, sirini menga shundoq ham aytaveradi, xohlamasa, uni majbur qilmayman. Lekin hamma gapni sinchkovlik bilan o'zim bilib olishim ham mumkin-ku, demak, men ana shu huquqimdan foydalanmoqchiman.

– Unday bo'lsa, sizga bajonidil yordam bera-man. Ayting-chi, yaqin atrofingizda bironta begona odam paydo bo'lmadimi?

– Yo‘q.

– Bilishimcha, siz yashab turgan joy ancha ovloq ekan. Binobarin, u yerga yangi kelgan har bir odam darrov ko‘zga tashlanishi kerak.

– To‘g‘ri, agar atrofimizdagi qo‘shni qo‘rg‘onlarga yangi odam kelgan bo‘lsa, darhol daragini eshitgan bo‘lardim. Ammo bizdan sal nariroqda, sohil bo‘yida qulay plyajlari bo‘lgan qishloqlar bor, u yerdagi fermerlar dam olgani kelganlarga xonalarini ijaraga beradilar.

– Bu antiqa odamchalar, shubhasiz, qandaydir ma‘noni ifodalaydi. Agar bu hech qanday maqsadni ko‘zlamay, ermak uchun chizilgan rasm bo‘lsa, biz bu jumboqni hech qachon yecha olmaymiz, bordi-yu, bularda qandaydir ma‘no ko‘zlangan bo‘lsa, shak-shubhasiz, uning tagiga yetmay qo‘ymayman. Lekin menga yuborgan qog‘ozingizdagi yozuv shu qadar qisqaki, undan biron nimani aniqlashim mushkul, ayni paytda, siz hozir keltirgan mavhum dalillar ham biron xulosa chiqarish uchun yetarli emas. Menimcha, siz hozir Norfolkka qaytib borishingiz va atrofda bo‘layotgan voqealarni diqqat bilan kuzatishingiz lozim. Agar biron yerda ana shu raqqos odamchalarni uchratsangiz, ularni nihoyatda hafsala bilan qog‘ozga ko‘chiring. Ming afsuski, deraza rafiga bo‘r bilan chizilgan odamchalarning suratini ko‘chirib olmabsiz! Yaqin atrofingizda paydo bo‘lgan barcha notanish odamlarning kimligini so‘rab-surishtiring. Biron yangilikni sezgan zahotingiz darhol huzurimga yuguring. Hozircha sizga beradigan eng yaxshi

maslahatim shu, mister Xilton Kyubitt. Agar zarurat tug'ilsa, men Norfolkda uyingizga tashrif qilishga doim tayyorman.

Shu uchrashuvdan so'ng Sherlok Xolms tez-tez chuqur xayolga toladigan bo'lib qoldi. U o'sha bir varaq qog'ozni hamyonidan olib, undagi alomat qiyofalarga uzoq vaqt tikilib o'tirardi. Bu hol ikki hafta davom etdi. Faqat shundan keyingina u yana o'sha voqea haqida gap ochdi. O'tlanib endi ketmoqchi bo'lib turgan edim, birdan Xolms:

– Uyda qolsangiz yaxshi bo'lardi, Uotson, – deb meni to'xtatdi.

– Nega?

– Negaki, bugun ertalab Xilton Kyubittidan telegramma oldim. Bizga raqqos odamchalar surati bilan murojaat qilgan Xilton Kyubitt esingizdami? U Londonga soat bir-u yigirmada yetib kelishi kerak. Hademay shu yerda bo'ladi. Telegrammadan ma'lum bo'lishicha, juda muhim yangiliklar bor.

Biz Xiltonni ko'p kutmadik: norfolklik zamindor poyezddan tusha solib to'g'ri biznikiga shamoldek yelib kelipti. U juda tashvishli, dilsiyoh ko'rinardi. Ko'zlari ma'yus boqar, peshanasida ajinlar paydo bo'lgan edi.

– Bu voqea asabimni ishdan chiqardi, mister Xolms, – dedi u behol kursiga cho'karkan. – Qandaydir mavhum, ko'rinmas odamlar chor atrofdan o'rab olib, seni to'rga ilintirmoqchi bo'layotganini his etish juda ham yomon bo'larkan, bu ham baharnavi-ya, ammo xotinimning muttasil iztirob chekayotganini, kun sayin umri xazon bo'layotganini ko'rishga hech toqatim qolmadi! Ilsi ko'z o'ngimda so'lib boryapti.

– Xotiningiz sizga biron gap aytdimi?

– Yo‘q, mister Xolms, hech nima aytmadi. Ba‘zi-ba‘zida u sho‘rlik menga judayam yuragini yozgisi kelayotgandek bo‘ladi-yu, lekin dadillik yetishmayotganini sezaman. Unga ko‘maklashmoqchi bo‘ldim, lekin bu urinishim qo‘pol chiqib, uni cho‘chitib yubordim, xolos. Xotinim ko‘pincha ajdodlarimning qanchalik qadimiy ekanligi, butun graflikda bizni qanchalik e‘zozlashlari, oilamiz sha‘niga zarracha ham dog‘ tushmaganidan naqadar g‘ururlanishimiz haqida gap ochadi, shunday paytlarda men har gal uning yana nimalarnidir aytishga og‘iz juftlaganini, ammo negadir gapirishga tili bormay, jim bo‘lib qolganini sezaman.

– O‘zingiz biron yangilik uchratdingizmi?

– Ko‘p uchratdim, mister Xolms. Sizga bir taylay yangi raqqos odamchalarni olib keldim. Eng muhimi, o‘zini ko‘rdim...

– Kimni? Rasmlarni chizgan odamnimi?

– Ha, uni ish ustida ko‘rdim. Lekin ijozatingiz bilan bir boshdan hikoya qilib bersam...

Bu yerdan qaytib borgan kunimning ertasiga ertalab odamchalarning yangi suratini ko‘rib qoldim. Bu safar surat maysazor chekkasiga qurilgan pichanxonaning qora taxta eshigiga bo‘r bilan chizilgan edi: pichanxona uyimizning derazasidan yaqqol ko‘rinib turadi. Men u suratlarni bitta qo‘ymay ko‘chirib oldim. Mana o‘sha odamchalar.



Xilton yonidan bir varaq qog'oz olib, uni stol ustiga yozib qo'ydi. Qog'ozda quyidagi belgilar tasvirlangan edi.



– Juda soz! – dedi Xolms. – Ofarin! Davom eting, qulog'im sizda.

– Men bu yozuvni ko'chirib oldim-da, so'ng o'chirib tashladim, lekin ikki kundan keyin yana o'sha eshikda yangi yozuv paydo bo'ldi. Mana u:

Xolms mamnuniyat bilan qo'llarini bir-biriga ishqab, kulib qo'ydi.

– Materiallarga boyiyapmiz, – dedi u.

Uch kundan keyin quyosh soati ustida qog'ozga chizilgan odamchalarni topib oldim. Qog'ozga tosh bostirib qo'yilgan edi. Mana o'sha qog'oz. Ko'ryapsizki, bu yerdagi odamchalar ham bundan oldingi belgilarning o'zginasi. Shundan keyin men o'sha rassomni poylamoqchi bo'ldim. Qo'limga to'pponcha olib, kechasi soat ikkilarda xonaim derazasi oldiga o'tirib oldim; bu yerdan maysazor ham, bog' ham yaqqol ko'rinib turadi. Soat tungi ikkilar edi, men oy yog'dusiga g'arq bo'lgan bog'dan ko'zimni uzmay o'tirgandim, birdan orqamda oyoq tovushi eshitildi, o'girilib tungi kiyimda turgan xotinimni ko'rdim. U, o'rningizga borib yoting, deb yolvora boshladi. Men bo'lsam, shu ahmoqona ish bilan kim shug'ullanayotganini ko'rmoqchiman, deb niyatimni ochiq aytdim-qo'ydim. Xotinim menga, bu bema'ni bir hazil bo'lishi kerak, e'tibor berishga ham arzimaydi, dedi.

«Agar shu narsa g'ashingizga tegayotgan bo'lsa, Xilton, keling, yaxshisi, ikkalamiz sayohatga jo'naylik, unda hech kim bizni bezovta qilmaydi», – dedi.

«Nima? Qandaydir bir hazilkashdan qo'rqib, o'z uyimni tashlab ketaymi? – dedim men. – Axir butun viloyat ahli ustimdan kuladi-ku!».

«Yuring, kirib yoting, – dedi xotinim. – Bu haqda ertalab gaplashamiz».

Shu payt birdan uning rangi dokadek oqarib ketganini tungi oy yorug'ida ham yaqqol ko'rdim, barmoqlari yelkamni mahkam changalladi. Pichanxona soyasida allanima g'imirlayotgan edi. Muyulishda qora sharpa ko'rindi, u engashganча yurib kelib, pichanxona eshigi oldiga cho'nqayib o'tirdi. Men to'pponchamni olib, tashqariga otildim, lekin xotinim qaltirab meni mahkam quchoqlab oldi-yu, hovliga chiqishimga imkon bermadi. Uni itarib yubormoqchi bo'ldim, lekin u menga yana ham jon-jahdi bilan yopishdi. Nihoyat xotinimning qo'lidан qutulib, eshikni ochib, pichanxona oldiga yugurib borganimda, sharpa g'oyib bo'lgan edi. Lekin u bekorga kelmagan ekan: eshikka raqqos odamchalarning rasmini chizib ketibdi. Men butun bog'ni yugurib qidirib chiqdim, lekin uni topa olmadim. Lekin qizig'i shundaki, u shubhasiz, hech qayoqqa ketmagan edi, chunki ertalab pichanxona eshigida tungi chizilgan odamchalar surati tagida yana bir nechta odamchalar paydo bo'lgandi.

– Siz ularni ko'chirib oldingizmi?

– Ha. Ular to'rttagina edi. Mana ular.

U bizga yana bir varaqni ko'rsatdi. Yangi raqsning ko'rinishi quyidagicha edi:



– Ayting-chi, – dedi Xolms, uning ko'zlarida qattiq hayajon aks etardi, – bu odamchalar oldingi yozuvga ilova qilinganmidi yoki alohida yerga chizilganmidi?

– Bular eshikning pastki qismiga chizilgan edi.

– Juda soz! Biz uchun bu g'oyatda muhim ahamiyatga ega. Men bundan taskin topdim. Marhamat, mister Xilton Kyubitt, qiziqarli hiko-yangizni davom ettiravering.

– Boshqa aytadigan gapim qolmadi, mister Xolms, faqat shuni ilova qilishim mumkinki, anavi ma'lum rassomni qo'lga tushirishimga xalal bergani uchun xotinimdan qattiq achchiqlandim. U, sizdan xavotir olgandim, deb ishontirdi meni. Avvaliga, xotinim mendan emas, o'sha suratkashdan xavotir olgan, deb shubha qila boshladim, chunki u odamning kimligi ham, alomat yozuvlarning qanday ma'noni bildirishi ham xotinimga ma'lumligiga zarracha gumonim qolmagan edi. Lekin mister Xolms, xotinimning ovozi va nigohi har qanday shubhani bartaraf qilish qobiliyatiga ega, shuning uchun endi uning, darhaqiqat, mendan xavotirlanganiga imonim komil... Bor gap – shu. Endi, bundan bu yog'iga nima qilishim kerak, maslahat bersangiz. Sirasini aytsam, qishlog'imizning besh-oltita azamat yigitini butalar




orasiga pistirmaga qo'yib, o'sha rassomning bir po'stagini qoqib, xumordan chiqsam deyman, o'shanda bizni tinch qo'yarmidi balki.

– Menimcha, bu murakkab dardni bunday usul bilan davolab bo'lmaydi, – dedi Xolms. – Londonda yana qancha vaqt bo'lasiz?

– Shu bugunoq uyga qaytishim kerak. Xotinimni kechasi yolg'iz qoldira olmayman. Uydan chiqqanimda uning ko'ngli juda g'ash edi, tezroq qaytib keling, deb iltimos qildi.

– To'g'ri qilasiz. Lekin agar qolishga imkoningiz bo'lganida, bir-ikki kundan keyin men ham siz bilan birga ketgan bo'lardim. Bo'lmasa, bu qog'ozlarni menga qoldiring. Yaqin orada o'zim huzuringizda bo'laman, ana unda bu ishni biroz bo'lsa ham oydinlashtirsam kerak, deb o'ylayman.

Sherlok Xolms o'z kasbiga ko'ra xotirjam edi, lekin uning fe'lini juda yaxshi o'rganganim uchun qattiq bezovtalanayotganini yaqqol ko'rib turardim. Yag'rindor Xilton Kyubitt eshikdan chiqib ketishi bilan do'stim stol oldiga yugurib borib, raqqos odamchalarning surati chizilgan qog'ozlarni yoydi va allaqanday murakkab hisoblar bilan shug'ullana boshladi. U ikki soat muttasil boshini ko'tarmay qanchadan qancha oq qog'ozlarni raqamlar va harflar bilan to'ldirib tashladi. Bu mashg'ulotga u shu qadar berilib ketgan ediki, hatto mening shu yerda o'tirganimni ham unutilib yuborgandek ko'rinardi. Ishi yurishgan paytlarda u xirgoyi qilib, hushtak chala boshlar, lekin mushkul ahvolga tushgan paytlarda ko'zlari bejo bo'lib, uzoq vaqt peshanasini tirishtirib o'tirardi. Nihoyat u ko'ngli



taskin topgandek qiyqirib yubordi, o'rnidan turib, kaftlarini bir-biriga ishqalagancha xonada u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi. Keyin u uzundan uzun telegramma yozib jo'natdi.

– Agar telegrammaga o'zim ko'zlagandek javob kelsa, Uotson, kitobingiz yana yangi bir sarguzasht bilan boyiydi, – dedi u. – Nazarimda, ertaga siz bilan Norfolkka jo'nasak kerak, u yerda biz do'stimiz boshiga ko'p musibatlar solgan sirni batamom fosh qilsak ham ajab emas.

Ochig'ini aytsam, sinchkovligim meni tinch qo'ymayotgan edi-yu, lekin Xolms yuz bergan voqeani faqat o'zi zarur topgan paytdagina izohlashni yaxshi ko'rar edi, shunga ko'ra, uning kashfiyotini men bilan o'rtoqlashadigan paytini bardosh-la kutardim.

Lekin telegrammaga hadeganda javob kelavermadi: ikki kungacha Xolms «tiq» etsa eshikka qarab, sabrsizlik bilan xabar kutdi. Biz ikkinchi kuni kechqurun Xilton Kyubittndan maktub oldik. Uning xabar qilishicha, xotirjamlik ekan; faqat bugun ertalab quyosh soati o'rnatilgan supachada uzundan-uzun yangi yozuv paydo bo'lipti. Ana shu yozuvning aynan nusxasi maktubga ilova qilingan edi. Mana o'sha yozuv:



Xolms engashib, bu antiqa odamchalarga tikilib o'tirdi-da, birdan ham taajjub, ham jahl bilan «dik» etib turib ketdi. U bezovta va tashvishli ko'rinardi.

– Biz bu ishni ancha o‘tkazib yuboribmiz, – dedi u. – Kechqurun Nort-Uolshemga qanday poyezdlar bor ekan?

Jadvalga qaradim. Oxirgi poyezd hozirgina jo‘nab ketgan edi.

– Ertalab barvaqt nonushta qilib, birinchi poyezdda jo‘nashimizga to‘g‘ri keladi, – dedi Xolms. – Biz, albatta, u yerda bo‘lishimiz shart! Ana! Men kutgan telegramma ham keldi. Bir zungina ketmay turing, missis Xadson, ehtimol, javob yozib yuborishimga to‘g‘ri kelar. Yo‘q, hammasi xuddi men faraz qilganday. Bu telegrammadan ma‘lum bo‘lishicha, mister Xilton Kyubittni endi ortiq g‘aflatda ushlab turishga haqimiz yo‘q, chunki bizning norfolklik soddadil zamindorimiz favqulodda xatarli ahvolga tushib qolgan.

Aynan Xolms aytgandek bo‘lib chiqdi. Men avvaliga tuturuqsiz, alomat ko‘ringan bu mash‘um voqeaning intihosini hikoya qilishga o‘tarkanman, o‘sha paytda boshimdan kechirgan barcha vahima yana ko‘z oldimda gavdalandi. Koshkiydi, kitobxonlarga men, bu voqea yaxshilik bilan tugadi, deb ayta olsam! Lekin mening kitobim dalillardan tashkil topgan aniq solnomadir, shunga ko‘ra, bir necha kundan keyin butun Angliyada dud-dud gap bo‘lgan Ridling-Torp-Menor qo‘rg‘onida yuz bergan alomat voqealar silsilasini to‘noxush yakunigacha bir boshdan kuzatishga majburman.

Bir Nort-Uolshemda poyezddan tushib, qayoqqa borishimizni aytishimiz bilanoq oldimizga bekat boshlig‘i yugurib keldi.

– Sizlar Londondan kelgan izquvarlar bo‘lsangiz kerak-a? – deb so‘radi u.

Xolms unga xavotirlanib qaradi.

– Nega unday deb o‘ylaysiz?

– Negaki norijlik inspektor Martin hozirgina bu yerdan o‘tib ketdi. Balki sizlar shifokordirsizlar? Ayol hali tirik. Ehtimol, uni o‘limdan asrab qolishga ulgurarsiz ham... keyin dorga osish uchun.

Xolms xo‘mraydi.

– Biz Ridling-Torp-Menorga ketyapmiz, – dedi u. – Ammo u yerda nima bo‘lganidan bexabarmiz.

– Dahshat! – dedi bekat boshlig‘i. – Ularning ikkovi: mister Xilton Kyubitt ham, xotini ham otilgan. Xotin oldin erini, keyin o‘zini otgan. Xizmatchi ayollar shunday deyishyapti. Er o‘lgan, xotin chalajon yotipti. Yo tangrim, Norfolk graf-ligida eng qadimiy avlod-a! Bu yerda uni hamma hurmat qilar edi!

Xolms bir og‘iz ham gapirmay, sakrab faytonga chiqdi, u yetti millik yo‘l davomida churq etib og‘iz ochmadi. Men uni bunday noxush kayfiyatda juda kam ko‘rganman. U avvalroq, Londondan chiqqanimizdayoq butun yo‘l davomida ertalabki gazetalarni qandaydir bezovtalik bilan ko‘zdan kechirib kelgan edi; lekin endi uning ko‘nglini g‘ash qilgan shubha kutilmaganda to‘g‘ri bo‘lib chiqqach, butunlay tumshayib oldi. U o‘rindiqa suyangancha, qovoq solib allanimalar haqida o‘ylardi.)

Bu asnoda biz Angliyaning eng diqqatga sazovor yerlaridan o‘tib borardik. Bu o‘lkaning bugungi aholisi tarqoq holda – onda-sonda ko‘zga tashlanuvchi qo‘rg‘onlarda istiqomat qilishar, ammo bu yam-yashil tekislikning har qadamida

cherkovlarning to'rt qirrali ulkan minoralarini uchratish mumkin ediki, bu manzara ko'ha Sharqiy Angliyaning o'tmishda ravnaq topgani, dovruq qozonganidan dalolat berardi.

Nihoyat, yashil jarlikning narigi tomonida nemis dengizining binafsharang sohili ko'rindi, shunda aravakash quyuq daraxtzor ortida qad ko'targan ikkita o'tkir qirrali tomni qamchisi bilan ko'rsatib dedi:

– Ana siz so'ragan o'sha Ridling-Torp-Menor.

Biz uy oldiga yetib keldik; shunda men, avvalo, uy oldidagi tennis maydonchasi orqasida qad ko'targan qora pichanxona bilan supachaga o'rnatilgan quyosh soatini ko'rdim. Xuddi shu payt, mo'ylovini qoraga bo'yab pardoziylan epchil bir odam ikki g'ildirakli izvoshdan chaqqon sakrab tushdi. Bu odam Norfolk politsiya boshqarmasi-ning inspektori Martin edi. U do'stimning ismini eshitib hayron bo'ldi.

– Men taajjubdaman, mister Xolms. Axir jinoyat tonggi soat uchda sodir bo'lgan-ku! Siz London-da turib buning daragini qanday eshitdingiz-u, qanday qilib men bilan bir vaqtda bu yerga yetib kelishga ulgurdingiz?

– Men Xiltonni falokatdan ogohlantirgani kelgan edim.

– Bundan chiqdi, sizda biz bilmagan ma'lumotlar bor ekan-da. Ko'pchilikning fikriga qaraganda, er-xotin juda totuv yashashar ekan.

– Menda faqat raqqos odamchalardan olingan ma'lumotlar bor, xolos, – dedi Xolms. – Bu haqda keyin so'zlab beraman. Men kechikib keldim,

fojianiing oldini ololmadim... Hay, iloj qancha. Bas, shunday ekan, men bilgan ma'lumotlarning adolatli hukm chiqarishga yordam berishini istayman. Siz tergov olib borishda menga hamdam bo'lasizmi? Yoki o'zim mustaqil ish olib borganimni ma'qul ko'rasizmi?

– Siz bilan birga ishlash men uchun ulkan baxt, mister Xolms, – samimiyat bilan javob qildi inspektor.

– Unday bo'lsa, hozirning o'zida guvohlarning ma'lumotini eshitsam hamda jinoyat sodir bo'lgan yerni ko'rsam devdim.

Inspektor Martin farosatli odam ekan: ishni qanday olib borishni do'stimning o'ziga qo'yib berdi. O'zi esa Xolmsning xatti-harakatini diqqat bo'lib kuzatish bilan cheklandi. Hozirgina missis Xilton Kyubittning xonasidan chiqqan shu yerlik shifokor, oppoq soqolli qariya, ayolning ahvoli og'ir, ammo tirik qolishiga umid bor, shunga qaramay, hali-beri hushiga kelmaydi, chunki o'q uning miyasini yalab o'tgan, deb xabar qildi. Missis o'zini-o'zi otibdimi yo boshqa odam otgan o'qdan yaralanganmi, deb berilgan savolga shifokor aniq javob ayta olmadi, harqalay, o'q juda yaqin masofadan otilgani aniq edi. Xonada faqat bitta revolver topilgan; uning ikkala quvuri ham bo'sh ekan. Mister Xilton Kyubitt yuragiga tekkan o'qdan o'lgan. U oldin xotinini otib, so'ng o'zini o'ldirgan deb faraz qilish ham, aksincha, jinoyatchi xotin bo'lgan deyish ham mumkin edi, chunki revolver ikkovidan bir xil masofadagi yerda yotgan edi.

– O'likka tekkaningiz yo'qmi? – deb so'radi Xolms.

– Yo'q. Biz faqat ledini u yerdan ko'tarib olib chiqib ketdik. Zero, uni bunday vaziyatda qoldira olmasdik.

– Bu yerga kelganingizga ko'p bo'ldimi, doktor?

– Tonggi soat to'rtidan beri shu yerdaman.

– Sizdan boshqa yana hech kim keldimi?

– Ha, konstabl kelib ketdi.

– Bu yerda biron narsani joyidan qo'zg'atdingizmi?

– Yo'q.

– To'g'ri qilgansiz. Sizni kim chaqirdi bu yerga?

– Uy xodimasi – Sonders.

– Birinchi bo'lib fojiani sezgan o'sha ekanmi?

– U bilan oshpaz xotin – missis King.

– Ular hozir qayerda?

– Oshxonada bo'lishsa kerak.

– Unday bo'lsa, birinchi navbatda shu ikki ayolning gapini eshitamiz.

Devorlariga eman taxtasi qoplangan, derazalari baland, qadimiy zal tergov xonasiga aylandi. Xolms eskicha bichimdagi kattakon oromkursiga o'tirdi; uning chehrasi badqahr, nigohlari qat'iy edi. Ko'zlari o'zi o'limdan asrab qololmagan odam uchun hech bo'lmasa endi o'ch olish maqsadida jonidan kechishga ham tayyor ekanligini aytib turar edi. Bizning bu antiqa jamoada mendan tashqari yana olifta inspektor Martin, mo'ysafid qishloq shifokori va shu yerlik ovsarnamo polis-men bor edi.

Ikkala ayol bergan ma'lumot aniq va o'xshash edi. Ular o'q ovoizidan uyg'onib ketishgan; ora-

dan bir daqiqa o'tar-o'tmas ikkinchi o'q ovozini eshitishgan. Ularning yotoqxonalari yonma-yon ekan, shunda missis King Sondersnikiga yugurib kiribdi. Ikkovlari zinadan birga tushishibdi. Xona eshigi ochiq, stolda sham yonib turgan ekan. Uy sohibi xona o'rtasida yuztuban yotganmish. U o'lgan ekan. Deraza oldida uning xotini boshini devorga tiragancha jon talvasasida to'lg'anayotgan ekan. Uning jarohati og'ir – bir yuzi qop-qora qonga bo'yalganmish. U nafas olayotgan bo'lsa ham, lekin hech nima deya olmabdi. Yo'lak ham, xona ham tutunga, porox hidiga to'lg'anmish. Deraza berk, ichkaridan ilgaklangan ekan, ikkala ayol ham buni qat'iy ishonch bilan gapirishdi. Ular shu zahoti doktor bilan politsiyani chaqirtirishibdi. Keyin otboqar bilan uning shogirdi yordamida yarador bekani o'z xonasiga olib kirib yotqizishibdi. O'rin solib qo'yilgan, demak, er-xotin uxlagani yotmoqchi bo'lib turgan. Xotinning egnida ko'ylak, er esa ichki ko'ylak ustidan xalat kiygan ekan. Er-xotin hech qachon janjallashmagan ekan. Hamma ularning totuv hayot kechirishiga havas qilarkan.

Xizmatchilardan olingan asosiy ma'lumotlar shulardan iborat. Inspektor Martinning so'rog'iga javoban ayollar, uyning hamma eshiklari ichidan berkitilgan edi, demak, hech bir kimsa uydan chiqib keta olmagan, deb guvohlik berishdi. Ular Xolmsning savoliga javob qaytarishar ekan, ikkinchi qavatdagi o'z xonalaridan chiqishgan zahoti dimog'lariga porox hidi urilganini eslashdi.

– Aynan mana shu dalilga jiddiy e'tibor bering, – dedi Xolms inspektor Martinga. – Endi,



menimcha, jinoyat sodir bo'lgan xonani ko'zdan kechirishimiz lozim.

Xona mo'jazgina xona ekan. Uning uch devorini kitob raflari band qilgan yozuv stoli esa bog'ga ochiladigan deraza oldida turardi. Birinchi navbatda, diqqatimiz baxtiqaro zamindorning yerda uzala tushib yotgan mahobatli jasadiga qaratildi. Ust-boshining nosarishtaligi uning o'rin-dan shosha-pisha turganini bildirardi. O'q uning yuragini teshib o'tib o'pkasida qadalib qolibdi. U hech qanday og'riqni sezmay zumda jon bergan. Uning egnidagi xalatida ham, qo'lida ham poroxning hech qanday izi topilmagan. Qishloq shifokorining ta'kidlashicha, porox dog'i missis Kyubittning qo'lida emas, yuzida topilgan.

– Qo'lda dog'ning yo'qligi hech nimani isbotlamaydi, ammo borligi hamma narsani isbotlaydi, – dedi Xolms. – Agar mabodo yaxshi berkitilmagan fishang<sup>1</sup> dan tasodifan porox to'kilmasa, qancha o'q otmang, qo'lingiz dog' bo'lmaydi... Endi mister Kyubittning jasadini olib ketsalar ham bo'ladi. Siz, doktor, ledini yaralagan o'qni topa olmagan bo'lsangiz kerak-a?

– Buning uchun nihoyatda murakkab operatsiya qilish lozim bo'ladi. Lekin revolverda yana to'rtta o'q qolgan. Ikkita o'q otilgan, jarohat ham ikkita, shunga ko'ra, har ikkala o'qning qismatini aniqlash qiyin emas.

– Sizga shunday tuyilyapti, – dedi Xolms. – Anavi derazani teshib o'tgan o'q haqida nima deysiz?

---

<sup>1</sup> Fishang – patron.

Do'stim shartta burilib, uzun va ingichka bar-mog'i bilan romning pastki ko'ndalang yog'ochi-dagi teshikni ko'rsatdi.

– Yo tavba! – dedi inspektor. – Qanday topdin-giz?

– Men qidirdim, shuning uchun topdim.

– Vo ajab! – dedi qishloq shifokori. – Siz mut-laqo haqsiz, ser: bundan chiqdi, uchta o'q otilgan, demak, uchinchi odam ham bo'lgan. Lekin u kim bo'ldi-yu, qayoqqa yo'qoldi?

– Hozir biz mana shu savolga javob topishga urinib ko'ramiz, – dedi Sherlok Xolms. – Esing-izdami, inspektor Martin, xizmatkor ayollar o'z xonalaridan chiqishganida dimog'lariga porox hidi kirganini aytishgan edi, shunda men sizga, bu dalilga alohida e'tibor berish kerak, deb aytgan edim. Esingizdami?

– Esimda, ser. Lekin ochig'ini aytsam, fikrin-gizni unchalik fahmlay olmagan edim.

– Bu hol eshikning ham, derazalarning ham jinoyat sodir bo'lgan paytda lang ochiq bo'lgani-dan dalolat beradi. Aks holda porox hidi butun uyga bunchalik tez tarqalmagan bo'lar edi. Faqat yelvizak bu hidni shuncha olisga uchirib borgan bo'lishi mumkin. Bu xonada eshik ham, deraza ham ochiq bo'lgan, ammo juda qisqa muddatga ochilgan.

– Nima uchun qisqa muddatga?

– Chunki – mana, o'zingiz ko'ring – shamning bir tomoni xiyolgina erigan, xolos.

– To'g'ri, to'g'ri! – dedi inspektor.

– Fojia paytida derazaning ochiq bo'lganiga ishonganimdan keyin, tashqarida uchinchi odam

bo'lgan va derazaga qarata o'q uzgan, degan xulosaga keldim. Mana shu uchinchi odamga qarata otilgan har qanday o'q, albatta, deraza romiga tegishi kerak edi. Shunda romga tikilib, chindan ham o'q izini topdim.

– Lekin qanday qilib deraza yopilib qoldi ekan?

– Uni ayol yopgan, g'ayriixtiyoriy ravishda yopgan. Yopgan-u, dong qotib qolgan... Iye, bu nima bo'ldi? A!

Xonadagi stolda ustiga kumushdan gul solingan, timsoh terisidan tikilgan ayollarning jajjigina sumkachasi yotardi. Xolms uni ochib, ichidagi narsalarni stolga to'kdi! Ichidan rezina bilan bog'langan yigirmata ellik funtli qog'oz pul tushdi, xolos.

– Buni oling, sudda daliliy ashyo sifatida kerak bo'ladi, – dedi Xolms sumkachani ichidagi pul bilan inspektorga uzatar ekan. – Endi uchinchi o'q kimga qaratilganini aniqlash lozim. Deraza romidagi oshpaz xotin missis King bilan gaplashsam devdim... Siz, missis King, gumburlagan o'q ovozi bilan siz birinchi otilgan o'q ikkinchisidan qattiqroq gumburladi, demoqchi emasmisiz?

– Men uxlab yotgan edim, ser, shuning uchun aniq bir narsa deya olmayman. Nazarimda, o'q juda qattiq gumburlaganday bo'ldi, ser.

– Bu gumburlash, sizningcha, deyarli baravar otilgan ikki o'qning ovozi emasmikin?

– Men buning fahmiga yeta olmayman, ser.

– Shunday bo'lgan, bunga ishonchim komil. O'ylaymanki, inspektor Martin, bu xonada biz

boshqa hech nima bila olmaymiz. Agar men bilan yurishga rozi bo'lsangiz, hozir bog'ga chiqamiz; qaraylik-chi, u yerda diqqatga sazovor biron nima topilib qolarmikin.

Derazaning shundoqqina pasti gulzor ekan. Biz shu yerga yaqin bordik: gullar toptalgan, nam yerda oyoq izlari aniq ko'zga tashlanardi; bu uchi nayza, uzun poyabzal kiygan erkak kishining izi edi. Xolms xuddi yaralangan qushni qidirayotgan tozi itdek o'tlar, yaproqlar orasini titkilardi. Birdan u sevinchdan chinqirib yubordi, engashib yerdan jajjigina mis silindrcha oldi.

– O'zim ham shunday o'ylagan edim! – dedi u. – Pistoletning qaytargichi bo'lgan. Mana uchinchi gilza. Inspektor Martin, endi tergovni deyarli tugadi desak ham bo'ladi.

Bu gapni eshitgan qishloqi inspektor hang-mang bo'lib qoldi: Xolmsdagi tezkorlik va mahoratga qoyil qolgani yaqqol ko'rinib turardi. Avvaliga u o'z fikrini o'tkazishga urinib ko'rgan edi, lekin xiyol vaqt o'tmay, Xolmsning faoliyatiga qoyil qolib, butunlay uning izmida yura boshladi.

– Kimdan shubhalanyapsiz? – deb so'radi u.

– Buni sizga keyinroq aytaman. Bu masala bir necha moddadan iborat, ammo hozircha ularni sizga izohlay olmayman. Ochig'i, mening bu kashfiyotim juda taranglashib ketdi, shunga ko'ra, agar yana biroz sabr qilib, keyin hamma gapni bir yo'la izohlab bersam, oqilona ish bo'ladi, menimcha.

– Ixtiyoringiz, mister Xolms, ishqilib, qatil qo'limizdan chiqib ketmasa bo'lgani.

– Men hech nimani sir tutmoqchi emasman, gap shundaki, qidiruv ishi qizg'in borayotgan paytda ko'zlagan rejamga uzundan uzun va mufassal izoh berib o'tirishning aslo iloji yo'q. Mazkur jinoyatni fosh etuvchi dalillar qo'limda. Ledi hech qachon hushiga kelmagan taqdirda ham, bu tunda yuz bergan barcha voqealarni tiklaymiz va jinoyatchini odil sud hukmiga albatta topshiramiz. Eng avval men shuni bilmoqchi edim: bu yaqin o'rtada Elrij degan odam yo'qmi?

Bu haqda xizmatkorlardan so'rab, surishtira boshlashdi, lekin hech kim bunday odamning daragini eshitmagan ekan. Faqat otboqarning shogirdi birdan eslab qoldi:

– Bu yerdan bir necha mil narida, Ist-Restonga yaqin joyda Elrij degan fermer yashaydi.

– Uning fermasi boshqalarnikidan chetdami?

– Ha, ancha ovloq yerda, ser.

– Demak, bugun kechasi bu yerda yuz bergan voqealardan Elrij fermasidagilar bexabar bo'lishlari ham mumkindir-a?

– Ha, eshitmagan bo'lishlari kerak, ser.

Xolms o'ylanib qoldi, so'ng birdan chehrasida mug'ambirona jilva paydo bo'ldi.

– Qani, otni egarla, yigitcha! – dedi u. – Men xat yozaman, uni Elrij fermasiga eltib berasan.

Xolms cho'ntagidan raqqos odamlarning tasviri tushirilgan bir necha varaq qog'oz oldi. So'ng xonaga kirib, ularni stol ustiga yoydi-da, o'tirib ishga tushib ketdi. Nihoyat xat tayyor bo'ldi; Xolms uni otboqar shogirdining qo'liga tutqazib, buni xatda nomi yozilgan odamning shaxsan o'z

qo'liga topshirasan, lekin hech qanday savolga javob bermaysan, deb tayinladi. Xat ustidagi manzilga ko'zim tushdi – u Xolmsning odatdagi ravon dastxatiga mutlaqo o'xshamas, qing'ir-qiyshiq harflar bilan aji-buji qilib yozilgan edi. Manzilda «Norfolkdagi Ist-Reston, Elrij fermasi, mister Ab Sleniga» degan so'zlar bor edi.

– Menimcha, inspektor, – dedi Xolms, – siz hozir telegraf orqali soqchi chaqirtirishingiz kerak, chunki agar taxminim to'g'ri chiqsa, o'ta xafvli jinoyatchini viloyat qamoqxonasiga jo'natishingiz lozim bo'ladi. Xatimni olib ketayotgan bola bir yo'la sizning telegrammangizni ham jo'natishi mumkin. Biz shaharga tushdan keyin o'tadigan poyezdda qaytamiz, Uotson, chunki bugun kechqurun men bir qiziqarli kimyoviy tajribamni, albatta, nihoyasiga yetkazishim kerak. Bizni bu yerga boshlab kelgan ish esa hademay yechiladi.

Shogird bola ot choptirib ketgandan keyin Sherlok Xolms hamma xizmatkorlarni yig'di.

– Bu xonadonga tashrif buyurgan va missis Xilton Kyubittni ko'rishni istagan har qanday odamni darhol to'g'ri mehmonxonaga boshlab boringlar, – deb tayinladi u. – Lekin bu yerda sodir bo'lgan voqea haqida churq etib og'iz ocha ko'rmanglar. Buyrug'imni mutlaqo bexato bajarishingizni talab qilaman.

Keyin u mehmonxona sari yo'l olarkan, endi qolgan ishni bizsiz bajaraverishadi, bizning vazifamiz tuzog'imizga qanday ilinishini sabr qilib kutishdan iborat, deb ilova qildi. Doktor bemorlarni davolagani jo'nab ketdi. Xolmsning oldida faqat men-u, inspektor qoldik.

– Endi siz bilan biz qolgan vaqtni qiziqarli va samarali o‘tkazishga urinib ko‘ramiz, – dedi Xolms stulini stolga yaqin surib o‘tirarkan; u yonidan raqqos odamchalarning tasviri tushirilgan bir taylay qog‘oz olib, stol ustiga yoydi. – Azizim, Uotson, sizning oldingizda o‘z aybimni yuvishim kerak: men sinchkovligingizni qo‘zg‘ab qo‘ydim-u, lekin jumboqning sirini ochmay, uzoq vaqt g‘ashingizga tegdim. Siz uchun esa inspektor, bu ishlar kasbingizni takomillashtirishda g‘oyat ajoyib saboq bo‘ladi. Dastavval, men sizga mister Xilton Kyubitt bilan Beyker-stritdagi uchrashuvlarim haqida so‘zlab berishim kerak.

Shundan keyin u bizga ma‘lum bo‘lgan voqealarni inspektorga qisqacha so‘zlab berdi.

– Mana, ko‘z oldimda alomat rasmlar yotibdi, agarda bular dahshatli fojia darakchisi bo‘lmaganida, ko‘rgan odamning kulgisini qistatardi. Men xufiya yozuvlarning barcha turlarini bilaman, o‘zim ham bu sohada kichik ilmiy ish yozib, unda bir yuz oltmishta turli xil shifrlarni tahlil qilganman, biroq bu shifrnig men uchun mutlaqo begona ekanligini e‘tirof etmay ilojim yo‘q. Ushbu usulni kashf etgan odamning ko‘zlagan maqsadi, chamasi, bu belgilarni yozuv ekanligini sir saqlash va ularni bolalar chizgan surat deb ko‘rsatish bo‘lsa kerak. Lekin bu belgilar harflarni ifodalashini fahmlagan har bir odam, agar shifrlarni o‘qiy olishning oddiy qoidalaridan foydalansa, ularning mazmunini osongina bilib olishi mumkin. Birinchi yozuv qisqagina edi, undan men faqat bittagina taxminga keldim: shukrki, bu taxminim keyincha-

lik to'g'ri bo'lib chiqdi. Men rasmdagi bayroqlarni nazarda tutyapman. Ular faqat har bir so'z oxirida ishlatilar ekan. Birinchi yozuvdan boshqa hech nima aniqlay olmadim. Menga yana yangi material kerak edi. Mister Xilton Kyubitt ikkinchi marta tashrif buyurganida yana uchta yangi yozuv olib keladi; uchinchi yozuv, chamasi, birgina so'zdan iborat bo'lsa kerak, chunki unda bayroqcha yo'q edi. Xatlarning qolgan ikkitasi, shubhasiz, to'rt harfdan iborat bir xil so'z bilan boshlangan edi. Mana o'sha so'z:



Ko'rib turibsizki, bu so'z qanday harf bilan boshlangan bo'lsa, shunday harf bilan tugayapti. Shunda miyamga birdan ajoyib bir fikr keldi. Ko'pincha xat kimga qaratilgan bo'lsa, o'sha odamning ismi bilan boshlanadi. Missis Kyubittga bu antiqa xatlarni yozayotgan odam, shubhasiz, uning yaqin tanishi bo'lishi kerak. Demak, to'g'ridan to'g'ri uning ismini yozib murojaat qilgan bo'lishi tabiiy hol. Ayolning ismi esa to'rtta harfdan iborat va u qanday harf bilan boshlansa, shunday harf bilan tugaydi: ya'ni uning ismi Ilsi. Shunday qilib, men uchta harfni kashf etdim. Bular: I, L, va S.

Qisqasi, u odam o'zining ikkita xatida missis Kyubittga uning ismini yozib murojaat qilgan va undan, bilishimcha, nimanidir talab qilayotgan edi. Xo'sh, u nima talab qilishi mumkin? Missis



Kyubitt bilan suhbatlashish uchun uni biron yerga chaqirmayaptimikin? Shunda men uchinchi yozuvdagi ikkinchi soʻzga eʼtibor berdim. Mana u:



Bu soʻz yettita harfdan iborat: uning uchinchi va oxirgi harflari – L. Men buni «KELA QOL» degan soʻz boʻlsa kerak deb taxmin qildim, natijada yana beshta yangi harf kashf etdim. Bular K, E, A, Q, O. Shundan keyin faqat birgina soʻzdan tashkil topgan yozuvni tahlil qila boshladim. Sizga maʼlumki, bu yozuv pichanxona eshigining pastki qismida, oldingi yozuvdan ancha chekkada paydo boʻlgan edi. Men bu soʻzni missis Kyubittning javobi deb faraz qildim. Mana oʻsha soʻz:



Odamchalar tagiga bizga maʼlum boʻlgan harflarni qoʻyib chiqqan edim:

ASLO

degan soʻz paydo boʻldi.

Men ancha-muncha harfni bilib olgan edim, demak, endi eng oldingi yozuvga qaytishim mumkin. Mana oʻsha yozuv:

Agar bu yozuv ostiga tanish harflarni qoʻyib chiqsak, quyidagi belgilar paydo boʻladi:

.E. KEL.I.A.SLE.I

Oxirgi soʻzni «SLENI» deb faraz qilaylik. Bu familiya Amerikada juda keng tarqalgan. Bu familiya oldidagi ikkitagina harfdan iborat qisqa soʻz, taxminimizcha, ism boʻlsa kerak. Xoʻsh, qanday ism ikki harfdan iborat boʻlishi va «A» bilan boshlanishi mumkin? Amerikada «Ab» degan ism juda koʻp uchraydi. Mana, AB SLENI degan ism va familiya hosil boʻldi. Endi ikkinchi soʻzga qaytaylik. Bu soʻzda ikkita harf yetishmayapti. Agar uni «KELDIM» degan soʻz deb faraz qiladigan boʻlsak, birinchi soʻz, oʻz-oʻzidan «MEN» olmoshi boʻlib chiqadi. Demak, eng birinchi xatda: «MEN KELDIM, AB SLENI», degan soʻzlar yozilgan ekan. Endi harflarga ancha boyib qolganimdan keyin ikkinchi xatni hech qiynalмай oʻqidim. Unda shunday yozilgan edi: «ILSI, MEN EL.I.NIKIDAMAN». Maktub egasi oʻzining kimningdir uyida yo mehmonxonasida turganini xabar qilgan. Men «EL,I,» soʻzida yetishmagan ikki harfni R va J deb taxmin qilib, ELRIJ familiyasini kashf qildim, zero, bunday familiya bizda koʻp uchrab turadi. Natijada: «ILSI, MEN ELRIJNIKIDAMAN» degan jumla hosil boʻldi.

Inspektor Martin bilan men doʻstimning raqqos odamchalar sirini qanday ochgani haqidagi muassal va aniq izohini zoʻr eʼtibor bilan tingladik.


– Keyin nima qilardingiz, ser? – deb soʻradi inspektor.

– «AB» degan ism faqat Amerikada maktub kelishi bilan boshlangani sababli, Ab Slenini amerikalik deb taxmin qilishimga yetarli asos paydo boʻldi. Undan tashqari, men bu ishning zamirida

qandaydir jinoyat bo'lishi kerak deb gumon qila boshladim. Bunday gumon qilishimga missis Kyubittning o'z o'tmishini eridan astoydil yashirishga uringani sabab bo'ldi. Men Nyu-York politsiyasi boshlig'i mister Kilson Xargrivga telegramma yuborib, undan Ab Slenining kimligini so'radim. Biz mister Xargriv bilan ko'pdan muloqot qilamiz: men unga London jinoiy muhiti haqida ma'lumotlar berib turaman. Ab Sleni to'g'risida u shunday javob qildi: «Chikagoda eng xafvli bandit». Bu javobni olgan kunim kechqurun Xilton Kyubitt menga Slenining oxirgi yozuvini yuborgan edi. Men bu raqqos odamchalar tagiga tanish harflarni qo'ygach, shunday jumla hosil bo'ldi:

#### ILSI AJALIN. YE.DI

Natijada yana ikkita yangi harfni: shu paytgacha uchramagan G va T harflarini bilib oldim. Xatda «ILSI, AJALING YETDI!» deb yozilgan edi. Demak, u ablah iltimos qilishdan po'pisaga o'tibdi. Menga ma'lumki, chikagolik banditlar aytganini qilmay qo'yishmaydi. Shu zahoti do'stim va yordamchim doktor Uotson bilan birgalikda Norfolkka yo'l oldim, lekin baxtga qarshi, biz falokat yuz berib bo'lgandan keyin yetib keldik.



– Siz bilan birga ishlab jinoyatlarni fosh qilish – katta baxt, – dedi inspektor ehtiyom bilan. – Lekin ijozatingiz bilan, sizga bir-ikki og'iz samimiy gapimni aytsam. Siz o'zingiz uchun o'zingiz javob berasiz,

men bo'lsam boshliqlarim oldida javob beraman. Agar Elrijnikida turgan anavi Ab Sleni haqiqiy qotil bo'lsa-yu, men bu yerda o'tirgan paytimda qochib ketsa, boshimga ko'p yomon ko'ngilsizliklar tushishi mumkin.

– Siz aslo bezovta bo'lmang: u qochishni xayoliga ham keltirmaydi.

– Qayoqdan bilasiz?

– Qochish – aybiga iqror bo'lish demak.

– Unday bo'lsa, yuring, borib hibsga olaylik uni.

– Men uni shu yerda kutaman: hademay kelib qoladi.

– Nega endi uni keladi deb o'ylayapsiz?

– Men unga xat yozib, kelishini iltimos qildim.

– Men bunga ishona olmayman, mister Xolms!

Nahotki u, iltimosingizni yerda qoldirmay huzuringizga kelsa? Aksincha, maktubingiz unda shubha uyg'otmasmikin, natijada o'zini panaga olishga urinmasmikin?

– Hamma narsa xatni qanday yozishga bog'liq,

– dedi Sherlok Xolms. – Agar yanglishmasam, o'sha jentlmen hov anavi yo'lkadan biz tomonga o'z oyog'i bilan kelyapti.

Darhaqiqat, uyga keladigan yo'lkadan bir odam kelar edi. Bu egnida kulrang kostyum, boshiga keng soyabonli shlyapa kiygan qoramag'izdan kelgan, quyuq soqoli tim qora, kattakon qirg'iy burunli, bo'yi daroz, xushbichim yigit edi. U qo'lidagi hassasini o'ynatib kelarkan, o'zini xuddi tevarak-atrofning xo'jayinidek tutardi. Nihoyat, eshik qo'ng'irog'i qattiq jiringladi.

– Menimcha, jentlmenlar, – dedi Xolms xotirjam ohangda, – sizlar eshik orqasiga yashirinishingiz

kerak. Bunday odam bilan to'qnashganda barcha ehtiyot choralarini qo'llamoq lozim. Inspektor, qo'lkishanni tayyorlab turing. U bilan gaplashishni menga qo'yib beringlar.

Butun bir daqiqa sukutda o'tdi – bunday daqiqani hech qachon unutib bo'lmaydi. Keyin eshik ochilib, mehmonimiz xonaga kirdi. Shu lahza-ning o'zida Xolms uning peshanasiga to'pponcha tiradi, Martin esa uning bilaklariga kishan soldi.

Bularning hammasi shu qadar chaqqonlik va epchillik bilan bajarildiki, asirimiz hamla qiluvchilarni ko'rmasdanoq tutqunga aylangan edi. U cho'g'dek yonib turgan qora ko'zlarini dam Xolmsga, dam inspektorga qaratdi-da, so'ng birdan achchiq alam bilan kuldi.

– Qoyil, jentlmenlar, bu safar meni ilintirdinglar! Nazarimda, temir irodali odamga to'qnash kelganga o'xshayman... Biroq meni bu yerga missis Xilton Kyubitt xat yozib taklif qilgan edi... Yo'q, gapirmanglar, uning sizlar bilan til birlashtirganiga aslo ishonmayman. Nahotki, meni shu tuzoqqa ilintirishda uning qo'li bo'lsa?

– Missis Xilton Kyubitt og'ir yaralangan, u o'lim to'shagida yotibdi.

Mahbus chinqirib yubordi, uning bu alam to'la nolasi butun uyni larzaga keltirdi.

– Bekorlarni aytibsiz! – deb baqirdi u jon holatda. – U emas, eri yaralangan! Nahotki jajji Ilsini yaralashga bironta odamning hadi sig'sa? To'g'ri, men unga po'pisa qilganman, buning uchun Xudo kechirsin meni, ammo bu go'zal juvonne hatto chertishga ham qo'lim bormasdi. Hey, siz-

ga aytyapman – bu so‘zingizni qaytib oling! Ilsi yaralanmagan, deb ayting.

– Uni erining o‘lik jasadi yonida og‘ir yarador holda topdik.

Ab Sleni ayanchli ingrab, divanga o‘tirdi va qo‘llari bilan yuzini berkitdi. Shu alpozda u besh daqiqacha churq etmay o‘tirdi. So‘ng yuzini ochib, nochor ahvolga tushgan odamga xos xotirjam gapira boshladi:

– Sizlardan yashiradigan gapim yo‘q, jentlmenlar, – dedi u. – To‘g‘ri, men mister Xiltonga o‘q uzdim, ammo u ham menga qarata o‘q otgan edi-da, demak, buni qotillik deb bo‘lmaydi. Agar sizlar o‘sha ayolni otishga meni qodir deb o‘ylasanglar, demak, meni ham, uni ham yaxshi bilmas ekansizlar.

Dunyoda hech bir erkak hech qaysi ayolni men Ilsini sevganchalik sevgan emas. Men uni o‘zimniki deyishga to‘la haqqim bor edi. U ancha yil bu- run menga atalib qo‘yilgan edi. Xo‘sh, anavi ingliz nimaga asoslanib o‘rtamizga g‘ov bo‘ldi? Birinchi bo‘lib Ilsi menga va‘da qilingan edi, demak, men o‘zimga tegishli ayolni talab qilgan edim.

– U ayol kimligingizni bilgandan keyin sizdan yuz o‘giran, – dedi jahl bilan Xolms. – U sizdan yashirinish maqsadida Amerikadan Angliyaga qochgan va bu yerda o‘z baxtini topib, izzat-e‘tiborli bir zot bilan turmush qurgan. Siz bo‘lsangiz unga tahdid qilgansiz, uni muttasil ta‘qib etib, sho‘rlikning hayotini jahannamga aylantirgansiz, sevikli eridan voz kechishga va siz bilan birga qochishga majbur qilgansiz... Lekin u sizdan

qoʻrqar, nafratlanar edi. Shunda siz bir oliyjanob insonni otib oʻldirgansiz, uning xotinini oʻz joniga qasd qilish darajasiga olib kelgansiz. Mana sizning koʻrsatayotgan xizmatlaringiz, mister Ab Sleni, bu qilmishlaringiz uchun endi javob berishingizga toʻgʻri keladi.

– Agar Ilsi oʻlsa, unda men uchun hayotning sariq chaqalik qiymati qolmaydi: meni nima qilsanglar ham baribir, – dedi amerikalik.

U mushtini yozib kaftida yotgan xatni koʻrdi.

– Menga qarang, mister, – deb birdan chinqirib yubordi u, koʻzlari shubhali porladi, – siz meni laqillatib qoʻrqitmoqchi emasmisiz, mabodo? Agar ledi ogʻir yarador boʻlsa, unda bu xatni kim yozdi?

Shunday deb u xatni stol ustiga otdi.

– Uni men yozdim, maqsad: sizni bu yerga kelishingiz edi.

– Rostdan-a? Siz yozdingizmi uni? Axir bu raqqos odamchalar sirini bizning toʻdamiz aʼzolaridan boshqa butun yer kurrasida bironta ham odam bilmaydi-ku. Siz uni qanday yozdingiz?

– Odamzod kashf etgan narsani inson bolasi tushunib olishi muqarrar, – dedi Xolms. – Ana keb<sup>2</sup> kelyapti, sizni bu kebda Norijga joʻnati-shadi, mister, aybingizni yumshatish uchun imkoniyat bor sizda. Missis Xilton Kyubittni juda ogʻir jinoyatga qoʻl urgan, yaʼni oʻz erini otib oʻldirgan deb gumon qila boshlashgan edi, faqat mening bu yerda boʻlishim va izlab topgan maʼlumotlarim ledini bunday aybdan ozod

---

<sup>2</sup> Keb – izvosh, fayton.

qildi – shu narsadan xabaringiz bormi? Endi siz mister Xiltonning fojiali o'limida xotinining ham bevosita, ham bilvosita aybi yo'qligini butun dunyoga ovoza qilishingiz shart.

– Men ham shunday qilmoqchiman, – dedi amerikalik. – Bilsam, faqat chin haqiqatni gapirganim ma'qulga o'xshaydi. Sizlarga ma'lum bo'lsinki, jentlmenlar, men bu ledi bilan tanishganimda, u hali go'dak qizaloq edi. Chikagoda tuzgan to'damiz yetti kishidan iborat bo'lib, IIsining otasi boshlig'imiz edi. Qariya Patrik juda aqlli odam edi! Bolalarning aji-buji suratini eslatuvchi va endilikda siz o'qishning yo'lini topgan o'sha harflarni shu chol kashf etgan edi. IIsi bizning ba'zi ishlarimizni sezib qolib, dahshatdan sochlari tikkaydi, uning o'z mehnati bilan jamg'argan oz-moz puli bor edi, ana shu pulini ishlatib, Londonga qochib keldi. Biz u bilan unashtirib qo'yilgan edik, agar kasbimni o'zgartirganimda, u menga turmushga chiqqan bo'lar edi. O'zgartirmaganim uchun u mendan butunlay yuz o'girdi. IIsi anavi inglizga turmushga chiqqanidan keyingina uning qayerdaligini bilib oldim. Unga maktub yozdim, ammo javob bo'lmadi. Shundan keyin o'zim bu yerga keldim, yozgan xatlarim IIsining qo'lga tegmasligi mumkinligini bilib, uning ko'zi tushadigan yerlarda sirli xat yozib qoldira boshladim.

Men bu yerda bir oydan beri turibman. Bir fermaga joylashganman. Men ijaraga olgan xona birinchi qavatda: kechalari uy sohibiga sezdirmay tashqariga chiqishim uchun juda



qulay. Ilsini o'z tomonimga og'dirish uchun rosa urindim. Men yozib qoldirayotgan raqqos odamchalarni Ilsi o'qiyotganini bilardim, chunki bir kuni men o'z yozuvim ostida u yozgan javobni o'qidim. Nihoyat toqatim toq bo'lib, uni qo'rqita boshladim. Shundan keyin u menga xat yubordi: xatida menga iltijo qilib, bu yerdan jo'nab ketishimni, agar eri biror mojaroga yo'liqsa, qalbi chilparchin bo'lishini yozipti. Yana u o'z xatida, agar uni tinch qo'yib, yurtimga jo'nab ketishga so'z bersam, eri uyquga ketgandan keyin tungi soat uchda deraza orqali men bilan suhbatlashishga rozi bo'libdi.

Keyin u men bilan suhbatlasha turib, mendan qutulish uchun pul taklif qila boshladi. Bu taklifi g'azabimni qaynatdi, shunda uning bilagidan ushlab deraza orqali tortib olmoqchi bo'ldim. Xuddi shu mahal qo'lida to'pponcha bilan eri yugurib keldi. Ilsi hushidan ketib yerga yiqildi-yu, biz – ikki raqib yuzma-yuz to'qnashdik. Men ham qurollangan edim, uni cho'chitish va shu yo'l bilan qochib qolish maqsadida revolverimni unga o'qtaldim. U menga o'q uzdi, lekin o'qi xato ketdi. Men ham deyarli u bilan bir paytda o'q uzdim, u «gurs» etib quladi. Shunda men bog'ni tikka kesib qocha boshladim, orqamda derazaning «qars» etib yopilgani eshitildi... Shularning hammasi rost gap, jentlmenlar, lekin undan keyin to anavi yigitcha ot choptirib borib, qo'limga xat tutqizguncha nimalar bo'lganidan mutlaqo bexabarman. Men xatni o'qigan zahotim bu yoqqa yugurib keldim, keldim-u, qo'lingizga tushdim...

Bu asnoda uy oldiga keb kelib to'xtadi: unda ikki nafar polismen o'tirardi.

Inspektor Martin o'rnidan turib, mahbusning yelkasiga ohista qo'lini tekkizdi.

– Jo'nash kerak.

– Ketish oldidan Ilsini bir ko'rsam devdim, mumkinmi?

– Yo'q, u hali ham behush yotibdi... Mister Sherlok Xolms, mening birdan bir umidim shuki, agarda zimmamga birorta yirik ishni tergov qilish tushsa-yu, yana siz bilan birga ishlasam, o'zimni benihoya baxtiyor hisoblagan bo'lar edim.

Biz deraza oldida turarkanmiz, uzoqlab bo-rayotgan kebni kuzatardik. Orqamga o'girilib, jinoyatchi stol ustida qoldirgan qog'ozni ko'rdim. Bu Xolmsning Ab Sleniga yuborgan xati edi.

– Qani, Uotson, o'qishga urinib ko'ring-chi, – dedi jilmayib do'stim.

Xatga quyidagi raqqos odamchalarning tasviri tushirilgan edi:



– Agar izohim esingizda bo'lsa, bu yerda «JADAL YETIB KEL», degan so'zlar yozilgan. Taklifnomam uni bu yerga boshlab kelishiga hech shubham yo'q edi, zero, u missis Kyubittdan boshqa hech kim bunaqa xat yoza olmasligiga mutlaqo ishonar edi. Qisqasi, azizim Uotson, uzoq vaqt yovuzlikka xizmat qilib kelgan bu odamchalarni biz nihoyat ezgulik uchun xizmat qilishga majbur etdik...

Menimcha, bu ishim bilan sizning kitobingizni yana bir sarguzasht bilan boyitaman deb bergan va'damning ustidan chiqdim. Poyezdimiz soat uch-u qirqda jo'naydi, demak, biz Beyker-stritga ayni tushki ovqat paytiga yetib boramiz.

Hikoyam nihoyasida yana ikki-uch og'iz so'z aytmoqchiman. Amerikalik Ab Sleni Norij shahri sudining qishki sessiyasida o'limga hukm qilindi. Lekin gunohni yengillashtiruvchi jihatlarni hamda birinchi bo'lib unga Xilton Kyubitt o'q uzganini e'tiborga olib, sud o'lim hukmini surgun bilan almashtirdi. Endi missis Xilton Kyubitt masalasiga kelsak, menga ma'lum bo'lishicha, u tamomila sog'ayib ketgan, hali ham beva, butun hayotini qashshoqlarga g'amxo'rlik qilish hamda erining mulkini boshqarishga bag'ishlagan, deyдилar.

### **TILLA BANDLI PENSNE**

Bizning 1894-yildagi faoliyatimiz haqida qalin-qalin uchta jild material yig'ilgan. Shuni e'tirof etishim kerakki, bu olam-olam materiallar ichidan mazmunan o'ta qiziqarli va ayni paytda do'stimning g'ayritabiiy qobiliyatini keng yoritib bera oladigan voqealarni tanlab olish juda mushkul edi. Men yozuvlarimni taraddudlanib varaqlayman. Mana, jirkanch qizil zaluk voqea-si: eslasang, dahshatdan butun vujuding titrab ketadi, bunisi bankir Krosbining mudhish o'limi haqida. Eltonda yuz bergan fojia ham, qadimiy tuproq-qo'rg'onda topilgan antiqa topilma ham shu yilning mahsuli. Smit-Mortimerning

merosi haqidagi mashhur ish ham shu paytda sodir bo'lgan. Xiyobonlarni o'ziga maskan qilgan qotil Yure ham aynan shu yili ta'qib qilinib, qo'lga tushirilgan edi – bu xizmati uchun Xolms Fransiya prezidentidan tashakkurnoma hamda Faxriy legion nishonini olgan edi. Bu hodisalarning hammasi ham kitobxonlar diqqatini o'ziga tortishi muqarrar, lekin umuman olganda, menimcha, ularning biron-tasi ham o'zining qiziqarli jihati bilan Yoksli-Old-pleysda sodir bo'lgan hodisaga teng kela olmaydi. Bu bilan men nafaqat yosh yigit Uilloubi Smitning fojiali o'limini, balki shuningdek, bu o'limdan keyin ro'y bergan voqealarni ham nazarda tutaymanki, aynan shu voqealar jinoyat sababini nihoyatda g'aroyib tarzda yoritib bergan edi.

Noyabr oyining oxirlari edi. Havo aynib, bo'ron ko'tarilgan bir oqshomda Xolms ikkovimiz Beyker-stritdagi uyimizning mehmonxonasida o'tirardik. Men jarrohlik ilmi bo'yicha qilingan so'nggi tadqiqotlarni muk tushib o'rganar, Xolms bo'lsa shishasi juda qalin zarrabin<sup>3</sup> orqali palimpsest<sup>4</sup>dagi dastlabki yozuv qoldiqlarini o'qishga urinardi. Biz sukut saqlardik, chunki har qaysimiz o'z ishimiz bilan mashg'ul edik. Yomg'ir shiddat bilan deraza oynalarini savalar, shamol esa Beyker-strit uzra uvillab esardi. Qiziq manzara, shunday emasmi? Biz azim shaharning qoq markazida edik, binobarin, atrofimizdagi o'n

<sup>3</sup> Zarrabin – lupa.

<sup>4</sup> Palimpsest – pergamentdagi yuvilib ketgan yo qirib tashlangan matn ustidan qayta yozilgan qo'lyozma.

mildan ko'proq masofaga jo bo'lgan, odamzod qo'li bilan yaratilgan buyumlar bizni qurshab olgan va ayni vaqtda tabiatning qahhor qubyasi asir etgan edi; bu qubba oldida butun London ko'rsichqon uyasi ustiga uyilgan tepachadek bir narsa edi, xolos. Men deraza oldiga borib, huvillab yotgan ko'chaga qaradim. Fonuslarning shu'lasini ko'cha va yo'lkaning u yer-bu yerida halqob bo'lib qolgan yomg'ir suvi sathida behisob chiroqchalar bo'lib aks etardi. Bitta keb Oksford-stritdan chiqib, g'ildiraklari halqoblarni shaloplatib o'tdi.

– Ha, Uotson, yaxshiyamki, bunday oqshomda hech qayoqqa borishimiz kerak emas, – dedi Xolms zarrabinni chetga qo'yib, ko'hna qo'lyozmani naycha qilib o'rarkan, – bugunga yetar. Bu ish ko'zni tez toliqtiradi. Fahmimcha, bu o'n beshinchi asrning ikkinchi yarmida yozilgan abbatlikka taalluqli hisob-kitob hujjatidan bo'lak narsaga o'xshamaydi. Iye, to'xtang-chi. Bu nima bo'ldiykin? – do'stimning bu oxirgi so'zlarni aytishiga sabab, shamolning uvillashi aralash qulog'imizga ot tuyoqlari taraqlashi, so'ngra g'ildirakning yo'lka qirrasiga urilib g'ijirlagani eshitilgan edi. Chamasi, men boya derazadan ko'rgan keb uyimiz eshigi oldida to'xtagan bo'lsa kerak.

Ha, kebdan kimdir tushdi.

– Shu bemahalda nima kerak ekan bu odamga? – deb ajablandim.

– Nima kerak bo'lardi? Biz kerakmiz unga. Biz esa bechora do'stim, Uotson, bo'ynimizga sharf o'rab, egnimizga palto, oyog'imizga kalish, qisqasi, yog'ingarchilik paytida kiyish uchun odam bola-

si o'ylab chiqargan barcha liboslarni kiyishimiz lozimga o'xshaydi. To'xtang-chi! Keb jo'nab ketyapti. Endi uydan chiqmaslikka umid bor. Agar kelgan odam bizni olib ketmoqchi bo'lganida, kebni jo'natib yubormasdi. Tushib eshikni ochi-shingizga to'g'ri keladi, chunki bu paytda hamma tamizli odamlar mast uyquda.

Yo'lakda chiroq shu'lasini tungi mehmonimizning yuzini yoritdi. Men bir ko'rishdayoq uni tanidim. Bu istiqboli porloq navqiron izquvar Stenli Xopkins bo'lib, Xolms uning xizmat faoliyatini qiziqish bilan kuzatib borardi.

– Uydami? – deb so'radi Xopkins.

Yuqoridan Xolmsning:

– Ha, ha, uydaman, ser, – degan ovozi eshitildi.

– Harqalay, shunday kechada bizni biron yerga sudrab ketmassiz deb o'ylayman.

Izquvar yuqoriga ko'tarildi. Chiroq yorug'ida uning plashi xuddi baliqning ho'l tangachalaridek yaltirardi. Xolms kaminga qalangan palyonlarni titkilash bilan ovora bo'lganida, men Xopkinsning yechinishiga ko'maklashdim.

– Qani, buyoqqa keling, azizim Xopkins, oyoqlaringizni olovga tuting, – dedi u. – Mana sizga sigara, doktorimizda esa tarkibida qaynoq suv va limon bo'lgan ajoyib shifobaxsh dori bor. Bunday rutubatli tunda undan yaxshiroq darmondori topilmaydi. Shunday jala quyib turgan paytda sizni uydan chiqishga juda muhim bir ish majbur etgan bo'lsa kerak, a?

– Topdingiz, mister Xolms. Bugungi kunim juda behalovat o'tdi-da! Siz Yoksli voqeasi haqida so'nggi yangiliklarni o'qigandirsiz?

– Men bugun o‘qigan so‘nggi yangiliklar o‘n beshinchi asrga taalluqli.

– Hechqisi yo‘q. O‘sha xabar atigi bir bandgina edi, xolos, u ham g‘irt yolg‘on gaplardan iborat, aytmoqchimanki, agar o‘qimagan bo‘lsangiz, hech nima yo‘qotmabsiz. Ochig‘ini aytsam, men vaqtni bekor o‘tkazmadim. Yoksli Kent viloyatiga joylashgan, u Chatamdan yetti milya va temir yo‘ldan uch milya masofada. Telegramma qo‘limga soat uch-u chorakda tegdi, soat beshda Yokslida edim. U yerda tergov o‘tkazib bo‘lib, oxirgi poyezd bilan Londonga qaytib keldim-u, Charing-Kross bekatidan to‘g‘ri huzuringizga kelaverdim.

– Gapingizdan ma‘lum bo‘lishicha, sizga ba‘zi narsalar oydin emas.

– Ba‘zi narsalar? Yo‘q, menga hech nima oydin emas. Bunaqa chalkash ishni hech qachon uchratmaganman. Lekin oldiniga, bu ish oppason, uni yechish hech gap emas, deb o‘ylagandim. Gap shundaki, jinoyatning sababi yo‘q, mister Xolms. Mana shu sababning yo‘qligi menga hech tinchlik bermayapti! Odam o‘ldirilgan, buni inkor etib bo‘lmaydi, lekin kim uning o‘limini xohlagan – shu narsa jumboq bo‘lib qolyapti.

Xolms sigarasini yondirib, oromkursiga suyandi.

– Bir boshdan so‘zlab bering, – deb taklif qildi u.

– Hamma dalillarni mufassal o‘rganib chiqdim, – deb hikoyasini boshladi Stenli Xopkins, – lekin o‘sha dalillarning ma‘nosiga tushunishni istardim. Bundan bir necha yil burun shahar tashqarisidagi Yoksli-Old-pleys uyi o‘zini professor

Krem deb tanitgan bir odam tomonidan ijaraga olingan. Professorning dardi ancha og'ir. U goh to'shagidan turmay yotar, goh hassa tayanib uy ichida sudralib yurarkan, yo bo'lmasa, bog'bon uni aravachaga o'tqazib bog'da sayr qildirarkan. Qo'shnilar bilan totuv ekan, ular professorni ko'rgani kirib turisharkan. Odamlar uni juda donishmand odam deyishyapti. Professorning uyida xizmat qiluvchilar: ro'zg'or sohibasi keksa missis Marker bilan oqsoch Syuzen Tarltonlardan iborat. Ular professor shu uyga ko'chib kelgan vaqtdan uning xizmatida, ikkovlari ham mutlaqo bequsur. Professor qandaydir ilmiy ish yozayotganmish. Bundan bir yilcha burun u o'ziga kotib zarurligini aytgan. Ishlagani kelgan kotiblarning dastlabki ikkitasi unga ma'qul bo'lmagan, lekin uchinchi – endigina dorilfununni bitirgan yosh yigit mister Uilloubi Smit aynan professor orzu qilgan kotib bo'lib chiqadi. U ertalablari professor aytib turgan ilmiy ishni yozgan, kechqurunlari esa ertangi ish uchun materiallar tanlagan. Bu Smit biron marta bo'lsin, na Appingemda o'qigan paytida, na Kembrij dorilfununida mutlaqo yomon yo'lga kirmagan. Men unga berilgan tavsifnomalarni ko'zdan kechirib chiqdim. Tavsifnomalardan ma'lum bo'lishicha, u doim xushmuomala, yuvosh, ilmga tirishqoq yigit bo'lgan, unda hech qanday illat bo'lmagan. Mana shu yigit bugun tongda professorning xonasida o'lgan, ammo vaziyat, hech shak-shubhasiz, uning o'ldirilganidan dalolat beryapti.



Xopkins jim qoldi. Shamol uvillar, deraza oynalari uning shiddatkor hamlasidan ayanchli zirillardir. Xolms ham, men ham olovga yaqinroq surilib o'tirib, yosh izquvarning qiziqarli hikoyasini tinglay boshladik. U shoshmasdan, izchillik bilan hikoya qilardi.

– Butun Angliyani kezib chiqsangiz ham, – deb gapida davom etdi Xopkins, – tashqi muhit ta'siridan mutlaqo ihota qilingan bunday ahil jamoani topa olmaysiz. Ularning birontasi ham haftalab darvozadan tashqariga chiqmas ekan. Professor butun vujudi bilan o'z ishiga sho'ng'ib ketgan, binobarin, uni boshqa hech nima qiziqitirmaydi. Yosh yigit Smit qo'shnilarining birontasi bilan tanish bo'lmagan, demak, uning turmush tarzi professornikidan farq qilmagan. Ayollarni ham uydan tashqarida hech nima qiziqitirmaydi. Professorni aravaga o'tkazib bog'da sayr qildiruvchi Mortimer esa Qrim urushi qatnashchisi, pensiyaga chiqqan kekso soldat, xulqi mutlaqo bequsus. U uyning o'zida emas, balki bog'ning etagidagi uch xonali kottejda turadi. Qo'rg'onda shu odamlardan boshqa hech kim yo'q. Lekin shuni ham aytish kerakki, bog' darvozasidan yuz yardcha naridan Londondi Chatam bilan ulaydigan tosh yo'l o'tgan. Darvoza hamisha ilgaklangan, turgan gapki, begona odamning bog'ga kirishi qiyin emas.

Endi, ijozatingiz bilan, Syuzen Tarlton bergan ma'lumotni sizga bayon qilay, chunki bu hodisa haqida ozmi-ko'pmi gapira olishi mumkin bo'lgan yagona shaxs shu. Soat o'n birdan

oshganda u yuqorida, derazalari uyning orqa tomoniga ochiladigan xobxonada pardalarni osayotgan ekan. Professor hali to'shakda ekan (havo aynigan paytlarda u kamdan-kam soat o'n ikkidan oldin turarkan). Ro'zg'or sohibasi oshxonada o'z ishi bilan band bo'lgan. Smit yuqoridagi o'z xonasida ishlayotgan ekan; oqsoch uning yo'lakdan yurib o'tib, pastga, xonaga tushganini eshitgan (xona oqsoch derazalariga parda ilayotgan xobxonaning tagida). Syuzen yo'lakdan yurib o'tgan odamning mister Smit ekanligiga aniq ishonyapti, chunki yigitning shahdam-shahdam va jadal yurish odati unga juda yaxshi tanish ekan. Oqsoch xona eshigining yopilganini eshitmabdi-yu, lekin oradan taxminan bir daqiqacha vaqt o'tgach, pastdagi xonadan mudhish bir chinqiriq eshitilipti. Bu xirillagan, jazavali faryod nihoyatda g'ayritabiiy bo'lib eshitilgan, chunki chinqirayotgan odamning ayolligini ham, erkakligini ham aniqlab bo'lmagan. Shu payt og'ir bir narsa gursillab qulab, butun uy larzaga kelibdi, keyin hammayoq jimjit bo'lib qolibdi. Oqsoch dahshatdan bir necha fursat shamdek qotib qolgan, lekin keyin o'zini qo'lga olib, yugurganicha zinadan pastga tushgan-u, xona eshigini lang ochgan. U yosh yigit Smitning yerda uzala tushib yotganini ko'rgan. Avvaliga oqsoch hech qanday g'ayritabiiy holni payqamagan. U Smitni ko'tarmoqchi bo'lgan, shundagina yigitning bo'ynidan pastroqdagi jarohatdan qon oqayotganini ko'rib qolgan. Jarohat kichkina, ammo chuqur bo'lib,

chamasi uyqu tomiri lat yegan bo'lsa kerak. Shu yerda u Smitning yonida jinoyat quroli: sopi fil suyagidan yasalgan, dami qayrilmaydigan pichoq yotganini ko'ribdi; bunday pichoqlarni ko'pincha ko'hna yozuv stollari ustida ko'rish mumkin – ularning tig'i bilan, odatda, konvertlarning surg'uch muhrlari ko'chiriladi. Bu pichoq hamisha professorning stolida yotarkan.

Oqsoch qiz Smitni o'lgan deb o'ylabdi, lekin shunga qaramay, grafindagi suvdan uning yuziga purkagan ekan, u bir zumgagina ko'zini ochibdi-yu: «Professor, bu o'sha ayol», – deb g'o'ldirabdi. Oqsoch, bu so'zlarni aniq eshitdim, deb qasam ichdi. Baxtiqaro yigit astoydil urinib, yana biron gap aytmoqchi bo'libdi, hatto o'ng qo'lini yuqoriga ko'taribdi ham. Lekin qo'li shu zahoti yana «shilq» etib tushib, Smit boshqa qimirlamabdi.

Keyin xonaga ro'zg'or sohibasi yugurib kiribdi. Lekin u Smitning oxirgi so'zlarini eshitmagan. U Syuzenni jasad oldida qoldirib, o'zi professor qoshiga chopgan. Professor to'shagida qattiq hayajonlanib o'tirgan ekan. Faryodni u ham eshitgan va uyda biron baxtsizlik yuz berdi, deb o'ylagan. Missis Marker, professor tungi pijamada edi, deb aytdi, bu gapini tasdiqlash uchun u qasam ichishga ham tayyor, qolaversa, bu qariya Mortimerning yordamisiz o'zi kiyina olmas ham ekan, bog'bonga esa u soat o'n ikkida kelishni tayinlagan ekan. Professor menga uyning ichkarisidan, qayerdandir chinqiriq eshitganini, shundan boshqa hech nima bilmasligini aytdi. U kotibining: «Professor, bu o'sha ayol!» – deb


aytgan soʻzlarini qanday izohlashni ham bilmaydi. Ehtimol, bu jon talvasasidagi alahlash boʻlsa kerak. Professorning fikricha, Smitning bironta ham dushmani boʻlmagan, shu bois kotibining oʻldirilish sababini bila olmay boshi qotib oʻtiribdi. Birinchi navbatda, professor bogʻbon Mortimerni politsiyani chaqirib kelishga yuboribdi. Keyin konstebel menga xabar qildi. To men yetib borgunimcha, uyda hech bir narsaga tegishmagan, undan tashqari, uydan koʻchaga boriladigan yoʻlkadan hech kim yurmasin, deb qattiq tayinlashgan. Ha, mister Sherlok Xolms, bu sizning nazariyalarinigizni amalda qoʻllab koʻrish uchun juda ajoyib hodisa. Buning uchun hamma narsa tayyor.

– Faqat Sherlok Xolmsdan boshqa, – dedi doʻstim xiyolgina achitib. – Yaxshi, keling, endi sizning u yerda nima ishlar qilganingizni eshitaylik.

– Dastavval, mister Xolms, xonalarning joylashish oʻrnini bir koʻzdan kechirsangiz. Shunda siz professorning xonai va oʻzga xonalarning qayerda ekanligi haqida aniq tasavvurga ega boʻlasiz, bayonimni tushunishingiz ham oson boʻladi.

U chizib kelgan loyihasini olib, Xolmsning tizzasiga yoydi. Men ham doʻstimning orqasida turib, loyihani koʻzdan kechira boshladim.

– Bu xomaki loyiha, albatta, men faqat ishga daxldor joylarnigina tasvirlaganman. Qolganlarini keyinroq, oʻzingiz borganingizda koʻrasiz. Qotilni uyga tashqaridan kirgan deb faraz qilaylik. Xoʻsh, u qanday kirishi mumkin? Turgan gapki, u bogʻ



orqali xiyobondan yurib kelib, uyga orqa eshikdan kirgan, u yerdan xonaga o'tish oppa-oston. Boshqa hamma yo'llar nihoyatda murakkab. Jinoyatchi yana o'sha kelgan yo'li orqali g'oyib bo'lgan bo'lishi mumkin, chunki qolgan yana ikkita yo'ldan chekinishga imkon bo'lmagan. Birinchi yo'lda u chinqiriqni eshitib, zinadan tushib kelayotgan Syuzenga duch kelgan bo'lardi. Ikkinchi yo'l esa professorning xobxonasiga olib borardi. Tabiiyki, shunda men butun diqqat-e'tiborimni bog'dagi xiyobonga qaratdim. Bundan sal oldin yomg'ir yog'ib, yer ivigan edi, demak, izlar aniq saqlangan bo'lishi kerak.

Men so'qmoq yo'lni sinchiklab kuzatib chiqib, jinoyatchining juda ehtiyotkor va tajribali odam ekanini tushundim. Xiyobonda hech qanday iz topilmadi! Lekin kimdir yerda iz qoldirmaslik maq-

sadida maysadan yuribdi. Bu yerda ham yaqqol ko'zga tashlanadigan aniq iz yo'q, ammo o'tlar toptalgan edi – demak, kimdir yurib o'tgan. Bu faqat qotilning izi bo'lishi mumkin: bog'bon ham, boshqa hamma uy xizmatchilari ham ertalab bu yerdan yurmagan, yomg'ir esa kechasi yog'gandi.

– Sabr qiling, – deb uning so'zini bo'ldi Xolms.

– Bu xiyobon qayoqqa olib boradi?

– Tosh ko'chaga.

– Tosh ko'chaga chiqib olish uchun bu yo'ldan qancha yurish mumkin?

– Taxminan yuz yard.

– Hech bo'lmasa, darvoza oldidagi yo'lkada iz qolgan bo'lishi kerak deb faraz qilaylik. O'sha izni, albatta, payqagan bo'larmidingiz?

– Afsuski, darvoza yaqinidagi yo'lkada g'isht yotqizilgan.

– Xo'sh, katta yo'lda-chi?

– Katta yo'lda ham hech qanday iz uchratmadim. Yo'lda yomg'ir suvi halqob bo'lib yotibdi.

– Ana xolos! Ayting-chi, maysa ustidagi oyoq izi uy tomonga yurganmi yo aksinchami?

– Buni ayta olmayman. Izlar aniq emas.

– Izlar katta oyoqnikimidi yo kichkina oyoqnikimidi?

– Buni ham aniq ayta olmayman.

Xolms «attang» degandek tilini taqillatib qo'ydi. Chehrasidan ranjigani sezilib turardi.

– Yomg'ir hamon sharros quyaypti, shamol ham tingani yo'q, – dedi u. – Bu izlarni izohlash ko'hna qo'lyozmalarni kashfi ramz qilishdan ham mushkulroq bo'lishi mumkin! Hay, ilojimiz qancha! Shunday

qilib, Xopkins, siz bu ishda faqat bir narsani: hech nima topa olmaganingizni aniqlagansiz. Xo'sh, shundan keyin qanday tadbir ko'rdingiz?

– Men hech nima topa olmadim deb hisoblayman o'zimni, mister Xolms. Birinchidan, kimningdir tashqaridan uyga kirganini aniqladim. So'ng yo'lakdagi polni ko'zdan kechirdim. Bu yerda polga norjil bargidan to'qilgan bordon to'shalgan bo'lib, unda hech qanday iz yo'q edi. Keyin xonaga yo'l oldim. Kabinetda, agar mahobatli yozuv stoli bilan sekreter<sup>5</sup> hisobga olinmasa, hech qanday mebel yo'q edi. Sekreterning yon g'aladonlari qulflanmagan, o'rta g'aladoni qulflog'liq. Chamasi, yon g'aladonlar hech qachon qulflanmagan bo'lsa kerak, chunki ularga hech qachon hech qanday qimmatbaho narsa qo'yilmagan. O'rta g'aladonda juda muhim hujjatlar saqlanar ekan, lekin ular joyida qolgan. Demak, jinoyatdan maqsad o'g'irlik bo'lmagan. Keyin Smitning jasadini ko'zdan kechirdim. U yozuv stolidan sal chaproqda yotardi – chizgan tarhimga qarang. Jarohati bo'ynining o'ng tomonida, orqadan zarba berilgan. Ko'rinib turibdiki, u o'ziga-o'zi pichoq ura olmagan.

– Agar u pichoq ustiga yiqilib tushgan bo'lmasa, – dedi Xolms.

– Juda to'g'ri aytdingiz. Bu fikr mening ham miyamga kelgan edi. Lekin pichoq jasaddan bir necha fut narida yotardi. Demak, yigitcha pichoq ustiga yiqilib tushgan bo'lishi mumkin emas. Undan keyin, marhumning oxirgi so'zlariga e'tibor

---

<sup>5</sup> Sekreter – tikka turib ishlashga mo'ljallangan usti qiya yozuv stoli.

bering. Va nihoyat Smit o'ng qo'li bilan g'oyatda muhim daliliy ashyoni changallagan edi.

Xopkins cho'ntagidan qog'oz paket chiqarib, undan tilla bandli pensne<sup>6</sup> oldi. Pensnega pishirilgan qora ipak bog'langan bo'lib, ikkala ipning ham uchi uzilgan edi.

– Smitning ko'zi juda yaxshi ko'rgan, – dedi Xopkins. – Demak, pensneni u qotilning yuzidan yulib olgan.

Sherlok Xolms pensneni qo'liga olib, uni zo'r e'tibor va qiziqish bilan ko'zdan kechira boshladi. Keyin uni burniga qo'ndirib, kitob o'qishga urinib ko'rdi, deraza oldiga borib, yaqin atrofdagi uylarga qaradi, so'ng pensneni yechib, uni chiroqqa yaqin tutganча yana sinchiklab tekshira boshladi, axiyri mamnun jilmayib qo'ydi-da, stol ortiga o'tirib, bir parcha qog'ozga besh-olti satr xat yozdi va uni Xopkinsga uzatdi.

– Ushlang, siz uchun qo'limdan kelgan eng yaxshi xizmatim mana shu, – dedi u. – Foydasi tegsa kerak, deb o'ylayman.

Hayron qolgan izquvar xatni ovoz chiqarib o'qidi: «Hashamatli uyda yoki kvartirada istiqomat qiluvchi bashang kiyingan xonim qidiriladi. Uning burni yo'g'on va go'shtdor, ko'zlari bir-biriga yaqin joylashgan. U hamisha peshanasini tirishtirib, uzoqni yaxshi ko'rolmaganidan ko'zini suzib qaraydi, ehtimol, yelkasi bukchaygan bo'lishi ham mumkin. Mavjud dalillarga qaraganda, u so'nggi bir necha

---

<sup>6</sup> Pensne – gardishi va quloqqa iladigan cho'pi bo'lmagan, faqat ikki shisha o'rtasidagi tutqich bilan burun ustiga qo'ndiriladigan ko'zoynak.



oy mobaynida optikaga kamida ikki marta murojaat qilgan. Xonimning pensnesidagi shishalar nihoyatda qalin bo'lgani, optika mutaxassislari esa uncha ko'p emasligi sababli, u ayolni qidirib topish uncha qiyinchilik tug'dirmaydi».

Xolms taajjubda qolganimizni ko'rib jilmaydi.

– Buning hech qiyin tomoni yo'q, – dedi u. – Hech bir buyum ko'zoynak yo pensnechalik boy ma'lumot bera olmaydi, mana bunday noyob ko'zli pensne-ku, inchunun. Pensnening egasi ayol ekanini qayerdan bildim? Buning qanchalik nafis ishlanganiga e'tibor bering. Undan tashqari, marhumning so'nggi so'zlarini esladim. Endi xonimning serhasham, serpardozligiga kelsak, buni aniqlash ham qiyin bo'lmadi: pensnening tutqichi qimmatbaho, sof oltindan ishlangan, shunga ko'ra, bunday pensne taqqan xonimning boshqa jihatlar bo'yicha ham basavlat, serhashamlikka intilishiga imonim komil. Siz pensneni taqib ko'ring, u burningizda qo'nib turmaydi. Demak, o'sha xonimning burni yo'g'on bo'lishi kerak. Bunday burun, bir qator istisnolari bo'lishiga qaramay, odatda, kalta va go'shtdor bo'ladi. Shuning uchun ham, o'z bayonimda bu tafsilotlarga to'xtalib o'tirishni shart deb hisoblamayman. Mening yuzim cho'ziq, shunga qaramay, pensne taqqanimda, ko'zlarim oralig'idagi masofaning pensne shishalari oralig'idagi masofaga nisbatan kengroq ekanligini aniqladim. Boshqacha qilib aytganda, u ayolning ko'zlari bir-biriga yaqin joylashgan. E'tibor bering-a, Uotson, pensne shishalari botiq va nihoyatda qalin. Ayol ko'zining bu daraja xiraligi

uning tashqi qiyofasiga ta'sir etmay qo'ymaydi. Men peshanadagi ajinlar, ko'zni suzib qarash, yelkaning bukikligini nazarda tutyapman.

– Tushunarli, – dedim. – Lekin xonimning optikaga ikki marta borganini qanday bildingiz?

Xolms pensneni qo'liga oldi.

– E'tibor bering: pensnening qisqichi badanga qattiq botmasligi uchun uning ichki tomoniga probkadan yostiqlar qo'yilgan. Yostiqlardan birining sal oxiri to'kilib yedirilgan, ikkinchisi yap-yangi. Chamasi, yangi yostiqlar yaqinda o'rnatilgan. Lekin eskisining qo'yilganiga ham bor-yo'g'i bir necha oy bo'lgan. Natijada, ikkala yostiqlarning bir xil shaklda ekanligini ko'rib, xonim o'z pensnesini tuzatish uchun bitta optikaga ikki marta murojaat qilgan, degan xulosaga keldim.

– Qoyil! – deb qichqirdi Xopkins. – Yo tavba, shu dalillarning hammasi o'z qo'limda edi-yu, men bo'lsam hech nimaning fahmiga yetmabman-a! To'g'ri, menda Londondagi optikalarni aylanib chiqish niyati yo'q emasdi.

– Albatta, aylanib chiqing. Hozir esa bu ish yuzasidan yana nimalarni bilganingizni so'zlab bering.

– Boshqa hech nima ma'lum emas, mister Xolms. Endi, nazarimda, siz bu ish haqida mendan ko'proq bilsangiz-bilasiz, ammo kam bilmaysiz. Biz, temir yo'l bekatida yoki unga yaqin yo'llaridan birida notanish odam uchramadimi, deb surishtirib chiqdik. Ma'lum bo'lishicha, hech kimni ko'rishmagan. Meni hammadan ham ko'proq gangitib qo'ygan narsa –

jinoyat sodir bo'lishiga hech qanday sababning yo'qligi. Hatto birorta turtki ham yo'g'-a!

– Bu borada sizga yordam bera olmayman. Lekin fahmimcha, siz ertaga jinoyat sodir bo'lgan yerga bizni boshlab bormoqchiga o'xshaysiz.

– Agar sizga malol kelmasa, mister Xolms. Ertaga ertalab soat oltida Charing-Kross vokzali-dan Chatamga poyezd jo'naydi, shunda biz soat sakkizdan oshganida Yoksliga yetib olamiz.

– Yaxshi, biz shu poyezdda jo'namiz. Ishin-gizda ba'zi bir qiziqarli tafsilotlar bor, shuning uchun bu ishni jiddiyroq o'rganish niyatidaman. Lekin hozir vaqt yarim kechadan og'ib ketdi, biz safar oldidan bir necha soatgina mizg'ib olishimiz kerak. Sizga kamin oldidagi mana bu divanga joy solib beramiz. Ertalab spirt chiroqda qahva damlayman, keyin yo'lga chiqamiz.

Ertalab shamol tindi. Temza daryosi yoqasidagi ko'rimsiz botqoqliklar uzra nursiz quyosh bosh ko'tarib chiqa boshladi. Uzoq va toliqtiruvchi sayohatdan so'ng biz Chatamdan bir necha mil beriroqdagi mo'jazgina bekatda poyezddan tushdik. To faytonga ot qo'shishguncha shu yerdagi mehmonxonada naridan-beri nonushta qilib oldik, shu bois Yoksliga yetib borganimiz hamono ishga kirishdik. Politsiyachi bizni bog' darvozasi oldida kutib turardi.

– Xo'sh, Uilson, yangilik bormi?

– Hech nimaning daragi yo'q, ser.

– Bironta yangi kelgan odamni uchratmadin-gizmi?

– Yo‘q, ser. Politsiyaning ta‘kidlashicha, kecha bu yerga hech kim kelmagan ham, bu yerdan hech qanday kimsa chiqib ketmagan ham.

– Hamma mehmonxona-yu, musofirxonalarni aylanib chiqdingizmi?

– Ha, ser. Bironta ham shubhali shaxsni uchratmadik.

– Qolaversa, bu yerdan Chatamgacha piyoda jo‘nash mumkin. Demak, kelgan odam o‘sha yerga yashirinishi yoki sezdirmay poyezdga chiqib olgan bo‘lishi ham mumkin. Mister Xolms, mana o‘sha sizga aytgan xiyobon. Kafolat berib aytamanki, kecha bu yerda hech qanday iz bo‘lmagan edi.

– Maysa ustidagi izlar xiyobonning qaysi tomonida edi?

– Mana bu tomonida, ser. Xiyobon bilan gul pushtasi oralig‘idagi torgina uzun o‘tloqni ko‘ryapsizmi? Kecha shu o‘t ustida izlar aniq ko‘ringan edi, hozir ko‘rmayapman.

– Ha, ha, darhaqiqat, bu yerdan kimdir yurib o‘tgan, – deb tasdiqladi Xolms, engashib maysani ko‘zdan kechirar ekan. – Xonimimiz nihoyatda ehtiyotlik bilan yuribdi, shunday emasmi? Agar u qoqilib ketib, yo bu, yo u tomonga qadam bosganida bormi, xiyobonda ham, pushtada ham izi qolgan bo‘lardi, pushtada-ku juda ham aniq ko‘ringan bo‘lardi.

– Ha, ser, xonim o‘z ishiga pishiq ko‘rinadi!

Shu payt Xolmsning chehrasi bir zumgagina jiddiylashdi.

– Siz ayolni qaytishda ham shu yo‘ldan o‘tgan deyapsizmi?

– Ha, ser, boshqa yuradigan yo‘l yo‘q.

– Ya‘ni, mana shu torgina maysa yo‘ldan boshqa-ya?

– Albatta, mister Xolms.

– Hm! Ofarin! Olamshumul jasorat! Xo‘p, yaxshi, xiyobondagi ishimiz tugadi. Endi boshqa joylarni ko‘raylik. Bu eshik, odatda, ochiq bo‘ladimi? Demak, ayolning bog‘ga osongina kirishiga hech nima xalaqit bermagan. Turgan gapki, unda qotillik qilish niyati bo‘lmagan. Aks holda, o‘zi bilan bironta qurol olib kelgan va yozuv stolida yotgan pichoqdan foydalanmagan bo‘lardi. U bordon sathida iz qoldirmasdan mana shu yo‘lakdan yurib o‘tgan. Keyin xonaga kirgan. U xonada qancha vaqt bo‘lgan? Buni biz aniq ayta olmaymiz.

– Ayol xonada faqat bir necha daqiqagina bo‘lgan, ser. Sizga aytishni unutibman: ro‘zg‘or sohibasi missis Marker fojia yuz berishidan taxminan chorak soat oldin xonani yig‘ishtirib chiqib ketgan ekan, u shunday deb tasdiqlayapti.

– Demak, uzog‘i bilan chorak soat. Shunday qilib, xonimimiz xonaga kiradi. Stol oldiga boradi. Unga nima kerak o‘zi? Chamasi, yon g‘aladonlarda uning uchun kerakli narsa yo‘q. Aks holda, g‘aladonlar qulflog‘liq bo‘lardi. Qisqasi, ayolni o‘rta g‘aladon qiziqtiradi. Iye! Bu yer qirilganmi? Uotson, gugurt chaqing. Nega bu to‘g‘rida hech nima demagan edingiz, Xopkins?

Biz ko‘rgan chiziq qulf teshigi atrofidagi birinj bezakning o‘ng tomonidan boshlanib, keyin loklangan yog‘och bo‘ylab taxminan to‘rt enlik joyga cho‘zilib borgan edi.

– Men bu chiziqni koʻrgan edim, mister Xolms. Lekin har qanday qulf teshigi atrofida ham bunaqa qirilgan yerlar boʻladi-ku.

– Bu joy yaqinda qirilgan, u juda yangi chiziq. Birinjidagi chiziqning yaraqlashini koʻring. Agar u eski boʻlsa, allaqachon xira tortib, birinjning qolgan sathidan farq qilmay qolardi. Qirilgan yerga siz zarrabin orqali qarang. Chiziqning ikki labi xuddi yangi haydalgan yerdagi egatga oʻxshaydi. Missis Marker qayerda?

Xonaga chehrasi maʼyus va horgʻin kekxa ayol kirdi.

– Kecha ertalab bu yerning changini artganmidingiz?

– Ha, ser.

– Mana bu qirilgan joyni koʻruvdingizmi?

– Yoʻq, ser, koʻrmovdim.

– Albatta, koʻrmagansiz. Siz sekreterning changini artayotganingizda u hali qirilmagan edi, aks holda lokning mana bu koʻz ilgʻamas ushoqlarini latta bilan sidirib yuborgan boʻlardingiz. Sekreterning kaliti kimda?

– Professor uni soatining zanjiriga ilib olgan.

– Kalit oddiymi?

– Yoʻq, ser, jimjimador.

– Juda yaxshi. Ketishingiz mumkin, missis Marker. Durust, ish ancha oydinlasha boshladi. Bizning xonim xonaga kirib, toʻgʻri oʻrta gʻaladon oldiga boradi, keyin uni ochadi yoki, yoʻq deganda, ochmoqchi boʻladi. Bu payt xonada yosh yigit Smit paydo boʻladi. Buni koʻrgan xonim kalitni qulf teshigidan shoshqaloqlik bilan tortib olayotganida qulf atrofini qirib yuboradi. Yigit

uni ushlamoqchi bo'ladi, lekin ayol qo'liga birinchi bo'lib ilingan qurolni (ya'ni, stol ustida yotgan pichoqni) oladi-yu Smitga sanchadi, yigit chalqanchasiga yiqiladi, shunda ayol, o'zi izlab kelgan narsasini, ehtimol, bir qo'lida changallagancha qochib ketadi. Oqsoch qiz Syuzen shu yerdami? Ayting-chi, Syuzen, siz chinqirgan ovozni eshitganingizdan keyin biron kishi manavi eshikdan chiqib ketishga ulgurarmidi?

– Yo'q, ser, hech kim chiqib keta olmasdi. Nega-ki, men zinadan yugurib tushib kelayotganimda yo'lakda o'sha odamni, albatta, uchratgan bo'lardim. Undan keyin, bu eshik ochilganiyam yo'q, ochilsa, albatta, eshitilardi.

– Bundan chiqdi, xonim o'zi kelgan yo'ldan qaytib chiqib keta olmagan. Bu yo'lak professorning xobxonasiga olib boradimi? Bu yoqdan tashqariga chiqadigan yo'l yo'qmi?

– Yo'q, ser.

– Endi yuringlar, borib professor bilan tanishaylik. Buni qarang, Xopkins! Professorning xonaiga olib boradigan yo'lakka ham boyagindek norjil bordoni to'shalibdi. Bu juda muhim, juda, juda muhim!

– Muhim, deng!

– Ikkala yo'lak o'rtasida qanday bog'lanish borligini ko'rmayapsizmi?.. Ehtimol, men yanglishayotgandirman. Lekin bunday qaraganda... Ha, yaxshi, yuring, meni professor bilan tanishtiring.

Biz yo'lakdan o'tdik. Bu ham taxminan, boyagi, orqa eshigi bog'ga ochiladigan yo'lak bilan bir xil uzunlikda edi. Yo'lak oxirida bir necha pillapoya

bo'lib, shuni bosib chiqqach, eshikka yetilardi. Hamrohimiz shu eshikni taqillatdi, so'ng biz professorning xobxonasiga kirdik.

Xona katta bo'lib, uning hamma devori sirdirg'asiga kitob raflari bilan to'silgan edi, bir qism kitoblar xonaning burchaklarida va raflar tagida yerda to'p-to'p bo'lib yotardi. Karavot o'rtada bo'lib, uy sohibi yostiqlarga yonboshlab o'tirardi. Men uning chehrasiga boqib hayratlandim: chuvak yuz, qirg'iy burun, xuddi soyabondek pastga qayrilgan baroq qoshlari ostidan kosasiga chuqur o'rnashgan tim qora ko'zlari qattiq tikilib boqardi. Uning sochi va soqoli, agar og'zi atrofidagi ajabtovur sarg'ishlikni istisno qilinsa, qordek oppoq edi. Uning butun yuzini qoplagan quyuq oppoq tuk orasidan tutayotgan papirosning uchi chiqib turardi, xona quyuq tamaki tutuniga to'lganidan nafas olish qiyin edi. Professor ko'rishish uchun Xolmsga qo'l cho'zgan edi, men uning barmoqlari ham nikotindan sarg'ayib ketganini ko'rdim.

– Chekasizmi, mister Xolms? – deb so'radi professor. U har bir so'zni sinchkovlik bilan tanlab-tanlab gapirar, nutqida allaqanday g'alati talaffuz mavjud edi. – Marhamat qiling. Siz-chi, ser? Sizga manavi sigaretalarni tavsiya qilaman. Bularni shaxsan men uchun Iskandariyada tayyorlashadi. Bir yo'la ming donadan yuborib turishadi, lekin taassufki, har ikki haftada yana yangitdan buyurtma berishimga to'g'ri keladi. Ahvolim yomon, ser, juda yomon. Qari cholda qanday ko'ngilxushi bo'lardi. Tamaki-yu ish. Shundan boshqa ermagim qolmagan hayotda.



Xolms sigareta tutatdi. Ayni paytda u xonani pinhona kuzata boshladi.

– Ha, butun ermagim tamaki bilan ish. Endi bo'lsa, kunim faqat tamakiga qoldi, – dedi professor ma'yus ohangda. – Bu mudhish falokat ishining beliga tepdi! Bunday mash'um yovuzlik kimning xayoliga kelibdi deysiz? Qanday qobil yigit edi-ya. Atigi bir necha oylik saboqdan keyin eng layoqatli yordamchimga aylanuvdi. Bu fojia haqida siz qanday fikrdasiz, mister Xolms?

– Hozircha biron narsa deyishim qiyin.

– Bu mavhum ishning chigilini yechsangiz yaxshi bo'lardi. Mendek kitob jinnisi va bemor chol uchun bu juda og'ir kulfat bo'ldi. Nazarimda, fikrlash qobiliyatidan mahrum bo'lgandekman. Lekin siz ishchan, serg'ayrat odamsiz. Siz uchun bu odatdagi ish. Har qanday falokat sodir bo'lganda ham aslo ruhingiz tushmaydi. Baxtimiz bor ekan, bu ishni aynan siz olib borishga rozi bo'libsiz.

Professor gapirayotganida Xolms xonada u yoqdan-bu yoqqa yurib turdi. Nazar tashlasam, u sigareta ketidan sigareta chekardi. Chamasi, uy sohibining Iskandariyadan yuborilgan sigaretalarga kashandaligi do'stinga ham yuqqan ko'rinardi.

– Ha, ser, bu nihoyatda og'ir kulfat, – dedi professor. – Anavi yerda, stolcha ustida bir dasta qog'oz uyulib yotibdi, u mening «tadpit opus»im. Ya'ni, Suriya va Misrda istiqomat qiluvchi kopt<sup>7</sup>larning monastirlaridan topilgan hujjatlar

---

<sup>7</sup> Koptlar – Misr va Suriyada yashovchi xristian dinidagi arablar. Ular arab tilida so'zlashadilar.

tahlili. Bu yangi kashf etilgan din negizi haqidagi jiddiy tadqiqot. Men kutilmaganda yordamchidan judo bo'ldim; hozir sog'ligim shu qadar yomonki, qilayotgan ishinni yordamchimsiz tugatishimga ham ko'zim yetmayapti. Voy-bo', mister Xolms! Qarasam, siz mendanam o'tib ketgan kashanda ekansiz-kul!

Xolms jilmayib qo'ydi.

– Ha, tamakining piriman, – dedi u qutichadan to'rtinchi sigaretani olib, uni qo'lidagi sigareta qoldig'idan tutatar ekan. – Har xil savollar bilan sizning miyangizni achitib o'tirmoqchi emasman, professor Korem, zero, jinoyat sodir bo'lgan chog'da siz to'shagingizda yotgan bo'lgansiz, binobarin, nima bo'lganidan bexabarsiz. Sizga faqat bitta savol bermoqchiman: baxtiqaro yigit «Professor, bu o'sha ayol», deganida nimani nazarda tutdi ekan? Shu haqda siz nima deysiz?

Professor bosh chayqadi.

– Myuzen – qishloqi qiz, – dedi u. – O'zingizdan qolar gap yo'q, avom xalq o'lgudek ovsar bo'ladi. Menimcha, sho'rlik yigit jon talvasasida bir nima deb alahlagan bo'lishi mumkin, qiz bo'lsa allani-malarni valdirab yuribdi.

– Tushunarli. O'zingiz bu fojiani xiyol bo'lsa ham izohlab berolmaysizmi?

– Ehtimol, bu baxtsiz hodisadir. Yo bo'lmasa, bu gap o'rtamizda qolsin-u, yigit o'z joniga qasd qilgandir. Yoshlarimiz hamisha qandaydir maxfiy hasratga, chunonchi, tolesiz muhabbat dardiga chalingan bo'lishadiki, biz keksalar bundan, odatda, g'ofil bo'lamiz. Oqibat, mana, u o'zini-o'zi

o'ldirgan. Menimcha, qotillikdan ko'ra shu taxmin haqiqatga ko'proq to'g'ri keladi.

– Xo'sh, pensne haqida nima deysiz?

– Pensne? Darvoqe, pensne! Afsuski, men bor-yo'g'i xayolot osmonida parvoz qiluvchi olim odamman, xolos. Demak, amaliy hayotdan mutlaqo bexabarman. Lekin o'zingizdan qolar gap yo'q, aziz do'stim, sevgi uchun eng g'ayritabiiy buyumlar dalil bo'lishi mumkin. Oling, olavering yana. Sigaretamni yoqtirib qolganingizdan xursandman. Aytmoqchimanki, o'z joniga qasd qilgan odam so'nggi damda qo'lga nimalarni olmaydi deysiz, u narsa – yelpig'ich ham, qo'lqop ham yoki pensne ham bo'lishi mumkin. Mana bu jentlmen maysa ustidagi izlar haqida gapirdi. Axir, u ham adashishi mumkin-ku. Endi pichoq masalasiga kelsak, sho'rlik yigit yerga chalqanchasiga yiqilganida, otilib ketib, nariga tushishiyam mumkin. Ehtimol, mulohazalarim yosh bolaning gapidek tuturiqsizdir, lekin fahmimcha, Uilloubi Smit o'z joniga qasd qilgan.

Bu nazariya Xolmsga ta'sir etgandek bo'ldi, chunki u chuqur o'yga tolib va ketini uzmay papiros chekib, xonada u yoqdan-bu yoqqa tinmay borib keldi.

– Ayting-chi, professor Korem, – dedi u nihoyat – sekreteringizning o'rta g'aladonida nima asraysiz?

– O'g'rini qiziqtiradigan hech narsa yo'q u yerda. Oilaviy hujjatlar, rahmatli xotininimning maktablari, meni professorlik sharafiga muyassar qilgan dorilfununlarning diplomlari. Mana kalit. O'zingiz ko'rishingiz mumkin.

Xolms kalitni qo'liga oldi, so'ng professorning yuziga tikilib turib, uni yana qaytarib berdi.

– Minnatdorman. Endi buning ahamiyati qolmadi, – dedi u. – Ijozatingiz bilan men bog'ga chiqsam-u, bafurja bir bosh qotirib ko'rsam. Sizning o'z joniga qasd qilish haqidagi nazariyan-gizda ma'no borgan o'xshaydi. Xullas, huzuringiz-ga bostirib kirganimiz uchun bizni afv etgaysiz, professor Korem. Hozircha sizni boshqa bezovta qilmaslikka so'z beraman. Agar ijozat bersangiz, qoshingizga ikkinchi nonushtadan keyin soat ikkida kiramiz-da, o'tgan vaqt ichida qanday voqealar sodir bo'lgani haqida sizga so'zlab beramiz.

Xolmsning nimadandir ko'ngli g'ash edi, shuning uchun u bog'dagi xiyobonda sukutga tolib, u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi.

– Kalavanning uchini topdingizmi? – deb so'radim nihoyat sabrim chidamay.

– Hammasi men chekkan sigaretalarga bog'liq, – dedi u. – Ehtimol, yanglishayotgandirman. Lekin sigaretalar aniqlab beradi.

– Azizim Xolms, – dedim men, – axir qanaqasiga sigaretalar...

– Bunga o'zingiz shohid bo'lasiz. Agar yanglishgan bo'lsam, hechqisi yo'q. Unda pensne zamirida ish olib boramiz. Men har qanday izlanishda ham, iloji boricha qisqaroq yo'ldan borishni yaxshi ko'raman. Ana bizning muhtarama missis Marker. U bilan besh daqiqacha suhbatlashamiz, zora, bironta yangilik eshitsak.

Men Xolms xushmuomalaligi bilan ayollar e'tiborini qozona olishi haqida ilgari aytib o'tgan

edim. Hozir ham ular oradan ikki daqiqa vaqt o'tar-o'tmas xuddi ko'p yillardan beri tanish odamlardek chaqchaqlashib ketishdi.

– Ha, mister Xolms, haq gapni aytdingiz, ser. Professor juda ko'p chekadi. Kun bo'yi, ba'zida kechasi bilan surunkasiga tutatib chiqadi, ser. Ertalablari xonasiga kirsang bormi, naq haqiqiy London tumani deysan, ser. Rahmatli mister Smit ham chekardi, lekin professorchalik ko'p chekmasdi. Endi professorning sog'lig'iga kelsak, bu kashandalikdan tuzalayotganiniyam, yomonlashayotganiniyam bilmayman.

– Har holda, bunaqa chekishda ishtahasi bo'g'lsa kerak deyman, a?

– Men unday deyolmayman, ser.

– Professor juda kam ovqat yesa kerak-a?

– Goh undoq, goh bundoq, ser.

– Ont ichib aytamanki, bugun u nonushta qil-magan bo'lishi kerak. Bunaqa chekishda u hali ikkinchi nonushtadan ham voz kechadi.

– Yanglishdingiz, ser. Aksincha, bugun ertalab u juda ko'p ovqat yedi. Ilgari bunchalik to'yib nonushta qilganini eslolmayman. Bugungi ikkinchi nonushtaga bo'lsa, oshpichoq bilan urib yumshatib qovurilgan go'sht buyurdi. Eshitib hayron qoldim, chunki men kecha yerda cho'zilib yotgan bechora mister Smitning jasadini ko'rganimdan beri, ovqat desa ko'nglim ayniydigan bo'lib qoldi. Lekin odam odamga o'xshamas ekan. Aytmoqchimanki, professorning ishtahasi aslo bo'g'ilgan emas.

Biz choshgohgacha bog'ni aylanib yurdik. Xopkins kecha ertalab Chatam yo'lida notanish bir

ayolni ko'rishibdi, degan mish-mishni aniqlagani qishloqqa ketdi. Endi do'stinga kelsak, u o'zi tekshirayotgan ishga butunlay qiziqmay qo'ygan edi. Uning tergovni bu darajada hafsalasizlik bilan olib borganini hech qachon ko'rmaganman. Hattoki, Xopkins qaytib kelib, qishloq bolalari, haqiqatan ham, Xolms tasvirlagan qiyofadagi ayolni ko'rishgani, boz ustiga, uning pensne taqqani haqida gapirganida ham do'stim bu yangilikka loqayd qaradi. Faqat nonushta paytida bizga xizmat qilayotgan Syuzen: mister Smit kecha ertalab bog'da sayr qilib, falokat yuz berishidan yarim soat oldin uyga kirgan edi, deb aytganidagina Xolms sal jonlanganday bo'ldi. Men bu holning o'zimiz tekshirayotgan ish uchun qanday ahamiyati borligini ko'z oldimga keltira olmädim. Shunga qaramay, Xolms bu voqeani ham o'z tasavvuridagi umumiy manzaraga tirkadi, shekilli, deb o'yladim. Birdan u soatiga qarab, o'rnidan turib ketdi.

– Soat ikki bo'ldi, jentlmenlar, – dedi u, – yuringlar, yuqoriga chiqib, do'stimiz professor bilan ochiqchasiga gplashib olaylik.

Keksa professor ikkinchi nonushtani tanovul qilib bo'lgan edi, ovqat keltirilgan taqsimchaning bo'm-bo'shligi ro'zg'orboshining gapi to'g'ri ekanligidan dalolat berardi: professorning ishtahasi zo'r ko'rinadi. U tuk bosgan yuzini o'girib, cho'g'dek yonib turgan botiq ko'zlarini bizga tikkanida qiyofasi nihoyatda vahimali bo'lib ketdi. Turgan gapki, u hozir ham chekayotgan edi. Uni kiyintirishgan, endi u olov yaqinidagi oromkursida o'tirardi.

– Xo‘sh, mister Xolms, bu mudhish falokat sirini fosh qila oldingizmi?

U sigareta qutisini Xolms tomonga surdi. Xolms ham u bilan baravar qo‘lini sigaretaga uzatdi, shunda quti yerga tushib sigaretalar sochilib ketdi. Hammamiz cho‘qqayib o‘tirib, eng noqulay yerlarga dumalab kirib ketgan sigaretalarni tera boshladik. Biz o‘rnimizdan turganimizda, qarasam, Xolmsning ko‘zlari porlagan, yanoqlariga qon yugurgan. Bu g‘alabadan darak ekanligini yaxshi bilardim.

– Ha, – dedi do‘stim. – Men uni fosh qildim.

Stenli Xopkins bilan men unga hang-mang bo‘lib tikilib qoldik. Keksa professorning chu-vakdek ozg‘in yuzida sezilar-sezilmas jilva paydo bo‘ldi.

– Fosh qildingizmi? Qayerda, bog‘dami?

– Yo‘q, shu yerda.

– Shu yerda-ya? Qachon?

– Hozirgina.

– Hazillashyapsiz, mister Xolms. Kechirasiz-u, nihoyatda jiddiy bu ishni hazilga aylantirish yaxshimas.

– Professor Korem, men o‘z mulohazalarim zanjiridagi har bir halqani sinchkovlik bilan tekshirib, nihoyatda puxta toblaganman, aminmanki, bu zanjir benuqsondir. Men sizning niyatlaringizdan bexabarman va bu g‘ayrioddiy voqeaga qanchalik daxldorligingizni ham bilmayman. Balki bu to‘g‘rida yana bir necha daqiqadan so‘ng o‘zingizdan bilib olarman. Ungacha, ijozatingiz bilan, bu voqeaning qanday sodir bo‘lganini sizga so‘zlab ber-

sam, toki siz butun voqeani mukammal tasvirlash uchun yana nimalar yetishmaganini bilsangiz. Kecha sizning xonaingizga bir xonim kelgan. U sekreteringizning o'rta g'aladonidan qandaydir hujjatlarni olmoqchi bo'lgan. Buning uchun uning o'zida kalit bo'lgan. Men sizning kalitingizni ko'zdan kechirish imkoniga ega bo'ldim va unda lok yuqi yo'qligiga ishonch hosil qildim. Demak, siz o'sha xonimning sherigi emassiz. U, mening tushunishimcha, bu yerga sizning narsangizni o'g'irlagani, demakki, sizga bildirmay kirgan.

Professor og'zidan pag'a-pag'a tutun chiqardi.

– Gaplaringiz qiziqarli va ibratli, albatta, – dedi u. – Lekin keyin nima bo'libdi? Siz u xonimning har bir qo'ygan qadamidan voqif ekansiz, keyin uning qayoqqa ketganini ham ayta olarsiz, balki?

– Urinib ko'raman. Shunday qilib, kotibingiz o'sha ayolni ushlab olgan, ayol esa o'z jonini saqlash maqsadida yigitga pichoq sanchgan... Men bu fojiani baxtsiz hodisa demoqchiman, zero, xonimning bu mudhish jinoyatga qo'l urish niyati yo'qligiga imonim komil. Negaki, qotil qurolsiz kelmaydi. Ayol qilib qo'ygan ishidan dahshatga kelib, qutulish yo'lini axtargancha xonada zir yugura boshlagan. Buning ustiga, omadning yurmaganini qarangi, yigit bilan olishuv paytida xonim pensnesini yo'qotib qo'ygan, natijada, ko'zi uzoqni ko'rmagani sababli, butunlay nochor ahvolga tushib qolgan. Nihoyat, u yo'lakka otilib chiqib, yugurib ketgan; chunki o'sha yo'lakni o'zi hovlidan kirib kelgan yo'lak deb o'ylagan: axir ikkala yo'lakka ham bir xil



bordon to'shalgan-da. Xonim boshqa yo'lakka kirib qolganini va qochish uchun najot yo'li to'silganini payqaganida vaqt o'tgan edi. Xo'sh, u nima qilishi kerak? Orqaga chekina olmasdi. Yo'lakda qolish ham xafvli. Demak, shu yo'lakning o'zidan olg'a yuraverish kerak. Xonim shunday qilgan. Pillapoyalardan ko'tarilib, eshikni ochgan-u, sizning xonangizga kirib qolgan.

Keksa professor Xolmsga tikilib qoldi, pastki labi osilib tushdi, uning ma'nodor chehrasida ham dahshat, ham taajjub alomatlari yaqqol aks etar edi. U o'zini qo'lga olishga urinib, yelkalarini uchirdi va yasama tabassum qildi.

– Bu hammasi yaxshi, mister Xolms, – dedi u.  
– Ammo sizning bu olamshumul nazariyangizda kichkinagina bir kamchilik bor. Men hamma vaqt shu xonada edim, kun bo'yi tashqariga chiqmovdim.

– Bundan xabarim bor, professor Korem.

– Demak, men o'z karavotimda yotib xonamga ayol kishi kirganini payqamabman-da. Siz shunday demoqchimisiz?

– Men unday deganim yo'q. Siz ayol kishining kirganini ko'rgansiz. U bilan gaplashgansiz ham. Siz uni tanigansiz. Nihoyat, uning falokatdan qutulishiga yordam ham bergansiz.

Professor yana nosamimiy kuldi. U oromkursidan turdi, ko'zlari xuddi laqcha cho'g'dek yonardi.

– Siz telba bo'lib qolibsiz! – deb chiyilladi u. – Siz alahlayapsiz! Men uni qutqaribmanmi? Xo'sh, bo'lmasa o'sha ayol qayerda hozir?

– Ayol ho'v anavi yerda, – dedi Xolms xona burchagida turgan baland kitob javonini ko'rsatib.

Keksa professor qo'llarini silkitdi, mahzun chehrasi juda ham badbashara bo'lib ketdi-yu, oromkursiga gursillab cho'kdi. Xuddi shu payt Xolms tilga olgan kitob javonining oshiq-moshig'i g'ijirlab, uning ichidan xonaga bir ayol chiqdi.

– Siz haqsiz, – ayol g'alati talaffuz bilan gapirdi.  
– Siz haqsiz. Ha, men shu yerdaman.

Uning hammayog'i chang va is edi, chamas-i, bu is-u changni o'zi yashiringan yerdan yuqtirgan bo'lsa kerak. Xunukkina yuzining hammayog'i isqirt edi. Xolms uning yuz tuzilishini to'g'ri topgan ekan, bundan tashqari, ayolning iyagi cho'zinchoq bo'lib, bu uning o'jar ekanligidan dalolat berardi. U ko'zining ojizligi va kutilmaganda qorong'idan yorug'ga chiqib qolgani sababli, kimligimizni bilishga urinib nuqul ko'zlarini qisar, pirqiratar edi. Garchi bu ayol bizga o'zini mutlaqo noqulay vaziyatda namoyish qilgan bo'lsa ham, uning butun qiyofasidan oliyjanobligi, iyagining cho'zinchoqligi va boshini mag'rur tutishi mardligidan dalolat berar ediki, bu hol bizda unga nisbatan ehtirom, hattoki samimiy mayl uyg'otdi. Stenli Xopkins xonimning qo'liga asta qo'l tegizib, siz hibsga olindingiz, deb e'lon qildi, lekin ayol uning qo'lini muloyimgina, ammo viqor bilan shunday chetlatdiki, uning bu raftoriga itoat etmay bo'lmasdi. Qari professor oromkursida cho'zilib yotar, uning yuzi pir-pir ucharkan, xonimga xuddi qopqonga ilingan jonivordek mo'ltirab qarardi.

– Ha, ser, men mahbusingizman, – dedi ayol.  
– Men hamma gapni eshitdim, bilsam, butun

haqiqatdan voqif ekansiz. Hammasini bo'ynimga olaman. Ha, men o'ldirdim o'sha yigitni. Lekin siz, buni baxtsiz hodisa, deb to'g'ri aytdingiz. Men hatto qo'limga olganim pichoq ekanligini ham bil-movdim, chunki yigitning qo'lidan qutulish uchun achchiq ustida duch kelgan birinchi narsani olib unga zarba urgandim. Men rost gapiryapman.

– Xonim, – dedi Xolms, – gapingizning rostligiga zarracha shubham yo'q. Balki o'tirarsiz, nazarim-da, o'zingizni yomon his qilayotganga o'xshaysiz.

Ayolning rangi murdanikidek oqarib ketgandi, yuzidagi isqirt dog'lar gezargan yuzini yanada mudhishroq qilib ko'rsatardi. U karavot chetiga omonatgina o'tirdi.

– Mening vaqtim oz, – deb gapida davom etdi xonim, – lekin bor haqiqatni sizlarga so'zlab berishni istardim. Men bu odamning xotini bo'la-man. U ingliz emas. Rus. Ismini aytmayman.

Keksa professor birinchi marta o'tirgan o'rnida qimirlab qo'ydi.

– Xudodan qo'rq, Anna! – deb qichqirdi u. – Xudodan qo'rq!

Ayol unga cheksiz nafrat bilan qaradi.

– Shu maraz hayotingga muncha ham kanadek yopishib olmasang, Sergey, – dedi u. – Sen qanchadan qancha odamlarni badbaxt qilding, ammo hech bir kimsaga, hatto o'zingga ham biron marta bo'lsin, yaxshilik qilmading. Lekin qo'rqma, men bu notavon umringning chirik rishtasini vaqti-soati kelmaguncha uzmayman. Men bu kasofat uyning ostonasini hatlab o'tganimdan buyon, shundoq ham o'z vijdonimni behisob gunohlar

bilan bulg'adim. Hay, men hikoyamni davom ettirishim kerak, yo'qsa, kech bo'ladi. Ha, jentlmenlar, men bu odamning xotini man. Biz turmush qurganimizda u ellikda, men bo'lsam yigirma yoshli tentak qiz edim. Bu voqea Rossiyadagi bir dorilfununda bo'lgan edi, dorilfununning nomini sizlarga aytmayman.

– Xudodan qo'rqsang-chi, Anna, – deb g'o'ldiradi yana qari professor.

– Biz inqilobchilar edik, ya'ni nigilistlar, o'zingiz bilasiz. U ham, men ham, yana ko'pchilik. Keyin bizni ta'qib qila boshladilar, chunki yuksak martabali politsiya amaldori o'ldirilgan edi. Ko'pchilik hibsga olindi. Shunda erim jonini omon saqlab qolish va katta mukofot olish maqsadida o'z xotinini va o'rtoqlarini sotdi. Bizlarni qamashdi. Ba'zilar dorga osildi, qolganlar, shular qatori men ham Sibirga surgun qilindik. Mening surgunim muddatli edi. Erim esa do'stlarining qoni bilan bo'yalgan pullarni olib Angliyaga jo'nadi-yu, mana shu yerga joylashib uzlatda kun kechira boshladi, chunki agar tashkilotimiz uning qayerda bekinib yotganini bilsa, uzog'i bilan bir hafta ichida ustidan chiqarilgan adolatli hukmni amalga oshirishi muqarrar edi.

Keksa professor qaltirayotgan qo'lini cho'zib sigareta oldi.

– O'zimni ixtiyoringga topshirdim, Anna, – dedi u, – lekin sen hamisha menga mehribon eding.

– Hali men uning eng razil jinoyati haqida gapirganim yo'q, – deb gapida davom etdi ayol. – Tashkilotimiz a'zolari orasida do'stim bor edi. U

oliyjanob, beg'araz odam edi, meni sevardi, xullas, erimning mutlaqo teskarisi edi. U zulm-istibdod-dan nafratlanardi. Agar shu ayb hisoblansa, biz hammamiz aybdor edik, ammo u begunoh edi. U maktublar yozib, meni o'zga yo'lni tanlashga da'vat etardi. Ana shu maktublar hamda shu odamga bo'lgan hissiyotlarimni va har xil mulohazalarimni muttasil qayd qilib borgan kundalik daftarim do'stimni surgundan qutqargan bo'lar edi. Ammo erim shu kundaligimni va Alekseydan kelgan maktublarni topib olib, yashirib qo'ydi. U Alekseyni o'limga hukm qilishlarini istab, uni qoralay boshladi. Lekin qo'lidan kelmadi. Aleksey Sibirga surgun qilindi. Hozir, siz bilan biz bu yerda o'tirgan paytimizda u u yoqda, tuz konida iztirob chekmoqda. Sen shuni o'yla, ablah, razil ablah! Aleksey kishanband bo'lib, qullik azobini tortmoqda, ammo uning hatto ismini tilga olishga ham arzimaydigan sen bo'lsang, bu yerda farog'atda yashamoqdasan. Hayoting hozir mening qo'limda, ammo men qo'limni bulg'amoqchi emasman!

– Sen mudom oliyhimmat ayol bo'lgansan, Anna, – dedi u sigareta tutunini chuqur-chuqur tortarkan.

Ayol oyoqqa turdi, lekin shu zahoti qattiq og'riqdan ingrab, yana o'tirib qoldi.

– Gapimni nihoyasiga yetkazishim kerak, – dedi u. – Surgun muddatim tugagach, men qanday qilib bo'lmasin, kundalik bilan maktublarni qo'lga kiritishga va ularni Rossiya hukumatiga jo'natishga ahd qildim: faqat shundagina do'stimni ozodlikka chiqarishlari mumkin edi. Men erim-

ning Angliyada ekanligini bilardim. Bir necha oy davom etgan besamar qidiruvlardan keyin, axiyri uni topdim. Uning kundaligimni asrab qoʻyganini ham bilardim, chunki Sibirdaligimda undan xat olgan edim; u xatida kundaligimdan lavha keltirib ginaxonlik qilgan edi. Lekin uning ichiqora odamligini bilardim, demak, kundaligimni oʻz ixtiyori bilan menga qaytarib bermasligiga imonim komil edi. Demak, uni oʻgʻirlashim lozim edi. Men shu maqsadda xususiy xufiya agent yolladim, u erimga kotib sifatida ishga yollandi. Bu sening ikkinchi kotibing edi, Sergey; u sal vaqt oʻtar-oʻtmas boʻshab ketdi. U kundalik bilan maktublar sekreterning oʻrta gʻaladonida saqlanishini aniqlab berdi, yana gʻaladon kaliti shaklini yasab berdi. U boshqa hech nima qilishni istamadi. U menga uyning rejasini topshirib, kunning ikkinchi yarmida xonada hech kim boʻlmasligini aytdi. Chunki bu paytda kotib yuqorida, yaʼni bu yerda ishlar ekan. Qisqasi, men tavakkal qildim-u, hujjatlarni qoʻlga kiritish uchun oʻzim uyga kirib keldim. Toʻgʻri, men koʻzlagan narsalarimni oldim, lekin bu juda qimmatga tushdi! Hujjatlarni qoʻlimda ushlab, gʻaladonni qulflay boshlagan edim, shu payt anavi yigit meni tutib oldi. Uni ertalab koʻrgan edim. Men u yigitga katta yoʻlda toʻqnash kelib, undan professor Korem qayerda turadi, deb soʻragan edim: professorga kotiblik qilishini qayoqdan bilibman!

– Juda toʻgʻri! – dedi Xolms. – Kotib uyga kelib, bu uchrashuv haqida xoʻjayiniga soʻzlab bergan. Keyin, jon berayotib, qotil oʻsha, yaʼni professorga

soʻzlab bergan ertalabki ayol ekanligini aytmoqchi boʻlgan.

– Gapimni tugatishga imkon bering! – dedi ayol buyruq ohangida, shunda dardining ogʻirligidan afti burishib ketdi. – Yigit yerga chalqancha yiqilib tushganidan keyin men xonadan otilib chiqib ketdim, lekin adashib erimning xobxonasiga kirib qoldim. U meni tutib bermoqchi boʻldi. Lekin unga, hayoti mening qoʻlimda ekanligini, agar meni adliya maʼmurlariga topshiradigan boʻlsa, uni tashkilotimizga chaqib berajagimni aytdim. Men jonimni saqlash niyatida yashamoqchi emasdim, balki koʻzlagan niyatimni amalga oshirishim kerak edi. Erim soʻzimning ustidan chiqishimni, taqdiri mening qoʻlimda ekanligini bilardi. Mana shu sababga koʻra, faqat shu sababga koʻra u meni yashirdi. U meni oʻtmishdan qolgan va yolgʻiz uning oʻzigagina maʼlum boʻlgan mana shu xufiya yerga itarib kiritdi. Shundan buyon u oʻz xobxonasida ovqatlanadigan va ovqatining bir qismini menga qoldiradigan boʻldi. Biz shunday ahdlashib oldik: politsiya uyni tark etganidan keyin, tunda bu yerdan sezdirmay chiqib ketadigan va boshqa hech qachon qaytib kelmaydigan boʻldim. Lekin sizlar buni qanday bilib olgansiz – hayronman.

U koʻylagi ichiga, koʻksiga qoʻl tiqib kichkinagina bir paket chiqardi.

– Oxirgi soʻzlarimni yaxshilab eshiting. Bu qogʻozlar Alekseyi surgundan qutqaradi, men ularni vijdoningiz va adolatpeshaligingizga ishonib sizga topshiraman. Oling ularni. Olib borib, rus elchixonasiga topshiring. Men oʻz burchimni bajardim, endi...

– To‘xtating uni! – deb chinqirdi Xolms.

U ayolga tashlanib qo‘lidan kichkinagina shisha idishni tortib oldi.

– Kechikdingiz, – dedi ayol karavotga chalqancha bo‘lib yiqilarkan. – Men boya berkingan yerimdan chiqayotganimda zahar ichgan edim. Boshim aylanyapti. Men o‘laman. Iltimos qilaman, ser, hujjatlarni topshirishni unutmang.

– Oddiy bir voqea, lekin shu bilan birga ayrim jihatlari nihoyatda ibratli, – dedi Xolms biz shaharga qaytayotganimizda. – Hamma gap pensnega borib bog‘langan edi. Agar baxtli tasodif tufayli kotib yigit jon bera turib pensneni yulib olmaganda, aminmanki, bunday qarorga kelolmagan bo‘lardik. Menga bir narsa aniq edi: shishalari nihoyatda kuchli pensnesidan judo bo‘lgan odam xuddi ko‘r odamdek kalovlanib qolishi kerak edi. Esingizdami, ayol orqaga qaytayotganida yana o‘sha o‘t bosgan ingichka yo‘lakdan o‘tgan va qadamini bir marta ham chetga bosmagan, deb meni ishontirmoqchi bo‘lgan edingiz, shunda men buni olamshumul jasorat deb atagan edim. Lekin ichimda bu mumkin emas, degan qarorga kelgandim, faqat agar ayolning yonida ehtiyot shart olib yurgan ikkinchi pensnesi bo‘lsagina gapingizga ishonish mumkin edi. Ana shunda men, pensne egasi uyda bo‘lishi kerak, degan taxminga qattiq yopishib oldim. Keyin ikki yo‘lakning bir-biriga o‘xshashligini ko‘rib, ayol yo‘ldan adashgan bo‘lsa ajab emas, deb o‘yladim. Agar shu to‘g‘ri bo‘lsa, u, albatta, professorning xobxonasiga kirib qolishi kerak. Bu mulohazam meni hushyor bo‘lishga



undadi, shunga ko'ra, bu yerda birorta xufiya joy belgisini topish uchun xonani nihoyatda sinchkovlik bilan ko'zdan kechirib chiqdim. Xonadagi gilam yaxlit va yerga tarang qilib yozilgan edi, shuning uchun yerto'la haqidagi fikrimni miyamdan chiqarib tashladim. Kitoblar orqasida kamgak yer bo'lishi mumkin edi – qadimgi kutubxonalarda bunaqa joylar uchraydi. Men xonaning hamma yog'ida, yerda devor yoqalab kitoblar uyulib yotganiga e'tibor berdim, faqatgina o'sha javon oldi kitoblardan xoli edi. Bundan chiqdi, bu javon eshik vazifasini o'tashi mumkin edi. Lekin farazimni isbotlaydigan boshqa hech qanday belgi yo alomat yo'q edi. Shunda men diqqatimni yana gilamga qaratdim. U och jigarrang tusda edi, binobarin, osongina ko'zlagan tajribamni qo'llab ko'rishim mumkin edi. Buning uchun men o'sha oliy nav sigaretalardan qanchadan-qanchasini uzluksiz chekib, kulini shubhali tuyulgan javon oldidagi gilam ustiga to'kaverdim. Bu eng odmi nayrang juda ham yaxshi samara berdi. Keyin biz pastga tushdik, shunda men professorning ishtahasi ochilib ketganiga ishonch hosil qildim (vaholanki, missis Markerga nima maqsadda bunday savol berayotganimni siz, Uotson, uncha tushunmadingiz ham). Shunday bo'lishi turgan gap edi, chunki professor yana bir odamni boqayotgan edi. Keyin biz yana yotoqxonaga ko'tarildik. Men bir quti sigaretani to'kib yuborib, gilam sathini diqqat bilan ko'zdan kechirish imkoniga ega bo'ldim va bizning yo'qligimizda mahbus ayol berkingan joydan chiqqaniga ishonch hosil qildim.

Mana, Xopkins, Charing-Kross bekatiga ham yetib keldik. Olib borgan tergov ishingizning muvaffaqiyatli chiqqani bilan tabriklayman. Siz bu yerdan to'g'ri Skotland-Yardga borsangiz kerak, albatta. Biz esa Uotson, rus elchixonasiga yo'l olamiz.

## TOVLAMACHINING TUGATILISHI

Men hikoya qilayotgan ushbu voqeaning yuz berganiga ancha yil bo'ldi, shunga qaramay, uni nihoyatda ehtiyotlik bilan bayon qilishimga to'g'ri keladi. Uzoq vaqtgacha buning hatto uchini chiqarish ham mumkin bo'lmagan edi, ammo hikoyamning asosiy qahramoniga adliya qonunining qo'li yetmaydigan endigi paytda, hech kimga ziyon tegmaydigan qilib, ayrim qisqartirishlar bilan uni oshkor qilsam bo'ladi. Bu narsa Sherlok Xolmsning, shuningdek, mening ham faoliyatimda qiyosi yo'q yagona hodisa edi. Basharti, hikoyam tizmasidan voqea yuz bergan paytni yoinki uning haqiqiy ishtirokchilariga shama qiluvchi biror bir dalilni olib tashlasam, kitobxon meni kechirar deb umid qilaman.

Qahraton qish oqshomi edi. Xolms bilan men odatdagi kechki sayrdan uyga soat oltalarda qaytardik. Xolms chiroqni yoqdi, shunda uning shu'lasida stolda yotgan tashrifnomani yoritdi. Do'stim unga bir qiyo boqdi-yu, jirkanch nido bilan uni yerga otdi.

Men tashrifnomani yerdan olib o'qidim:

CHARLZ OGASTES MILBERTON  
APLDOR TAUERS XEMPSTED  
AGENT

– Kim bu? – deb so‘radim.

– Butun Londonda eng maraz odam shu bo‘ladi,  
– deb javob qildi Xolms kamin qarshisiga o‘tirib,  
oyog‘ini olovga tutarkan. – Tashrifnomaning or-  
qasida hech qanday yozuv yo‘qmi?

Men uni o‘girib:

– «Soat 6.30 da huzuringizda bo‘laman.  
«CH.O.M.», – degan yozuvni o‘qidim.

– Hm! Demak, hozir kirib keladi. Siz, Uotson,  
hayvonot bog‘ida ilonlar oldiga borganingizda,  
ko‘zlari sovuq boquvchi yassi tumshuqli o‘sha  
shilimshiq, zaharli maxluqlardan hazar qilgan-  
misiz, jirkanganmisiz? Milverton ham menda  
xuddi shunday jirkanch hissiyot uyg‘otadi.  
O‘z faoliyatim davomida ellikta qotilning ishini  
ko‘rishimga to‘g‘ri kelgan, lekin ular ichida eng  
marazi ham menda bu badkirdorchalik jirkanch  
hissiyot uyg‘otmagan. Lekin shunga qaramay, u  
bilan aloqa qilmay ilojim yo‘q... Qisqasi, bu yerga  
u mening taklifim bilan kelyapti.

– Axir qanday odam o‘zi u?

– Hozir sizga aytib beraman, Uotson. Bu odamni  
barcha tovlamachilarning qiroli desa ham bo‘ladi.  
Pok nomi Milvertonning changaliga tushgan er-  
kakka (agar o‘sha sho‘rpehana ayol kishi bo‘lsa,  
inchunin) Xudoning o‘zi madadkor bo‘lsin. Zero,  
bu badkirdor odamlarning nozik sirlarini bilib  
olib, mudom tirjaygancha, o‘ta shafqatsizlik bilan

sho'rliklarning to quruq turqi qolguncha siqib suvini ichaveradi, ichaveradi. Uni ma'lum darajada daho desa bo'ladi: agar shu iste'dodini u halol tijorat ishiga bag'ishlaganida bormi, juda mashhur bo'lib ketishi mumkin edi. Milvertonning ish uslubi quyidagicha: u badavlat yoki mansabdor odamlarning nufuziga dog' tushiruvchi maktublar uchun katta pul berajagi haqida ovoza tarqatadi. Bunday molni u nafaqat o'z sohiblariga xiyonat qilishdan hazar qilmaydigan xizmatkorlar-u oqsochlardan, balki aksariyat payt, oliyjanob ayollarning ishonchi va ixlosini qozongan aslzoda ablahlardan ham sotib oladi. Bu borada u aslo xassislik qilmaydi. Men uning bir malayga ikki satrli xat uchun yetti yuz funt to'laganini bilaman, oqibat ana shu xatcha nufuzli bir oilani xonavayron qilgan edi. Xaridga chiqarilgan bunday mollarning bari Milvertonning qo'liga borib tushadi, zotan uning nomini eshitganda rangi quv uchib ketuvchi odamlar bu ulkan poytaxt shaharda yuzlab topiladi. Ertaga u kimni xarob qiladi – buni hech kim bilmaydi, chunki u juda badavlat, juda ayyor odam, demak, uning har kuni pul ishlab topishi shart emas. U qimorga tikilgan dovning juda katta miqdorga yetishini kutib, qo'lidagi qartani bir necha yillab ochmay saqlaydi. Men uni butun Londonda eng maraz odam deb aytdim, darhaqiqat, qani, menga ayting-chi, sherigini jahl ustida so'yil bilan urib o'ldirgan qaroqchini oltinga shundoq ham to'lib ketgan xazinasini yana ham oshirib-toshirish maqsadida inson qalbini tadrijiy ravishda hech shoshmasdan qiynoqqa

soluvchi, asablarini buzuvchi bu odamga qiyos qilib bo'ladimi?

Do'stimning bunaqa qizishib gapirganini juda kam ko'rganman.

– Axir, qonun bor-ku, – deb e'tiroz bildirdim. – Demak, bu odamning ham tanobini tortib qo'yish mumkin.

– Nazariy jihatdan mumkin, lekin amalda mumkin emas. Uni bir necha oyga qamatgan ayol nima manfaat ko'rardi deysiz: axir u mal'un qamoqdan chiqqan zahoti bechora ayolning boshini yeydi-ku! Milvertonning domiga ilingan sho'rpehana uning zarbasini qaytarishga jur'at eta olmaydi. Agarda u biron marta begunoh odamni tovlaganida edi, ana unda chinakamiga uni tuzoqqa ilintirsak bo'lardi, lekin u xuddi shaytondek ayyor. Yo'q, yo'q, unga qarshi kurashish uchun boshqa usulni o'ylab topish kerak.

– U nega kelmoqchi bu yerga?

– Obro'-e'tiborli bir xonim menga o'zining kul-fatli ishini topshirdi. Bu – o'tgan mavsumdan boshlab jamoa orasida ko'rina boshlagan Londondagi eng latofatli qiz ledi Yeva Brekuel. Yana ikki haftadan keyin bu ledining gersog Doverkor bilan nikoh to'yi bo'lishi kerak. Lekin anavi kaso-fatning qo'liga xonimning kambag'al bir zamindor yigitga ehtiyotsizlik bilan, ha, ha, Uotson, faqat ehtiyotsizlik bilan yozgan bir necha maktubi tushib qolgan. Nikohni buzish uchun shu maktublarning o'zi kifoya. Agar ledi talab qilinayotgan yirik miqdordagi pulni Milvertonga bermasa, u o'sha maktublarni gersogga jo'natadi. Menga ana

shu tovlamachi bilan uchrashib, u bilan bitim tuzish topshirilgan.

Shu payt ko'chadan ot tuyoqlarining va fayton g'ildiragining taraqlashi eshitildi. Derazadan qarab, bir juft to'riq ot qo'shilgan g'oyat hashamatli kare-tani ko'rdim; kareta tomiga o'rnatilgan fonusning yorug' shu'lasida zotdor jonivorlarning yaraqlagan sag'risida tovlanardi. Xizmatkor karetaning eshigini ochdi, undan egniga qorako'l yoqali palto kiygan, past bo'yli baqaloq bir odam tushdi. U bir daqiqadan keyin xonamizga chiqib keldi.

Charlz Ogastes Milverton ellik yoshlar chama-sidagi, kallasi katta, ko'rinishidan farosatli odam edi; uning soqol-mo'ylovi olingan, soxta jilva qotib qolgan yuzi yum-yumaloq va lo'ppi, o'tkir qo'y ko'zlari oltin gardishli ko'zoynagi orqali odamga qattiq tikilardi. Agarda uning tabassumi xuddi yopishtirib qo'yilgandek soxta, ko'zlari olazarak va sovuq bo'lmaganda bu odam Pikvik<sup>8</sup>ni eslatardi. Ovozi birinchi qarashda oqko'ngil bo'lib ko'ringan bu odamning tashqi qiyofasi singari muloyim va yoqimli edi: u Xolmsga yaqin kelib, do'mboq qo'lchasini uzatarkan, birinchi tashrifida bizni uchrata olmaganidan taassuf qildi.

Xolms uzatilgan qo'lni e'tiborsiz qoldirdi, uning chehrasida keskinlik vujudga keldi-yu, xuddi toshdek qotib qolgan edi. Lekin tirjayib turgan Milvertonning og'zining tanobi qochdi; u kiftini uchirib qo'yib, paltosini yechdi, avaylab taxla-di-da, stul suyanchig'iga osib, o'zi o'tirdi.

---

<sup>8</sup> Pikvik – Charlz Dikkens romanining qahramoni.

– Bu jentlmen kim? – deb soʻradi u boshi bilan men tomonga muloyimgina ishora qilarkan. – Begona odamning ishtiroki nojoʻya boʻlmasmikin?

– Doktor Uotson mening doʻstim va hamkasbim.

– Unday boʻlsa, juda soz, mister Xolms. Men faqat mijozimning manfaatini koʻzlab eʼtiroz bildirayotuvdim. Zero, bu gʻoyatda nozik ish...

– Doktor Uotsonning bundan xabari bor.

– Demak, ishga kirishaversak ham boʻlar ekan. Siz ledi Yevaning nomidan harakat qilayotganingizni aytgandingiz. U xonim shartimni qabul qilish uchun sizga vakolat berdimi?

– Shartingiz qanday?

– Yetti ming funt.

– Agar rozi boʻlmasa-chi?

– Azizim ser, bu haqda muzokara yuritish men uchun juda ogʻir, lekin agar oʻsha pul oʻn toʻrtinchigacha toʻlanmasa, turgan gapki, oʻn sakkizinchida nikoh toʻyi boʻlmaydi.

Uning meʼdaga teguvchi jilvasi yana ham nazokatliroq koʻrinish oldi.

Xolms biroz oʻylanib qoldi.

– Nazarimda, – dedi u nihoyat – hozir siz koʻzlagan rejangizga qattiq ishongan holda harakat qilayotganga oʻxshaysiz. Maktublarning mazmuni menga maʼlum. Binobarin, mijozim, albatta, mening maslahatimga amal qiladi. Men boʻlsam unga hamma gapni boʻlgʻusi eriga ochiq aytishni va uning oliyhimmatligiga umid bogʻlashni maslahat beraman.

Milverton kulib yubordi.

– Siz gersogni bilmas ekansiz, nazarimda, – dedi u.

Xolmsning ta'bi xira bo'lganini ko'rib, gersogning qanaqa odamligini yaxshi bilishini sezdim.

– Maktublarda hech qanday nojo'ya gap yo'q, – dedi u.

– Ular jo'shqin... g'oyatda jo'shqin qalb bilan yozilgan, – deb javob qildi Milverton. – Ledining uslubi nihoyatda dilbar. Ammo sizni ishontirib aytishim mumkinki, gersog Doverkor bu uslubni qadrlay olmaydi. Lekin agar siz boshqacha fikrda bo'lsangiz, unda ishimizga xotima yasab qo'ya qolaylik. Chunki bu masalani faqat pul bilan hal qilish mumkin. Siz agar bu maktublar gersogning qo'lga borib tushsa, mijozingiz bundan hech qanday ziyon ko'rmaydi deb hisoblayapsiz – yaxshi, agar shunday bo'lishiga qat'iy ishonsangiz, u holda maktublarni yirik pulga sotib olishingiz bema'nilik bo'lar edi.

Milverton o'rnidan turib, paltosini qo'lga oldi.

Xolmsning rangi g'azab va alamdand gezarib ketdi.

– To'xtang, – dedi u. – Juda ham shoshqaloq ekansiz. Biz bu nozik ishning janjalga sabab bo'lmasligi uchun qo'limizdan kelgancha urinib ko'ramiz, albatta.

Milverton yana joyiga o'tirdi.

– Bu ishga aynan shunday yondashishingizni bilardim, – dedi u ming'irlab.

– Shunisi ham borki, – deb gapida davom etdi Xolms, – ledi Yeva badavlat ayollardan emas. Gapimga ishoning, u o'sha maktublar uchun sizga hatto ikki ming funt to'laganida ham xonavayron bo'ladi, ammo siz belgilagan



miqdordagi aqchani to'lashga uning mutlaqo qurbi yetmaydi. Shuning uchun, iltimos qilaman sizdan, talabingizni biroz cheklang-u, hozir men tilga olgan aqcha evaziga maktublarni qaytarib bering, gapimga ishoning, ledi Yevaning shu puldan bir chaqa ham ortiq mablag'i yo'q.

Milvertonning yuzi tabassumdan barkashdek yoyilib ketdi, ko'zlarida sho'x uchqunlar chaqnadi.

– Bilaman, ledining imkoniyati haqida aytganlaringiz to'g'ri, – dedi u. – Lekin bir o'ylab ko'ring: bu nikoh to'yi munosabati bilan xonimning do'stlari-yu, xeshlari, albatta, unga ul-bul narsa sovg'a qilish taraddudiga tushadilar. Siz ularga Londondagi barcha sovg'abop qandillar-u, ko'zalardan ham ko'ra, shu bir dasta maktub kelinning ko'nglini ko'proq xushnud qiladi, deb tushuntiring.

– Buning iloji yo'q, – deb e'tiroz bildirdi Xolms.

– E Xudo, qanday achinarli hol! – dedi Milverton kissasidan qalin yondaftar chiqararkan. – Taassufki, xonimlarimizning maslahatchilari donishmand emas, deb o'ylashga majburman: ular yo'l-yo'riq ko'rsatishni bilmaydilar. Mana buni ko'ring!

U muhrlangan konvert ichidan xat chiqardi.

– Buni yozgan... yo'q, beandishalik qilish yaxshi emas. Ammo ertaga bu maktub uni yozgan xonimning eriga borib tegadi. Bunday bo'lishiga bor-yo'q sabab shuki, xonim bu maktub uchun arzimagan haq to'lashdan bosh tortyapti, holbuki, o'sha talab qilingan haqni yarim soat ichi-

da – brilliantlarini qalbakisiga ayirboshlab topsa bo'lardi. Afsus, afsus! Ayting-chi, missis Mayls bilan polkovnik Dorkingning nikoh to'yi buzilgani esingizdami? Bu haqda «Morning post» gazetasi nikohga atigi ikki kun qolganida xabar qilgan edi. Xo'sh, nega bunday bo'lgan edi? Yo'q, hech aql bovar qilmaydi bunga – arzimagan bir ming ikki yuz funt pul bilan ishni pishirsa bo'lardi. Axir bu ayanchli emasmi? Siz esa shunday bama'ni odam bo'la turib, mijozingizning nomusi va kelajagi hal bo'layotgan chog'da savdolashib o'tiribsiz-a! Meni hayron qoldiryapsiz, mister Xolms.

– Men ochig'ini aytdim, – e'tiroz bildirdi Xolms.  
– Mijozim buncha pulni topa olmaydi. Lekin men aytgan narx ham kam pul emas. Shuncha aqchadan voz kechib, bir bechora ayolni baxtiqaro qilish yaxshimi? Axir, siz bundan hech qanday manfaat ko'rmaysiz-ku.

– Yanglishdingiz, mister Xolms, orqavarotdan tarqatilgan mish-mishlar menga juda katta foyda keltiradi. Hozir xuddi shunga o'xshagan ishlardan sakkiz-o'ntasi qo'linga ilinay deb turipti. Agar ledi Yevani jazolaganim haqida ovoza tarqalsa, boshqalar mulohazali bo'lib qolishadi. Endi tushundingizmi?

Xolms sapchib o'rnidan turib ketdi.

– Uotson, orqasiga o'ting! Uydan qochib chiqmasin! Hozir, ser, yondaftaringizda nimalar yozilganini o'qib ko'ramiz.

Milverton ship etib burchakka o'tdi va orqasini devorga tirab turib oldi.

– Mister Xolms, mister Xolms, – dedi u kamzuling oldini ochib, qo'yin cho'ntagidan og'zi chiqib

turgan kattakon to'pponchasini ko'rsatarkan. – Men sizning bundan durustroq usul qo'llashingizni kutgan edim. Bunaqa munosabatni menga ko'p ishlatishgan, lekin hech qachon hech nimaga erisha olishmagan. Shuni yaxshi bilingki, men tish-tirnog'imgacha qurollanganman va istagan paytimda qurol ishlata olaman, zero, qonun meni himoya qilishini yaxshi bilaman. Qolaversa, o'sha siz tilga olgan maktublarni yonimga solib keladigan darajada ahmoq ham emasman. Aytmoqchimanki, siz yana bir marta xatoga yo'l qo'ydingiz, mister Xolms. Xo'p, salomat bo'linglar, jentlmenlar, bugun kechqurun men yana ikki kishi bilan uchrashishim lozim, o'zingiz bilasiz, bu yerdan Xemstedgacha ancha yo'l.

Milverton yurib kelib, stul suyanchig'iga tashlagan paltosini oldi va qo'lini revolveriga qo'yganicha eshik tomon yo'l oldi. Shunda men stulni olib, unga otmoqchi bo'lgan edim, lekin Xolmsning bosh chayqaganini ko'rib, yana uni yerga qo'ydim. Milverton tirjayganicha bizga ta'zim qilib va qoshlarini uchirib xonadan chiqdi, oradan bir zum o'tgach, ko'chadan kareta eshigining qars etib yopilgani va g'ildiraklarning shaldirab yurib ketgani eshitildi.

Xolms qo'llarini shimining cho'ntagiga tiqib, boshini egganicha, ko'zini kamindagi laqcha cho'g'dan uzmay o'tirardi. Shu alpozda u yarim soatcha churq etmay o'tirdi. So'ng qat'iy bir qarorga kelgan odamdek sapchib o'rnidan turdi-da, yotoqxonasi tomon yurdi. Saldan keyin u yerdan qiliqlari ancha betakalluf, echkisoqol, olifta bir

hunarmand yigit chiqdi. U sopol trubkasini chiroqdan tutatib olib, eshik tutqichidan ushladi.

– Men tezda qaytaman, Uotson, – dedi u va zulmat tun qo‘yniga kirib ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Tushunishimcha, do‘stim Charlz Ogastes Milvertonga qarshi jang boshlagan edi. Lekin bu jangning nima bilan tugashi yetti uxlab tushimga kirmagan edi.

Xolms bir necha kun muttasil har xil paytda shu qiyofada uydan chiqib yurdi. To‘g‘ri, do‘stimning Xemstedga qatnayotganini va vaqtini bekor o‘tkazmayotganini bilardim, ammo uning qanday ish bilan shug‘ullanayotganidan mutlaqo bexabar edim. Nihoyat tashqarida bo‘ron quturayotgan rutubatli oqshomlarning birida, u uyga qaytib kelib, libosini yechdi va olovga yaqin o‘tirib, samimiyat bilan xandon otib kulib yubordi.

– Siz, Uotson, menda uylanishga moyillik borligini hech sezganmidingiz?

– Yo‘q, sezmagandim.

– Bo‘lmasa, bilib qo‘ying, men bir qiz bilan ahd-paymon qilib keldim.

– Aziz do‘stim! Tabrikla...

– Qallig‘im –Milvertonning uy xodimasi.

– Yo tavba, bu nima qiliq, Xolms?

– Menga Milverton to‘g‘risida ma‘lumotlar kerak edi.

– Hatto shu darajaga bordingizmi?

– O‘zga ilojim yo‘q edi. Kamina omadi yurishgan misgarman, ismim – Eskot. Biz har kuni kechqurun sayr qildik, suhbatlashdik. E Xudo! Hiqildog‘imga keldi bu suhbatlar! Lekin niyatimga

etdim. Endi men Milvertonning uyini xuddi besh qo'limdek bilaman.

– Axir, qiz nima bo'ladi, Xolms?

U yelkasini uchirib qo'ydi.

– Boshqa ilojimiz yo'q edi, azizim Uotson. Ov qilgandan keyin birakay ov qilish kerak. Lekin men mamnuniyat bilan sizga shuni bayon qilishim mumkinki, bu borada raqibim bor, u qizdan yuz o'girganimni ko'rgan zahoti, albatta, o'rnimni egallaydi. Qanday ajoyib tun!

– Sizga yoqadimi shunaqa havo?

– Bu ayni muddao. Men bugun tunda Milvertonning uyiga kirmoqchiman, Uotson.

Uning nihoyatda jiddiyat va qat'iyat bilan aytgan bu gapini eshitdim-u, nafasim ichimga tushib, a'zoyi badanim jimirlab ketdi. Zulmat tun qo'ynida chaqmoq chaqib, poyonsiz qishloq manzarasining eng mayda ikir-chikirlarigacha bir zumga yalt etib yoritgandek, men ham Xolmsning bunday qilmishi oqibatida yuz berishi mumkin bo'lgan barcha falokatlarini oniy fursatda aqliy nigohim bilan kuzatib chiqdim – aziz do'stim qo'lga tushishi, hibsga olinishi, natijada uning obro'si to'kilib, sharmanda bo'lishi va maraz Milvertonning tuzog'iga ilinishi mumkin edi.

– Xudo haqi, Xolms, o'ylab ish ko'ring! – deb chinqirib yubordim.

– Aziz do'stim, o'zingiz yaxshi bilasiz, men bemulohaza ish ko'rishni yoqtirmayman, hammasini puxta o'ylab ko'rdim, binobarin, agarda boshqa yo'l topilganida hech qachon bunday xatarli tadbirga qo'l urmagan bo'lardim. Keling,

masalaga jiddiy yondashib ko'raylik. O'ylaymanki, ma'naviy jihatdan siz bu niyatimni ma'qullaysiz, ya'ni bu qilmishim faqat qonun oldidagina jinoyat hisoblanadi. Milvertonning uyiga o'g'rilikka tushishdan maqsad – bor-yo'g'i, kuch ishlatib bo'lsa ham, uning yon daftari-ni tortib olish. Bu ishda o'zingiz ham menga ko'maklashmoqchi bo'lgan edingiz.

Men o'ylanib qoldim.

– Ha, – deb tasdiqladim, – niyatimiz – Milvertondan faqat g'ayriqonuniy maqsadda foydalanayotgan buyumnigina tortib olish ekan, bu ish ma'naviy jihatdan qonunga zid bo'lmaydi.

– Balli. Agar bu ish ma'naviy nuqtayi nazardan qonuniy hisoblanar ekan, dangal qaltis ishga qo'l urishdan o'zga chora yo'q. Lekin ayol kishining yordamga muhtojligini ko'rgan haqiqiy jentlmen qaltis ishdan ham qaytmasligi kerak.

– Siz noqulay ahvolga tushib qolishingiz mumkin.

– Shuning uchun ham bu qaltis ish-da. Maktublarni qo'lga kiritishda qo'l keladigan boshqa yo'lni ko'rmayapman. Sho'rlik ledida bunaqa ko'p pul yo'q, xeshlari orasida bo'lsa, birorta ishonchli odam yo'q-ki, bechora qiz unga yuragini yoza olsa. Ertaga oxirgi kun, demak, agar bugun kechasi o'sha maktublarni qo'lga kiritmasak, anavi ablah ertaga so'zining ustidan chiqadi-yu, ledini juvonmarg qiladi. Shuning uchun men yo taqdirga tan berib, qo'l qovushtirib o'tirishim kerak, yo bo'lmasa, shu oxirgi chorani qo'llashim lozim. Ochig'i, Uotson, buni men bilan Milverton

o'rtasidagi maxsus olishuv desa ham bo'ladi. Bu olishuvning muqaddimasida, o'zingiz ko'rdingiz, uning qo'li baland keldi, bas, shunday ekan, pok nomim va qadr-u qimmatim meni jangni davom ettirishga da'vat etadi.

– Bu ish menga yoqmayapti, lekin shunday qilishimiz shartga o'xshaydi, – dedim. – Qachon jo'naymiz.

– Bu gal siz men bilan bormaysiz.

– Unda siz ham bormaysiz, – deb e'tiroz bildirdim. – Ont ichib aytamanki (bilasiz, umrimda hech qachon so'zimning ustidan chiqmay qolmaganman), agar birga bormasam, hoziroq ko'chaga chiqib keb yollayman-da, politsiya mahkamasiga borib, sizni chaqib beraman.

– Siz menga bu ishda yordam bera olmaysiz.

– Qayoqdan bilasiz? Nima bo'lishi ma'lum emas. U yerda ne hol yuz bermasin, qarorim qat'iy. O'z qadrini his etadigan, nomini pok saqlashga urinadigan odam faqat siz emassiz.

Xolms avvaliga ranjiganday bo'lib ko'ringandi, lekin endi, shu gapimdan keyin yuzi yorishib, yelkanga qo'lini tashladi.

– Mayli, aziz do'stim, sizningcha bo'la qolsin. Biz juda ko'p yil hamxona bo'lib yashadik, endilikda shu an'anamizdan yuz o'girishimiz yaxshi emas. Agar omadimiz yurishmasa, bitta kameralni baham ko'rarmiz. Ochig'ini aytsam, Uotson, mendan ajoyib jinoyatchi chiqqan bo'lardi deb o'ylardim hamisha. Mana, nihoyat buning uchun zo'r imkoniyat tug'ildi!

Xolms stol g'aladonidan pishiq bir charm g'lof olib, uni ochdi-da, ichiga terilgan bir necha yaltiroq asbobni ko'rsatdi.

– Bu o'g'rilarning so'nggi paytda kashf etilgan eng oliy nav asboblari; bu yerda nikellangan jajji misrang<sup>9</sup>, oyna kesish uchun olmos, ochqichlar-u, rivoj topayotgan dunyoviy madaniyat talabiga javob beruvchi eng yangi moslamalar bor. Mana yana xufiya chiroq. Hammasi jobajo. Sizda tagi yumshoq botinka bormi?

– Ha, bor. Tennis o'ynashga moslangan tagi rezinka botinkam bor.

– Juda soz. Niqob-chi?

– Qora shoyidan yasab olishim mumkin.

– Nazarimda, bunaqa ishga sizda tug'ma moyilik mavjud. Juda yaxshi; niqobni yasang. Jo'nash oldidan yengilroq tamaddi qilib olamiz. Hozir soat sakkiz yarim. Soat o'n birda Cherchrouga yetib olishimiz kerak. U yerdan Apldor Tauersga chorak soatda piyoda yurib borsa bo'ladi. Ishni tun yarim bo'lmasdanoq boshlaymiz. Milverton har doim soat o'n yarimda uxlagani yotarkan, uyqusi juda ham qattiqmish. Agar bizga omad yor bo'lsa, cho'ntagimizda ledi Yevaning maktublari bilan tungi soat ikkida uyga qaytib kelamiz.

Biz teatrdan qaytayotgan odamlarga o'xshash uchun egnimizga frak kiydik. Oksford-stritga chiqib keb yolladik va shu kebda Xemstedgacha bordik. So'ng izvoshchiga kira haqini to'lab kun juda ham sovuq bo'lgani va kishining suyak-su-

---

<sup>9</sup> Misrang – lom.



yagigacha qaqshatuvchi shiddatli shamol esayotgani sababli, paltolarimizning yoqasini ko'tarib, eng yuqori tugmalarigacha qadab oldik-da, Xis daryosi yoqalab yurib ketdik.

– Bu nihoyatda qaltis ish, – dedi Xolms. – Hujjatlar Milvertonning xonasida, temir sandiqqa solib qulflab qo'yilgan. Xobxonasi esa shundoqqina xonaga tutashgan. Lekin sog'lig'idan shikoyat qilmaydigan hamma baqaloq odamlar singari Milverton ham qattiq uxlar ekan. Agataning aytishicha (qallig'imning ismi shunday), xo'jayinini zambarak otib ham uyg'otib bo'lmas emish. Milvertonning juda sadoqatli bir kotibi bor. Kunduz kunlari u xonadan hech qayoqqa chiqmaydi: mana shuning uchun ham biz kechasi kelyapmiz. Butun uyni bir qopog'on it qo'riqlaydi, tunda uni yechib yuborishadi. Lekin men keyingi paytda Agata bilan uchrashgani ikki marta kechasi qorong'ida bordim, shuning uchun u itni hujraga kiritib, ustidan qulflab qo'yadigan bo'ldi. Ana o'sha uy. Huv ana, bog' etagida qad ko'tarib turibdi. Yuring, darvozadan kiramiz, endi dafna butalari orasidagi yo'lkadan o'ngga yuramiz. Menimcha, niqoblarni taqadigan payt keldi. Ko'ryapsizmi, bironta ham derazada chiroq yo'q. Ishimiz hozircha yaxshi ketyapti.

Biz ko'zimizga niqoblarni taqib, haqiqiy qarochilarga aylandik va sukutga cho'mgan, zulmat bosgan ulkan uy oldiga oyoq uchida yurib bordik. Uyning bir tomoni usti yopiq uzun ravon bilan to'silgan bo'lib, uning bir nechta derazasi, ichkarida esa ikkita eshigi bor edi.

– Ana uning xobxonasi, – deb pichirladi Xolms.  
– Yonidagi eshikdan xonaga kiriladi. Lekin, afsuski, u ham ichidan surma zulfin bilan berkitilgan, ham qulflangan. Demak, bu eshikni tovush chiqarmay ochib bo'lmaydi. Yaxshisi, yuring, uyning orqa tomoniga o'tib ko'ramiz. U yoqda oynavand gulxona bor, o'sha yerdan mehmonxonaga kirish mumkin.

Gulxonaning eshigi ham qulflog' edi. Lekin Xolms eshik oynasini olmos bilan kesdi va qo'lini tiqib, ichkaridan kalitni buradi. So'ng ichkariga kirgan zahotimiz yana eshikni qulfladi-yu, shu daqiqadan boshlab biz qonun oldida jinoyatchiga aylandik-qoldik. Bizni qishki bog'ning issiq va nam havosi qamrab oldi, dimog'imizga antiqa o'simliklarning kishini sarmast etuvchi o'tkir hidi kirdi. Xolms qorong'uda qo'limdan ushlab, jadal yurgancha, meni gul butalari yonidan olib o'ta boshladi; har qadamda navdalar yuzimizga urilardi. Do'stim qorong'uda ko'ra oladigan ajoyib xislatga ega edi. U qo'limni qo'yib yubormay bir eshikni ochdi, shunda men katta bir xonaga kirganimizni his qildim; bu yerda yaqin orada sigara chekishgan edi. Xolms mebellarga urilib ketmaslik uchun juda ehtiyotkorlik bilan harakat qilar edi. Keyin u yana bir eshikni ochdi, ichkariga kirgan zahotimiz do'stim uni ham qulfladi. Men qo'l uzatgan edim, qo'lim devorga osilgan bir nechta paltoga tegdi, shunda yo'lakka chiqqanimizni tushundim. Biz yana biroz yurdik, keyin Xolms o'ng tomondagi eshikni nihoyatda ehtiyotlik bilan ochdi. Bir nima ustimizga tap etib sakradi,

qo'rqqanimdan yuragim shuv etib ketdi. Bilsam, bu mushuk ekan, shunda qo'rqoqligimdan kulib yuborishimga sal qoldi. Xonadagi kaminda olov yonib turar, bu yerni ham tamaki hidi bosgandi. Xolms xonaga oyoq uchida yurib kirdi, keyin meni kiritdi-da, nihoyatda ehtiyotlik bilan eshikni yopdi. Biz Milvertonning xonaiga kirgan edik. Uning xobxonasiga ochiladigan eshik biz kirgan eshikning qarama-qarshi tomonida, qalin parda orqasida edi.

Kaminda lang'illab yonayotgan olov xonani yoritib turardi. Eshik yaqinida devorda elektr tugmasi bor edi, lekin hech qanday xafv bo'lmagan taqdirda ham, chiroq yoqishga ehtiyoj yo'q edi. Kaminning bir yoniga osilgan qalin vazmin parda tashqariga turtib chiqqan kamgak yerdagi derazani to'sib turardi. Kaminning ikkinchi yonida esa rovonga chiqadigan eshik bor edi. Xonaning qoq o'rtasida yozuv stoli, stol yoniga qip-qizil charm qoplangan aylanuvchi kursi qo'yilgan. Stol qarshisida katta kitob javoni bo'lib, uning ustida Afina<sup>10</sup>ning marmar byusti turardi. Kitob javoni bilan devor oralig'idagi burchakda yashil rangli kattakon temir sandiqning yaraqlatib tozalangan mis bandida kamindagi olov mavjlanardi. Xolms shu temir sandiq oldiga ohista yurib bordi va uni sinchiklab ko'zdan kechirdi. Keyin xobxona eshigiga oyoq uchida borib, qulog'ini eshik tir-qishiga tutdi. Ichkari suv quygandek jimjit edi. Bu asnoda miyamga, har ehtimolga qarshi tash-

---

<sup>10</sup> Afina – qadimgi yunon mifologiyasida oliy xudo Zevsning qizi, jangovar ma'buda.

qariga chiqadigan eshik orqali chekinish taraddudini ko'rib qo'yish kerak, degan fikr keldi-yu, shu eshikni ko'zdan kechirdim. Taajjubki, eshik na qulflangan, na ilgaklangan edi. Men qo'limni Xolmsning qo'liga tekkizdim, u niqob taqqan yuzini eshik tomonga burdi. U ham taajjubda edi.

– Bu menga yoqmayapti, – deb pichirladi u qulog'imga. – Hayronman, nega ochiq qoldirdiykin. Nima bo'lganda ham fursatni qo'ldan boy bermasligimiz kerak.

– Sizga yordam berishim mumkinmi?

– Ha, eshik oldiga borib turing. Agar biror kishining sharpasini eshitsangiz darhol eshik zulfinini suring, biz o'zimiz kelgan yo'ldan chiqib ketamiz. Agar bu yerga qishki bog' tomondan kirishsa-yu, biz ishni tugatgan bo'lsak, unda manavi eshik orqali chiqib ketamiz. Mabodo, hujjatlarni olishga ulgurmasak, unda deraza pardasi orqasiga yashirinamiz. Tushundingizmi?

Men bosh irg'ab, eshik oldiga borib turdim. Yuragimga g'ulg'ula solgan boyagi qo'rquv tuyg'usi o'tib ketgan va endi vujudimni shunday o'tkir zavq qamrab olgan ediki, bunday huzurni qonunni himoya qilgan paytlarimizda qonunga qarshi ish ko'rayotgan hozirgi paytdagidek his qilmagan edim. Oliy maqsadni ko'zlagan, bizni bu ishga da'vat etgan narsa xudbinlik emas, balki odamoxunlik istagi ekanligini idrok etish, g'animizning murdorligidan nafratlanish – mana shu hissiyotlarning hammasi bir g'ayratimizga o'n g'ayrat qo'shardi. Men o'zimni aybdor hisoblamasdim, balki, aksincha, bunday xatarli

ishga qo'l urganimizdan quvonardim, hayajonlanardim. Men Xolmsning xatti-harakatini zavq bilan kuzatardim. U charm jildni ochib, xuddi o'ta murakkab operatsiyaga tayyorlanayotgan jarroh singari kerakli asboblarni bamaylixotirlik bilan bir-bir tanlab ola boshladi. Temir sandiqlarni ochishda hech kim Xolmsning oldiga tusha olmasligini yaxshi bilardim, shuning uchun ko'p dilbar xonimlarning qismatini o'z komida saqlab turgan bu ajdar, oltin suvi yuritilgan bu yashil maxluq bilan yuzma-yuz to'qnashganidan uning ko'ngli chog' bo'lib ketganini fahmlayotgan edim. Xolms paltosini yechib, stulga qo'ydi, kamzulinging yengini shimarib, qo'lga ikkita parma, kichkina misrang va bir nechta ochqich oldi. Men rovonga chiqadigan eshik oldida har qanday hodisaga shay bo'lib, boshqa eshiklardan ko'z uzmay turardim; vaholanki, sirasini aytganda, kimdir bizga xalaqit qilgudek bo'lsa, qanday chora ko'rishni bilmas edim. Xolms bir asbobni qo'yib, ikkinchisini olarkan, ularni mutaxassis-mexanik singari zo'r kuch va mahorat bilan ishlatib, yarim soatcha qat'iy harakat qildi. Nihoyat «shiq» etgan tovush eshitildi-yu, temir sandiqning keng yashil eshigi ochildi, shunda ko'zim sandiq ichiga taxlangan bir necha paketga tushdi: ular dasta-dasta qilib bog'langan, muhrlangan bo'lib, ustiga nimalardir yozilgan edi. Xolms shu paketlardan birini qo'lga oldi, ammo kamindagi olovning miltiragan yorug'ida o'qish mahol bo'lgani uchun yonidan jajjigina xufiya chiroqni chiqardi, chunki Milvertonning xobxonasi yaqinida elektr chirog'ini yoqish xafvli edi.

Lekin shu payt Xolms birdan boshini ko'tardi va tashqariga diqqat bilan quloq sola boshladi. Keyin shosha-pisha temir sandiqning eshigini itarib yopdi, paltosini qo'liga oldi, asboblarni cho'ntagiga soldi-da, menga, orqamdan yuring, degandek ishora qilib, o'zini deraza pardasi orqasiga oldi.

Men Xolmsga yaqin borganimdan keyingina uning nimadan xafvsiraganini tushundim. Katta xonadonning qayeridadir eshik qars etib yopildi. Bir me'yorda gurs-gurs qadam tashlab biz tomonga tez yaqinlashib kelayotgan oyoq tovushi aniq eshitildi. Tovush xona eshigi tagiga kelib tindi. Eshik ochildi. Elektr chiroq tugmasi shiq etdi. Eshik yopildi, shunda dimog'imizga o'tkir sigaraning achchiq tutuni urildi. So'ng oyoq tovushi bizdan bir necha yard<sup>11</sup> masofadan eshitila boshladi, kimdir xona ichida u yoqdan-bu yoqqa yurar edi. Nihoyat oyoq tovushi tinib, stul g'ijirladi, shunda qulog'imga qog'oz shitirlagani eshitildi.

Shu paytgacha parda orasidan mo'ralab qarashga jur'at eta olmagan edim, lekin endi pardani ohista surib, torgina tirqishidan xonaga qaradim. Xolms pinjimga kirib ketdi, demak, u ham kuza-tayotgan edi. Biz shundoqqina ro'paramizda, qo'l cho'zsa etadigan masofada Milvertonning keng va do'ng yelkasini ko'rdik. Bu odamning turmush tarzi haqidagi taxminlarimiz mutlaqo xato ekanligi bizga aniq bo'ldi. U yotoqxonaga hatto kirmagan ham, balki hovlining etagidagi derazasi ko'zimizga tashlanmagan chekka uyda biron chekish xo-

<sup>11</sup> Yard – Angliyada 91,44 sm ga teng uzunlik.

nasida yoki bilyardxonada o'tirgan bo'lishi kerak. Uning sochiga oq oralay boshlagan, tepakal, yaltiroq kattakon boshi shundoqqina ko'z oldimizda turardi. U qizil charm qoplangan oromkursiga suyanib, oyoqlarini uzatib o'tirardi, og'zidagi uzun qora sigara yuqoriga tikkaygan edi. Egniga qora duxoba yoqali qirmizrang kalta kamzul kiygandi. U og'zidan halqa-halqa tutun chiqarar ekan, qo'lidagi uzun bir hujjatni erinchoqlik bilan o'qirdi. Uning juda bemalol joylashib o'tirishi va o'zini xotirjam tutishi, hali-beri xonani tark etmasligidan dalolat berardi.

Shu payt Xolmsning qo'li qo'limga tegdi va taskin ma'nosida siqib qo'ydi. Bu harakati bilan u go'yo, shunday bo'lishini bilgan edim, xotiringiz jam bo'lsin, demoqchiday edi. Lekin u men ko'rib turgan narsani, ya'ni temir sandiqning eshikchasi zich yopilmaganini ko'rgan-ko'rmaganini bilmasdim axir Milverton buni har daqiqada payqab qolishi mumkin edi-ku. Men o'zimcha shunday qarorga kelib qo'ydim: mabodo, u temir sandiqning ochilganini sezib qolsa, darhol pistirmamdan otilib chiqaman-u, paltomni Milvertonning boshiga yopib, qo'lini bog'layman, u yog'ini Xolmsning o'zi tinchitadi. Lekin Milverton bir marta ham temir sandiq tomonga qaramadi. U qo'lidagi bir dasta qog'ozni sahifama-sahifa hech shoshmasdan o'qib o'tirardi. Men uning hujjatlarni o'qib tugatib, sigarasini chekib bo'lgach, yotoqxonasiga kirib ketadi deb umid qilgan edim, biroq u o'qishni ham, chekishni ham tugatmasidan mutlaqo biz kutmagan voqea sodir bo'ldi.

Men Milvertonning bir necha marta soatga qarab-qarab qo'ygani, bir marta esa betoqat bo'lib o'rnidan turib, yana o'tirganini kuzatdim. Ammo shunday bemahalda uning kim bilandir uchrashi-shi mutlaqo xayolimga kelmagan edi. Shu chog' birdan rovon tomondan allakimning oyoq tovushi elas-elas eshitildi. Milverton qog'ozlarni stolga tashlab, o'tirgan joyida oyoqlarini uzatdi. Saldan keyin kimdir eshikni ohista taqillatdi. Milverton turib borib, uni ochdi.

– Siz yarim soat kechikib keldingiz, – dedi u jahl bilan.

E, ha, eshikni ochiq qoldirganiga, Milvertonning yarim tungacha bedor o'tirganiga sabab bu ekan-da! Qulog'imizga ayol ko'ylagining ohista yelpingani eshitildi. Milvertonning yuzi endi biz tomonga o'girilgan edi, shuning uchun pardani surib, tirqishini berkitgan edim, ammo sinchkovligim ustun chiqib, yana parda oralig'ini xiyolgina ochdim. Milverton endi oromkursida o'tirar, og'zidagi sigara hamon takabburona tik-kayib turardi. Elektr chirog'i bilan yoritilgan xona o'rtasida egnidagi plashining qora qaytarma qalpog'i bog'ichini engagidan bog'lab olgan, yuzini ro'ypo'sh to'r bilan to'sgan qaddi-qomati kelishgan norg'ul bir ayol turardi. U hansirab nafas olar, nozik jussasi qattiq hayajondan dag'-dag' titrardi.

– Siz meni tungi oromimdan mahrum qildingiz, tasadduq, – dedi Milverton. – Shu xizmatim evaziga meni xushnud etsangiz kerak, degan umiddaman. Barvaqtroq kelishning iloji bo'lmadimi?

Ayol «yo'q» degandek bosh chayqadi.



– Hay, bo‘lmagan bo‘lsa, bo‘lmabdi-da. Gapingizga qaraganda, grafinya sizga qo‘pol muomala qiladigan bo‘lib qolgan-u, hozir siz undan qasd olish imkoniga egasiz, shundaymi? Iye, nima bo‘ldi sizga, yaxshi qiz? Nega buncha qaltirayapsiz? Mana suv, iching. Yengil tortasiz! Endi ishga kirishaylik. – U stol g‘aladonidan bir xat oldi. – Qo‘lingizda grafinya D’ Alberning obro‘cini to‘kishi mumkin bo‘lgan beshta maktub borligi haqida yozibsiz. Siz shu maktublarni sotish niyatidasiz, men ularni xarid qilmoqchiman. Yaxshi. Endi ularga narx belgilashimiz kerak. Buning uchun men, albatta, u maktublarni ko‘zdan kechirishim kerak: ko‘raylik-chi, chindan ham sotib olishga arziydimi-yo‘qmi... Yo qudratingdan, nahotki bu siz?

Ayol bir og‘iz ham gapirmay, yuzini to‘sib turgan to‘rni ko‘tardi, qaytarma qalpoqni boshidan yechdi. Bu nihoyatda dilbar, qorasoch ayol bo‘lib, yuzi xushbichim edi; burni bejirim, quyruq qoshlari ostida qora, nafrat to‘la ko‘zlari porlab turar, nozik lablari istehzoli jilmayar edi.

– Ha, menman, – deb javob qildi ayol. – Siz juvonmarg qilgan o‘sha baxtiqaro bo‘laman.

Milverton kulib yubordi, lekin uning kulgisida qo‘rquv sezilib turardi.

– O‘zingiz ham o‘jarlik qiluvdingiz-da, – dedi u. – Bunchalik oyoq tirab olishning nima hojati bor edi? Gapimga ishoning, men o‘z xohishim bilan pashshaga ham ozor bermaganman. Ammo har bir odam o‘z bilganicha kun kechiradi. Xo‘sh, men nima qilishim mumkin edi? Axir, sizning imkoni-

yatingizdan kelib chiqib narx qo'yg'an edim. Ammo siz uni to'lashni istamadingiz.

– Shundan keyin siz maktublarimni erimga yubordingiz; bu bilan siz eng oliyjanob bir insonning dilini vayron qildingiz. Men u insonning hatto botinkasining ipini bog'lashga ham nomunosib hisoblardim o'zimni. Natijada, u o'ldi. Mana shu yerda, shu xonada kechasi, menga rahm qiling, deb yalinib-yolvorganlarim esingizdami? O'shanda siz yuzimga baqrayib turib xaxolab kulgan edingiz! Hozir ham kulmoqchi bo'lyapsiz, lekin lablaringiz titrayapti. Ablah! Qo'rqqoq maxluq! Meni boshqa ko'rishni o'ylamagan bo'lsangiz kerak? Lekin men aynan o'sha kechasi qanday qilib huzuringizga kirishni va sizni yolg'iz uchratish mumkinligini bilib olgan edim. Xo'sh, Charlz Milverton, menga aytadigan yana qanday gapingiz bor?

– Qo'rqitdim deb o'ylamay qo'ya qoling, – deb javob qildi Milverton o'rnidan turarkan. – Agar tovush chiqarsam, shu zahoti xizmatchilarim kirib kelib, sizni qo'lga olishadi. Lekin men rahm qilaman, zero, nega bunchalik darg'azab ekanligingizni tushunaman. Yaxshilikcha chiqib keting bu yerdan. Shu bilan mubohasaga barham beraylik.

Lekin ayol hamon qo'llarini plashi ichiga yashirib, zaharxanda jilmaygancha joyidan jilmay turardi.

– Siz meni juvonmarg qilgan edingiz, ammo endi boshqa hech kimning umriga zomin bo'la olmaysiz. Siz mening dilimni vayron qilgan edingiz, endi hech bir kimsaning qalbini eza olmaysiz. Men bashariyatni sizdek zaharli ilondan xalos etaman. Mana, ol tegishingni, ko'ppak!

Ayolning qo'lida jajjigina pistolet yalt etdi. Ustma-ust bitta, ikkita, uchta o'q uzildi... Pistoletning og'zi Milvertonning ko'ksidan yarim metr masofada edi. U gandiraklab stolga yuztuban yiqildi, yo'tali tutib qog'ozlarni changalladi. Keyin kalovlanib o'rnidan turdi-da, stol ortidan chiqdi. Oltinchi o'q gumburladi-yu, u yerga gurs etib quladi.

– Meni yedingiz, – deb pichirlay oldi, xolos. Ayol murdaga tikilib turdi-da, poshnasi bilan uning yuziga bir tepdi. Keyin yana tikildi: Milverton ingramadi ham, qimirlamadi ham. Ayol joyidan qo'zg'algani eshitildi, dim xonaga tungi salqin havo esib kirdi-yu, qasoskor xonim g'oyib bo'ldi. Biz bu falokatga yo'l qo'ymaslik uchun ming uringanimizda ham u odamni o'z qismatidan qutqarib qololmagan bo'lardik; lekin shunga qaramay, agar ayol gandiraklayotgan Milvertonga ketma-ket o'q uzayotgan paytda Xolms qo'limdan mahkam ushlab qolmagani-da bormi, albatta, yordamga otilib chiqqan bo'lardim. Men do'stimning qay ma'noda qo'limni mahkam siqqaniga tushundim. Bu bilan Xolms, buni bizga daxli yo'q, nihoyat odil sud bu razolat bandasi ustidan chiqargan hukmini ijro etdi, bizning o'z burchimiz, o'z maqsadimiz bor, shuni unutmashligimiz kerak, demoqchi bo'lgan edi. Ayol g'oyib bo'lgan hamono Xolms ichki eshik oldiga shipillab borib, kalitni burab, uni qulfladi. Ayni shu payt uyning har tomonidan shovqin-suron va yugurgan oyoq tovushlari eshitila boshladi. O'q ovozi butun xonadonni

oyoqqa turg'izgan edi. Xolms hech hovliqmasdan temir sandiq oldiga bordi, u yerdagi dasta-dasta maktublarni ikkala qo'li bilan sidirib olib, olovga tashladi, keyin yana va yana olib tashlayverdi, xullas, sandiqni ship-shiydam qildi. Shu payt kimdir eshik bandini bosdi, so'ng uni tapilla-ta boshladi. Xolms atrofga tez ko'z yugurtirib chiqdi. Milvertonning stolida o'lim darakchisi – qonga bo'yalgan maktub yotardi. Xolms uni ham kaminga tashladi. Keyin u sirtqi eshikning kalitini olib, meni eshikdan chiqardi, so'ng o'zi ham chiqib, eshikni qulfladi.

– Bu yoqqa, Uotson, – dedi u, – bog' devoridan oshishimizga to'g'ri keladi.

Butun uyni vahima shunchalik tez qamrab olishini tasavvur qilmagan edim. Orqamga o'g'irilib, uydagi hamma derazalarning chiroqdan yorug'ligini ko'rdim. Uyning asosiy eshigi lang ochilgan, xiyobonda kimlardir yugurib yurardi. Bog' g'ij-g'ij odam edi. Allakim bizning rovondan otilib chiqqanimizni ko'rib qoldi, qichqirgan-cha orqamizdan quva boshladi. Xolms bog'dagi har bir yo'lakni puxta o'rgangan edi, shuning uchun daraxtlar va butalar orasidan dadil olg'a yugurib borar edi. Men undan bir qadam ham orqada qolmaslikka urinardim. Orqamdan izma-iz birov quvib kelayotgan edi – men uning hansirab nafas olishini eshitdim. Yo'limizga olti fut<sup>12</sup> balandlikdagi devor g'ov bo'ldi. Xolms bir sakrashda undan oshib tushdi. Men ham

---

<sup>12</sup> Fut – 30,48 sm ga teng uzunlik o'lchovi.

sakradim, lekin devor boshiga qo'llarim bilan mahkam yopishganimni bilaman, shu payt kimdir oyog'imdan torta boshladi. Men oyog'imni bir siltab tortib olib, devorning siniq shishalar bilan ixota qilingan boshiga bir amallab chiqib oldim, so'ng devorning narigi yog'iga yuz tuban yiqildim. Xolms bir zumda meni oyoqqa turg'izdi, shundan so'ng poyoni yo'q Xemsted maydonidan yugurib ketdik. Shu yugurishda biz taxminan ikki milyacha<sup>13</sup> yo'l bosdik, shundan keyingina Xolms to'xtab quloq soldi.

Atrof xuddi suv quygandek jimjit edi. Demak, ta'qibdan qutulibmiz.

Ertasi kuni ertalab biz nonushta qilib bo'lib, trubka chekib o'tirgan edik, g'aribona mehmonxonamizga Skotland-Yard inspektori Lestreyd kirib keldi. Uning ko'rinishi viqorli va ma'nodor edi.

– Yaxshi yotib turdingizmi, mister Xolms, – dedi u, – xayrli erta. Marhamat qilib ayting-chi, hozir juda ham bandmisiz?

– Bandman, ammo sizning gaplaringizni bajonidil eshitaman.

– Bugun kechasi Xemstedda juda antiqa bir ish sodir bo'lgan; shu ishni tekshirishda bizga yordam bera olmaysizmi?

– Yo tavba! – deb yubordi Xolms. – Nima sodir bo'libdi u yerda?

– Qotillik... O'ta fojiaviy va ayni paytda juda ajoyib qotillik. Sizning bunday hodisalarga qizi-

---

<sup>13</sup> Milya – 7420 metr.

qishingizni bilaman, shunga ko'ra, agar Apldor Tauer'sga borsangiz-u, bizdan yordamingizni ayamangiz, meni g'oyat minnatdor qilgan bo'lardingiz. Bu – g'ayritabiiy jinoyat. Biz o'ldirilgan odamni bir necha vaqtdan beri kuzatib yurardik. Gap shu yerda qolsin-u, u uchiga chiqqan ablah edi. Uning temir sandig'ida kishilarni obro'sizlantiruvchi qog'ozlar saqlanardi, shu qog'ozlardan u tovlamachilik maqsadida foydalanardi. Lekin qotillar o'sha qog'ozlarning hammasini yoqib yuborishgan. Bironta ham qimmatbaho buyum o'g'irlanmagan. Taxminimizcha, jinoyatchilar – oqsuyaklar jamiyatidan bo'lishsa kerak. Chamasi, ular yagona bir rejani – odamlarni badnom bo'lishiga yo'l qo'ymaslikni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishgan.

– Jinoyatchilar nechta ekan? – deb so'radi Xolms.

– Ikkita. Ularni jinoyat ustida tutib olishlariga sal qolibdi. Bizda ularning oyoq izlari ham, tashqi qiyofalari tasviri ham bor; ularni topishimizga to'qson to'qqiz foiz ishonaman. Bittasi juda ham epchil bo'lgan, ikkinchisi bog'bon tutib olay deganida, qochib qolibdi. Bunisi o'rta bo'yli, jussador, yuzi yapaloq, bo'yni yo'g'on, yuziga niqob taqqan mo'ylovli odam bo'lgan.

– Belgilari ancha mavhum, – deb e'tiroz bildirdi Sherlok Xolms. – U belgilarni, masalan, Uotsonga yopishtirsa ham bo'ladi.

– To'g'ri, xuddi o'zginasi, – deb jilmaydi inspektor: bu o'xshatish unga qiziq tuyulgan edi. – Quyib qo'ygandek Uotson-a.

– Sizga bu ishda yordam bera olmasman deb o‘ylayman, Lestreyd, – dedi Xolms. – Gap shundaki, men o‘sha Milvertonning qanday odamligini bilardim, shunga ko‘ra, uni Londonda eng xafvli odamlardan biri deb hisoblayman. Menimcha, qonunda tatbiq etilmaydigan jinoyatlar ham bo‘ladi. Qo‘ying, men bilan tortishmang. Qarorim qat‘iy. Men qurbon bo‘lgan odamga emas, jinoyatchilarga moyillik bildiraman. Men bu ishga aralashmayman.

Shu kuni ertalab Xolms o‘zimiz shohidi bo‘lgan fojia haqida churq etib ham og‘iz ochmadi. Lekin u xuddi nimanidir eslashga urinayotgan odamga o‘xshab nihoyatda chuqur o‘yga tolgan va parishonxotir edi. Bir vaqt u to‘satdan sapchib turib ketdi.

– Yupiter<sup>14</sup> haqi, Uotson, – deb yubordi u. – Esimga tushdi! Shlyapangizni kiying! Men bilan yuring!

Biz butun Beyker-strit va Oksford-strit bo‘ylab deyarli chopib o‘tdik, Rijent-serkes maydoniga yetay deb qolganimizdagina yugurishdan to‘xtadik. Bu yerda, chap tomonda bir do‘kon bo‘lib, uning oynasiga so‘nggi kunlarda dovruq qozongan odamlarning, hamma ma‘lum va mashhur go‘zal xonimlarning fotosuratlari qo‘yilardi. Xolmsning nigohi shu dilbar xonimlardan biriga qaratildi, men ham uning nigohiga ergashdim, shunda ko‘zim egniga saroy a‘yonlari libosini kiygan, ulug‘vor boshiga muhtasham

---

<sup>14</sup> Yupiter – Rim mifologiyasida oliy xudo.

brilliant toj qo'ndirgan takabbur qiyofali sohib-jamol ayolning portretiga tushdi. Men bu xilqatning bejirim burni, quyuuq qoshlari, chiroyli og'zi va jajji iyagini ko'zdan kechirdim. Portret ostiga yozilgan necha-necha asrlardan beri dovrug'i olamga taralib kelgan buyuk mansabdor va davlat arbobining ismini o'qidim-u, nafasim ichimga tushib ketdi, zero, bu go'zal xonim shu zotning rafiqasi bo'lgan edi. Shunda ko'zim Xolmsning ko'ziga tushdi, lekin u «jim» demoqchi bo'lganday barmog'ini labiga bosdi.

## **SHERLOK XOLMS O'LIM TO'SHAGIDA**

Sherlok Xolms ijarada yashayotgan uy bekasi missis Xadson uning dastidan juda ko'p azob chekardi. Uyining ikkinchi qavatiga kunning istagan paytida noma'lum shaxslar, ba'zan turqi sovuq odamlar kirib kelishi yetmaganday atoqli uy ijarachisi o'z besaranjomligi va toqatsizligi bilan bekasining asablarini sinamoqchiday bo'lardi. Xolmsning haddan ziyod betartibligi, kishilar orom oladigan paytlarda musiqa bilan shug'ullanishi, xonada to'pponcha otishi, g'alati hidli tajribalar o'tkazishdek aqlga sig'maydigan qiliqlari, atrofni qurshagan jinoyat va xafv-xatar uni Londondagi eng noqobil ijarachiga aylantirgandi. Ammo u podsholardek haq to'lardi. Men do'stim shu uyda yashagan yillari ijaraga shohona pul to'laganini bilaman, u hatto missis Xadsonning uyini ham bemalol sotib olish mumkinligiga hech shubha qilmayman.



Shu tufayli missis Xadson Xolmsning oldida juda muloyim bo'lishga majbur edi. Xolms ayollarga nisbatan muloyim munosabatda bo'lgani missis Xadsonga juda yoqardi. Ha, darvoqe, Xolms hech qachon ayollarni yoqtirmagan. Ammo ularga ishonmasa ham ayollarga nisbatan ritsarlarcha xushmuomalada bo'lardi. Missis Xadsonning do'stinga bo'lgan iltifotini bilganim uchun ham uylanganimning ikkinchi yili u menikiga hovliqib kelib, bechora do'stimning og'ir kasal bo'lib qolganini aytganda, juda hayajonlandim.

– Doktor Uotson, u jon beryapti, – dedi missis Xadson. – Uning betob bo'lganiga uch kun bo'ldi. Kundan kunga ahvoli og'irlashyapti. Ertagacha yashaydimi, yo'qmi, buni parvardigorning o'zi biladi. Ammo u doktor chaqirishga ruxsat bermayapti. Bugun ertalab uning suyagiga yopishib ketgan terisini va javdirayotgan ko'zini ko'rib chiday olmadim. «Rozi bo'lasizmi yo yo'qmi, janob Xolms, hoziroq doktor chaqiraman», – dedim. Shunda u: «Unday bo'lsa, marhamat qilib Uotsonni taklif eting», – deb rozi bo'ldi. O'tinaman, ser, bir daqiqa ham vaqtni boy bermang. Aks holda uni tirik ko'rmaysiz!

Men Xolmsning biron kasali yo'qligini bilganim uchun hayron qoldim. Palto bilan shlyapamni olib, ko'chaga qanday otilib chiqqanimni tasvirlab o'tirmayman. Yo'lda missis Xadsondan surishtira boshladim.

– Ser, men sizga juda oz narsa aytishim mumkin, – dedi u. – Yaqinda u Rozerxaytda, haligi

daryo bo'yidagi jinko'chalarda bir jinoiy ishni tekshirgan edi, bu kasalni o'sha yerda yuqtirgan bo'lishi mumkin. Chorshanba kuni peshinlarda mazasi bo'lmay yotganicha o'rnidan turgani yo'q. Mana shu o'tgan uch kun ichida hech narsa yegani ham, ichgani ham yo'q.

– Yo Parvardigor! Nega shu vaqtgacha doktor chaqirmadingiz?

– Ser, axir, u ruxsat bermadi-da... Uning bir so'zligini bilasiz-ku. Men uning gapini ikki qilolmadim. Ammo bir nazar tashlashingiz bilan u ko'p yashamasligiga ishonch hosil qilasiz.

Darhaqiqat, Xolmsning ko'rinishi dahshatli edi. Noyabr oyining tumanli kunlaridan biri bo'lgani uchun uning yotoqxonasi g'ira-shira yorug' edi, ayniqsa, yostiqdagi bir burda ozg'in, ayanchli ko'ringan uning yuzi meni dahshatga soldi. Ko'zlari javdirab yonardi, yonoqlari isitmadan qizarib ketgan, lablari esa qorayib quruqshab ketgandi. Ozg'in qo'llari ko'rpani g'ijimlar, ovozi bo'g'iq va siniq edi. Men xonaga kirib kelganimda, u qimir etmay yotgandi, ammo ko'zlarida nimadir yalt etdi – u meni tanidi, chog'i.

– Xo'sh, Uotson, kunim bitganga o'xshaydi, – dedi u so'niq, ammo burungi hazil ohangida.

– Qadrli do'stim! – deb xitob qildim unga yaqinlasharkanman.

– To'xtang! Yaqinlashmang! – deb buyruq qildi u eng tang daqiqalarda paydo bo'ladigan qat'iy ohangda. – Agar menga yaqinlashsangiz, bu yerdan hoziroq chiqib ketishingizni so'rayman.

– Nega axir?

– Chunki men shuni istayman. Nima, shuning o‘zi sizga kifoya qilmaydimi?

Missis Xadson haq gapni aytgan ekan. Darhaqiqat, uni qattiqqo‘llik tark etmagan, ammo ko‘rinishi ancha ayanchli edi.

– Axir, men sizga yordam bermoqchiman-ku, – dedim unga.

– To‘g‘ri. Agar yordam bermoqchi bo‘lsangiz, buyurgan ishni qiling.

– Yaxshi, Xolms.

Shundan so‘ng u sal yumshagan bo‘lib:

– Mendan jahlingiz chiqmayaptimi? – deb bo‘g‘iq ovozda so‘radi.

Bechora! Axir shu ahvolda yotsa-yu, men qanday qilib undan ranjishim mumkin!

– Bu sizning manfaatigiz uchun, – dedi u yana o‘sha bo‘g‘iq ovozda.

– Mening manfaatim uchun?!

– Menga nima bo‘lganini yaxshi bilaman. Bu kasallikning Vatani – Sumatra. Gollandlar bu haqda bizdan ko‘proq bilishadi, ammo ular ham uni kam o‘rganishgan. Lekin bu kasallik davosiz va juda yuqumliligi, so‘zsiz, aniq va ravshan.

Meni go‘yo nariga itarayotgandek uning uzun qo‘llari bezovta qaltirar, titrab gapirardi.

– Uotson, qo‘l tegsa yuqadi, faqat qo‘l tegsa! Shuning uchun mendan nariroqda tursangiz, aminmanki, hammasi yaxshi bo‘ladi!

– Voy Xudoyim, Xolms! Nahotki, bu kasal yuqadi, deb o‘zini chetga oladigan odam bo‘lsam. Begona bo‘lgan taqdirda ham men tomoshabin bo‘la olmayman. Shunday ekan, burchimni ado

etib, sizdek qadrdon do'stimni davolash uchun menga hech narsa to'sqinlik qilolmaydi.

Men u tomon yana bir qadam tashladim. Shunda u g'azab bilan mendan nari surildi...

– Joyingizdan qimirlamasangiz siz bilan gaplashaman. Aks holda bu yerdan chiqib ketishingizga to'g'ri keladi.

Men do'stimning g'aroyib iste'dodini juda hurmat qilardim. Hatto gohida tushunmasam ham, unga itoat etardim. Lekin bu vaziyatda mening vazifam, kasbim ustunlik qildi. Boshqa paytda Xolms menga nisbatan o'z hukmini o'tkazsa, inday olmayman, ammo hozir men – kasalning yonida turgan shifokorman.

– Xolms, – dedim unga, – siz qilmishlaringizga o'zingiz tushunib yetmayapsiz. Kasal odam go'yo yosh boladek bo'ladi. Istasangiz ham, istamasangiz ham sizni tekshirishim va zudlik bilan davolashim kerak.

U g'azab bilan menga qaradi.

– Agarda mening roziligimsiz davolamoqchi bo'lishsa, hech bo'lmasa, ishonadigan odamim bo'lmog'i lozim.

– Undan chiqdi, siz menga ishonmas ekan-siz-da?

– Sizning do'stligingizga, albatta, ishonaman. Ammo fakt faktligicha qoladi. Uotson, do'stim, siz, albatta, ma'lum tajribaga ega bo'lgan shifokorsiz, lekin cheklangan mutaxassissiz. Bu gaplarni sizga men, ya'ni yaqin do'stingiz gapirishi qiyin, ammo iloj qancha...

Bu gaplardan men o'zimni haqoratlangan hisobladim.

– Xolms, bu soʻzlar sizning gaplaringizga oʻxshamaydi. Bu asablaringizning ancha boʻshashib ketganining dalolati. Mayli, menga ishonmas ekansiz, hadeb jigʻingizga tegmayman. Ammo ijozat bering, men sizning huzuringizga Jasper Mik yoki Penzor Fisher, yoki Londondagi istagan eng yaxshi shifokorlarni taklif etishim mumkin. Axir, kimdir sizga yordam berishi kerak-ku. Agar-da oʻlimingizni xotirjamlik bilan tomosha qiladi, deb oʻylayotgan boʻlsangiz, u holda katta xatoga yoʻl qoʻygan boʻlasiz.

– Uotson, siz menga yaxshilik istaysiz, – dedi Xolms boʻgʻiq ovozda. – Sizning johilligingizni isbotlab berishimni istaysizmi? Marhamat qilib ayting-chi, Tapanuli viloyatidagi isitma kasali yoki formoza qora kuydirgisi haqida nima bilasiz?

– Men bu xil kasalliklarni birinchi marta eshitib turibman.

– Azizim Uotson, Sharqda juda koʻp gʻalati kasalliklar mavjud. Bu odatdagi kasallardan ancha farq qiladi. – Har bir jumladan soʻng, Xolms toʻxtab suhbatini davom yettirish uchun kuch toʻplardi. – Men bu xulosalarni oxirgi marta oʻtkazgan tibbiy-jinoiy tergovimda chiqardim. Aynan shu ish bilan shugʻullanayotgan paytda yuqtirgan boʻlishim ham mumkin. Menga yordam bera olmaysiz, Uotson.

– Boʻlishi mumkin. Ammo jahon boʻyicha tropik kasalliklar bilimdoni doktor Enstri hozir Londonda, men buni tasodifan eshitdim. Xolms, eʼtiroz bildirmang, men zudlik bilan uning huzuriga boraman!

Men shahd bilan eshik tomon burildim.

Men hech qachon bu darajada hayratga tushmaganman! Ko'z yumib ochguncha jon berayotgan odam sherdek sapchib yo'limni to'sdi. Shiddat bilan kalitning buralgani va eshik qulflanganini eshitdim. Yana bir necha daqiqadan so'ng Xolms o'rniga borib yotganini va og'ir nafas olib hansira-yotganini ko'rdim.

– Kuch ishlatib mendan kalitni ololmaysiz, Uotson. Qo'lga tushdingizmi, azizim! Men sizni ozod qilmagunimcha shu yerda o'tirib turishingizga to'g'ri keladi. Ammo siz ko'p iztirob chekmang. – U bazo'r nafas olib bo'lib-bo'lib gapirardi. – Siz menga yordam bermoqchisiz, bunga men zarracha ham shubhalanmayman. Mayli, siz aytgancha bo'lsin, faqat menga biroz vaqt bering, sal o'zinga kelay. Sabr qiling, Uotson. Hozir soat to'rt bo'libdi. Soat oltida esa sizni chiqarib yuboraman.

– Xolms, bu axir nodonlik-ku!

– Ko'p emas, atigi ikki soat, Uotson. Chin so'zim, soat oltida ketasiz. Chidaysizmi?

– Boshqa ilojim yo'q.

– Xuddi shunday. Rahmat, Uotson, ko'rpamni o'zim to'g'rilayman. Yaqinlashmang, iloji boricha mendan nariroq turing! Yana bir shartim bor, Uotson. Siz doktor Enstrini emas, men aytgan odamni boshlab kelasiz.

– Roziman.

– Bu xonaga kirib kelganingizdan beri birinchi marotaba aqlli so'z aytdingiz, Uotson. Zerikmaslik uchun ana u javondagi kitoblarni varaqlab chiqishingiz mumkin. Men biroz charchadim. Qiziq,

elektr toki taxtadan o'tayotganda nimani his qilarkin?.. Uotson, soat oltida biz suhbatimizni davom ettiramiz.

Ammo suhbatimiz do'stim aytgan vaqtda emas, undan ancha vaqtliroq va meni juda hayajonga solgan Xolmsning eshikka yugurganidan ham g'alatiroq yo'sinda boshlandi.

Men karavotda holsiz yotgan Xolmsga bir necha daqiqa hayratomuz qarab turdim. Uning ko'zi deyarli yumuq edi, go'yo u uxlab yotgandek edi.

Men kitob varaqlaydigan kayfiyatda emasdim, shuning uchun xonada yurib, devorlarga osilgan nomi chiqqan jinoyatchilarning suratlarini tomosha qila boshladim. Shu alpozda tomosha qilib kaminga yaqinlashdim. Kaminning tokchasida tartibsiz holda har xil shprislar, tamakidonlar, pakkilar, to'pponcha o'qlari, tamaki trubkalari va mayda-chuydalar yotardi. Shular orasidagi fil suyagidan yasalgan va qora, oq naqshlar o'yilgan, suriladigan qopqoqli quticha diqqatimni o'ziga tortdi. Bu buyum juda chiroyli edi, men tuzukroq tomosha qilish maqsadida beixtiyor qo'l uzatganimni bilaman, ammo to'satdan...

Xolms shunday qichqirdiki, menimcha, ko'chaning eng yiroq burchaklaridagi odamlar ham eshitgan bo'lsa kerak. Bu hayqiriqdan tanam muzlab, sochlarim tikka bo'lib ketdi. O'girilib qaraganimda Xolmsning yuzi dahshatli darajada o'zgarib, ko'zlari yonayotgandek ko'rindi. Qo'limdagi qutichani mahkam ushlagancha toshdek qotib qoldim.

– Hoziroq joyiga qo'ying! Eshityapsizmi, Uotson, hoziroq joyiga qo'ying!

Qutichani o'rniga qo'yganimdan so'ng u yengil tin olib, o'zini yana yostiqqa tashladi.

– Uotson, narsalarimga birovning tekkanini yomon ko'raman. Axir, siz buni yaxshi bilasiz-ku. Nimaga hadeb yuraverasiz, bunga chidolmayman. Shifokor bo'laturing bemorni jinni qilib qo'yishingiz hech gap emas! Oromimni buzmay, tinch o'tiring.

Bu voqea menga haddan tashqari og'ir ta'sir qildi. Xolmsga mansub bo'lmagan qiziqqonlik, sababsiz hayqirish, uning asabi qanchalik bo'shshib ketganidan dalolat berardi. Shunday aql egasining bu holatga tushganini ko'rish qanday dahshatli-a?.. Eng tushkun xayollar bilan aytilgan muddat kelguncha stulda mixlangandek jim o'tirdim. Xolms ham soatini kuzatib turgan bo'lsa kerak. Chunki soat roppa-rosa olti bo'lishi bilan yana o'sha hayajonli titroq ovozda gap boshladi.

– Uotson, yoningizda mayda pul bormi? – deb so'radi.

– Ha, bor.

– Kumushmi?

– Ha, yetarlicha.

– Yarim kronlikdan qancha?

– Beshta.

– Kam, juda kam! – deb xitob qildi. – Afsus! Shunday bo'lsa ham, siz hamma maydangizni soat cho'ntagingizga solib qo'ying, qolgan pullarni shimingizni chap cho'ntagiga joylang. Xuddi shunday. Rahmat! Bu muvozanatingizni saqlaydi.

Bu gap yaqqol esdan og'ishning o'zi edi. U seskanib, yo yo'taldi, yo yig'ladi.



– Endi, Uotson, gazni yoqing. Iltimos qilaman, juda ham ehtiyot bo'lib, gazni faqat yarmigacha oching. Juda yaxshi, rahmat. Yo'q, yo'q pardani yopmang. Endi-chi, Uotson, anavi qand oladigan tutqichni ko'rdingizmi? Shu bilan haligi qora qutichani oling-da, stolga, qog'ozlar orasiga ehtiyot bo'lib qo'ying. Ofarin! Endi esa Louer-Berk-strit ko'chasidagi o'n uchinchi uyda yashovchi mister Kelverton Smitni mening huzurimga boshlab keling.

Ochig'ini aytganda, shifokorga borgim kelmay qolgandi, chunki bechora do'stimni alahsira-yotganini ko'rib, uni yolg'iz tashlab ketishga qo'rqayotgandim. Ajablanarlisi shundaki, u avval shifokordan qanday bosh tortgan bo'lsa, xuddi shunday o'jarlik bilan Smitni olib kelishni talab qilayotgandi.

– Bunday odam borligini eshitmaganman, – dedim.

– Bo'lishi mumkin, azizim Uotson. Bunday kasallikning mutaxassisi shifokor emas, balki plantatorligi sizni ajablantirar. Mister Kelverton Smit – Sumatrada muntazam yashaydi va u yurtlarda juda taniqli odam. Londonga esa faqat ish bilan kelgan. Uning plantatsiyalarida bu kasallik tez-tez paydo bo'lgani, davolash muas-sasalari ancha yiroq bo'lgani uchun shaxsan o'zi shu masala bilan jiddiy shug'ullangan va ma'lum muvaffaqiyatga erishgan. Smit juda rejali odam. Men uning uyda bo'lmasligini bilib, sizni oltidan oldin yubormay turuvdim. Agarda uni bu yerga kelishga ko'ndira olsangiz, u kishi

tabobat ilmidagi mahoratini ishga solsa, shubhasiz, menga yordam bera oladi.

Men Xolmsning soʻzlarini sizlarga ravon va yaxlit qilib yetkazyapman. Aslida esa uning soʻzlari uzuq-yuluq boʻlib, qoʻllari titrab; uning qanchalar azob chekayotganini koʻrsatib turardi. Men uning yonida boʻlgan paytimda ahvoli ancha ogʻirlashdi, yuzlari yana ham soʻnib, koʻzlari kirtayib, ahyon-ahyonda peshanasida muzdek ter yaltirardi. Ammo baribir shuncha iztirob cheksa ham, u osoyishta, ravon gapirardi. Ha, soʻnggi daqiqagacha u oʻzgarmay qoladi!

– Siz mening ahvolim haqida unga, yaʼni Smitga batafsil gapirib berarsiz, – dedi u. – Alahsira-yotganimni va umuman, jon berayotganimni, shuningdek, oʻzingiz qanday fikrda ekaningizni gapirib bering... Qiziq, nega okean tubi chigʻanoqlar bilan qoplanmagan, axir, ular juda tez koʻpayishadi-ku... Obbo, men yana alahlayapman, shekilli! Miya oʻzini-oʻzi qanday nazorat qilarkin... Uotson, nima deyotgan edim.

– Siz mister Kolverton Smit haqida gapirayotgan edingiz.

– Ha, darvoqe, esimda. Uotson, mening hayotim uning qoʻlida. Uni koʻndirishga harakat qiling. U bilan munosabatim yomon. Uning jiyani oʻldi, Uotson... Men bunga Smitning daxli bor deb gumon qilgan edim, u buni sezgan. Boyaqish yigit dahshatli azobda oʻldi. Smitning esa mendan jahli chiqdi. Nima qilsangiz ham, uning koʻnglini oling, Uotson. Yalining, yolvoring, lekin qanday boʻlmasin uni shu yerga boshlab keling. U, faqatgina u meni oʻlimdan qutqarishi mumkin!

– Hatto faytongacha ko‘tarib chiqishga to‘g‘ri kelsa ham, albatta, boshlab kelishga va‘da beraman.

– Yo‘q, unday qilmang. Siz uni, albatta, o‘z xohishi bilan kelishga ko‘ndiring. O‘zingiz esa undan sal oldinroq keling. U bilan birga kelmaslik uchun biror vaj toping. Uotson, unutmang va menga pand berib qo‘ymang. Axir, siz menga hech qachon pand bermagansiz-ku... Qandaydir tabiiy kuchlar chig‘anoqlarning ko‘payib ketishiga yo‘l qo‘yishmayotgani shubhasiz. Biz, Uotson, siz bilan bor imkoniyatni ishga soldik. Nahotki, butun olam chig‘anoqlar bilan to‘lib ketsa? Yo‘q, yo‘q, bu dahshat-ku... Unga taassurotingizni iloji boricha batafsil aytib bering.

Men yosh boladek valdirayotgan, lekin juda ham dono odamning siymosini olib ketdim. Menga kalitni berganda birdaniga miyamga, Xolms xonani ichidan qulflab olmasligi uchun uni yonimda olib ketaman, degan fikr keldi. Missis Xadson yig‘lagancha meni yo‘lakda kutib turgan ekan. Keta turib Xolmsning ingichka, baland ovozda bir be-ma‘ni ashulani aytayotganini eshitdim.

Ko‘chada fayton to‘xtatayotganimda, tuman orasidan qora sharpa yaqinlashdi.

– Mister Xolmsning sog‘liqlari qalay? – deb so‘radi haligi sharpa.

Bu Skotland Yard<sup>15</sup>dagi grajdancha kiyinib olgan eski tanishim inspektor Morton edi.

– Juda yomon, – dedim unga.

---

<sup>15</sup> Skotland-Yard – London politsiyachilarining boshqarmasi.

U menga g'alati qarash qildi. Agar ishonganimda, eshik tepasidagi derazadan tushib turgan yorug'likda uning yuzida qoniqishni sezdim, derdim.

– Ha, bu haqda eshitgandim, – dedi u. Fayton kelib to'xtadi va biz shu yerda ajralishdik.

Louer-Berk-strit bir qator uzun shinam qurilgan uylardan iborat bo'lib, Notting-Xill va Kensington ko'chalarining o'rtasida ekan. Fayton hashamatli bino ro'parasida to'xtadi. Ikki tabaqali salmoqdor eshik, yaltiroq mis tutqichlar va hovlini o'rab olgan qadimiy uslubdagi temir panjaralar uyga salobat berib turardi. Bu taassurotni tasdiqlagandek hashamatli kiyimda xizmatkor chiqdi.

– Ha, mister Kelverton Smit uydalar. Doktor Uotson, dedingizmi? Yaxshi, janob, mumkin bo'lsa, tashrif qog'ozingizni bersangiz.

Mening kamtarin ismim va kasbim mister Kelverton Smitga hech qanday ta'sir ko'rsatmanga o'xshaydi. Chunki qiya ochiq eshikdan uning ingichka, asabiy ovozini eshitdim:

– Kim ekan? Unga nima kerak? Axir, sizga necha marotaba aytaman, Stepsl, men ishlayotganimda xalaqit bermang deb.

Xizmatkor itoatkorona shivirlab uni tinchlantirmoqchi bo'ldi.

– Stepsl, uni qabul qilmayman. Xalaqit berishganini yomon ko'raman. Unga meni uyda yo'q deb ayta qoling. Agarda juda kerak bo'lsam, mayli, ertaga ertalab kelsin.

Yana past ovozdagi shivirlash:

– Boring, boring, aytganimni qiling. Ertalab kela qolsin yoki umuman kelmasin.

Ko'z oldimga Xolmsning to'shakda g'ujanak bo'lib, yordam kutib yotgani keldi. Hozir odob saqlaydigan payt emasligini tushundim. Xolmsning hayoti mening xatti-harakatimga va mening qudratimga bog'liq edi. Xizmatkor chiqib xo'jayinining farmonini aytmoqchi bo'lgandi, uni chetga surib xonaga otilib kirdim.

Kamin yonidagi oromkursida o'tirgan odam g'azab bilan baqirib o'rnidan turib ketdi. Shunda men sariq, qo'pol yuzli, semiz, bag'baqalari osilgan, paxmoq sariq qoshlar tagidan menga tikilib turgan kulrang g'azabnok ko'zlarni ko'rdim.

Pushtirang kal boshiga sal qiyshaytirib duxoba telpak kiyib olgan. Ammo boshi haddan tashqari katta edi. Lekin nigohim pastga tushgan sayin uning tanasi qiltiriq, yelkalari tushib ketgan va xiyol qiyshayganini aniqladim. Menimcha, yoshligida bu odam raxit bo'lgan.

– Bu nimasi endi? – deb o'shqirdi ingichka ovozdada. – Nega bostirib kirdingiz? Men, axir, ertaga kelsin, deb aytgandim-ku!

– Kechirasiz, – dedim, – ammo bu juda ham zarur. Sherlok Xolms janoblari...

– Siz... Xolmsning oldidan keldingizmi?

– Men hozirgina uning huzuridan keldim.

– Xolmsga nima bo'ldi?

– U hozir juda qattiq betob. Shuning uchun ham, sizning yoningizga keldim.

Uy egasi meni o'tirishga taklif etdi va o'z oromkursisi tomon o'girildi. Kamin ustidagi toshoynada uning aksi yalt etib ko'rindi. Qasamyod qilib aytishim mumkinki, uning yuzida qandaydir jir-

kanch yovuzona jilmayish bor edi. Shunda men, «bu jilmayish emas, asabdan tomir tortilishi bo'lsa kerak», deb o'yladim. Ammo yana bir daqiqadan so'ng menga o'girilib o'tirganda yuzida o'sha hamdardlik paydo bo'ldi.

– Bu xabarni eshitish men uchun juda og'ir, – dedi u. – Men janob Xolms bilan faqat ish yuzasidangina uchrashgandim, ammo uni faqat buyuk iste'dodi uchungina emas, balki asl inson bo'lgani uchun ham hurmat qilaman. U jinoyatlarni topish bilimdoni, men esa bemorlarni davolash bilimdoni; u yovuzlar bilan kurashsa, men mikroblar bilan kurashaman. Mana mening mahbuslarim, – davom etdi u, stol ustida qator turgan shisha idishlarni ko'rsatib. – Bu idishlarda juda ham xatarli jinoyatchilar har xil muddatlarni o'tashmoqda.

– Xolms bu sohadagi buyuk iste'dodingizni yuqori baholab, sizga yubordi. Uning fikricha, London bo'yicha bu ishda faqat birgina siz yordam bera olar ekansiz.

Kichkina odamcha seskanib ketdi. Shunda uning olifta qalpoqchasi yerga tushdi.

– Nega endi? – so'radi u. – Nega mister Xolms aynan men yordam berishim mumkin deb o'ylayapti?

– Chunki siz sharqona kasalliklar bilimdonisiz.

– Nega endi unga yuqqan kasalni aynan sharqona deb topdi?

– Chunki u Xitoy matroslari orasida ko'p yillar ishlagan, shunda bu sohada ancha mahorat orttirgan.

Kelverton Smit iltifotli tirjaydi-da, yerdan qalpoqchasini oldi.

– Shunday deng... – dedi u. – O‘ylaymanki, bu kasal siz tashvishlanayotganchalik xafvli bo‘lmasa kerak. Darvoqe, u necha kundanda beri betob?

– Taxminan, uch kun.

– Alahsirayaptimi?

– Ahyon-ahyonda.

– Hmm! Bunisi yomon. Uning iltimosiga rad javobi berishni vahshiylik deb bilaman. Men, doktor Uotson, ishdan qoldirishganini yoqtirmayman, ammo bu istisno. Shu sababli men hoziroq siz bilan birga ketaman.

Xolmsning tayinlagani yodimga tushdi:

– Kechirasiz, hozir meni boshqa bir joyda kutishyapti, – dedim.

– Yaxshi, unday bo‘lsa, o‘zim boraveraman. Janob Xolmsning manzili menda yozilgan. Yarim soatlardan so‘ng yetib boraman.

Xolmsning xonasiga yuragimni hovuchlab kirib bordim. Shu vaqt ichida eng noxush voqea sodir bo‘lishi mumkin edi. Ammo uning ahvoli ancha yengillashgan edi. Yuzlari hamon murdanikidek oq edi-yu, lekin alahsirashdan asar ham qolmagandi. Zaif, bo‘g‘iq tovushda gapirgani bilan fikrlashi juda aniq va tiniq edi.

– Uotson, siz uni ko‘rdingizmi?

– Ha, u hozir keladi.

– Yashang, Uotson, juda soz. Siz eng yaxshi xabarchisiz.

– U men bilan birga kelmoqchi edi.

– Bu mutlaqo mumkin emas, Uotson. Bunga hecham yo‘l qo‘yish kerak emas. Mening kasalim sabablarini so‘radimi?

– Men unga Ist-End dengizchilari haqida gapirdim.

– Juda soz! Haqiqiy do'stning ishini qildingiz. Endi, Uotson, siz sahnadan chiqib ketsangiz ham bo'ladi.

– Xolms, men uni kutib turishim va fikrini bilishim kerak.

– Albatta. Agarda biz u bilan xoli bo'lsak, unda ancha ochiqchasiga fikrini bayon etishi mumkin, deb o'ylayman. Bosh tarafimda, devor bilan karavot o'rtasida sizga yetarli joy bor, Uotson.

– Azizim Xolms!

– Boshqa ilojingiz yo'q, deb qo'rqaman, Uotson. Xonada berkinadigan joy ham yo'q, hatto shunday bo'lgani ma'qul, shubha uyg'otmaydi. Ammo bu yerga yashirinsangiz, Uotson, biz hech narsa yo'qotmaymiz.

U birdaniga o'tirib oldi. Ozg'in yuzida dadillik sezildi.

– Uotson, g'ildiraklar taraqlashini eshityapman. Agarda meni sevsangiz, tezroq berkinging. Nima voqea bo'lishidan qat'iy nazar, qimir etmang. Eshitdingizmi, nima voqea bo'lishidan qat'i nazar! Qimir etmang, lom-mim demang. Faqat diqqat bilan uning gaplarini eshitib oling.

Ancha o'ziga kelgan kasal to'satdan yana og'irlashib, uzuq-yuluq gaplar gapirib alahlay boshladi.

Men panohgohimdan oldiniga zinadan ko'tarilayotgan va yaqinlashayotgan oyoqlar tovushini, keyin xona eshigi ochilganini va yopilganini eshitdim. So'ngra, meni hayratga solgan sukunat



boshlandi. Faqat kasalning og'ir nafas olishi va sekin aljirashi eshitilardi.

Bizning mehmon kasal tepasida turib, bechora bemorning qanday azob chekayotganini tomosha qilayotganini tasavvur qildim. Nihoyat bu g'alati sukunat buzildi.

– Xolms! – dedi uxlayotgan odamni uyg'otayotgandek keskin ovozda Smit. – Xolms! Meni eshit-yapsizmi?

U kasalning yelkasidan qo'pollik bilan siltayotganini sezdim.

– Ha-a, janob Smit, sizmi bu? – pichirladi Xolms. – Rostini aytganda, sizning kelishingizga uncha ishonmagandim.

Smit xoxolab kuldi.

– Bo'lmasam-chi, – dedi u. – Ammo ko'rib turibsizki, men shu yerda. Yomonlikka yaxshilik qilyapman, Xolms, yovuzlikka yaxshilik qaytaryapman.

– Bu juda yaxshi, bu sizning oliyjanobligingiz. Men sizning bilimdonligingizni juda yuqori baholayman.

Mehmon iljayib qo'ydi.

– Baxtinga, butun London bo'yicha bu dardni faqat siz yaxshi tushunasiz. Sizga nima bo'lganini bilasizmi?

– Xuddi o'shaning o'zi, – dedi Xolms.

– Shunday deng! Siz hatto kasalning alomatlarini ham sezyapsizmi?

– Ha, judayam yaxshi sezyapman.

– Nailoj, Xolms, juda ham bo'lishi mumkin. Xuddi o'shanday desa ham bo'laveradi. Agarda

rost bo'lsa, unda ishingiz chatoq. Bechora jiyanim Viktor to'rtinchi kuniyoq olamdan o'tdi, u esa sizga nisbatan ancha yosh, baquvvat, sog'lom edi. Siz o'shanda qanday qilib Londonning qoq o'rtasida bu sharqona kasallikni yuqtirish mumkin, deb hayron qolgandingiz... Vaholanki, men aynan shu kasallikni o'rganayotgandim. Xolms, tasodifni qarang. Siz juda sinchkovsiz, shuning uchun ham, bu tasodifni darrov payqadingiz, ammo o'limning sababi aynan shunda, deganingiz menga yoqmadi.

– Bilaman, bu sizning ishingiz...

– Shundaymi, bilarmidingiz? Ammo hech narsani isbotlab berolmadingiz. Oldiniga menga qarshi ayb qo'yingiz, boshingizga tashvish tushishi bilan yordam so'rab yalindingiz, axir, bu ikkiyuzlamachilik emasmi? Yoki buning boshqacha biror nomi bormi? Xo'sh?

Men zo'rg'a gapirayotgan xirillashni eshitdim.

– Menga suv bering, – deb kasal bazo'r shivirladi.

– Kuningiz bitgan, azizim, yaqinda narigi dunyoga jo'naysiz. Ammo siz bilan gaplashib olmagunimcha ketmayman. Aynan shuning uchun ham sizga suv beryapman. Ushlang! To'kilmasin. Shunday. Men nima deyayotganimni tushunyapsizmi?

Xolms ingradi.

– Bir ilojini qiling, menga yordam bering. O'tgan gapga salovat... Keling, unutaylik, – deb shivirladi u. – Men bu ishni mutlaqo miyamdan chiqarib yuboraman. Qasamyod qilishim mumkin. Men unutaman, meni davolasangiz, bas.

– Nimani unutasiz?

– Viktor Sevejning o'limini. Hozir siz o'z jinoyatingizga iqror bo'ldingiz. Men ana shuni unutam.

– Ixtiyoringiz, yodda tutasizmi, unutasizmi, bu sizning ishingiz. Men guvohlar orasida sizni ko'rmayman. Siz boshqa yerda bo'lasiz, azizim Xolms. Mening jiyanim nimadan o'lganini bilasangiz bilavering. Hozir gap u haqda emas, siz haqingizda.

– Ha, ha.

– Huzurimga yuborgan do'stingiz, ismi esimda qolmadi, sizni bu dardni Ist-Endda matroslardan yuqtirgan, – dedi.

– Men faqat o'sha yerda yuqtirgan bo'lishim mumkin, deb o'ylayman.

– Xolms, yana aqlliman, deb kekkayib yurasiz! Siz o'zingizni judayam farosatli deb bilasiz, to'g'rimi? Ammo sizdan aqlliroq shaxs topildi. O'ylab ko'ring-chi, Xolms, bu kasallikni boshqa yo'l bilan yuqtirgan bo'lishingiz mumkin emasmi?

– Men o'ylashga qodir emasman. Kallam ishlamayapti. Xudo haqi, yordam bering!..

– Ha, men sizga yordam beraman, faqat qanday yuqtirganingizni tushunishgagina yordam beraman. O'limingizdan oldin shuni tushunib olishingizni juda istayman.

– Bu og'riqlarni yengillashtiradigan biror narsa bering, iltimos!

– Ha, og'riqlar paydo bo'ldimi? Mening sichqonlarim ham o'limidan oldin chiyillashardi. Go'yo paylar tortishib qolgandek-a?

– Ha, ha, xuddi changakdek.

– Hechqisi yo‘q. Bu gapimni eshitishingizga xalaqit bermaydi. Eshiting! Eslab ko‘ring-chi, kasal bo‘lishingizdan oldin hayotingizda biror bir g‘aroyib voqea sodir bo‘lganmi, yo‘qmi?

– Yo‘q, yo‘q, hech narsa.

– Yaxshiroq o‘ylang.

– Men juda og‘ir kasalman, o‘ylashga qodir emasman.

– Unday bo‘lsa, sizga yordamlashib yuboraman. Pochta orqali biror narsa olmadingizmi?

– Pochta orqali?

– Masalan, quticha.

– Hozir, hozir, eslab ko‘ray-chi. Tinkam qurib boryapti!

– Xolms, eshiting! – u jon berayotganni yelkasi-dan qattiq silkidi, shekilli. Men o‘z joyimda zo‘rg‘a chidab o‘tirardim. – Siz meni eshitib olishingiz kerak! Fil suyagidan yasalgan quticha esingizdami? Siz uni chorshanba kuni oldingiz. Uni ochdingiz... esingizdami?..

– Ha, ha, men uni ochdim, unda o‘tkir prujina bor edi. Qandaydir hazil...

– Bu hazil emas, siz bunga tez orada ishonasiz. Siz ahmoq odam, endi o‘zingizdan o‘pkalayvering. Mening yo‘limga to‘g‘anoq bo‘lishni kim qo‘yibdi sizga? Agarda menga tegnaganingizda, sizga yomonlik qilmasdim.

– Esimga tushdi! – xirilladi Xolms. – Prujina! Men ehtiyotsizlik qilib panjamni o‘shanda qonatib olgan edim. Ana o‘sha quticha, stol ustida.

– Xuddi o‘sha! U hozir cho‘ntagimda g‘oyib bo‘ladi. Shunday qilib, bu yerda hech qanday ashyoviy dalil qolmaydi. Shunday qilib, Xolms, siz

endi butun haqiqatni bilasiz va men sizni o'ldirganim haqidagi ma'lumotni narigi dunyoga olib ketasiz. Siz Viktor Sevej haqida ko'p ma'lumotga egasiz va shuning uchun ham uning kuni sizning boshingizga tushdi. Siz yaqin orada o'lasiz, Xolms. Men shu yerda o'tirib, sizning o'layotganingizni tomosha qilaman. Xolmsning ovozi juda pasayib, shivirlardi.

– Nima? – deb so'radi Smit. – Gazning olovini ko'taraymi? Nima balo, ko'zingiz oldi qorong'lashayptimi? Men jon talvasangizni ko'rish uchun olovni, albatta, o'zim ko'taraman. – U uyni kesib o'tib, deraza yonida turgan plitaga qo'l uzatdi va shu zahotiy oq xona yorishib ketdi. – Balki yana biror xizmat kerakdir, tortinmang, o'limingiz oldidan aytavering, azizim!

– Papiros bilan gugurt!

Men xursand bo'lganimdan baqirib yuborishimga sal qoldi. Biroz horg'in bo'lsa-da, ammo Xolms o'zining tabiiy, men yaxshi bilgan ovozida gapirdi. Chuqur sukunat cho'kdi, Kelverton Smit ajablanib Xolmsga tikilib qolganini sezib turibman.

– Buni qanday tushunmoq kerak? – deb sovuq va qat'iy ohangda so'radi u.

– Rolni yaxshi o'ynash uchun, – javob berdi Xolms, – uni hayotga singdirib yuborish kerak. Siz menga bir stakan suv berguningizcha uch kun va uch kecha na ovqat yedim, na suv ichdim. Chin so'zim. Eng qiyini uch kun chekmaganman. Ha, darvoqe, mana papirosim! – Men gugurtning chaqilganini eshitdim. – Mana endi sal o'zimga keldim. Oho, do'stimning oyoq tovushlarini eshitayapman, shekilli.

Tashqarida oyoq tovushlari yaqinlashdi va eshik ochilib, inspektor Morton paydo bo'ldi.

– Hammasi joyida. Uni olib ketishingiz mumkin, – dedi Xolms.

– Viktor Sevejning o'limida ayblanganingiz uchun hibsga olindingiz, – dedi inspektor.

– Yana shuni ham qo'shib qo'yishingiz mumkin. Sherlok Xolmsning hayotiga suiqasd qilgani uchun, – deb do'stim miyig'ida kulib qo'ydi. – Kasalni bezovta qilmaslik uchun Kolverton Smit janoblari o'zlari gazning olovini ko'tarish bilan sizga ishora berdilar. Aytgandek, mahbusning o'ng cho'ntagida quticha bor. Uni ehtiyot bo'lib oling. Mana bu yerga qo'ying. Bu quticha sudda kerak bo'ladi.

To'satdan sakrash, qandaydir kurash, zanjir tovushi va nihoyat og'riqdan chinqirish eshitildi.

– Foydasi yo'q. Faqat o'zingizni mayib qilasiz, – dedi inspektor. – Tek turing!

Qo'lga kishan solishganini yaqqol eshitdim.

– Hali shundaymi?! Pistirma! – chinqiriq ovoz eshitildi. – Xolms, bu qilmishingiz uchun javob berasiz, men emas, balki siz qora kursiga o'tirasiz. U meni o'zini davolash uchun chaqirtirdi. Unga rahmim kelib yetib keldim. Endi u, albatta, har xil bo'htonlarni aytib, qandaydir shubhalarini mening boshimga yog'diradi. Marhamat, Xolms, istaganingizcha yolg'on gapirishingiz mumkin. Mening so'zlarimning toshi siznikidan, balki, og'irroqdir...

– Yo Xudo! – xitob qildi Xolms. – Uni butunlay unutibman. Ming bor uzr, azizim Uotson, meni

kechiring. Bu yerdaligingiz mutlaqo xayolimdan chiqibdi! Sizni mister Kelverton Smit bilan tanishtirishimning hojati yo'q bo'lsa kerak, chunki bugun ko'rishgansizlar. Inspektor, faytoningiz bormi? Men kiyinishim bilan ketingizdan yetib boraman. Balki politsiyaga yordamim kerak bo'lib qolar.

Xolms kiyina turib, bir necha bo'lak biskvitni yedi va ustidan bir stakan sharbat ichdi.

– Nazarimda hech qachon bunday ishtaha bilan ovqat yemaganman, – dedi u. – Biroq hayotim boshqalarnikidan tubdan farq qilgani uchun men ga bu qahramonliklar yengilroq. Missis Xadson kasalimga ishonishini juda-juda istardim, chunki u sizga xabar berishi kerak edi, siz esa Smitga. Uotson, xafa bo'lmadingizmi? Sizning behisob iste'dodingizga qalbaki kasal bo'lish kirmaydi, albatta, iqror bo'ling bunga. Ammo agarda siz mening mug'ambirlik qilayotganimni bilganingizda Smitni bu yerga kelishiga ko'ndira olmagan bo'lar edingiz, bu esa mening rejalarimning eng asosiy qismi edi. Men uning qasoskorligini bilganim uchun bu yerga kelishiga va o'z qurbonini tomosha qilishiga ishonardim.

– Ammo sizning ko'rinishingiz, Xolms, murdardek oqarib ketgan yuzingiz?..

– Uch kun og'izga hech vaqo olmasa, odamning albatta chiroyi yo'qoladi. Qolgani grim. Bo'rtib chiqqan yanoqlarga qizil surish, peshonaga vazelin, ko'zga belladon sepish va nihoyat labga surtilgan mumbular hammasi o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'zini kasalga solish – bu mening navbatdagi

mavzuyim. Monografiyalarimdan birini shunga bag'ishlamoqchiman. Yarim kron, chig'anoqlar va boshqa shunga o'xshash, asosiy mavzuga oid bo'lmagan gaplar alahsirash vazifasini yaxshi ko'rsatdi...

– Agarda hech qanaqa yuqumli kasal bo'lmasa, unda nega oldingizga yaqinlashishga yo'l qo'ymadingiz?

– Azizim Uotson, shuniyam so'rab o'tiribsiz-a?! Men sizning tibbiy bilimingizni yuqori baholamayman, deb o'ylaysiz, shekilli? Jon berayotgan odamning isitmasi, tomir urishi o'zgarishini sizning iste'dodingizdan yashirib bo'larmidi? Faqat to'rt-besh qadam naridan sizni aldash mumkin edi, xolos... Agarda fosh bo'lganimda unda menga Smitni kim keltirardi? Uotson, u qutichaga tegmang. Agarda yon tarafidan sinchiklab qarasangiz, o'shandagina nayzaga o'xshash prujinacha qayerdan ochganda paydo bo'lishini sezishingiz mumkin. Balki shunga o'xshash biron narsa orqali bechora Viktor Sevej o'ldirilgandir. Chunki u shu maxluq Smit bilan katta boy merosni bo'lishib olishda kelisholmagan edi.

Sizga ma'lum, men g'aroyib posilkalar olaman, shuning uchun juda ehtiyot bo'laman. Smitning rejasi amalga oshganini unga ishontirolsam, u bor gapni aytib berishiga ishonardim. Kasallik rolini esa haqiqiy aktyorlardek o'ynadim.

Rahmat sizga, Uotson, endi iltimos, paltomni kiyishimga yordamlashib yuboring. Biz politsiyada ishlarimizni bitkazib, Simpsonning oshxonasiga birgalikda kelsak, menimcha, yomon bo'lmaydi.



## TO'RTLAR BELGISI

### I BOB

#### **Xolms deduktiv uslubining mohiyati**

Sherlok Xolms kamindan shishacha oldi-da, ixchamgina soxtiyon qutichadan teri ostiga ukol qiladigan shprisni chiqardi. Oppoq titroq barmoqlari bilan ninani shprisga o'rnatdi-da, ko'ylagining chap yengini tirsagigacha shimarib qo'ydi. U ilgarigi ukollardan son-sanoqsiz nuqtalar qolgan zabardast qo'lga bir zum o'ychan tikildi. So'ng ninani sanchdi-da, baxmal kursi suyanchig'iga suyanib, huzur qilib chuqur nafas oldi.

Men ko'p oylar davomida kuniga uch marta shu bir xil manzaraning shohidi bo'ldim-u, lekin unga sira-sira ko'nikolmasdim. Aksincha, kun sayin g'azabim ortib, unga qarshilik ko'rsatishga qurbim yetmaganidan aziyat chekardim. Do'stimning bu odati haqidagi fikrimni unga ochiq-oshkora aytaman deb o'zimga qayta-qayta so'z berardim-u, lekin sovuqqon, vazmin tabiati uni to'g'ri yo'lga solish to'g'risidagi har qanday niyatimni puchga chiqarardi. Do'stimning aql-zakovati, bir so'zligi, amirona xulqini, boshqa ajoyib, noyob xislatlarini bilganim uchun ham hadiksirab, aytmoqchi bo'lgan gapim bo'g'zimda qolardi. Lekin o'sha kuni nonushta paytida jindek ichib olganim uchunmi yo Xolmsning o'jarligidan jazavam tutganidanmi, xullas, ortiq chidayolmay g'azabimni to'kib soldim:

– Bugun qaysi biri, – deb so‘radim, – morfiymi yo kokainmi?

Xolms lotin harfda yozilgan eski kitobdan ko‘zini uzdi.

– Kokain, – deb javob qildi u. – Yetti foizli. Sinab ko‘rasizmi?

– Rahmat, o‘zlariga buyursin! – dedim shartta. – Afg‘on urushidan keyin haliyam o‘zimga kelolganimcha yo‘q. O‘zimga ortiqcha yuk ortishni istamayman.

Jahlim chiqqaniga Xolms miyig‘ida kulib qo‘ydi.

– Ehtimol, siz haqdirsiz, Uotson, – dedi u. – Narkotik moddalar ham sog‘liq uchun zarar. Lekin u aqlni ishlatishga, fikr ravshanlashishiga yordam berishini kashf etdim. Binobarin, ularning zararli ta‘sirini e‘tiborga olmasa ham bo‘ladi.

– Axir, o‘ylasangiz-chi, – dedim qizishib, – bular siz uchun juda qimmatga tushadi-ku! Ha, ana, miyangiz juda tez ishladi deylik, lekin buning turgan-bitgani zarar, asabni ishdan chiqarib, oxir-oqibatda aqli zaiflikka olib boradi. Keyin odamning qanday ruhiy holatga tushishini yaxshi bilasiz. Yo‘q, Xolms, bu arziydigan ish emas! Nahotki, bir lahzalik huzur-halovat deb tabiat sizga in‘om etgan noyob aql-iste‘dodni qurbon qilsangiz? Tushunsangiz-chi, siz bilan do‘st emas, balki o‘z mijozining sog‘lig‘i uchun javob beradigan shifokor sifatida gaplashyapman.

Sherlok Xolms ranjimadi. Aksincha, bu gaplar uning ko‘nglini ochayotganday edi.

– Mening miyam, – dedi u tirsagi bilan kursiga suyanib, barmoqlarini bir-biriga juftlarkan, –

bekorchilikka qarshi isyon ko'taradi. Menga ish bering! Menga eng murakkab muammoni, hal qilib bo'lmaydigan vazifani, chigal voqeani bering – o'sha zahotiy oq sun'iy dori-darmonlarni unuta-man. Aqlim qattiq ishlashi kerak. Xuddi shuning uchun ham men o'zim uchun noyob bir kasbni tanlaganman, to'g'rirog'i, uni yaratdim, chunki bu dunyoda ikkinchi Sherlok Xolms yo'q.

– Nima, siz bu dunyoda yakka-yu yagona xufiyamisiz? – deb so'radim, qoshlarimni chimirib.

– Yakka-yu yagona xususiy xufiya-maslahatchi, – deb javob berdi Sherlok Xolms. – Eng so'nggi va oliy instansiya. Gregson, Lestreyd yoxud Etni Jons mushkul ahvolga tushib qolganlarida, darrov menga murojaat qilishadi. Men ish bilan batafsil tanishib chiqib, o'z fikrimni, mutaxassis fikrini aytaman. Shon-shuhrat ketidan quvmayman. Biror ishning chigalini yechishga muvaffaq bo'lsam, nomim gazetalarda tilga olinmaydi. Ishning o'zi, o'z uslubimni amalda qo'llay olsam, shuning o'zi men uchun oliy mukofot. Siz, Uotson, uni yaxshi bilasiz. Aqalli Jefferson Xoup ishini bir eslang-a.

– Ha, esimda, – dedim ancha yumshab. – Antiqa hodisa. Men hatto bu to'g'rida «Shafaq rangidagi etyud» degan nom bilan qissaga o'xshagan bir narsa yozganman.

– Qissangizga ko'zim tushuvdi, – Xolms quruqqina bosh chayqab qo'ydi. – E'tirof etishim kerakki, sizni muvaffaqiyat bilan tabriklay olmayman, jinoyatni tekshirish, ochish – bu aniq fan, har holda aslida shunday bo'lishi kerak. Bu ishni ehtirosiga berilmay, juda aniq va izchil tasvirlash

kerak. Kitobingiz esa yig'loqi bir ruhda yozilgan. Bu Yevklidning beshinchi postulati to'g'risidagi mulohazalarga ishqiy mojaroni aralastirishday bir gap.

– Axir, unda chindanam romantik bir voqea bor edi-da, – deb e'tiroz bildirdim. – Men shunchaki faktlarga qat'iy amal qildim.

– Ba'zi bir narsalar to'g'risida og'iz ochmasa ham bo'lardi, aqalli faktlarni bayon etishda me'yordan chiqmaslik kerak edi. Bu ishda kishining e'tiborini tortadigan birdan bir narsa bu natija-yu, sababga oid fikr-mulohazalar sirasi. Ishning chigalini muvaffaqiyatli yechishga xuddi shu narsa yordam berdi.

Bu so'zlar menga og'ir botdi – axir ko'nglini ko'tarish uchun Xolmsning ishini tasvirlagan edim. Uning xudbinligi ham jahlimni chiqardi, kitobimning har bir satrini uning bebaho uslubiga bag'ishlashim kerak ekan-da. Do'stim bilan Beyker-stritda bir necha yil birga istiqomat qilib, vazmin, nasihatimuz gap-so'zlari zamirida yashiringan qandaydir manmanlik, shuhratparastlikni necha-necha bor payqaganman. Lekin unga hech nima deb javob qilmadim, afg'on miltig'idan otilgan o'qni yaqininginda chiqarib olishgan yarador oyog'imni qimirlatganimcha indamay o'tiraverdim. Jarohat yurishimga xalaqit bermasa-da, lekin havo ayniganda oyog'im zirqirab og'rirdi.

– Yaqindan buyon qit'adagi jinoyatlarni ochishda qatnasha boshladim, – dedi bir zumdan keyin Xolms, trubkasiga tamaki solarkan. – O'tgan haftada Fransua le Vullar maslahat so'rab menga

murojaat qildi, siz bilsangiz kerak, keyingi vaqtda u Fransiyaning eng zoʻr izquvarlari qatoriga qoʻshildi. U kelt irqiga xos boʻlgan judayam tez sezish qobiliyatiga ega, lekin u eng zoʻr izquvar sifatida sanʼatimizning maxsus sohalarini yetarlicha bilmaydi. Ish bir vasiyatnoma bilan bogʻliq boʻlib, unda bir qancha qiziqarli detallar bor edi. Men Vullarga xuddi shunga oʻxshash ikki voqeani eslatdim – bittasi 1857-yilda Rigada, ikkinchisi 1871-yilda Sent-Luisda tekshirildi. Xuddi shu narsa uning bir qarorga kelishi uchun turtki boʻldi. Bugun ertalab undan xat oldim, yordamim uchun minnatdorchilik bildiribdi.

U shunday deb turib, menga ikkiga buklanigan chet el qogʻozini uzatdi. Undagi mednifudv, coup-maitre d'ctoursov-force<sup>16</sup> degan soʻzlarga koʻzim tushdi, bu fransuzning juda qoyil qolgani-dan dalolat berardi.

– U ustoziga murojaat qilgan shogird sifatida yozibdi-da, – dedim.

– U yordamimga ortiqcha baho berib yuborgan, – dedi Xolms beparvogina. – Uning oʻzi ham juda isteʼdodli odam, ideal xufiyalar uchun zarur boʻlgan uch xislatning kamida ikkitasiga ega: u kuzatishga usta, oʻz kuzatuvlari asosida xulosalar chiqara oladi. Hozircha unga bilim yetishmaydi, lekin vaqt-soati bilan bilim ham keladi. U hozir kitoblarimni fransuzchaga tarjima qilyapti.

– Nima, siz ham yozasizmi?

– Ha, shu kasalim ham bor, – Xolms kulib yubordi. – Men bir nechta risola yozdim. Ulardan

---

<sup>16</sup> Goʻzal – mohirona, dohiyona (fransuzcha).

biri «Kuliga qarab tamaki navini aniqlash» deb atalib, sigara, sigaret va trubka tamakisining yuz qirq navi ta'riflab berilgan. Unga qo'shimcha ravishda turli kullarni ko'rsatuvchi rangli rasmlar berilgan. Tamaki kuli – eng ko'p uchraydigan dalil. Ba'zida juda muhim hisoblanadi. Masalan, agar siz qotillik qilgan odam hind tamakisini chekadi deb aniq aytolsangiz, tabiiyki, qidiruv doirasi torayadi. Kartoshka karamdan qanchalik farq qilsa, Trixinopol tamakisining qora kuli ham «qush ko'zining» oppoq barglaridan shunchalik katta farq qilishini tajribali ko'z darrov payqaydi.

– Mayda-chuyda narsalarni ham payqaydigan ajoyib qobiliyatingiz bor-da, – dedim.

– Shunchaki ularning muhimligini tushunaman. Yoki oyoq izlari to'g'risidagi risolamni olaylik. Unda o'sha izni saqlab qolish uchun gipsdan foydalanish to'g'risida gapiriladi. Kichik bir tadqiqot kasbning qo'l shakliga ta'siriga bag'ishlangan, unda tunukachi, dengizchi, kompozitor, to'quvchi va olmos pardozlovchi qo'llarning litografiyasi berilgan. Bu tadqiqot o'z kasbini fan, ilm deb biluvchi josus uchun katta amaliy ahamiyatga ega. O'likni aniqlash yoki jinoyatchining nima bilan shug'ullanishini bilish kerak bo'lganida bu usul, ayniqsa, qo'l keladi. Lekin ko'rib turibman, o'zim bilgan, yaxshi ko'rgan narsam haqida ko'p gapirib, sabr-chidamingizni suiiste'mol qilyapman.

– Zarracha! – qizg'in e'tiroz bildirdim. – Bu narsalar men uchun haddan ziyod qiziq, ayniqsa, shuning uchunki, bilimlaringizni amalda qanday qo'llanilishini o'z ko'zim bilan ko'rganman. Mana,

siz kuzata bilish va xulosa chiqara olish qobiliyati xususida gapirdingiz. Men bo'lsam, bularning ikkovi ham bir narsa deb yurardim.

– Yo'q, bular boshqa-boshqa narsalar, – deb javob qildi Sherlok Xolms, kursining yumshoq suyanchig'iga huzur qilib suyanar va trubkasidan halqa-halqa tutun chiqararkan. – Mana, masalan, kuzatuv menga shuni ko'rsatdiki, siz ertalab Uigmor-stritdagi pochtada bo'lgansiz, mantiqiy fikrlash qobiliyati esa menga, siz u yerga telegramma jo'natish uchun borganingiz to'g'risida xulosa chiqarishimga imkon berdi.

– Qoyil-e! – deb xitob qildim. – Topdingiz.

Lekin tan olishim kerakki, buni qanday fahmlaganingizni bilolmayapman. Men pochtaga tasodifan kirib qoldim, buni bitta-yarimtaga gapirganimni eslolmayman.

– Bundan osoni bormi, – hayron bo'lganimni ko'rib Sherlok Xolms miyig'ida kulib qo'ydi. – Shu qadar jo'nki, tushuntirib o'tirishning hojati yo'q. Lekin shu misolda sizga kuzata bilish qobiliyati bilan xulosa chiqara bilish salohiyati o'rtasidagi farqni ko'rsatib berishim mumkin edi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, botinkangizning tagcharmiga qizg'ish loy yopishgan. Uigmor-stritdagi pochta-ning oldida xuddi o'sha paytda yer qazishayotgandi. Hammayoq qazib tashlanganidan pochtaga loyni bosmasdan kirib bo'lmasdi. U yerlarning tuprog'i o'ziga xos, qizg'ish rangda, yaqin atrofda bunaqa tuproq uchramaydi. Kuzatuvlar natijasi shunday bo'ldi. Qolganlarini mantiqiy xulosa qildim.

– Xo‘sh, telegramma jo‘natganimni qayoqdan bildingiz?

– Buyam juda oson. Ertalab hech qanday xat yozmaganingiz menga ma‘lum edi-da, axir, ertalab anchagacha ro‘parangizda o‘tirdim. Stolingizning ochiq tortmasida bir dasta pochta otkritkasi bilan bir varaq markaga ko‘zim tushdi. Xo‘sh, pochtaga telegramma jo‘natish uchun bormasangiz, yana nima maqsadda borishingiz mumkin? Ortiqcha, o‘rinsiz narsalarni olib tashlasangiz, birgina faktning o‘zi qoladi, xuddi o‘sha fakt haqiqatdir.

– Chindanam, hammasi jo‘ngina-ya, – dedim bir zum jim turganimdan keyin. – Lekin o‘zingiz ham sezib turibsizki, bu juda oddiy, jo‘n voqea. Xiraligimni kechirasiz-u, lekin uslubingizni og‘ir bir sinovdan o‘tkazishni istardim.

– Juda xursand bo‘lardim. Bu meni ortiqcha kokain ichishdan xalos etadi. Istagan vazifangizni topshiring.

– Esimda, bir payt, agar biror buyum uzoq ishlatilsa, unda, albatta, egasining shaxsiga tegishli biror iz qoladi, degandingiz. Tajribali odam undan ko‘p narsalarni uqib olishi mumkin. Yaqinda bir soat qo‘limga tushdi. Marhamat qilib aytsangiz, o‘sha soatning eng oxirgi egasining xulq-atvori, odatlari qanaqa bo‘lgan?

Unga soatni qandaydir bir ichki mamnuniyat bilan uzatdim, chunki nazarimda bu yechib bo‘lmaydigan muammo edi, maqsadim og‘aynimning sal bo‘lsayam popugini pasaytirib qo‘yish edi, zero, uning e‘tirozga o‘rin qoldirmaydigan bir ohangdagi gaplari, o‘git-nasihatlari



ba'zida jahlimni chiqarardi. U soatni go'yo salmoqlab ko'rayotganday qo'lida bir zum ushlab turdi-da, keyin avvaliga shunday, so'ngra ikki qavariqli kuchli lupa bilan mexanizmini ko'zdan kechira boshladi. Xolms soat qopqog'ini shiq etib yopib, hafsalasizlik bilan menga uzatganida, kulib yuborishimga sal qoldi.

– Bir nima deyish qiyin, – dedi u. – Soat yaqindagina ustaning qo'lidan chiqqan, u yaxshilab tozalagan. Shuning uchun ham qat'iy bir narsa deyolmayman.

– Siz haqsiz, – dedim. – Menga berishlaridan oldin u chindanam soatsozning qo'liga tushgan.

Uning muvaffaqiyatsizligiga ishonarsiz, shunday bir arzimas bahona bilan izohlagani uchun ko'nglimda og'aynimdan o'pkaladim.

Qiziq, u tozalanmagan soatdan nimalarni bilishi mumkin?

– Garchi natijalarim bilan maqtana olmasam-da, lekin har holda, unda ba'zi bir narsalarni ko'rdim, – dedi u shiftga parishonlik bilan tikilib. – Agar yanglishguday bo'lsam, iltimos, meni tuzating, Uotson. Shunday qilib, menimcha, bu soat akangizniki, unga otangizdan meros qolgan.

– Siz, hoynahoy, soat qopqog'iga o'yib yozilgan «G. U.» harflarini ko'rib, shunday fikrga keldingiz-a?

– Xuddi shunday. Axir, familiyangiz «U» harfidan boshlanadi-ku, shunday emasmi? Soat yarim asr burun ishlangan, ismlar ham deyarli o'sha paytda o'yib yozilgan. Bundan, soat katta avlodga mansub kishiga tegishli bo'lgan,

degan xulosaga keldim. Bilishimcha, oilaning qimmatbaho buyumlari otadan katta o'g'ilga o'tadi. Akangizga ham otangizni ismini bergan bo'lishlari ehtimoldan xoli emas. Agar xotiramdan ko'tarilmagan bo'lsa, otangiz qazo qilganiga ko'p yillar bo'ldi. Binobarin, soatni sizgacha akangiz taqib yurgan.

– Ha, hozircha hammasi to'g'ri kelyapti, – dedim. – Xo'sh, soatda yana nimalarni ko'rdingiz?

– Akangiz ancha bebosh, yengiltak, isqirt odam bo'lgan. Unga tuzukkina meros qolgandi, istiqboli porloq edi. Lekin u barini sovurdi, ba'zida omad kulib boqsa ham, lekin baribir qashshoqlikda yashadi. Oxir-oqibatda ichkilikka berilib, o'lib ketdi. Soatdan bilgan narsalarim shu bo'ldi.

Ta'bim xira bo'lib, stuldan sapchib turdimda, xonada oqsoqlanib u yoqdan-bu yoqqa yura boshladim.

– Xolms, juda xunuk ish qildingiz. Siz baxtsiz akamning og'ir qismatidan qaysidir yo'l bilan xabar topgansiz-u, o'zingizni go'yo bir mo'jiza tufayli hozir eshitganday tutyapsiz. Bularning hammasini eski soatdan bilganingizga sira-sira ishonmayman! Bu insofdan emas, qolaversa, lo'ttivozlikning hidi kelyapti.

– Azizim Uotson, – dedi mayin ovozda Xolms, – Xudo xayringizni bersin, meni kechiring. Siz bergan masalani yecha turib, uning sizga qanchalik daxldorligini unutilib qo'yibman, akangiz haqidagi xotiralarning siz uchun qanchalik og'ir bo'lishini o'ylamabman. Lekin gaplarimga ishoning, shu soatni ko'rmagunimcha akangiz borligi to'g'risida hech nima bilmasdim.

– Unday bo'lsa, tushuntirib bering, bularning hammasini qayoqdan bildingiz? Akam to'g'risidagi hikoyangiz ipidan ignasigacha haqiqatga to'g'ri keladi.

– Baxtim chopib, bir to'g'ri kelib qoldi-da. Men, ehtimol, shunday bo'lsa kerak, deb faqat taxmin qilishim mumkin edi, buni qarangki, hammasi to'g'ri chiqsa-ya.

– Yo'q, bu faqat taxmin emasdir?

– Bo'lmasam-chi. Men hech qachon fol ochmayman. Bu juda yomon odat: mantiqiy fikrlash qobiliyatiga halokatli ta'sir qiladi. Siz juda hayron bo'lyapsiz-a, chunki fikr-mulohazalarimning yo'nalishini ko'rmayapsiz, mayda faktlar esa siz uchun yo'q. Holbuki, fikr-mulohazalar, odatda, ayni shu mayda faktlar asosiga quriladi. Mana, masalan, birinchi xulosamni olib ko'raylik – saranjom-sarishtalik akangizga xos fazilat emas, dedim. Agar soatining orqa tomonini sinchiklab ko'zdan kechirsangiz, faqat qopqog'ining ikki joyi ezilganini emas, balki uning qattiq biror narsa bilan, masalan, kalit yoki tanga bilan tirnalganini ham ko'rasiz, ularni akangiz soati bilan bir cho'ntagida olib yurgan. Ellik giney turadigan soatni bunchalik beparvo, pala-partish olib yuradigan odamning saranjom-sarishta emasligini taxmin qilish uchun aqli raso bo'lish shart emas. Shuni ham fahmlash qiyin emaski, bu odam shunday qimmatbaho soatni meros qilib olgan ekan, demak, merosning o'zi ham kam emas.

Men hamma gaplaringizni e'tibor bilan tinglayapman, deganday bosh irg'ab qo'ydim.

– Angliya lombardida soatni garovga olisha-yotganida kvitansiya raqamini, odatda, soat qopqog‘ining ichki tomoniga igna bilan yozishadi. Bu har qanday yorliqdan qulay. Yorliq yo‘qolib qol-masmikin yoki uni almashtirib qo‘yishmasmik, deb xafvsirab ham yurmaysan.

Men bu soatda lupa yordamida ana shunday raqamlardan kamida to‘rttasini ko‘rdim. Xulosa shuki, akangiz ko‘pincha mushkul ahvolga tushib qolarkan. Ikkinchi xulosa – vaqti-vaqti bilan ishi-ni to‘g‘rilab yurgan, aks holda garovga qo‘yilgan soatni sotib ololmasdi. Nihoyat soat qopqog‘ining pastiga bir qarang-a, unda kalit uchun teshik bor. Qarang-a, hammayog‘i tirlalgan, bu kalit izlari, kalitni o‘sha teshikka darrov tushirish oson emas. Ichmaydigan odamning soatida bunaqa tirlalgan joylar bo‘lmaydi. Piyonistalarda hamisha bo‘ladi. Akangiz soatini kechasi allamahalda buragan, qarang-a, uning ojiz qo‘li qanchadan qancha belgi qoldirgan. Xo‘sh, bunda qanday mo‘jiza va sirli narsa bo‘lishi mumkin?

– Ha, endi ko‘ryapman, hammasi jo‘n narsa ekan. Nohaq bo‘lganimdan o‘kinyapman. Sizning noyob qobiliyatingizga ko‘proq ishonishim kerak edi. Bir savol bersam maylimi? Hozir qo‘lingizda biror qiziqarli ish bormi?

– Yo‘q. Shuning uchun ham kokain qabul qil-yapman-da. Miyam tinimsiz ishlashi kerak, busiz yashayolmayman. Hayotning ma‘nosi bo‘lmaydi. Tashqariga bir qarang. Olam naqadar miskin, xu-nuk, omonat! Qarang-a, sarg‘ish tuman ko‘chalar ustida suzib yuribdi, ko‘rimsiz uylarni chulg‘ab

olgan. Bundan ham sovuq, xunuk manzara bo'ladimi? Qani, aying-chi, doktor, noyob iste'dodni ishlatish imkoniyati bo'lmaganidan keyin undan nima foyda? Nihoyat zerikarli, yashash zerikarli, bu dunyoda diqqatbozlikdan boshqa narsa qolgani yo'q.

Men uning bu balandparvoz gaplariga e'tiroz bildirmoqchi bo'lib, endi og'iz juftlagan ham edimki, eshikni qattiq taqillatib qolishdi. Xonaga uy bekasi kirib keldi. Qo'lidagi mis patnischada tashrif qog'ozi yotardi.

– Sizni bir yosh qiz yo'qlayapti, ser, – deb uy bekasi do'stinga murojaat qildi.

– Miss Meri Morsten, – deb javob berdi u. – Hm, bu nom menga tanish. Iltimos, missis Xadson, miss Morstenni taklif qiling. Doktor, siz ketmang. Shu yerda bo'lishingizni istardim.

## **II BOB**

### **Ish bilan tanishyapmiz**

Miss Morsten xonaga yengil qadam bosib, dadil kirib keldi. O'zini xotirjam va erkin tutardi. Bu sochlari oq-sariq, nimjon, bejirim, did bilan kiyingan, qo'llariga oppoq qo'lqop kiygan juda yosh qiz edi. Lekin uning ust-boshida ham kamtarlik, qandaydir soddalik sezilib turardiki, turmushi uncha yaxshi bo'lmasa kerak, degan o'yga borarding. Egnidagi ko'ylagi qoramtir-qo'ng'ir jundan tikilgan bo'lib, hech qanday bezagi yo'q edi, kichkina shlyapasi ham qo'ng'ir rangda bo'lib, bir tomonidagi oq pat unga zeb berib turardi. Rangpar yuzi xushbichim bo'lmasa ham, lekin yoqimli, istarasi

issiq, katta moviy ko'zlari mehr-muruvvat bilan boqardi. Uch qit'a ayollarini ko'rganman, lekin oliyhimmatligi va ko'ngilchanligi yuzidan sezilib turgan bunday chehrani hech uchratmagandim. Miss Morsten Xolms taklif etgan stulga o'tirayotganida, qo'llari va lablarining titrayotganini sezib qoldim, hoynahoy, qattiq hayajonlanayotganidan bo'lsa kerak.

– Ataylab sizning huzuringizga keldim, mister Xolms, – deb boshladi o'z so'zini mehmon, – chunki uy bekasi missis Sesil Forresterga bir oilaviy mojaro chigalini yechishda yordam bergansiz. U sizning yaxshiligingizni, aql-zakovatingizni hali-hali unutilmaydi.

– Missis Sesil Forrester dedingizmi? – deb takrorladi Xolms o'ychan. – Ha, esimda, unga jindek yordam qilgandim. Lekin bu oddiy bir voqea edi.

– Missis Forrester bu to'g'rida boshqa fikrda. Lekin sizning oldingizga butunlay boshqa ish bilan keldim, u haqda bunday deyolmaysiz. Shunday vaziyatga tushib qoldimki, bundan ham g'alati, tushunib bo'lmaydigan holni tasavvur qilish qiyin.

Xolms qo'llarini ishqadi, ko'zlari yaraqlab ketdi. U o'tirgan oromkursisida sal oldinga engashdi, qirg'iyname chehrasi sergaklanib, butun vujudi quloqqa aylandi.

– Qani, ishingizni bayon qiling, – dedi u quruq va jiddiy ohangda.

O'zimni noqulay his etib, o'rnimdan turar ekanman:

– Ruxsatingiz bilan, sizlarni tark etsam, – dedim.

Sira kutilmaganda miss Morsten qo'lqopli qo'lini ko'tarib, meni to'xtatdi.

– Agar do‘stingiz qolsa, – dedi u, – menga juda katta yordam qilgan bo‘lardi.

Men yana joyimga o‘tirdim. Morsten gapida davom etdi:

– Qisqa qilib aytganda, ishning mohiyati bunday. Otam Hindistondagi polklardan birida ofitser bo‘lib xizmat qilardi. Juda kichkinaligimda u meni Angliyaga jo‘natdi. Onam o‘lib ketgan. Angliyada qarindosh-urug‘larimizdan hech kim qolmagan, otam meni Edinburgdagi eng yaxshi xususiy pansionatlardan biriga joylashtirib qo‘ydi. O‘sha yerda men o‘n yetti yoshimgacha tarbiyalandim. 1878-yilda otam, u o‘shanda polkning katta ofitseri edi, bir yillik ta‘tilini olib, Angliyaga keldi. U Londondan menga telegramma yuborib, yaxshi yetib olganini, «Lenem» mehmonxonasiga joylashganini, meni intizor bo‘lib kutayotganini yozgandi. Telegrammadagi har bir so‘zdan – uni juda yaxshi eslayman – otalik mehri, g‘amxo‘rligi sezilib turardi. Londonga kelishim bilan vokzaldan to‘ppa-to‘g‘ri mehmonxonaga jo‘nadim. U yerdagilar menga, kapitan Morsten chindanam mehmonxonamizda turibdi, kecha kechqurun qayoqqadir ketdi-yu, shu mahalgacha qaytib kelmadi, deyishdi. Otamdan xabar kelarmikin deb kuni bilan kutdim. Kechqurun mehmonxona ma‘murining maslahati bilan politsiyaga murojaat qildim. Ertasiga otamning yo‘qolgani haqida hamma gazetalarda e‘lon berildi-yu, lekin hech qanday javob olmadik. O‘sha kundan buyon to hozirga qadar sho‘rlik otam haqida hech qanday xabar

yo‘q. U qizini ko‘rish, jindek dam olish, ozgina bo‘lsa ham xotirjam yashash niyatida Angliyaga qaytib keluvdi, lekin buning o‘rniga... – Miss Morsten ho‘ngrab yig‘lab yubormaslik uchun kaftini tomog‘iga bosdi-yu, gapining yarmi bo‘g‘zida qoldi.

– Bu voqea qachon bo‘luvdi? – deb so‘radi Xolms, yondaftarchasini ocharkan.

– Otam 1878-yilning 3-dekabrida, qariyb o‘n yil burun g‘oyib bo‘ldi.

– Buyumlari-chi?

– Mehmonxonada qolgan. Ularda otamning g‘oyib bo‘lish sirini ochishga yordam beradigan hech nima yo‘q: kiyimlari, kitoblar, Andamon orolidan olib kelingan har xil noyob narsalar. Otam qamoqxonani qo‘riqlaydigan qismda ofitser bo‘lib xizmat qilardi.

– Uning Londonda do‘stlari bormidi?

– Men faqat bittasini – mayor Sholtoni bilardim. Ular O‘ttiz to‘rtinchi Bombay piyoda askarlar polkida birga xizmat qilishgan. Mayor iste‘foga chiqib, otamning kelishidan sal oldin Angliyaga qaytib kelib, Apper-Norvudda joylashdi. Biz u bilan gaplashdik. Albatta, u do‘stining qaytib kelganidan umuman bexabar ekan.

– Juda g‘alati ish, – dedi Xolms.

– Lekin eng qizig‘i bu yoqda. Olti yil muqaddam, 1882-yilning ayni 4-mayida «Tayms»da miss Morsten qidirilayotgani haqida e‘lon bosildi, miss manfaatlaridan kelib chiqib, manzilni «Tayms»ga ma‘lum qilish so‘ralgandi. Men o‘shanda missis Sesil Forresterga xodima bo‘lib endi ishga tushgandim. U menga manzilimni e‘lonlar bo‘limiga



yuborishimni maslahat berdi. Manzil gazetada berilgan kuni pochtadan posilka – kichkinagina karton quticha oldim. Undan juda katta va chiroyli marvarid donasi chiqdi, lekin posilkada bu sovg'ani kim yuborganini tushuntiruvchi xat yo'q edi. O'shandan buyon har yili, oyning o'sha kuni pochtadan xuddi o'shanday dur solingan quticha olardim, kim jo'natgani ko'rsatilmadi. Men durni zargarga ko'rsatdim, zargar bu noyob va qimmatbaho turi ekanini aytdi. Qanchalik chiroyliligini mana hozir o'zingiz ham ko'rasiz. – Miss Morsten yapaloq qutichani ochdi: unda oltita ajoyib dur bor edi, bunaqasini sira ko'rmagandim.

– Juda qiziq, – dedi Sherlok Xolms. – Yana boshqa biror hodisa yuz bergani yo'qmi?

– Shu bugun sodir bo'ldi. Oldingizga kelishimning boisi ham shu. Ertalab mana bu xatni oldim. O'qib ko'rsangiz.

– Rahmat, – dedi Xolms xatni olarkan. – Iltimos, konvertiniyam bersangiz. Shtempelida – London, Janubi-g'arb, 7-iyul. Hm! Bir burchagida – erkak kishining bosh barmog'ining izi bor. Aftidan, pochtachiniki bo'lsa kerak. Qog'ozi oliy nav. Konvert – bir pachkasi olti pens turaadi. Har holda, ancha didli odamga o'xshaydi, xususan, bu sohada. Xatni yuborgan odamning manzili yo'q. «Bugun kechqurun «Litseum» teatriga kiraverishda chap tomondan uchinchi ustunning oldiga keling. Agar qo'rqsangiz, yoningizga ikki do'stingizni oling. Sizga nisbatan adolatsizlik qilishdi. Bu ishni to'g'rilash kerak. Politsiyaga xabar qilmang. Agar politsiya ara-

lashsa, hamma ish rasvo bo'ladi. Sizning xayrixoh do'stingiz». Ha, chindanam ajoyib jumboq! Xo'sh, endi nima qilmoqchisiz, miss Morsten?

– Men ham sizdan xuddi shuni so'ramoqchi edim.

– Bo'пти, unda bugun kechqurun o'sha xatda ko'rsatilgan joyga boramiz. Siz, men va albatta, doktor Uotson. U bu ish uchun juda munosib odam. Sizning homiyingiz, yoningizda ikki do'stingizni olib keling, deb yozibdi-ku. Biz Uotson ikkovimiz birga ko'p ish qilganmiz.

– Doktor Uotson borishga rozi bo'larmikinlar? – deb so'radi miss Morsten, uning ovozida yolvorish, iltijoni eshitdim.

– Agar yordamim tegsa, o'zim uchun bir sharaf, alohida bir baxt deb bilaman, – dedim ehtiros bilan.

– Ikkovingiz ham menga juda mehribonlik qilyapsiz, – dedi miss Morsten. – Yakka-yolg'iz yashayman, yordamiga umid qiladigan do'stlarim ham yo'q. Unda siznikiga oltida kelaman. Kech bo'lmaydimi?

– Faqat hayallamang, – dedi Xolms. – Sizga yana bir savolim bor. Ayting-chi, bu xat ham, durlar solingan o'sha qutichalardagi manzil ham bir odamning qo'li bilan yozilganmi?

– Ular yonimda, – dedi miss Morsten, sumkachasidan narsa o'raydigan qog'ozning bir necha varag'ini olarkan.

– Siz ideal mijozsiz. Siz sezgir ekansiz. Qani, ko'raylik-chi! – U qog'ozlarni stolga yozdi-da, birin-ketin diqqat bilan ko'zdan kechira boshladi.

– Xatdan bo‘lak, hamma joyda dastxat o‘zgartirilgan – dedi ko‘p o‘tmay. – Lekin bir narsa shakshubhasizki, hamma manzillar, xat, bir odamning qo‘li bilan yozilgan. Qarang-a, «e» hamma joyda bir xil, yana shunga ham e‘tibor bering-a, oxirgi «8» ancha egilgan. U ham, bu ham bir odamning dastxati. Sizni hozirdanoq umidvor qilmoqchi emasman-u, lekin ayting-chi, miss Morsten, bu dastxat bilan otangizning o‘rtasida biror o‘xshashlik yo‘qmi?

– Hech qanday.

– Men ham shunday deb o‘yladim. Bo‘pti, demak, sizni soat oltida kutamiz. Ijzatingiz bilan bu qog‘ozlarning hammasini olib qolsam. Men yana bir bor o‘ylab ko‘raman. Vaqtimiz bor. Endi uch yarim bo‘pti. Xo‘p, ko‘rishguncha.

– Xayr, – deb javob qildi mehmonimiz, so‘ng durlar solingan qutichani ko‘kragiga yashirdi-da, bizga mehr to‘la nigoh tashlab chiqib ketdi. Deraza oldida turib uning yengil, ildam qadam tashlab uzoqlashayotganini oq pat qadalgan kulrang shlyapasi olomon orasida ko‘rinmay ketgunicha kuzatdim.

– Qanday dilbar qiz! – deb xitob qildim, do‘stimning oldiga qaytib kelgach.

Xolms yana trubkasini tutatdi-da, ko‘zlarini yarim yumganicha oromkursiga suyandi.

– Dilbar dedingizmi? – takror so‘radi loqaydlik bilan. – Men buni sezmadim.

– Yo‘q, Xolms, siz odam emassiz, siz arifmometrsiz! – dedim baland ovozda. – Turib-turib ba‘zida sizga juda hayron qolaman.

Xolms miyig'ida kulib qo'ydi.

– Eng muhimi – kishining shaxsiy fazilatlarining xulosangizga ta'sir qilishiga yo'l qo'ymaslik. Mijoz men uchun ba'zi bir ma'lumot, muammo komponentlaridan biri. Ehtiros – sof tafakkurning dushmani. Gapimga ishoning, eng go'zal, sohibjamol ayol o'zining uchta bolasini o'ldirgani uchun osilgan, bunaqasini sira uchratmagandim. U sug'urta polisi bo'yicha pul olish uchun bolalariga zahar bergan. Ko'rinishi nihoyatda sovuq tanishlarimdan biri, saxovatpesha odam sal kam chorak million so'mini Londonning kambag'al-qashshoqlariga sarflagan.

– Lekin bu galgisi...

– Men hech qachon istisno qilmayman. Istisno ishni yo'qqa chiqaradi. Menga qarang, Uotson, siz hech odamning dastxatiga qarab uning tabiatini, xulq-atvorini o'rganish bilan shug'ullanganmisiz? Shu xususda nima deya olasiz?

– Dastxati aniq va ravon odam, – deb javob berdim, – hoynahoy ishchan, omilkor, matonatli bo'lsa kerak.

Xolms bosh chayqadi.

– Mana bu uzun harflarga bir qarang-a, – dedi u. – Ular satrdan salgina chiqib turadi: «d» ni «a» deb, «i» ni esa «e» deb o'qish mumkin. Matonatli odam juda noaniq mujmal qilib yozishi mumkin, lekin uning yozuvidagi uzun harflar uzunligicha qoladi. Bizning muxbirimiz «k» harfini har safar har xil yozadi, bosh harflari shundayki, uning tabiatida jizakilik bor deb taxmin qilish mum-

kin. Xo'p, mayli, men ketdim. Ba'zi bir narsalarni so'rab-surishtirishim, aniqlashim kerak. Yo'qligimda mana bu kitobni o'qib chiqishingizni maslahat berardim – ajoyib asar. Uinvud Ridning «Inson azob-uqubatlari» romani. Bir soatdan keyin qaytaman.

Qo'limda kitob bilan deraza oldida o'tiribman-u, lekin o'y-fikrlarim muallifning dadil mulohazalaridan ancha yiroqda. Men haligina kelib ketgan qizni – uning jozibali tabassumini, chiroyli, yoqimli ovozini esladim. Uning hayotiga tushuntirib bo'lmaydigan bir sir soya solgandi. Otasi g'oyib bo'lganida u endigina o'n yettiga to'lgan edi, demak, hozir yigirma yettida – ajoyib yosh, bu davrda yoshlikka xos uyatchanlik hisi yo'qolib, hayot es-hushini ancha joyiga keltirib qo'yan bo'ladi. O'y-fikrlarim xatarli tus olmaguncha shu tariqa mulohaza qilib o'tiraverdim, keyin shosha-pisha yozuv stoli yoniga o'tirdim-da, yaqinda nashr etilgan patologiya kursini jon-jahdim bilan o'qishga kirishdim. Men, oyog'idan o'q ekan, ha, bo'sh, oddiy bir amerikalik xirurg bunday narsalarni orzu qilishga qanday haddim sig'di-ya? U qandaydir ma'lumot, masala komponentlaridan biri – shundan ortiq narsa emas. Modomiki, kelajagim nursiz ekan, yaxshisi bu haqda har xil xomxayollarga berilmay, asl erkaklarga o'xshab vazmin, xotirjam o'ylashim kerak.

### III BOB

#### Yechimni izlab

Xolms soat besh yarimda qaytib keldi. U ancha tetik, kayfi chog' edi – undagi dilgirlik, odatda, mana shunday o'zgarib turardi.

– Bu ishning hecham jumboqli joyi yo'q, – dedi u qo'limdan choy quyilgan chashkani olarkan. – Faktlarga qarab faqat bitta izoh berish mumkin.

– Nima, yechimini topdingizmi?

– Yo'q, bunday xulosa chiqarishga hali erta. Hozircha juda muhim bir detalni topdim. U menga ko'p narsalarni taxmin qilishimga imkon beradi, lekin hali ko'p narsalarni aniqlashim kerak bo'ladi. Men hozirgina «Tayms» yig'masidan shuni aniqladimki, O'ttiz to'rtinchi Bombey piyoda askarlar polkida xizmat qilgan appernorvudlik mayor Sholto 1882-yilning 28-aprelida o'lgan ekan.

– Siz, ehtimol, meni nodonga chiqarib qo'yar-siz-u, Xolms, lekin men bunda biron jiddiylikni ko'rmayapman.

– Ko'rmayapsizmi? Siz meni juda hayron qoldir-yapsiz, Uotson. Ha, mayli, bu ishga boshqa tomondan qaraylik. Demak, kapitan Morsten g'oyib bo'ldi. Londonda uning birdan-bir boradigan odami – mayor Sholto edi. Lekin mayor Sholto Morstenning Angliyaga kelishi to'g'risida hech nima eshitganim yo'q, dedi. Oradan to'rt yil o'tgandan keyin esa mayor vafot etadi. Uning o'limidan keyin bir hafta o'tgach, kapitan Morstenning qizi qimmatbaho sovg'a oladi. Oradan bir yil o'tgach, yana oladi, keyin yana. Xullas, sizga xiyonat qilishdi

degan mazmundagi xatni olmaguncha bir necha yil davomida posilka olib turadi. Bu, tabiiyki, otasining g'oyib bo'lishiga shama edi. Agar Sholto merosxo'rlari biron bir sirdan voqif bo'lishmasa, agar biror xizmati uchun miss Morstenni taqdirlamoqchi bo'lishmasa, unga qimmatbaho sovg'a-salomlar yuborib nima qilishardi? Buni boshqacha bir yo'sinda izohlab bera olasizmi, bu faktlarning hammasini bir butun qilib birlashtira olasizmi?

– Lekin bu juda g'alati taqdirlash-da! Yana g'alati bir qiyofada taklif qilishgan! Nega endi xatini olti yil burun emas, endi yubordi? Bundan tashqari, xatda adolatsizlikni silliqlab yuborish kerak, deyilgan. Qanaqa adolatsizlik? Axir, uning otasi hayot bo'lishi mumkin emas. Demak, u butunlay boshqa narsani nazarda tutyapti.

– Ha, bu mojaroning qorong'i joylari ko'p, – dedi Xolms o'ychan. – Lekin bugungi safarimiz hamma narsaga aniqlik kiritadi. Ana, miss Morsten ham keldi. Eshityapsizmi, g'ildirakli arava kelib to'xtadi. Tayyormisiz? Bo'пти, ketdik. Soat ham yetti bo'lib qoldi.

Men shlyapam bilan eng yo'g'on hassamni oldim. Xolms yozuv stolining tortmasidan to'pponcha olib, cho'ntagiga solganini sezib qoldim. Ko'rinib turibdi, oqshomgi safarimizni u ancha jiddiy ish deb hisoblayapti.

Miss Morstenning egnida qora splash, uning yoqimli chehrasi oppoq, lekin xotirjam edi. Agar bizning g'alati safarimiz unda tashvish uyg'otmasa, u ayol jinsining vakilasi bo'larmidi, lekin u o'zini tuta bilishi bilan bizni hayratda qoldirgandi,

Sherlok Xolmsning hamma savollariga bajonidil javob berardi.

– Mayor Sholto otamning eng qadrdon do‘sti edi. Otam o‘z xatlarida mayorni, albatta, tilga olardi. Ular Andamon orollaridagi soqchilik qo‘shinlarida ofitser bo‘lib xizmat qilishgandi, shu tariqa ko‘p vaqtlarini birga o‘tkazishardi. Ha, aytmochi, otamning yozuv stolidan g‘alati bir hujjat topildi. Uning nimaligini hech kim aytib berolmadi. Hujjatning bu mojaroga aloqasi bormi-yo‘qmi, bilmayman. Balki, tanishib chiqish siz uchun ham qiziqdir. Mana u.

Xolms bir necha bor buklangan qog‘ozni ochib, uni tizzasiga qo‘ydi-da, ehtiyotlik bilan silab tekisladi. Keyin ko‘ziga lupa tutib, sinchiklab qaray boshladi.

– Qog‘oz Hindistonda ishlangan, – dedi u. – Bu varaqni ancha vaqt knopkalar bilan taxtaga yopishtirib qo‘yishgan. Unda son-sanoqsiz xonalari, yo‘laklari, o‘tish joylari bo‘lgan qandaydir katta bir uyning bir qanoti loyihasi tushirilgan. Bir joyida qizil siyoh bilan kichkina xoch solingan, uning ustiga qalam bilan «3,37 chapdan» deb yozib qo‘yilgan, uning yarmi o‘chib ketgan. Chap burchagida g‘alati bir iyeroglif bo‘lib, u qator qilib yozilgan to‘rt xochni eslatadi, ularning ustki chiziqlari bir-biriga tutashgan bo‘lib, pastida yirik-yirik qilib: «To‘rtlar belgisi – Jonatan Smoll; Muhammad Singx, Abdulla Xon, Do‘st Akbar», deb yozib qo‘yilgan. Tushunmadim, buni sizning ishingizga nima daxli bor? Lekin, aftidan, bu juda muhim hujjat bo‘lishi kerak. Uni yondaftarda juda



ehtiyotlab asrashgan, chunki uning ikki tomoni ham top-toza.

– Biz uni xuddi shu yondaftardan topdik.

– Uni yo‘qotib qo‘ymang, miss Morsten. Ehtimol, u bizga hali kerak bo‘lib qolar. Menimcha, bu ish, avval tuyulganidan ko‘ra ancha murakkab, chigalga o‘xshaydi. Hammasini yana bir bor yaxshilab o‘ylab ko‘rishim kerak.

Xolms o‘rindiq suyanchig‘iga suyandi, uning chimirilgan qoshlaridan, ma’nosiz qarashlaridan bildimki, u qattiq o‘yga cho‘mgan. Miss Morsten ikkovimiz safarimiz, uning qanday tugashi haqida sekin gaplashib ketdik, sherigimiz esa butun yo‘l davomida bir og‘iz ham gapirmadi.

Sentabr oqshomi, soat yettilar chamasi edi. Ertalabdan havo aynigandi. Hozir azim shahar ustini qalin tuman pardasi qoplagan, u dam-badam yomg‘irga aylanardi. Qora, gugurtrang bulutlar iflos ko‘chalar ustida muallaq osilib turardi. Strendedagi fonuslarning xira nuri ho‘l yo‘lkalarga tushib yaltirardi. Do‘konlarning derazalaridan piyodalar tinimsiz o‘tib turgan ko‘chaga ham xira yorug‘lik tushib, tuman oq bulutday suzib yurardi. Yorug‘ning tor yo‘lagidan o‘tayotgan son-sanoqsiz g‘amgin va shodon, gulgun va tashvishli chehralarda qandaydir mudhish bir narsani ko‘rayotganday bo‘ldim. Nazarimda, arvohlar yopirilib kelayotganday edi. Butun inson zoti kabi ular zimiston qa‘ridan qalqib chiqib, yana o‘sha zulmat qo‘yniga g‘arq bo‘lardi. Men aslida ta’sirchan odam emasman-u, lekin bu fayzsiz noxush oqshom, g‘alati safarimiz asabimga ta’sir qildi, negadir

behuzur bo'ldim. Bunday qarasam, miss Morsten ham allanechuk bo'lib ketdi. Birgina Xolms hech nimani sezmaganday edi. U yondaftarchasini tizzasiga qo'yib, cho'ntak fonusi yorug'ida unga allaqanday raqamlar-u, so'zlarni yozardi.

«Litseum» teatrining yon tomonidagi eshigi oldida odamlar to'planib turishardi, asosiy eshik oldiga ikki g'ildirakli yengil aravalar va karetalar ketma-ket kelib to'xtardi, ulardan ko'ylaklarining yoqasiga ohor berilgan erkaklar, yelkalariga shol ro'mollar tashlab olgan brilliant ko'zli uzug-u ziraklar taqqan ayollar tushishardi. Uchrashuv tayinlangan joyga – uchinchi ustun oldiga borishimiz bilanoq aravakash kiyimidagi past bo'yli, bug'doyrang sho'x bir odam yonimizga keldi.

– Sizlar miss Morsten bilan birga kelganmisizlar? – deb so'radi u.

– Men miss Morstenman, bu jentlmenlar – do'stlarim.

Notanish odam bizga diqqat bilan teshib yuborguday tikildi.

– Meni kechirasiz, miss, – dedi u qat'iy, – lekin iltimos, shu do'stlarimdan hech biri politsiyada ishlamaydi, deb so'z bersangiz.

– So'z beraman, – deb xotirjam javob qildi miss Morsten.

Haligi odam hushtak chaluvti, bir daydi bola ko'chaning narigi tomonida turgan izvoshni boshlab keldi-da, eshigini ochdi. Suhbatdoshimiz o'rindiqa sakrab chiqib o'tirdi, biz ichkariga joylashdik. Aravakash tizginni silkitishi bilan izvosh tuman orasida yeldek uchib ketdi.

Vaziyat odatdagidan boshqacha edi. Biz qayoqqa va nima maqsadda ketayotganimizni bilmasdik. Yo bularning hammasi bir laqillatish, kimningdir hazili, deyishga hech qanday asos yo'q edi, yo qandaydir muhim narsani bilishimiz kerak edi, bu haqiqatga ko'proq yaqin kelardi. Miss Morsten odatdagiday xotirjam va vazmin edi. Men Afg'onistonda ko'rgan-kechirganlarim to'g'risida gapirib, uning ko'nglini ko'tarmoqchi bo'lardim, lekin ochig'ini aytsam, bu safarimiz o'zimni ham hayajonlantirar, buyog'i nima bo'larkin, deb juda qiziqardim. Shu tufayli hikoya qilayotgan sarguzashtlarim ancha chalkash tuyilardi. Miss Morsten, siz o'shanda menga g'aroyib bir voqeani gapirib bergandingiz, deb hali-hali eslaydi, men unga yarim kechada palatamga mushketyor kirganini, qo'shog'izli miltiqdan otib, uni yer tishlatganimni hikoya qilgandim. Avvaliga qayoqqa ketayotganimizni sal-pal kuzatib bordim, lekin tez yurganimizdan, atrof tuman bo'lgani, shuningdek, Londonni yaxshi bilmaganim uchun yo'nalishni aniqlayolmay qoldim. Faqat anchadan beri yo'ldaligimizni bilardim. Lekin Sherlok Xolms yo'nalishni nazardan qochirmay, dam-badam biz o'tayotgan maydonlar-u, ko'chalar nomini shivirlab aytib turardi.

– Rochester-roud, – derdi u. – Mana, Vinsentekverga ham keldik. Voksxollbrij-roudga chiqyapmiz. Aftidan, Surreyga ketayotganga o'xshaymiz. Ha, hoynahoy, o'sha yoqqa. Ko'priktan o'tyapmiz. Qaranglar-a, suvi yaltirab ko'rinyapti.

Chindanam pastda Temzaning qoramtir suvi yaltirardi, unda chiroqlar shu'lasini aks etardi, mana, izvoshimiz narigi sohilga chiqib olib, tor, qing'ir-qiyshiq ko'chalardan o'qdek uchib borardi.

– Uondsuert-roud, – dedi Xolms. – Prayori-roud, Larkxoll-leyn, Stokuell-pleys, Robert-strit, Kould-xarborleyn. Aftidan bizning yo'limiz shaharning hashamatli joylaridan o'tmaydiganga o'xshaydi.

Darhaqiqat, biz Londonning eng qorong'i va shubhali tumanlarining biridan ketib borardik. Chapda ham, o'ngda ham ko'rimsiz g'isht uylar tizilib ketgandi, ularning bir xilligini ko'chalarning muyulishlaridagi charaqlab turgan traktirlarning fayzsiz ko'rinishi buzib turardi. Keyin uylari oldida kichkina bog'chalari bo'lgan ikki qavatli villalarga duch keldik, so'ng yana yaqindagina didsiz qurilgan g'ishtin binolar boshlandi – ular o'zlarining mudhish panjalarini azim shaharning hamma tomoniga uzatgandi.

Nihoyat izvosh yangi ko'chadagi uchinchi uy oldida to'xtadi. Qo'shni uylarning birontasida ham odam yashamasdi. Biz to'xtagan uy ham, agar oshxona derazasidagi chiroq hisobga olinmasa, qo'shnilarnikiga o'xshab qorong'i edi. Eshikni taqillatdik, boshiga sariq salla o'rab, egniga keng oq ko'ylak kiyib, belini sariq belbog' bilan bog'lagan hindi xizmatkor o'sha zahoti eshikni ochdi. London chekkasidagi uchinchi darajali uy eshigi oldida g'ayrioddiy qiyofadagi kishini ko'rish g'alati edi.

– Sohib sizlarni kutyapti, – dedi u va o'sha zahoti ichki xonalarning biridan ingichka o'tkir ovoz eshitildi:

– Ularni oldimga olib kiring. Hoziroq boshlab kiring!

#### **IV BOB**

#### **Siyqabosh kishi voqeasi**

Biz hindiga ergashib xira yoritilgan va deyarli bo'm-bo'sh yo'lakdan yurib ketdik. U o'ng tomondagi eshik oldida to'xtadi-da, uning tabaqalarini lang ochib yubordi. Yorqin sarg'ish nur ko'zimizga urildi. Xonaning o'rtasida past bo'yli, otkalla bir odam turardi. Qarag'aylar qurshovidagi tog'ning yalang'och cho'qqisi misol cho'qqayib chiqib turgan siyqa boshidagi sariq sochi siyrak edi. U qo'llarini ishqalagancha qimir etmay turar, yuzi dam-badam o'zgarar: u goh jilmayar, goh tumshayib olar, bir zum ham xotirjam bo'lolmasdi. Tabiat unga osilib tushgan qalin lab, notekis, sariq yirik tishlar ato etgandiki, u yuzining pastki qismini kafti bilan silab, hadeb ularni yashirishga urinardi. Sochi to'kilib ketgan bo'lishiga qaramay u ancha yosh ko'rinardi. Aslida ham u endigina o'ttizga qadam qo'ygan edi.

– Miss Morsten, xizmatigingizga tayyorman, – deb takrorladi baland, ingichka ovozda. – Xizmatigingizga tayyorman, janoblar. Iltimos, zohidning xonasiga kiringlar. Ko'rib turibsizki, miss, xonaim kichkina, lekin undagi hamma narsalarni o'z didimga moslab joylashtirib chiqqanman.

Janubiy Londonning qarovsiz qabohatlari orasida san'at vohasi.

U taklif qilgan xonaning ko'rinishi bizni juda hayratda qoldirdi. Bu ko'rimsiz qorong'i uyda u mis gardishli asl brilliantni eslatardi: derazalarida shoyi pardalar, gobelenlar, zalvorli ramkalarda rasmlar, sharq vazalari. Polga solingan gilam qahrabo va qora rangda, qalin, yumshoq, mayin bo'lib, yurganingda oyoqlaring xuddi yo'sin ustida yurganday to'pig'inggacha botib ketardi. Gilam ustiga ikki katta yo'lbars terisi tashlab qo'yilgandi, ular burchakda to'shama ustiga qo'yilgan kattakon chilim bilan qo'shilib, xonaga sharqona bir hashamat baxsh etardi. Deyarli ko'zga ko'rinmaydigan tilla simda xona o'rtasida kabutar shaklidagi kumush lampa osig'liq turardi. Yonib turgan lampadan xonaga qandaydir yengil, muattar hid taralardi.

– Mister Taddeush Sholto, – dedi pakana odam boyagiday iljayib va silkinib. – Meni shunday deb chaqirasiz. Siz, hoynahoy, miss Morsten bo'lsangiz kerak. Bu jentlmenlar...

– Mister Sherlok Xolms bilan doktor Uotson.

– Doktor, a! – deb xitob qildi haligi odam xursand bo'lib. – Yoningizda stetoskop bormi? Sizdan bir narsani iltimos qilsam maylimi? Menga bir yaxshilik qilolmaysizmi? Bilasizmi, mitral klapanim kasalmi, degan shubham bor. Aortadan ko'nglim to'q, lekin shu mitral klapanidan bezovtaman-da! Shu xususda sizning fikringizni bilsam, degandim.

Men uning yuragini eshitib ko'rdim, lekin bu odamning boshidan oyog'igacha qaltirab ni-

madandir o'lgudek qo'rqqanini hisobga olmagan-da sog' edi.

– Mitral klapan joyida, – dedim. – Bezovta bo'lishingiz uchun asos yo'q.

– Siz tashvishlanayotganimni kechirishingiz kerak, miss Morsten, – dedi pakana odam xushmuomalalik bilan. – Men alamdiyda odaman. Mitral klapanim kasal bo'lsa kerak, deb ko'pdan beri gumonsirab yuraman. Shubhalarimning o'rinsizligini eshitib, o'zimda yo'q sevindim. Miss Morsten, agar otangiz yuragini ehtiyot qilganlarida hali ko'p yil yashashlari mumkin edi.

Bu qadar nozik masalaga bilar-bilmas aralashi-shi bilan u shu qadar jahlimni chiqardiki, tarsaki tushirib yuborishimga sal qoldi. Miss Morsten o'tirdi, uning rangi quv o'chib, hatto lablarigacha oqarib ketdi.

– Otamning hayot emasligini ko'nglim sezib yurardi, – dedi u.

– Men sizga hammasini tushuntirib beraman, – dedi pakana odam. – Bu ham gapmi, sizga nisbatan bo'lgan nohaqlikni ham tuzataman. Akam Bartolomyu nima desa desin, men baribir aytganimni qilaman. Do'stlaringizni uyimda faqat sizning shaxsiy soqchilaringiz sifatida emas, balki shu bugun men hikoya qilmoqchi, amalga oshirmoqchi bo'lgan barcha ishlarning shohidlari sifatida ko'rayotganimdan juda xursandman. Uchovimiz akam Bartolomyuga qat'iy qarshilik ko'rsatishga qodirmiz. Lekin guvohlar – na politsiya, na xolis guvohlar bo'lmasin. Biz begona odamni aralashalmasdan, o'zaro hamma ishni

to'g'rilaymiz. Sirning oshkor bo'lishi akam Bartolomyuni g'azablantirishi mumkin, – dedi pakana odam va past, yumshoq divanga o'tirdi-da, uzoqni ko'rolmaydigan ko'k ko'zlarini qisganicha bizga savol nazari bilan tikildi.

– Menga kelsak, – dedi Sherlok Xolms, – ishon-tirib aytamanki, sizdan eshitganlarim to'g'risida hech kimga og'iz ochmayman.

Men ma'qullagandek bosh irg'adim.

– Juda soz, juda soz! Ijzotingiz bilan sizga, miss Morsten, bir qadah kyanti taklif etsam, balki tokayni xohlarsiz? Menikida boshqa vino bo'lmaydi. Shishani ochsam maylimi? Ochmaymi? Unday bo'lsa, men bir cheksam, qarshi emas-misiz? Sizni tamaki tutuni, sharq tamakisining yengil, xushbo'y hidi bezovta qilmaydimi? Men sal asabiylashyapman, asabni bosishda chilimga teng keladigan dori-darmon yo'q.

U chilimni xo'r-xo'r qilib torta boshladi. Biz iyaklarimizni kaftlarimizga tiragancha yarim davra bo'lib o'tirardik, bu siyqabosh g'alati odam o'rtada o'tirganicha dam-badam silkinib, asabiy bir holda chilim chekardi.

– Bu taklifni sizlarga yuborishga qaror qilganimdan keyin, – dedi u nihoyat – xatda o'z manzilimni yozishim mumkin edi, albatta, lekin iltimosimni e'tiborsiz qoldirib, boshqa odamlarni boshlab kela-sizmi, deb qo'rqdim. Shuning uchun ham xizmatko-rim Uilyam bilan sizlarni teatr oldida uchrashtirdim, men unga to'la-to'kis ishonaman. Unga tegishli yo'l-yo'riqlarni berdim, mabodo biror nimadan shubhalanguday bo'lsang, uyga bir o'zing qaytgin,



deb tayinladim. Bu ehtiyotkorligim uchun kechiring, men yolg'izlikni yaxshi ko'raman, agar ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, nozikta'b odamman, bu dunyoda esa politsiyadan ham bemaza narsa yo'q. Qo'pol materializmning har qanday ko'rinishidan beixtiyor nafratlanaman. Men qora xalq bilan juda kamdan kam muloqotda bo'laman. O'zingiz ko'rib turibsizki, men go'zal bir sharoitda yashayman. O'zimni san'at homiysi deb atashim mumkin. Ha, bu mening jon-u dilim. Devordagi peyzaj – Kori asarining asl nusxasi, agar san'at bilimdoni mabodo mana bu Salvator Rozning asl nusxaligiga e'tiroz bildirguday bo'lsa, huv anavi Bugro xususida hech qanday shak-shubha bo'lishi mumkin emas. Men hozirgi zamon fransuz maktabining muxlisiman.

– Meni kechirasiz, mister Sholto, – dedi miss Morsten, – bu yerga sizning taklifingiz bilan keldim, nimanidir aytmoqchi edingiz. Vaqt ham allamahol bo'lib qoldi, istardimki, gaplarimiz iloji boricha qisqaroq bo'lsa.

– Lekin baribir biroz vaqtni oladi, – dedi uy egasi. – Chunki biz albatta Norvudga, akam Bartolomyuning oldiga borishimiz kerak. Hammamiz birga boramiz, ko'plashib uning o'jarligini yengishga urinib ko'ramiz. Ishni o'z bilganimcha, ancha halol olib borganim uchun u mendan juda xafa. Kecha u bilan qattiq tortishib qoldik. Akamning jahli chiqqanida qanaqa bo'lishini hecham tasavvur qilolmaysiz.

– Modomiki, Norvudga borishimiz kerak ekan, hoziroq jo'nasak bo'lmaydimi, – deb taklif qildim yurak betlab.

Pakana odam qattiq kulganidan quloqlarigacha qizarib ketdi.

– Yo‘q, buning iloji bo‘lmasa kerak! – deb xitob qildi u. – Akamning sizlarni qanday qabul qilishi menga qorong‘i. Shuning uchun ham sizlarni tayyorlashim, bir-birimizga munosabatimiz qandayligini tushuntirib qo‘yishim kerak. Dastavval shuni aytishim kerakki, bu mojaroda shunday hollar borki, hatto men uchun ham sir bo‘lib qolyapti. Binobarin, sizlarga hamma narsani emas, faqat o‘zimga ma‘lum bo‘lgan narsalarni gapirib beraman.

Otam, fahmlagan bo‘lsangiz kerak, mayor Jon Sholto bir vaqtlar Hindistonda mustamlakachilar qo‘shinlarida xizmat qilgan. O‘n bir yil avval iste‘foga chiqib, Angliyaga qaytib keldi va Apper-Norvuddagi Pondisheri-Loj qo‘rg‘onchasi-da joylashdi. Hindistonda u davlat orttirib, uyga sharq noyob buyumlarining boy kolleksiyasi va mahalliy xizmatkorlarning butun bir shtabi bilan qaytib keldi. Shunday qilib, u o‘ziga uy sotib oldi, zeb-ziynat ichida yashay boshladi. Uning men va akam Bartolomyudan bo‘lak bolasi bo‘lmagan. Biz egizakmiz.

Kapitan Morstenning g‘oyib bo‘lishi bizga qanday ta‘sir qilgani hali ham esimda. Uning g‘oyib bo‘lganini gazetalardan bildik, kapitan Morsten otamizning do‘sti bo‘lgani uchun ham biz aka-ukalar bu hodisani uning huzurida muhokama qilardik. U, odatda, gapimizga qo‘shilar, aslida nima bo‘lganiykin, deb har xil taxminlarga borardi. Biz kapitanning g‘oyib bo‘lish siri uning

yuragida bir umrga qolib ketishi mumkinligiga, Artur Morsten taqdiri faqat unga ma'lumligiga zarracha ham shubha qilmasdik.

Lekin biz baribir qandaydir sir otamizga azob berayotganini, qandaydir xafv-xatar unga tahdid solayotganini bilardik. U ko'chaga bir o'zi chiqishga qo'rqar, sobiq boksyorlarni Pondisheri-Lojda qorovul o'rnida saqlardi. Sizlarni bugun bu yerga boshlab kelgan Uilyam o'shalarining biri. U bir vaqtlar yengil vaznda Angliyaning chempioni bo'lgan. Otamiz nimadandir qo'rqayotganini bizga aytmasdi. Lekin yog'ochoyoqli odamlardan o'lgudek qo'rqishi uning yurish-turishidan, fe'l-atvoridan aniq sezilib turardi. Bir kuni u yog'ochoyoqli odamni to'pponchadan otib qo'yan, keyin bilishsa, u atigi bir beozor savdogar ekan; bu ishni bosti-bosti qilish uchun otam ancha pul to'ladi. Aka-uka, bu otamizning odatdagi qiligi bo'lsa kerak, deb o'ylagandik, lekin keyingi voqealar bizni bu fikrimizdan qaytishga majbur qildi.

1882-yilning boshlarida otam Hindistondan xat oldi, bu otam uchun yoz kunidagi chaqmoqdek bo'ldi. U ertalab nonushta paytida xatni ochib o'qib, hushidan ketishiga sal qoldi, u shu-shu to'lgunicha o'ziga kelolmadi. O'sha xatda nimalar yozilganini biz bilolmadik: lekin otam xatni qo'lida ushlab turganida buning aji-buji qilib yozilgan kichkinagina xat ekanini sezib qoldim. Otamiz ko'p yillardan buyon asab kasalligidan azob chekardi. Endi esa uning ahvoli ancha og'irlashdi, ko'z oldimizda kuch-quvvatdan qola bordi; aprelning oxirlarida shifokorlar uning sog'ayib ketishi-

ga umid yo'q, deyishdi. Bizni otamiz huzuriga chaqirishdi, u bizga vasiyat qilmoqchi ekan.

Xonaga kirganimizda otam karavotda yostiqlarga suyanib o'tirar, hansirab nafas olardi. U bizdan eshikni qulflab, ikki tomondan yaqinroq kelishni iltimos qildi. U ikkimizning qo'limizdan ushladi-da, hayajon va alamdand ovozi qaltirab, gapira boshladi. Biz eshitgan antiqa iqrorini sizlarga so'zma-so'z aytishga urinib ko'raman. «Shu tantanali daqiqada, – deb gap boshladi u, – bir narsa qalbimni ezyapti. Bu bechora yetimcha – Morstenning qiziga nisbatan yo'l qo'yan nohaqligim. Bir umrga qon-qonimga singib ketgan illat – la'nati xasislik o'sha qizni xazinadan mahrum etdi, adolat yuzasidan boylikning unga tegadigan qismidan mahrum qildi. Lekin o'zim ham ularni hech nimaga sarflolmadim, zero, ochko'zlik shu qadar ko'r va nodon bo'ladi. Shuncha xazinaga ega bo'lganimdan o'zimda yo'q xursand edimki, ularni hech kim bilan baham ko'rolmasdim. Bezgak dorisi solingan shishacha yonidagi marvarid tasbehni ko'ryapsizmi? Hatto, o'shani ham ko'zim qiymaydi, holbuki, unga jo'natish uchun ataylab olib qo'ygandim. O'g'illarim, Agra xazinasining unga tegishli qismini qizga berishlaring kerak. Lekin men bu dunyodan ko'z yummagunimcha hech nimani, hatto, o'sha tasbehni ham bermalaring. Axir, odamning kun-soati bitib, bir oyog'i go'rda turganida ham tuzalib ketadi-ku.

Sizlarga Morstenning qanday o'lganini gapirib beraman, – deb davom etdi u. – U ko'p yillar yurak kasalligidan azob tortdi, lekin buni men-

dan bo'lak hammadan yashirardi. Hindistonda ikkovimizning omadimiz yurishib, zamona zayli bilan juda katta boylik egasi bo'lib qoldik, iste'foga chiqqach, boylikni Angliyaga olib ketdim. Oradan ko'p o'tmay Morsten ham Angliyaga qaytib keldi, o'sha kuniyoq o'z ulushini olgani menikiga keldi. U stansiyadan Pondisheri-Lojga piyoda kelgan, sodiq xizmatkorim qari Lal Chavdar rahmatli uni huzurimga kirgizgan. Xazinani qanday taqsimlash masalasida Morsten ikkovimiz janjallashib qoldik. Morsten darg'azab bo'lib stuldan sapchib turdi, yuzi birdan qorayib, qo'lini ko'ksiga bosdi-yu, yuztuban yiqildi, boshi boyliklar solingan sandiqchanning chetiga urildi. Engashib qaragam, o'lib yotibdi, dahshatga tushdim.

Gangib, anchagacha nima qilishimni bilmadim. Birinchi istagim odamlarni yordamga chaqirish edi, albatta, lekin meni qotillikda ayblash uchun hamma asos bor edi. Janjal paytida o'lgani, boshidagi chuqur yara – hammasi menga qarshi edi. Buning ustiga rasmiy tergov, albatta, xazina bilan shug'ullanardi: bu sirimizdan hech kimni voqif qilmaslik uchun dalil-isbotlar yetarli edi. Morsten, mening qayoqqa ketganimni bu dunyoda bironta tirik jon bilmaydi, degan. Shundan keyin uning o'limini hech kim bilmagani ma'qul, degan fikrga keldim. Hali ham gangib o'tirgandim, boshimni ko'tarsam, eshik oldida xizmatkorim Lal Chavdar turibdi. U xonaga sekin kirdi-da, eshikni ichidan berkitdi.

– Qo'rqmang, sohib, – dedi u. – Uni o'ldirganingizni hech kim bilmaydi. Uni uzoqroq joyga ko'mamiz – shu bilan ishni gum qilamiz.

– Men o'ldirganim yo'q! – deb e'tiroz bildirdim.

– Hammasini eshitdim, – deb kulimsirab bosh chayqadi Lal Chavdar. – Janjallashganlaringni eshitdim, zarba ovozi eshitdim. Xotirjam bo'ling, hech kimga og'iz ochmayman. Uydagilarning hammasi uxlab yotibdi. Keling, jasadni ikkovlashib olib chiqib tashlaylik.

Men rozi bo'ldim. Modomiki, xizmatkorim ishonmayaptimi, maslahatchilar kamerasidagi o'n ikki nodon savdogarning sening aybsizligingga ishonishiga umid qilib bo'larkanmi? O'sha kuni kechasi Lal Chavdar bilan jasadni yashirdik, oradan bir necha kun o'tgach, Londonning hamma gazetalarida kapitan Morstenning sirli g'oyib bo'lgani haqida xabarlar bosildi. Sizlarga gapirib berganimdan ko'rinib turibdiki, aslida, meni hech nimada ayblab bo'lmaydi. Lekin men kapitanning jasadini yashirdim, ikkovimizga tegishli xazinani esa o'sha kundan e'tiboran o'z shaxsiy mulkim, deb hisoblay boshladim. Shuning uchun ham men istardimki, sizlar, farzandlarim adolatni tiklasalaring. Engashinglar, quloqlaringni labimga tutinglar. Hamma boyliklar yashirib qo'yilgan...». Shu payt uning afti dahshatdan burishib ketdi, ko'zlari kosasidan chiqquday bo'ldi, chakaklari osilib tushdi, so'ng shunday bir ovozda qichqirdiki, men bu ovozni o'la-o'lguncha unutmayman: «Uni qo'ymanglar. Barcha muqaddas narsalar haqi iltimos qilaman, uni qo'ymanglar!». Biz u tikilgan deraza tomonga qaradik. Qorong'ilik qa'ridan bizga bir bashara qarab turardi. Deraza oynasiga bosilgan, oqargan burni yaxshi ko'rinib turardi.

Yuzi qahr-g'azabga to'la, qoshigacha soqol bosgan, ko'zlari ma'yus va shafqatsiz edi. Akam ikkovimiz derazaga tashlandik, lekin bashara g'oyib bo'ldi. Otamning tepasiga qaytib kelganimizda, uning kallasi qiyshayib, tomirlari urishdan to'xtagandi.

Biz o'sha kuni kechasi bog'ning hammayog'ini qarab chiqdik, lekin deraza tagidagi gulzorda qolgan bitta oyoq izidan bo'lak hech qanday izni topolmadik. Agar mana shu birdan bir iz bo'lmanida, o'sha qahr-g'azabga to'la xunuk bashara xayolimizda ko'ringan bir narsa deb o'ylagan bo'lardik. Lekin birozdan keyin yana boshqa belgilarni topdikki, ular bizga qarshi qandaydir sirli kuchlar kurashayotganidan dalolat berardi. Bir kun ertalab otamning yotoqxonasi derazasi ochilib qolibdi, javonlar-u sandiqlar tit-pit qilindi, yozuv stoliga qog'oz parchasi yopishtirilgan bo'lib, unga aji-buji qilib: «to'rtlar belgisi» degan so'zlar yozilgandi. Uyimizga kelib ketgan o'sha sirli odamning kimligini, bu so'zlar nimani anglatishini shu-shu bilolmadik. Garchi butun uy ostin-ustin qilib tashlanganiga qaramay, nazarimizda otamning buyumlaridan hech nima yo'qolmagan edi. Tabiiyki, o'sha odamning kechasi kelishini akam ikkovimiz otamni bir umr ta'qib qilgan vahima bilan aloqador, deb o'yladik. Lekin o'sha odamning kimligi shu vaqtgacha jumboq bo'lib qolmoqda.

Pakana odam jim qoldi, keyin o'chib qolgan chilimini yana yondirdi-da, uni ustma-ust tortib, bir zum chuqur o'yg'a toldi. Biz uning juda antiqa hikoyasini zo'r e'tibor va qiziqish bilan tinglardik. Otasining o'limi haqida gapirayotgan-

da miss Morsten dokadek oqarib ketdi, menga u hozir hushidan ketadigandek bo'lib tuyuldi. Lekin burchakdagi kichkina stol ustida turgan, venetsiya shishasidan yasalgan grafindan men quyib bergan suvdan ichib, ancha o'ziga keldi, hayajonini bosdi. Sherlok Xolms oromkursi suyanchig'iga suyanganicha ma'nosiz boqib o'tirardi; ko'zlarining qanchalik chaqnayotgani osilgan qovoqlarining tagidan ko'rinib turardi. Men unga qarab, Xolmsning xuddi shu bugun hayotning zerikarlighi, bir xilligidan juda nolib gapirganini beixtiyor esladim. Mana endi har holda, muammo paydo bo'ldi-yu, uni hal etish uchun u o'zining butun iste'dodini sarf etadi. Mister Taddeush Sholto go'yo o'z hikoyasining bizga ko'rsatgan taassurotidan huzur qilayotganday bir-bir nigoh tashladi. U chilimni burqusitib chekarkan, hikoyasini davom ettirdi:

— Akam ikkovimiz, sizlar ham fahmlagan bo'lsalaring kerak, otamizning xazinalar to'g'risidagi hikoyasidan qattiq hayajonlandik. Bir necha oy davomida bog'ning hammayog'ini qadam-baqadam kavlab-qazib chiqdik, lekin hech vaqo topolmadik. Otam o'limi oldidan shu oxirgi so'zlarini aytolganida bormi, biz o'sha behisob xazinaning egasi bo'lardik, shuni o'ylab jinni bo'lib qolishimiz hech gap emasdi. Biz marvarid tasbehlarga qarab, boyliklar hajmini o'zimizcha chamaladik. Lekin xuddi o'sha tasbehlar xususida akam ikkovimiz biroz jig'illashib oldik. Aftidan, bu marvaridlar judayam qimmat tursa kerakki, akam ularni qo'ldan chiqargisi kelmasdi. Ochig'ini aytganda,



bu ojizlik unga otamdan o'tgan. Bundan tashqari, u, agar bitta-yarimta bu tasbehlardan ogoh bo'lsa, har xil mish-mishlar tarqaladi-yu, biz ham bir baloga giriftor bo'lamiz, deb o'ylardi. Men akamni miss Morstenning manzilini topib, unga ma'lum vaqtda tasbehlarni bittadan yuborib turishga arang ko'ndirdim, bu bilan aqalli miss Morstenni muhtojlikdan qutqara olarmiz, dedim.

– Siz ko'ngli ochiq odam ekansiz, – miss Morsten hikoya qilayotgan kishiga minnatdorchilik bilan qaradi. – Siz oliyjanoblik qilgansiz.

– Lekin baribir biz sizning vasiylaringiz edik, – dedi pakana odam qo'llarini silkitib. – Har holda men shunday fikrda edim. Lekin akam Bartolomyu fikrimga hecham qo'shilgisi kelmasdi. Pulimiz ko'p edi. Men bisotimizda boridan xursand edim. Yosh bir qizga nisbatan bu qadar vijdotsizlik qilish – bu badaxloqlik alomati. Le *mauvais dout mene au sreme*<sup>17</sup>. Fransuzlar bu xildagi fikrlarni qanday ixcham va go'zal ifoda etadilar-a! Qarashlarimizdagi ixtilof shu qadar chuqurlashdiki, men alohida turishni afzal ko'rdim. Shunday qilib, o'zim bilan birga keksa hindi xizmatkorimni oldim-da, Pandisheri-Lojni tark etdim. Lekin kuni kecha, juda muhim bir voqea sodir bo'lganidan voqif bo'ldim: o'sha boyliklar yashirib qo'yilgan maxfiy joy topilibdi. Men o'sha zahoti miss Morstenga xabar qildim, mana endi biz o'sha Norvudga borib, o'z ulushimizni talab qilishimiz kerak, qiladigan ishimiz shu.

---

<sup>17</sup> Badxohlik jinoyatga olib boradi (fransuzcha).

Kecha kechqurun akam Bartolomyuga, miss Morstenga xat yuborganimni aytdim. Binobarin, garchi ular bizni quchoq ochib kutib olmasalar ham, har holda ko'kragimizdan itarishmas.

Mister Sholto jim qoldi, u o'zining hashamatli, yumshoq, keng divanida o'tirib, o'qtin-o'qtin silkinib qo'yardi. Biz bo'lsak churq etmasdan bu sirli ishning kutilmaganda boshqacha tus olishi to'g'risida mulohaza qilardik. Birinchi bo'lib Sherlok Xolms oyoqqa turdi.

– Siz, o'zingizni juda to'g'ri tutgansiz, ser, – dedi u. – Siz hikoya qilgan voqeaning hamma qorong'i tomonlarini oydinlashtirishga urinib ko'ramiz, sizga minnatdorchiligimizni shu bilan izhor etamiz. Lekin hozirgina miss Morsten aytganlaridek, chindanam vaqt o'tyapti, biz bu ishga zudlik bilan kirishishimiz kerak.

Yangi tanishimiz chilimning trubkasini sekin burab chiqardi-da, so'ng parda orqasidan qorako'l yoqali, chetlariga jiyak qilingan uzun paltosini oldi. Havo issiq, hatto dim bo'lishiga qaramay, u paltosining hamma tugmalarini qadadi, boshiga quyvon terisidan tikilgan quloqchinini bostirib kiydi, yuzidan bo'lak hammayog'i bekilgan edi.

– Sog'lig'imning mazasi yo'q, – deb tushuntirdi bizga eshik tomon yurarkanmiz, – qat'iy bir rejimga amal qilishga majburman.

Darvoza oldida bizni izvosh kutib turardi. Aftidan, hammasi avvaldan rejalashtirib qo'yilganga o'xshaydi: biz o'tirishimiz bilanoq otlar yeldek uchib ketdi. Taddeush Sholto tinimsiz gapirar, uning baland ovozi arava g'ildiraklarining taqir-tuqirini bosib ketardi.

– Bartolomyu – aqlli yigit. Siz nima deb o‘ylaysiz, u xazina yashirilgan sandiqchani topdimikin? U shunday xulosaga keldiki, modomiki, sandiqcha tashqarida yo‘q ekan, demak, u uyda, xonaning qayeridadir bo‘ladi. U hamma xonalar-u, yo‘laklarni, qaznoqlarni o‘lchab chiqdi. Ma‘lum bo‘ldiki, butun uyning balandligi yetmish to‘rt fut ekan, ustma-ust tushgan xonalarning har birining balandligini olib, hammasini qo‘shsak, keyin u ikki tomonidan teshib o‘lchab chiqqan tomning qalinligini ham hisobga olsak, umumiy balandligi yetmish futdan oshmaydi. Demak, to‘rt fut qayoq-qadir yo‘qolibdi. Turgan gapki, ularni tepadan qidirish kerak. Shundan keyin akam yuqori qavatdagi xonaning shiftini teshgan, qarasa, yana bir kichkinagina chordoq bor ekan, shunday bo‘lishi ham kerak edi, u berkitib tashlangandi, shuning uchun ham uni hech kim bilmasdi. Chordoqning o‘rtasida, to‘sin ustida xazina solingan sandiqcha turardi. Bartolomyu bir amallab teshikdan chiqarib oldi-da, qopqog‘ini ochdi. Unda kamida yarim million funtli qimmatbaho buyumlar bor edi.

Bu raqamni eshitib, hammamiz baqrayib qoldik. Agar miss Morsten haqini himoya qilolsak, u bechorahol qizdan Angliyaning eng badavlat kelinlaridan biriga aylanadi. Shak-shubhasizki, har qanday chin do‘st bunday yangilikdan xursand bo‘lishi kerak edi. Uyat bo‘lsa ham aytishim kerak, bu xabar yuragimga toshdek qadaldi. Men tutila-tutilla ming‘illab tabrikladim-da, yangi tanishimning keyingi gaplariga quloq solmay polga ma‘yus tikilib qoldim. U g‘irt vasvas, vahimachi

edi. U kasallarini bir chekkadan sanab, firibgarlardan sotib olgan va doimo charm xaltada ko'tarib yuradigan xilma-xil dori-darmonlarning tarkibi-yu, ta'sirini tushuntirib berishni so'rab yalinganini uyqu aralash eshitdim. Zora, u o'sha kuni kechasi bergan maslahatlarimni eslab qolmagan bo'lsa, degan umiddaman. Xolms, kanakunjut moyini zinhor ikki tomchidan ko'p ichmang, deb ogohlantirganimni eshitibdi. Men yana tinchlantiruvchi vosita o'rnida strixninni katta miqdorlarda ichishni maslahat beribman. Nima bo'lganda ham izvoshimiz shartta to'xtab, izvoshchi sakrab tushib eshikni ochganida o'zimni ancha yengil his etdim.

– Miss Morsten, mana Pondisheri-Lojga ham keldik, – dedi mister Taddeush, unga qo'lini uzatar ekan.

## V BOB

### Pondisheri-Lojdagi fojia

Tungi safarimizning eng oxirgi bosqichiga yetib kelganimizda soat o'n birga yaqinlashib qolgandi. Biz orqada qoldirgan azim shaharni rutubatli tuman chulg'agan bo'lsa, bu yerda, qishloqda esa tun quruq va iliq edi. G'arbdan iliq shamol esardi, osmonda zalvorli bulutlar suzib yurardi, ular orasidan goho oy mo'ralab qolardi. Tun ancha yorug' edi, lekin Taddeush Sholto izvoshdan yo'l fonusini oldi-da, oldinga o'tib yurib ketdi.

Bog'ning ancha ichkarisida baland toshdevor bilan o'ralgan uy bor edi, devor tepasiga oyna siniqlari sochib chiqilgandi. Uyga devordagi temir

qoplangan tor eshikdan kirilardi. Hamrohimiz, pochtachiga o'xshab, qandaydir o'ziga xos bir usulda taqillatdi.

– Kim? – deb so'radi eshik ortidan qo'pol ovoz.

– Bu, men, Mak-Murdo. Shu vaqtgacha taqillatishimdan bilsang bo'lardi.

Ming'illagan ovoz, keyin kalitlar shaqir-shuqiri eshitildi, eshik og'ir ochildi. Ostonada past bo'yli, ko'kragi tog'dek bir odam turardi, fonusining sarg'ish nuri uning cho'ziq yuzini, shubha bilan charaqlagan ko'zlarini yoritdi.

– Mister Taddeushmisiz? Bular kimlar? Mehmonlaringiz xususida xo'jayinimdan hech qanday farmoyish olganim yo'q.

– Hech qanday farmoyish? Siz meni hayratda qoldiryapsiz! Men bilan birga do'stlarim kelishini kecha kechqurun akamga aytgandim-ku.

– Xo'jayin bugun kuni bilan xonasidan chiqqani yo'q. Bizda tartib qattiqligini o'zingiz ham yaxshi bilasiz. Men sizni qo'yishim mumkin, lekin do'stlaringizni qo'yolmayman, ular sizni tashqarida kutib turishsin.

Bu sira kutilmagan to'siq edi. Taddeush Sholtoqorovulga sarosima ichida ojiz qarab turardi.

– Siz yaxshi ish qilmayapsiz, Mak-Murdo! – deb g'o'ldiradi u. – Men ular uchun javob beraman, siz uchun shuning o'zi yetarli. Buning ustiga biz bilan yosh qiz kelgan. Uning yarim kechada, serqatnov yo'lda turishi odobdan emas.

– Ming bor afsuski, ilojim yo'q, mister Taddeush, – deb javob qildi bir so'zli soqchi. – Mehmonlar sizning do'stlaringiz, lekin xo'jayinim-

ning dushmani bo'lishi ham mumkin. O'z ishini halol, vijdonan bajarsin deb, menga yaxshi haq to'lashadi. Men xizmatimni halol ado etyapman. Do'stlaringizni tanimayman.

– Yo'g'e, Mak-Murdo, taniysiz, – dedi to'satdan muloyimlik bilan Sherlok Xolms. – Meni unutishingiz mumkin emas. Havaskor boksyor esingizdami, u bilan to'rt yil burun benefisingiz kunida Alison ringida uch raund jang qilgandigiz, shuni eslaysizmi?

– Sherlok Xolmsning o'zini ko'ryapmanmi?! – deb xitob qildi boksyor. – Ha, chindanam ayni o'zisiz! Sizni tanimaganimni qarang-a. Bu yerda mo'min-qobil bo'lib turgandan ko'ra, o'sha mashhur qarshi zarbangizni ishlatmaysizmi, yaxshilab tushirmaysizmi, darrov tanigan bo'lardim. E, nimasini gapiray. Siz o'z iste'dodini yerga ko'madigan kishilar toifasidansiz. Agar istaganingizda, siz juda ko'p narsaga erishardingiz.

– Bilasizmi, Uotson, agar hunarim bundan buyon hech kimga kerak bo'lmay qolsa, bisotimda yana havaskorlik iste'dodlarim bor, – dedi Xolms kulimsirab. – Ishonchim komilki, bu do'stimiz bizni ochiq havoda ortiqcha ushlab turmas.

– Marhamat, kiring, ser, o'zingiz ham, do'stlaringiz ham, – deb javob qildi darvozabon. – Shunday bo'lganiga afsuslanaman, mister Taddeush, lekin tartib tartibligicha qolishi kerak. Ichkariga qo'yishim uchun do'stlaringizga o'zimga ishon-ganday ishonishim kerak.

Toshdevor ortida bo'm-bo'sh bog'ni kesib shag'al to'kilgan xiyobon o'tardi. Uy butunlay qorong'ilik-

da edi, faqat bir devoriga oy yorug'i tushib, deraza yaltirab ko'rinardi. Sukunat qo'yniga cho'mgan bu kattakon qorong'i uyni ko'rib kishini vahima bosardi. Hatto bu narsalarga ko'nikib qolgan Taddeush ham allanechuk bo'lib ketdi: qo'lidagi fonus qaltirar, g'ijirlardi.

– Hech narsaga tushunolmay qoldim, – deb to'ng'illadi u. – Bu yerda bir xatolik o'tgan. Axir, bugun kechqurun uning huzurida bo'lishimizni Bartolomyuga yaxshilab tushuntirgan edim. Xonasida negadir chiroq yo'q. O'zi nima gap, aqlim yetmay qoldi.

– U uyini doimo mana shunday qattiq qo'riqlaydimi? – deb so'radi Sherlok Xolms.

– Ha, bu odat otamdan qolgan. Bartolomyu oilaning erkatoyi edi, ba'zida otam menga nisbatan unga ko'proq narsani gapirib beradigandek tuyulardi. Huv ana, oy nuri yoritib turgan derazani ko'ryapsizmi – o'sha Bartolomyuning xonai. Lekin unda chiroq yo'qqa o'xshaydi.

– Ha, chiroq yo'q, – dedi Sherlok Xolms. – Lekin kiraverishdagi darchada chiroq bordek tuyulyapti.

– E, bu ro'zg'or sohibasining xonasi. Qari ro'zg'or sohibamiz missis Berston, oqshomlarni, odatda, shunday o'tkazadi. Hammasini u tushuntirib beradi. Meni shu yerda bir necha daqiqa kutib turolmaysizlarmi? Agar hammamiz baravariga bostirib kirsak, missis Berston qo'rqib ketadi, axir, u kelishimizni bilmaydi-da. Ts, jim! Nima gap?

U qaltiragan qo'lidagi fonusni ko'tardi, atrofigimizda fonus yorug'i dik-dik o'ynay boshladi.

Miss Morsten qo'limdan shartta ushladi, uchovimiz ham yuraklarimiz duk-duk urib, quloqlarimizni ding qilganimizcha to'xtab qoldik. Vahimali qorong'i uy tomondan oqshom sukunatini buzib qandaydir mungli, ayanchli tovushlar – nimadandir qattiq qo'rqib ketgan ayolning hiqillab yig'lagani eshitilardi.

– Bu miss Berston, – dedi Sholto. – Uyda undan boshqa ayol yo'q. Meni shu yerda kutib turinglar, hozir qaytaman.

U eshik oldiga keldi-da, o'ziga xos bir tarzda taqillatdi. Baland bo'yli qari ayol uni ko'rishi bilan sevinganidan qo'llarini silkitib, ichkariga kirgizdi.

– Oh, mister Taddeush, kelganingizdan boshim osmonga yetdi. Juda-juda xursandman! – degan so'zlarini eshitdik, keyin eshik yopildi-yu, uning ovozi eshitilmay qoldi.

Taddeush Sholto fonusni bizga tashlab ketgandi. Xolms fonusni olib, tevarak-atrofnin sekin yoritdi, keyin uyga va hovlidagi tuproq uyumiga diqqat bilan tikildi. Biz miss Morsten ikkovimiz yonma-yon turardik, uning qo'li mening kaftimda edi. Bu sevgi deganlari ajoyib, sira aql bovar qilmaydigan bir tuyg'u-da, mana, ikkovimiz turibmiz, shu kungacha biron marta uchrashmaganmiz, bir-birimizga hech qachon bir og'iz shirin so'z aytmaganmiz, mana endi xatarli damda qo'llarimiz o'z-o'zidan bir-biriga tutashdi. Men keyinchalik bu daqiqani ajablanib ko'p esladim, lekin o'shanda bularning hammasi tabiiydek tuyulgandi, keyinchalik u menga taskin va himoya topishimga qattiq isho-



nib, beixtiyor darrov sizga intildim, deb ko'p gapirgandi. Biz bu g'alati, qorong'i, ko'rimsiz uy oldida bolalarday qo'llarimizni ushlaganimizcha qimir etmay turardik, qalblarimiz birdan taskin topganday edi.

– Juda g'alati joy ekan-a, – dedi miss Morsten atrofga alanglab.

– Nazarimda, bu bog'da Angliyaning hamma ko'rsichqonlari mehnat qilgan ko'rinadi. Shunga o'xshash bog'ni Ballaretom yaqinida ko'ruvdim. Lekin u yerda butun tepalikni oltin qidiruvchilar kavlab tashlagandi.

– Bu yerda ham oltin qidiruvchilar ishlashgan, – dedi Xolms. – To'g'rirog'i, xazina qidiruvchilar. Shuni unutmangki, bu uyning egalari xazinani olti yil qidirishgan. Shuning uchun ham bog'ning oltin koniga o'xshashiga ajablanmasa bo'ladi.

Shu dam eshik ochilib, ko'zlarida qo'rquv, qo'llarini oldinga cho'zganicha uydan Taddeush Sholto chopib chiqdi.

– Bartolomyuga bir gap bo'lganga o'xshaydi! – deb xitob qildi u. – Qo'rqib ketyapman! Asablarim chidamayapti.

Chindanam uning ko'z yoshidan nafasi tiqilguday bo'lar, dir-dir titrayotgan oppoq yuzida o'lgudek qo'rqib ketgan yosh bolaning ojizona bir iltijosi aks etgandi.

– Yuring, uyga kiramiz, – dedi Xolms qat'iy qilib.

– Ha, yuring, – dedi yolvorganday Taddeush Sholto. – Ochig'ini aytsam, nima qilishimni bilmay qoldim.

Biz unga ergashib chap tomondagi ro'zg'or sohibasining xonasiga kirdik. Xonada qo'rquvdan

rangi quv o'chgan ayol barmoqlari asabiy titrab, u yoqdan bu yoqqa yurardi, lekin miss Morsten kirishi bilan u ancha tinchlandi.

– Umringizdan baraka toping, – deb xitob qildi u yig'isini bosib. – Yuzingizdan nur yog'ilib turibdi-ya. Sizga qaragam, ko'nglim taskin topadi. Shu bugun ko'rgan-kechirganlarimni bilsangiz edi.

Miss Morsten ro'zg'or sohibasining mehnatdan dag'allashib ketgan oriq qo'lini siladi-da, ayollarga xos samimiy hamdardlik bilan taskin beruvchi bir necha og'iz shirin so'z aytdi, keksa ayolning oppoq yuziga jindek qon yugurganday bo'ldi.

– Xo'jayin xonasini ichidan bekitib olib, qancha taqillatsam ham ochmayapti, – deb tushuntirdi u. – Meni qachon chaqirarkan deb kuni bilan kutdim. U umuman yolg'iz qolishni yaxshi ko'radi. Bir soat avval, bir kori hol bo'lmadimikin, deb tashvishlana boshladim, yuqoriga ko'tarildim-da, qulf teshigidan mo'raladim. Mister Taddeush, siz o'zingiz ham chiqib qarashingiz kerak. Bu uyga kelganimga o'n yil bo'ldi, mister Bartolomyuni xursand paytida ham, boshiga tashvish tushganida ham ko'rganman. Lekin bu holatda hech qachon ko'rmagandim.

Sherlok Xolms lampani oldi-da, yuqoriga birinchi bo'lib ko'tarildi, chunki Taddeush qo'rquvdan dir-dir titrab, tishi tishiga tegmasdi. Tizzalari bukilib ketaverdi, zinadan yurib chiqishi uchun uni qo'ltig'idan oldim. Yuqoriga ko'tarilayotganimizda Xolms cho'ntagidan lupani olib, ko'zimga shunchaki chang bo'lib ko'ringan kokos tolasidan to'qilgan bo'yradagi qandaydir qora dog'larni sin-

chiklab ko'zdan kechirdi. U imillab qadam tashlar, lampani past ushlab, o'ng va chap tomonga qarab qo'yardi. Miss Morsten o'takasi yorilgan uy sohibasi bilan pastda qoldi.

Uchinchi dahliz bizni to'g'ri uzun yo'lakka olib chiqdi, uning o'ng tomondagi devoriga qo'lda to'qilgan hind gilami osilgandi. Chap tomonda uchta eshik bor edi. Xolms hamma narsani sinchiklab ko'zdan kechirib, sekin oldinga yurar, biz uning ketidan qadam-baqadam borardik. Uzun qora soyalarimiz yo'lak yoqalab ergashib kelardi. Bizga uchinchi eshik kerak edi. Xolms taqillatdi, javob olmaganidan keyin eshik dastasini burab, qattiq bosdi. Eshik ichkaridan bekitilgan ekan. Xolms lampani qulf teshigiga yaqin olib bordi, qulfning tili enli va mustahkamligini ko'rdik. Lekin kalit buralgandi, shuning uchun qulf teshigida yoriq qolgandi. Sherlok Xolms engashdi-yu, shu zahoti o'zini orqaga tashladi.

– Bu ishga shayton aralashgan, Uotson! – deb shivirladi u. Men uni hech qachon bu qadar bezovta ko'rmagandim. – Xo'sh, sizning fikringiz qalay?

Men qulf teshigiga engashdim-u, dahshatdan titrab ketdim. Oy nuri derazaga tushib, xonani xira yoritgandi. Hamrohimiz Taddeushning menga tikilgan yuzi xuddi havoda muallaq osilib turganday edi, chunki uning oyoqlari ostidagi hamma narsa qorong'ilikda edi. Faqat uning yuzida og'riq yoki azobdan qiynalayotgan odamning burishgan yuziga o'xshamagan dahshatli notabiiy bir tabassum qotib qolgandiki, u oy nuri yoritib turgan bu xonada kishiga juda vahimali ta'sir etardi.

Uning yuzi mitti do'stimizning yuziga shunday o'xshardiki, u shu yerdamikin, yonimizdamikin deganday o'girilib qaradim. «Axir ular egizak aka-ukalar-ku», – deb esladim.

– Qanday dahshat! Endi nima qilamiz? – dedim Sherlok Xolmsga.

– Eshikni buzish kerak, – dedi va butun tanasi bilan itarib, qulfni buzmoqchi bo'ldi. Eshik g'irchillar, lekin bo'sh kelay demasdi. Sira bo'lmagach, ikkovimiz baravar itardik, qulf sharaqlab, eshik lang ochilib ketdi va biz Bartolomyu Sholto xonasiga kirdik.

Kabinet kimyo laboratoriyasi uchun jihozlangan edi. Eshik ro'parasidagi devorga osilgan polkaga tiqinlari mahkam yopilgan har xil shishachalar ikki qator qilib terib chiqilgandi, stol usti bunzen gorelka, probirka va kolbalarga to'lib ketgandi. Uyning burchaklarida polda savatlarda katta shishalar turardi, ularda kislota saqlashardi. Ulardan biri chatnagan yo yorilgan bo'lsa kerak, shishaning tagidan qandaydir qoramtir suyuqlik tizillab oqib chiqardi, xonani qatronga o'xshash totli bir hid tutib ketgandi. Xonaning bir burchagida bukma narvon turardi, uning tagiga, polga shuvoq to'kilgan, yupqa taxtachalar uyulib yotardi, narvonning tepasi esa shipga taqalgan bo'lib, o'sha yerda odam bemalol kira oladigan katta tuynuk bor edi. Polda, narvon yonida bir kalava yo'g'on arqon yotardi.

Stol yonidagi yog'och oromkursida bukchayib, boshini chap tomonga egib, notabiiy, dahshatli iljayib uy egasi o'tirardi. U allaqachon sovib, muzlab qotib qolgandi. Aftidan, uning o'lganiga

bir necha soat bo'lgan. Men bir narsaga e'tibor berdim: uning yuzi burishib-tirishib ketganidan tashqari, qo'llari bilan oyoqlari ham aql bovar qilmaydigan bir tarzda burab, qayirib tashlangan edi. Stolda, qo'lining yonida g'alati bir qurol yotardi – bu tosh poynagi boig'a shaklida ishlangan ingichka qo'ng'ir tayoq edi. Uning yonida bloknotdan yirtib olingan bir parcha qog'ozga aji-buji qilib bir necha so'z yozilgandi.

– Ko'ryapsizmi, – dedi u qoshlarini ma'nodor chimirib.

Fonus yorug'ida o'sha so'zlarni dahshatdan titrab-qaqshab o'qidim: «to'rtlar belgisi».

– Xudo xayringizni bersin, ayting, buni qanday tushunish kerak?

– Buni shunday tushunish kerakki, bu yerda qotillik yuz bergan, – dedi Xolms bechora Bartolom-yu Sholtoning muzlab qolgan jasi ustiga engashar ekan. – Men shunday bo'lishini kutuvdim. Qarang-a, – u shunday deb qulog'ining tepasiga, teriga sanchilgan uzun qoramtir tikanni ko'rsatdi.

– Bu biron-bir o'simlikning tikani bo'lsa kerak-a, – dedim.

– Ha, tikanni xuddi o'zi. Uni sug'urib olishingiz mumkin. Faqat ehtiyot bo'ling, u zaharlangan.

Men ikki barmog'im bilan ehtiyotlab tikanni sug'urib oldim. U osongina chiqa qoldi. Terida hech qanday iz qolgani yo'q. Tikan sanchilgan joyda zig'irdakkina qotib qolgan qon dog'i bor edi.

– Bularning bari men uchun aql bovar qilmaydigan bir sir, – deb e'tirof etdim, – u tobora chigallashib, tushunish qiyin bo'lyapti.

– Men uchun aksincha, – deb javob qildi Xolms, – bu ish daqiqa sayin oydinlashyapti. Voqealar yo‘nalishini tiklash uchun atigi bir-ikki narsa yetishmaydi, xolos.

Bu xonaga kirganimizdan keyin biz hamrohimizni deyarli unutilib qo‘ygan edik. U iztirobda, o‘qtin-o‘qtin bo‘g‘iq ingrab, hamon eshik oldida turardi. Uning chorasizligi, mushkul ahvoldaligi shunday ko‘rinib turardi. Birdan, sira kutilmaganida uning ko‘ksidan telbalarcha ayanchli bir faryod otilib chiqdi.

– Xazina g‘oyib bo‘libdi! – deb baqirdi u. – Ular akamni shilib ketishibdi! Huv anovi tuynukni ko‘ryapsizmi? Biz sandiqchani o‘sha tuynukdan olgandik. Men unga qarashgandim! Uni oxirgi marta tirik ko‘rgan men edim! Men bu yerdan kecha kechqurun ketuvdim, zinadan tushib ketyotganimda eshikni berkitib olganini eshitgandim.

– O‘shanda soat necha edi?

– O‘n edi. Mana, u o‘lib yotibdi! Bu yerga politsiyani chaqirishadi. Mendan shubha qilishadi. Ha, shunday bo‘lishiga ishonchim komil. Lekin sizlar meni aybdor hisoblamaysizlar-a, janoblilar? Bu sening ishing deb o‘ylamasangiz kerak, albatta! Agar bu ishni men qilganimda, sizlarni bu yerga boshlab kelarmidim? E Xudo! E Xudo! Yo‘q, men jinni bo‘lib qolaman.

U oh-voh qilib depsinar, xuddi bezgak tutgan odamday dag‘-dag‘ titrardi.

– Siz hech narsadan qo‘rqmasangiz bo‘ladi, mister Sholto, – dedi Xolms uni yupatganday yelkasiga qoqarkan. – Gapimga kiring, hoziroq

politsiya bo'linmasiga boring. Bu voqeani ularga ma'lum qilish kerak. Sizlarga qo'limdan kelgancha yordam beraman, deb va'da qiling. Biz sizni shu yerda kutib turamiz.

Pakana odam hali ham o'ziga kelmagan bo'lsa-da, darhol ko'na qoldi. Biz uning qorong'ida turtinib-surtinib, qoqilib, zinadan tushib ketayotganini eshitdik.

## **VI BOB**

### **Sherlok Xolms o'z usulini namoyish qilyapti**

– Shunday qilib, Uotson, – dedi Sherlok Xolms kaftlarini bir-biriga ishqalab. – Ixtiyorimizda yarim soat vaqt bor. Keling, shu vaqtdan imkoni boricha unumli foydalanaylik. Sizga aytganimdek, bu ish men uchun ravshan. Lekin baribir judayam aniq faktlarga ishonib, xatoga yo'l qo'yishimiz ham mumkin. Bu hodisa bir qarashda qanchalik jo'n ko'rinmasin, u hamisha yanada chigallashib ketishi mumkin.

– Jo'n! – xitob qildim hayron bo'lib.

– Bo'lmasam-chi, – deb javob qildi Xolms o'z shogirdlariga g'aroyib bir kasalni ko'rsatayotgan professor qiyofasida. – Iltimos, oyoq izlaringiz ishni yanada murakkablashtirmasligi uchun burchakka borib o'tirsangiz. Endi ishni boshlaymiz. Birinchidan, bu azamatlar bu yerga qanday qilib kirishgan-u, qanday chiqib ketishgan? Eshik kechadan buyon ochilmagan. Xo'sh, deraza-chi? – U mulohazalarini eshittirib bayon qilarkan, lampani derazaga yaqin tutdi, lekin u menga emas,

ko'proq o'ziga murojaat qilardi. – Deraza ichidan berkitilgan. Romlari juda pishiq, mustahkam. Keling, uni ochib ko'raylik. Deraza ichidan berkitilgan. Deraza yonida hech qanday tarnov yo'q. Tomga chiqisholmaydi, judayam baland. Har holda odam xonaga derazadan tushgan. O'tgan kuni kechasi yomg'ir shivalab o'tgandi. Ko'ryapsizmi, deraza tokchasi loy, botinka va yana qandaydir g'alati yumaloq bir narsaning izi bor. Mana, yana o'sha iz. Bu safar polda. Mana, yana stolda ham bor. Ko'ryapsizmi, Uotson, vaziyat ancha ravshanlashyapti.

Men poldagi yumaloq izlarni ko'zdan kechira boshladim.

– Bu oyoq izlari emas, – dedim.

– Shuning uchun ham bu muhim-da. Bu yog'ochoyoq izi. Ko'ryapsizmi, deraza tokchasida metall nag'al qoqilgan qo'pol botinka izi. Shunday yonida yog'ochoyoq izi.

– O'sha odam yog'ochoyoqda bo'lgan!

– Xuddi shunday. U bir o'zi bo'lmagan. Uning juda usta, epchil yordamchisi bo'lgan. Doktor, siz shu devordan chiqa olarmidingiz?

Men ochiq derazadan qaradim. Oy uyning bu qismini yoritib turardi. Biz yerdan kamida oltmish fut balandlikda edik, sezishimcha, g'isht devorning biron joyida oyoqni qo'ysa bo'ladigan teshik, yoriq yo'q edi.

– Buning hecham iloji yo'q, – deb javob qildim.

– Ha, bir odam buning uddasidan chiqolmaydi. Lekin xonada sherigingiz bor deb faraz qilaylik. U sizga, huv ana, burchakda yotgan pishiq arqonni



tashladi deylik, uning bir uchini devorga qoqilgan qayrilma qoziqqa bog'lagan. Ana shunda, agar siz epchil odam bo'lsangiz, yog'och oyog'ingiz bilan devordan o'tib kelishingiz mumkin. Keyin siz pastga tushardingiz, do'stingiz arqonni yuqoriga tortib olib, qoziqdan yechardi, so'ng derazaning zanjirini solib, o'zi xonadan o'sha kelgan yo'li bilan chiqib ketadi. Kichkina detal, – deb gapida davom etdi Xolms arqonni ko'rsatib, – garchi o'sha yog'ochoyoqli do'stimiz juda chaqqon bo'lsa-da, lekin aslida kasbi dengizchi emas. Uning qo'llari yo'g'on arqonlardan chirmashib chiqaverib dag'allashib ketmagan. Lupada bir necha joyda qon izlarini ko'rdim, ayniqsa, arqonning uchida ko'proq. Demak, pastga u shu qadar shoshilib tushganki, qo'llarining terisi shilinib ketgan. Juda soz, – dedi u, – lekin baribir, hali hech narsani anglay olganimcha yo'q. O'sha sirli yordamchi kim o'zi? U xonaga qanday kirib olgan? Ha, yordamchi, – deb takrorladi Xolms o'ychan. – Bu yordamchisi – nazar-e'tiborga loyiq shaxs. U tufayli bu ish antiqa bir tus olyapti. Mening nazarimda, bu ish Angliyadagi jinoyatlar tarixiga bir yangi sahifa bo'lib kiradi. Bunday voqealar ilgarilari ham bo'lib turgan, lekin faqat Hindistonda, yana, agar xotiramdan chiqmagan bo'lsa Senegambiyda yuz bergan.

– U xonaga qanday kirib olgan? – deb takror so'radim. – Eshik berk, derazaga tashqaridan kir olmaydi. Ehtimol, mo'ridan tushgandir?

– Kaminning teshigi judayam kichkina, – deb javob qildi Xolms. – Buni ham tekshirib ko'rdim.

– Xo‘sh, qanday ilojini qilgan?

– Siz negadir mening uslubimni qo‘llashni istamayapsiz, – dedi u bosh chayqab. – Sizga necha bor aytdim, ortiqcha narsalarning hammasini chiqarib tashlang, qolgan narsalarning o‘zi, qanchalik g‘ayritabiiy tuyulmasin, javob bo‘ladi. Bizga shu narsa ma‘lumki, u xonaga eshikdan ham, derazadan ham kirolmasdi, mo‘ridan ham tusholmasdi. Shuni ham bilamizki, uning xonada yashirinib qolishi mumkin emas, chunki bu yerda yashirinadigan joyning o‘zi yo‘q. Xo‘sh, shunday ekan, bu yerga qanday kirgan?

– Tomdan tushgan! – xitob qildim.

– Shubhasiz. U xonaga faqat tomдан tushishi mumkin edi. Agar sizga malol kelmasa, yoritib tursangiz, xazina solingan sandiq yashirilgan joyni yana bir bor tekshirib ko‘rsak.

Xolms narvondan shiftgacha ko‘tarildi-da, ikki qo‘li bilan to‘singa osilib ko‘tarilib, tuynukka chiqib oldi. Keyin boshini chiqarib qaradi. U, aftidan, uzala tushib yotib oldi, shekilli, menga qo‘lini uzatib qo‘limdan mahkam ushladi-da, yoniga chiqib olmagunimcha qo‘yib yubormadi.

Biz chiqib olgan chordoq uzunasiga o‘n fut, eniga olti fut edi. Shiftning yupqa quruq suvog‘i pol vazifasini o‘tardi, binobarin, to‘sindan to‘singa juda ehtiyot bo‘lib o‘tish kerak edi. Tom ikki nishabli bo‘lib, unga solingan yog‘ochning uchlari ot shaklida ishlangan edi. Aftidan, tomning ichki tomoni chordoqning shifti hisoblanardi. Pol ko‘p yillar davomida yig‘ilib qolgan qalin chang bilan

qoplangandi. Chordoqda changdan bo'lak hech nima yo'q edi.

– Mana, ko'ring, – dedi Xolms qo'lini devorning nishab tomoniga qo'yib. – Bu tuynuk tashqariga chiqadi. Uni ochsangiz, shunday tomga chiqasiz, tom esa ularning baxtiga qiya. Birinchi raqam xonaga xuddi shu tuynukdan tushgan. Qani, ko'raylik-chi, biror iz qoldirmaganmikan?

Xolms lampani past ushlab polni yoritdi, men bugun ikkinchi marta uning yuzida hayrat va tashvish ifodasini ko'rdim. Uning ko'zlariga tikilib turib, a'zoyi badanimning muzlab ketganini his qildim: polda bir necha yalang oyoqlarning izi bor edi, ular juda aniq, yaqqol ko'rinib turardi, lekin bu izlar katta odam oyoqlarining yarmicha keladigan iz edi.

– Xolms, – deb shivirladim, – demak, bu mud-hish yovuzlikni yosh bola qilganmi?

Xolms endi o'zini ancha tutib olgandi.

– Ochig'ini aytsam, juda boshim qotib qoldi. Xotiram pand berdi. Axir bu jo'n ish-ku. Men qanday izlar bo'lishini oldindanoq fahmlashim kerak edi. Ha, bo'lar ish bo'ldi, bu yerda boshqa qiladigan ishimiz yo'q. Yuring, pastga tushamiz.

– Mana bular qanaqa izlar? – deb so'radim judayam qiziqib.

– Azizim, Uotson, faktlarni tahlil qilib ko'ring-a, – dedi u sal ensasi qotib. – Mening uslubimni bilasiz-ku. Uni qo'llasangiz, natijalarni solishtirib ko'rish maroqli bo'ladi.

– Yo'q, hech narsaga tushunolmayapman, – deb javob qildim.

– Hademay tushunasiz, – dedi Xolms parishon. – Nazarimda, bu yerda qiziqarli biron narsa qolgani yo‘q. Lekin baribir, men yana bir bor tekshirib ko‘raman.

U cho‘ntagidan lupa bilan santimetrni tez oldida, ingichka uzun burnini qoplamaga tekkizguday yaqin tutib, har bir millimetrini sinchiklab tekshirib boshladi. Uning ich-ichiga botgan, yarqiragan ko‘zlari yirtqich qushning ko‘zlarini eslatardi.

U xuddi izga tushgan iskovuch itday nihoyatda tez, chaqqon, eshittirmasdan harakat qilardi, agar o‘z iste‘dodini, kuch-g‘ayratini qonunni himoya qilishga emas, balki unga qarshi ishlatsa, Xolmsdan qanday dahshatli jinoyatchi chiqqan bo‘lardi, degan o‘y keldi birdan xayolingma.

U chordoqni ko‘zdan kechirar ekan, o‘zicha doimo allanimalar deb ming‘irlardi, keyin birdan xursand bo‘lib qichqirib yubordi.

– Ha, omadimiz keldi desak bo‘ladi, – dedi u. – Bu ancha vaqt mehnatimizni tejashga imkon beradi. Birinchi raqam ehtiyotsizlik qilib, kreozot<sup>18</sup> ga qadam qo‘ygan. Ko‘ryapsizmi, bu yopishqoq, sassiq ko‘lmakning chap tomonida kichkina oyoqning yarim izi qolgan. Aftidan, kreozot solingan shisha chatnagan-u, suyuqlik oqib tushgan.

– Xo‘sh, nima bo‘pti?

– Gap shundaki, biz endi uni tezda qo‘lga olamiz. Bir it bor, u kreozot hidi kelib turgan izdan dunyoning narigi chekkasiga ham boradi. Agar odatdagi iskovuch it graflik chegarasigacha

---

<sup>18</sup> Kreozot – yog‘och yoki toshko‘mirdan haydab olinadigan o‘tkir hidli suyuq moy modda.

izdan borsa, xo'sh, siz nima deb o'ylaysiz, maxsus mashq qildirilgan it qayergacha borishi mumkin? Odatdagi proporsional tobelik, uning noma'lum a'zosi... Shoshmang! Eshityapman, jinoyat sodir bo'lgan joyga qonunning muxtor vakillari kelishdi.

Pastda gursillagan oyoq tovushlari va odamlarning baqirib gapirganlari eshitildi, eshik taraqlab yopildi.

– Yo'q, ular hali kelishgani yo'q, – dedi Xolms, – kaftingizni mana shu bechoraning oyog'iga ham tekkizing-a. Nimani his etyapsiz?

– Mushaklari tarashaday qotib qolgan, – deb javob qildim men.

– Ha, barakalla. Qo'l-oyoqlari akashak bo'lib qolgan. Bu odatdagi muzlab qotib qolgan o'lik emas. Bu gippokratik yoki qadimgi yozuvchilarning ta'biri bilan aytganda, istehzoli iljayish, bu bo'g'inlarning uvishib qolishi sizda qanday fikr uyg'otyapti?

– Bu odam o'simlikdan tayyorlanadigan qandaydir kuchli alkaloid ta'sirida o'lgan, – dedim, – u odamni qoqshol qiladigan strixnin<sup>19</sup>ga o'xshash bir narsa.

– Burishib ketgan bu yuzni ko'rib, birinchi navbatda shu haqda o'yladim. Xonaga kirishim bilan zaharni nimadan yuborilganini qidira boshladim. Agar esingizda bo'lsa, terisiga sanchilgan tikanni topib oldim. Bir e'tibor bering-a, tikan uning shiftdagi tuynuk tomonga qaragan qismini shikastlagan, agar mana bu stulda o'tirsangiz,

---

<sup>19</sup> Strixnin – kuchli zahar.

shunday tuynukka to'g'ri keladi. Endi, tikanning o'zini bir ko'zdan kechiraylik.

Men tikanni ehtiyotlik bilan qo'linga olib, fonusga yaqin olib bordim, u uzun, o'tkir va qora edi, shunday uchida qandaydir suyuqlik oppoq bo'lib qotib qolgandi. Bir uchi to'mtoq, cho'zinchoq bo'lib, pichoqqa o'xshab ketardi.

– Bu Angliyada o'sadigan daraxtnikimi?

– Yo'q, albatta. Xullas, Uotson, qo'lingizda shuncha fakt bo'lganidan keyin siz to'g'ri xulosa chiqarishingiz kerak. Mana, muntazam qism va-killari ham kelishdi: yordamchi kuchlar ularga o'z o'rnini bo'shatib berishlari kerak.

Oyoq tovushlari tobora yaqindan, mana nihoyat eshik orqasidan eshitila boshladi, xonaga kulrang kiyimda beso'naqay bir odam og'ir qadam tashlab kirib keldi. Uning etdor yuzi qip-qizil bo'lib, salqigan qovoqlari tagidan yarqiragan qisiq ko'zlari bizga ayyorona boqardi. Uning orqasidan mundirda politsiya inspektori, izma-iz esa hali ham dir-dir titrayotgan Taddeush Sholto kirib kelishdi.

– Bu antiqa ish-ku! – deb xitob qildi kirgan odam bo'g'iq ovozda. – Ajoyib ish! Bular kimlar o'zi? Nega endi odamlar uyda xuddi katalakdagi quyonlarday bemalol yurishibdi?..

– Meni, hoynahoy, eslasangiz kerak, mister Etelni Jons? – dedi xotirjamlik bilan Xolms.

– Bo'lmasam-chi, albatta, eslayman, – deb javob qildi u ovozi xirillab. – Siz, mister Xolms, Sherlok Xolms bo'lasiz, nazariyotchi. Sizning bishopgeyt brilliantlarining qayoqqa yo'qolganini tushuntirib, bizga qilgan pand-nasihatingizni sira-sira

unutmayman. Adolat yuzasidan shuni aytishim kerakki, siz bizga o'shanda to'g'ri yo'l ko'rsatgan-siz, lekin o'shanda baxtli bir tasodif sizga yordam berganini aqalli endi, hozir e'tirof etsangiz kerak.

– Menga o'shanda oddiy mantiq yordam berdi.

– Ha, bo'ldi, bo'ldi, yetar. Haqiqatni aytishga hech qachon uyalmang. Xo'sh, bu yerda nima bo'ldi o'zi? Xunuk ish! Baxtimizga hamma faktlar qo'limizda, binobarin, har qanaqa nazariyabozlikning keragi yo'q. Buni qarangki, xuddi shu payt boshqa bir ish bilan Norvudga kelib qoluvdim-a. To'satdan Pondisheri-Lojdagi o'limning ustidan chiqsam-a. Xo'sh, siz nima deb o'ylaysiz, bu odam nimadan o'lgan?

– Bu yerda nazariyaning hecham keragi yo'q, – dedi Xolms quruqqina qilib.

– Ha, albatta, albatta. Ba'zida shunday nishonga urishingizga qoyil qolamiz, ha, biz buni inkor etmaymiz. Xudo, o'zing kechir! Fahmlashimcha, eshik ichkaridan berkitilgan. Hm, hm... Yarim million so'mlik qimmatbaho narsalar olib ketilgan. Deraza-chi, deraza?

– Deraza ham berk edi, lekin tokchasida izlar bor.

– Juda soz, juda soz, lekin u berk bo'lsa, tokchadagi izlarning bu ishga hecham aloqasi yo'q. Sog'lom fikr shuni ko'rsatib turibdi. Odam qattiq zarbadan ham o'lishi mumkin. Lekin qimmatbaho narsalar joyida yo'g'-u, buni qanday tushunmoq kerak. Eh-ha! Menda bir taxmin bor. Ba'zida birdan fikrim ravshanlashib ketadi. Iltimos, serjant, siz ham, mister Sholto sal chekkaga chiqib tur-

salaring. Do'stingiz turgan joyida qolishi mumkin. Xo'sh, sizning fikringiz, Xolms? O'zining e'tirof etishicha, Sholto kecha kechqurun akasining oldida bo'lgan. Akasining miyasiga qon quyilgan, shundan so'ng Sholto xonani tark etgan, o'zi bilan birga qimmatbaho narsalarni olib ketgan. Xo'sh, siz bunga nima deysiz?

– O'shandan keyin murda ehtiyot yuzasidan o'rnidan turgan-u, eshikni ichidan berkitib olgan.

– Hm, hm! Ha, taxminimning eng o'jiz joyi ham shunda. Sog'lom aqlni ishga solamiz. Taddeush Sholto akasining oldiga kelgan. Orada janjal chiqqan. Bu bizga ma'lum. Akasi o'ldi, qimmatbaho buyumlar g'oyib bo'ldi – bu ham bizga ma'lum. Taddeush ketganidan keyin uning akasini hech kim ko'rmagan. O'rni g'ijimlanmay shunday turibdi. Taddeush hozir juda qattiq sarosimada. Ko'rib turibsizki, men Taddeushga tuzoq qo'yyapman. Tuzoq tobora tortilyapti.

– Lekin sizga hali hamma faktlar ma'lum emas-da, – dedi Xolms. – Mana bu tikanni ko'ryapsizmi, u zaharlangan deb taxmin qilishimga to'la asos bor. Uni o'likning boshidan topishdi, shunday sanchib qo'yilgan ekan. Izi ham qolgan. Stolda mana bu xat yotibdi, o'qib chiqing-a. Uning yonidan mana bu g'alati qurolni topdik, poynagi toshdan. Xo'sh, sizning taxminlaringiz bu faktlarni qanday izohlaydi?

– Qoyilmaqom qilib izohlaydi-da, – deb javob qildi manmanlik bilan semiz detektiv. – Uy har xil noyob hind buyumlariga to'la. Taddeush ham buni shu yerga olib kelgan. Agar tikan za-



harlangan bo'lganida Taddeush undan qotillik quroli o'rnida foydalangan bo'lardi. Bu odamni chalg'itish uchun ishlatilgan bir hiyla. Lekin bir narsa aniq emas – bu yerdan qanday chiqib ketgan? Ha, aytmoqchi, shiftda tuynuk bor-a! Ha, turgan gap – shu tuynukdan chiqib ketgan.

U semiz odamga xos bo'lmagan bir epchillik bilan narvondan yuqoriga ko'tarildi-da, o'sha tuynukdan tashqariga chiqdi. O'sha zahoti uning tantanavor ovozi eshitdik. U, chordoqdan tomga tuynuk bor ekan, deb baqirdi.

– U, hoynahoy, o'sha yerdan yana nimanidir topadi, – dedi Xolms yelkalarini qisib. – Ba'zida aqli ishlab qoladi.

Uniy a pas des sont si incommodes gue ceux qui ont de liesprit<sup>20</sup>.

– Ana, ko'rdingizmi! – dedi Etelni Jons, narvondan pastga tusharkan. – Faktlar har qanday nazariyadan ishonchliroq. Mening taxminlarim to'la-to'kis tasdiqlanyapti. Chordoqda tomga olib chiqadigan eshik bor. U sal ochilgan ham.

– Men ochuvdim.

– Rostdanmi? Demak, uni siz ham ko'ribsiz-da?  
– Jons Xolmsning so'zlarini eshitib gangib qoldi.

– Birinchi bo'lib uni kim payqaganining ahamiyati yo'q, – dedi u sal murosaga kelib, – eng muhimi, uning bu yerdan qanday chiqib ketganini aniqladik. Inspektor!

– Ha, ser! – yo'lakdan ovoz eshitildi.

---

<sup>20</sup> «Uncha-muncha aqli bor odamlar chidab bo'lmaydigan nodon bo'lishadi» (fransuzcha). F. Laroshfuko. «Maksimlar va axloqiy mulohazalar».

– Mister Sholtoni buyoqqa taklif qilgin. Mister Sholto, sizni ogohlantirib qo'yish mening burchim, aytgan hamma gaplaringiz o'zingizga qarshi qaratilishi mumkin. Men sizni akangizni o'limiga daxldor kishi sifatida qirolicha nomidan hibsga olaman.

– Ana, ko'rdingizmi! Sizga aytmovdimmi! – deb xitob qildi pakana odam qo'llarini biz tomonga cho'zib, yig'lagudek bo'lib.

– Xafa bo'lmang, mister Sholto, – dedi Xolms. – Sizga qo'yilgan bu aybni bekor qila olaman, deb o'ylayman.

– Ko'p narsa va'da qilmang, mister nazariyotchi, va'da qilmang! – deb xitob qildi xufiya. – Bu siz o'ylagancha oson ish emas.

– Men mister Sholtodan aybni olib tashlabgina qolmay, mister Jons, sizga yana sovg'a ham qilaman: ya'ni kecha kechasi shu xonada bo'lgan ikki kishidan bittasining ismini, alomatlarini ham aytib beraman. Uning ismi Jonatan Smoll deyishim uchun menda hamma asoslar bor. U deyarli savodsiz, past bo'yli, epchil, uning o'ng oyog'i yo'q, yog'ochoyoqda yuradi. Chap oyog'i tagiga temir nag'al qoqilgan, burni to'mtoq qo'pol botinka kiyib olgan. U sobiq katorgachi, yoshi qirqlar chamasida, oftobda obdan qoraygan. Mana shu belgilar sizga yordam berishi mumkin, buning ustiga arqonda qon bor.

– Ha, to'g'ri. Siz uni uyiga olib borib qo'yishingiz kerak. U Loer-Komberuellada missis Sesil Forresternikida turadi. Bu yerdan unchalik uzoq emas. Agar qaytib kelsangiz, sizni shu yerda kutib turaman. Balki ancha toliqqandirsiz?

– Hecham. Bu g‘aroyib voqea sirini sal-pal bo‘lsa ham bilmagunimcha uxlayolmayman. Men favqulodda murakkab vaziyat-u, holatlarga juda ko‘p tushganman, lekin ochig‘ini aytsam, bu ketma-ket qalashgan antiqa voqealar meni hang-u mang qilib qo‘ydi. Modomiki, shu voqealarga aralashgan ekanman, oxirigacha siz bilan birga bo‘laman.

– Sizning shu yerda bo‘lishingiz men uchun juda zarur, – dedi Xolms. – Biz bu ishni mustaqil o‘rganamiz. Mayli, Jons o‘z xomxayollari bilan ovunib yuraversin. Miss Morstenni olib borib qo‘yganingizdan keyin, iltimos, Lambetga, Pinchinleyn ko‘chasi, 3-uyga borsangiz. Bu ko‘cha shunday sohil bo‘yida. O‘ng tomondan uchinchi uyda Sherman ismli tulumchi yashaydi, u qushlarning tulumini yasaydi. Siz uning derazasida og‘zida quyonni tishlab turgan laychani ko‘rasiz. Shermanni uyg‘otib, mening salomimni yetkazing, yana, menga Tobi juda zarurligini aytib. Tobini oling-u, bu yerga tezroq keling.

– Bu itmi?

– Ha, antiqa ko‘ppak, nasli toza emas-u, lekin hid bilishda unga yetadigani yo‘q. Men Londondagi barcha qidiruv vositalaridan ko‘ra Tobidan foydalanishni afzal ko‘raman.

– Men uni olib kelaman, – dedim. – Orqaga, agar ot topolsam, soat uchlarda qaytaman.

– Men, – dedi Xolms, – siz kelguncha missis Berston bilan hindi xizmatkordan ba‘zi bir narsalarni bilishga, aniqlashga urinib ko‘raman, mister Taddeush uni chordoqdagi qaznoqda uxlaydi, dedi. So‘ng buyuk mister Jonsning uslubini

o'rganishga kirishaman, uning hazil-mutoyibalarini, qaltis fikr-mulohazalarini tinglayman. «Wir sing gewohpt, dass die Mepschen verhonen was sie niht verstehen»<sup>21</sup>. Gyotening so'zlari har doimgiday teran va muxtasar bo'ladi.

## VII BOB

### Bochka voqeasi

Politsiyachilar ikki izvoshda kelishgandi, men miss Morstenni uyiga olib borib qo'yish uchun bit-tasidan foydalandim. Nihoyatda rahmdil bo'lgan miss Morsten o'sha mash'um kechada yonida qo'llab-quvvatlashga muhtoj odam bo'lgani uchun ham o'zini bardam tutdi. Men pastga tushganimda, u o'takasi yorilgan ro'zg'or sohibasi bilan shirin, vazmin gaplashib turgan ekan. Ikkovimiz izvoshga chiqishimiz bilanoq u birdan bo'shahib, so'ng bir zum o'tar-o'tmas ho'ngrab yig'lab yubordi – o'sha kechadagi voqea unga shu qadar kuchli ta'sir etgan edi. Keyinchalik u menga, izvoshda ketayotganimizda safarimiz davomida siz menga begona va sovuq odam bo'lib ko'rindingiz, dedi. O'z hissiyotlarimni bosishim, o'zimni qo'lga olishim menga qanchalik og'ir bo'lganini u hatto, tasavvur ham etolmaydi. Men o'shanda, bog'da, bir-birimizning qo'limizni ushlab turganimizda unga qanchalik rahmim kelgan bo'lsa, hozir ham unga ich-ichimdan achinardim. Mehribonlik qilgim kelardi. Men uning mehribon, saxovatli,

---

<sup>21</sup> «Biz odamlarning o'zi bilmaydigan, tushunmaydigan narsalarini haqorat qilishlariga ko'nikib qolganmiz» (nemischa).

fidoyi qalbini aqlga sig'maydigan turli voqealarga to'la bir kunda shu qadar yaxshi bilib oldimki, betashvish, osuda o'tgan ko'p yillar davomida shunchalik yaxshi bilolmagan bo'lardim, buni tushunardim. Lekin ikki mulohaza unga biror narsa deyishimga xalaqit berardi. U himoyasiz, ojiz, chorasiz edi, asablari nihoyatda bo'shashgandi. Hozir unga o'z sevgim haqida gap ochish uning ojizligidan, chorasizligidan foydalanish bo'lardi. Lekin eng yomoni uning boy-badavlatligi edi. Agar Xolmsning izlanishlari muvaffaqiyatli tugasa, u topilgan xazinaning aqalli yarmisining merosxo'ri bo'ladi. Agar iste'foga chiqqan, maoshining yarmi bilan tirikchilik qilayotgan xirurg tasodif unga in'om etgan o'rtalaridagi bir lahzalik yaqinlikdan foydalansa, adolatdan, insofdan bo'ladimi? U menga boy-badavlat, puldor qalliq qidirayotgan odam deb qaramasmikin? Uning men haqimda shunday o'ylarga borishini hecham istamayman. Bu Agra xazinasi o'rtamizda o'tib bo'lmas bir g'ov bo'ldi.

Biz missis Sesil Forresternikiga yetib kelganimizda soat ikkiga yaqinlashib qolgan edi. Xizmatkorlar allaqachon uxlab qolishgandi, lekin missis Forrester hali yotmagan, miss Morstenning qaytishini kutardi – uni sherigi olgan g'alati xat judayam qiziqtirardi. Eshikni o'zi ochdi. Bu o'rta yoshlardagi istarasi issiq ayol edi; miss Morsteni mehr bilan erkalab bag'riga bosganini ko'rib, sevindim, chunki ovozida onalik mehri bor edi. Ko'rinib turibdiki, miss Morsten shunchaki bu yerda yashabgina qolmay, o'zini juda yaqin tutar-

di, do'st edi. U meni missis Forresterga tanishtirdi. Vaqt allamahol bo'lib qolganiga qaramay missis Forrester uyga taklif qildi, sarguzashtlarimiz to'g'risida gapirib berishimizni so'radi. Lekin men unga Xolms topshirig'ining nihoyatda muhimligini tushuntirdim, yaqin kunlarda kelib, ishning qanday borayotganini gapirib berishni qat'iy va'da qildim. Izvosh sal uzoqlashgandan keyin o'girilib qaradim, o'sha manzara hali-hali ko'z oldimdan ketmaydi: ikki nozik, sarvqomat ayol bir-birlarining pinjlariga kirgancha ostonada turishardi, eshik ochiq, dahlizga, ichki eshikning xira oynasidan yorug' tushib turibdi, devorda barometr, zinaning metall panjaralari yarqiratib tozalangan. Angliya uyining shinam, saranjom-sarishtaligi menda mamnunlik tuyg'usini uyg'otdi! Men hatto bu mash'um, sirli ishni bir zumga unutdim ham.

Bu ish to'g'risida qanchalik ko'p o'ylasam, u menga shu qadar sirli, dahshatliroq tuyulardi. Izvosh gaz fonuslari bilan yoritilgan ko'chadan taraqa-turuq qilib borarkan, o'tgan kuni kunduzi va kechasi sodir bo'lgan g'aroyib voqealarni birma-bir esladim. Asosiy muammo ancha oydinlashib qolgandi. Kapitan Morstenning o'limi, durlar solib jo'natilgan posilkalar, gazetadagi e'lon, xat – bularning hammasi endi sir emasdi, lekin biz yana ham jumboqli va fojiali bir sirni aniqladik. Hind xazinalari, kapitan Morstenning buyumlari orasidan topilgan g'alati reja, mayor Sholtoning o'limiga sabab bo'lgan g'alati voqealar, maxfiy joyning topilishi, uni topgan odamning o'ldirilishi, qotillik sodir bo'lgan vaziyatning favquloddaligi,

g'alati izlar, g'alati qurol, bir parcha qog'ozga aji-buji qilib yozilgan so'zlar, – o'sha so'zlar Morsten rejasida ham bor edi, – bu bir qing'ir-qiyshiq, chalkash ko'cha ediki, noyob iste'dod sohibi bo'lmish do'stim Sherlok Xolmsdan bo'lak odamning najot yo'lini topishiga umidi qolmay, adashib ketishi hech gap emasdi.

Pinchin-leyn Lambetning pastki qismidagi ikki qavatli eski g'isht uylarning shunday yonida edi. Men 3-raqamli uyning eshigini uzoq taqillatdim. Nihoyat, darcha eshigida chiroq miltillab, ikkinchi qavat derazasida kimningdir yuzi ko'rindi.

– Hoziroq jo'na bu yerdan, piyanista, maxluq! – deb baqirdi yuqoridan. – Agar taqillatishni bas qilmasang, eshikni ochaman-u, qirq uchta itga talataman.

– Menga faqat bittasi kerak, uni olib ketgani keluvdim.

– Yo'qol! – yana o'sha ovoz o'shqirdi. – Savatimda qora ilon yotibdi! Agar ketmasang, uni boshingga tashlayman!

– Menga ilon emas, it kerak! – deb qichqirdim javob o'rniga.

– Sen bilan adi-badi aytib o'tirish jonimga tegdi. Uchgacha sanayman, agar ketmasang, qora ilonni tashlayman!

– Mister Sherlok Xolms... – deb gap boshladim.

Sherlok Xolmsning nomi misoli bir sehrday ta'sir qildi, chunki rom sekin tushirildi, bir zum o'tar-o'tmas kalitlar sharaqlab, eshik ochildi. Mister Sherman sal bukchaygan, bo'yin tomirlari bo'rtib chiqqan, baland bo'yli, ko'zlariga ko'k ko'zoynak taqqan oriq chol edi.

– Sherlok Xolmsning do'sti hamisha uyimning aziz mehmoni, – dedi u. – Kiring, ser. Bo'rsiqqa yaqin bormang, tishlaydi. Qo'y, meni uyaltirma! Sen bu janobni tishlamoqchimisani? – Bu so'zlar yovuz tumshug'ini katakning sim chivirlari orasidan chiqarib turgan, ko'zlari qizil-oq sichqonga qaratilgan edi. – Siz bu ilonga e'tibor bermang, u oyoqsiz kaltakesakday bir gap. Zaharli emas, xonada o'rmalab yuraveradi. U qo'ng'izlar kushandasi. Avvaliga sizga biroz qo'pol muomala qilganim uchun mendan xafa bo'lmang. Bolalardan tinchlik yo'q. Derazalarim oldiga kelib turib olishadi. Xo'sh, mister Sherlok Xolmsga nimada yordam berishim mumkin, ser?

– Unga sizning itingiz kerak.

– E! Unga Tobi kerak ekan-da.

– Ha, aynan shu Tobi.

– Tobi chap tomondagi yettinchi raqamda yashaydi. U qo'lidagi shami bilan bu ajoyib hayvonlar shaharchasidan sekin yurib ketdi. Shamning xira yorug'ida har burchakda, har kovakda bizni kuzatib turgan yaraqlagan, charaqlagan ko'zlarni arang ajratardim. Boshimiz ustidagi shift to'sinlarida qushlar savlat to'kib o'tirar, ovozlarimiz ularning uyqusini buzganday erinchoqlik bilan goh u oyog'ini, goh bu oyog'ini ko'tarib qo'yardi.

Tobi juni uzun, quloqlari uzun spaniel<sup>22</sup> bilan Shotlandiya iskovuch itining duragayi, ushoqqina xunuk it edi. U oq aralash dolchin rangda bo'lib, lapanglab yurardi. Tobi avvaliga biroz ik-

---

<sup>22</sup> Spaniel – ovchi itning bir turi.



kilanib turdi-da, keksa tabiatshunos bergan bir chaqmoq qandni oldi, shu tariqa men bilan til topishib, iltimos qilishimni, o'gitimni kutib o'tirmay orqamdan ergashdi-da, izvoshga chiqdi. Lambet yepiskopi saroyidagi soat uchga bong urganida o'sha oqshom Pondisher-Loj darvozasi oldiga ikkinchi bor kelishim edi. Sobiq professional bokschi Mak-Murdo, keyin bilsam, jinoyatga aralashganlikda gumon qilinib, mister Sholto bilan birga politsiyaga olib ketilgan ekan. Tor eshikni ikki politsiyachi qo'riqlab turardi, lekin mashhur izquvarning nomini aytishim hamono ular meni itim bilan darhol kirgizishdi.

Xolms qo'llarini cho'ntaklariga tiqqanicha, trubkasini chekib bo'sag'ada turardi.

– Ha, uni olib keldingizmi! – dedi meni ko'rib. – Ajoyib it. Etni Jons ketdi. Siz yo'qligingizda biz undagi bitmas-tuganmas g'ayrat-shijoatning guvohi bo'ldik. U faqat do'stimiz Taddeush Sholtoni emas, shuningdek, ro'zg'or sohibasi, darvozabon bilan hindi xizmatkorni ham hibsga oldi. Yuqoridagi xonadagi serjantni hisobga olmaganda endi faqat o'zimiz qoldik. Itni shu yerda qoldirib, o'zingiz men bilan yuring.

Biz Tobini dahlizdagi stol oyog'iga bog'lab qo'ydik-da, zinadan yuqoriga ko'tarildik. Xona men chiqib ketganimda qanday bo'lsa, shu ahvolda edi, faqat xona o'rtasidagi o'lik ustiga choyshab yopib qo'yilgandi. Charchagan serjant burchakda devorga suyanib turardi.

– Iltimos, foningizni menga bersangiz, serjant, – dedi Xolms. – Endi mana bu chilvir bilan

fonusni ko'kragimga osib qo'ysangiz. Botinkam bilan paypog'imni yechaman. Siz ularni pastga olib tushing, Uotson. Men yuqoriga chiqa olish hunarini sinab ko'rmoqchiman. Iltimos, ro'molchamni kreozotga tashlang. Juda soz. Endi bir-pasga yuqoriga chiqamiz. Biz narvondan yana yuqoriga ko'tarilib, shiftdagi tuynukdan chor-doqqa chiqdik. Xolms fonus yorug'ini changdagi g'alati izlarga tushirdi.

– Bu juda ajoyib izlar, – dedi u. – Siz ularda g'ayritabiiy biror narsani payqamadingizmi?

– Bu yosh bolaning izi, – dedim men, – yo nozik bir ayolniki.

– Agar katta-kichikligiga qaralsa shunday. Yana sizni nima hayratda qoldirdi?

– Menimcha, ular boshqa oyoq izlaridan hech nimasi bilan farq qilmaydi.

– Farq qiladi, shundayam farq qiladiki! Mana, ko'ring-a. Changda o'ng tovonning izi. Shunday yoniga tovonimni bosaman. Xo'sh, farqi nimada?

– Sizning panjalariniz bir-biriga yopishgan. Kichkina izda esa hamma panjalar tarvaqaylab turibdi.

– Mutlaqo to'g'ri. Buni eslab qolish juda muhim. Endi tuynuk oldiga keling-da, tokchani bir hidlab ko'ring. Men ro'molcham bilan shu yerda qolaman.

Men uning aytganini qildim va kuchli qatron hidi dimog'imga urildi.

– Bu yerdan ketayotganida oyog'ini mana shu yerga qo'yan. Agar sizki uning izini sezgan bo'lsangiz, Tobi turgan gap, sezadi. Endi past-

ga tushing-da, itni bo'shatib yuboring: birinchi raqamning orqasidan tushamiz.

Hovliga chiqqanimda Sherlok Xolms tomning eng teppa qirrasiga chiqib olgandi. U misoli bir bahaybat tillaqo'ng'izday u yerdan sekin sirg'alib tushardi. U bir zum mo'rilar orqasiga o'tib ko'rinmay ketdi-yu, lekin sal o'tmay yana paydo bo'ldi, keyin yana tomning narigi tomoniga o'tib ko'zdan yo'qoldi, aftidan, tomning narigi nishabidan tushyapti, shekilli. Men uyni aylanib o'tib qararam, u allaqachon tarnov yonidagi karnizda o'tiribdi.

– Uotson, bu sizmisiz? – deb qichqirdi u yuqoridan.

– Ha, menman, – deb javob qildim.

– U mana bu yerdan ko'tarilgan. Pastda nima bor.

– Bochka!

– Qopqog'i bormi?

– Bor.

– Yon-verida narvon ko'rinmaydimi?

– Yo'q!

– Voy, iblis-ey! Bunaqada bir baloga yo'liqish hech gap emasdi-ku. Lekin u o'tgan joydan men ham o'ta olaman. Tarnov ancha baquvvat ekan. Xo'p, men hozir tushaman.

Yalang oyoqlarning shipillagani eshitildi, fonus yorug'i devordan pastga sekin o'rmalab tushdi. Keyin Xolms bochkaning qopqog'i ustiga yengil sakradi-da, keyin yerga tushdi.

– Uning izidan yurish qiyin bo'lmadi, – dedi u paypog'i bilan botinkasini kiyarkan, – u qadam

bosgan cherepitsa bo'shab qolibdi, shoshilinchda mana bu narsani tushirib qoldiribdi. Bu siz tibbiyotchilarning tili bilan aytganda, mening tashxisimni tasdiqlaydi.

U menga rangli poxoldan to'qilib, arzon munchoq bilan bezatilgan kichkina hamyonga o'xshash bir narsani uzatdi. U ko'rinishi va shaklidan portsigarga o'xshardi. Ichida o'ntacha uzun, qora, bir uchi o'tkir, boshqa uchi to'mtoq tikan bor edi, bular o'sha Bartolomyu Sholtoni halok etgan tikanning xuddi o'zi edi.

– Dahshatli ninalar, – dedi Xolms. – Ehtiyot bo'ling, sanchib olmang. Ularni topganimdan juda xursandman. Yonida boshqa bo'lmasa kerak. Bunday tikan, meni yoki sizni teringizga sanchilmasmikan, deb endi qo'rqmasak ham bo'ladi. Bundan ko'ra miltiq o'qidan o'lishga roziman. Xo'sh, Uotson, olti mil joyga chopib borish uchun o'zingizni tetik sezyapsizmi?

– Bo'lmasam-chi, – deb javob qildim.

– Oyog'ingiz chidash beradimi?

– Chidash beradi.

– Tobi, bu yoqqa kel. Oldimga kel, yaxshi it. Hidla, Tobi! Hidla!

Xolms kreozot bilan bulg'alangan ro'molchani itning tumshug'iga tutdi. Tobi paxmoq oyoqlarini ikki tomonga kerib, bir qulog'ini kulgili dikkaytirib, ro'molchani misoli xilma-xil eski vinolarni maza qilib tatib ko'rayotgan sinovchiday hidladi. Xolms ro'molchani uzoqroqqa tashladi, yo'g'on kanop ipni itning bo'yinbog'iga bog'lab, bochkaning oldiga olib keldi. It darrov irillay boshladi,

burnini yerga taqab, dumini dikkaytirib, izga qarab shunday tez chopib ketdiki, uning orqasidan oyog'imizni qo'lga olganimizcha yugurishga majbur bo'ldik.

Sharq asta-sekin yorisha boshladi, biz tevarak-atrofimizdagi narsalarni tonggi g'ira-shirada ajrata olardik. Derazalari olib tashlangan, baland devorlari qup-quruq, qutiga o'xshagan ko'rimsiz kattakon uy orqamizda qolgandi. Bizning yo'limiz bog', o'nqir-cho'nqir joylar orqali o'tardi. Axlat va tuproq uyum-uyum bo'lib yotgan, dov-daraxtlari, butalari qarovsiz, bog'bon qaychisini ko'pdan beri ko'rmagan bu tashlandiq joyning miskin, g'aribona ko'rinishi bu yerda sodir bo'lgan fojia ruhiga juda mos tushardi.

Tobi tosh devor oldiga keldi-da, ayanchli g'ingshib to'siq yoqalab chopib ketdi, nihoyat katta, yosh qoraqayin to'sib turgan muyulishda taqqa to'xtadi. Devorlar tutashgan joyda bir necha g'isht joyidan siljib, o'ziga xos zina hosil qilgandi, ularning chetlari ko'chib tushgani bu zinadan tez-tez foydalanishganini ko'rsatardi. Xolms ulardan yuqoriga ko'tarildi, so'ng qo'limdan Tobini oldi-da, uni yerga tushirdi.

– Bu yerda yog'ochoyoqli odam qo'lining izi bor, – dedi u yoniga chiqqanimda. – Oq bo'yoqdagi sezilar-sezilmas qon dog'larini ko'ryapsizmi? Omadimiz kelganini qarang, kechadan buyon yomg'ir yog'gani yo'g'-a! Ular bu yerdan yigirma sakkiz soat avval o'tganlariga qaramay yo'lda hid qolgan.

Ochig'ini aytsam, bunga biroz shubhalandim, chunki London yo'llarining serqatnovligini bila-

man-da. Lekin hademay shubhalarimdan asar ham qolmadi. Tobi bir daqiqa ham ikkilanmay, lapanglaganicha oldinga chopib ketdi. Kreozotning kuchli hidi yo'ldagi boshqa hamma hidlarni bosib ketgandi.

– Lekin mana shu tasodif tufayli jinoyatchilar tezda qo'limizga tushadi, deb o'ylamang, – dedi Xolms. – Men hozir shu qadar ko'p narsa bila-manki, ularni qo'lga tushirishning bir qancha vositalarini ko'ryapman, xolos, lekin bu eng oson yo'li. Taqdir o'zi shuni bizga lozim ko'rgan ekan, ulardan foydalanmaslik nodonlik bo'lar edi. Lekin bu omadli tasodif menga pand ham berdi: bu qarorim men avval boshda tasavvur qilganimday sof mantiqqa asoslanmagan edi. Ana unda bu ish menga juda katta shon-shuhrat keltirgan bo'lardi.

– Sizga yana qanday shon-shuhrat kerak, Xolms, sizning deduktiv uslubingizga qoyil qoldim. Ajoyib muvaffaqiyat. Jefferson Xouning ishi ham siznikining oldida hech gap bo'lmay qoldi. Norvud ishi nazarimda ancha murakkab va jumboqli. Masalan, menga shuni tushuntirib bering-chi, yog'och odamning tashqi qiyofasini qanday qilib bu qadar aniq biloldingiz?

– E, azizim Uotson! Bundan osoni bormi! Buni soxta kamtarlik deb o'ylamang. Qamoqxona soqchilaridan ikki ofitser juda muhim sirni bilishardi. Jonatan Smoll ismli ingliz ularga xazina yashirilgan joy rejasini chizib beradi. Esingizdami, kapitan Morstenning yondaftaridan topilgan rejada ham xuddi shu odamning ismi bor edi. U do'stlarining nomidan «to'rtlar belgisi» deb imzo

chekkandi. Ofitserlar, balki, ulardan bittasi rejadan foydalanib, xazinaga ega bo'lgan-u, keyin Angliyaga olib ketgan, ko'rinib turibdiki, bu bilan ular bitimni buzishgan, xazina esa ularning qo'liga tushgan. Nega endi Jonatan Smollning o'zi xazinaga ega bo'lmagan degan savol tug'ilishi mumkin. Buni ham tushunsa bo'ladi. Agar esingizda bo'lsa, rejaga shunday sana qo'yilganki, bu vaqtda Morsten mahbuslar bilan doimo aloqa qilib turgan, binobarin, o'zi xazinaga ega bo'lolmasdi.

– Bu taxmin, – dedim.

– Yo'q, shunchaki taxmin emas. Bu faraz qilish, u beistisno hamma faktlarni izohlab beradi. Keling, tekshirib ko'raylik. Mayor Sholto tanho ega bo'lgan xazinalar, boyliklarning gashtini surib, tinch-xotirjam yashayotgandi. Keyin to'satdan Hindistondan xat oladi, uni o'qib o'takasi yorilguday bo'ladi. Xo'sh, o'sha xatda nimalar deyilgandi?

– Unda yozilishicha, bular xiyonat qilgan odam qamoqdan bo'shatilgan.

– Yoki, qochgan. Bu haqiqatga yaqinroq, chunki mayor Sholto, shubhasizki, Jonaton Smoll bilan uning do'stlarining qamoq muddatini bilgan. Agar muddat tugaganida, uning paydo bo'lishi mayor Sholtoni bunchalik qo'rqitib yubormagan bo'lardi. Xo'sh, u nima qiladi? U yaxshilab qurollanadi, qo'rg'onning hamma darvozalariga ishonchli soqchilar qo'yadi, zero, u yog'ochoyoqli, oq tanli odamdan o'lgudek qo'rqardi. Esingizdami, u yanglishib, to'pponchadan cho'loq savdogarni otgandi? Rejadagi ismlarning hammasi inglizcha. Boshqalari hindlar yoki musulmonlarning

ismlari. Shuning uchun ham biz shuni ishonch bilan ayta olamizki, o'sha yog'ochoyoqli odam Jonatan Smollning o'zi. Sizga hozircha, mening fikr-mulohazalarimda mantiqqa zid joylar bordek tuyulmayaptimi?

– Yo'q, hammasi juda ravshan va ishonarli.

– Juda soz. Unday bo'lsa, keling endi o'zimizni shu Jonatan Smoll o'rniga qo'yib ko'raylik. Bu ishga uning nuqtayi nazaridan qaraylik-chi. U haqli sur'atda o'ziga tegishli deb hisoblangan narsalarni qaytarib olish, shuningdek, bitimni buzganlardan qasos olish niyatida Angliyaga qaytib keladi. U, Sholtoning qayerda yashashini bilgach, aftidan, xizmatkorlaridan biri bilan til topishadi. U yerda xizmatkorlar og'asi bor, uni biz hali ko'rmaganmiz, ismi – Lal Rao. Missis Berston uni yomonlab gapirgandi. Lekin Smollga xazina yashirilgan joyni topish nasib etmadi, chunki mayorning o'zidan va o'lib ketgan sodiq xizmatkoridan bo'lak hech kim xazina yashirilgan joyni bilmasdi. Sira kutilmaganda Smoll mayorning o'lim to'shagida yotganidan xabar topadi. Xazina sirini o'zi bilan birga olib ketishidan g'azabga tushgan Smoll darvozabonning ko'zini shamg'alat qilib, bir amal-lab bog'ga kirib oladi-da, jon berayotgan odamning derazasiga mo'ralaydi. Mayorning tepasida ikki o'g'lining o'tirgani uning ichkariga kirishiga xalaqit berdi. G'azabdan es-hushini yo'qotgan Smoll o'sha kechasiyoq marhumning yotoqxonasiga kirib, qimmatbaho buyumlar solingan sandiqning qayerda saqlanishini ko'rsatuvchi biror narsani topish niyatida xonadagi hamma



narsalarni ostin-ustin qilib tashlaydi. Bu yerga kelganining dalili sifatida esa o'sha bizga tanish «to'rtlar belgisini» tashlab ketadi. Shak-shubhasizki, mayorni o'ldirib, uning jasadi yonida xat qoldirishni, bu xat shunchaki qotillik emas, balki intiqom belgisi ekanini u oldindan o'ylab qo'yg'an edi. Jinoyatchilar olamidanda bunday jo'n shov-shuvlarga moyil odamlarni juda ko'plab keltirish mumkin, ular ko'pincha jinoyatchining shaxsini aniqlashda qo'l keladi. Hozircha hammasi tushunarlimi?

– Mutlaqo oydin va aniq.

– Juda soz. Xo'sh, Jonatan Smoll yana nima qilishi kerak edi? Unga xazinalar qidirilayotgan uyni zimdan kuzatib turish qolgandi. Ehtimol u Angliyadan tashqarida yashagandir, bu yerga esa kelib-ketib turgandir. Keyinchalik xazinalar yashirilgan joy topilgach, Smollni o'sha zahoti bundan xabardor qilishgan. Bu yerda yana xonadondagi sherigi aralashadi. Jonatan Smoll yog'och oyog'i bilan Bartolomyu Sholtoning shunday balandlikda joylashgan xonaiga chiqolmasdi. Ana o'shanda u o'ziga juda bir g'alati yordamchi topadi, u tarnovdan osongina tomga chiqib, yalang oyog'ini sezmay kreozotga bosadi, buning natijasida ishga Tobi aralashadi, oyog'idan o'q yegan iste'foga chiqqan xirurg olti millik sayrga otlanadi.

– Demak, mayorni u emas, yordamchisi o'ldirgan ekan-da.

– Ha. Xonadagi Smoll izlariga qarab xulosa qilinsa, u bu ishdan juda norozi bo'lgan. Uning

Bartolomyu Sholtoga hech qanday xusumati yo'q edi, uning qo'l-oyog'ini bog'lab, og'ziga latta tiqilsa kifoya deb hisoblardi. U o'zini mushkul ahvolga qo'yishni hecham istamasdi. Lekin bo'lar ish bo'ldi, bo'yog'i sindi. Uning sherigida qandaydir vahshiyona bir his uyg'onadi-yu, zahar o'z ishini qiladi. Ana o'shandan keyin Jonatan Smoll o'zining «to'rtlar belgisi»ni qoldirib, xazina solingan qutichani derazadan tushiradi-da, o'zi g'oyib bo'ladi. Mening tasavvurimda voqealar tizgini ana shunday. Uning tashqi ko'rinishiga kelsak, Smoll, albatta, o'rta yashar, qoramag'iz odam bo'lishi kerak, chunki Andaman orollarida shuncha yil surgunda mehnat qilishning o'zi bo'ladimi. Qadamining katta-kichikligiga qarab, bo'yining qanaqaligini osongina bilsa bo'ladi, soqoli borligini esa Taddeush Sholtoning hikoyasidan bilish mumkin, yuzini soqol bosib ketgani uni juda hayratda qoldirgandi. Taddeush uni otasi o'lgan kuni kechasi derazada ko'rgan edi.

– Xo'sh, yordamchisi-chi?

– Darvoqe, yordamchisi ham bor-a, uning hecham sirli joyi yo'q. Hademay o'zingiz hammasini bilib olasiz. Ertalabki sof havodan to'yib-to'yib nafas olish qanday yaxshi-a! Huv, ana, parcha-parcha bulutlarni ko'ryapsizmi? U kattakon qizil g'ozning pushtirang patiday suzib ketyapti-ya. Londonning qalin tuman pardasi orasidan quyoshning qip-qizil gardishi deyarli ko'rinmaydi. Quyosh saharlab turishni odat qilgan ko'plab yaxshi odamlar yo'lini yoritadi, lekin ularning orasidan bizga o'xshab g'alati bir ish

bilan shoshilib ketayotgan biron kimsa topilmasa kerak. Bu go'zal, so'lim tabiat quchog'ida inson o'z o'jiz nafsoniyati, arzimas orzu-umidlari bilan naqadar notavon ko'rinadi. Jan Polingizning ahvoli qalay?

– Juda yaxshi! Men uni Karleyl orqali topdim.

– Bu ariq yoqalab borib, o'sha ariq suvi oqib chiqadigan ko'l tepasidan chiqishday bir gap. U mantiqqa zid, lekin chuqur bir fikrni aytdi, asl ulug'vorlik odamning o'z o'jizligini, notavonligini anglashidan boshlanadi, dedi. Qiyoslab turib, baho bera olishning o'zi ko'nglining pokligini, ruhiy olamining go'zalligini ko'rsatadi. Rixter fikr-mulohazalar uchun juda katta ozuqa beradi. Yoningizda to'pponchangiz bormi?

– Yo'q, faqat tayoq.

– Ularning maskaniga bosh suqqanimizda, ehtimol, qurol ishlatishga to'g'ri kelar. Jonatan-ni o'zingiz qo'lga olasiz. Agar boshqasi qarshilik ko'rsatguday bo'lsa, shartta otib tashlayman.

Xolms to'pponchasini olib, unga ikkita o'q joy-ladi-da, yana kamzulining o'ng cho'ntagiga solib qo'ydi.

Bu vaqt ichida iz bizni goh dala yo'liga yetak-lar, goh Londonga olib boradigan katta yo'lga boshlardi, ko'p o'tmay biz shahar atrofidagi zavod ishchilari va dokerlarga to'la bosh-keti ko'rin-maydigan, egri-bugri ko'chalariga chiqib qoldik. Pala-partish kiyingan ayollar deraza darchalarini ochishar va eshiklarining oldini supurishardi. Ko'chalardan birining muyulishidagi qovoqxona g'ala-g'ovur edi, u yerdan ertalabki kayf-safoni

qilib, yengining uchi bilan og'zini artib, sersoqol erkaklar birin-ketin chiqib kelishardi. Daydi itlar orqamizdan angrayib qarab qolishardi, lekin Tobimiz pinagini buzmas, o'ngga ham, chapga ham qaramay, tumshug'ini yerdan ko'tarmay faqat oldinga chopardi, yangi izni sezguday bo'lsa o'qtin-o'qtin g'ingshib qo'yardi.

Xullas, shu ketishda biz Stritem, Brikston, Kamberuelladan o'tib, Kennington-leynga kelib qoldik, aylanma yo'llardan yurib Kennington stadionining chap tomoniga chiqdik. Aftidan, Jonatan Smoll bilan uning yovuz yordamchisi iziga tushganlarni, ta'qib qiluvchilarni chalg'itish uchun ataylab mana shu murakkab marshrutni tanlashgan. Agar yon tomondagi tor, qing'ir-qiyshiq ko'chalardan yurishning iloji bo'lsa, katta ko'chaga biron marta ham chiqishmagan. Kennington-leynning boshida ular chapga burilib, Bondstrit va Mayls-stritdan ketishgan. Eng oxirgi ko'cha Nayts-pleysga tutashadigan joyda Tobi to'xtab, bir qulog'ini dikkaytirib, ikkinchisini osiltirib, bezovta bo'lib oldinga, orqaga chopa boshladi, butun turish-turmushi bilan taajjubini ifoda etardi. Keyin bir joyda gir-gir aylana boshladi, go'yo bizdan shafqat so'rayotgandek o'qtin-o'qtin bizga qarab qo'yardi.

– Itga bir gap bo'ldimi? – Xolms tutaqib ketdi.

– Axir ular bu yerdan izvoshga o'tirishmagan yoki havo sharida uchib ketishmagan-ku.

– Balki, ular bu yerda bir zum to'xtashgandir?

– deb taxmin qildim.

– Ha, shunga o'xshaydi. Tobi yana izni topdi, – dedi u biroz yengil tortib.

Bu gal Tobi o'qday uchib ketdi. U o'tkir tumshug'i bilan tevarak-atrofdagi hamma narsani birma-bir hidlab chiqdi-da, oldinga yana ishonch bilan dadil tashlandi. Iz judayam yangi, shekilli, chunki Tobi tizginni tortqilab, undan bo'shalishga urinardi. Xolmsning charaqlagan ko'zlariga qarab safarimiz oxirlab qolganini fahmladim, har holda u shunday deb o'ylardi.

Biz «Broderik va Nelson» firmasining katta yog'och omborini orqada qoldirib, endi Nayn-Elms ko'chasidan chopib borardik. Omborga qo'shni «Oq burgut» qovoqxonasi oldida Tobi qattiq irillab, o'zini bir eshikka urdi, biz ombor hovlisiga kirib qoldik, bu yerda arrakashlar kunduzgi ishlarini boshlab yuborishgandi. Tobi ularga mutlaqo e'tibor bermay, qipiq ustidan chopib borib, yo'lga chiqdi, keyin saroyni aylanib, ikki g'ola orasidan chopib o'tdi-da, nihoyat, quvnoq akkillab, katta bochkaning ustiga sakrab chiqdi. Bochka o'zi olib kelingan qo'l aravachada turardi. Tobi tilini osiltirib, ko'zlarini charaqlatib bochka ustida bizga tantanavor qarab turar, bizning maqtovimizni kutardi. Bochkaning hammayog'i, aravachaning g'ildiraklari qandaydir qoramtir suyuq modda bilan moylab chiqilgandi, tevarak-atrofni kreozot hidi tutib ketgandi.

Biz Sherlok Xolms ikkovimiz bir-birimizga qarab qo'ydik, keyin o'zimizni tutolmay baravariga xaxolab kulib yubordik.

## VIII BOB

### Beyker-stritdagi nomuntazam politsiya qismi

– Endi nima qilamiz? – deb xitob qildim. – Mana, shuncha dong'i chiqqan Tobi ham yanglishdi.

– U o'z bilganicha, tushunganicha ish tutdi, – deb javob qildi Xolms, Tobini bochkaning ustidan tushirib, ombordan olib chiqarkan. – O'zingiz bir tasavvur qiling-a, London bir kunda qancha kreozot sarflaydi, demak, izimizni kesib o'tganlariga ajablanmasak bo'ladi. Hozir uni yog'ochga singdirish rasm bo'lgan. Yo'q, bechora Tobini ayblab bo'lmaydi.

– Demak, oldingi izimizga qaytamizmi?

– Ha, baxtimizga bu uzoq emas. Tobining Naye-pleys muyulishida nega gangib qolganining sababini endi tushunyapman. O'sha yerdan har xil tomonga ikkita bir xil iz ketgandi. Biz soxta izga tushib qoldik. Endi orqaga qaytib, to'g'ri izni topishimiz kerak.

Bu qiyin emasdi. Biz Tobini u yanglishgan joyga olib keldik. U o'sha yerda yana bir bor aylandi-da, butunlay boshqa tomonga qarab chopib ketdi.

– Ishqilib, u bizni bochkaning ilgari turgan joyiga olib bormasin-da, – dedim.

– Qo'rqmang. Ko'ryapsizmi, Tobi hozir yo'lkadan chopib ketyapti, aravachani esa tosh yo'ldan olib kelishgandi. Yo'q, bu safar biz to'g'ri yo'l tanladik. – Iz sohil tomonga burildi, Belmont-pleys va Prinsis-strit orqada qoldi. Brodstrit oxirida iz to'ppa-to'g'ri suvga, kichkina, yog'och prichalga kelib taqaldi. Tobi bizni prichalning eng chek-

kasiga olib bordi-da, to'xtab qoldi, keyin bezovta irillab, pastda oqayotgan suvga qaradi.

– Omadimiz kelmadi, – dedi Xolms. – Ular bu yerdan qayiq olishgan.

Prichalga bir necha yalik<sup>23</sup> va tagi yassi qayiq bog'lab qo'yilgandi. Tobini ularning har birining oldiga olib bordik, lekin u qancha hidlamasin, foydasi bo'lmadi, kreozot hidi qolmagandi.

Oddiygina prichalga yaqin joyda kichkina g'isht uy bor edi. Ikkinchi derazasining ustiga «Mordekay Smit» degan so'zlar yozilgan yorliq osib qo'yilgandi, sal pastida: «Qayiqalar bir soat yoki bir kunga ijaraga beriladi», deb yozilgandi. Eshikdagi yozuv uy egasining bug' bilan yuradigan kateri borligini ma'lum qilgandi, shunday sohil bo'yidagi katta koks uyumi bundan yorqin dalolat berardi. Sherlok Xolms tevarak-atrofga alanglab qaradi-yu, qovog'i osilib ketdi.

– Ishimiz chatoq, – dedi u. – Bu azamatlar men o'ylagandan ko'ra aqlliroq ekan. Aftidan, izlarini yo'qotishibdi. Ular bunga oldindan tayyorgarlik ko'rishmaganmikin, deb qo'rqyapman.

U uy oldiga bordi. Eshik birdan lang ochildi-yu, ostonaga olti yoshlar chamasidagi sochi jingalak bir bola chopib chiqdi, uning orqasidan qo'lida gubka<sup>24</sup> ushlagan, to'ladan kelgan, yuzlari qip-qizil ayol chiqdi.

– Hoziroq uyga kirib yuvin, Jek! – deb qichqirdi ayol. – Qara, hammayog'ing kir-chir! Dadang

---

<sup>23</sup> Yalik – ikki yoki to'rt eshkakli qayiq.

<sup>24</sup> Gubka – mochalka yoki qozon sochiq o'rnida ishlatiladigan buyum.

ko'rguday bo'lsa, ikkovimizning ham ta'zirimizni beradi!

– Shirin bola ekan, – deb gap boshladi Xolms.  
– Bu to'polonchining ikki yuzi qip-qizil-a! Menga qara, Jek, nima xohlaysan?

– Shillin, – deb javob qildi u bir zum o'ylanib.

– Balki, yana boshqa biror narsa xohlarsan?

– Ikki shillin, – deb javob berdi bolakay yana jindak o'ylanib.

– Ma, ol! Bolangiz bunchalik chiroyli, shirin, missis Smit!

– Xudo yarlaqasin sizni, ser! Zehni juda o'tkir, Xudoning o'zi asrasin. Uni hecham yo'lga sololmayapman, ayniqsa, otasi yo'qligida hecham eplab bo'lmaydi. Mana, ko'ryapsiz-u.

– Uyda emasmi? – deb takror so'radi Xolms hafsalasi pir bo'lib. – Afsus. Unda ishim bor edi.

– U kecha ertalaboq ketgandi, ser. Xavotir olyapman, tinchlikmikan? Agar sizga qayiq kerak bo'lsa, men yechib berishim mumkin, ser.

– Ijaraga kater olsam degandim.

– Kater? Buni qarang-a, iloji yo'q-da. O'zi shu katerda ketuvdi-ya! Shuning uchun ham xavotir olyapman-da. Ko'miri oz edi, Bulijga suzib borib kelishga yetadi, xolos. Agar yaxtada ketganida hecham bezovta bo'lmasdim. U ba'zida Greyvsendga ham borib keladi. Agar ishi ko'p bo'lsa, tunab ham qoladi. Lekin barkasda uzoqqa borib bo'lmaydi-da.

– Ko'mirni har bir pristanda sotib olsa bo'ladi-ku.

– Bo'lishga-ku bo'ladi-ya, lekin u buni yoq-tirmaydi. Ular judayam qimmatga sotishadi,



shilishadi, deydi... Buning ustiga, yonidagi yog'ochoyoqli odamni negadir yoqtirmayman, turqi sovuq, gapiniyam tushunmayman. Doimo shu atrofda ivirsib yuradi.

– Yog'och oyoqli odam dedingizmi? – deb hayron bo'lib so'radi Xolms.

– Ha-da, ser. Qop-qora, maymunga o'xshaydi. O'sha odam kecha kechasi erimni qidirib keldi. Erim uni kutayotgandi, shekilli, chunki kater al-laqachon tayyorlab qo'yilgan edi. Sizga ochig'ini aytaman, ser, bu ishlar menga yoqmayapti, ha, yoqmayapti.

– Azizim missis Smit, – dedi Xolms yelkalari qo'nishib, – siz behudaga bezovta bo'lyapsiz. Xo'sh, kechasi boshqa biron kishi emas, ayni shu yog'ochoyoqli odamning kelganini siz qayoqdan bila qoldingiz? Bunchalik ishonch bilan gapirayotganingizga hayron bo'lib turibman.

– Ovozi-chi, ovozi, ser? Men uning ovozini juda yaxshi eslab qoldim, bo'g'iq, qo'pol. U derazani taqillatdi, kechasi uchlar chamasi edi. «Qani, og'ayni, uyg'ongin, – dedi u xirillab, – vaxtaga chiqadigan vaqt bo'ldi». Cholim Jimni uyg'otdi – u katta o'g'lim, ikkovi bir og'iz gapirmasdan chiqib ketishdi. Kechasi yog'ochoyoqning toshga tegib do'qillashi aniq eshitilardi.

– O'sha yog'ochoyoqli odam bir o'zimidimi?

– Bir narsa deyolmayman, ser. Boshqa hech nima eshitmadim.

– Sizni bezovta qilganim uchun uzr, missis Smit, lekin menga kater kerak edi. Menga shuni tavsiya qilishgandi. Nomi nima edi?

– «Avrora», ser.

– Ha, ha. Sharti ketib parti qolgan kema, o'zi yashil, biqinida sarg'ish yo'li bor, quyruq qismi ancha keng.

– Yo'q, bu emas. Katerimiz kichkina, ixcham. Uni yaqindagina qora bo'yoqqa bo'yashgandi, ikkita qizil yo'li bor.

– Rahmat. Ishonchim komilki, mister Smit hademay qaytib keladi. Men daryoda biroz sayr qilmoqchiman, agar «Avrora»ni ko'rib qolguday bo'lsam, eringizga qichqiraman, sizning bezovta bo'layotganingizni aytaman. Mo'risini qora dedingizmi?

– Ha, mo'risi qora, oq hoshiyasi ham bor.

– Ha, bo'ldi, bo'ldi. Yon tomoni qora-ya. Xayr, missis Smit. Men qayiqchini ko'ryapman, Uotson. Biz hozir narigi tomonga suzib o'tamiz.

– Eng muhimi, – deb gap boshladi Xolms yalikka joylashib o'tirib olganimizdan keyin, – oddiy odamlar bilan muomala qilar ekansan, ulardan biror nimani bilib olmoqchi bo'layotganingni sezmasliklari kerak. Agar buni payqaguday bo'lsa, ichimdagini top deb gung bo'lib olishadi. Agar ularning gapini dovdirlilik bilan eshitsang, poyintar-soyintar so'rayversang, kerakli narsalarning hammasini bilib olasan.

– Endi bundan keyin qiladigan ish rejamiz aniq bo'ldi, – dedim. – Katerni ijaraga olib, «Avrora»ni izlashimiz kerak.

– Azizim, bu haddan ziyod og'ir vazifa. «Avrora» Grinvichga yetguncha u yoki bu sohildagi istagan pristanda to'xtashi mumkin. Ko'prikdan keyin

pristanlar birin-ketin keladi. Ularning sanog'iga yetib bo'lmaydi. Agar «Avrora»ning orqasidan bir o'zimiz quvsak, ular bizni ikki-uch kun laqillatishlari mumkin.

– Unday bo'lsa politsiyani yordamga chaqiring.

– Yo'q. Men Etelni Jonsga eng oxirida murojaat qilaman. U, aslida yomon odam emas, shuning uchun ham uning martabasiga putur yetkazmoqchi emasman. Lekin endi, shuncha ish qilib qo'yganimizdan keyin, buyog'ini ham oxirigacha o'zim yetkazmoqchiman.

– Balki gazetada e'lon berarmiz, pristanlar xo'jayinlari «Avrora»ni ko'rishsa, bizga xabar qilishadi.

– Yo'q, bu sira ham mumkinmas. Og'aynilarimiz ularning iziga tushganimizni bilishib, Angliyadan qochib qolishlari hech gap emas. Menimcha, Angliyani tark etish shundayam ularning rejasida bor. Lekin hozircha, biror xafv-xatar bo'lmagunicha ular shoshilmasdan, bemalol yurishadi. Jonsning abjirligi bizga qo'l keladi. Ishonchim komilki, uning taxminan aytgan fikr-mulohazalari barcha gazetalarda bosilgan, qochoqlar, politsiya soxta izdan ketishdi deb juda ishonishadi.

– Xo'sh, unda nima qilishimiz kerak? – deb so'radim Milbankdagi axloq tuzatish uyi oldida to'xtaganimizda.

– Mana bu izvoshda uyga borib, nonushta qilamiz, bir soatcha mizg'ib olamiz. Ehtimol, bu kecha ham yurib chiqarmiz. Izvoshchi, pochtaning oldida to'xtang. Tobi hozircha yonimizda qoladi. U hali kerak bo'ladi.

Biz Greyt-Piter-stritdagi pochta oldidan chiqdik, Xolms bu yerda telegramma jo'natdi.

– Xo‘sh, siz kimga deb o‘ylaysiz? – deb so‘radi mendan Xolms yana izvoshga chiqib o‘tirganimizdan keyin.

Hech tasavvurim yo‘q.

– Beyker-stritdagi qidiruv politsiyasi esingizdami, u menga Jefferson Xou ishini tekshirganimda yordam beruvdi.

– Ha, esimda, – dedim kulimsirab.

– Mana endi yana ularning yordami kerak bo‘lib qoldi. Agar ularning ishi yurishmasa, boshqa yordamchilarim ham bor. Lekin baribir ularni yana bir sinab ko‘raman. Telegrammani o‘sha isqirt yordamchim Uigginsga yubordim. Ishonchim komilki, u o‘zining to‘dasi bilan yetib keladi, nonushta qilmasimizdan shu yerda bo‘ladi.

Soat sakkiz yarimlar edi, to‘s-to‘polon bilan o‘tgan kechani ta‘sirini seza boshladim. Oqsoqlanib, charchoqdan butun a‘zoyi-badanim zirqirab og‘rir, fikrlarim chuvalashib ketgandi. Menda do‘stim ishtiyoq bilan kirishgan professional shijoat yo‘q edi. Lekin bunga g‘ayritabiiy bir hodisa, mantiqan jo‘n vazifa deb qaray olmasdim. O‘tgan kechasi tunda o‘ldirilgan Bartolomyu Sholto masalasiga kelsak, u haqda yaxshi gaplar eshitmaganim uchun ham uning qotiliga nisbatan o‘zimda qandaydir qahr-g‘azab his etmadim. Xazinaning yo‘rig‘i boshqa edi. Bu xazina, to‘g‘rirog‘i, uning bir qismi miss Morstenga tegishli edi. Uni qidirib topishga umid bor ekan, bunga butun umrimni bag‘ishlashga tayyor edim. To‘g‘ri, agar xazinani topsam, miss Morstendan bir umrga ajralib qolishim turgan gap edi. Lekin faqat shuni

o'ylab ish tutsam, unda sevgimning qadr-qimmati qayoqda qoldi! Agar Xolms jinoyatchilarni qo'lga tushirish uchun jonini ham ayamasa, meni xazinani qidirishga majbur etayotgan sabablar bundan o'n chandon kuchli edi.

Beyker-stritda vannaga tushib, toza ich kiyim kiyganimdan keyin o'zimni juda tetik his etdim. Pastga tushganimda nonushta tayyor edi, Xolms esa qahva ichardi.

– Buni qarang-a, – dedi u menga kulimsirab va gazetani uzatarkan, – o'jar Jons bilan hamma yerda hozir-u nozir gazeta reportyori savob ish qilishibdi. Lekin Norvud voqealari, hoynahoy, joningizga tekkan bo'lsa kerak. Yaxshisi, tuxumli quymoq va vetchinani ishtaha bilan yeb oling.

Uning qo'lidan gazetani olib, «Apper-Norvuddagi sirli hodisa» nomli kichkina xabarni o'qib chiqdim.

«O'tgan kuni kechasi soat o'n ikkiga yaqin, – deb yozgandi «Standart», – «Apper-Norvuddagi Pondi-sheri-Lojda yashovchi mister Bartolomyu Sholto o'z yotoqxonasida o'lgan, bunda qandaydir jinoyatning izi bor, deb gumon qilinmoqda. Mister Sholtoning badanida hech qanday zo'ravonlik izlari yo'q. Lekin juda ko'p qimmatbaho hind buyumlari yo'qolgan, bu marhumga otasidan meros qolgandi. Jinoyatni birinchi bo'lib Sherlok Xolms bilan doktor Uotson topishgan, ular o'ldirilgan odamning ukasi bilan birga Pondisher-Lojga kelishgandi. Ma'lum va mashhur politsiya inspektori mister Etelni Jons baxtli bir tasodif bilan xuddi shu payt Norvudning politsiya uchastkasida edi, voqea

e'lon qilinganidan yarim soatdan keyin u jinoyat sodir bo'lgan joyga yetib keldi. Mister Etelni o'ziga xos professional mahorat bilan o'sha zahoti ishga kirishdi, natijasi ham darrov ko'rina qoldi: marhumning ukasi Taddeush Sholto, shuningdek ro'zg'or sohibasi miss Berston, millati hind xizmatkorlar og'asi Lal Rao, Mak-Murdo ismli darvozabon qamoqqa olindi. Shak-shubha yo'qki, o'g'ri yoki o'g'rilar uyning joylashishini yaxshi bilishgan, chunki nihoyatda sinchkovligi va jinoyatchilar olamini yaxshi bilishligi bilan dong taratgan mister Jonsonning aniqlashicha, bu razillar xonaga eshikdan ham, derazadan ham kirisha olmasdi, ular mister Sholtoning xonai bilan tutashgan tuynug-u chordoq orqali tushishgan. Sholtoning o'ligi ham shu xonadan topilgan. Batafsil tekshirilgan, aniqlangan mazkur fakt bular tasodifiy o'g'rilar emasligini shunday ko'rsatib turibdi. Bunga o'xshash jinoyatlar sodir bo'lgan joyda o'tkir aql sohibining bo'lishi qanchalik foydali ekanligini qonun homiylarining chaqqon va samarali harakatlari yana bir bor ko'rsatib turibdi. Bu voqea, politsiyamizni yana ham detsentralizatsiya<sup>25</sup> qilish zarur degan fikrga amal qiluvchi odamlarning haq ekanligini isbotlaydi, deb hisoblaymiz. Ana o'shanda ishlar yana ham tezroq va batafsilroq tekshiriladi».

– Ajoyib-a, to'g'rimi? – dedi Xolms kulimsirab, qahvadan icharkan. – Xo'sh, siz nima deysiz?

---

<sup>25</sup> Detsentralizatsiya – markaziy organlarning ba'zi vazifalarini mahalliy idoralarga bermoq.

– Shuni aytishim kerakki, ikkovimizning jinoyat ishtirokchilari sifatida qamalib ketishimizga sal qoldi.

– Men ham shunday deb o‘ylayman. Agar uning yana bir jazavasi tutsa, bizni boshimizga ham Taddeush Sholtoning kuni keladi.

Shu payt dahlizda qo‘ng‘iroqning yangroq jarangi eshitildi, so‘ngra kimgadir gap uqdirmoqchi bo‘lgan bekamizning qo‘rquvdan qaltiragan ovozi quloqqa chalindi.

– E, Xudoyim, Xolms, – dedim o‘rnimdan turar ekanman, – chindanam ular kelishganga o‘xshaydi.

– Yo‘g‘-e, ish shunchalikka bormas. Bu nomuntazam politsiya qismi, mening Beyker-stritdagi guruhim.

U gapirayotganda zinada yalangoyoqlarning to‘pir-to‘piri, bolalarning yangroq ovozi eshitildi-yu, sal o‘tmay xonaga isqirt, juldur kiyingan ko‘cha bolalaridan bir to‘dasi yopirilib kirdi. Shovqin-suron bilan bostirib kirishlariga qaramay, bu ma‘lum qoida-intizomga bo‘ysunuvchi otryad ekanligi har holda sezilib turardi, chunki bolalar tezda safga tizilishdi-da, sabrsizlik bilan bizga tikilib qolishdi. Ulardan biri – bo‘yi va yoshi kattarog‘i viqor bilan bir qadam oldinga chiqdi. Kishida unchalik ishonch uyg‘otmaydigan bu tasqaraga qarab odamning kulgisi qistardi.

– Telegrammangizni oldim-u, ser, – dedi u. – Hammasini boshlab keldim. Biletlarga uch shilling va olti pens ketdi.

– Marhamat, – dedi Xolms bir necha tangani uzatib. – Bundan keyin, Uiggins, ular senga, sen

esa menga xabar berasan. Uyimda kirdi-chiqdi ko'payishiga yo'l qo'yolmayman. Lekin hozir bir jihatdan hammalaring kelganlaring yaxshi bo'ldi. Xo'sh, endi instruksiyamni eshitinglar. Bug' bilan yuradigan «Avrora» katerining hozir qayerdaligini aniqlash kerak. Mordekay Smit uning xo'jayini. Kater qora rangda, biqinida ikkita qizil yo'li bor. Mo'risi ham qora, oq hoshiyasi bor. U daryoning qayeridadir tutilib qolgan. Birortalaring Milbank axloq tuzatish uyi qarshisidagi Smit prichali oldida navbatchilik qilsalaring, yaxshi bo'lardi, kater kelib qolishi mumkin-da. Vazifalaringni o'zaro taqsimlab olinglar, ikki sohilni ham aylanib, qarab chiqinglar. Agar biror narsa bilsalaring, darrov menga xabar qilinglar. Tushunarlimi?

– Ha, boshliq, – deb javob qildi Uiggins.

– Shartlar eskicha, katerni topgan odamga – bir gineya. Bunisini hozircha olib turinglar. Xo'p, endi ishga kirishinglar! – Xolms ularning har biriga bittadan shilling berdi, bolalar yalang oyoqlarini zinada dupurlatishib, ko'chaga o'qday otilishdi.

– Bular «Avrora»ni yerning tagidan bo'lsa ham topishadi, – dedi Sherlok Xolms, stol yonidan turib, trubkasini tutatarkan. – Ular hamma joyga kira oladi, hamma narsani ko'rishadi, hamma-sini eshitishadi. Ishonchim komilki, «Avrora»ning qayerdaligini kechga yaqin bilamiz. Hozircha esa kutishdan boshqa ilojimiz yo'q. Iz uzilib qoldi, «Avrora»ni, juda bo'lmasa uning xo'jayinini topmagunimizcha izga tusholmaymiz.

– Qolgan-qutganini Tobi yeb qo'yadi. Siz yotib, birpas dam olasizmi, Xolms?



– Yo‘q, charchaganim yo‘q. Ishdan toliqqan vaqtimni eslayolmayman. Aksincha, ishsizlik, bekorchilik tinkamni quritadi. Men bir zum trubka chekib, bu g‘alati ish to‘g‘risida yana o‘ylayman, buning uchun sariq sochli mijozimizdan minnatdor bo‘lishimiz kerak. Lekin oxiri menga juda jo‘ndek tuyilyapti. Yog‘och oyoqli odamlar aytarli ko‘p emas, Birinchi raqam esa – nihoyatda noyob nusxa.

– Yana o‘sha sirli Birinchi raqammi?

– Men buni hecham, ayniqsa, sizdan sir tutmoqchi emasman. Meni kechirasiz-u, Uotson, lekin sizda u haqda ma‘lum bir fikr tug‘ilishi kerak edi. Keling, uning hamma belgilarini yana bir bor eslaylik. Oyog‘i kichkina, umrida botinka kiyganmas, doimo yalangoyoq yurgan, poynagi toshdan qilingan yog‘och hassa, judayam epchil, bo‘yi past, yana zaharlangan tikanlar. Xo‘sh, qanday xulosaga kelardingiz?

– Vahshiy! – deb xitob qildim. – Ehtimol u Jonatan Smoll to‘dasidagi hindilarning biridir.

– O, unday emasdirov, – e‘tiroz bildirdi Xolms. – Uning oyoq izlarini birinchi bor ko‘rganimda men ham shu o‘yga borgandim, lekin keyinchalik fikrim tamoman o‘zgardi. Hindiston yarimoroli aholisi orasida past bo‘yli qabilalar bor, lekin ular orasidan bunaqangi oyog‘i kichkinalarni topolmaysiz. Aslida hindilarning tovoni ensiz va uzun bo‘ladi. Musulmonlar shippak kiyib yurishadi, ularning bosh barmog‘i, odatda, boshqalardan bog‘ich bilan ajratilib qo‘yilgan bo‘ladi. Bu kichkina nayzalarni faqat bir yo‘l bilan otish mumkin.

Ular puflab chalinadigan trubkadan otiladi. Xo'sh, sizningcha, bu vahshiy qayoqdan kelgan?

– Janubiy Amerikadan, – dedim tavakkal qilib.

Xolms qo'lini cho'zib, tokchadan qalin bir kitobni oldi.

– Bu hozir nashr etilayotgan jug'rofiya ma'lumotnomasining birinchi jildi. Buni jug'rofiya ilmining eng so'nggi yangiligi desa bo'ladi. Qani, ko'raylik-chi, biz uchun biror qiziq narsa bormikin. Andaman orollari. Ular Sumatraning shimolidan uch yuz qirq mil uzoqlikda Bengal ko'rfazida joylashgan. Xo'sh, xo'sh... Buyog'ida nima bor ekan? Iqlimi nam, marjon qoyalari, akulalar, Pot-Bler, surgun qamoqxonasi, Ratlend oroli... Ha, topdim: «Andaman orollarining tub aholisi, biz yer yuzidagi eng past bo'yli qabilamiz deb da'vo qilishlari mumkin, lekin ba'zi bir antropologlar birinchi o'rinni Afrika bushmenlari, Amerikaning «digger» qabilasidagi hindilarga va Olovli Yerning tub aholisiga berishadi. Katta odamning o'rtacha bo'yi sal kam to'rt fut, biroq bundan ham past bo'ylilari uchrab turadi. Bular ko'rinishdan badqovoq, serjahl odamlar bo'lib, sivilizatsiya ta'siriga deyarli berilmaydi, lekin ular sadoqatli do'st bo'lishga qodirdirlar». Mana shunga alohida e'tibor bering-a, Uotson. Xo'sh, davomini eshiting: «Ular juda ham xunuk bo'lishadi. Boshlari katta, bichimi har xil, mitti ko'zlari g'azab bilan boqadi, turqi sovuq bo'ladi. Qo'l va oyoqlari juda ham kichkina. Ular shu qadar yovuz va vahshiyki, Angliya hukumatining ularni o'ziga qaram qilib olish yo'lidagi barcha urinish-

lari chippakka chiqdi. Ular hamisha kema halokatiga uchraganlar uchun bir dahshat edi. Asir olinganlarni ular, odatda, tosh poynakli to'qmoq bilan urib yoki zaharlangan nayza sanchib o'ldirishardi. Bu xildagi qirg'inlar, odatda, vahshiyona bazm bilan tugardi». Qanday yoqimtoy, o'ziga rom etadigan odamlar-a, to'g'rimi, Uotson? Agar o'sha suqsur yigit o'z bilganicha ish tutish imkoniga ega bo'lganida bormi, bu ish yana ham dahshatli tus olishi mumkin edi. Nazarimda, Jonatan Smoll uning yordamidan bazo'r foydalangan.

– Lekin u bu alomat sherikni qayoqdan topgan ekan?

– Sizga aniq bir narsa deyolmayman. Lekin bizga ma'lum bo'lishicha, Jonatan Smoll Angliyaga qayoqlardan emas, Andaman orollaridan kelgan, binobarin, uning tanish-bilishlari orasida o'sha yerning odamlari borligiga unchalik ajablanmasa bo'ladi. Shubhasizki, vaqt-soati bilan biz hamma narsadan batafsil voqif bo'lamiz. Menga qarang, Uotson, ko'rinishingiz juda yomon. Divanga yoting, qani, ko'raylik-chi, sizni tez uxлата olarmikanman.

U burchakdagi skripkasini oldi. Men divanga chalqancha yotdim, u, albatta, o'zi bastalagan mayin bir kuyni ohista chala boshladi: Sherlok Xolms tengi yo'q mashshoqlik iqtidoriga ega edi. Men uning ingichka, oriq qo'lini, jiddiy yuzini va kamonchani siltashini sal-pal eslayman. Keyin o'zimni qandaydir tovushlar olamida suzib yurganday his etdim, mana endi uyqular maskanidaman, tepanga Meri Morstenning dilbar chehрасi engashdi.

## IX BOB

### Zanjirdagi uzilish

Uyg'onganimda qosh qoraygan edi. O'zimni ancha tetik, kuch-g'ayratga to'la his etdim. Uyqu kuchimni qaytarib berdi. Sherlok Xolms hamon o'sha joyda o'tirar, faqat qo'lida skripkasi yo'q edi. Qimirlaganimni sezib, men tomonga bir qarab qo'ydi, yuzi qorayib, tashvishli ko'rinardi.

– Gap-so'zlarimiz bilan sizni uyg'otib yuboramizmi deb cho'chigandim, lekin siz qotib uxladingiz, – dedi u.

– Men hech nima eshitganim yo'q, – dedim unga javoban. – Biror yangilik bormi?

– Afsuski, yo'q. Ochig'ini aytsam, juda hayronman, hafsalam pir bo'lib turibdi. Men bu vaqtgacha ba'zi bir narsalarni bilamanmi, deb o'ylovdim. Hozirgina Uiggins kelib ketdi. U katerning hech qanday izi yo'q, dedi. Har daqiqa g'animat bo'lib turganda bu qadar imillash kishiga alam qiladi.

– Men biror narsada yordam berolmaymanmi? O'zimni juda yaxshi his etyapman, yana bir kecha uxlamay yurishim mumkin.

– Yo'q, hozir qiladigan ish yo'q. Kutishdan boshqa choramiz yo'q. Agar chiqib ketsak, yo'qligimizda orziqib kutgan o'sha xabar kelib qolishi mumkin, unda ishimiz yana kechikadi. Nima qilsangiz ixtiyor o'zingizda, lekin men shu yerda, postda qolaman.

– Unda men Kamberuellga borib, missis Sesil Forresterni ko'rib kelaman. U kecha kechqurun, albatta, keling, deb iltimos qiluvdi.

– Missis Sesil Forrester? – deb takror so‘radi Xolms, uning ko‘zlarida istehzoli kulgi paydo bo‘ldi.

– Miss Morsten ham, bu o‘z-o‘zidan ma‘lum. Ular nima bo‘layotganini bilishni juda xohlash-yapti!

– Menga qolsa, ularga hamma gapni gapirib o‘tirmasdim. Ayollarga, hatto ularning eng yaxshilariga ham hamma narsani ishonib gapiraverish kerak emas.

Men uning bu qo‘pol, nohaq gapiga e‘tiroz bildirib o‘tirmadim-u, ikki soatdan keyin kelishimni aytdim, xolos.

– Juda soz! Sizga oq yo‘l. Ha, daryo orqali ket-sangiz, Tobini ham birga olib keting. Menimcha, u endi bizga kerak bo‘lmaydi.

Uning aytganini qilib, Tobini va yarim soverenni Pinchinleyndagi keksa naturalistga topshirdim. U yerdan to‘ppa-to‘g‘ri Kamberuellga o‘tdim. Miss Morsten o‘tgan kungi ko‘ngilsizlikdan hali ham o‘ziga kelolmagan ekan-u, lekin hamon hamma narsaga qiziqardi. Missis Forrester ham keyingi voqealarni juda bilgisi kelardi. Ularga hammasini gapirib berdim-u, faqat dahshatli joylariga to‘xtab o‘tirmadim. Mister Sholtoning o‘limi haqida gapirar ekanman, qotillikning mayda-chuyda tafsilotlari haqida og‘iz ochmadim. Lekin qanchalik qisqartirganimga qaramay, har holda hikoyamdan ular lol bo‘lib qolishdi.

– Xuddi romanlardagiday-a! – xitob qildi missis Forrester. – Malika – nohaqlik qurboni, qimmatbaho buyumlar xazinasini, qoratanli odamxo‘r,

yog'ochoyoqli qaroqchi. Odatdagi an'anaviy ajdaho yoki biron-bir makkor grafning o'rniga bo'lar.

– Yana ikki sayyoh xaloskor-ritsar ham, – deb qo'shib qo'ydi miss Morsten va tiniq nigohini men tomonga tashladi.

– Menga qarang, Meri, axir, taqdiringiz mana shu qidiruv natijalariga bog'liq-ku. Menimcha, siz bu haqda o'ylamayapsiz, shuning uchun ham beparvosiz. Axir badavlat bo'lib, butun dunyo oyog'ingiz ostida yotishini bir tasavvur eting-a.

Miss Morstenning o'zi uchun ajoyib imkoniyatlar ochilayotganidan hecham xursand bo'lmaganini ko'rib, yuragim sevinchdan urib ketdi. Aksincha, u go'yo bu xazinalarning o'ziga hech qanday aloqasi yo'qday, boshini mag'rur silkitib qo'ydi.

– Meni mister Taddeush Sholtoning taqdiri juda tashvishga solyapti, – dedi u. – Qolgan gaplarning ahamiyati yo'q. U bizga odamgarchilik qildi, himmat ko'rsatdi. Undan bu mudhish, nohaq aybni olib tashlashlari uchun qo'limizdan kelgan hamma ishni qilishimiz kerak.

Missis Forresterning uyidan chiqib ketganimda qosh qorayib qolgandi. Beyker-stritga qorong'i tushganda qaytib keldim. Do'stimning kitobi bilan trubkasi oromkursisida yotar, o'zi esa yo'q edi. Men xat qoldirmadimikin, deb qidirib ko'rdim, lekin topolmadim.

– Mister Xolms biron joyga ketdimi? – deb so'radim uy bekasidan, u pardalarni tushirish uchun xonaga kirganida.

– Yo'q, xonasiga kirib ketdi. Bilasizmi, mister Uotson, – uy bekasi ma'nodor shivirlashga o'tdi, – betob bo'lib qolmadimikin, deb qo'rqyapman.

– Nega unday deyapsiz?

– Bugun juda g'alati ko'rinyapti. Siz chiqib ketishingiz bilan xonada u yoqdan-bu yoqqa bezovta yura boshladi, ancha yurdi, hatto oyoq tovushlarini eshitib charchab ketdim. Keyin u o'zi bilan o'zi gaplasha boshladi, allanimalar deb ming'illadi. Har gal, qo'ng'iroq chalinishi bilan yugurib chiqib: «Nima gap, missis Xadson?» deb so'raydi, keyin xonasiga kirib, eshikni qarsillatib yopdi, lekin baribir yurgani eshitilib turdi. Ishqilib, kasal bo'lib qolmasin-da. Unga orom beradigan dori taklif qildim, lekin u menga shunday o'qrayib qaradiki, xonadan qanday chiqib ketganimni bilmayman.

– Menimcha, missis Xadson, bunchalik bezovta bo'lish uchun aytarli asos yo'q, – dedim. Men uni bunaqa ahvolda juda ko'p ko'rganman. Hozir u katta bir vazifani hal etyapti, tabiiyki, hayajonlanadi, bezovta bo'ladi.

Uyimiz bekasi bilan juda xotirjam gaplashdim, lekin ochig'ini aytsam, do'stimning ahvolidan o'zim ham tashvishga tusha boshladim, chunki kechasi bir necha bor uyg'onganimda, nuqul uning oyoq tovushini eshitaman. Bu majburiy bekorchilik uning faol aqliga qanchalik katta zarar keltirishini bilardim.

Nonushta paytida Xolms menga o'zini ancha oldirib qo'ygan, toliqqan ko'rindi. Yonoqlari qizarib ketgandi.

– O'zingizni hecham ayamaysiz-da, Xolms, – dedim. Eshitib yotdim, kechasi bilan mijja qoqqaningiz yo'q.

– Hech uxlayolmadim, – dedi u. – Bu la'nati ish meni adoyi tamom qiladi. Arzimagan bir narsani deb, ushlanib o'tirsam axir ozmuncha ish qildikmi, alam qiladi-da. Axir jinoyatchilarni, ularning katerini, hamma hammasini bilsam-u, ishimiz yurishmasa. Axir bor imkoniyatimni ishga soldim. Butun Temza, uning ikki sohilini ham boshidan oxirigacha tit-pit qilib chiqdim, la'nati «Avrora»ning biron bir izi topilsa-chi. Na o'zini, na egasini topa oldik. Ular katerni cho'ktirib yuborgan deb o'ylash ham mumkin. Holbuk, buning aksini ko'rsatuvchi faktlar bor.

– Balki, missis Smit bizni soxta izlardan yuborgandir?

– Yo'q, bo'lishi mumkinmas. Men so'rab surishtirdim. O'sha biz o'ylagan kater bor ekan.

– Ehtimol, daryoning yuqori tomoniga ketgandir?

– Buniyam hisobga oldim. Hozir to Richmondning o'zigacha qidirishyapti. Agar bugun ham biror xabar olmasak, ertaga o'zim jo'nayman. Endi men katerni emas, odamlarni qidiraman. Lekin baribir xabar kelishiga ishonaman, ha ishonchim komil.

Lekin o'sha xabar na Uigginsdan, na boshqa manbalardan keldi. Gazetalar esa Norvud fojiasi haqidagi xabarlarni hali ham bosib chiqarishardi. Ularning hammasi ham bechora Taddeush Shol-toga dushman ko'zi bilan qaraydi. Gazetalarning birontasida ham, agar dastlabki tergov ertaga tayinlanganligi to'g'risidagi xabar hisobga olinmasa, hech qanday yangi gap aytilgani yo'q.



Kechqurun yana Kamberuellga borib, omadimiz kelmaganini gapirib berdim. Qaytib kelganimda Xolmsni juda yomon kayfiyatda uchratdim. U savollarimga arang javob qaytarar, kechasi bilan allaqanday murakkab kimyoviy tajribalar o'tkazib chiqdi. Retorta<sup>26</sup>larni qizdirar, suvni distillirlar, oxirida xonani shunday bir qo'lansa hid bosib ketdiki, uydan qochib ketishimga sal qoldi. Sahargacha probirka va kolbalarning jarang-juringini eshitib yotdim.

Xuddi birov meni turtganday juda vaqtli uyg'ondim. Tepamda Xolms turardi, matroslarning dag'al jomakorini kiyib olganini ko'rib juda hayron bo'ldim. Egnida bushlat, bo'yniga qo'pol qizil sharf o'rab olgandi.

– Men daryoning quyi tomoniga qarab yuraman, o'sha yoqlardan izlayman, Uotson, – dedi u menga. – Rejam ustida uzoq o'yladim, urinib ko'rishga arziydi.

– Men ham birga boraman.

– Yo'q, agar bu yerda qolsangiz, menga ko'proq yordam bergan bo'lasiz. Men noiloj ketyapman. Biz uzoq kutayotgan xabar har daqiqa kelib qolishi mumkin, lekin Uigginsning juda ruhi tushib ketgan, kecha kechqurun payqadim. Iltimos, mening nomimga kelgan hamma telegramma-yu, xatlarni ochib o'qing. Agar biron bir muhim narsani o'qib qolsangiz, o'z bilganingizcha ish tuting. Sizga ishonsam bo'ladimi?

– Albatta.

---

<sup>26</sup> Retorta – laboratoriyada ishlatiladigan bo'g'zi uzun va bir tomonga qayrilgan idish.

– Telegramma yuborolmasam kerak deb qo‘rqaman, chunki qayerda, qachon bo‘lishimni hozir o‘zim ham bilmayman. Agar omadim yurishsa, tezda qaytaman. Har holda, quruq qaytmayman.

Ertalab ham, nonushta paytida ham hech qanday xabar bo‘lmadi. «Standart»ni ochib, ilgari xabarlardan farq qiluvchi xabarga ko‘zim tushdi. Gazeta shunday deb yozgandi: «Apper-Norvuddagi fojia xususida shuni aytish kerakki, bu ish dastlab tuyulganidan ko‘ra ancha murakkab va jumboqli tus olishi mumkin. Hozirgina aniqlandiki, mister Taddeush Sholtoning akasining o‘limiga hech qanday aloqasi yo‘q ekan. U bilan ro‘zg‘or sohibasi missis Berston kecha kechqurun ozod qilindi. Ma‘lum qilishlaricha, politsiya haqiqiy jinoyatchilarning shaxsini aniqlashga imkon beradigan ma‘lumotlarga ega. Tergov ishlari o‘zining g‘ayrat-shijoati, ziyrakligi bilan ma‘lum va mashhur bo‘lgan Skotland-Yard politsiyasining inspektori mister Etni Jonsning ishonchli qo‘llarida. Jinoyatchilar har daqiqa hibsga olinishlari mumkin».

«Xayriyat-e, Xudoga shukr, – deb o‘yladim. – Har qalay do‘stimiz Sholto ozodlikda. Qiziq, bu «ma‘lumotlar»i nima ekan? Ha, aytmoqchi, politsiyaning sharmandasi chiqqanida doimo shunaqa deb yozishadi». Gazetani stol ustiga tashlayotganimda birdan mojarolar, hodisalar ustunidagi e‘longa ko‘zim tushib qoldi. Unda shunday deyilgandi:

«Bedarak yo‘qolganlar qidirilyapti: Smit prichalini «Avrora» katerida seshanba kuni soat uchlarda

tark etgan Mordekay Smit va uning o'g'li Jon. Kater qora rangda, biqinida ikkita qizil yo'li bor, mo'risi qora, oq hoshiyasi bor. Yuqorida nomi tilga olingan Smit va «Avrora» katerining qayerdaligini uning xotini missis Smitga, Smit prichaliga yoki Beyker-strit ko'chasi, 221- «B» uyga xabar qilgan odamga besh funt miqdorida mukofot beriladi».

E'lon Xolms tomonidan berilganini ko'rsatardi. «Ha, ustalik bilan tuzishibdi, – deb o'yladim. – Qochoqlar erini qidirayotgan xotinning tabiiy tashvishini ko'rishadi, xolos».

Vaqt nihoyatda sekin o'tardi, kunni kech qilish juda qiyin bo'ldi. Har gal eshik taqillasa yoki tashqarida kimningdir oyoq tovushi eshitilsa, men darrov hushyor tortib, yo Xolms keldi, yoki e'longa javob olib kelishdi deb o'ylardim. Men kitob o'qishga urinib ko'rdim, lekin o'y-fikrlarim hadeb o'sha g'aroyib jinoyat, uning biz qidirayotgan g'alati ishtirokchilari atrofida aylanardi. Bordi-yu, do'stimning fikr-mulohazalariga mash'um, halokatli bir xato aralashib qolgan, u o'zini-o'zi aldash qurboni bo'lsa-chi? Bordi-yu, uning aniq mantiqiy aqli bu xayoliy taxmini soxta dalillar asosiga qurgan bo'lsa-chi? Men Sherlok Xolmsning yanglishgan, xato qilgan paytini bilmayman, lekin hatto eng o'tkir aql ham bir marta xato qilishi mumkin-ku. Nihoyatda nozik, o'tkir mantiq uni chalg'itgan bo'lishi mumkin. U qo'lida bor, ancha jo'n va tabiiy izohlarni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, g'alati, murakkab izohlarni afzal ko'radi. Lekin ikkinchi tomonda, o'zim shu voqealarning

shohidi bo'lganman, Xolmsning dalil-u, isbotlarini o'z qulog'im bilan eshitganman. Bu g'alati voqealarning uzun zanjirini bir boshdan necha-necha bor kuzatar ekanman; ko'plari bir qarashda arzimasek tuyulishi ham mumkin. Shuni e'tirof etishim kerakki, Xolms yanglishgan taqdirda ham, baribir haqiqat ajoyib va ehtimoldan uzoq narsalar zamirida yotadi.

Vaqt peshindan oqqanda, soat uchlarda qo'ng'iroqning qattiq jiringlashi eshitildi, dahlizda kimningdir amrona ovozi yangradi, xonaga shaxsan mister Etelni Jonsning o'zi kirib kelganini ko'rib, hayron bo'lib qoldim. Lekin u bugun Norvud fojiasini shu qadar ishonch bilan tekshirishga kirishgan, sog'lom fikrni betakalluflik bilan himoya qiluvchi o'sha kalondimog', takabbur odamga sira o'xshamasdi! Uning ko'rinishi xomush, negadir bo'shashgan, hatto iltijoga o'xshash bir narsa paydo bo'lgandi.

– Salom, ser, salomatmisiz, – dedi u. – Mister Xolms uyda yo'q, shekilli?

– Yo'q. Qachon kelishlarini ham bilmayman. Balki, birpas kutib turarsiz? Mana bu oromkurusiga o'tiring. Mana, marhamat, sigara.

– Minnatdorman. Ha, mayli, kutaman, – dedi u yuzini katak gulli qizil ro'molcha bilan artarkan.

– Sodali viskiga qalaysiz?

– Ha, mayli, yarim stakan bera qoling. Sentabr bu qadar issiq bo'lmasdi. Buning ustiga, tashvish ustiga tashvish. Norvud fojiasi xususidagi fikrimdan xabaringiz bordir?

– Ha, siz uni bayon qilgandingiz.

– Ana shu fikrimni qaytadan ko‘rib chiqishga majbur bo‘ldim. Men mister Sholtoni shunday ustalik bilan tuzoqqa ilintirgandim, qutulolmaydigan qilib qo‘lga tushirgandim-u, lekin buni qarangki, tuzoqni teshigi bor ekan, u qutulib qoldi. Uning jinoyat sodir bo‘lgan paytda boshqa joyda ekanligini isbotlovchi dalillari bor. O‘sha daqiqadan keyin, ya‘ni akasining xonasidan chiqib ketganidan keyin uni goh u yerda, goh bu yerda ko‘rishgan. Xullas, bir zum ham yolg‘iz qolmagan. Binobarin, uning tomga chiqishi ham, tuynukdan chordoqqa tushishi ham mumkin emas. Bu juda shubhali ish, zero, mening sohadagi obro‘-e‘tiborim bu ishning qanday hal etilishiga bog‘liq. Shuning uchun jindek yordamga ham xursand bo‘lardim.

– Ba‘zi-ba‘zida biz hammamiz ham yordamga muhtoj bo‘lamiz, – dedim.

– Do‘stingiz mister Sherlok Xolms – buyuk siyomo, ser, – dedi samimiylik bilan bo‘g‘iq ovozda. – U mag‘lubiyat nimaligini bilmaydigan odam. Bu ajoyib yigitning qanchadan qancha ishlarda qatnashgani menga ma‘lum, u doimo haqiqatning tagiga yetmasdan qo‘ymasdi. U o‘z uslublarida doim izchil emas, nazarimda, xulosa chiqarishga judayam shoshadi, lekin umuman olganda menimcha, u Skotland-Yardning eng mashhur ayg‘oqchisi bo‘lishi mumkin edi, men bu gapni istagan odamimga ayta olaman. Bugun ertalab undan telegramma oldim, bundan aniq ko‘rinib turibdiki, Xolmsning qo‘lida ishga doir yangi faktlar bor. Mana telegramma.

U cho'ntagidan telegrammani olib, menga uzatdi. Telegramma soat o'n ikkida Poplardan jo'natilgan:

«Zudlik bilan Beyker-stritga boring, – deb yozgandi Xolms. – Agar yetib borolmasam, meni kutib turing. Ikkita norvudlikning izidan bor-yapman. Agar so'nggi marrada ishtirok etishga xohishingiz bo'lsa, bizga qo'shilishingiz mumkin».

– Yaxshi yangilik! Demak, Xolms, yana ularning izini topibdi-da, – dedim.

– Demak, u ham yanglishibdi-da! – xitob qildi oshkora mamnunlik bilan Jons. – Ha, eng zo'rman degani ham xato qiladi. Bu telegramma soxta bir trevoga bo'lishi ham mumkin, albatta, lekin Skotland-Yard inspektori sifatida har bir imkoniyatdan foydalanib qolishim kerak, bu mening burchim. Oyoq tovushlarini eshityapman. Balki, bu Xolmsdir.

Zinadan og'ir oyoq tovushlari, hansirash va yo'tal eshitildi, go'yo bu odamga nafas olish mashaqqatli bir ishdek edi. U bir-ikki bor to'xtadi. Mana, nihoyat, u eshigimiz oldiga kelib, uni ochdi. Uning tashqi ko'rinishi haligina biz eshitgan tovushlarga mos edi. Bu egniga dengizchilar kiyimi – eski bushlat kiyib, tugmalarini iyagigacha qadab olgan, ancha yoshga borib qolgan kishi edi. O'zi bukchaygan, tizzalari qaltirar, ko'ksov odamday entikib-entikib nafas olardi. U dubdan yasalgan yo'g'on hassaga suyanib turardi, har nafas olganida yelkalari uchib-uchib tushardi. Bo'ynida guldor ro'mol, oq oralagan chekka soqollari iyagigacha tushar, yuzi ko'rinmas, faqat oq baroq

qoshlari tagidagi qora aqlli ko'zlari charaqlab turardi. Xullas, u menga tirikchiligi og'irlashib qolgan keksa hurmatli dengizchi bo'lib ko'rindi.

– Xo'sh, sizga nima bilan yordam berishimiz mumkin, otaxon? – deb so'radim.

U xonani keksalarga xos bir sinchkovlik bilan ko'zdan kechirib chiqdi.

– Mister Sherlok Xolms uydamlar? – deb so'radi u.

– Yo'q. Uning o'rnida menman. Unga aytmoqchi bo'lgan gaplaringizni menga aytishingiz mumkin.

– Men Sherlok Xolmsning o'zini ko'rmoqchiman, – deb takrorladi chol o'jarlik bilan.

– Uning o'rniga men qolganman, deyapman-ku. Siz, hoynahoy, Smit kateri masalasida kelgan bo'lsangiz kerak?

– Ha, men uning qayerdaligini bilaman. U qidirayotgan odamlarning qayerdaligini ham bilaman. Xazinaning qayerdaligini bilaman. Xullas, hamma-hammasini bilaman.

– Menga gapirib bering, bu Xolmsga gapirib berganday gap.

– Yo'q, men uning o'ziga gapirib berishim kerak, – deb takrorladi chol qarilarga xos o'jarlik bilan, sal jahli chiqib.

– Unday bo'lsa, uni kuting.

– Kutolmayman. Kimnidir deb, kunni bekor o'tkazishni istamayman. Modomiki, mister Xolms yo'q ekan, endi o'zidan ko'rsin, kerak bo'lsa, o'zi bilib olar. Sizga hech nima aytmayman, negadir turqingiz yoqmayapti.

U oqsoqlanib eshik tomon yura boshlagan edi, Jons orqasidan yetib oldi.

– Bir oz shoshma, og‘ayni, – dedi u. – Sen juda muhim xabar olib kelgansan, demak, bu yerdan chiqib ketmaysan. Istaysanmi-yo‘qmi, do‘stimiz Xolmsni kutishingga to‘g‘ri keladi.

Chol eshikka otildi, lekin Etelni Jons keng yelkasi bilan uning yo‘lini to‘sdi, chol qarshilik ko‘rsatishning foydasi yo‘qligini tushundi.

– Mehmonga hurmat shumi, – dedi u hassasi-ni to‘qillatib. – Men bu yerga mister Xolms bilan gaplashgani kelganman. Siz ikkovingiz menga zo‘ravonlik qilyapsiz, holbuki, men sizlarni umu-man tanimayman. Odamga hurmat shumi?

– Sizga hech kim yomonlik qilmaydi, – dedi u. – Mana bu yerga, divanga o‘tirib, kutib turing. Xolms hademay kelib qoladi.

U tumshayib divan oldiga kelib o‘tirdi-da, kaf-tini katta boshiga tiradi. Biz Jonson ikkovimiz sigaramizni olib, gapimizni davom ettirdik.

Birdan Xolmsning ovozi gapimizni bo‘ldi.

– Menga ham sigara taklif qilsalaring bo‘lardi.

Biz o‘tirgan joyimizda sapchib tushdik. Shun-day ro‘paramizda Xolms o‘tirar va xursand kulim-sirardi.

– Xolms! – deb qichqirib yubordim. – Keldin-gizmi-a? Chol qani?

– Mana u, – deb javob qildi Xolms, hurpaygan oq sochga qo‘lini cho‘zarkan. – Bori shu yerda – bakenbardlar, parik, qoshlar. Bu niqoblarim ish berishini bilardim-u, lekin bunday sinovdan o‘tadi, deb ishonmovdim.

– Qoyil-e, qoyill! – dedi samimiy hayrat bilan Jons. – Sizdan ajoyib, zo‘r aktyor chiqardi! Siz



xuddi ishsiz odamdek yo'taladingiz-a. Qaltiroq tiz-zalaringiz uchun haftasiga o'n funt to'lasa bo'lardi. Lekin ochig'ini aytsam, ko'zlaringizning yaltirashi tanish ko'ringandi. Lekin baribir bizdan qutulib ketolmadingiz-ku.

– Men bu kiyimda kuni bilan ishladim, – dedi u sigarani tutatar ekan. – Bilasizmi, jinoyatchilar olamiga men ancha ma'lum bo'lib qolganman, shu yerda o'tirgan mana bu do'stim yoza boshlagandan keyin, ayniqsa, mashhur bo'lib ketdim. Binobarin, men oldingi pozitsiyalarda faqat boshqa kiyimdagina, qiyofamni o'zgartirgan holdagina ko'rinishim mumkin. Siz telegrammamni oldingizmi?

– Ha, shuning uchun ham bu yerga keldim-da.

– Xo'sh, taxminlaringizning natijasi qalay?

– Chippakka chiqdi. Qo'lga olgan ikki odamimni qo'yib yuborishimga to'g'ri keldi, qolganlariga qarshi bironta ham dalil-isbotim yo'q.

– Xafa bo'lmang. Biz ularning o'rniga boshqa ikkitasini beramiz. Faqat iltimos qilardimki, vaqtincha butunlay mening ixtiyorimda bo'lsangiz, men tuzib chiqqan reja bo'yicha ishlasangiz. Rozimisiz? Bu ishdagi butun xizmatangiz rasmiy ravishda e'tirof etiladi, albatta.

– Agar o'sha ikkitasini qo'lga tushirishimga yordam bersangiz, roziman.

– Unda, birinchidan, menga politsiyaning motorli kateri kerak. Soat yettilarda Vestminister prichali oldida uchrashamiz.

– Aytganingiz bo'ladi. O'sha yerda politsiya qayig'i hamisha navbatchilik qiladi. Lekin yaxshisi,

yo'ldan borganim, ishonchliroq bo'lishi uchun telefon qilib qo'yganim ma'qul.

– Qarshilik ko'rsatishlari ham mumkin, shuning uchun politsiyachilardan ikkita baquvvatrog'ini olish kerak.

– Katerda doimo ikki yo uch kishi bo'ladi.

– Ularni hibsga olganimizdan keyin xazina qo'limizda bo'ladi. O'ylaymanki, do'stim sandiqchani yosh bir lediga jon-jon deb topshiradi, zero, qonun bo'yicha u o'sha xazinaning yarmisiga ega bo'lishi kerak. Mayli, sandiqchani u birinchi bo'lib ochsin. Xo'sh, Uotson, siz nima deysiz?

– Men juda xursand bo'lardim.

– Ha, bu rasmiy tartibni buzish-u, lekin bu odatdan tashqari ish bo'lgani tufayli istisno qilsak bo'ladi. Lekin keyin xazinani tergov tugaguncha hukumatga topshirish kerak.

– Albatta. Bu qiyin ish emas. Yana bir tomoni bor. Men ba'zi bir tafsilotlarni Jonatan Smollning o'z og'zidan eshitsam, degandim. O'zingiz bilasiz, men hamma narsani ipidan-ignasigacha aniqlashni yaxshi ko'raman. Agar u bilan menikida yoki boshqa biron joyda, albatta, ishonchli soqchilar qurshovida norasmiy uchrashsam, yo'q demaysizmi?

– Hozir vaziyat sizning izmingizda, o'z bilganingizcha ish tutavering. Lekin o'sha Jonatan Smollning borligini isbotlovchi biron bir dalilga shu vaqtgacha ega emasman. Agar siz uni menga tanishtirsangiz, iltimosingizni yerda qoldirolmayman.

– Demak, kelishdik-a?

– Kelishdik. Yana nima?

– Bu endi oxirgisi: tushlikni biz bilan birga qilishingizni istardim. Bizda ustritsa, ikki dona kaklik, turi kam bo'lsayam oq vino bor. Yo'q, Uotson, siz mening pazandalik san'atimga yetarlicha baho bermaysiz.

## **X BOB**

### **Orollikning o'limi**

Tushlik quvnoq o'tdi. Xolms, agar istasa, ajoyib suhbatdosh bo'lishi mumkin. O'sha kuni juda xushchaqchaq edi – qattiq asabiylashgani ta'sir qildi, shekilli. Men uning bunchalik sergap bo'lganini birinchi ko'rishim. U O'rta asr kulolchiligi va misteriyalar, Stradivari skripkasi, Seylon buddizmi, kelajakdagi harbiy kemalar to'g'risida gapirardi. U xuddi har bir sohaning mutaxassisi edi. Bu undagi kechagi ma'yuslikdan keyin tiyrak aqlning yorqin bir chaqnog'i edi. Etni Jons ishdan bo'sh daqiqalarda juda dilkash odam ekanligini ko'rsatdi, hayot shodliklarining qadriga yeta olishini tushlikda isbotladi. Ishning oxirlab qolganini sezganim, Xolmsdagi quvnoq kayfiyat menga ham o'tgani uchun mening ham ruhim baland edi. Hech birimiz kecha davomida bugun bizni birlashtirgan sabab haqida og'iz ochmadik.

Dasturxon yig'ishtirilganidan keyin Xolms soatiga qarab qo'ydi-da, qadahlariga portveyn quydi.

– Kelinglar, – dedi u, – bu kichkina hamlamizning muvaffaqiyati uchun ichaylik. Endi ketadigan vaqt bo'ldi. Qurolingiz bormi, Uotson?

– O'sha eski to'pponcham bor. Stol tortmasida yotibdi.

– Olvoling. Bu juda zarur. Izvosh ham kelgan bo'lsa kerak, soat olti yaringa tayinlovdim.

Vestminister prichali oldiga borganimizda soat yettidan oshgandi. Kater bizni kutardi. Xolms uni sinchkovlik bilan ko'zdan kechirdi.

– Unda katerning politsiyaga qarashligini bildiruvchi biror belgi bormi? – deb so'radi u.

– Bor. Biqinidagi ko'k fonus.

– Uni olib qo'ying.

Hammasi bir zumda qilindi, biz katerga chiqdig-u, jo'nab ketdik. Jons, Xolms va men katerning quyruq qismiga o'tirdik. Bir politsiyachi rurning oldida turdi, ikkinchisi o'txonaga ko'z-quloq bo'lib turdi, oldinda esa yigirmatacha polismen joylashgandi.

– Qayoqqa ketyapmiz? – so'radi Jons.

– Tauerga, ularga buyuring, Jekobson-Yardning ro'parasida to'xtatishsin.

Kemachamiz ancha tezyurar chiqib qoldi. Biz yuk ortilgan barjalar oldidan tez o'tib ketdik, go'yo ular bir yerda to'xtab turganday edi. Daryo paroxodini quvib yetib, uni orqada qoldirib ketganimizda Xolms mamnun kulimsirab qo'ydi.

– Katerimizni daryodagi eng tezyurar kema deb o'ylash mumkin-a, – dedi u.

– Yo'g'e, unchalik emasdir. Lekin bundan tez yuradigan kater har holda kam topilsa kerak.

– Biz «Avrora»ni quvib yetishimiz kerak. U juda tezyurar kema sifatida nom taratgan. Hozir men sizni, Uotson, ish bilan tanishtiraman. Esingizdami, ushlanib qolganimizdan qanchalik ezilgandim.

– Ha, esimda.

– Xullas, miyamga dam berib, kimyoviy tajribalar bilan shug‘ullanishga qaror qildim. Buyuk davlat arboblaramizdan biri, dam olishning eng yaxshi yo‘li, bu – mashg‘ulotni o‘zgartirish, degan ekan. Ha, bu to‘g‘ri. Nihoyat uglevodorodni ajratib olganimdan keyin o‘sha muammoga yana qaytib, hammasini yana bir boshdan o‘ylab chiqdim. Bolalardan iborat guruhim daryoning hamma yerini bir necha bor qidirib, tit-pit qilib chiqishdi, natijasi bo‘lmadi. «Avrora» hech qayerda: prichal-da ham, o‘z uyida ham yo‘q edi. Izini yo‘qotish uchun uni cho‘ktirib yuborishlari mumkin emas. Agar qidiruvlar hech qanday natija bermasa buni ham e‘tibordan soqit qilib bo‘lmaydi. Smollning juda ayyorligini bilardim-u, lekin nozik hiyla ishlatish uning qo‘lidan kelmaydi. Odatda, bunday hiylani bilimdon odamdan kutasan. Ba‘zi narsalarni aniqladik, u biroz vaqt Londonda yashagan, Pondisheri-Lojni kuzatgan, demak, o‘z-o‘zidan ma‘lumki, uning Angliyani darrov tark etishi mumkin emasdi; ishlarni yo‘lga qo‘yib olish uchun vaqt kerak – kim biladi, bir kunmi, baxtimizga ko‘proq qolib ketadimi. Har holda hozircha shunday xulosaga keldik.

– Xulosangiz juda bo‘sh-ku, – dedi u. – U Pondisheri-Lojga hujum qilishlaridan avval hamma ishni saranjomlab qo‘yishi mumkin edi.

– Yo‘q, u unaqa odamlardan emas. Xavf-xatar paytida soyasini ham ko‘rsatmaydigan odamning uyidan chiqish osonmas. O‘ziga hech nima xavf solmayotganiga qat‘iy ishonganidan keyingina

uyini tark etadi. Ha, yana bir fikr miyamga kelib qoldi: Jonatan Smollning yordamchisi qanchalik turlanmasin, uning odatdan tashqari ko'rinishi har xil mish-mishlarga sabab bo'lishini, ehtimol, ba'zi birovlarining Norvud fojiasi bilan bog'lashga urinishlarini tushunishi kerak edi. Xullas, ular shtab-kvartirani kechasi, tun qorong'usida tark etishgan. Albatta, saharda qaytib kelishsa yaxshi bo'lardi, bu eng ma'qul variant. Lekin missis Smitning gapiga qaraganda «Avrora» prichaldan uzoqlashganda soat to'rt bo'lib qolgandi. Bu payt hammayoq yorug' bo'ladi, bir-ikki soatdan keyin ko'chalarda odamlar yurishadi. Shunga asoslanib ular uzoqqa ketisholmagan, degan xulosaga keldim. Ular Smitga og'zidan gullab qo'ymasligi uchun mo'may pul to'lashgan, uning katerini qaytarmaslik sharti bilan ijaraga olishib, xazina bilan o'z maskanlariga shoshilishgan. Ular gazetalardan tergovning qanday ketayotganini, o'zlarining iziga tushgan-tushmaganlarini bilish uchun bir-ikki kun poylab turishga qaror qilishgan. Ana undan keyin tun qorong'usida Greyvsendga yoki boshqa biron joyga, Daunsga ketmoqchi bo'lishgan. Ular Amerikaga yoki biror qaram mamlakatga boradigan kemaga oldindan joy olib qo'yishning tashvishini qilishgan, bunga shubhalanmasa bo'ladi.

– Xo'sh, kater-chi, kater? Uni o'zlari bilan olib ketisholmasdi-ku.

– Ha, albatta, olib ketisholmasdi. Demak, qanchalik tutqich bermaslikka urinmasin, «Avrora» shu atrofda, shunday yonimizda. Men o'zimni Smollning o'rniga qo'yib, ishga uning ko'zi bilan

qaramoqchi bo'ldim. Aftidan, u «Avrora»ni qo'yib yuborish yoki yaqin prichallardan birida ushlab turish xafvli deb o'ylagan: bordi-yu, politsiya ularning iziga tushgan bo'lsa-chi? Hech kim ko'rmasligi, bilmasligi, o'zi esa istaganda kelishi uchun «Avrora»ni qayoqqa gumdon qilsa ekan? Xo'sh, agar shunday vazifani hal qilishga to'g'ri kelsa, men nima qilardim? Ana shunda birdan bir imkoniyatni ko'rdim. Uni mayda ta'mir uchun biror bir dokka qo'yish kerak. O'sha yerda u begona ko'zdan uzoqda bo'ladi, istagan vaqtda suzib ketishi mumkin.

– Juda jo'n-a!

– Hamma gap shundaki, shunday jo'n masala doim kallangga eng oxirida keladi. Bu fikr xayolimga kelganida darrov ishga kirishmoqchi bo'ldim-u, beozor keksa matros qiyofasida doklarni ko'rib chiqish uchun Temzaning etagiga jo'nadim. O'n beshta dokda «Avrora» haqida hech nima eshitishmagandi. Lekin shuncha chidaganimga yarasha o'n oltinchi dokda omdim keldi: menga «Avrora»ni ikki kun avval bu yerga yog'ochoyoqli bir odam qo'yganini, rulni tekshirib ko'rishni iltimos qilganini aytishdi. «Lekin rul joyida ekan, – dedi menga kema ustasi. – Huv, ana, turibdi, qora, yo'l-yo'l qizil chizig'i bor». U gapini tugatar-tugatmas dokda bitta-yarimta emas, balki «Avrora»ning yo'qolgan egasi Mordekay Smitning o'zi paydo bo'ldi.

Men uni tanimasligim mumkin edi, lekin g'irt mast bo'lgani tufayli ovozinging boricha «Men «Avrora»ning xo'jayiniman», deb baqirayotgandi.

Mordekay Smit, kemam shu bugun soat sakkizga tayyor bo'lsin, deb talab qilyapti. «Roppa-rosa soat sakkizda, – deb takrorladi u, – men ikki jentlmenga va'da qiluvdim, ular kutishni yoqtirmaydigan odamlar». Ular, aftidan, unga yaxshi haq to'lashgan bo'lsa kerak, chunki u shillingni bo'lar-bo'lmasga sarf qilardi. Men orqasidan ancha joygacha poylab bordim, lekin u birinchi uchragan qovoqxonaga o'zini urdi. Men dokka qaytib keldim. Yo'lda bolalardan bittasini tasodifan uchratib qoldim, unga «Avrora»ni kuzatishni topshirdim. Kemaning jo'nab ketayotganini ko'rsa, menga ro'molchani silkitib xabar beradi. Biz bu borada ularni daryoda poylab turamiz. Ular dokdan chiqishlari bilanoq «Avrora» va xazina bilan birga qo'lga olamiz.

– Bular o'sha biz qidirayotgan kishilarmi-yo'qmi, bundan qat'iy nazar, hammasi juda yaxshi o'ylangan, – dedi Jons. – Lekin men Jekobson-Yardga politsiya otryadini yuborgan bo'lardim, ular paydo bo'lishlari bilanoq xotirjam qo'lga olardim.

– Ular o'sha yerga bormasdi-da. Smoll o'lguday ayyor. Imonim komilki, Smoll oldiniga poyloqchi yuboradi, u agar xafv-xatarni sezgudek bo'lsa, tamom, Smit kulbasida bir hafta yotib oladi.

– Lekin Smitning iziga tushish mumkin-ku, shu tariqa ularning makonini topamiz, – dedim.

– Unda yana bir kun yo'qotamiz-da. Buning ustiga yuz foiz ishonchim komilki, Smit ularning qayerda yashiringanini bilmaydi. Unga mo'may pul to'layapti, viskisi doim tayyor, shunday ekan, bu ishga aloqasi yo'q savollarni berishning nima



keragi bor... Unga ko'rsatmalar yuborib turiladi, u ularni bajaradi... Yo'q, men imkoni bor barcha yo'llarni o'ylab ko'rdim, lekin eng ma'quli shu.

Biz u yoq-bu yoqdan gaplashgunimizcha qayig'imiz Temza ustidagi qanchadan qancha ko'priklar tagidan o'tib ketdi. Quyoshning oxirgi zarrin nurlari avliyo Pavel cherkovi qubbasidagi xochni oltindek yarqiratdi. Tauerga yetib borganimizda qorong'i tushgan edi.

– Ana, Jekobson-Yard, – dedi Xolms Surreya tomondagi son-sanoqsiz machta va kema abzal-larini ko'rsatib.

– Mana shu flot orasida u yoqdan-bu yoqqa qatnayveringlar, – deb buyurdi Xolms va kechasi qaraladigan dengizchilar durbinini ko'ziga tutib, sohilni bir zum nazardan kechirdi. – Soqchimni ko'ryapman, lekin u ro'molchasini hozircha sil-kitmayapti.

– Sal pastroqqa tushib, ularni o'sha yerda kut-sak bo'lasmikin? – deb taklif qildi Jons sabri chidamay.

Hammamiz ham igna ustida o'tirgandaymiz. Hatto, hech narsadan xabari yo'q politsiyachilar, rulchi bilan o'tyoqar ham hayajonimizga, tash-vishimizga sherik bo'lishdi.

– Tavakkal qilishga haqqimiz yo'q, – dedi Xolms. – Ular daryoning bosh tomoniga emas, quyiga ketishi mumkinligi o'n imkoniyatdan bittasi. Lekin, baribir, biz bu imkoniyatni ham inobatga olishimiz kerak. Bu yerdan dokka kiradigan joy yaxshi ko'rinadi, biz deyarli ko'rinmaymiz. Tun oydin bo'ladiganga o'xshaydi, daryoda ham chi-

roqlar ko'p. Biz o'sha turgan joyimizda qolishimiz kerak. Ko'ryapsizmi, gaz fonuslari yorug'ida izg'ib yurgan odamlar juda aniq ko'rinadi.

– Ular dokdagi ishlarini tugatib, uylariga qaytib ketishyapti.

– Judayam charchashgan, ust-boshlarining iflosligini-chi! Lekin ularning har birida mangu olov uchquni yonadi. Hozirgi ahvolini ko'rib hecham bunday deymaysan. Lekin aslida shunday. Inson zotini tushunib bo'lmaydi.

– Kimdir insonni «qalbi bor hayvon», degan ekan.

– Uinvud Rid bu xususda juda yaxshi gapirgan, – deb gapida davom etdi Xolms. – U aytadiki, alohida bir odam – bu hal qilib bo'lmaydigan jumboq, lekin odamlarning hammasi esa o'ziga xos bir matematik birlik bo'lib, ma'lum qonunlarga bo'ysunadi. Axir alohida bir odamning nima ish qilishini oldindan bilib bo'larkanmi, lekin butun bir jamoaning xatti-harakatini esa oldindan aniq aytib berish mumkin ekan. Shaxslar bir-birlaridan farq qiladilar, lekin har qanday jamoada insoniy munosabatlar foiz nuqtayi nazaridan olib qaraganda, o'zgarmay qolaveradi. Statistika shundan dalolat beradi. Shoshmang, ro'molchasini silkityapti, shekilli? Ha, chindan ham, u yoqda kimdir oq narsani silkityapti.

– Bu bolalaringizdan biri. Men uni aniq ko'ryapman! – deb qichqirdim.

– Ana «Aurora» ham paydo bo'ldi! – deb qichqirdi Xolms. – Yurishi juda zo'r-u. Hoy, pastdagilar, tezlikni to'la oshiring! O'sha sariq chiroqli kater

orqasidan yuringlar. Agar uni qo'ldan chiqarsam o'zimni kechirolmayman.

«Avrora» dokdan sezdirmasdan lip etib chiqdi-da, tezligini oshira borib, kichkina kemalar orqasiga o'tib ketdi, biz uni ko'rib qolganimizda nihoyatda tez ketayotgandi. U sohil yoqalab dar-yoning etagi tomon borardi. Uning tezligi kishini hayratda qoldirardi. Jons unga tashvishlanib qarab qo'ydi.

– Juda tez ketyapti-yu, – dedi u. – Uni quvib yetolmaymiz.

– Yetishimiz kerak! – dedi Xolms tishini tishiga qo'yib: – Ko'mirni ayamang! Mashinani oxirgi tezligiga qo'ying. Kater yonib ketsa, yonib ketsinki, lekin ularni qo'ldan chiqarmasligimiz kerak.

Endi biz to'g'ri ularga qarab borardik. O'txonada olov guvillar, qudratli mashina go'yo bahaybat bir metall yurakdek tinimsiz to'qillardi. Qayiqning o'tkir tumshug'i sokin suv bag'rini qilichday tilib, o'qday uchib borardi. Qayiq misoli jonli maxluqday tinimsiz titrar va chayqalardi. Tumshug'idagi sariq fonus nuri oldinda miltillab o'ynardi. Oldimizda suvda qora bir soya chopib borardi – bu «Avrora» edi. Orqasida qolayotgan oppoq ko'pik izi uning qanday tezlikda ketayotganini ko'rsatardi. Biz barjalar, paroxodlar, savdo-sotiq bilan shug'ullanadigan yelkanli kemalarni ham chap, ham o'ng tomondan quvib o'tib, oldinga intilardik. Qorong'ulik qa'ridan baqiriq-chaqiriqlar eshitilardi, «Avrora» esa hamon olg'a borardi, biz unga yetay-yetay deb qolgandik.

– Tezlikni oshiringlar! – deb qichqirdi Xolms mashina bo‘limiga mo‘ralab: pastdan olov yolqini uning jiddiy, burgutsifat yuzini yoritdi.

– Nazarimda, ularga yetib olyapmiz, – dedi Jons «Avrora»dan ko‘zini uzmay.

– Ha, bunga shubha yo‘q! – deb xitob qildim. – Hozir, bir-ikki daqiqada yetib olamiz.

Xuddi shu payt shum taqdir o‘z ishini qildi: uch barja tirkalgan buksir yo‘limizni kesib o‘tdi. Agar rulchi epchillik qilib rulni oxirigacha burab qolmaganda, biz unga borib urildik. Biz ularni aylanib o‘tib, yana yo‘limizga tushib oldig-u, lekin bu orada «Avrora» kamida ikki yuz yard uzoqlashib ketibdi, biroq baxtimizga uni hali ham yaxshi ko‘rib turardik. Mashina bor kuchi bilan ishlar, sharti ketib, parti qolgan qayig‘imiz bu katta bosimga dosh berolmay tinimsiz chayqalar, g‘ichirlar edi. Biz Pulni orqada qoldirib, Bestind doklaridan o‘tib ketdik, uzundan uzoq Deptford tilini va Itlar orolini aylanib o‘tdik. Oldimizdagi xira dog‘ asta-sekin «Avrora» shaklini ola bordi. Jons projektorni yoqdi, uning bortidagi odamlarni biz endi aniq ko‘rdik. Bittasi kemanding quyrug‘ida oyog‘i ostidagi qandaydir qora narsa ustiga engashgan-cha o‘tirardi. Shunday yonida ulkan nyufoudlenga o‘xshagan qora bir uyum yotardi. O‘txona alangasi katta Smitning yuzini yoritib turardi, u beligacha yalang‘och bo‘lib olib, o‘txonaga ustma-ust ko‘mir tashlardi, o‘g‘li rumpelni ushlab olgandi. Qochoqlar orqalaridan quvib kelishayotganlarini darhol fahmlamadilar, lekin bizning nazardan bir zum qochirmay izma-iz kelayotganimizni

ko'rib aniq ishondilar. Grinvichning oldida biz ulardan yuz qadamcha orqada edik, Blekuolluga yetganimizda masofa yetmish besh qadam qoldi. Har xil sarguzashtlarga to'la armiya hayotida bunday quvishlarda juda ko'p qatnashganman, lekin Temza daryosidagi bu shiddatli poyga paytidagiday hecham hayajonlangan emasdim. Mana, yetay-yetay deb qoldik. Tun sukunatida ular mashinasining taqillashi, pishillashi aniq eshiti-ladi. Kemaning quyrug'idagi odam palubadagi nimaningdir ustiga engashgancha, hamon qo'llari bilan nimadir qiladi, u dam-badam boshini ko'ta-rib, «Aврora» bilan bizning oralig'imizdagi maso-fani chamalab ko'rmoqchi bo'ladi. Biz judayam yaqin qoldik. Jons, to'xtanglar, deb qichqirdi. Bizlarni atigi to'rt korpus ajratib turibdi, ikkala qayiq ham go'yo qanotda uchib ketayotgandek. Temzaning bu qismi bo'm-bo'sh edi. Bir tomoni-da Barkinglevel pastligi cho'zilib ketgan, boshqa tomonida mash'um Plamsted botqoqligi yastanib yotardi. Kemaning quyrug'idagi odam Jonsning buyrug'ini eshitganidan keyin o'rnidan sapchib turdi-da, mushtini o'qtalib bizni qo'pol va bo'g'i-q ovozda bo'ralab so'ka boshladi. Bu novcha, baquvvat odam palubada oyoqlarini kerib turardi, uning o'ng oyog'i yog'ochdan ekanligini aniq ko'rdim. Uning kuchli, bo'g'i-q ovozi yangragandan keyin palubada qora uyum g'imirlab, pakana qora odamchaga aylandi, uning boshi xumdek bo'lib, to'zigan sochlari hurpayib turardi. Xolms to'pponchasini oldi, o'sha maxluqni ko'rganimdan keyin men ham to'pponcham dastasini ushladim.

Uning egnida uzun keng chakmongami, adyolgami o'xshagan qora bir ro'dapo kiyim bor edi, faqat yuzi ochiq edi, bunday basharani dahshatli tushlardagina ko'rasan. Men birorta yuzda shunchalik qahr-g'azab va qonxo'rlikni ko'rmagandim. Uning ko'zlari chaqnar, osilib tushgan qalin lablari istehzoli iljayganida vahshiyona g'azabdan g'ijirlagan oq tishlari ko'rinib ketardi.

– Agar u qo'lini ko'tarsa, oting, – dedi vazmin Xolms.

«Aврora» bizdan atigi bir korpus narida, qo'limizni shunday cho'zsak yetadigan masofada edi. Men ularning ikkovini – oyoqlarini keng kerib, bizlarni boloxonador qilib so'kayotgan baland bo'yli oq tanli erkakni ham, dahshatli pakana odamni ham aniq ko'rib turardim: uning jirkanch basharasi va irjaygan sarg'ish tishlari fonusimiz yorug'ida yaltirardi.

Yaqin borishga ulguranimiz yaxshi bo'ldi. Biz undan ko'zimizni uzganimiz yo'g'-u, lekin, baribir, yonidan maktab bolalarining chizg'ichiga o'xshaydigan kalta yog'och trubkasini chaqqon oldi-da, og'ziga tiqdi. Ikki tomondan baravariga o'q yangradi. Pakana odam o'girilib qaradi, qo'llarini ikki tomonga yozib, nafasi tiqilgunday bo'lib yo'taldi-yu, suvga yon tomoni bilan yiqildi. Bir zum to'lqinlar ko'pigida uning qahr-g'azabga to'la, zahri qotil basharasini ko'rdim. Xuddi shu payt yog'ochoyoqli kishi rulni zo'r berib aylantira boshladi, uning qayig'i chap sohil tomonga keskin burildi. Biz hamon uni o'qqa tutardik, lekin sira tekkiza olmasdik. O'qlar undan atigi bir necha fut

naridan o'tib ketardi. Biz ham burildik, lekin kech bo'lgandi: «Aurora» allaqachon tumshug'i bilan sohilga urilgandi. Bu – odam oyog'i yetmagan, xilvat joy edi. Oy xira nuri bilan juda katta botqoqlikni yoritardi, undagi ko'lmak suv miltillar, chirik o't-o'lanlar orolchalari qorayib ko'rinardi. «Aurora» sohilga gursillab urildi-da, mustahkam turib qoldi, tumshug'i osmonga ko'tarilib, quyrug'i esa suvga botib turardi. Qochoq sohilga chopib chiqdi, uning yog'och oyog'i o'sha zahoti yopishqoq loyga oxirigacha botib ketdi. U butun gavdasi bilan chayqalib, oyog'ini tortib olishga qanchalik urinmasin, uddasidan chiqolmadi. U endi na oldinga, na orqaga bir qadam tashlay olardi. U ojizligidan ingrab, ikkinchi oyog'i bilan balchiqni zo'r berib tepkilardi. Lekin mash'um yog'och oyog'i botqoqqa tobora chuqurroq botardi. Katerimiz uning oldiga yetib borganida, u beligacha botqoqda turardi, biz arqonni uning beliga bog'lab, arang tortib oldik. Keyin uni kattakon xafvli baliqday ancha yergacha sudrab bordik. Smitlarning ikkovi ham – ota va bola o'z katerida boshlarini xam qilib o'tirishardi, lekin buyrug'imizga itoatgo'ylik bilan bo'ysunishib, bizning bortga o'tishdi. Keyin «Aurora»ni bo'shatib, kemamiz quyrug'iga mahkam bog'lab qo'ydik. Uning palubasida hind ustalari yasagan og'ir temir sandiqcha turardi, bu Sholto oilasiga ko'p musibat keltirayotgan xazina yashirilgan o'sha sandiqcha ekanligiga shak-shubha yo'q edi. Kaliti yo'q edi, garchi ancha og'ir bo'lsa ham biz uni ehtiyotlab kichkina kabinamizga olib borib qo'ydik. Biz Londonga sekin qaytar ekanmiz, yo'l-

yo'lakay projektor bilan daryo va uning sohillarini qidirib bordik, lekin o'sha pakana orol kishisining izini shu-shu topolmadik. O'z ajalini tumanli sohillarimizda topgan o'sha g'alati ajnabiyning suyaklari Temza daryosining qayeridadir, serbalchiq tubida shu asr oxirigacha yotadi.

– Qaranglar-a, – deb Xolms yog'och eshikning tabaqasini ko'rsatdi, – har holda u birinchi bo'lib o'q uzgan ekan.

Chindanam, biz Xolms ikkovimiz turgan joyda taxtada bizga yaxshi tanish bo'lgan qora tikanning bittasi dikkayib chiqib turardi.

Aftidan, biz to'pponchalarimizni baravar o'qlayotgan paytimizda oramizdan o'tib ketgan. Xolms miyig'ida kulimsirab qo'ydi, ochig'ini aytsam, shu kechasi biz qandaydir bir mo'jiza bilan bu dahshatli o'limdan qutulib qolganimizni tasavvur etishim bilanoq a'zoyi badanim titrab ketdi.

## **XI BOB**

### **Agra xazinasi**

Asirimiz sandiqcha qarshisida kabinada o'tirardi. U shu sandiqchaga jon-jahdi bilan intilgandi, shuni deb qanchadan qancha to'siqlarni yengib o'tgandi. Uning xuddi qizil yog'ochdan o'yib ishlanganday yuzi, ko'zlarining dadil boqishi, taram-taram yirik va mayda ajinlar bu odamning hayoti ochiq havoda og'ir mehnat bilan o'tganini ko'rsatib turardi. Qalin soqol bilan qoplangan iyagi oldinga turtib chiqqan bo'lib, uning o'jar tabiatini oshkor qilib turardi. Yoshi elliklarda bo'lsa kerak, qora, jingalak sochiga ancha oq oralagan edi. Xotir-



jam paytida yuz bichimi ancha yoqimli, istarasi issiq edi, lekin g'azablanganida – buni hozirgina ko'rdik – osilib tushgan o'siq qoshlari-yu, turtib chiqqan iyagi tufayli basharasi qahrli va tund tus olardi. Hozir u kishandagi katta qo'llarini tizzasiga qo'yganicha, boshini quyi solib jim o'tirardi. U jinoiy ishlarining sababchisi bo'lgan sandiqchaga o'qtin-o'qtin, o'qrayib qarab qo'yardi. Menga uning qahrli yuzida g'azab-nafratdan ko'ra g'am-g'ussa ko'pdek tuyuldi. Bir marta u yuqoriga qaradi, uning qarashida istehzoni ko'rganday bo'ldim.

– Bilasizmi, Jonatan Smoll, – deb gap boshladi Sherlok Xolms, – ishning bunday tus olganiga juda achinaman.

– Men ham, ser, – dedi u ehtiros bilan. – O'ylaymanki, bu gal meni osishmas. Injilni o'rtaga qo'yib ont ichishga tayyormanki, mister Sholtoning o'limida aybdor emasman. Uni la'nati kamonidan otgan o'sha pakana iblis Tonga. Qo'lim qon emas. Sholtoga xuddi akamga achinganday achindim. Tonganing yaxshilab adabini berdim, chilvir bilan rosa savaladim, lekin endi foydasi yo'q-da. O'tgan ishga salovat.

– Sigara oling, – dedi Xolms. – Flyagamdan bir qultum iching: ivib ketibsiz. Lekin ayting-chi, nahotki shunday pachoq, nimjon odamning mister Sholtoga bas kela olishiga, siz arqondan chirmashib chiqquningizcha uni ushlab tura olishiga ko'zingiz yetgan bo'lsa?

– Siz, ser, nazarimda hamma narsadan xabardorga o'xshaysiz, xuddi hammasini o'z ko'zingiz bilan ko'rgandaysiz. Men bu paytda xonada hech kim bo'lmasa kerak, deb o'yla-

gandim. Men Pondisheri-Lojdagilarning turmush tarzini yaxshi bilaman. Bu paytda mister Sholto, odatda, pastga, kechki ovqatga tushardi. Hech narsani yashirmoqchi emasman. Hozir eng yaxshi himoya – bu bor haqiqatni gapirish. Agar u keksa mayor bo'lganida, men bo'ynimni sirtmoqqa jon-jon deb tutib bergan bo'lardim. Unga pichoq urish men uchun sigara chekib tashlashday bir gap. Lekin ko'rmaysizmi, omdim kelmadi, mana endi ana shu yosh Sholtoni deb katorgaga jo'nayman axir, u bilan aqalli biron marta san-manga bormaganmiz-a.

– Siz Skotland-Yardlik Etni Jonsning qo'ldasiz, – deb uning gapini bo'ldi Xolms. – U sizni mening huzurimga boshlab kelishga va'da bergandi, hammasini ochiq gapirib berishingizni iltimos qilaman. Ana o'shanda ehtimol sizga yordam bera olarman. Bu zaharning juda tez ta'sir qilishini, siz xonaga kirganingizda mister Sholtoning allaqachon joni uzilganini isbotlashga urinib ko'raman.

– Axir, aslida ham shunday bo'lgan edi. Derazadan tushib, uning bir tomonga qiyshaygan, irjaygan yuzini ko'rganimda, falaj bo'lib qolishimga sal qoldi. Tongani bo'g'ib o'ldirishga tayyor edim, lekin u qo'limdan chiqib, chordoqqa qochib ketdi. Ana o'shanda u to'qmog'ini esidan chiqarib, o'sha la'nati tikanlarini yo'qotib qo'ygandi, keyin hammasini o'zi gapirib berdi. O'ylashimcha, ana o'sha narsalar bizga qarshi asosiy dalillar bo'ldi. Lekin o'lay agar men bir narsaga tushunmay turibman – bizning izimizga qanday tusha oldingiz?! Sizga kek saqlamayman, – u zaharxanda iljayib

qo'ydi, – men faqat bir narsaga hayronman. Yarim million funt sterlingga qonuniy haqim bo'lgani holda umrimning birinchi yarmini Andaman orollarida g'ovlar qurish bilan o'tkazdim, ikkinchi yarmini esa nari borganda Dartmurdda yer qazish ishlariga bag'ishlayman. O'sha mash'um daqiqada savdogar Ahmadni uchratib, Agra xazinasini to'g'risida eshitdim, xazina egalari faqat baxtsizlik keltirarkan. Ahmadni ham ana shu xazina tufayli o'ldirib ketishgan, mayor Sholto butun umri gunohkorlik azobini tortib, qo'rquvdan titrab-qaqshab yashagan. Meni esa butun umrim surgunda o'tadi.

Shu payt kabina eshigi ochilib, yuzi yapaloq, yelkalari keng, baquvvat Etelni Jons kirib keldi.

– Bu oilaviy sayrning xuddi o'zi-yu! – dedi u. – Ijzat bersangiz, Xolms, flyagangizdan bir qultum ichsam. Menimcha, bir-birimizni tabriklashdan boshqa ishimiz qolmadi. Afsuski, ikkinchisini tirik qo'lga tushira olmadik-da. Lekin buning iloji yo'q edi. Bilasizmi, Xolms, siz tavakkal qilganingizni e'tirof etishingiz kerak. Xo'sh, ularni quvib yetolmaganimizda nima bo'lardi?

– Ha, hammasi yaxshi tugadi, – dedi Xolms. – Lekin «Avrora»ning tezyurar kemaligini chindanam bilmagandim.

– Smit, Temzada mening «Avrora»mdan tez suzadigan birorta ham kater yo'q, agar o'tyoqarim bo'lganda sizlar hecham yetolmasdilaring, deydi. Ha, aytmoqchi, u Norvud ishidan mutlaqo xabarim yo'q, deb ont ichyapti.

– Hech nima bilmaydi, – deb tasdiqladi asirimiz. – Uning katerini men tanidim, ilgarilari menga an-

cha maqtashgandi. Biz unga hech nima demadik, lekin mo'may pul to'ladik, «Esmeralda» bortida yana ham ko'proq pul to'lashni va'da qildik, bu kema Greysendan Braziliyaga ketishi kerak edi.

– Ha, mayli, modomiki u bizga hech qanday yomonlik qilmagan ekan, biz ham unga yomonlik qilmaymiz. Biz yigitlarimizni tez qo'lga olamiz, lekin ayb qo'yishga shoshilmaymiz.

Maqtanchoq, manman Jonsning bu qadar kerilishini ko'rish kulgili edi. Kekkayadi-da, axir, shunday odamni qo'lga tushirdi-ya! Xolmsning miyig'ida kulimsirab turishidan politsiya inspektorining maqtanchoqligi unga ham ermak bo'layotganini payqadim.

– Hademay Boksxoll ko'prigi oldida bo'lamiz, – dedi Jons menga murojaat qilib. – O'sha yerda sizni xazina bilan qoldiramiz. Zimmamga juda katta mas'uliyat olayotganimni gapirib o'tirmasa ham bo'ladi. Bu hecham yo'l qo'yib bo'lmaydigan ish. Lekin lafz puldan qimmat, degan gap bor-ku. Biroq xizmat burchim yuzasidan sizga polismenni qo'shib yuborishim kerak, chunki siz juda qimmatbaho yuk olib ketyapsiz-da. Izvosh olarsiz?

– Ha.

– Afsuski, kalit yo'q-da, yo'qsa, shu yerning o'zida ko'zdan kechirib chiqardik. Kaliti qayoqda, yigitcha?

– Suv tagida, – deb qisqa javob qildi Smoll.

– Hm! O'zimizga ortiqcha tashvish orttirib nima qilamiz, shuncha ko'rgan-kechirganlarimizning o'zi yetib ortar. Menimcha, doktor, mumkin qadar ehtiyot bo'ling, deb sizni ogohlantirib o'tirmasam ham

bo'lar. Sandiqni to'ppa-to'g'ri Beyker-stritga olib boringlar. Biz avvaliga o'sha yerga boramiz, keyin politsiyaga o'tamiz.

Ular meni politsiyachilarning bittasi – juda sodda, xushfe'l odam bilan Boksxoll ko'prigi oldida tushirib qoldirishdi. Chorak soat o'tar-o'tmas biz missis Sesil Forrester huzurida edik. Xizmatkor ayol bu qadar kech kelganimizni ko'rib hayron bo'ldi. U, missis Forrester mehmondorchilikka ketgan, hali-beri kelmaydi, miss Morsten mehmonxonada, dedi. Politsiyachi meni ikki g'ildirakli izvoshda kutib turishga bajonidil rozi bo'ldi, men sandiqchani qo'limga oldim-u, mehmonxonaga kirdim.

Miss Morsten yoqasi va beliga pushtirang bezaklar tikilgan yengil, oq harir ko'ylakda ochiq deraza oldida o'tirardi. Abajur tagidagi lampaning mo'tadil yorug'i uning to'qima oromkursidagi qomatini, dilbar, jiddiy yuzini yoritib turardi, qalin jingalak sochlari oltindek yaraqlardi. Oppoq qo'lini oromkursi suyanchig'iga tashlagandi, uning butun o'ychan qiyofasidan g'amginlik sezilib turardi. Oyoq tovushlarimni eshitib, seskanib tushdi-yu, oromkursidan turdi, uning oppoq yonoqlariga qizillik yugurdi.

– Izvosh kelib to'xtaganini eshitdim, lekin missis Forrester ancha barvaqt qaytibdi, deb o'ylabman. Bu siz ekanligingiz xayolinga ham kelmadidi. Xo'sh, bizga qanday yangiliklar olib keldingiz?

– Ha, bu shunchaki yangilik emas, ortiqroq narsa, – dedim men sandiqchani stol ustiga qo'yarkanman, sho'x-shodon bir kayfiyatda gapirayotgan bo'lsam ham, lekin yuragim zirqirab

og'irdi. – Men sizga olib kelgan narsa, dunyodagi barcha yangiliklardan ham qimmatroq. Sizga boylik olib keldim.

U sandiqchani ko'zdan kechirdi.

– O'sha aytgan xazinasi shumi? – deb so'radi u beparvogina.

– Ha, bu Agra xazinasi. Yarmi sizniki, yarmi – mister Sholtoga tegadi. Har biringizga salkam ikki yuz mingdan to'g'ri keladi. Bu bir yillik daromadning o'n ming funt sterlinggi. Angliyada bunday sepga ega bo'lgan qiz kamdan kam topiladi. Bundan ham ortiq ajoyib narsa bormi?

Men qanchalik xursand bo'lganimni ifoda etaman deb biroz oshirib yubordim, shekilli. Hadeb tabriklayverganimdan u ovozdagi soxtalikni sezib, qoshlarini chimirdi-yu, menga ajablanib qaradi.

– Bordi-yu, olgan taqdirimda ham, – dedi u, – bunga sizning sharofatingiz bilan erishdim.

– Yo'q, yo'q, – deb xitob qildim, – men emas, do'stim Sherlok Xolmsning sharofati bilan. Men bu jumboqni o'la-o'lgunimcha ham yecholmasdim, hatto do'stimning o'tkir tahlilli aqli ham buni darrov yecholmadi. Oxirida ularni qo'ldan chiqarishimizga sal qoldi.

– Xudo xayringizni bersin, o'tiring, doktor Uotson, hammasini bir boshdan gapirib bering.

Ko'rishganimizdan keyin o'tgan vaqt ichida sodir bo'lgan voqealar to'g'risida: Xolmsning kiyimini o'zgartirgani, «Avrora»ni qidirganimiz, Beyker-stritda Etelni Jonsning paydo bo'lgani, kechki ekspeditsiyamiz, nihoyat Temzadagi

dahshatli poyga haqida qisqacha gapirib berdim. U sarguzashtlarimiz to'g'risidagi hikoyamni ko'zlari charaqlab, og'zini yarim ochgancha tingladi. Uchi zaharlangan kamon o'qining shunday yonimizdan o'tib ketganini gapirganimda uning rangi oqarib ketdi, hozir hushidan ketadigandek edi.

– Hechqisi yo'q, – dedi u, shosha-pisha unga stakanda suv uzatar ekanman. – O'tib ketdi. Juda qo'rqib ketdim-da, axir, do'stlarim meni deb o'z hayotlarini xafv ostiga qo'yishdi-yu.

– Hamma dahshatlar orqada qoldi, – dedim. – Ha, aytarli xafv-xatar ham bo'lgani yo'q. Har xil dahshatlar to'g'risida gapirishni istamayman. Keling, yaxshisi, ko'ngilga xush yoqadigan narsalar to'g'risida gaplashaylik. Ko'ryapsizmi, xazina mana shu sandiqchada. Juda antiqa ish bo'ldi-da! Xolms sandiqchani bu yerga olib kelishim, uni birinchi bo'lib o'zingiz ochishingiz uchun meni ataylab yubordi.

– Ha, albatta, uni qiziqib tomosha qilaman, – dedi miss Morsten hech qanday ishtiyoqsiz. Shuncha mashaqqat va xafv-xatarli izlanishlar evaziga topilgan bu buyumlarga loqayd qarash odobsizlik bo'ladi deb o'yladi o'zicha. – Juda chiroyli sandiqcha ekanmi! – dedi u engashar ekan. – Asl hind ustalarining ishi, shekilli?

– Ha, banoraslik kosib-degrezchilar ishlagan.

– Muncha og'ir! – u sandiqchani ko'tarmoqchi bo'ldi. – Shu sandiqchanning o'ziam ancha-muncha pul tursa kerak. Kaliti qani?

– Smoll Temzaga tashlab yuboribdi, – deb javob berdim, – missis Ferrosterning temir kosovi bilan ochishga to'g'ri keladi.

Sandiqchanning qulfi quyma, zalvorli bo'lib, chordona qurib o'tirgan Buddani aks ettirardi. Temir kosovning uchini qulf tagiga tiqdim-da, uni xuddi dastakni bosganday bosdim. Qulf sharaqlab ochilib ketdi. Qaltiragan qo'llarim bilan sandiqcha qopqog'ini ochdim. Hang-u mang bo'lib, baqrayib qoldik. Sandiqcha bo'm-bo'sh edi.

Bunchalik og'irligiga ajablanmasa ham bo'lardi, chunki uning tagi, devorlari, qopqog'ining uchdan bir qismi temirdan qilingan edi. Sandiqcha chiroyli, puxta, mustahkam edi, aftidan, qimmatbaho buyumlar saqlash uchun maxsus ishlangandi. Lekin o'sha javohirlar yo'q edi. Aqalli, o'sha durning bir shodasi yoki tilla zarrasi, brilliant donasi bo'lsa-chi... Hech vaqo yo'q. Sandiqcha bo'm-bo'sh, huvillab yotardi...

– Xazina yo'qolibdi-da, – dedi xotirjam miss Morsten.

Men uning bu so'zlarini eshitganimda, uning asl ma'nosini tushunib yetganimda ko'nglimga soya solib turgan g'ashlik tarqalganday bo'ldi. Erkin nafas olarkanman, bu xazinaning yuragimda og'ir yuk bo'lib yotganini endi fahmladim. Bu tubanlik, bu xudbinlik edi, lekin men bir narsani – o'rtamizda turgan oltin to'siqning yo'q bo'lganini ko'rib, bilib turardim.

– Xudoga shukr! – deb yubordim sevinganimdan. U menga hayron bo'lib qaradi-da, kulimsirab qo'ydi.

– Nega bunday deysiz? – so'radi u.

– Chunki biz yana ko'rishga olamiz, gaplasha olamiz, – deb javob qildim, qo'llaridan ushlab. –



Chunki men sizni sevaman, Meri, bu dunyoda hech kimni sizchalik sevmaganman! Chunki bu xazina, bu behisob boylik og'zimni muhrlab qo'yuvdi. Endi u yo'q, sizni sevishimni endi dadil ayta olaman. Yana bir bor «Xudoga shukr» deyman.

– Unday bo'lsa, men ham «Xudoga shukr» deyman, – deb shivirladi va men uni bag'rimga bosdim. Ehtimol, kimdir qandaydir xazinasini yo'qotgandir, lekin men bu oqshom dunyoda eng boy, eng badavlat odam bo'lib qoldim.

## **XII BOB**

### **Jonatan Smoll qissasi**

Ikki g'ildirakli izvoshdagi politsiyachi juda og'ir, bardoshli odam ekan, chunki o'zingiz ham fahmlab turgan bo'lsangiz kerak, men missis Forrester uyida ancha qolib ketdim. Lekin unga bo'sh sandiqchani ko'rsatganimda politsiyachi bir muncha ma'yus tortdi.

– Mukofot ham qo'ldan ketibdi-da! – xo'rsinib qo'ydi u. – Xazina bo'lmagandan keyin mukofot ham bo'lmaydi-da. Agar u topilganda Sem Braun ikkovimiz tungi ishimiz uchun o'n funtdan olardik.

– Mister Taddeush Sholto – badavlat odam, – dedim, – u o'sha xazinasiz ham ikkovingizni mukofotlaydi.

Lekin u bosh chayqab qo'ydi.

– Ish chatoq, – dedi u ma'yus. – Mister Etelni Jons ham xuddi shu gapni aytdi.

Uning aytgani to'g'ri chiqdi, chunki Beyker-stritdan qaytib kelganimizdan keyin unga bo'sh sandiqchani ko'rsatganimda Jonsning yuzi

cho'zilib ketdi. Ular ham endi kelib turishgan ekan, chunki yo'lda rejalarini o'zgartirishgan, to'ppa-to'g'ri uyga ketish o'rniga Skotland-Yardga kirishgan, Jons qilingan ish natijalarini gapirib bergan. Do'stim odatdagiday o'z oromkursisida indamay o'tirardi. Smoll ro'paradagi oromkursida yog'och oyog'ini sog' oyog'i ustiga qo'yib o'tirardi. Bo'sh sandiqchani ko'rsatganimda u birdan xoxolab kulib yubordi.

– Bu sening, ishing, Smoll, – dedi Etelni Jons jahl bilan.

– Ha, mening ishim. Xazina shunday joyga yashirib qo'yilganki, u yerga sizlar hecham borolmaysizlar, – dedi u tantanavor. – Bu xazina meniki, modomiki u menga nasib qilmagan ekan, unga hech kim ega bo'lolmasin. Ha, men buyog'ini ham o'ylab qo'ydim. Bu yorug' dunyoda Andaman qamoqxonasidagi uch katorgachi bilan mendan bo'lak hech kimning bu xazinada haqi yo'q. Xazinaga hozir ega bo'lolmasligimni bilardim, ular ham egalik qilisholmaydi. Nimaiki qilgan bo'lsam, o'shalarning ham nomidan qildim. To'rtlar ittifoqimiz – umrimizning oxirigacha. Ha, bilaman, ular mening ishimni ma'qullagan bo'lishardi. Bu boyliklar Sholto yoki Morsten bolalarining qo'liga tushgandan ko'ra, mayli, Temza daryosi tubida yotsin. Biz Ahmadni ana shu boylikni deb o'ldirdik-da. Boyliklar o'sha kalit yotgan joyda. Tonga ham o'sha yerda. Bizga yetay-yetay deb qolganlaringni ko'rganimdan keyin o'ljalarni ishonchli joyga yashirib qo'ydim. Bu gal g'alaba sizlarga bir rupi ham keltirmadi.

– Sen bizni aldayapsan, Smoll, – dedi Jons tumshayib. – Agar boylikni Temzaga tashlash niyatig boʻlganida sandiqchasi bilan birga tashlagan boʻlarding. Bu qulayroq-ku.

– Oson tashlangan narsa osongina topiladi, – deb javob qildi Smoll, bizga istehzoli qarab qoʻyarkan. – Izimga tushishga aqli yetgan odam xazinani daryo tagidan ham olib chiqa oladi. Endi bu osonmas, albatta, ular har tomonga sohib yuborilgan. Juda yaqin qolganlaringni koʻrib, jinni boʻlib qolay dedim. Endi ularga achinishning foydasi yoʻq! Bu bosh nimalarni koʻrmadi, boʻlar-boʻlmas narsaga kuyinavermayman.

– Bu yaxshimas, Smoll, – dedi Jons. – Siz odil sud ustidan bu qadar mazax qilib kulgandan koʻra, unga yordam berganingizda sizga koʻproq muruvvat koʻrsatishlariga umid qilsangiz boʻlardi.

– Odil sud dedingizmi? – xitob qildi sobiq kartorgachi. – Bunaqa odil suddan oʻrgildim! Bu boyliklar meniki. Odil sud esa ularni bunga mutlaqo aloqasi boʻlmagan odamlarga berishni talab qiladi! Unga qanday ega boʻlganimni bilishni istaysizmi? Bezgakning koni boʻlgan shu botqoqda rosa yigirma yil ter toʻkdim. Kunduzi qoʻlimdan belkurak tushmasdi, kechalari esa qamoqxonaning qoʻlansa baragida kishanlarni sharaqlatib yurib, uxlamay chiqasan. Chivin, bezgak tinkangni quritadi, qora nazoratchilar boʻralab soʻkkani-soʻkkan, ular oq tanlilarni xoʻrlashni yaxshi koʻrishadi. Agra xazinasiga shu tariqa ega boʻlganman. Siz boʻlsangiz, adolatdan gapirib oʻtiribsiz – hayotim evaziga erishgan bu boyliklardan boshqalarning

foydalanishini istamayman. Mayli, meni dorga ossinlar, mayli, butun badanimga Tonganing tikanlari sanchilsin, hammasiga roziman, chidayman, lekin qonun bo'yicha menga tegishli bo'lgan oltinlarga boshqa birovning ko'milib yotganini ko'ra turib qamoqxonada kamerasida chirib o'lib ketishni istamayman.

Smoll loqaydlik niqobini yuzidan sidirib tashladi. U jo'shib-toshib so'zlar, ko'zlari chaqnar, darg'azab bo'lib mushtlarini siqqanida kishan shaqirlab ketardi. Bu odamning qahr-g'azab o'tidan qanchalik yonayotganini ko'rganimdan keyin uning paydo bo'lganini eshitib Sholtoni naqadar vahima bosganining sababini tushundim.

– Siz bir narsani unutyapsiz, bizning bu gaplardan mutlaqo xabarimiz yo'q, – dedi Xolms muloyim. – Biz bu boyliklar sizning qo'lingizga qonuniy yo'l bilan tushgan-tushmaganini hozir ham bilmaymiz.

– Siz meni o'zingizga teng ko'rib gaplashyapsiz, ser. Garchi mana bu taqinchoqlar sizning ishingiz ekanligini juda yaxshi tushunib turgan bo'lsam ham, – Smoll qo'lidagi kishanlarni ko'rsatdi, – sizdan xafa emasman. Halol o'yin bo'ldi. Agar eshitishni xohlasangiz, butun tariximni boshidan oxirigacha sizga gapirib berishim mumkin. Xudo shohid, gapimda zarracha yolg'oni yo'q. Sizdan minnatdorman, ser, agar tomog'im qaqraguday bo'lsa, bajonidil bir-ikki qultum ichaman.

Aslida men Bustershirlikman, Persho yaqinida tug'ilganman. Agar biz tomonlarga borsangiz, Smollarning o'nlab oilalarini topasiz. U yoqqa

borib-kelish to'g'risida tez-tez o'ylardim, lekin men hech qachon oilaning faxri bo'lmaganman, borganimga xursand bo'lishlariga ko'zim yetmasdi. Ularning hammasi yoshi ulug' odamlar, cherkovga qatnashadi, ularni atrofdagilar juda hurmat qilishadi. Ular fermerlar, mening esa odatlarim yomon edi. O'n sakkiz yoshimda bir qiz tufayli mojaroga tushib qoldim. Uchinchi piyoda polkiga qirolicha soldati bo'lib yollanganim meni jazodan qutqarib qoldi, o'sha polk Hindistonga jo'natgan edi.

Lekin armiyadagi xizmatim tezda tugadi, miltiqdan otishni-yu «g'oz yurishni» o'rgandim, xolos. Bir kuni nima ham bo'ldi-yu, Gangaga borib cho'mildim, yaxshiyamki, yonimda serjan-timiz Jon Xolder bor edi. U polkimizda eng yaxshi suzuvchilardan edi. Daryoning o'rtasigacha suzib borib, bunday qaragam – ro'paramda timsoh. Tizzamning yuqorisidan shartta tishladi, xuddi pichoq bilan kesganday bo'ldi. Es-hushimni yo'qotib qo'yganimdan, qon ko'p ketganidan cho'kib ketishim hech gap emasdi, yaxshiyamki, yonimda Xolder bor edi, u meni dast ko'tardi-da, sohilga olib chiqdi. Gospitalda besh oy yotdim. U yerdan yog'ochoyoqda, batamom nogiron bo'lib chiqdim, harbiy xizmatga, umuman, hech qanday ishga yaramas edim.

O'shanda ancha mashaqqat tortdim, o'zingiz bir tasavvur qilib ko'ring-a, notavon bir cho'loq, endigina yigirmaga chiqqan yigit bo'lsam. Oyning o'n beshi qorong'i bo'lsa, o'n beshi yorug', deyishadi. Eybluayt ismli bir odamga, nil bo'yog'i olinadigan

plantatsiya egasiga nazoratchi kerak bo'lib qoldi. Ma'lum bo'lishicha, u menga jonkuyarlik qilgan polkovnigimizning do'sti ekan. U meni Eybluaytga zo'r berib tavsiya qildi. Nazoratchi vaqtining ko'p qismini otda o'tkazadi, cho'loq oyog'im uzun bo'lgani uchun egarda bemalol o'tirardim, yog'och oyog'im xalaqit bermasdi. Men otda plantatsiyalarni aylanib yurardim, kuli<sup>27</sup>larning qanday ishlayotganini kuzatardim, ishyoqmaslarni xo'jayinga aytardim. Menga yaxshi to'lashardi, turar joyim ham chakki emasdi, umrimning oxirigacha shu yerda ishlayman, deb o'ylovdim. Xo'jayinim mehribon, ko'ngli ochiq odam edi, trubkasini chekib oldinga tez-tez kirib turardi, chunki bu yerda yashovchi oq tanlilar hamisha bir-birlarini ko'rib turishardi. Bu yerda butunlay boshqacha ahvol.

Lekin baxt menga hech qachon uzoq hamroh bo'lmasdi. Mamlakatda kutilmaganda g'alayon boshlandi. Kuni kecha hammamiz Kent yoki Surrodagiday tinch-totuv, betashvish yashab yuruvdik. Siz bu voqeani mendan ko'ra yaxshiroq bilasiz, albatta. Bu haqda ko'p yozilgan, mening esa o'qishga unchalik hushim yo'q. O'z ko'zim bilan ko'rgan narsalarni yaxshi bilaman. Bizning plantatsiyamiz Shimoli-g'arbiy provinsiyalar chegarasidagi Muttri shahri yaqinida edi. Har kuni kechasi butun osmon yonayotgan bungal alangasidan yorishib ketardi. Har kuni mulkimiz orqali yevropaliklar xotin, bola-chaqalari bilan

---

<sup>27</sup> Kuli – ba'zi Osiyo mamlakatlarida qora ishchi, hammol.

o'tishardi, ular Agrada turgan ingliz qo'shinlarining himoyasiga oshiqishardi. Mister Eybluayt o'jar odam edi. Bularning hammasi sariq chaqaga arzimaydi, bugun-erta tugaydi, degan fikr uning miyasiga qattiq o'rnashib qolgandi. U ayvonida viskidan jindak-jindak otib, sigarasini chekib xotirjam o'tirardi. Holbuki, butun Hindiston olov ichida edi. Biz uning yonida qoldik, albatta. Biz deganim – bu men va Douson, u xotini ikkovi ham hisob-kitob ishlarini bajarardi, ham xo'jalikni yurgizardi. Lekin baribir falokat yuz berdi. Men kuni bilan uzoq plantatsiyada bo'lib, kechga yaqin otda qaytib kelayotgandim. Uncha chuqur bo'lmagan jarlik tagida qandaydir noaniq bir narsa qorayib ko'rindi. Men yaqinroq bordim, dahshatdan yuragim orqamga tortib ketdi: bu Dousonning xotini bo'lib, uni qiyma-qiyma qilib, chiyabo'rilarga yemishga tashlab ketishgandi. Sal narida, yo'l ustida Dousonning o'zi yuztuban yotardi, uning muzlab qotib qolgan qo'li to'pponchani siqib ushlagandi, shunday yonida esa to'rtta sipoh yotardi. Men tizginni tortib, otni to'xtatdim. Shu payt Eybluayt uyi tomidan quyuq tutun buruqsib chiqa boshladi, sal o'tmay, tashqariga alanga otildi. Men xo'jayinimga hech qanday yordam berolmasligimni tushundim, agar qutqaraman deb shosha-pisha o'zimni olovga ursam, o'lib ketishim aniq edi. Men turgan joydan qizil mundirli isyonchilar aniq ko'rinardi, ular kamida bir necha yuz kishi edi, baqirib-chaqirib, yonayotgan uy atrofida o'yinga tushishardi. Meni ko'rib qolishdi, o'sha zahoti boshim yonidan bir necha o'q chiyillab uchib

o'tdi. Shundan keyin otning boshini burdim-da, sholipoya oralab choptirib ketdim. Kechasi Agraga yetdim.

Bu yer ham notinch ekan. Butun mamlakat buzilgan asalari uyasiday g'uvillardi. Inglizlar kichik-kichik otryadlarga birlashishardi. Ular qurol kuchi bilan ushlab turgan yerdagina xo'jayin edilar. Qolgan yerlarning hammasida ular isyonchilar hukmi ostida edi. Bu millionlarning bir necha yuz kishiga qarshi urushi edi. Eng fojiali tomoni shundaki, dushmanimiz o'zimiz saralagan qo'shinlar – piyoda askarlar, to'plar va otliq askarlar. Biz ularni o'qitib, qattiq tartibga o'rgatgan edik, endi bo'lsa, ular bizga qarshi o'zimizning qurollarimiz bilan jang qilar, bizning signallarimizni chalishardi. Agrada Uchinchi bengal o'qchi polki sikxlarning bir necha otryadi, ikki eskadron otliq askarlar va bir batareya joylashgandi. Qo'zg'olon ko'tarilganda amaldorlar bilan savdogarlardan ko'ngillilar otryadi tuzilgan edi. Cho'lloqligimga qaramay bu otryadga men ham yozildim. Iyulning boshlarida Shoxganj yaqinida dushman bilan uchrashish niyatida Agraga kirib bordik, ularni bir necha vaqt to'xtatib turdik, lekin hademay poroximiz tugab qolib, yana Agraga qaytib keldik. Hamma tomondan tashvishli xabarlar kelardi, bunga ajablanmasa ham bo'lardi, chunki Agra shunday isyon markazida edi. Lakxnau bizdan sharq tomonda yuz mildan ham ortiq uzoqda edi, Kanpur ham janub tomonda shuncha uzoqlikda edi. Qaysi tomonni olmang, hamma joyda xunrezlik, xonavayronlik, o'lim.



Agra – qadimiy shahar. U yerda muttasil hindilar va yovuz yovvoyi-butparastlar doimo gala-gala bo‘lib yurishadi. Bir nechta ingliz bu tor, qing‘ir-qiyshiq jinko‘chalarda yo‘qolib ketardi. Shuning uchun ham, komandirimiz daryodan o‘tib, ko‘hna Agra qal‘asida yashirinib olishni buyurdi. Jentlmenlar, bilmadim, orangizda bitta-yarimtangiz bu qal‘a to‘g‘risida eshitganmisiz-yo‘qmi. Bu – juda g‘alati inshoot. Bunaqasini hech ko‘rmaganman, gapimga ishoning, umrimda juda ko‘p antiqa narsalarni ko‘rganman. Qal‘a juda katta ikkita – yangi va eski qo‘rg‘ondan iborat. Garnizonimiz, xotin-xalajlar, bolalar, oziq-ovqat va qolgan boshqa hamma narsa yangi qo‘rg‘onda joylashgandi. Lekin u eskisidan kichkina edi. Eski qo‘rg‘onga hech kim qadam bosmasdi, u yerda faqat chayonlar-u mingoyoqlar yashardi. U yerda katta bo‘sh zallar, galereyalar, qanchadan qancha o‘tish joylari, muyilishlari bo‘lgan uzun yo‘laklar ko‘p edi, shuning uchun ham, adashib qolish hech gap emasdi. U yerga kamdan kam odam yurak yutib borardi, lekin ba‘zi-ba‘zida sinchkov odamlar to‘da-to‘da bo‘lishib, qo‘llariga mash‘ala olib borishardi.

Agra qal‘asining old tomonidan daryo oqardi, u to‘siq vazifasini o‘tardi, lekin yon va orqa devorlarida chiqadigan joylar ko‘p edi, ularni qo‘riqlash kerak edi. Bizda odam kam, to‘plar shinaklarning oldiga qo‘yishga arang yetardi. O‘shanda biz markaziy qo‘rg‘onni yaxshilab mustahkamlagan edik, har bir darvozaning oldiga kichkina qorovul – bir ingliz bilan ikki-uch sikkini qo‘yib qo‘ydik. Men janubi-g‘arbiy tomondagi devorning eng

oxirgi eshigini kechasi qo'riqlashimga to'g'ri keldi. Ixtiyorimga ikki sikxni berishib, xafv-xatar tug'ilguday bo'lsa, markaziy qorovulxonadan yordam chaqirish uchun o'q uzgin, deyishdi.

Lekin postimiz asosiy kuchlardan, chamas, ikki yuz metr masofada, bizga son-sanoqsiz yo'laklardan o'tib kelinadigan bo'lgani uchun hujum qilib qolishguday bo'lsa, biznikilar o'z vaqtida yordamga kelishlariga ko'zim yetmasdi.

Kichkina bo'lsa ham otryadim borligidan faxrlanardim axir bir yil soldat bo'lib xizmat qildim-a, yana shu yog'ochoyoqda-ya. Ikki kecha ancha tinch o'tdi. Qo'limdagi panjobliklar baland bo'yli, jahldor sikxlar edi. Bittasining ismi Muhammad Singx, ikkinchisining oti Abdulla Xon edi, ikkovi ham Chilianval ostonasida bizga qarshi kurashgan edilar. Ular inglizchada bemalol gapirishardi, lekin ular bilan kam muloqotda bo'lardim. Ular doimo birga bo'lishga urinishardi, o'zlarining g'alati sikx tilida allanimalar to'g'risida valaqlashishardi. Men, odatda, tashqarida, eshik oldida turib, buralib-buralib oqayotgan daryoni, ko'hna shaharning miltillagan chiroqlarini tomosha qilardim. Nog'oralarning do'pir-do'piri, qoradori va nashadan mast bo'lgan isyonchilarning qiy-qiriqlari, ashulalari butun kecha bizga narigi sohildan keladigan xafv-xatarni eslatib turardi. Markaziy qorovulxona soqchilari postlarni har ikki soatda aylanib chiqardi, hamma narsa joyidami-yo'qmi, deb tekshirishardi.

Navbatchiligimning uchinchi kuni tun zimiston edi, shivalab yomg'ir yog'ardi. Bunday rutubatli

havoda kechasi soatlab qorovullikda turishdan yomoni yo'q. Men odamovi o'rtoqlarim bilan gaplashishga bir necha bor urinib ko'rdim, lekin harakatlarim besamar ketdi. Kechasi soat ikkida soqchi kelib, sal jonimga aro kirdi. Sikxlarni gapga sololmasligimga ko'zim yetgach, trubkamni qo'limga oldim, miltig'imni yerga qo'yib, gugurt chaqdim. O'sha zahoti ikki sikx menga tashlanishdi. Bittasi mushketimni olib, tepamda ko'tardi, ikkinchisi uzun pichog'ini bo'g'zimga tirab, agar sal qimirlasang, shu pichoqni halqumingga sanchaman, dedi tishlarini irjaytirib.

Miyamga, bu iblislar isyonchilar bilan til biriktirgan, demak, bu – hujumning boshlanishi, degan fikr keldi. Agar isyonchilar bizning kiradigan joyimizni qo'lga olgudek bo'lishsa, qal'a ham ularga o'tadi, ana unda xotin-xalajlar-u bolalar ularning qo'lga tushadi. Siz, jentlmenlar, ehtimol, bu odam bizni o'ziga moyil qilmoqchi, deb o'ylayotgan bo'lishingiz ham mumkin, lekin chin so'zim, bu narsa xayolimga kelganda, bo'g'zimga qadalgan pichoqni ham unutib, qichqirmoqchi ham bo'ldim, ehtimol, bu mening eng so'nggi hayqirig'im bo'larmidi. Meni ushlab turgan sikx ko'nglimdagini sezganday bo'ldi, chunki vajohatimni ko'rib, qulog'imga shivirladi: «Shovqin solma. Qal'adan xavotirlanma. Bizning sohilda razil isyonchilar yo'q». Uning ovozida qandaydir samimiylilik bor edi, zero, ovoz chiqarguday bo'lsam, asfalasofilinga ketishimni bilardim. Qulog'imga shivirlagan odamning qarashida ham shu ma'no bor edi. Shuning uchun ham, qani, ularning niyati nima ekan, ko'raylik-chi, deb kutishga qaror qildim.

«Menga qara, sohib, – dedi ulardan biri, uning ismi Abdulla Xon bo'lib, ancha yovuz edi. – Yo sen bizga qo'shilasan, yo bir umrga nafasing o'chadi. Biz kutolmaymiz: juda qaltis, muhim ish. Yo sen biz bilan bir jon, bir tan bo'lasan, bunga xristian xochini o'pib ont ichasan, yo bugun kechasi o'lingingni ariqqa tashlab ketamiz, biz esa daryoning narigi tomoniga o'tib, qo'zg'olonchilarga qo'shilamiz. Boshqa chorang yo'q. Yo hayot, yo o'lim. Xo'sh, nima deysan? O'ylab ko'rishing uchun uch daqiqa muhlat beramiz. Vaqt g'animat, hamma ishni dozor qaytib kelguncha saranjom qilishimiz kerak.

– Axir, men nimani qila olaman? – e'tiroz bildirdim. – Nima qilishim kerakligini aytmadilaring-ku. Lekin bilib qo'yinglar, agar o'rtada qal'a taqdiri turgan bo'lsa, meni o'ldirlaring, ha, qo'llaring qaltiramasin.

– Qal'aga hech nima xafv solayotgani yo'q, – deb shivirladi yana o'sha sikx. – Vatandoshlaring bu mamlakatga nima niyatda kelishyapti, sen o'shalar o'ylagan ishni qilgin, biz shuni istaymiz: boy-badavlat bo'lishingni xohlaymiz. Agar sen shu bugun kechasi biz bilan birga bo'lsang, yalang'och xanjarimiz, sikxlarning uch martali qasami bilan ont ichamizki, olgan o'ljamizni sen bilan halol bo'lishamiz, bu qasamni hali bironta sikx buzmagani. Sen ham boylikning to'rtidan birini olasan. Adolat bundan ortiq bo'ladimi?

– Qanaqa boylik? – deb so'radim. – Men ham sizlarga o'xshab boy-badavlat bo'lishni istayman. Lekin qani, aytinglar-chi, bunga qanday erishsa bo'ladi?

– Avvaliga, – deb javob qilishdi ular, – otangning arvohi, onangning or-nomusini, o‘z diningning muqaddas xochini o‘rtaga qo‘yib, hozir ham, kelgusida ham sizlarga hech qachon qo‘l ko‘tarmayman, buni bir umr sir saqlayman, deb qasam ich.

– Qasam ichaman, – deb javob qildim, – faqat agar qal‘aga hech nima xafv solmasa.

– Unday bo‘lsa, xazinani o‘zaro halol bo‘lishib olamiz, sen o‘z ulushingni, to‘rttdan birini olasan, deb biz ham qasam ichamiz.

– Lekin biz uch kishimiz-ku, – dedim.

– Yo‘q, to‘rttamiz. Do‘st Akbar ham o‘z ulushini olishi kerak. Ularni kutgunimizcha senga hammasini gapirib beraman. Muhammad Singx tashqarida turib, ular ko‘rinishi bilan bizlarga xabar qiladi. Ha, sohib, senga hammasini gapirib beraman, chunki sen farangisan, bilamanki, farangilar qasamini buzishmaydi. Agar sen aldamchi hindi ko‘ppagi bo‘lganingda bormi, betafviq, ibodatxonalardagi barcha xudolar nomiga qasam ichmagin, baribir qoning to‘kilgan, jasading esa iflos suvga tashlangan bo‘lardi. Lekin sikxlar inglizlarga ishonadi, inglizlar esa sikxlarga ishonishadi. Ha, quloq sol, sohib, gapirib beraman.

Shimoliy provinsiyalarda bir roja yashaydi. U garchi yeri kam bo‘lsa ham juda boy, badavlat. Otasidan juda ko‘p boylik meros qolgan, o‘zi ham undan ko‘p mol-dunyo orttirdi, chunki u g‘amlashni yaxshi ko‘radi, xarajat qilishni yoqtirmaydi. Ish chalkashib ketganida u ham sher, ham yo‘lbars – sikxlar va inglizlar bilan til topishdi, do‘st bo‘ldi. Lekin u, oq tanlilarni hamma yoqdan

quvishayotganmish, o'ldirishyotganmish degan mish-mishlarni eshitganida, oq tanlilarning kuni bitibdi-da, degan qarorga keldi. Aslida, ancha ehtiyotkor odamligi uchun nima bo'lganda ham boyligining aqalli yarmini saqlab qolishga urindi, shunga yarasha ish tutdi. Oltin-u kumushlarini saroyining yerto'lalarida qoldirdi, eng qimmatbaho toshlari bilan durlarini temir sandiqqa solib, sodiq xizmatkoriga, savdogar qiyofasida Agra qal'asiga olib o'tishni topshirdi, bu to's-to'polonlar bosilguncha o'sha yerda tura tursin, dedi. Shunday qilib, agar isyonchilar g'alaba qilsa, oltin-u kumushlari qo'ldan ketmaydi, mabodo inglizlar zo'r kelsa, qimmatbaho buyumlari saqlanib qoladi. O'z boyliklarini shu tariqa bo'lib chiqib, u sipohlarga qo'shildi, chunki ularning g'alaba qilishi shubhasiz edi. Demak, sohib, sen bir narsaga e'tibor berginki, bu qimmatbaho buyumlarga o'z burchiga oxirigacha sodiq qolgan kishi ega bo'lishi kerak.

Ahmad ismi bilan sayohat qilib yurgan bu soxta savdogar hozir Agrada. U Agra qal'asiga kirish ishtiyoqida. Butun siridan xabardor ukam Do'st Akbar u bilan birga. Do'st Akbar bugun kechasi uni qal'aga olib kirishga va'da bergan. U kelib-kelib bizning eshigimizni tanlagan. Ular hademay kelib qolishlari kerak, biz Muhammad Singx ikkovimiz ularni kutib olamiz. Bu bir dasht joy, Ahmad haqida hech kim hech narsa bilmaydi. Biz hech kim, hech qachon hech nima bilmasligini istaymiz. Keyin boyliklarni bo'lishib olamiz. Xo'sh, sen bunga nima deysan, sohib?

Bustershirda inson hayoti muqaddas va daxlsizdir, lekin hamma yoqda jang-u jadal ketayot-

gan, odamlar o'layotgan, qon to'kilayotgan, ajal seli har qadamda kutayotgan bir paytda buning yo'rig'i boshqa. Qandaydir savdogar Ahmad o'ladi-dimi-qoladimi, menga bari bir edi. Lekin xazina haqidagi hikoya meni juda qiziqtirib qoldi. Men Angliyaga ana shuncha boylik bilan qaytib borsam zo'r bo'lardi-ya, bekorchi, tanbal Jonatanning cho'ntaklarini oltin-u durlarga to'ldirib kelganini ko'rib, ota-onam, qarindosh-urug'larim hangu mang bo'lib qolishardi, deb o'ylay boshladim. Nimanani tanlaganimni shundan bilavering. Lekin Abdulla Xon meni haliyam ikkilanyapti, deb o'yladi.

– Menga qara, sohib, – meni ko'ndirmoqchi bo'lib gapida davom etdi, – agar bu odam garnizon boshlig'ining qo'liga tushib qolguday bo'lsa, bari bir uni yo otishadi, yo osishadi, rojaning hamma boyligi hukumat xazinasiga tushadi-yu, hamma qo'lini burniga tiqib qolaveradi. Modomiki, pistirma qo'yib, uni qo'lga tushirmoqchi bo'ldikmi, bu ishni oxiriga yetkazish kerak. Boyliklarni asrashni esa biz davlat xazinasidan ko'ra yaxshiroq bilamiz. Birdaniga boyib ketamiz, e'tiborli janoblarday savlat to'kib yuramiz. Biz bu yerda yakka-yolg'izmiz. Bu haqda hech kim, hech qachon hech narsa bilmaydi. Sharoit bizga qo'l kelyapti. Xo'sh, yana bir bor qaytar, sohib, biz bilanmisan yo bizga qarshimisan?

– Sizlar bilan, butun jon-u dilim bilan sizlarga qo'shilaman, – dedim.

– Juda soz, – deb javob qildi u, miltig'imni qaytarib berarkan. – Ko'ryapsanmi, biz senga ishon-yapmiz, chunki sen ham bizga o'xshab lafzingga xiyonat qilolmaysan. Endi kutamiz.

– Bu ishlardan ukangning xabari bormi?

– Bu uning rejasi, hammasini o‘ylab topgan ham o‘sha. Endi, yur, Muhammad Singxning oldiga boramiz, o‘sha yerda kutamiz.

Yomg‘ir tinay demasdi, zero, yomg‘ir mavsumi boshlangandi. Og‘ir qora bulutlar butun osmonni qoplagandi, ikki qadam naridagi narsani ko‘rib bo‘lmasdi. Shunday oldimizda chuqur bor edi, ayrim joylari quruq bo‘lib, o‘tib olish qiyin emasdi. O‘zimni juda g‘alati his etardim: mana, ikki yovvoyi panjoblik bilan birga turibman, o‘z o‘limi istiqboliga shoshayotgan kishini kutyapman.

Birdan chuqurning narigi tomonida etak bilan chala yopilgan fonusning lipillagan nurini ko‘rib qoldim. Yorug‘ tuproq uyumi orqasida yo‘q bo‘lib keyin yana paydo bo‘ldi-yu, biz tomon yaqinlashib kela boshladi.

– Kelishyapti! – dedim.

– Undan qoidaga binoan, kimsizlar, deb so‘rang, sohib, – deb shivirladi Abdulla. – U hech nimadan shubhalanmasin. Uni biz kuzatib qo‘yaylik, o‘zlarining kiraverishda qolinglar. Umi, boshqami, yanglishmaslik uchun fonusni tayyorlab qo‘yinglar.

Fonus yorug‘i dam to‘xtab qolar, dam biz tomonga qarab yurardi. Sal o‘tmay u tomonda ikki sharpani ko‘rdim. Ular chuqur oldiga kelishdi-da, emaklab uning ichiga tusha boshlashdi, keyin loydan shaloplab yurib kelib, biz tomonga tirmashib chiqa boshlashdi, shu payt, kimsizlar, deb baqirdim.

– Kimsiz? – deb so‘radim past ovozda.

– Do‘stlaringiz, – degan javob eshitildi. Men fonusni ochib, ularni yoritdim. Oldinda qora



soqoli deyarli beligacha tushgan basavlat sikk kelardi. Men bunaqangi daroz odamlarni faqat sirkda ko'rganman. Ikkinchisi past bo'yli, yo'g'on, yum-yumaloq edi, boshida sariq salla, qo'lida esa tugun – nimalarnidir sholro'molga tugib olgandi. U qo'rquvdan dag'-dag' titrar, qo'llari xuddi bezgak tutgan odamnikiday qaltirardi, kichkina qora yaltiroq ko'zlari javdirab, dam-badam sichqonga o'xshab atrofga alanglab qarardi, u inidan qo'rqa-pisa mo'ralayotgan sichqonga o'xshardi. Bu kichkina odamning hozir o'lishini o'ylaganimda, o'zim ham qaltiray boshladim. Lekin xazinani esladim-u, toshbag'ir bo'ldim-qoldim. Yo'g'on odam ochiq chehramni ko'rdi-yu, sevinganidan allanimalar deb, menga tashlandi.

– Sizning himoyangizga muhtojman, sohib, – dedi u hansirab. – Men bir sho'rpehana savdogar Ahmadman. Agra qal'asining mustahkam devorlariga yetib olish uchun butun Rajputanni kezib chiqdim. Yo'lda meni talashdi, o'lasini qilib kaltaklashdi, xo'rlashdi, chunki men hukumat odamiman, uning do'stiman. Shu oqshom Xudoyi taolo marhamatini ayamadi, men ozod bo'ldim. O'zim ham, arzimas molim ham.

– Tuguningizda nima bor? – deb so'radim.

– Temir sandiqcha, – deb javob qildi u. – Ichida ikkitami-uchta oila yodgorligi bor, ularning mendan bo'lak hech kim uchun qadr-qimmatini yo'q. Lekin qashshoq emasman, yosh sohib, agar mana shu devorlar orqasiga o'tib yashirinishimga ijozat bersang, o'zingni ham, boshlig'ingni ham xursand qilaman.

Ortiq chidayolmasligimni sezib turardim. Uning go'shtdor, qo'rquvdan dir-dir qaltirayotgan yanoqlariga qaraganim sayin, sovuqqonlik bilan har tomonlama chuqur o'ylangan bu qotilik menga yana ham mudhish, yanada dahshatli ko'rinardi. Qani endi hammasi tezroq tugay qolsa.

– Uni markaziy qo'rg'onga olib boringlar, – deb buyurdim.

Ikki sikx yon tomonda, uchinchisi orqada ketishdi. To'rttovi ham yo'lakdan sekin uzoqlashishardi. Bechora savdogar ajalga shunday yuzma-yuz kelgandi. Men fonusim bilan eshik oldida qoldim.

Men ularning bo'sh yo'laklardagi oyoq tovushlarining bir xildagi sadosini eshitib turardim. Birdan oyoq tovushlari tindi. Ovozlar, mushtlashayotganlarning shovqin-suronlari, kaltak zarbalari eshitildi. Bir daqiqa o'tar-o'tmas dupurlagan oyoq tovushini, men tomonga chopib kelayotgan odamning hansirab nafas olishini eshitib, qo'rqib ketdim. Fonusim bilan uzun yo'lakni yoritib, yuzlari qonga belangan semiz odamni ko'rdim. U joni boricha men tomonga chopib kelar, qora soqolli basavlat sikx esa yo'lbarsday sakrab, unga yetib olay, yetib olay derdi, qo'lida pichoq yarqirardi. Odamlarning mana shu pakana savdogarday tez chopganini hech qachon ko'rmagandim. Yonimdan chopib o'tib, ko'chaga chiqib olish qolgandi. U yoqda uni qutqarib qolishadi. Yana bir zum unga achindim, lekin xazinani esladim-u, yana diydam qotdi-qoldi. U ro'paramga kelganida, miltig'imni oyog'i tagiga tashladim, u xuddi o'q

yegan quyonday o'mbaloq oshib yiqildi. U turishga ulgurmasidan, sikkx uning yelkasiga minib oldi-da, biqiniga ikki marta pichoq urdi. Ahmad qimir etmadi, ingramadi, yiqilgan joyida uzala tushgancha yotaverdi. Menimcha, yiqilayotganda bo'ynini qayirib oldi, shekilli. O'zlaring ko'rib turibsizlar, jentlmenlar, va'damga vafo qilib, bor gapni aytyapman, hikoyamning sizlarga qanday ta'sir qilishini mutlaqo o'ylayotganim yo'q.

U to'xtadi-da, kishan solingan qo'llarini Xolms uchun maxsus tayyorlab qo'yan sodali viski solingan stakanga cho'zdi. Unga qaradim-u, dahshatdan titrayotganimni his etdim, faqat uning bu makkorona qotillikda qo'li bo'lgani uchun emas, uning bu haqda bemalol, xotirjam, hatto hayosizlarcha hikoya qilishi menga qattiq ta'sir etgandi. Unga qanday jazo berilmasin, baribir men unga hecham achinmasdim. Sherlok Xolms bilan Jons ikkovi ham qo'llarini tizzalariga qo'yanlaricha jim o'tirishardi, ularning qanchalik nafratlanayotgani yuzlaridan bilinib turardi. Smoll buni payqadi, shekilli, chunki yana gap boshlaganida uning ovozida haqoratga o'xshash bir narsa sezildi.

– Ha, bularning hammasi bir dahshat, – dedi u. – Lekin mening ahvolimga tushib qolgan odam o'zini boshqacha tutarmidi, ya'ni ochiq ko'ngilligi uchun bo'g'izlab tashlashlarini ko'ra-bila turib boylikdan voz kecharmidi, shunday odamlar ko'p topilarmikin. Zero, Ahmad qal'aga kirgan edi, endi ikkovimizdan birimiz tirik qolishimiz kerak. Agar u qochib ketsa, hamma narsa oshkor bo'lardi, meni

harbiy-dala sudi sud qilardi, otib tashlashardi, chunki bunaqa paytda marhamat-u muruvvatga umid qilib bo'lmaydi.

– Davom eting, – dedi Xolms qisqa qilib.

– Shunday qilib, biz uchovimiz: Abdulla, Akbar va men uni qal'aga olib kirdik. Pakana kichkina bo'lishiga qaramay, qo'llarimiz toliqdi. Muhammad Singx kiradigan joyni qorovullab turdi. Sikxlar uni qayerga yashirish mumkinligini o'ylab, joyni oldindan chamalab qo'yishgandi. Juda ko'p muyulishlari bo'lgan yo'lak bizni kattakon bo'sh zalga olib keldi, uning g'isht devorlari asta-sekin yemirila boshlagan edi. Yer polning bir joyi cho'kib, yorilib tabiiy go'r hosil qilgandi. Savdogar Ahmadni shu yerga ko'mib, ustiga devordan tushgan g'ishtlarni terib chiqdik. Ahmadni bir yoqli qilgandan keyin xazina solingan sandiqcha oldiga qaytib keldik.

U Ahmad qoldirgan joyda yotardi, sikxlar unga birinchi marta o'sha yerda hujum qilishgandi. Bu o'sha, hozir sizning oldingizda, stolda turgan sandiq edi. Qopqog'idagi naqshli dastasiga kalit shoyi chilvir bilan bog'lab qo'yilgandi. Biz uni ochdik, fonus yorug'ida qimmatbaho toshlar yaraqlab ketdi, bular haqida sarguzasht kitoblarida o'qigandim, buni Pershorada bolaligimdayoq orzu qilgandim. Ularning charaqlashidan ko'z qamashar, tik qarayolmasdik. Uni rosa tomosha qilib, ko'zimiz to'yganidan keyin bu qimmatbaho buyumlarni olib, birma-bir sanab chiqdik. Unda bir yuz qirq uchta sof brilliant bor ekan, ularning orasida o'sha mashhur «Buyuk mo'g'ul» ham bor

edi, u shunday deb atalardi, chamamda. Aytishlaricha, bu kattaligi jihatdan jahonda ikkinchi tosh ekan. To'qsonta juda chiroyli antiqa zumrad, bir yuz yetmishta yoqut bor edi, to'g'ri, maydalari ko'p edi. Yana qirqta la'l, ikki yuz o'n dona sapfir, oltmish bitta aqiq, qanchadan qancha berill, oniks, mushuk ko'zi, feruza, yana juda ko'plab boshqa toshlar bor edi, ularning nomlarini o'shanda bilmasdim. Hozir bunaqa toshlarni ilgarigiga qaraganda ancha yaxshi bilaman. Sandiqchada yana salkam uch yuz dona ajoyib marvarid bor edi, ulardan o'n ikkitasini tasbeh qilishgandi. Ha, aytmoqchi, o'sha tasbehlar sandiqchadan g'oyib bo'lgan. Yaqinda sandiqchani ochganimda ular yo'q edi.

Xazinamizni sanab chiqdik-da, hammasini qaytadan sandiqchaga solib, Muhammad Singxga ko'rsatgani olib ketdik. Keyin bir-birimizga hech qachon xiyonat qilmaymiz, bu sirni hech kimga aytmaymiz, deb yana bir bor qasam ichdik. Mamlakatda tinchlik, osoyishtalik o'rnatilganidan keyin xazinani bo'lishib oladigan bo'ldik, hozircha uni ishonchli joyga yashirib qo'yishga qaror qildik. Ularni hozir taqsimlashga hecham zarurat yo'q edi: agar bu qimmatbaho buyumlarni bizda ko'rib qolishsa, bu shubha tug'dirishi mumkin edi. Qal'ada hamma siqilib yashardi, bu boyliklarni begona ko'zlardan yashirishning iloji yo'q edi. Shuning uchun ham biz sandiqchani o'sha Ahmad yotgan zalga olib bordik-da, boshqalarga qaraganda yaxshiroq saqlangan devorlardan birining orasiga yashirib qo'ydik. Biz o'sha

joyni yaxshi eslab qoldik, ertasiga men to'rtta loyiha chizib, ularning har biriga, pastiga «to'rtlar belgisi» deb yozib qo'ydim, chunki to'rtovimizni ham muqaddas qasam bog'lab turardi. Qo'limni ko'ksimga qo'yib, sizlarga ont ichamanki, men ularga hech qachon xiyonat qilgan emasman.

Jentlmenlar, qo'zg'olon nima bilan tugaganini sizlarga gapirib o'tirmayman. Uilson Dehlini ishg'ol qilganidan, ser Kolin esa Lakxnauni ozod etganidan keyin qo'zg'olonchilar ishi chappasiga ketdi. Bu orada yangi ingliz qismlari yetib keldi. Nana sohibning o'zi esa chet elga qochib ketdi. Polkovnik Greytxedning tezkor otryadlari Agrani qurshab olishib, hamma isyonchilarni shahardan quvib chiqarishdi. Nihoyat, mamlakatda tinchlik qaror topdi, biz to'rtovimiz, boyliklarimizni qal'adan bildirmasdan olib chiqib ketiladigan kun ham yaqinligiga umid qila boshlagan edik. Lekin umidlarimiz puchga chiqdi – bizni Ahmadning qotillari sifatida hibsga olishdi.

Bu shunday bo'ldi. Roja qimmatbaho buyumlarini Ahmadga topshirdi, chunki u Ahmadga ishonardi. Lekin sharq odamlari hamisha shubhali ko'rinadi, shuning uchun ham roja Ahmadning orqasidan xizmatkorini jo'natdi, unga Ahmadga qaraganda ko'proq ishonardi. U xizmatkoriga, Ahmadan bir zum ham ko'zingni uzma, deb qattiq tayinladi, xizmatkori ham uning orqasidan xuddi soyaday ergashib yurdi. O'sha mash'um kechada u Ahmadning orqasidan to'eshikgacha izma-iz borib, uni qal'aga qanday olib kirib ketishganini ko'rdi. U Ahmadga boshpana berishganiga shubha

qilmasdi, ertasigayoq o'zi ham o'sha tomonga yo'l oldi. Lekin u yerda Ahmadni uchratmadi. U darrov hushyor tortdi-da, Ahmadning g'oyib bo'lganini soqchilar serjantiga xabar qildi. U esa boshliqqa aytdi. O'sha zahotiyoyq qidiruv tashkil etishdi, Ahmadning jasadini tezda topishdi. Biz, izimizni yo'qotganmiz, deb qattiq ishonardik, o'zimizni shirin orzular bilan ovuntirib yurardik, birdan, sira kutilmaganda to'rtovimizni ham hibsga olishib, Ahmadni o'ldirishda ayblashsa bo'ladimi. Uchovimiz o'sha kuni kechasi janubi-g'arbiy tomondagi eshikda soqchilik qilgandik, to'rtinchimiz, keyin bilsak, o'ldirilgan odamga hamroh bo'lgan ekan. Sudda qimmatbaho buyumlar to'g'risida bir og'iz ham gap bo'lgani yo'q, chunki rojani knyazlik taxtidan mahrum qilishib, Hindistondan chiqarib yuborishgandi. Bu ishlar juda tez tergov qilinib, sud bizni qotillikda aybladi. Sikxlar bir umrga katorgaga hukm qilindi, meni esa o'limga hukm etishdi, keyinchalik o'sha muddat bilan katorgaga almashtirildi.

Biz bema'ni ahvolga tushib qolgandik. Qamoqda o'tirsang, ozodlikka chiqishga hech qanday umid bo'lmasa-yu, seni arshi a'loga olib chiqadigan sirni bilsang, axir, bundan ham og'ir azob bormi?! Nazoratchilarning xo'rlashlari-yu haqoratlari, kaltaklariga chidasang, yeganing quruq guruch-u, ichganing suv bo'lsa, u yoqda, ozodlikda seni behisob boylik kutib yotsa, jinni bo'lib qolish, joniga qasd qilish hech gap emasdi, lekin men o'lguday qaysar edim, tishimni tishimga qo'yib, baxtli onlarimni kutdim.

Mana, nihoyat kutilgan kun kelganday bo'ldi. Agradan bizni Madrasga, u yerdan esa Andaman orollariga, Port-Blerga olib ketishdi. Yangi qamoqxonada oq tanlilar juda oz edi, men birinchi kundanoq sipo yurganim uchun hademay ancha imtiyozga ega bo'ldim. Menga Xoptaunda kichkina hujrani ajratib berishdi. Xoptaun – bu Xarriet tog'lari etagidagi kichkina qishloq edi, ba'zi-ba'zida o'z ixtiyorim o'zimda bo'lardi. Bezgakning koni, rasvo joy edi; orollarda, devor bilan aylantirib olingan katorgachilar qishlog'ining narigi tomonida odamxo'r qabilalar yashardi. Qulay payt keldi deguncha, zaharlangan o'q-yoylarini mahbuslarga otish ularning ermagi edi. Biz chuqurlar qazirdik, kanalizatsiya o'tkazardik, batat<sup>28</sup> plantatsiyalarida ishlardik, boshqa ishlar ham ko'p edi, xullas, ertadan kechgacha tinmasdik, tun esa o'z ixtiyorimizda edi.

Men boshqa ishlardan tashqari doktorimizga dori-darmon tayyorlab berishni o'rgandim, uning ilmidan ba'zi bir narsalarni o'rganib olishga urinardim.

Doimo sergak edim – qochishga payt poylardim. Lekin Andaman orollari eng yaqindagi yerlardan yuz mil uzoqlikda edi, o'sha kengliklardagi dengizlarda shamol kuchsiz bo'lardi yo umuman esmasdi. Bu yerdan qochib ketish amrimahol edi.

Doktor Sommerton yosh, xushchaqchaq, dilkash yigit edi. Yoshroq ofitserlar kechalari uning xonasida to'planishib, qarta o'ynashardi.

---

<sup>28</sup> Batat – janub o'simligining bir turi, uning kartoshka ta'mli shirin ildiz mevasi bo'ladi.



Men, odatda, dori tayyorlaydigan qabulxona shunday mehmonxonaga tutash edi, xonalar oraliq'idagi devorda kichkina darcha ham bor edi. Ko'pincha, ko'nglim g'ash bo'lgan paytlarda qabulxonadagi lampani o'chirardim-da, o'sha derazadan mo'ralab, ularning o'yinini kuzatardim, gap-so'zlariga quloq solardim. Men qarta o'ynashni yaxshi ko'rardim, lekin bu o'zim bilan o'zim o'ynash degan gap edi. Uning xonasida, odatda, mayor Sholto, kapitan Morsten, leytenant Bromli Braun, shu yerlik qamoqxona soqchilarining boshlig'i, doktorning o'zi, yana qamoqxona amaldorlaridan bir-ikkitasi, tajribali qartabozlar to'planihardi, ular qartani juda bilib, yutqizishlarsiz o'ynashardi. Ahil ulfatlar yig'ilishardi.

Hademay bir narsaga e'tibor berdim: harbiylar doimo yutishar, amaldorlar esa nuqul yutqazishardi. Men, ular halol o'ynashmasdi, demoqchi emasman, yo'q. Lekin negadir doimo shunday bo'lardi. Andaman orollariga tushib qolgan bu qamoqxona kalamushlari qartadan boshqa hech nima bilan shug'ullanishmasdi, o'ynashgani-o'ynashgan edi, ular sheriklarining odatlarini yaxshi bilishardi, o'ylab, jiddiy o'ynashardi, harbiylar uchun esa vaqt o'tsa bo'lgani edi. Harbiylar kun sayin ko'proq yutqazadigan bo'lishdi, yutqazgan sayin qaytarib yutib olish uchun yana o'yinga o'tirishardi. Eng ko'p mayor Sholto yutqazardi. U avvaliga naqd – tilla yoki banknotlar bilan to'lardi, keyinchalik yirik pulga tilxat beradigan bo'ldi. Ba'zida u jindek yutgan bo'lardi, menimcha, uning ko'nglini ko'tarish

uchun bu ataylab qilinardi. Keyin yana omadi ketib, ustma-ust yutqaza boshlardi. Kuni bilan qovog'idan qor yog'ib, tumshayib yurardi, hatto sog'lig'i ko'tarmasa ham jindek-jindek otadigan bo'ldi.

Bir kuni u juda kattaga tushdi. Mayor kapitan Morsten bilan shirakayf, gendiraklab uylariga qaytayotganida men hujramda o'tirgan edim. Ular qalin do'st edilar, hech ajralishmasdi. Mayor yutqizganini kuyib-pishib gapirardi:

– Bo'ldi, hammasi tamom, Morsten, – dedi u.  
– Men adoyi tamom bo'ldim. Iste'foga chiqishdan boshqa choram qolmadi.

– Bema'ni gapingni qo'y, og'ayni! – deb xitob qildi kapitan, og'aynisining yelkasiga shapati-lab urarkan. – Mening ahvolim ham senikidan yaxshi emas, lekin...

O'shanda eshitgan gaplarim shu bo'ldi, lekin mayorning gaplari meni juda o'ylantirib qo'ydi.

Ikki kundan keyin mayor Sholtoni sohil bo'yida uchratdim, aylanib yurgan ekan, u bilan bir-ikki og'iz gaplashmoqchi bo'ldim.

– Siz bilan maslahatlashmoqchiman, – dedim.

– Eshitaman, Smoll. O'zi nima gap? – deb so'radi u, sigarasini og'zidan olarkan.

– Bilmaysizmi, – deb boshladim, – yashirib qo'yilgan xazinani rasmiy kishilardan qaysi biriga ma'lum qilishim kerak? Yarim million funtning qayerdaligini bilaman, modomiki, ulardan o'zim foydalana olmas ekanman, yaxshisi, hukumatga topshirsam bo'lmaydimi, deb o'yladim. Ehtimol, uning evaziga qamoq muddatini kamaytirishar.

– Yarim million dedingmi, Smoll? – mayorning hatto nafasi qaytib, gaplarimning jiddiymi, yo‘qmi ekanligini bilmoqchi bo‘lganday menga tikilib qaradi.

– Ha, hammasi qimmatbaho toshlar-u, dur va marvaridlar. Ular shunchaki foydalanilmay yotibdi. Bundan hech kimning xabari yo‘q. Ularning egasi – katorgachi, qonundan tashqari odam. Demak, ularni kim birinchi bo‘lib topsa, o‘shaniki.

– Ular hukumatniki, Smoll, – dedi mayor, ovozi biroz o‘zgarib, – ha, ular hukumatga tegishli, boshqa hech kimga.

Lekin u bu gapni shu qadar ikkilanib, tutilib-tutilib aytdiki, mayorning tuzoqqa ilinganini tushundim.

– Demak, siz, ser, bu qimmatbaho buyumlar to‘g‘risida general-gubernatorga ma‘lum qilishimni maslahat berasizmi? – dedim, o‘zimni soddalikka olib.

– Shoshilish kerak emas, Smoll, keyin yana pushaymon bo‘lib o‘tirmagin. Hammasini menga batafsil gapirib ber. To‘g‘ri javob berishim uchun hammasini ipidan-ignasigacha bilishim kerak.

Men unga bor voqeani gapirib berdim, buning qayerda yuz berganini fahmlab qolmasligi uchun ba‘zi bir joylarini o‘zgartirdim. Hikoyamni tugatganimdan keyin u xuddi qoqshol bo‘lgan odamday anchagacha serrayib qoldi, o‘yga toldi. Lablarining qimirlashidan ko‘nglida qanday kurash ketayotganini bilib turardim.

– Bu juda muhim ish, – dedi u nihoyat. – Bu xususda hech kimga og‘iz ochma. Men hademay qaytib kelaman. Ana o‘shanda bafurja gaplashamiz.

U oldingga ikki kundani keyin yarim kechada kapitan Morsten bilan birga keldi.

– Smoll, men istardimki, kapitan Morsten bu voqeani o'z og'zingdan eshitsa, – dedi mayor.

Men mayorga aytganlarimni so'zma-so'z takrorladim.

– Hammasi to'g'riga o'xshaydi-ya? – deb so'radi u kapitandan. – Masalan, men ishongan bo'lardim.

Kapitan Morsten hech nima demay boshirg'adi.

– Menga qara, Smoll, – deb gap boshladi mayor.

– Biz kapitan ikkovimiz hammasini muhokama qilib, bu ishga general-gubernatorning mutlaq aloqasi yo'q, degan xulosaga keldik. Bu sening shaxsiy ishing, o'z bilganingcha ish tutishing mumkin.

Lekin sendan bir narsani so'ramoqchi edim – shu xazinangga qancha pul so'raysan? Biz uni olib kelishimiz, juda bo'lmasa, uning qo'ldan chiqib ketmasligining chorasini ko'rishimiz mumkin edi. Shartlarini kelishib olsak, albatta.

U sovuqqonlik bilan beparvo gapirardi-yu, lekin ko'zlari hayajon va ochko'zlikdan chaqnardi.

– Bilasizmi, jentlmenlar, – deb javob qildim. O'zim ham xotirjam gapirishga urinib, lekin hayajonimni arang bosib turardim. – Mening ahvolimdagi odam uchun bir narsa kerak – ozodlik. Qo'yadigan shartim shu. O'zim ham, do'stlarim ham ozod bo'lishimiz kerak. Ana o'shanda sizlarni o'zimizga sherik qilib olamiz, xazinani teng qilib beshga bo'lamiz. Siz ikkovingiz beshdan bir qismini olasiz.

– Hm, beshdan birini deng? – ming'illadi mayor. – Bu oz-ku.

– Har odamga ellik ming funt sterling, – dedim.

– Lekin biz sizlarni qanday bo‘shatishimiz mumkin? Iloji yo‘q narsani talab qilayotganingni o‘zing ham yaxshi bilasan.

– Hecham-da, – deb javob qildim. – Hammasi mayda-chuydasigacha puxta o‘ylangan, qochishga faqat bir narsa xalaqit beryapti – uzoq suzishga yaraydigan qayiq bilan bir necha kunga yetadigan ovqat yo‘q. Kalkutta bilan Madorasda bizbop qayiqni topish qiyinmas. Sizlar uni bu yerga olib kelasizlar. Kechasi yo‘lga chiqamiz, agar bizni hind sohilining istagan joyiga olib borib qo‘ysalaring, o‘z ulushingizni oldim, deb hisoblayveringlar.

– Bir o‘zing bo‘lganda edi, – dedi mayor.

– To‘rtovimiz ketamiz yoki hech kim ketmaydi, – dedim. – Biz bir-birimizga xiyonat qilmaslikka, doimo birgalikda ish ko‘rishga ont ichganmiz.

– Bilasizmi, Morsten, – dedi mayor. – Smoll so‘zining ustidan chiqadigan odam. U do‘stlarini tashlab qo‘ymaydi. Unga ishonsak bo‘ladi.

– Bu jirkanch ish, – dedi kapitan. – Lekin siz bir narsada haqsiz, ha, pul ofitserlik or-nomusimizni saqlab qoladi.

– Bo‘pti, Smoll, – dedi mayor. – Biz iltimos qilgan narsangni topishga urinib ko‘ramiz. Lekin biz avvaliga hamma gaplaringning to‘g‘riligiga qat‘iy ishonch hosil qilishimiz kerak, albatta. Qani, aytchi, o‘sha xazinalar qayerga yashirilgan. Men bir oylik ta‘til olib, oziq-ovqat tashiydigan kemada Hindistonga jo‘nayman.

– Shoshmang, sabr qiling, – dedim u haya-jonlangan sayin o‘zimni xotirjam tutishga uri-

nib. – Men do'stimning roziligini olishim kerak. Axir sizlarga: to'rtovimiz qochamiz yo hech kim qochmaydi, dedim-ku.

– Bema'ni gap! – deb xitob qildi mayor. – Bu qora yaloqlarning bizning jentlmenlarcha kelishuvimizga nima aloqasi bor.

– Qorami yo ko'kmi, – dedim men, – baribir ular mening do'stlarim, hech qachon bir-birimizni tashlamaslikka qasam ichganmiz.

Ish ikkinchi uchrashuvda, Muhammad Singx, Abdulla Xon va Do'st Akbar ishtirokida uzil-kesil hal bo'ldi. Biz yana bir bor muhokama qilib, quyidagi qarorga keldik: biz mayor Sholtoga ham, kapitan Morstenga ham Agra qal'asining xazina yashirilgan qismining loyihasini beramiz. Mayor Sholto hikoyamning to'g'riligiga qanoat hosil qilish uchun Hindistonga boradi. Agar sandiqcha joyida turgan bo'lsa, u kichikroq kema bilan oziq-ovqat sotib oladi-yu, Rotlend oroliga qarab suzadi, biz uni o'sha yerda kutib olamiz. Keyin yana o'z ishiga qaytib keladi. Oradan sal vaqt o'tgach, kapitan Morsten ta'tilga chiqadi. Biz uni Agrada kutib olamiz, xazinani bo'lishamiz. U o'zining ulushini, mayorning ulushini olib Andaman orollariga qaytib keladi. Biz shu rejani qabul qilib, har qanday balo-qazo yopirilganda ham uni buzmaslikka ont ichdik. Men kechasi bilan yozib-chizib chiqdim, saharga «to'rtlar belgisi», ya'ni Abdulla, Akbar, Muhammad va men imzo chekkan ikki reja tayyor bo'ldi.

Lekin men uzundan uzoq hikoyam bilan sizlarni ancha charchatib qo'ydim, shekilli, jentlmenlar,

ko'rib turibmanki, mister Jonson meni tezroq qamoqqa tiqsa, sabri chidamayapti. Qisqaroq qilishga urinaman. Mayor Sholto Hindistonga jo'nab ketdi, shu-shu Andaman orollariga qaytib kelmadi. Oradan ko'p o'tmay kapitan Morsten Angliyaga ketgan paketbot<sup>29</sup> yo'lovchilarining ro'yxatidagi uning ismini menga ko'rsatdi. Ma'lum bo'lishicha, amakisi qazo qilgach, unga ancha meros qoldirgan ekan, shundan keyin u iste'foga chiqibdi. U bizni endi hech qachon ko'rmasam kerak, deb o'ylagan ekan. Axir, u qabihlik qildi-da – hammamizga, shu jumladan, do'stiga ham xiyonat qildi. Morsten o'shandan keyin ko'p vaqt o'tmay Hindistonga borib keldi, sandiqchani yashirilgan joyidan topmadi, albatta, ablah uni o'g'irlab ketgandi. Yashirilgan joyni aytganimizda qo'ygan shartlarimizni buzdi. O'sha kundan buyon men qasos o'tida yonaman. Erta-yu kech shu haqda o'yladim. Birdan bir niyatim Sholtodan o'ch olish edi. Hech nimadan – na suddan, na dordan qo'rqardim. Nima qilib bo'lsa ham qochishim, Sholtoni topishim, mana shu qo'lim bilan uni bo'g'izlashim kerak edi – faqat shuni orzu qilardim. Sholtoning jazosini berish ishtiyoyi menda shu qadar kuchli ediki, hatto Agra xazinasi ham ko'zimga ko'rinmay qolgandi.

Hayotimda juda ko'p narsani niyat qilganman, doimo niyatimga yetganman, hamisha ishim o'ngidan kelardi. Lekin taqdir menga kulib boqquniga qadar oradan yana ko'p fayzsiz, bir xildagi

---

<sup>29</sup> Paketbot – pochta yuklarini, yo'lovchilarni tashiydigan dengiz paroxodi.

yillar o'tdi. Tibbiyotdan ancha-muncha narsa o'rganimni ham aytib o'tgandim. Bir kuni doktor Sommerton bezgagi xuruj qilib, alahsirab yotganida, mahbuslar o'rmonda yerli uvoqqina bir odamni olib kelishibdi. Uning kasali juda og'ir bo'lib, o'lgani o'rmonga ketgan ekan. U ilonday zahrini sochib tursa ham, qo'limga ko'tarib oldim. Uni ikki oy davoladim, buni qarangki, oyoqqa turg'izdim. U menga juda o'rganib qolgandi, aftidan, o'rmonga qaytmoqchi emasdi, chunki erta-yu kech kulbam oldida sandiraqlab yurardi. Uning tilidan besholti so'zni o'rganib oldim, menga yana ham ixlosi ortdi. Tonga ismli bu odam ajoyib dengiz sayyohi edi. Uning katta, keng kanoe<sup>30</sup>si bor edi. Menga mehr qo'yib, meni deb o'zini o'tga ham, suvga ham urishga tayyor ekanini ko'rganimdan keyin qochish to'g'risida jiddiy o'ylay boshladim. Ikkovimiz bir reja o'ylab qo'ydik. U kechasi qayig'ini eski, qo'riqlanmaydigan, tashlandiq pristanga olib kelib, meni o'sha yerdan olib ketishi kerak edi. Unga bir necha qovoq shishada chuchuk suv, batat, kokos yong'og'i, shirin kartoshkadan ko'proq olishni buyurdim.

Kichkina Tonga sodiq, ishonchli do'st edi. Bunaqa do'st hammaga ham nasib etavermaydi. Kelishganimizday u kechasi qayig'ini pristanga olib keldi, lekin kelib-kelib o'sha kechasi soqchi qo'yishsa bo'ladimi, bir afg'on qo'riqlardi, u imkoni keldi deguncha meni haqoratlar, kaltaklardi. Undan alamimni olaman deb ont ichgandim,

---

<sup>30</sup> Kanoe – erkin eshkakli yengil sport qayig'i.



mana, o'rne keldi. Undan o'chini olsin deb taqdir jo'rttaga umrimning oxirida meni u bilan sohilda uchrashtirgandi. U sohilda karabinini yelkasi-ga osganicha menga orqasi bilan turardi. Urub miyasining qatig'ini chiqarish uchun atrofdan tosh qidirdim, lekin topolmadim. Ana o'shanda miyamga vahshiyona bir fikr keldi, men uchun nima qurol bo'lishini tushundim. Qorong'ida yerga o'tirdim-da, yog'och oyog'imni yechib oldim. Uch marta katta-katta sakradim-da, o'zimni uning ustiga otdim. U karabinini qo'liga olib, yelkasiga tirashga ulgurdi, lekin men yog'och oyog'imni qulochkashlab turib boshiga tushirdim, bosh suyagini majaqlab yuboribman. Yog'och oyog'im urgan joyida o'yiqliq qolibdi. Ikkovimiz ham yiqildik, chunki men muvozanatni saqlab turolmadim. O'rnimdan turib qarasam, u qimir etmay yotibdi. Shosha-pisha qayiq oldiga keldim, bir soat o'tar-o'tmas biz sohildan ancha uzoqlashib ketgandik. Tonga o'zining hamma lash-lushlarini, hamma qurollarini olib olgandi. Har xil buyumlar orasi-dan bambuk nayzasi bilan kokos palmasidan to'qilgan bir nechta bo'yroni topdim, ulardan yelkanga o'xshash bir narsa yasadim. Dengizda o'n kun izg'ib yurdik, o'n birinchi kuni malayyalik ziyoratchilarni Singapurdan Jidga olib ketayotgan savdo kemasi bizni chiqarib oldi. Ziyoratchilar xilma-xil odamlar edi, Tonga ikkovimiz hademay ular orasida ko'rinmay ketdik. Ularning ajoyib bir xislati bor ekan – savol berishmas, so'rab-suriishtirmas ekan.

Agar kichkina og'aynim ikkovimizning boshimiz-dan kechgan hamma sarguzashtlarni birma-bir

hikoya qiladigan bo'lsam, sizlar mendan minnatdor bo'lmaysizlar, chunki hikoyam ertalabgacha ham tugamaydi. Taqdir bizni qayerlarga tashlamadi! Lekin qancha urinmaylik, Londonga borolmadik. Ovorayi jahon bo'lib yurganimizda asosiy maqsadimni bir zum ham unutganim yo'q. Sholto kechalari tushlarimga kirib chiqardi. Tushimda uni necha-necha bor o'ldirdim. Nihoyat uch yoki to'rt yildan keyin biz Londonga borib qoldik. Sholtoning qayerda turishini osongina bilib oldim. Keyin xazinaning nima bo'lganini so'rab-surishtirdim, aniqladim. Uning xonadonidagilardan bittasi bilan og'ayni bo'lib oldim. Ismini aytmayman, yana bitta-yarimtaning avaxtada chirib ketishini istamayman. Hademay xazinaning bus-butunligini, u Sholtoning qo'lida ekanligini bildim. Ana shundan keyin unga qanday hamla qilish to'g'risida o'ylay boshladim. Lekin Sholto o'lguday ayyor edi. U ikki professional bokschini doimo darvozabon qilib qo'yardi, o'g'illari, hindi xizmatkori ham hamisha uning oldida bo'lishardi.

Uning o'lim to'shagida yotganini eshitdim-u, oyog'imni qo'limga olganimcha Pondisheri-Lojga qarab chopdim: nahotki, u mendan shu tariqa qutulib ketsa? U o'rnida yotar, ikki o'g'li ikki tomonida edi. Qonim qaynaganidan uchoviga birdaniga tashlanishimga sal qoldi, keyin unga qaradim – u meni derazadan ko'rdi, jag'i osilib tushgandi, mayor Sholtoning kuni bitganini, bu yorug' dunyo bilan xayrlashayotganini fahmladim. O'sha kuni kechasiyoq yotoqxonasiga tushib, hamma qog'ozlarini titkilab qarab chiqdim – xazi-

nalarimizni qayerga yashirib qo'ygani ko'rsatuvchi biror yo'l-yo'riq qidirardim. Lekin hech nima topolmadim. Shu payt xayolinga bir fikr keldi: mayorning xonasida bizning qahr-g'azabimizni ifodalovchi bir belgi qoldirganimni sikk do'stlarim bilan vaqti kelib uchrashganimda gapirib bersam, ular xursand bo'lishadi, deb o'yladim. Bir parcha qog'ozga xaritalarimizdagiday «to'rtlar belgisi» deb yozdim-da, uni marhumning ko'ksiga qadab qo'ydim. O'zi aldagan va talagan o'sha to'rt odamni u go'rida ham eslab yotsin.

Yarmarkama-yarmarka yurib, bechora Tonga topgan pulga tirikchilik qilardik, u pul uchun bor hunarini ko'rsatardi. Qora odamxo'r olomon oldida xom go'sht yer, jazavaga tushib o'yin ko'rsatardi. Kun oxiriga borib bir shapka tanga yig'ilib qolardi. Men hamon Pondishi-Loj bilan aloqa qilib turardim, lekin u yoqdan hech qanday yangilik olmadim. Men faqat o'g'illarining zo'r berib xazinani qidirishayotganini bilardim. Nihoyat, biz orziqib kutgan xabar keldi. Xazina topilibdi. U Bartolomyu Sholto kimyo laboratoriyasining shifti tepasida, chordoqda ekan. Men tezda o'sha yerga borib, hammayoqni ko'zdan kechirdim. Yog'och oyog'im bilan u yerga chiqolmasligimni bildim. Lekin tomda tuynuk borligini, shuningdek, mister Sholtoning pastda ovqatlanishini bilib oldim. Tonganing ko'magida hammasini osongina qilsa bo'ladi, deb o'yladim. Uni birga olib bordim-da, ehtiyot shart olib kelgan arqonni belidan aylantirib bog'ladim. Tonga xuddi mushukday chaqqon o'rmaladi. Hash-pash

deguncha tomga chiqib oldi. Lekin baxtga qarshi mister Bartolomyu Sholto hali ham xonasida edi, xuddi shu narsa uning boshiga yetdi. Tonga, uni o'ldirib, juda yaxshi ish qildim, deb o'ylardi. Men arqondan tirmashib chiqibm, xonaga tushganimda u xuddi xo'rozday gerdayib u yoqdan-bu yoqqa yurardi. Uni qonxo'r iblis deb atab, arqonning bir uchi bilan savalay boshlaganimda Tonga juda hayron bo'ldi. Keyin men javohirlar solingan sandiqchani oldim-da, pastga tushirdim, so'ng o'zim ham tushdim, bir parcha qog'ozga «to'rtlar belgisi» deb yozib, uni stol ustida qoldirdim. Men qimmatbaho buyumlar nihoyat o'z qonuniy egasini topganini ko'rsatmoqchi edim. Tonga arqonni tortib olib, derazani berkitdi-da, tomdan qanday kelgan bo'lsa, shunday yurib ketdi.

Bilmadim, hikoyamga yana nimalarni qo'shishim mumkin. Men qandaydir qayiqchi Smitning «Avrora» kateri tezyurarligini maqtashganini eshitgandim. Bizga xuddi shu narsa kerak, deb o'yladim. Men katta Smit bilan kelishib, katerni ijaraga oldim-da, agar u bizni Braziliyaga jo'nayotgan kemaga sog'-salomat yetkazib qo'ysa, yaxshi haq to'lashga va'da berdim. U bu yerda qandaydir palidlik borligini fahmlab turardi, albatta, lekin Norvud qotilligining sir-u asrorlaridan bexabar edi. Sizlarga nimaniki gapirgan bo'lsam, jentlmenlar, bari haqiqat, men buni sizlarni ovutish uchun qilganim yo'q: sizlar menga yordam bermadilaring, binobarin, men uchun birdan-bir najot – to'g'risini gapirib berish, mayor Sholto meni aldaganini, o'g'lining

o'limida hech qanday aybim yo'qligini butun dunyo bilib qo'ysin.

– Ajoyib voqea, – dedi Sherlok Xolms. – Ajoyib ishning yakuni ham shunga yarasha bo'ldi. Hikoyangizning ikkinchi qismida, o'sha o'zingiz bilan birga olib kelgan arqonni demasa, men uchun hech qanday yangilik yo'q. Men buni bilmasdim. Ha, aytmoqchi, men Tonga hamma tikanlarini yo'qotgan bo'lsa kerak, deb o'ylagandim. U bizga qarata yana bittasini otdi.

– Bu o'sha, trubkada qolgani. Boshqalarini u yo'qotib qo'ydi.

– Ha, tushunarli, – dedi Xolms. – Qarang, shu narsa xayolimga kelmabdi-ya.

– Yana boshqa savollaringiz bormi? – deb so'radi asirimiz.

– Yo'q, rahmat, boshqa savolimiz yo'q, – deb javob qildi do'stim.

– Menga qarang, Xolms, – dedi Etelni Jons. – Siz ko'nglingizni har qancha olsak arziydigan odamsiz. Hammaga ma'lumki, jinoyatlarni ochish borasida sizga teng keladigan yo'q. Lekin burchburch-da, sizning va do'stingizning ko'ngliga qarab shunday ham tartib-qoidani ko'p buzdim. Agar bu hikoyachimizni ishonchli joyga joylashtirolsam, o'zimni ancha xotirjam sezardim. Ikki g'ildirakli arava haliyam kutib turibdi, pastda ikki polismen o'tiribdi. Yordamingiz uchun sizdan, do'stingizdan juda minnatdorman. Siz sudda bo'lishingiz kerak, albatta. Xo'p, yaxshi yotib turing.

– Xayrli tun, jentlmenlar, – dedi Smoll.

– Sen birinchi bo'lib chiq, Smoll, – dedi Jons ehtiyotkorlik bilan xonadan chiqayotganlarida.

– Yog‘och oyog‘ing bilan Andaman orolidagidek boshimga tushirib qolishingni istamayman.

– Mana, kichik fojiamiz ham nihoyasiga yetdi, – dedim biroz vaqt jim turganimizdan keyin. – Xolms, uslubingizni so‘nggi bor o‘rganayotgan bo‘lsam kerak, deb qo‘rqaman. Miss Morsten iltifot ko‘rsatib, menga turmushga chiqishga rozi bo‘ldi.

Xolms ingrab yubordi.

– Men shundan juda qo‘rqardim! – dedi u. – Yo‘q, men sizni tabriklay olmayman.

– Nima, men tanlagan qiz sizga yoqmadimi? – deb so‘radim biroz ranjib.

– Yoqadi. Shuni aytishim kerakki, miss Morsten ajoyib, dilbar qiz, ishlarimizda bizga chinakam yordamchi bo‘lishi mumkin. Shak-shubhasizki, buning uchun unda hamma xislatlar bor. E‘tibor berdingizmi, u birinchi kuniyoq otasining hamma qog‘ozlari orasidan bizga xuddi o‘sha Agra qal‘asining loyihasini olib keluvdi. Lekin sevgi – bu qalb, ehtiros demak, u aql-idrok izmiga yurmaydi. Men esam, o‘zingiz bilasizki, aql-idrokni hamma narsadan yuqori qo‘yaman. O‘zimga kelsak, aql-zehnda o‘tkirlikni yo‘qotmaslik uchun hech qachon uylanmayman.

– Umid qilamanki, – dedim kulimsirab, – aqlim bu sinovdan o‘tar, oqsamas. Lekin siz, Xolms, yana juda horg‘in ko‘rinasiz.

– Ha, reaksiya boshlandi. Endi butun hafta siqib tashlangan limonday lanj bo‘lib yuraman.

– Agar gap boshqa odam haqida ketganda men buni yalqovlik deb atagan bo‘lardim, qiziq, sizda mana shu ishyoqmaslik o‘ta faollik, ishchanlik bilan dam-badam almashinib turadi.

– Ha, – dedi u, – menda o‘taketgan tanbal bilan ashaddiy urishqoq odamga xos xislatlar chatishib ketgan. Men Gyotening: «Afsuski, tabiat sendan atigi bir odam yaratgan: ham taqvodor, ham razilni yaratish uchun senda material yetarli edi», – degan so‘zlarini tez-tez eslayman. Ha, aytmoqchi, Norvud voqeasi xususida yana shuni aytishim kerakki, men taxmin qilganimcha, uyida chindanam yordamchi bor ekan. Ha, bu o‘sha eshik og‘asi Lal Raoning o‘zi ekan. Xullas, ularning kattasini qo‘lga tushirishda Jonsning xizmatini taqdirlash kerak.

– Yutuqni taqsimlashda adolatsizlik bo‘lyapti-da, – dedim men. – Bularning hammasi sizning xizmatingiz. Xo‘sh, mana men, xotinlik bo‘ldim. Bor shon-shuhrat, obro‘-e‘tiborni Jons olib ketdi. Xo‘sh, sizga nima qoladi?

– Mengami? – dedi Xolms. – Menga – kokain solingan shishacha.

U shunday dedi-da, ingichka oq qo‘lini quti-chaga cho‘zdi.

## **BASKERVILLAR ITI**

### **I BOB**

#### **Mister Sherlok Xolms**

Mister Sherlok Xolms stol yonida nonushta qilib o'tirardi. Uning kechalari yotib uxlashga vaqti bo'lmagan kamdan-kam hollarni hisobga olmaganda, odatda, juda kech yotar edi. Men kamin oldidagi gilamchada o'tirib, kecha uyimizga kelib ketgan kishi unutilib qoldirgan hassani qo'limda o'ynatib turardim. Boshi qayrilgan, bejirim bu yo'g'on hassa – «rad etib bo'lmas dalil» deb ataladigan buyumlarning biri. Hassaning tutqichidan sal pastroq joyiga eni bir duymcha bo'lgan kumush plastinka yopishtirib qo'yilgan. Shu plastinkaga: «Jeyms Mortimerga. CH. K. X. O., uning CHKL dagi do'stlaridan» degan so'zlar va «1884» raqamlari yozilgan edi. Ilgari vaqtlarda boylar huzuridagi mo'tabar shifokorlar mana shunday savlatli, salmoqdor pishiq hassa ko'tarib yurishardi.

– Xo'sh, Uotson, siz bu hassa to'g'risida nima deysiz?

Xolms menga orqasini o'girib o'tirgani uchun qo'limda hassani o'ynatayotganimni sezgan bo'lsa kerak, deb o'ylagan edim.

– Siz nima qilayotganimni qayerdan bildingiz? Orqangizda ham ko'zingiz bormi, deyman!

– Ko'zim yo'qlikka yo'g'-a, ammo oldimda qahva qaynatadigan, yaltiratib tozalangan choynak turibdi, – deb javob berdi Xolms. – Uni-buni qo'ying, Uotson, kechagi kishi esidan chiqarib qoldirgan hassa to'g'risida nima deysiz? Ikkimiz



ham o'zimiz bilan ovora bo'lib, uning nima uchun kelganini surishtirmabmiz ham. Modomiki, buni bilolmagan ekanmiz, tasodif tufayli qoldirib ketilgan mana shu buyumga alohida e'tibor berishimiz kerak bo'ladi. Hassaning u yoq-bu yog'ini qarab, yaxshilab tekshirib ko'ring-da, shunga qarab uning egasi kimligini menga aytib bering, qulog'im sizda.

Oshnamning uslubi bilan tasavvur qilishga kuchim boricha urinib, gap boshladim:

– Menimcha, o'sha doktor Mortimer o'zi o'rta yoshlardagi, omadi kelgan tibbiyotchilardan bo'lsa kerak, buning ustiga uni hamma hurmat qilsa kerak, chunki do'stlari unga shunday savlatli hassa taqdim qilishibdi.

– Yaxshi! Juda soz! – dedi Xolms.

– Yana buning ustiga, chamamda, u qishloq shifokori bo'lsa kerak, binobarin, u uzoq masofalarni piyoda bossa kerak.

– Qayoqdan bildingiz?

– Hassaning o'zi aytib turibdi, chunki aslida juda bejirim bo'lgan bu hassa ishlatilaverib sip-silliq bo'lib ketibdi, shahar shifokori qo'lidagi hassa bunaqa bo'lmasa kerak, deb o'ylayman. Hassaning uchiga qoplangan qalin temir ham juda siyqalanib qolibdi, doktor Mortimer bu hassa bilan juda ko'p yo'l bosgan bo'lsa kerak.

– Fikringiz juda to'g'ri, – dedi Xolms.

– Yana buning ustiga hassaga «ChKL» dagi do'stlaridan» degan so'zlar yozilgan. «KL» harflari, chamamda, klubning, to'g'rirog'i, ovchilar klubining nomini bildiradi, u ovchilarga hamisha tibbiy yordam ko'rsatib tursa kerak, shuning uchun

ham, unga mana shu kichkina sovg'ani tortiq qilgan bo'lishlari mumkin.

– Uotson, bu fikrlaringizga qoyilman, – dedi Xolms va kursiga suyanib, papiros chekishga tutindi. – Shuni aytishim kerakki, siz menga iltifotingiz zo'rligidan arzimas xizmatlarimni bo'rttirib gapirasiz, ammo o'zingizning imkoniyatlaringizni ko'pincha kamsitib ko'rsatasiz. Garchi, o'zingizdan yorug' nur yog'ib turmasa ham, sizni, har holda, nur o'tkazuvchi desa bo'ladi. Iste'dodi bilan hammani qoyil qilmasa ham, lekin o'zini behisob qobiliyatlari bilan boshqalarning iste'dodini ishga soladigan kishilar oz emas! Menga qilgan xizmatlaringizni to'la ado etolmayman, azizim.

Xolmsdan sha'nimga aytilgan bunaqa gaplarni birinchi marta eshitishim edi, shuni aytishim kerakki, uning bu gaplari meni g'oyat xursand qildi, chunki uning ishlash uslublarini yozib, ko'pchilikka ayon qilish uchun har qancha urinsam ham, bu harakatimga Xolmsning beparvolik bilan qarashi necha martalab jig'imga tekkan edi. Bundan tashqari, men Xolmsning uslubini egallab olishga muvaffaq bo'libgina qolmasdan, shu bilan birga, bu uslubni amalda qo'llab, buning uchun do'stimning tahsiniga sazovor bo'lganligim bilan faxrlanar edim.

Xolms qo'limdan hassani olib, unga bir necha daqiqa tikilib qoldi, so'ngra nimagadir, juda qiziqqan bo'lsa kerak, qo'lidagi papirosni bir chekkaga qo'yib, derazaning oldiga bordi va hassaga endi lupa orqali qaray boshladi.

– Nimaligini Xudo biladi-yu, ammo juda ham diqqatga sazovor, – dedi u divan burchagidagi o‘zi yaxshi ko‘rgan joyga qaytib kelib. – Bunda, hech shubhasiz, ba’zi bir ma’lumotlar bor, bu ma’lumotlar ba’zi xulosalar chiqarishimiz uchun bizga asos bo‘la oladi.

– Nahotki, men biror narsani ko‘zdan qochirgan bo‘lsam? – deb so‘radim biroz mag‘rurona tusda. – Biror jiddiy narsani ko‘zdan qochirmagan bo‘lsam kerak, deb o‘ylayman.

– Afsuski, xulosalaringizning ko‘p qismini xato deyishga to‘g‘ri keladi, azizim Uotson. Siz aqlimni ishlatishimga sababchi bo‘lasiz, deb aytdim-ku: siz yo‘l qo‘ygan xatolar ba‘zan mening yo‘l topib olishimga yordam beradi. Ammo bu safargi xatolaringiz unchalik katta emas. U kishi shahar shifokori emasligi turgan gap, albatta, uning uzoq masofalarga piyoda qatnayotgani ham to‘g‘ri.

– Demak, men haq ekanman-da!

– Bir jihatdan haqsiz.

– Hamma gap shunda emasmi?

– Yo‘q, yo‘q, azizim Uotson, hamma gap aslo shunda emas. Menimcha, masalan, shifokor bunday tortiqni ovchilar klubidan emas, balki biror shifoxonadan olgan bo‘lishi mumkin, shifoxona nomi oldida «ChK» harflari turgani esa bu harflar «Chering-kross» degan nomni ifodalayotgani o‘z-o‘zidan sezilib turibdi.

– Ehtimol, gapingiz to‘g‘ridir.

– Shunday deb xulosa chiqarmoq uchun hamma asoslar bor. Agar biz ishimizni davom ettirmoq uchun men qilgan shu taxminni asoslab oladigan

bo'lsak, bizga noma'lum bo'lgan mazkur kishining aslida kimligini bilib olmoq uchun qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

– Yaxshi. «ChKL» degan harflar «Chering-kross shifoxonasi» deb taxmin qilaylik. Bu taxmindan yana qanday xulosalar chiqarsa bo'ladi?

– Miyangizga hech narsa kelmayaptimi? Siz mening uslubimni bilasiz-ku. Shu uslubni bir ishlatib ko'ring-chi.

– Bundan chiqadigan boshqa xulosa shuki, u odam qishloqqa ketmasdan oldin Londonda shifokor bo'lib ishlagan.

– Xo'sh, xulosamizni davom ettirib, sal nariroq borsak-chi? Siz bu masalaga: «Nega unga shu hasani tortiq qilishgan ekan?» – degan savol nuqtayi nazaridan qarab ko'ring-chi? Uning do'stlari o'z hurmatlarini izhor qilmog'i uchun birgalashib shu tortiqni unga qachon berishibdi ekan? Doktor Mortimer xususiy shifokorlik kasbi bilan shug'ullanishga ahd qilib, shifoxonadagi ishdan bo'shab ketayotganida unga shu tortiqni berishgan bo'lsa kerak. Unga shunday tortiq berganlari endi bizga ma'lum. Shifoxonada ishlashdan voz kechib, qishloqda shifokorlik qilish payiga tushdi, deb taxmin qilaylik. U shifoxonadagi ishdan bo'shayotgan paytda unga mana shunday tortiq berishdi, deb xulosa chiqarsak, bu juda ham dadil xulosa bo'lmasmikin?

– Ehtimoldan uzoq emas.

– Endi shu narsaga ham e'tibor beringki, u shifoxonaning konsultanti tariqasida shtatli xizmatchi bo'lolmas edi, chunki Londonda shifokor-

lik qilib yaxshi tajriba orttirgan kishigina shahar shifoxonasida shtatda turishi mumkin, bunday tajribali shifokor esa shahardan chiqib ketmas edi, deb taxmin qilaylik. Agar shunday bo'lsa, u shifoxonada kim bo'lib ishladi ekan? Basharti, u shtatdagi konsultant bo'lib ishlamagan bo'lsa, demak, u shifoxona huzurida kichikroq bir ishda, amaliyotchidan ko'ra sal kattaroq bo'lgan kurator<sup>31</sup>lik vazifasida ishlagan bo'ladi. Uning shifoxonadan ketib qolganiga besh yil bo'libdi – buni hassadagi mana bu raqamdan bilishingiz mumkin. Shunday qilib, azizim Uotson, u kishi siz o'ylaganingizdek boylarning uyida xizmat qiladigan yoshi ulug', basavlat shifokor emas, balki u o'ttiz yoshlar chamasidagi juda yoqimtoy, shuhrat ketidan quvmaydigan, faromushxotir, o'z itini juda yaxshi ko'radigan kishi bo'lsa kerak. Chamamda, uning iti tererdan kattaroq, lekin mastifdan kichikroq bo'lsa kerak.

Men ishonmaganday jilmayib qo'ydim, Sherlok Xolms esa divanga suyanib, papiros tutunini halqa-halqa qilib puflab o'tiraverdi.

– Gapingizdagi oxirgi moddaga kelganda buni tekshirib ko'rishning hech iloji yo'q, – dedim, – ammo bu odamning yoshi va vazifasi to'g'risidagi ba'zi bir ma'lumotlarni hozir qidirib ko'ramiz.

Men kitoblar turadigan kichkina javondan tibbiy ma'lumotnomani olib, undan kerakli familiyani topdim. Shu ma'lumotnomada Mortimer

---

<sup>31</sup> Kurator – klinikada bemorlarni kuzatib turuvchi kichik tibbiy xodim.

degan bir necha kishi haqida ma'lumot berilgan. Lekin qidirgan kishimning kimligini darhol bilib oldim va unga taalluqli so'zlarning hammasini Xolmsga o'qib berdim.

– «Mortimer Jeyms, 1882-yildan beri Qirol xirurgiya jamiyatining a'zosi. Grimpen, Dartmur, Devonshir grafligi, 1882-yildan to 1884-yilga qadar Chering-kross shifoxonasining kuratori. «Kasallikni atavizm<sup>32</sup> ning bir ko'rinishi deb hisoblab bo'ladimi?» degan asari uchun qiyosiy patologiya<sup>33</sup> bo'yicha Jekson mukofotiga sazovor bo'lgan. Shvetsiya patologiya jamiyatining korrespondent a'zosi. «Atavizmdagi anomal<sup>34</sup> hodisalar» («Lansept, 1882), «Bizlar taraqqiy qilayotirmizmi?» («Psixologiya axborotnomasi», mart, 1883) maqolalarining muallifi. Grimpen, Torsli va Xay-Berrou jamoalarining qishloq shifokori».

Xolms ma'nodor jilmayib dedi:

– Ovchilar klubi to'g'risida bitta ham so'z yo'qku, Uotson, ammo qishloq shifokori degan gumoningiz haqiqatan to'g'ri bo'lib chiqdi. Mening xulosalarim ham to'g'ri. Uning sifatlariga kelganda, agar yanglishmasam, uni yoqimtoy, shuhrat ketidan quvmaydigan va faromushxotir kishi, deb aytgan edim. O'z tajribamdan menga shu narsa ma'lumki, faqat yoqimtoy kishilargina ishdan bo'shab ketayotganlarida unga xayrlashuv

---

<sup>32</sup> Atavizm – odamning uzoq o'tmishdagi bobolariga xos bo'lgan biror belgining organizmda paydo bo'lishi.

<sup>33</sup> Patologiya – organizmdagi kasallik hududlari to'g'risidagi fan.

<sup>34</sup> Anomal – umumiy qoidaga to'g'ri kelmaydigan g'alatilik.

sovg'alari beriladi, faqat shuhrat ketidan quvmaydigan kishilargina Londonda ishlashni tark etib, qishloqqa ko'chib ketadi va faqat faromushxotir kishilargina mehmonxonangizda bir soatdan ko'proq kutib o'tirib, tashrif qog'ozi o'rniga o'zining hassasini qoldirib keta oladi.

– Xo'sh, it-chi?

– Xo'jayinining orqasidan tugunini ko'tarib yurishga o'rgatilgan it ekan. Bu hassa unchalik yengil emas, it uning o'rtasidan mahkam tishlab olib, ko'tarib yurgan, it tishining izlari hassada juda ochiq ko'rinib turibdi. Tishning o'rni o'rtasidagi oraliqqa qaraganda, terer uchun bunday chakak juda kenglik qiladi, mastif uchun esa tor. Ehtimolki... nima desam ekan? Juni jingalak spaniel zotidan bo'lgan itning xuddi o'zi!

Xolms shu gaplarni aytayotganida dastlab uyning u tomonidan bu tomoniga yurib turdi, so'ngra, derazaning oldiga borib to'xtadi, uning keyingi so'zlari shunday bir qat'iy ohangda aytil-diki, men hayron bo'lib unga qaradim:

– To'xtang, azizim, siz nega bu fikrni qat'iy qilib aytyapsiz?

– Buning sababi shuki, itni eshigimiz oldida ko'rib turibman, mana, it egasining o'zi qo'ng'iroqni ham bosib yubordi. O'tira bering, Uotson, ketib qol-mang. Siz u bilan hamkasbsiz-ku, sizning bu yerda bo'lishingiz menga yordam beradi. Mana, kutilgan daqiqa ham keldi, Uotson. Zinadan chiqib kelayot-gan oyoq tovushini eshityapsizmi, bu qadamlar sizning hayotingizga kirib kelyapti, lekin yaxshilik keltiradimi, yomonlikmi, bunisi hali noma'lum. Ilm

sohibi doktor Jeyms Mortimer jinoyatlarni qidirib topuvchi Sherlok Xolms huzuriga nima talab bilan keldi ekan?.. Kiravering.

Xonamizga kirib kelgan kishining sirtqi ko'rishini meni taajjublantirdi, chunki men qishloq shifokorining aynan o'zini ko'raman, deb o'ylagandim. Doktor Mortimer oltin ko'zoynak taqqan, yaltirab turgan kulrang ikki ko'zi o'rtasida qush tumshug'idek turtib chiqqan uzun burunli, juda novcha, ozg'in kishi bo'lib chiqdi. U shifokorlarga xos kiyingan bo'lsa ham, biroz bukchayganroq, bo'ynini g'alati bir tarzda cho'zib, bizga xayrixohlik nazari bilan qaramoqda edi. U xonamizga kirishi bilanoq darhol ko'zi Xolmsning qo'lidagi hassaga tushdi. Xursand bo'lib, hassaga qo'l uzatdi.

– Baxtimni qarang-a! Men uni qayerda qoldirganimni sira eslay olmadim. Bu yerda qoldirganmikanman yoki paroxod kompaniyasidami, degan xayolda edim... Bunaqa narsani yo'qotib bo'ladimi! Buni yo'qotsam, sho'rim quriydi-ku!

– Sizga qilingan tortiqmidi? – deb so'radi Xolms.

– Shunday, ser!

– Chering-kross shifoxonasidanmi?

– Ha, u yerdagi do'stlarim nikoh to'yim kuni tortiq qilishgan edi.

– Hay, hay, juda chakki bo'lgan ekan-da! – dedi Xolms boshini silkitib.

Doktor Mortimer taajjublanib, ko'zini javdiratdi:

– Buning nimasi chakki?

– Bizning o'ylab turgan fikrimizni buzdingiz, xolos.

– Demak, nikoh to'yida qilingan sovg'a deng?



– Shunday, ser. Uylanganimdan keyin shifoxonadan bo‘shadim, shu bilan birga, konsultantlik vazifasiga bo‘lgan umidlarimdan ham voz kechdim. Alohida ro‘zg‘or qilishim kerak bo‘lib qoldi.

– Mana, ko‘rdingizmi, biz unchalik yanglishmagan ekanmiz, – dedi Xolms. – Endi siz, doktor Jeyms Mortimer...

– Juda ham oshirib yubormang! Mening doktorlik darajam yo‘q, men faqat Qirol xirurgiya jamiyatining shunchaki bir a‘zosiman, xolos.

– Ilm sohibi ham bo‘lsangiz kerak?

– Ilmga biroz daxlim bor, mister Xolms, bepoyon ilm dengizi sohilida chig‘anoq toshlar terib yurgan kishiman, desam bo‘ladi. Agar yanglishmasam, mister Sherlok Xolms bilan gaplashayotgan bo‘lsam kerak, siz u...

– Yo‘q, doktor Uotson bu kishi bo‘ladilar, mana oldingizda turibdilar.

– Tanishganimdan juda xursandman, ser. Sizning nomingiz do‘stingizning nomi bilan ko‘pincha yonma-yon tilga olinadi. Sizga g‘oyat qiziqyapman, mister Xolms. Sizning bosh suyagingiz shunday uzun va qovog‘ingiz shu qadar turtib chiqqan deb sira o‘ylamagandim. Bosh suyagingizning choklarini ushlab ko‘rishga ruxsat etsangiz. Har qanday antropologiya<sup>35</sup> muzeyi bosh suyagingizga ega bo‘lsa, shu suyakning nusxasini ko‘rgazmaga qo‘yishga muvaffaq bo‘lsa, muzey uchun husn bag‘ishlardi, ser. Siz-

---

<sup>35</sup> Antropologiya – odam to‘g‘risidagi, uning kelib chiqishi, qobiliyatlari, rivojlanish tarixi va shu kabilar to‘g‘risidagi fan.

ning bosh suyagingizga mening havasim kel-yapti, shunchalik maqtab yuborganimga xafa bo'lmassiz, deb o'ylayman.

Sherlok Xolms mehmonimizni oromkursiga o'tqizdi.

– Ikkovimiz ham o'z ishimizning shinavandasi bo'lsak kerak, ser, – dedi u. – Shahodat barmog'in-gizga qaraganda siz o'ralgan papiroslarni yaxshi ko'rsangiz kerak. Tortinmasdan chekavering.

Doktor Mortimer cho'ntagidan tamaki bilan qog'oz chiqarib, hayron qolarli epchillik bilan papiros o'radi. Uning sal qaltirab turgan uzun barmoqlari juda epchillik va bezovtalik bilan harakat qilardi.

Xolms indamay o'tirgan bo'lsa ham, g'alati suhbatdoshimizga uning ahyon-ahyonda ko'z tashlab turishi bu kishiga juda qiziqayotgan-ligidan dalolat berardi.

– Chamamda, – deb nihoyat gap boshladi Xolms, – siz kecha va bugun faqat mening bosh suyagimni tekshirib ko'rish uchun kelmagan bo'lsangiz kerak, deb o'ylayman, ser?

– Yo'q, ser. Aslo bunday emas! Shunday imkoni-yatga duch kelganligim uchun o'zimni baxtiyor deb bilaman, ammo sizning huzuringizga, mister Xolms, aslo shu maqsadda kelganim yo'q. Men amaliyot kishisi emasman, shunday bo'lsam ham g'oyat jiddiy va g'oyat g'alati bir masalaga to'satdan duch kelib qoldim. Sizni o'zining ulug'ligi jihatidan Yevropaning ikkinchi eksperti deb hisoblaganim tufayli...

– Shunday deng, ser! Ijzatingiz bilan birinchi ekspert kimligini bilsam bo‘ladimi? – deb so‘radi Xolms juda keskin ohangda.

– Janob Bertilon<sup>36</sup> asarlarini ilm ahllari g‘oyat hurmatlaydilar.

– Bas, shunday ekan, uning o‘ziga murojaat qilsangiz bo‘lmaydimi?

– Men «ilm ahllari bo‘lgan kishilar» dedim, ser, ammo amaliyot kishisi sifatida siz benazirsiz – buni hamma e‘tirof qilgan. Ortiqcha gap aytib yubormagan bo‘lsam kerak, deb o‘ylayman, ser...

– Jindek oshirib yubordingiz, – deb javob berdi Xolms, – biroq doktor Mortimer, hal qilmoq uchun mening yordamim kerak bo‘lgan ishning mohiyati nimaligini gapni uzoqqa cho‘zmay, hozirning o‘zi-dayoq aytib bersangiz, juda to‘g‘ri ish qilgan bo‘lar edingiz, deb o‘ylayman.

## **II BOB**

### **Baskervil avlodining kushandasi**

– Cho‘ntagimda bitta manuskript<sup>37</sup> bor, – dedi doktor Jeyms Mortimer.

– Eshikdan kirishingizdayoq buni payqagan edim, – dedi Xolms.

– Juda qadimiy manuskript.

– Agar qalbaki bo‘lmasa, o‘n sakkizinchi asr boshida yozilgan bo‘lishi kerak.

– Siz buni qayoqdan bilasiz, ser?

– Men bilan gaplashayotganingizda shu manuskriptning eni ikki duym chamasi bir chekkasini

---

<sup>36</sup> Bertilon A. (1854–1914) – fransuz antropolog olimi.

<sup>37</sup> Manuskript – qo‘lyozma

hamisha ko'rsatib turdingiz. Hujjatning yozilgan vaqtini ko'p deganda o'n-yigirma yil nari-berisi bilan aniqlay olmagan ekspert yaxshi ekspert bo'lolmaydi. Bu masalaga doir kichikroq asarimni o'qigan bo'lsangiz kerak. Sizdagi manuskript, menimcha, bir ming yetti yuz o'ttizinchi yilda yozilgan.

– Aniqrog'i, bir ming yetti yuz qirqinchi yilda.

– Doktor Mortimer pidjagining yon cho'ntagidan qo'lyozmani chiqardi. – Bu oilaviy tabarruk qo'lyozmani menga ser Charlz Baskervil saqlab qo'yish uchun topshirgan edi. Ammo Charlz Baskervilning bundan uch oy muqaddam to'satdan o'lganligi, ha, fojiona vafot etganligi butun Devonshirni hayajonga solib qo'ydi. Men o'zimni ser Charlzning faqat shifokorigina emas, shu bilan birga, qalin do'sti deb hisoblar edim. U zabardast, aqlli, juda ishbilarmon kishi edi, ammo kaminangiz singari aslo xayolparast emas edi. Shunday bo'lsa ham, u mana shu hujjatga juda jiddiy nazarda qarab va taqdir taqozosini qanday bo'lishiga o'zini shaylab qo'yan edi.

Xolms qo'lini uzatib manuskriptni oldi va uni tizzasiga qo'yib tekisladi.

– Uotson, siz bu qo'lyozmadagi xatda «d» harfining yozilishiga diqqat qiling. Shu hujjatning qachon yozilganligini belgilab olishimga yordam bergan xususiyatlarning biri mana shu harf bo'ldi.

Men Xolmsning orqasida turib, xatlar satri o'chib ketgan va varaqlari sarg'ayib qolgan qo'lyozmaga ko'z tashladim. Varaqning ust tomoniga «Baskervil-xoll» deb yozilgan edi, uning ostida esa katta harflar bilan «1742» raqamlari bor edi.

– Bu qo‘lyozma biror voqeaning hikoyasi bo‘lsa kerak.

– Ha. Baskervillar oilasida og‘izdan-og‘izga o‘tib yurgan bir rivoyatning hikoyasi.

– Agar men yanglishmasam, siz amaliy ahamiyati ko‘proq bo‘lgan va hozirgi kunga yaqinroq bo‘lgan masala ustida men bilan maslahatlashgani kelgan bo‘lsangiz kerak.

– Ha, hozirgi kunga juda yaqin bo‘lgan voqea to‘g‘risida gaplashmoqchiman! Buni aslo kechiktirib bo‘lmaydi, bir kun ichida hal qilib olish kerak. Qo‘lyozma juda qisqa yozilgan, men siz bilan gaplashmoqchi bo‘lgan masalaga ham bu qo‘lyozmaning bevosita aloqasi bor. Ijzatingiz bilan uni o‘qib beraman.

Xolms oromkursiga suyanib olib, barmoqlarini bir-biriga tutashtirdi va taqdirga batamom tan bergan kishidek ko‘zlarini yumib oldi. Doktor Mortimer yoruqqa yaqinroq kelib va g‘ijillagan baland ovoz bilan bizga qadimiy zamonlarning quyidagi ajoyib qissasini o‘qishga kirishdi:

«Baskervillarning iti to‘g‘risida ko‘pgina dalillar bor, ammo Gugo Baskervilning bevosita avlodi bo‘lganligim va mazkur it to‘g‘risida otamdan, otam esa bobomdan eshitib, ko‘p gaplarni bilganimiz sababli rostligiga hech qanday shak-shubha bo‘lishi mumkin bo‘lmagan ushbu tarixni yozib qoldirishni jazm etdim. Bolalarimdan istagim shuki, sizlar gunohlarimiz uchun bizlarni jazolaydigan, agar istasa, shafqat va muruvvat qilib shu gunohlarimizni kechib ham yuboradigan taqdiri

azalga shak keltirmanglar, zero, iltijo va tavba qilib, yuvib bo'lmaydigan hech qanday og'ir gunoh bo'lmaydi. Binobarin, o'tmishning dahshatli samaralarini xotirangizdan chiqarib yuboringiz, ammo bizning butun urug'imizga shu qadar ko'p yomonliklar qilgan manfur ixtiloflarga erk berib, hammamizni yana halok qilmaslik uchun kelgusida gunoh qilishdan o'zingizni tiyib yuringiz.

Sizlarga shu narsa ma'lum va ayon bo'lgayki, Ulug' Qo'zg'olon zamonida (bu xususda ilm daryosining buyuk darg'asi lord Klarendon yozgan tarixni o'qib chiqishni sizlarga maslahat beraman), Baskervil mulkining xo'jayini ayni shu urug'ning farzandi Gugo degan bir zot edi. Mazkur Gugoni o'zini tiymagan, insofsiz va Qur'onni tanimagan bir kishi edi, deb aytishga o'zimizni haqli desak bo'ladi. Bizning bu yerlarda tabarruk kishilar hech qachon bo'lmaganligi sababli qo'shnilar mazkur Gugoning hamma gunohlarini kechirib yuborgan bo'lur edilar, lekin uning tabiatida aqlga to'g'ri kelmaydigan va shafqatsiz hazillar qilishga moyillik bor edi. Shuning uchun ham, uning nomi butun Devonda zarbulmasal bo'lib qolgan edi. Xullasi kalom, kunlarning birida mazkur Gugo o'z qo'shnisi bo'lgan bir fermerning qiziga oshiq bo'lib qoldi (Uning mazkur qizga bo'lgan badnafs ehtirosini oshiqlik deb atashning o'zi gunoh bo'lsa kerak), o'sha fermerning yeri Baskervillar xonadoni mulkiga yaqin joyda edi. Lekin g'oyat iffatli va kamtar bo'lishi bilan hammaga tanilgan yosh qiz Gugoning nominigina eshitsa ham qo'rqib ketar edi va unga duch kelmaslik yo'lini qidirar

edi. Xullas, kunlarning birida, ya'ni Mixail kuni-da Gugo Baskervil o'zining eng betamiz va hech narsadan qaytmaydigan o'rtoqlaridan olti kishini to'plab, qizning otasi va akalari yo'qligidan xabar topib, hech kimga sezdirmay fermaga bordi va mazkur qizni olib qochdi. U Baskervil-xollga qaytib kelib, qizni boloxonadagi hujralarning biriga qamab qo'ydi, ammo o'zi odatdagicha ulfatlari bilan bazm qilishga kirishdi.

Ashula, qichqiriq va dahshatli haqorat ovozlari- ni eshitayotgan bechora qizning aqldan ozishiga sal qoldi, chunki Gugo Baskervilni bilgan kishilarning aytishiga qaraganda, u mastlik chog'ida og'zidan bodi kirib shodi chiqaveradigan bir kishi edi, uning og'zidan chiqqan haqoratomuz gaplarga hech kim chidab turolmasdi. Nihoyat, qiz qo'rqqanidan shu darajaga borib yetdiki, u eng epchil va eng mard erkak kishi ham uddalay olmaydigan bir ishga jur'at etdi, ya'ni karnizga chiqib olib va qasrning janub tomonidagi devorga chirmashib o'sgan pechak o'tlarga osilib pastga tushdi (shu pechak o'tlar hanuzgacha osilib turibdi), shu tariqa u Baskervil mulkidan uch mil naridagi otasining uyiga bormoq uchun botqoqlik yerlardan chopib ketdi.

Oradan sal fursat o'tgach, Gugo o'zi qamab qo'ygan mazkur qizga ovqat va ichimlik olib chiqmoq, ehtimolki, yomon niyatini amalga oshirmoq uchun mehmonlarni tashlab boloxonaga chiqdi, lekin qafas bo'shab qolganini va qushcha uchib ketganini ko'rdi. Ana shunda u shaytonning aytganini qildi, chunki zinadan mehmonxonaga

yugurib tushib, stolning ustiga sakrab chiqdi, may shishalarini va ovqatlarni uloqtirib tashladi, qochgan qizni quvlab tutib olmasam, jon-u tanimni ham ayamayman deb hammaga eshittirib qasam ichdi. Uning hamtovoqlari Gugoning jazavasi tutganini ko'rib, hayron bo'lib turganlarida uning ulfatlaridan biri, eng shafqatsiz, eng mast bir yigit, qizning izidan itni qo'yib yuborish kerak, deb qichqirdi. Gugo shu so'zlarni eshitib, qasrdan yugurib chiqdi, otboqarlarga, mening vafodor otimni egarlab beringlar, itlarni qo'yib yuboringlar, deb buyurdi va qiz qoldirib ketgan ro'molchani itlarga iskatib, vovillab borayotgan itlar galasi ketidan o'zi oydinga botqoqqa qarab ot qo'ydi.

Uning hamtovoqlari nima sababdan shunchalik suron ko'tarilganini darrov payqay olmay, biroz vaqt dovdirab turishdi, lekin ular har qancha mast bo'lsalar ham, torf botqoqligida qanday yomon ish qilinmoqchi bo'lganini fahmladilar. Ana shunda ularning hammasi qichqirishga tutindi: ba'zilari, bizga ot bering, deb talab qilishdi, ba'zilari to'pponcha, ba'zilari yana bir shisha may talab qilishdi. So'ngra ular biroz aqllarini yig'ib oldilar, o'ttiz kishidan iborat ulfatning hammasi otlarni minib, Gugo ketidan quvib ketdilar. Hammayoq oppoq oydin edi, ular, qiz mana shu tomonga ketgan, u qiz otasining uyiga borish niyatida qochgan bo'lsa kerak, deb o'ylab, o'sha tomonga ot choptirdilar.

Ular bir yoki ikki mil yo'l bosgach, mol boqib yurgan podachini uchratib, undan, ot mingan kishini ko'rdingmi, deb so'rashdi. Aytishlariga



qaraganda, podachi qo'rqqanidan dastlab og'zi ochilmay qolgan, so'ngra bir bechora qizni, uning izidan itlar quvib borayotganini ham ko'rganini aytib bergan. Shu podachi yana bunday degan: «Men boshqa bir narsani ham ko'rdim: Gugo Baskervil qora otda yonimdan chopib o'tib ketdi, bir it esa indamay uning orqasidan yugurib bormoqda edi, bunday dahshatli maxluqni ko'rishni Xudo hech kimga nasib qilmasin!».

Mast suvorilar podachini so'kib, ot choptirib ketaverishdi, lekin sal fursat o'tmay ularning badani jimirlab ketdi, chunki ular do'pillab kelayotgan ot tuyog'i tovushini eshitdilar, so'ngra terlab ketgan qora otga ko'zlari tushdi. Bu ot egasiz edi va jilovi osilib turgandi. Betamiz mast ulfatlar qo'rqib, g'uj bo'lib olishdi, shunday bo'lsa ham, yo'lni davom ettiraverishdi, ammo ularning har qaysisi ulfatlardan ajralib bu yerda yolg'iz o'zi qolguday bo'lsa, g'oyat xursand bo'lib, otni orqaga burib ketar edi. Ular asta-sekin olg'a boraverishdi va nihoyat itlarni ko'rishdi. Zotining tozaligi va qopog'onligi bilan qadimdan shuhrat qozongan itlarning hammasi chuqur jar yoqasida turib, g'uj bo'lib ingrar, ba'zilari sezdirmay bir chekkaga qochish payida edi, ba'zilari esa hurpayib va ko'zlarini chaqchaytirib ro'paradagi tor g'orga kirib olish taraddudida edi.

Ulfatlarning yo'lga tushgan paytdagi kayfi tarqab ketdi va to'xtab qolishdi. Ularning ko'pchiligi bir qadam ham oldinga bosishga botinolmadi, ammo ular orasida eng dadil yoki eng mast uch kishi otlarini chuqur jar tomon

burdi. Jarning tubida keng sayhon yer ko'rindi, bu sayhon yerning o'rtasida esa qadim zamonlarda o'rnatilgan ikkita katta tosh ustun bor edi. Botqoq yerlarda bunday ustunlar hozirgacha ham uchrab turadi. Oy nuri sayhon yerni yoritib turardi, o'tlarning orasida qo'rqqani va darmoni quriganidan o'lgan bechora qiz jasaki yotardi. Lekin uch mast yigitning boshlaridagi sochlari dikkayib ketdi. Ular jonsiz tanani ko'rganligi uchun, uning yonida yotgan Gugo Baskervilning tanasini ko'rganligi uchun bunchalik qutlari uchmagan edi. Yo'q, Gugoning tepasida bahaybat, o'zi qop-qora, ko'rinishi itga o'xshasa ham, ammo odam bolasi ko'rgan itlarning hammasidan ham kattaroq bo'lgan dahshatli bir maxluq turgan edi. Mana shu maxluq ularning ko'zi oldida Gugo Baskervilning halqumini g'ajib tashladi va qonga belangan tumshug'ini ularga burib, olovday yonib turgan yarqiroq ko'zlari bilan tikildi. Ana shunda ular qo'rqib qichqirib yubordilar. Dodlaganlaricha botqoqlik ustidan ot choptirib ketdilar. Aytishlariga qaraganda, ulardan biri bu dahshatli voqeaga bardosh berolmay, o'sha kuni kechasiyoq o'libdi, qolgan ikki yigit esa o'lgunlaricha bu dahshatli voqeaning larzasidan o'zlarini o'nglab ololmabdilar.

O'sha vaqtdan beri bizning zotimizga shu qadar ko'p kulfatlar solgan it to'g'risidagi rivoyatni qanday eshitgan bo'lsam, shunday, siz bolalarimga hikoya qilib berdim. Chala-chulpa ovozarlar va uydirmalardan ko'ra o'zimiz bilgan narsa kamroq dahshat soladi, degan umid bilangina shu voqealarni yozib qoldirishga jur'at etdim.

Bizning ajdodlarimizdan ko'p kishilar to'satdan, dahshatli va sirli o'lim bilan vafot etganlarini inkor qilishning hojati bormikin? Taqdiri azal bizni o'zi shafqatidan darig' tutmagay, zero, Injil sharifda aytilgandek, qasos olishi lozim bo'lgan uchinchi va to'rtinchi avlodning begunoh bolalarini o'z panohida asrasin. Siz bolalarimni ham Xudoga topshiraman va sizlarga nasihatim shuki, kechalari yovuzlik kuchlari cheksiz hukmron bo'lgan paytlarda aslo botqoq yerga bormanglar.

(Gugo Baskervilning o'g'illari Rojer va Jon uchun yozildi va ularga shularning hammasini mazkur o'g'lonlarning singlisi Yelizavetadan sir qilib tutishlarini buyuraman)».

Doktor Mortimer shu g'alati hikoyani o'qib bo'lganidan keyin ko'zoynagini manglayiga chiqarib qo'yib, mister Sherlok Xolmsga tikildi. U bir esnab, chekib bo'lgan papirosini kaminga tashladi.

– Xo'sh, bunga nima deysiz? – dedi u.

– Siz buni diqqatga sazovor bir narsa deb o'ylaysizmi?

– Ertak havaskorlarining diqqatiga sazovor desa bo'ladi.

Doktor Mortimer to'rt buklangan bir gazetani cho'ntagidan chiqardi.

– Xo'p, mister Xolms. Men sizni zamonaviy-  
roq bir material bilan tanishtiraman. Bu gazeta  
«Devonshir xronikasi»ning shu yil o'n to'rtinchi  
iyundagi soni. Gazetaning bu sonida bundan bir  
necha kun oldin ser Charlz Baskervil qanday vafot

etganiga taalluqli aniqlangan faktlar to'g'risidagi hisobot bosilgan.

Do'stim biroz oldinga engashdi va shu onda uning qarashi darhol jiddiy tus oldi. Doktor Mortimer ko'zoynagini to'g'rilab gazetani o'qiy boshladi:

«Yaqinda bo'ladigan saylovlarda liberallar partiyasidan nomzod qilinib ko'rsatilishi mumkin bo'lgan ser Charlz Baskervilning to'satdan vafot etgani butun O'rta Devonshirda juda og'ir taassurot qoldirdi. Ser Charlz Baskervil-xollga kelib o'rnashganiga hali unchalik ko'p vaqt bo'lmagan bo'lsa ham, ammo u o'zining xushtabiatligi va saxiyliги bilan o'ziga ishi tushgan hamma kishilarning mehr-muhabbatiga va izzat-hurmatiga sazovor bo'lgan edi. Nuvorish<sup>38</sup> hukmron bo'lib qolgan shu kunlarda yaxshi zamonlarda umr kechirgan qadimiy mo'tabar kishilarning avlodi o'z qo'li bilan davlat orttirib, bu davlatni o'z zotining o'tmishdagi shon-shavkatini tiklashga sarf qilgani hammani quvontiradi. Ma'lumki, ser Charlz Janubiy Afrikada ancha foydali ishlar qilgan kishi edi. Ba'zi odamlar omadlari qo'ldan ketmaguncha o'zlari qilayotgan ishlarini davom ettiraveradilar. Bunday odamlarga o'xshamagan ser Charlz aqlining ziyrakligi tufayli topgan-tutganini pullab, kattagina kapital bilan Angliyaga qaytib keldi. Ser Charlz bundan ikki yil muqaddamgina Baskervil-xollga kelib o'rnashgan bo'lsa ham, darhol o'zining yer-mulkini qayta qurish

---

<sup>38</sup> Nuvorish – chayqovchilik bilan shug'ullanib tez boyigan va davlat orttirgan kishi.

va takomillashtirishga doir turli rejalarni amalga oshirishga kirishdi, uning vafoti sababli to'xtab qolgan bu ishlar to'g'risidagi ovozalari hamma yoqqa tarqalgan edi. Charlz befarzand bo'lgani sababli o'zi hayot chog'idayoq hamqishloqlariga muruvvat qilish niyatida ekanligini necha martalab aytgan edi, shuning uchun ham, shu joylik kishilarning ko'plari uning bevaqt vafot etganiga haqli ravishda kuyib yig'ladilar. Ser Charlz o'z qishlog'ida, shuningdek, butun graflik miqyosida ham saxiylik bilan xayr-ehsonlar qilgani gazeta sahifalarida ko'p martalab tilga olingan edi.

Ser Charlz Baskervilning bevaqt vafot etgani sabablarini tergov idoralari to'la aniqlashga muvaffaq bo'ldilar, deb aytib bo'lmasa ham, ammo ular har xil bid'atlarga ishonuvchi mahalliy kishilar tarqatgan ovozalarga chek qo'yidilar. Uning tabiiy vafot etganiga shubhalanmoq uchun bizda hech qanday asos yo'q. Ser Charlz bevaqt qolgan kishi edi, aytish mumkinki, uning g'alati qiliqlari bor edi. U g'oyat badavlat kishi bo'lishiga qaramay, juda kamtarin hayot kechirardi, shuning uchun ham, uning Baskervil-xolldagi uy xizmatini bajaruvchi kishilar faqat er-xotin Berrimorlardan iborat edi. Berrimorlar tergovda aytgan va marhumning yor-birodarlari bergan guvohlikka mos bo'lib tushgan gaplariga qaraganda, ser Charlz keyingi vaqtlarda xiyla betob bo'lib qolgan ekan. Ularning aytishlariga qaraganda, ser Charlz yurak kasaliga muhtalo edi, buni yuzining tusi ancha o'zgarib ketgani, nafasi qisadigan bo'lib qolgani va ma'yuslanib yurishi ham sezdirib turardi. Mar-

humning yaqin do'sti va shaxsiy shifokori doktor Jeyms Mortimer tergovda aytgan gaplari bilan bu fikrni tasdiqladi.

Endi faktlarga kelganda, bu faktlarning taajjublanadigan hech bir jihati yo'q. Ser Charlz Baskervilning kechasi yotishdan oldin Baskervil-xolldagi mashhur qarag'ayzor xiyobonga chiqib sayr qilish odati bor edi. Er-xotin Berrimorlarning aytishiga qaraganda, u o'zining shu odatini hech qachon tark etgan emas. To'rtinchi iyunda ser Charlz ertaga Londonga ketmoqchi bo'lganini aytgan, safar anjomini tayyorlab qo'yishini Berrimorga buyurgan, kechqurun esa odatdagicha, sayr qilgani chiqqan. U sayr qilib yurgan vaqtda hamisha sigara chekar edi. Shu-shu ser Charlz uyga qaytib kelmagan. Berrimor yarim kechada uyning eshigi hali ham ochiq turganini ko'rib, hayajonga tushgan, chiroqni yoqib, xo'jayinini qidirib ketgan. O'sha kun havo bulut va namgarchilik edi, shuning uchun ham, ser Charlzning izlari xiyobonda aniq ko'rinib turardi. Shu xiyobonning o'rtasida torfzor botqoqlikka ochiladigan eshikcha bor. Ba'zi bir nishonlarga qaraganda ser Charlz shu eshikcha oldida bir necha daqiqa turib, so'ngra yo'lida davom etgan... va xiyobonning oxirida uning murdasi topilgan.

Bu hodisaning aniqlanmay qolgan bir jihati bor. Berrimorning aytishiga qaraganda, ser Charlz eshikchadan sal nariga o'tishi bilan uning oyoq izlari o'zgargani ko'rinib turibdi, chamasi, u oyoq uchida yurib borgan bo'lsa kerak. O'sha vaqtda xiyobondan sal narida Merfi degan lo'li ot jallob o'tib borayotgan ekan. U kimningdir qichqirgan

ovozini eshitibdi, ammo bu ovoz qay tomondan kelayotganini aniqlab ololmabdi, chunki o'zining aytishiga qaraganda, kayfi juda baland ekan. Ser Charlzning tanasida biror kaltak izi borligi ma'lum emas. Ammo tibbiyot ekspertizasi marhumning afti tanib bo'lmas darajada o'zgarib ketganini qayd qilgan. Hatto doktor Mortimer murda o'z do'stining va o'zi hamisha davolab yurgan kishining o'ligi ekanligiga dastlab ishongisi kelmagan. O'likning qiyofasi bu xilda o'zgarib ketgani uning bo'g'ilib va yuragi ishlamay qolib o'lganidan dalolat beradi. O'lik yorib tekshirilganda bu fikr to'g'ri bo'lib chiqdi va marhumning yuragi ko'p vaqtdan beri kasal ekanligi ochiq-ravshan bo'ldi. Tergov idoralari tibbiyot ekspertizasining ma'lumotlariga asoslanib, marhum to'satdan o'lgan, degan xulosaga keldilar, bu esa tashvishli ishni ancha yengillashtirdi, chunki ser Charlzning vorisi Baskervil-xollga kelib o'rnashib, marhumning fojiali o'limi sababli to'xtab qolgan yaxshi ishlarini davom ettirsa yaxshiroq bo'lar edi. Butun graflikda og'izdan-og'izga o'tib, tarqalib yurgan va hamma-ning e'tiborini o'ziga tortayotgan ovozalarning ser Charlz vafoti sababli avj olib ketganiga tergovchi aniq tekshirib chiqargan xulosalar chek qo'ymaganida edi, Baskervil-xollning egasini topish qiyin bo'lur edi. Aytishlariga qaraganda, marhumning o'rtancha akasining bir o'g'li bor, ana shu mister Genri Baskervil (basharti tirik bo'lsa) ser Charlzning eng yaqin qarindoshidir. Qo'limizda bo'lgan oxirgi ma'lumotlarga qaraganda, mazkur Genri Baskervil Amerikada yashaydi. Uni qidirib topish

va katta meros qolganini xabar qilish uchun hozir choralar ko'rilmoqda».

Doktor Mortimer gazetani buklab cho'ntagiga tiqib qo'ydi.

– Ser Charlz Baskervilning vafoti to'g'risida gazetada yozilgan gaplarning hammasi mana shu, mister Xolms.

– Siz, – dedi Sherlok Xolms, – meni hech shubhasiz, oz-moz qiziqishga arziydigan ish bilan tanishtiringiz, buning uchun sizdan juda minnatdorman. Shu voqea to'g'risida gazetalarda yozilgan xabarni o'z vaqtida o'qigan edim, lekin o'sha vaqtda Vatikan kameyalari<sup>39</sup> to'g'risidagi voqealar bilan juda band bo'lganim va papaga o'z ilmimni bir ko'rsatay, deb urinib yurganim sababli Angliyada bo'lib o'tgan diqqatga sazovor bir qancha ishlarni xotiramdan chiqarib qo'yibman. Demak, ser Charlzning vafoti to'g'risida gazetada bosilgan xabarning hammasi shumi?

– Ha.

– U holda siz meni matbuotda chiqmagan faktlar bilan tanishtiring. – U oromkursiga suyanib, barmoqlarini bir-biriga tutashtirib o'tirib oldi. Uning bu o'tirishi jiddiy va sovuqqon sudyalarning o'tirishiga o'xshardi.

Doktor Mortimer hayajon-la gap boshladi:

– Bu xususda hali hech kim bilan gaplashganim yo'q. Xurofotlar sababli tarqalgan ovozalarni quv-

---

<sup>39</sup> Vatikan – katolik cherkovi boshlig'ining, Rim papasining Rim shahridagi saroyi. Kameyalar – odamlarning yoki buyumlarning kichik, asl toshga solingan bo'rtma surati.



vatlash ilm ahli bo'lgan kishiga o'ng'aysiz bo'lgani sababli tergovda ko'pgina narsalarni aytganim yo'q. Shu jihatdan olib qaraganda, gazetaning fikri to'g'ri deb o'ylayman: Baskervil-xollning busiz ham shum va mudhish shuhratini bo'rttiraverish uning egasiz qolib ketishiga sabab bo'lur edi. Shu mulohazalarni nazarda tutib, ba'zi bir gaplar to'g'risida og'iz ochmaslikni afzal deb bildim, chunki hamma narsani ochiq aytaverishdan bari-bir foyda chiqmas edi. Ammo sizga bor haqiqatni gapirib berishim mumkin.

Torfzor botqoqlik – odamlar juda siyrak yashaydigan yerlardir, shu sababli bir-biriga ozmi-ko'pmi yaqinligi bo'lgan qo'shnilar bir-birlari bilan tez-tez uchrashib turishga harakat qiladilar. Menga kelganda, ko'pincha ser Charlz Baskervil bilan ulfatchilik qilib vaqt o'tkazar edim. Lefter-xollning egasi mister Frenklendni va yana tabiatshunos mister Stepltonni hisobga olmaganda, bizning joylarimizda katta mil masofa doirasida birorta ham o'qimishli kishini uchratmaysiz. Ser Charlz xilvatni xush ko'rardi, lekin kasalligi vajidan u bilan ulfat bo'lib qoldik, qiziqishlarimizning mushtarakligi esa bizni tag'in ham ko'proq yaqinlashtirdi. U Janubiy Afrikadan juda qimmatli ilmiy materiallar olib kelgan edi, bushmenlar va gottentot<sup>40</sup>larning qiyosiy anatomiyasini muhokama qilib kechqurunlari juda ko'p suhbatlar o'tkazganmiz.

Ser Charlzning asablari g'oyat tarang bo'lib qolgani keyingi vaqtlarda menga oydek ravshan

---

<sup>40</sup> Bushmenlar va gottentotlar – Afrikadagi qabilalar.

bo'lib qolmoqda edi. Sizga o'qib bergan afsonaga ser Charlz ishonar edi va o'zining yerlarida sayr qilib yurganida kechasi botqoqlikka chiqishga jur'at qilmas edi. Sizga, mister Xolms, g'alati bo'lib ko'rinsa ham, shuni aytishim kerakki, ser Charlz avlodi dahshatli qarg'ishga uchraganiga astoydil ishonar edi, haqiqatan ham uning o'z ajdodlarining o'tmish hayotidan keltirgan misollari ancha vahimali edi. Qandaydir bir arvoh bo'lsa kerak, degan fikr uning miyasidan sira chiqmas edi, shuning uchun ham u mendan, siz bemorlarni ko'rish uchun borayotganingizda biror g'alati narsani ko'rganingiz va itning vovillaganini eshitganingiz yo'qmi, deb ko'pincha so'rar edi. Keyingi savolni ser Charlz menga, ayniqsa, ko'p berardi, shu savolni berayotganida uning ovozi hayajonlanganidan qaltirab ketardi.

Shu fojiali voqea ro'y bermasdan uch hafta oldin kechqurun Baskervil-xollga borganim hali ham esimda. Ser Charlz uyi eshigi oldida turgan ekan. Aravadan tushib, uning oldiga borayotganimda meni sezmaganday, nihoyatda qo'rquv bosgan ko'zlari bilan qayoqqadir tikilib turar edi. Men darrov qayrilib qaradim va xiyobonning oxirida katta qora buzoqqa o'xshash qandaydir bir narsaga sal-pal ko'zim tushib qoldi. Ser Charlz shu qadar qo'rqib ketgan ediki, o'sha joyga borib ko'zimga elas-elas ko'ringan narsa qayoqqa ketganini tekshirib ko'rishga majbur bo'ldim. Lekin bu yerda hech bir narsa yo'q edi.

Bu hodisa do'stimda juda og'ir taassurot qoldirdi. Yarim kechagacha suhbatlashib o'tirdik, ana

shunda u o'zining vahimaga tushganiga nima sabab bo'lganini tushuntirmoqchi bo'lib, hozirgina men sizga o'qib bergan o'sha qo'lyozmani qo'limga berdi va uni saqlab qo'yishni iltimos qildi. Unchalik ahamiyati bo'lmagan bu hodisani eslatib o'tganimning sababi shuki, keyin ro'y bergan fojida bu hodisa birmuncha ahamiyat kasb etib qoldi, ammo o'sha vaqtda buni do'stimning hayajonlanishiga hech bir asos bo'lolmaydigan bema'ni bir narsa deb o'ylagan edim.

Ser Charlz mening maslahatim bilan Londonga bormoqchi edi, uning yuragi betob edi, nazarimda, uydirma bo'lib ko'ringan va uni vahimaga solib qo'ygan sabablar esa do'stimning sog'ligiga ta'sir qilayotgani ochiq ko'rinib turardi. Ser Charlz bir necha oy shaharda tursa, shahar hayoti ta'sir qilib, uning sog'lig'i yaxshilanib ketar va yangi odam bo'lib qaytib kelar, deb o'ylagan edim. Ikkovimizning ham do'stimiz bo'lgan ser Charlzning sihat-salomatligi to'g'risida hamisha g'amxo'rlik qilib yurgan mister Steplton ham shu fikrda edi. Mana endi o'zingizga ma'lum, oxirgi daqiqada o'sha mudhish baxtsizlik ro'y berdi.

Xizmatkor Berrimor kechasi ser Charlzning o'ligini topib olgandan keyin otboqar Perkinsning otini egaratib, uni darhol menga yubordi. Allama-halgacha ishlab o'tirganim sababli Baskervil-xollga juda tez, nari borsa bir soatda yetib bordim. Tergovda tilga olingan faktlarning hammasini o'zim tekshirib va bir-biri bilan taqqoslab ko'rdim.

Ser Charlz yurgan yo'ldan izma-iz borib, butun qarag'ayzor xiyobonni aylanib chiqdim, u eshik-

cha oldida to'xtagan bo'lsa kerak, deb o'sha joyni ko'zdan kechirdim, xiyobonga yotqizilgan mayin shag'al ustida uning izidan boshqa faqat Berri-morning izlarigina borligiga qanoat hosil qildim, nihoyat men kelgunimcha hech kimning qo'li tegmagan o'likning tanasini sinchiklab tekshirib chiqdim. Ser Charlz qo'llarini cho'zib, barmoqlari bilan yerga yopishib mukka tushib yotardi, vahi-ma va qaltirash uning aftini shu qadar o'zgartib yuborgan ediki, men o'likni darhol taniiy olmadim. Uning badanida jismoniy shikastlanish asari yo'q edi. Ammo Berrimorning tergovda aytgan gaplari noto'g'ri. Uning so'ziga qaraganda, o'likning yoni-da hech qanday iz ko'rinmagan emish. U fahm-lamagan bo'lsa kerak, ammo men boshqa izlar borligini payqadim. Ser Charlzdan sal narida juda yangi va aniq...

– Izlarmi?

– Izlar ko'rinib turardi.

– Erkak kishinikimi yoki xotin kishinikimi?

Doktor Mortimer g'alati qilib bizga qaradi va shivirlab javob berdi:

– Mister Xolms, bu izlar juda katta itning izlari edi.

### III BOB

#### Jumboq

Rostini aytsam, shu gaplarni eshitishim bilan badanim jimirlab ketdi. Doktorning qaltiragan ovozigaga qaraganda uning o'zi ham aytib bergan hikoyasi bilan juda hayajonga tushgan edi. Xolms butun gavdasi bilan oldinga surildi. Uning ko'zlari

chaqna b ketgandek bo'ldi, bu esa Xolmsning shu gaplarga qiziqqa boshlaganidan ochiq dalolat berar edi.

– O'sha izlarni o'zingiz ko'rdingizmi?

– Xuddi sizni ko'rgandek ko'rdim.

– Bu xususda hech nima demabsiz-da!

– Aytib nima qilardim?

– Nahotki, o'sha izlarni sizdan boshqa hech kim ko'rmagan bo'lsa?

– Men o'sha izlarni o'lik yotgan joydan o'ttiz qadam narida ko'rdim, shuning uchun ham, hech kim e'tibor bermagan bo'lsa kerak. Agar afsona esimga tushmaganda edi, o'zim ham hech bir narsani payqamagan bo'lardim.

– Botqoqlikda tozi itlar ko'p bo'lsa kerak?

– Ko'p, albatta. Lekin izlar tozi itniki emas edi.

– Izlarni juda katta dedingizmi?

– Juda ham bahaybat.

– Lekin bu izlar ser Charlzning jasadiga yaqinlashmaganmi?

– Yo'q.

– O'sha vaqtda havo qanaqa edi?

– Bulutli, sovuq edi.

– Yomg'ir yog'maganmidi?

– Yo'q.

– O'sha xiyobonning o'zi qanaqa?

– Uning ikki yonida bir-biriga zich bo'lib o'sgan mayda daraxtlar baland, ko'm-ko'k g'ov bo'lib to'sib turibdi. O'rtasida eni sakkiz futlik yo'l bor.

– Daraxtlar bilan yo'l o'rtasida biror nima bormi?

– Ha, ikki tomonda eni olti futlar chamasi chimzor bor.

– Agar men gapingizni to‘g‘ri tushungan bo‘lsam, xiyobonning chekkasida eshikcha ham bormi?

– Ha, shu eshikchadan botqoqlikka chiqiladi.

– Botqoqlikka chiqadigan boshqa yo‘l yo‘qmi?

– Yo‘q.

– Demak, qarag‘ayzor xiyobonga yo to‘ppa-to‘g‘ri uydan chiqib borish, yoki botqoqlikka ochiladigan eshikchadan kirib borish mumkin ekan-da?

– Xiyobonga o‘tadigan yana bir joy bor – xiyobonning oxiridagi shiyponchadan o‘tib kirib kelish mumkin.

– Ser Charlz shiyponchaga yetganmidi?

– Yo‘q. U shiyponchadan ellik qadam berida yotardi.

– Endi, doktor Mortimer, marhamat qilib mening yana bir juda muhim savolimga javob bersangiz: siz ko‘rgan izlar o‘tning ustida emas, yo‘lning ustidamidi?

– O‘tning ustida, odatda, iz qolmaydi.

– Izlar yo‘lning xiyobon eshikchasi tomonidamidi?

– Ha, xiyobonning qoq chekkasida, eshikchaga yaqin joyda.

– Juda qiziq! Yana bir savolim bor: eshikcha yopiqmidi?

– Yopiqqina emas, hatto qulf bilan qulflab ham qo‘yilgan edi.

– Eshikchanning bo‘yi qancha?

– To‘rt fut chamasi.

– Demak, eshikchadan oshib o‘tish mumkin ekan-da?

– Ha.

– Eshikchaning yonida biror nima borligini koʻrmingizmi?

– Yoʻq, arzigulik hech bir narsa koʻrmadim.

– Tavba! Nahotki, koʻrmagan boʻlsangiz?

– Yoʻq. Oʻzim tekshirib chiqdim.

– Hech nima topmadingizmi?

– U yerda biror nimani aniqlash qiyin edi. Ser Charlz eshikcha oldiga kelib, besh-oʻn daqiqa turgan boʻlsa kerak.

– Bunga qanday dalilingiz bor?

– Chunki uning sigarasidan yerga ikki marta kul tushibdi.

– Juda soz! Bunaqa yordamchi bizga ish bera oladi! Durustmi, Uotson? Xoʻsh, izlar-chi?

– Yoʻlga yotqizilgan shagʻal ustida uning izlari juda koʻp. Boshqa izlarni koʻrmadim.

Sherlok Xolms sabrsizlik bilan oʻzining tizzasiga qarsillatib urib qoʻydi.

– Qani, men boʻlganimda-yu, ish boshqacha boʻlardi-ya! – deb xitob qildi u. – Buni juda ham diqqatga sazovor ish desa boʻladi. Jiddiy ilmiy tadqiqot olib borish uchun naqadar katta imkoniyatlar bor. Yoʻlga yotqizilgan tosh shunday bir sahifaki, men bu sahifadan gʻoyat koʻp narsalarni oʻqib bilgan boʻlur edim. Afsuski, uni yomgʻir yuvib yuborgan, bilishga qiziqqan fermerlarning oyoqlari ostida izlar yoʻq boʻlib ketgan... Attang, doktor Mortimer, doktor Mortimer! Nega siz meni darrov chaqirmadingiz? Katta gunohga qolibsiz-da.

– Men sizga murojaat qila olmadim, mister Xolms. U holda mana shu faktlarning hammasi-

ni o'sha vaqtda e'lon qilishga to'g'ri kelib qolardi. Nega shunday qilmaganimning sababini esa sizga tushuntirib berdim. Bundan tashqari, bundan tashqari,...

– Nega ikkilanyapsiz?

– Shunday bir soha borki, jinoyatlarni qidirib topishga mohir bo'lgan eng ziyrak va eng tajribakor xufiya ham bu sohada o'zlik qiladi.

– G'ayritabiiy kuchga duch kelib qolamiz, deb shama qilyapsizmi?

– Bunday deytoganim yo'q.

– «Deyotganim yo'g'-u», lekin «o'ylayotibman» deng.

– Bu baxtsiz hodisa ro'y bergandan beri, mister Xolms, tabiiy jihatdan bir-biriga bog'lanishi qiyin bo'lgan bir qancha hodisalarni menga aytib berishdi.

– Masalan?

– Surishtirib bilishimga qaraganda, ser Charlz vafot etmasdan oldin ham mahalliy kishilarning ba'zi birlari botqoqlikda qandaydir g'alati maxluqni ko'rishgan ekan. Aytishlariga qaraganda, o'sha maxluq Baskervil afsonasida tasvirlangan kushandaga juda o'xshaydi, ammo fan olamida ma'lum bo'lgan boshqa hech bir hayvonga o'xshamaydi. O'sha maxluqni ko'rgan kishilarning hammasi uni ko'zi yarqirab turgan g'oyat katta dahshatli arvo'ning o'zi deyishyapti. Men o'sha odamlarni surishtirib ko'rdim. Ular uch kishi: biri – aqli g'oyat ziyrak bo'lgan qo'shnimiz, ikkinchisi – o'sha yerlik temirchi va uchinchisi – yana bir fermer. Ularning hammasi menga shunday mudhish bir maxluq to'g'risida hikoya qilib berish-



diki, u maxluq afsonada aytilgan va tasvirlangan itga aynan o'xshaydi. Siz, mister Xolms, mening gapimga ishonavering: bizning okrugimizda hamma vahimaga tushib qoldi, kechasi botqoqlikka chiqishga hech kim botinolmaydi, ehtimol, juda dadil kishilargagina bu vahima ta'sir qilmasa kerak.

– Sizday ahli ilm kishisi ham bu hodisaning g'ayritabiiy ekanligiga ishonypsizmi?

– O'zim nimaga ishonishni ham bilmay qoldim. Xolms yelkasini qisib qo'ydi.

– Shu vaqtgacha men jinoyatlarga taalluqli narsalarni shu olam doirasida qidirib topish bilan shug'ullanib keldim, – dedi u. – Men o'zimda bo'lgan oz-moz kuch va imkoniyatlar boricha yovuzlik bilan kurashib kelmoqdaman, lekin yovuzlikni tug'diruvchining o'ziga qarshi kurashish mening uchun haddan tashqari mag'rurlanish bo'lsa kerak, deb o'ylayman. Biroq siz yo'lga yotqizilgan shag'al ustidagi izlarni juda aniq ko'rganingizni inkor qilmasangiz kerak?

– Afsonada hikoya qilingan it odamni g'ajib tashlagan ekan, uning borligini rad qilib bo'lmaydi. Lekin shunday bo'lsa ham, mazkur itda qandaydir favqulodda xislat borgan o'xshaydi.

– Siz, doktor Mortimer, tamomila mistiklar tomoniga o'tib olganga o'xshaysiz. Siz menga bir narsani aytib bering. Agar shunday fikrda bo'lsangiz, u holda mening sizga nima keragim bor? Siz, ser Charlz qanday holatda o'lganini tekshirib ko'rish befoyda deyapsiz, ayni vaqtda mendan bu ishga kirishishni iltimos qilyapsiz.

– Sizdan bunday iltimos qilganim yo‘q-ku.

– U holda sizga qanday yordamim tegishi mumkin?

– Maslahatingiz kerak. Ser Genri Baskervil Vaterloo vokzaliga, – doktor Mortimer soatiga qarab qo‘ydi, – rosa bir soat-u o‘n besh daqiqadan keyin keladi, unga qanday muomala qilishim kerakligini aytib berishingizni iltimos qilaman.

– Merosxo‘rmi?

– Ha. Ser Charlz vafot etganidan keyin biz uni surishtirib Kanadada fermasi borligini aniqladik. Aytishlariga qaraganda, u juda yaxshi, juda munosib yigitga o‘xshaydi. Hozir men shifokor tariqasida emas, balki ser Charlzning ishonchli vakili va uning vasiyatini bajaruvchi kishi tariqasida gapiryapman.

– Merosga boshqa da‘vogarlar yo‘qmi?

– Yo‘q. Biz ba‘zi bir boshqa narsalarni surishtirib bilgan birdan-bir boshqa kishi ham bor. U bechora ser Charlzning ukasi Rojer Baskervil. Ular uch og‘ayni edi. O‘rtanchasi, ya‘ni o‘sha Genrining otasi, yoshligida o‘lib ketgan. Rojer degan kenjasi oilada bamisoli tirraqi buzoq deb hisoblanar edi. Uning tabiatida Baskervillarning mustabidlik sifatleri meros bo‘lib qolgan va mazkur Gugo Baskervilga ikki tomchi suv kabi aynan o‘xshaydi. Rojer Angliyada hech kim bilan chiqisha olmay, Markaziy Amerikaga qochib ketishga majbur bo‘lgan va u yerda 1876-yilda sariq bezgak kasalidan o‘lgan. Genri – Baskervillar zotining eng oxirgisi. Bir soat-u besh daqiqadan keyin men uni Vaterloo vokzalida kutib olishim kerak.

U bugun ertalab Sautgemptonga kelaman, deb menga telegramma yuborgan edi. Mister Xolms, u bilan qanday muomala qilish kerakligi to'g'risida maslahat bera olasizmi?

– U o'ziga meros bo'lib qolgan yerga darrov jo'nab ketsa bo'lmaydimi?

– Rost, shunday qilish kerakligi o'z-o'zidan ko'rinib turibdi, lekin o'sha yerda yashagan Baskervillarning hammasi fojiali halok bo'lganini unutmang. Agar ser Charlz o'lmasidan oldin men bilan gaplashish imkoniyatiga ega bo'lganida edi, bu qadimiy zotning oxirgi avlodini o'sha dahshatli joyga olib borishimni taqiqlab qo'ygan bo'lur edi, men bunga aminman. Shu bilan birga, noobod, qashshoq okrugimizning ravnaqi ser Genrining o'z mulkida yashashga rozilik berishi yoki bermasligiga bog'liq ekanligini ham inkor qilib bo'lmaydi. Agar Baskervil-xoll egasiz bo'lib qolsa, ser Charlz boshlagan ishlarning hammasi barbod bo'ladi. Bizning mahalliy ishlarimizdan keyin shaxsan manfaatdorligim ustun kelib shunga yarasha ish qilib qo'ymay deb qo'rqaman, shu sababli sizning oldingizga maslahat so'rab keldim.

Xolms o'ylanib qoldi.

– Biz shunday xulosaga kelsak deyman, – dedi nihoyat Xolms. – Sizning fikringizcha, qandaydir yovuz kuch Dartmurni Baskervillar uchun xatarli joyga aylantirmoqda. Fikringizni to'g'ri tushunibmanmi?

– Har holda bunday xavotirlanish uchun ba'zi asoslar bor.

– Fikrimizni davom ettiraylik. Agar g'ayritabiiy kuchlar to'g'risidagi nazariyangiz to'g'ri bo'lib

chiqsa, bu kuchlar o'sha yigitni faqat Devonshirda emas, Londonda ham halok qilishi mumkin. Iblisni kichik bir joyda hukmronlik qilish bilan cheklanadi, deb tasavvur qilish qiyin. Axir, u qandaydir bir jamoa boshqarmasining a'zosi emas-ku.

– Agar siz, mister Xolms, shu voqealarning hammasiga o'zingiz duch kelganingizda edi, bunaqa hazil gaplarni aytmagan bo'lar edingiz. Demak, sizning fikringizcha, o'sha yigit uchun qayerda bo'lish – Londondami yoki Devonshirdami bo'lish baribir ekan-da? U ellik daqiqadan keyin vokzalga keladi. Nima qilishim kerak? Maslahat bersangiz-chi?

– Sizga, ser, maslahatim shuki, keb<sup>41</sup>ni chaqiring, eshik oldida yer tirnab turgan spaniel itingizni olib vokzalga boring va ser Genri Baskervilni kutib oling.

– Undan keyin-chi?

– Undan keyin qiladigan ishlarimning rejasini o'ylab olgunimcha kutib turing, ammo men bilan uchrashmay turib, unga hech nimani aytmang.

– Buning uchun sizga qancha vaqt kerak bo'ladi?

– Bir kun. Agar ertaga ertalab bu yerga soat o'nda ser Genri Baskervilni olib kelsangiz, sizdan juda minnatdor bo'lar edim, doktor Mortimer. Men u bilan tanishib olishim kerak.

– Xo'p, mister Xolms.

U qachon va qay soatda uchrashishimiz kerakligini o'zining manjetiga yozib qo'ydi va avvalgidek

---

<sup>41</sup> Keb – Angliyadagi odam tashiydigan bir otli arava. (Tarj.)

faromushxotirlik bilan tevarak-atrofga alanglab qarab uydan tez chiqib ketdi.

Xolms zinaning boshiga borib, uni chaqirdi:

– Yana bir savolim bor, doktor Mortimer. Siz o'sha arvoh ilgarilari ham botqoq yerda paydo bo'lar edi, dedingizmi?

– Ha, menga buni uch kishi aytdi.

– Ser Charlz o'lganidan keyin o'sha arvohni hech kim ko'rmabdimi?

– Bilmadim. Eshitganim yo'q.

– Rahmat. Xayr.

Xolms divan burchagidagi o'z joyiga o'tirdi va osoyishta, mamnun jilmayib qo'ydi. Xolms o'ziga munosib jumboqni yechishga kirishganida har safar uning chehrasida shunday tabassum paydo bo'lar edi.

– Ketyapsizmi, Uotson?

– Ha, sizga yordamim tega oladigan ish qolmagan bo'lsa kerak.

– Yo'q, do'stim. Ishga tushish payti kelganda yordam so'rab sizga murojaat qilaman. Juda ajoyib ishga duch keldik-da! Hamma yoqdan qaraganda ham bu ishning hech bir misli yo'q. Bredli do'konining oldidan o'tsangiz, undan menga bir qadoq o'tkir tamaki yuborishni iltimos qiling. Ol-dindan minnatdorchiligimni bildiraman. Kechgacha kelmasangiz ham bo'ladi. Siz kelganingizdan keyin esa bugun ertalab bizga yechish uchun qoldirib ketilgan juda ajoyib jumboq xususida o'z taassurotlarimni sizga xursand bo'lib gapirib beraman.

Do'stim biror jiddiy masala bilan mashg'ul bo'lgan soatlarda yakka o'zi xilvatda o'tirib o'ylash-

ni yaxshi ko'rardi. U bunday soatlarda o'zi hal qilmoqchi bo'lgan ishning barcha mayda-chuyda tafsilotlarini ham salmoqlab ko'rar, ketma-ket bir necha xil taxminlar qilar, bu taxminlarni bir-biri bilan taqqoslab qarar va qanday ma'lumotlar ahamiyatli-yu, qanday ma'lumotlarga e'tibor bermasa ham bo'ladi, deb bir qarorga kelar edi. Shu sababli men butun kun klubda bo'ldim. Faqat kechqurun, soat to'qqizlar chamasi Beyker-stritga qaytib keldim.

Mehmonxona eshigini ochishim bilan qo'rqib ketdim – uyimizga o't tushibdimi deb o'yladim, chunki uy ichini shu qadar tutun bosib ketgan ediki, charaqlab, yonib turgan lampa arang miltillab ko'rinardi. Lekin xavotir qilishimni o'rni yo'q edi: o'zi o'tkir, lekin arzon tamakining achchiq hidi darrov dimog'imga urdi, shu ondayoq tomog'im qichib ketdi. Burqirab turgan tutun orasida oromkursida maza qilib o'tirgan Xolmsni arang ko'rdim. U xalat kiyib, qora sopol trubkani tishlab olgan edi. Uning atrofida qandaydir qog'oz o'ramlari yotardi.

– Shamollab qoldingizmi, Uotson? – deb so'radi u.

– Yo'q, shu zaharli tutunlar tomog'imni qichitib yubordi, xolos.

– Ha, aytganday, gapingiz to'g'ri: oz-moz chekkan edim-da.

– Oz-moz emish! Nafas olib bo'lmaydi-ku!

– Unday bo'lsa derazani ochib qo'ying. Butun kun klubda o'tirgan bo'lsangiz kerak?

– Xolms, azizim!

– To'g'rimi?

– To‘g‘ri, albatta, xo‘sh, o‘zingiz-chi?

U sarosimaga tushgan vajohatimni ko‘rib, kulib yubordi.

– Siz, Uotson, shu qadar aqllisizki, qoyil qolmay ilojim yo‘q. O‘zimdagi arziyas kuchni sizga tatbiq qilib, sinab ko‘rish meni naqadar xursand qilayotganini bilsangiz edi! Jentlmen yomg‘ir yog‘ib turgan, hamma yoqni zax bosgan bir paytda uydan chiqib ketgan edi. Kechqurun u o‘ziga bitta ham dog‘ tekizmay, top-toza bo‘lib qaytib keldi. Uning silindri va botinkasi avvalgiday yarqirab turibdi. Demak, u butun kun hech qayoqqa chiqmay bir joyda o‘tirgan bo‘lishi kerak. Uning yor-do‘stlari yo‘q. U qayerda bo‘lishi kerak edi? U qayerda bo‘lgani ochiq ko‘rinib turgan bir narsa emasmi, axir?

– Ha, ochiq ko‘rinib turgan bir narsa.

– Bunday ochiq ko‘rinib turgan narsalar olamda to‘lib yotibdi, lekin ularni hech kim fahmlamaydi. Qani, ayting-chi, men qayerda bo‘ldim?

– Siz ham butun kun bir joyda o‘tirdingizmi?

– Yo‘q, topmadingiz, men Devonshirga borib kelishga ulgurdim.

– Xayolingizdami?

– Xuddi shunday. Mening tanam shu yerda qolaverdi, har qancha achinarli bo‘lsa ham, oromkursida huzur qilib o‘tirib, kun bo‘yi ikkita katta choynak qahva ichishga va behisob tamaki chekishga ulgurdim. Siz chiqib ketishingiz bilan Stenfordga odam yuborib, Dartmur botqoqliklarining xaritasini olib keltirdim, ruhim kun bo‘yi shu botqoqliklarda kezib yurdi. Endi o‘sha joylarni ko‘ngildagidek bilib oldim, degan umiddaman.

– Katta masshtabli xaritamidi?

– Ha, juda katta. – U o'sha xaritaning bir sektorini ochib, mening tizzamga qo'ydi. – Bizni qiziqtirayotgan o'sha hudud mana shu. Uning qoq o'rtasida Baskervil-xoll turibdi.

– Atrofi o'rmonmi?

– Xuddi shunday. Qarag'ayzor xiyobon bu yerda ko'rsatilmagan, lekin chamamda, xiyobon botqoqlikka yondosh bo'lib, o'ng tomondan o'tgan bo'lsa kerak. Mana bu binolarning kichkina guruhi do'stimiz doktor Mortimerning qarorgohi joylashgan Grimpen qishloqchasining xuddi o'zi. Ko'rib turibsizki, doirasi besh mildan iborat bo'lgan tevarak-atrofdan odamlar yashaydigan uylar juda kam uchraydi. Mana bunisi doktor bizga aytgan Lefter-xollning o'zi. Agar familiyasini to'g'ri eslab qolgan bo'lsam, tabiatshunos Stepltonning uyi mana shu yerda bo'lsa kerak. Mana bular «Tosh ustunlar» va «Chirik botqoq» deb atalgan ikkita ferma. Shu fermalardan o'n to'rt mil narida – Prins-taun katorga-turmasi. Mana u alohida-alohida nuqtalarning o'rtasida va ularning atrofida hayot belgilari bo'lmagan, zeriktiradigan botqoqliklar yoyilib yotibdi. O'sha fojia o'ynalgan va ehtimolki, bizning yordamimiz bilan yana bir marta o'ynaladigan sahna mana shu.

– Ha, yovvoyi joylar ekan.

– Sahna xuddi ko'ngildagiday. Agar iblis haqiqatan ham odamlarning ishlariga aralashishni istasa...

– Demak, siz ham mana shu voqealarning hammasida biror g'ayritabiiy kuchning qo'li bor, degan fikrdamisiz?



– Iblisning ko‘makchilarida jon bilan tan bo‘lishi mumkin emasmi, axir? Ishni boshlamoq uchun uchta masalani hal qilishimiz kerak: birinchisi, jinoyat shu yerda qilinganmi, degan masala. Ikkinchisi, bu jinoyatning o‘zi nimadan iborat bo‘lgan? O‘z-o‘zidan ma‘lumki, agar doktor Mortimerning qilgan taxminlari to‘g‘ri bo‘lib chiqsa va bu voqealarning hammasi tabiat qonunlaridan chetda turgan kuchlar bilan bog‘langan bo‘lsa, u vaqtda taslim bo‘lishimizga to‘g‘ri keladi. Lekin shunday xulosaga kelib xotirjam bo‘lishdan oldin, boshqa taxminlarning hammasini oxirigacha tekshirib ko‘rish kerak. Agar siz e‘tiroz qilmasangiz, derazani yopib qo‘yaylik. Qiziq bo‘lsa ham sizga shuni aytishim kerakki, menimcha, tamaki tutunining to‘planishi fikrning to‘planishiga yordam beradi. O‘ylayverib sulayish darajasiga yetmagan bo‘lsam ham, nazariyamdan xuddi shunday mantiqiy xulosa kelib chiqadi. Xo‘sh, siz shu ishni o‘ylab ko‘rdingizmi?

– Kun bo‘yi miyam shu ish bilan band bo‘ldi.

– Ayting-chi, qanday xulosaga keldingiz?

– Juda ham chuvalgan ish ekan.

– Ha. Juda o‘ziga xos voqea. Ayniqsa, uning ayrim tafsilotlari g‘alati. Masalan, izlarning o‘zgarib qolganini aytmaysizmi? Buni qanday izohlaysiz?

– Mortimer xiyobonning shu qismini ser Charlz oyoq uchida yurib o‘tgan bo‘lsa kerak, degandi.

– U qandaydir bir tentakning tergovda aytgan gaplarini takrorladi, xolos. U kishining xiyobonda oyoq uchida yurishining nima keragi bor edi!

– Boʻlmasa voqea qanday boʻlgan?

– U yugurib ketgan, Uotson. Qutulmoq uchun oyogʻini qoʻlga olib chopgan. Shu qadar tez chopganki, yuragi bardosh berolmay, yugurib bora turib, yiqilib oʻlgan.

– Qutulmoq uchun dedingizmi? Kimdan?

– Butun gap mana shunda-da. Baʼzi maʼlumotlarga qaraganda, Charlz Baskervil qochishdan oldin qoʻrqib, esini yoʻqotib qoʻygan.

– Nega shunday deb oʻylaysiz?

– Qoʻrqitgan narsa botqoqlik tomondan unga qarab kelgan. Agar men yanglishmasam, chamamda, haqiqatan ham shunday boʻlgan boʻlsa kerak – faqat aqldan ozgan kishigina uyga tomon chopmasdan, uyga qarshi tomonga chopishi mumkin. Tergovda maʼlumot bergan loʻlining aytishiga qaraganda, ser Charlz yordam soʻrab baqirgan-u, ammo yordam kelishini kutish ehtimoli hammadan koʻra kamroq boʻlgan tomonga qarab chopgan. Soʻngra yana bir jumboq bor: u oʻsha kuni qorongʻi tushgan paytda kimni kutgan edi? U kutgan kishisi bilan nega uyda emas, balki qaragʻayzor xiyobonda uchrashishi kerak boʻlgan?

– Sizning fikringizcha, u biror kimsani kutganmi?

– Oʻzingiz oʻylab qarang, keksayib qolgan betob kishi kechqurun sayr qilishga chiqqan – buning ajablanadigan hech nimasi yoʻq. Lekin oʻsha kuni havo nam, sovuq edi-ku. Doktor Mortimer sigaraning toʻkilib qolgan kuliga qarab daʼvo qilishiga qaraganda, eshikcha oldida u besh daqiqa, hattoki, oʻn daqiqa bekordan bekorga toʻxtab turishining nima keragi bor edi? Kezi kelganda shuni aytib

o'tayki, bizga g'alati ko'rinsa ham, doktorning ziyrakligiga tan bermay bo'lmaydi.

– Ser Charlz har kuni kechqurun shunday sayr qilar edi.

– Har kuni kechqurun eshikcha oldida to'xtarmi-di? Bunday bo'lmasa kerak. Aksincha, ser Charlz botqoqlikka yaqin yo'lamaslikka ahd qilib qo'ygani ko'rsatuvchi ma'lumotlar bor. Ammo u o'sha kuni kechasi u yerda kimnidir kutib turgan. Londonga ketish arafasida u shunday qilgan. Ko'rdingizmi, Uotson, hamma halqalar bir-biriga ulanib kelyapti. Endi ularni bir yoqqa yig'ishtirib qo'yib, qo'linga skripka berishingizni iltimos qilaman. Doktor Mortimer va ser Genri Baskervilning ertaga bizning huzurimizga ke lishlari o'ylashimiz uchun yangi ozuqa beradi, degan umid bilan bu ish to'g'risida fikrlashni bas qilaylik.

## **IV BOB**

### **Ser Genri Baskervil**

Biz ancha barvaqt nonushta qilib olgach, Xolms xalatini kiyib, ish bilan keluvchilarni qabul qilishga hozirlandi. Mijozlarimiz bir soniya ham kechikkani yo'q – soat to'qqizni urishi bilanoq doktor Mortimer baronet<sup>42</sup> yigit bilan birga xonaga kirib keldi. Yigit o'ttiz yoshlar chamasida edi. O'rta bo'yli, abjirgina, baquvvat bu yigit juda xushfe'l, sog'lom kishiga o'xshardi. U menga o'jar kishiga

---

<sup>42</sup> Baronet – Angliyada pulga sotib olinadigan dvoryanlik unvoni. (Tarj.)

o'xshab ko'rindi; barvasta qora qoshlari ostidan uning quralay ko'zlari bizga dadil qarab turardi. Uning sportchilarnikiga o'xshash jigarrang kostyumi va tusining bug'doyrangligi bu kishi uyda tinib-tinchib o'tirmaydigan va ishyoqmas odam emasligini, ayni vaqtda o'zini osoyishta, bemalol tutishi chinakam jentlmen ekanligini bildirib turardi.

Doktor Mortimer uni bizga tanishtirdi:

– Ser Genri Baskervil.

– Ha, xuddi o'zi, – dedi baronet. – Eng qizig'i shuki, mister Xolms, – dedi u, – agar do'stim sizning huzuringizga kelishni taklif qilmaganida, o'zim huzuringizga kelgan bo'lur edim. Sizni har xil jumboqlarni yechishga mohir kishi deyishadi, ammo men bugun ertalab shunday bir holatga duch keldimki, buning sirini bilishga o'zim ojizlik qilib qoldim.

– O'tiring, ser Genri. Agar sizning fikringizni to'g'ri tushungan bo'lsam, Londonga kelishingiz bilan siz odatdagidan boshqacharoq bir hodisaga duch kelgan bo'lsangiz kerak?

– Men bunga unchalik ahamiyat berayotganim yo'q, mister Xolms. Kimdir men bilan hazil qilgan bo'lsa kerak. Lekin bugun ertalab, basharti xat deb aytishga arzigudek bo'lsa, mana shu xatni oldim.

U bir konvertni stol ustiga qo'ydi, biz ham konvertni ko'zdan kechira boshladik. U kulrang qog'ozdan yasalgan juda oddiy konvert edi. Konvertning ustiga katta bosma harflar bilan: «Otel Norsamberlend, ser Genri Baskervilga» degan manzil yozilgan edi, «Chering-kross» degan pochta

shtampida bu xat o'tgan kun kechqurun yuborilgani ko'rinib turardi.

Xolms mehmonimizga tikilib turib so'radi:

– Sizning «Norsamberlend» oteliga kelib tushishingizdan biror kimsaning xabari bormidi?

– Hech kimning xabari yo'q edi. Doktor Mortimer bilan uchrashganimdan keyingina qayerga tushishim aniq bo'lgan edi.

– Lekin doktor Mortimerning o'zi o'sha otelga tushgandir?

– Yo'q, men tanishlarimnikida turibman, – dedi doktor. – Biz xuddi shu otelga borishimizni hech kim bilmas edi.

– Hm! Demak, sizlarning qayoqlarga borishingizga kimdir juda ham qiziqyapti.

Xolms konvertning ichidan to'rt buklangan qog'ozni olib, ochdi va stol ustiga qo'ydi. Varaqning o'rtasiga bosma so'zlar bir-biriga yopishtirib tuzilgan bitta-yu bitta jumla ko'zga tashlandi. Shu jumlada quyidagi so'zlar bor edi: «*Agar aqlingiz bo'lsa va sizga hayot kerak bo'lsa, torf botqoqliklarga yaqin yo'lamang*». «Torf botqoqliklari» degan so'zlar siyoh bilan qo'lda yozilgan edi.

– Endi siz, mister Xolms, – dedi ser Genri Baskervil, – bu so'zlarning zamirida nimalar borligini va mening ishlarimga kim shu qadar qiziqayotganini tushuntirib berolmaysizmi?

– Qani, ayting-chi, doktor Mortimer, siz bunga nima deysiz? Bu voqeada hech bir g'ayritabiiy narsa bo'lmasa kerak?

– Ha, ser. Ehtimol, bu xatni shu voqeaning mutlaqo g'ayritabiiy ekanligiga astoydil ishongan kishi yuborgan bo'lishi mumkin.

– Qanaqa voqea? – deb keskin so‘radi ser Genri.  
– Siz, jentlmenlar, ishlarimdan o‘zimga qaraganda yaxshiroq xabardorga o‘xshaysiz!

– Biz sizga hammasini aytib beramiz, ser Genri. Buni bilib olmasdan turib, bu yerdan hech yoqqa ketmaysiz, gapimga ishonavering, – dedi Sherlok Xolms. – Ammo hozir kecha kechqurun tayyorlanib, pochta qutisiga tashlangan mana shu g‘oyat qiziqarli hujjat bilan shug‘ullanib ko‘raylik. Uotson, sizda kechagi «Tayms» gazetasi bormi?

– Ana, burchakda turibdi.

– Sizni ovora qilsam bo‘ladimi? Bosh maqola bosilgan anavi sahifasini, marhamat qilib menga olib bering. – U bosh maqolaga tez ko‘z yugurtirib chiqdi. – «Savdo erkinligi»... Juda yaxshi bosh maqola ekan! Uning bir abzatsini ijozatingiz bilan o‘qib beraman. *«Agar biror kishi siz shaxsan manfaatdor bo‘lgan sanoat tarmog‘ini proteksiya tariflari hamisha himoya qilib turadi, degan fikrni uqtirmoqchi bo‘lsa, bunday odamlarga aslo yaqin yo‘lamang, chunki bunday sistema davom etadigan bo‘lsa, u axir bir kun bizning importimizga putur yetkazishini va orolimizning normal hayot kechirishini buzib qo‘yishini o‘z aqlingiz bilan bilib olishingiz kerak, zero, orolimizning manfaatlari hammamizga qimmatlidir»*. Siz bunga nima deysiz, Uotson? – deb xitob qildi Xolms va quvonib qo‘llarini bir-biriga ishqadi. – Juda yaxshi fikr aytilibdi, shunday emasmi?

Doktor Mortimer mehribon shifokorlar og‘ir bemorga qaragan nazar bilan Xolmsga qaradi, ser Genri Baskervil esa hayron, quralay ko‘zlarini menga tikdi.

– Tarif siyosati singari masalalarni unchalik tushunmayman, – dedi u, – lekin chamamda, o‘z mavzuyimizdan biroz chetga chiqib ketganga o‘xshaymiz.

– Aksincha! Biz xuddi shu mavzuga yaqinlashib kelmoqdamiz, ser Genri. Uotson uslubimni sizdan ko‘ra yaxshiroq biladi, lekin men o‘qib bergan parchaning ma‘nosini hatto u ham payqamagan bo‘lsa kerak, deb qo‘rqaman.

– Ha, rostini aytsam, gazetada yozilgan so‘zlar bilan xat o‘rtasida biror aloqa borligini payqaganim yo‘q.

– Ammo, azizim Uotson, ular bir-biriga shu qadar chambarchas bog‘langanki, aslini olganda ularning biri ikkinchisidan olingan desa bo‘ladi. «Agar», «sizga», «yaqin yo‘lamang», «bo‘lsa», «hayot», «aqlingiz», «kerak». Shu so‘zlar qayerdan olinganini nahotki payqamayotgan bo‘lsangiz?

– E, buni qarang-a! Gapingiz haq, albatta. Buni topganingizga qoyilman! – deb xitob qildi ser Genri.

– Agar siz hali ham shubhalanayotgan bo‘lsangiz, «yaqin yo‘lamang» degan so‘zlarga qarang – bu so‘zlar tutash qirqib olingan.

– Qani... ha, haqiqatan shunday!

– Bilasizmi, mister Xolms, men bunaqa narsalar bo‘lishi mumkinligini hatto xayolimga ham keltirmagan edim! – dedi doktor Mortimer do‘stimga taajjublanib qarab. – So‘zlarning gazetadagi maqoladan qirqib olinganini bir amallab payqasa bo‘ladi. Ammo qaysi gazetadan olinganini xato qilmay aytish, hattoki qaysi maqoladan olinganini

ko'rsatib berish hech bir aqlga sig'maydigan ish bo'ldi! Buni qayoqdan bildingiz?

– Siz, doktor, negrning bosh suyagini eskimosning bosh suyagidan farq qila olsangiz kerak?

– Albatta, farq qila olaman.

– Qanday qilib?

– Bu mening hunarim-ku, axir! Bu ikki xil bosh suyagining o'rtasidagi farq ochiq bilinib turadi-da. Ko'z qovog'ining tuzilishi, yuz suyagining burchagi, chakak suyagining tuzilishi...

– Mening ham o'z hunarim bor. Sizning negrlaringiz bilan eskimoslarning o'rtasidagi farq qanchalik aniq bo'lsa, «Tayms» gazetasining bosh maqolasini terish uchun orasiga shponlar<sup>43</sup> qo'yib ishlatilgan borges<sup>44</sup> bilan kechki bachkana gazetalarning xira harflari o'rtasidagi farq ham, menimcha, shunday aniq sezilib turibdi. Harflarni bilish – jinoyatni qidirib topuvchi xufiya oldiga qo'yiladigan eng oddiy talablarning biri, ammo shuni e'tirof qilib aytishim kerakki, yoshlik chog'imda men bir vaqt «Lid Merkurii» gazetasi bilan «Ertalabki xabarlar» gazetasini bir-biridan farqlolmay qolgan edim. Lekin «Tayms» bosh maqolasining qanday harflar bilan terilganini darrov bilib olish mumkin. Mana shu so'zlar faqat o'sha bosh maqoladan qirqib olingan. Modomiki, xat kecha yuborilgan ekan, demak, biz avvalo, gazetaning kechagi soniga qarashimiz kerakligi o'z-o'zidan ma'lum edi.

---

<sup>43</sup> Shponlar – gazeta satrlarining orasini kengaytirmoq uchun bosmaxonada u satrlar orasiga qo'yiladigan yupqa metall plakchalar.

<sup>44</sup> Borges – bosmaxonada ishlatiladigan harflarning bir turi.



– Demak, mister Xolms, – dedi ser Genri Baskervil, – kimdir qaychi bilan qirqib olib, shu xatni tuzgan ekan-da...

– Buning uchun manikyur qilinadigan qaychi ishlatilgan, – dedi uning gapini bo‘lib Xolms. – Manikyur qaychilarining pichog‘i kaltaligiga e‘tibor qilganmisiz? «Yaqin yo‘lamang» degan so‘zlarni qirqib olish uchun qaychini ikki marta solishga to‘g‘ri kelgan.

– Juda to‘g‘ri. Kimdir bu so‘zlarni uchi kalta qaychi bilan qirqib olib yopishtirgan...

– Gummiarabik yelimi bilan, – deb ilova qildi Xolms.

– ...Gummiarabik yelimi bilan qog‘ozga yopishtirgan. Ammo «torf botqoqliklariga» degan so‘zlar qo‘lda yozilganining sababi nima?

– Buning sababi shuki, xat muallifi shu so‘zlarni gazetadan topolmagan, boshqa so‘zlarning hammasi juda oddiy, ularni har qanday matnda uchratish mumkin, ammo bu so‘zlar juda kam uchraydi.

– G‘oyat ishonsa bo‘ladigan qilib izohladingiz. Xo‘sh, mister Xolms, yana nimalarni o‘qib, payqab olishga muvaffaq bo‘ldingiz?

– Garchi muallif hech bir iz qoldirmaslik uchun joni boricha harakat qilgan bo‘lsa ham, ammo ba‘zi bir narsalarni bilib olishga muvaffaq bo‘ldim. O‘zingiz ham ko‘rib turibsizki, manzil katta bosma harflar bilan yozilgan, lekin «Tayms» singari gazeta oddiy kishilarning qo‘liga kamdan kam tushadi. Binobarin, bundan chiqarishimiz lozim bo‘lgan xulosa shuki, bu xatni o‘qimishli

kishi tuzgan, ammo u o'zini ilmsiz kishi qilib ko'rsatishga uringan va garchi hozir bo'lmasa ham, ammo keyinroq birov meni bilib qolmasin deb, xavotir bo'lib, dastxatini atayin o'zgartirgan. Bundan tashqari, yana bir xulosaga e'tibor qiling, so'zlar bir tekisda yopishtirilmagan, so'zlarning ba'zilari satrdan chiqib turibdi. Masalan, «hayot» so'zi aslo o'z joyida emas. Bu narsa xat muallifining besaranjomligini, ehtimolki, hayajonlanib yoki shoshib ishlaganini ko'rsatib turibdi. Ammo men xat muallifi hayajonlanib va shoshib ishlagani uchun shunday qilmagan bo'lsa kerak, deb o'ylayman, chunki bunday o'qimishli odam shu qadar besaranjomlik qilmasligi kerak edi. Agar haqiqatan ham u shoshib shunday qilgan bo'lsa, buning sababini bilishimiz kerak. Kecha pochta qutisiga solingan xat ser Genrining qo'liga otelda turgan vaqtda, albatta, tegishi kerak edi. Ehtimol, xatning muallifi biror to'sqinlikdan qo'rqqandir? Lekin kim to'sqinlik qilishi kerak ekan?

– Biz jumboqlar yechish bilan ovora bo'lyapmiz, shekilli, – deb qo'ydi doktor Mortimer.

– Yaxshisi, haqiqatga eng to'g'ri keladigan jumboqni yechish bilan ovora bo'layotirmiz, deb aytib qo'ya qoling. Xayol kuchidan ilmiy foydalanish mana shunday bo'ladi. Mutaxassislarning xayoli hamisha qat'iy ilmiy asosga tayanib ishlaydi. Siz buni quruq taxmin deb aytishingiz mumkin, albatta, lekin xatning manzili qandaydir bir mehmonxonada yozilganiga aminman desam bo'ladi.

– Nega shunday fikrga keldingiz?

– Konvertga diqqat bilan qarasangiz, uni yozgan kishining ruchka va siyohi yaxshi bo'lmaganini

payqab olasiz. Bir soʻzni yozishda uning perosi ikki marta toʻxtalibdi, mana shunday qisqa manzilni yozish uchun peroni uch marta siyohdonga tiqib olishga toʻgʻri kelibdi. Demak, siyohdonda siyoh juda kam ekan, juda tagida qolgan ekan. Kishining oʻz perosi va siyohdoni boʻlsa, u kamdan-kam hollarda shunday ahvolga tushib qoladi, ammo siyohdonning ham yomon boʻlishi va peroning ham ishlamay qolishi juda siyrak uchraydigan hodisadir. Lekin oʻzingizga maʼlumki, mehmonxonalarda boshqa pero va boshqa siyohdon deyarli boʻlmaydi. Men deyarli hech bir ikkilanmay shuni aytishim mumkinki, agar biz Chering-kross yaqinidagi hamma mehmonxonalarda qogʻozlar tashlanadigan savatlarning hammasini tekshirib koʻrib, «Tayms» gazetasidan qirqib olingan bosh maqolaning qoldiqlarini topishga muvaffaq boʻla olsak, bu gʻalati maktubning muallifini darrov topib olgan boʻlur edik... Toʻxtang! Toʻxtang! Nima bu?

U soʻzlar yopishtirilgan varaqni koʻziga bir-ikki dyuym chamasi yaqinlashtirib, unga diqqat bilan tikilib turdi.

– Bu nima?

– Yoʻq, hech nima emas ekan, – dedi Xolms va xatni stolga qoʻydi. – Qogʻoz juda silliq, hatto ichidan koʻrinadigan belgilari ham yoʻq. Xullas, biz bu gʻalati xatdan bilib olishimiz mumkin boʻlgan narsalarning hammasini aniqlab oldik. Endi siz, ser Genri, Londonga kelganingizdan beri odatdan tashqari qanday narsalarga duch kelganingizni aytib bering.

– Yo‘q, mister Xolms, hech qanday odatdan tashqari bir narsaga duch kelmadim.

– Sizni hech kim ta‘qib qilgani yo‘qmi? Hech kim izingizga tushmadimi?

– Chamamda, men biror jinoyat girdobiga tushib qolganga o‘xshayman, – dedi mehmonimiz.

– Kim izimga tushishi mumkin?

– Sal fursat bersangiz, biz bu to‘g‘rida ham gaplashib olamiz. Ammo hozircha o‘ylab ko‘ring: nahotki, bizga aytadigan boshqa gapingiz bo‘lmasa?

– Aytadigan gapim nimani diqqatga sazovor deb hisoblashingizga bog‘liq.

– Kundalik oddiy hayot doirasidan u yoki bu tariqa chetga chiqadigan narsalarning hammasi e‘tiborimni jalb qilaveradi.

Ser Genri jilmayib qo‘ydi:

– Deyarli butun bolalik va o‘smirlik chog‘larim Qo‘shma Shtatlarda va Kanadada o‘tdi, shu sababli Angliyaning turmush sharoiti menga hozircha yangilik bo‘lib turibdi. Lekin bu yerda kishining oyoq kiyimlaridan bittasi to‘satdan yo‘qolib qolishi sizlarning nazaringizda har kun uchraydigan hodisa hisoblanmasa kerak.

– Oyoq kiyimingizning bittasini yo‘qotib qo‘ydingizmi?

– Voy, do‘stim-e! – deb xitob qildi doktor Mortimer, – uni birov biror joyga shunchaki tiqib qo‘ygandir. Topiladi. Bunaqa arzimas narsalar bilan mister Xolmsni ovora qilishning hojati bo‘lmasa kerak.

– Lekin u kishi mendan, odatdan tashqari biron hodisaga duch kelmadingizmi, deb so‘rayapti-ku axir.

– Mutlaqo to‘g‘ri, – dedi Xolms. – Har qancha bema‘ni bo‘lsa ham mayda-chuyda narsa meni qiziqtiradi. Demak, oyoq kiyimingizning bittasi yo‘qolib qoldi, deng?

– Ha, lekin uni haqiqatan ham biron joyga tiqib qo‘ygan bo‘lishlari mumkin. Kecha kechqurun oyoq kiyimlarimni eshikka chiqarib qo‘ygan edim, ertalab faqat bittasi qolibdi. Dahliz xodimidan surishtirib biror tuzuk javob ololmadim. Menga shunisi alam qiladiki, o‘sha oyoq kiyimlarini bir kun oldin Strendda sotib olgan va hatto kiyishga ham ulgurmagan edim.

– Siz uni tozalashga berganmidigiz? Yangi oyoq kiyimlarini tozalatishning nima keragi bor edi?

– U och jigarrang tusda edi. Men uni qoraga bo‘yatmoqchi edim.

– Demak, siz Londonga kelishingiz bilanoq darhol oyoq kiyimi sotib olish uchun do‘konga bordingizmi?

– Umuman, do‘konlarni aylanib yurdim. Doktor Mortimer men bilan birga edi. Gap shundaki, kishiga katta mulk egasi bo‘lish nasib etgan ekan, u shunga yarasha yaxshi kiyinib yurishi ham kerak-da, ammo men G‘arbda yashaganimda kiyimimga unchalik e‘tibor bermasdim. Boshqa mollar qatorida o‘sha oyoq kiyimlarini ham olti dollarga sotib olgan edim, ammo baribir kiyish nasib etmadi.

– Agar buni o‘g‘irlik desak, juda bema‘ni o‘g‘irlik, – dedi Sherlok Xolms. – Rostini aytsam, doktor Mortimerning fikriga qo‘shilaman, oyoq kiyimingiz tez fursatda topiladi.

– Endi, jentlmenlar, shu vaqtgacha menga ma'lum bo'lmagan narsalar to'g'risida gaplashishni bas qilaylik, – dedi qat'iy ohangda baronet. – Endi siz o'z va'dangizga vafo qilib, shu gaplarning hammasi qayoqqa burilayotganini aytib bering.

– Qonuniy talab, – deb bu fikrga qo'shildi Xolms.  
– Doktor Mortimer, menga aytgan gaplar ser Genriga ham gapirib berishingiz kerak o'ylayman.

Bu iltimos olim do'stimizga dalda cho'ntagidan qo'lyozma va gazetani olib hikoyasini so'zma-so'z takrorladi. Ser Genri diqqat bilan tinglab turdi, goho-goho ta'kid qilgan xitoblari bilan doktorning gaplarini.

Doktorning uzun hikoyasi tamom bo'lgan keyin ser Genri gap boshladi:

– Menga juda ham yaxshi meros qolgan. It to'g'risidagi gaplarni bolalik chog'imda aytgan edim. Oilamizda bu afsonani ko'p gapirib, ammo bunga shu vaqtgacha hech qanday bermagan edim. Amakimning vafot etganidan keyin xayolim shu qadar chuvalib ketdiki, hozirgi narsani tushunolmay turibman. Menir masalada kimga – butxona mutasaddisi qanday polismenigami – murojaat qilish kerakligini aytib berishingiz ham bilmasangiz kerak.

– Gapingiz to'g'ri.

– Yana buning ustiga bugun manjil qo'limga kelib tegdi. Bu xat voqealarning borishi bilan qandaydir bog'langan bo'lishi kerak.

– Ha, – dedi doktor Mortimer, – shu xatda torf botqoqliklarida nimalar bo'layotgan kimdir bizdan ko'ra ancha yaxshiroq biladi.

– Modomiki, ana shu «kimdir» xafv-xatar to'g'risida sizni ogohlantirayotgan ekan, demak, u sizga xayrixoh kishi bo'lsa kerak, – dedi Xolms.

– Balki, aksincha, meni Baskervil-xolldan qo'rqitib chetlashtirish niyatidadir?

– Bu ham ehtimoldan holi emas... Doktor Mortimer, menga mana shunday qiziq, murakkab jumboqni ro'para qilganingiz uchun sizdan g'oyat minnatdorman, lekin endi, ser Genri, masalaning mohiyatini hal qilib olaylik: siz Baskervil-xollga borishingiz mumkinmi yo yo'qmi?

– Nega u yerga bormasligim kerak ekan?

– Borishingiz xatarli bo'lmasa kerak?

– Bu xatar qayerdan keldi: oilamizdagi olabo'jidanmi yoki odamlardanmi?

– Biz ana shuni aniqlab olishimiz kerak.

– Nimaiki bo'lsa ham javobim bitta: na jahannam kuchlari, na odamlarning makr-hiylalari meni bu yerda ushlab qololmaydi. Men ota-bobolarimning uyiga boraman. Mening bu qarorim qat'iy. – Uning qora qoshlari bir-biriga tutashib ketdi, bug'doyrang chehrasiga qizil yugurdi. Baskervillar zotiga xos bo'lgan shijoat shu zotning oxirgi avlodiga ham singib ketgani ochiq sezilib turardi. – Sizdan eshitgan gaplarning mag'zini chaqishga hali ulguranim yo'q. Bu gaplarning butun mohiyatini o'zlashtirib olish va bundan buyon nima qilish kerakligi to'g'risida darhol bir qarorga kelish unchalik oson emas. Men biroz vaqt yakka o'zim qolib shularning hammasini xilvatda o'ylab ko'rsam, deyman. Sizga bir gap aytaymi, mister Xolms? Hozir soat o'n bir yarim, men to'ppa-to'g'ri

o'zinning otelimga boray. Siz va do'stingiz doktor Uotson soat ikkilarda ovqatlanish uchun biznikiga kelsangiz bo'lmaydimi? Shungacha o'ylab, biror qarorga kelib qo'yaman.

– Sizga bu gap ma'qulmi, Uotson?

– Ma'qul.

– Bo'lmasa, boramiz. Sizga keb chaqirib beraymi?

– Yo'q, yaxshisi, piyoda tomosha qilib bora qolaman, shu gaplardan keyin biroz o'zimga kelmasam bo'lmaydi.

– Men jonim bilan sizga hamroh bo'laman, – dedi uning yo'ldoshi.

– Demak, soat ikkida ko'rishamiz. Tezroq ko'rishguncha xayr, yaxshi qolinglar.

Ular zinadan pastga tushib borayotganlarini va eshikni yopib ko'chaga chiqib ketganlarini eshitib turdik. Xolms bir onda o'zgarib ketdi – uning loqaydligidan asar ham qolmadi, u yana ish kishisiga aylangan edi.

– Kiyining, Uotson, tezroq! Bir soniyani ham boy berib bo'lmaydi.

U yo'l-yo'lakay xalatini yechib, darrov xonasiga kirib ketdi va ikki-uch daqiqadan keyin syurtuk kiyib chiqdi.

Biz zinadan chopib pastga tushib ko'chaga chiqdik. Doktor Mortimer bilan Baskervil bizdan ikki yuz qadam narida, oldinda borayotgandilar. Ular Oksford-strit tomon ketishmoqda edi.

– Ularga yetib olaylikmi?

– Aslo yo'q, do'stim! Agar sizni zeriktirib qo'ymasam, men siz bilan sira ham zerikmayman.



Do'stlarimiz haq gapni aytishdi. Mana shunday ertalabki havoda sayr qilib yursang, huzur qilasan, kishi.

U qadamini tezlashtiraverdi, yaqindagina bizning uyimizdan chiqib ketgan kishilar bilan oramizdagi masofa bora-bora yarim barobar qisqardi. Oramizdagi shu masofani saqlab qolgan holda biz ularning ketidan Oksford-stritga, so'ngra Rijent-stritga burildik. Do'konlardan birining oldida ser Genri bilan doktor Mortimer to'xtab vitrinani tomosha qilib turishdi, Xolms ham to'xtadi. Oradan bir necha soniya o'tgach, to'satdan mamnun bo'lib, hm, deb qo'ydi va uning qayoqqa diqqat bilan qarayotganini kuzatib, ko'z tashlagan edim, ko'chaning narigi tomonida bir keb turganini, uning ichida bir odam derazadan qaraganini ko'rdim va keb asta-sekin oldinga siljidi.

– Bizga ana shuning o'zi kerak edi, Uotson! Qani, yuring. Loaqal o'sha odamni yaxshiroq ko'rib qolaylik.

Shu daqiqada ko'z oldimda kebning yon tomonidagi derazasida qalin qora soqol qimirlagandek bo'ldi va kimningdir ko'zlari bizga tikilib qaradi. Shu ondayoq kebning ustki darchasi ochildi, uning ichida o'tirgan odam kebmenga<sup>45</sup> nimadir deb qichqirdi va keb Rijent-strit ko'chasidan g'izillab o'tib ketdi. Xolms bo'sh ekipaj topilib qolarmikin, deb atrofga ko'z tashladi, lekin hech qayerda bo'sh ekipaj ko'rinmadi. So'ngra u bizning

---

<sup>45</sup> Kebmen – keb haydovchi aravakash. (Tarj.)

nazarimizdan tez g'oyib bo'lib borayotgan kebnig ketidan yugurib, ko'chadagi gavjum odamlar orasiga kirib ketdi.

– Voy la'nati-yey! – dedi u gavjum ko'chadan chiqib kela turib va alamdand oqarib ketganidan arang og'iz ochib. – Ishimiz o'ngidan kelmadi-ku! Buning uchun butun ayb menda, Uotson! Uotson! Agar sizda loaqal zarracha odamshavandalik bo'lsa, men qilgan bu xatoni daftaringizga yutuqlarim bilan yonma-yon yozib qo'yishingiz kerak.

– U qanaqa odam edi?

– Bilmayman.

– Ayg'oqchimi?

– Ha, Baskervil Londonga kelgan ondan beri uni kimdir kuzatib yurgani ochiq ko'rinib turibdi. Aks holda uning «Norsamberlend» oteliga tushgani qayoqdan ma'lum bo'lib qoldi? Men shunday fikrga keldim: modomiki, uni birinchi kundan kuzatib yurishgan ekan, demak, bundan buyon ham uni kuzataverishadi. Doktor Mortimer o'zining afsonasini o'qib turgan paytda men ikki marta deraza oldiga borib kelganimga e'tibor bergan bo'lsangiz kerak?

– Ha, esimda.

– Uyimizning oldida biror kimsa laqillab yurmaganmikin, deb bilmoqchi bo'lgan edim, lekin biror shubhali kishini ko'rmadim. Baskervilning payiga tushgan odam aqlli kishi bo'lsa kerak, Uotson. Bu voqeada yo ezgu kuchlar, yoki yovuz kuchlar harakat qilayotgani hanuzgacha menga garchi ravshan bo'lmasa ham, bu vo-

qealarning juda jiddiy ekanligi ko'rinib turibdi, shunday bo'lsa ham, men chetdan kimdir aralashayotganini, kimdir aniq o'ylab ish qilayotganini muttasil sezib turibman. Yangi do'stlarimiz chiqib ketishlari bilanoq men ularni kuzatib yurgan va tutqich bermayotgan kishining sharpasiga duch kelib qolaman, degan umid bilan darhol ularning ketidan yo'lga chiqdim. Ammo u ayyor ekan, piyoda yurishga botinmay, kebga tushib olibdi, kerak bo'lganda orqasidan boraman yoki o'zimni sezdirmay ularning oldidan o'tib ketaman, deb o'ylabdi. U ishlayotgan uslubning yana bir yaxshi tomoni shuki, agar ular kebga tushganlarida edi, ayg'oqchi ularni ko'zdan qochirmagan bo'lar edi. Lekin shunday bo'lsa ham, bu uslubning bir qaltis joyi bor.

– Kebmenmi?

– Xuddi o'zi.

– Attang, biz uning raqamini ko'rmay qolibmiz-da!

– Do'stim Uotson! Garchi men bu safar maqtagudek ish qilmagan bo'lsam ham, nahotki, siz meni kebning raqamini ko'rmay qoldi, deb o'ylasangiz! Marhamat: ikki ming yetti yuz to'rt. Zotan, hozir bu raqamning bizga keragi ham yo'q.

– Yana nimalar qilishingiz mumkin, bilolmay turibman.

– Uni ko'rishim bilan darhol orqamga qaytib, hech bir shoshilmay keb topishim va kebga tushib, ketidan ancha nariroq masofada boraverishim kerak edi. To'ppa-to'g'ri otelga borib, u yerda voqealarning qanday davom etishini kutib tursak,

tag'in ham yaxshiroq bo'lur edi. Bizga notanish bo'lgan o'sha maxfiy kishi Baskervilni otel yonigacha kuzatib qo'ygan bo'lur edi, biz bo'lsak uning o'z uslubidan foydalanib, keyin qayoqqa borishini bilib olgan bo'lur edik. Ammo endi bizning raqibimiz mening o'rinsiz shoshma-shosharligimdan hayron qolarli darajada chaqqonlik bilan foydalandi, chunki bu shoshma-shosharlik bizni unga sezdirib qo'ydi va biz uning izini yo'qotib qo'ydik.

Biz mana shunday gaplashib, Rijent-strit bo'ylab asta-sekin borib, doktor Mortimer bilan yo'ldoshini ko'zdan qochirib qo'ydik.

– Endi ularni kuzatib borishning hech qanday ahamiyati yo'q, – dedi Xolms. – Ularning qorasi yo'qoldi, endi bizga ko'rinishmaydi. Qo'limizda qanday kuzirlar borligini bilib olib, dadillik bilan shu kuzirlarni bosish kerak. Keb ichidagi odamning aftini yaxshi tanib oldingizmi?

– Aftini tanimadim-u, ammo soqolini tanib oldim.

– Men ham... bundan chiqadigan xulosa shuki, uning soqoli yasama bo'lsa kerak. Ehtiyotkorlik talab qilinadigan bunday qaltis ishni qilmoqchi bo'lgan aqlli kishiga o'zini niqoblash uchun soqol kerak. Bu yoqqa bir kirib chiqaylik, Uotson.

Xolms shu hududda hammani yugurdak xizmatkorlar bilan ta'minlab turadigan kontoralardan biriga kirdi. Kontora boshlig'i uni quchoq ochib kutib oldi.

– Buni qarang-a, Uilson, o'sha kichkina ishda sizga bergan yordamimni unutmabsiz!

– Bunaqa yaxshilikni unutib bo'larmidi, ser? Siz tufayli nomim halol, ehtimolki, hayotim ham omon qoldi-ku.

– Mubolag'a qilyapsiz! Aytganday, Uilson, sizning Kartrayt degan bir bolangiz bor edi, shekilli? Sizning ishingizni tekshirayotgan vaqtimda o'sha bola o'zining g'oyat serfahm ekanligini ko'rsatgan edi.

– Ha, ser, hozir ham qo'limda ishlaydi.

– Uni chaqirishning iloji yo'qmi? Rahmat. So'ngra, marhamat qilib mana shu besh funtlik pulni ham maydalab bersangiz.

Boshliq chaqirishi bilan chehrasidan aqlli ekanligi ko'rinib turgan va o'n to'rt yoshlar chamasi serg'ayrat bir bola oldimizga keldi. U mashhur do'stinga mamnuniyat nazari bilan qaradi.

– Menga «Mehmonxonalar ma'lumotnomasi»ni topib bering, – dedi Xolms. – Rahmat. Mana buni qarang, Kartrayt, bu Chering-kross hududidagi yigirma uchta mehmonxonaning nomlari. Ko'rdingizmi?

– Ha, ser.

– Siz shularning hammasiga navbati bilan kirib chiqasiz.

– Xo'p, ser.

– Har qaysi mehmonxonaga birinchi kirishingizdayoq uning shveysariga bir shellingdan pul berasiz. Mana sizga yigirma uch shelling.

– Xo'p, ser.

– Siz, kecha savatlardan chiqarib tashlangan chiqindilarni ko'rishim kerak, deysiz. Buning sababini tushuntirib: bitta juda muhim telegramma

egasiga eltib berilmabdi, shu telegrammani qidirib topishim kerak, deysiz. Tushundingizmi?

– Ha, ser.

– Ammo haqiqatda siz bir necha joyi qaychi bilan qirqilgan «Tayms» gazetasining sahifasini qidirib topishingiz kerak. Mana bu «Tayms» gazetasi, bizga esa uning mana shu sahifasi kerak. Siz gazetaning shu sahifasini uning boshqa sahifalaridan ajrata olasizmi?

– Ha, ser.

– Albatta, shveysarlar sizni dahliz xizmatchilari oldiga yuborishadi, ularga ham bir shellingdan pul berasiz. Mana sizga yana yigirma uch shelling. Yigirma uch mehmonxonadan yigirmatasida savatdagi chiqindilar yo tashlab yuborilgan yoki yondirib tashlangan bo'lishi turgan gap. Lekin qolgan uch mehmonxonada sizga qog'ozlar uyumini ko'rsatishadi, ular ichidan siz gazetaning mana shu sahifasini qidirasiz. Qidirilgan gazetaning topilish ehtimoli juda kam. Yana kerak bo'lib qolar deb, sizga mana bu o'n shellingni ham beraman. Ishingiz qanday borayotganini kechqurun telegraf orqali menga, Beyker-stritga ma'lum qiling... Endi, Uotson, faqat bitta ishimiz qoldi: ikki ming yetti yuz to'rtinchi kebmen kimligini telegraf orqali so'rab bilishimiz kerak, shundan so'ng Bond-stritdagi san'at muzeylaridan biriga kirib, ovqatlanishgacha qolgan vaqtni o'sha muzeyda o'tkazamiz.

## V BOB

### Uzilgan uch ip

Sherlok Xolmsning ajoyib bir qobiliyati bor edi: u ishlar to'g'risida o'ylashni – lozim bo'lib qolganida – darrov bir chekkaga yig'ishtirib qo'ya olardi. U zamondosh Belgiya rassomlari chizgan suratlarni butun vujudi bilan berilib tomosha qildi va vaziyat taqozosi bilan biz ham aralashib qolgan g'alati voqeani ikki soat ichida bir marta ham esga olmadi, desa bo'ladi. San'at muzeyidan to «Norsamberlend» oteliga yetgunimizcha butun yo'l bo'yi faqat suratkashlik to'g'risida gapirib bordi, vaholanki, bu sohada uning tushunchalari juda ham siyrak edi.

– Ser Genri Baskervil sizlarni yuqorida kutib turibdi, – dedi bizga vestibyl navbatchisi. – U mendan mehmonlar kelishi bilan darhol oldinga olib chiqing, deb iltimos qildi.

– Mehmonxonangizda turgan kishilarning ro'yxatini ko'rishimga ijozat berasizmi? – deb so'radi Xolms.

– Marhamat, ser.

Daftarda «Baskervil» familiyasidan keyin yana ikki familiya yozilgan edi: «Teofilus Jonson oilasi bilan, Nyu-Kasldan» va «Missis Oldmor xizmatchisi bilan, Eltondan».

– Bu Jonson bir vaqtlar menga tanish bo'lgan Jonsonning o'zi emasmikin? – dedi Xolms navbatchiga. – U sochi oqargan va biroz oqsoqlanib yuradigan advokatmi?

– Yo'q, ser. Mister Jonson – ko'mir konlarining xo'jayini, hali unchalik qari emas, yoshi sizlarnikiga teng jentlmen.

– U advokat emasligini aniq bilasizmi?

– Aniq bilaman, ser. Mister Jonson bizga tez-tez mehmon bo'lib turadi, bu yerga u birinchi yil kelayotgani yo'q.

– Shundaymi? Mayli, bahslashib o'tirmayman, missis Oldmor... Bu familiya qayerdadir qulog'imga chalingandi. Bilishga qiziqayotganim uchun kechirasiz, lekin ba'zan shunday bo'ladiki, bir tanishingni qidirib yurib, ikkinchisini topib olasan.

– Missis Oldmor sog'lig'ining mazasi yo'qroq xotin. Uning eri bir vaqtlar Gloster shahrining meri bo'lgan edi. Bu xotin har safar shaharga kelganida faqat bizning mehmonxonaga tushadi.

– Sizga tashakkur. Men, ehtimol, uni boshqa bir xonim bilan adashtirgan bo'lsam kerak... Bu savollar juda muhim bir faktni aniqlab olishimizga yordam berdi, Uotson, – Xolms bu gaplarni menga zinadan chiqib borayotganimizda shivirlab davom yettirdi. – Bizning do'stimizga qiziqayotgan odamlar shu yerga tushgani endi bizga ravshan. Demak, ular do'stimizning har bir qadamini sinchiklab kuzatib yurganlariga qanoat hosil qildik, ammo ular do'stimizning ko'ziga ko'rinmaslikka ham mana shunday astoydil harakat qilmoqdalar. Bu esa bizga ko'p narsani bildiradi.

– Masalan, nimani?

– Loqaq shuniki... Xello! Do'stim, nima hodisa ro'y berdi?

Biz tepaga chiqishimiz bilan ser Genri Basker-vilga duch keldik. U g'azablanganidan juda qizarib, chang bosgan eski oyoq kiyimini ushlab olib, zina tepasiga yugurib chiqdi. Uning jahli chiqqanidan



hatto tili ham og'ziga tiqilib qolgan edi. Nihoyat u o'zini o'nglab olib gap boshlashdanoq amerikan-cha talaffuz bilan so'zlay boshladi, ertalab uning bu taxlitda gapirishini payqamagan edik.

– Bu otelda meni kim deb o'ylashayotgan ekan, ahmoq deb o'ylashyaptimi? – deb qichqirdi ser Genri. – Men bilan bunaqa hazillashishga yo'l qo'ymayman! Agar u esi past mening oyoq kiyimimni topib bermasa, sharmandasini chiqaraman! Men ham hazillashishni bilaman, mister Xolms, lekin bu safar bu yerda hazillashaman deb xol qo'yishyapti.

– Yo'qotgan oyoq kiyimingizni hali ham qidirib yuribsizmi?

– Ha, qidirib yuribman, topmagunimcha ko'nglim tinchimaydi.

– Lekin siz och jigarrang tUSDagi yangi oyoq kiyimim yo'qolgan, degan edingiz, shekilli?

– Ha, ser. Endi qorasi ham yo'qoldi.

– Iye! Bunisiga ham qo'lga tushdim deng...

– Xuddi shunday! Bor-yo'g'i uchta oyoq kiyimim bor: biri yangi, och jigarrangda, ikkinchisi qora edi, uchinchisi esa hozir kiyib yurgan amerikan-cha tufli. Kecha kechqurun jigarrang oyoq kiyimimning bittasi yo'qolgan edi, bugun bo'lsa qorasini ham o'g'irlab ketishibdi. Xo'sh, topdingizmi? Javob bersangiz-chi? Nega menga bunchalik tikilib qoldingiz?

Zinaning tepasida hayajonlangan dahliz xodimi – nemis paydo bo'ldi:

– Yo'q, ser. Hammadan surishtirdim, hech kim hech nima bilmaydi.

– Bo'lmasa, gapimga quloq soling: mening oyoq kiyimimni yo kechqurungacha topib berasiz yoki boshqaruvchining oldiga borib, bu yerdan darhol jo'nab ketaman, deb aytaman.

– Oyoq kiyimingiz topilib qolar, ser... Topilishiga va'da beraman... Bir daqiqa sabr qiling, ser.

– Shuni bilib qo'yingki, bu – oxirgi marta sabr qilishim. Sizlarning o'g'rixonangizda narsalarim o'g'irlanishiga ortiq yo'l qo'ymayman. Mister Xolms, sizni bunaqa arzimas narsalar bilan bezovta qilayotganim uchun kechirasiz...

– Bu arzimas narsalar esa bezovta bo'lishga arziydi.

– Siz bu narsalarga juda ham jiddiy qarayapsiz!

– Xo'sh, o'zingiz bunga qanday qaraysiz?

– Men hatto buning sababini ham o'ylayotganim yo'q. Bundan ko'ra bema'niroq, bundan ko'ra g'alatiroq narsaga umrimda shu chog'gacha duch kelganim yo'q edi.

– G'alatiroq dedingizmi?.. Ha, shunday desa ham bo'ladi, – dedi o'jarlik bilan Xolms.

– Xo'sh, o'zingiz bunga nima deysiz?

– Men bunga hali sira tushunolmay turibman. Bu juda chigal voqea, ser Genri. Agar bu voqeani amakingizning o'limiga taalluqli deb hisoblasak, men chigalni yechib bergan besh yuzta eng jiddiy ishlar orasida buni eng chigali desa bo'ladi. Lekin bu chigalning uchini topish uchun qo'limda ba'zi bir iplar bor, shu iplardan biri sizning shu chigal voqeangizni yechishga muqarrar olib kelishi kerak. Chigalni yechishga yordam bermaydigan ipni

ushlab olib, ortiqcha vaqt sarflashimiz mumkin, lekin lozim bo'lgan ipni axir bir kun topib olamiz.

Biz nonushta qilib, yaxshigina vaqt o'tkazdik, nonushta vaqtida to'rtovimizning to'planishimizga sabab bo'lgan masalalar haqida onda-sondagina gaplashdik, xolos. To'rtovimiz Baskervilning raqamiga o'tganimizdan keyingina Xolms uning endi nimalar qilmoqchi bo'lganini surishtirdi.

– Men Baskervil-xollga boraman.

– Qachon?

– Shu haftaning oxirida.

– Menimcha, bu qaroringiz to'g'ri, – dedi Xolms.

– Londonda sizni poylab yurganlariga endi menda hech qanday shak-shubha qolmadi. Ammo bunday katta shaharda o'sha sizni poylab yurgan odamlar kimligini va ular sizdan nimalarni bilib olmoqchi bo'lganini aniqlab olish qiyin. Agar ular yomon niyat bilan shunday ish qilayotgan bo'lsa, bu narsa sizni tahlika ostida qoldiradiki, biz buning oldini olishga o'zimiz qilib qolamiz... Doktor Mortimer, siz ertalab mening uyimdan chiqib ketayotganingizda birortasi sizni poylab yurganini bildingizmi?

Doktor Mortimer sapchib o'rnidan turdi:

– Poylab yurdi, dedingizmi? Kim?

– Afsuski, buni aytolmayman. Dartmurdagi qo'shnilaringiz yoki tanishlaringiz orasida quyuq qora soqolli biror kishi bormi?

– Yo'q... e, to'xtang, to'xtang... Bor albatta. Ser Charlz qasrining xodimi Berrimor quyuq qora soqolli kishi-ku.

– Hm! Hozir u qayerda?

– Baskervil-xollda. Uyni unga tashlab kelganimiz.

– U haqiqatan o'sha yerdami yoki Londondami, tekshirib ko'rish kerak.

– Buni qanday qilib bilamiz?

– Menga telegraf blankini bering. «Ser Genri ni kutib olishga tayyormisiz». Manzilini bunday yozamiz: «Baskervil-xoll, mister Berrimorga». U yerda sizga eng yaqin telegraf qayerda? Grimpendami? Juda soz! Ikkinchi telegrammani Grimpen-ga – kontora boshlig'ining nomiga yuboramiz: «Berrimor manziliga yuborilgan telegrammani uning o'z qo'liga topshirishingizni iltimos qilamiz. Agar u yo'q bo'lsa, telegrammani «Norsamberlend» otelidagi ser Genri Baskervilga qaytarib yuboring». Mana shu, xolos. Berrimor Devonshirda o'z postida turganmi yoki yo'qmi, kechqurun bilamiz.

– Juda soz, – dedi Baskervil. – Aytganday, doktor Mortimer, o'sha Berrimorning o'zi qanaqa odam?

– U sizga qarashli mulkni idora qilib kelgan marhum boshqaruvchining o'g'li. Baskervil-xollda yashab kelayotgan Berrimorlar avlodining to'rtinchisi. Bilishimcha, u va uning xotini juda boobro' kishilar.

– Shunday bo'lsa ham, – dedi ser Genri, – menga shu narsa mutlaqo ravshanki, Baskervil-xoll egasiz qolaversa, ular u yerda g'am-tashvish nimaligini bilmay, bermalol yallo qilib yashay beradi.

– Ha, rost.

– Ser Charlzning vasiyatnomasiga binoan Berrimorga biror nima tegdimi? – deb so'radi Xolms.

– Unga ham, uning xotiniga ham besh yuz funtdan pul vasiyat qilib qoldirgan edi.

– Hm! Ular buni ilgari bilisharmidi?

– Ha. Ser Charlz, men o'lsam falonchiga falon narsa qoldiraman, deb gapirishni yaxshi ko'rardi.

– Qiziq fakt.

– Ser Charlzning vasiyatiga binoan biror nima olgan kishilarning hammasidan shubhalanmasiz, deb o'ylayman, – dedi doktor Mortimer. – Menga ham u ming funt vasiyat qilib qoldirgan.

– Shunday deng! Yana kimga nimalar qoldirgan?

– Vasiyatnomada juda ko'p kishilarga oz-moz pul berish kerakligi va xayr-ehson ishlariga katta mablag'lar vasiyat qilgani aytilgan. Merosning hammasi esa ser Genriga qoldirilgan.

– Shu merosni pulga chaqqanda qancha bo'ladi?

– Yetti yuz qirq uch ming funt.

Xolms taajjublanib, qoshlarini chimirdi.

– Men shu qadar katta kapital meros bo'lib qolganini xayolinga ham keltirmabman, – dedi u.

– Ser Charlzning boy odam deb dovrug'i ketgan edi, lekin qolgan qimmatbaho qog'ozlar bilan tanishib chiqqanimizdan keyingina uning bisoti haqiqatan qanchaligi aniqlandi. Merosning hammasi bir million funtga yaqinlashib qoladi.

– Tavba! Mana shunday katta boylik payiga tushib, qaltis o'yin boshlash mumkin. Yana bir savolim bor: doktor Mortimer, xunuk bo'lsa ham bir tasavvur qilib ko'raylik, buning uchun meni kechirasiz, yosh do'stim biror falokatga uchradi, deb tasavvur qilaylik... U holda yer-mulk kimga meros bo'lib qoladi?

– Ser Charlzning ukasi Rojer uylanmay o‘lib ketgani sababli Baskervil-xoll uning uzoq qarindoshlari bo‘lgan Desmondlar qo‘liga o‘tadi. Jeyms Desmond unchalik yosh emas, u Vestmorlendda ruhoniy.

– Sizga tashakkur. Bu tafsilotlarning hammasi g‘oyat diqqatga sazovor. Siz mister Jeyms Desmond bilan uchrashganmisiz?

– Ha, bir vaqtlar u ser Charlz huzuriga kelgan edi. U ko‘rinishdan juda basavlat va fe‘l-atvorida hech bir nuqsoni bo‘lmagan kishi. Shu narsa esimdaki, ser Charlz uni ta‘minlab qo‘ymoqchi bo‘lgan edi, lekin har qancha qistasa ham, bu taklifni u qat‘iyan rad etgan edi.

– Shunday kamtar bir kishi ser Charlzning butun mol-mulkini meros qilib olishi mumkin edi, deng?

– Unga faqat yer-mulk meros bo‘lib qolar edi, chunki bu yer-mulk shu avlodniki deb hisoblanadi, ammo pullarning hozirgi egasi bu pullarni boshqa biror yo‘lga sarflamasa (albatta, shunday bo‘lishi mumkin), shundagina Jeyms Desmond mazkur pullarga ega bo‘lib qolishi mumkin edi. Ammo ser Genri o‘ziga tekkan merosni o‘zi xohlagancha tasarruf qila oladi.

– Siz, ser Genri, vasiyatnomani tuzib qo‘yganmisiz?

– Yo‘q, mister Xolms, bunga qo‘lim tekkani yo‘q: ish qay ahvolda ekanligini faqat kechagina bildim-ku! Shunday bo‘lsa ham, pulni yer-mulkdan va unvondan ajratib qo‘yish yaramaydi, deb hisoblayman. Baskervil-xoll zotining o‘tmish

shuhratini tiklamoq uchun Baskervil-xoll xo'jayinining qo'lida mablag' bo'lmasa, bu niyatni ro'yobga chiqarib bo'ladimi, axir? Yo'q, uy va yer bo'lgan joyda pul ham bo'lishi kerak.

– Mutlaqo to'g'ri. Demak, ser Genri, men ham siz hech bir kechiktirmay Devonshirga borishingiz kerak, deb hisoblayman. Lekin buning uchun bitta shart bor: sizni u yerga yolg'iz o'zingizni aslo yuborib bo'lmaydi.

– Mister Xolms, nahotki, men bilan borishga rozi bo'lasiz?

– Agar ish jiddiylashib qolsa, men qanday qilib bo'lsa ham sizning oldingizga boraman, ammo o'zingizga ma'lumki, ishim juda ko'p, menga hamma tomondan muttasil talabnomalar kelib turadi, bu esa Londondan chiqib, biror joyga borib uzoq vaqt turishimga imkon bermaydi. Masalan, hozir Angliyadagi eng mo'tabar kishilardan biriga bir qallob tahdid qilib turibdi, mana shu bo'lajak halokatni faqat men daf qila olaman. Yo'q, Dartmurga borib turishimning sira iloji yo'q.

– O'rningizga kimni qo'shib yuborishni maslahat berasiz?

Xolms qo'lini yelkamga qo'ya turib, dedi:

– Agar do'stim bu vazifani o'z zimmasiga olsa, mushkul paytda sizning hojatingizni shu kishi chiqarishi mumkin, bunga o'z tajribamda qanoat hosil qilganman.

Shunday vazifani bajarish menga taklif qilinishini sira kutmagan edim, lekin Baskervil mendan javob kutmasdanoq qo'limni mahkam ushlab olib, silkitdi.

– Doktor Uotson, siz menga juda yaxshi iltifot qildingiz, – deb xitob qildi u. – Qanday ahvoldaligimni ko‘rib turibsiz-ku, ish qay holatdaligini mendan ko‘ra yaxshiroq bilasiz. Agar Baskervil-xollga borib, men bilan birga tursangiz, bu yaxshiligingizni hech qachon unutmayman!

Sarguzashtlarning men uchun hamisha qandaydir alohida latofati bor, Xolmsning so‘zlari va baronet uning taklifini juda xursand qabul qilgani esa menga g‘oyat yoqdi.

– Men mamnuniyat bilan Baskervil-xollga boraman, – deb javob berdim, – vaqtimni sira ayamayman.

– Menga batafsil hisobotlar yuborib turasiz, – dedi Xolms. – Eng qaltis payt kelishi muqarrar, ana shunda o‘zim sizning harakatlaringizga rahbarlik qilib turaman. Shanba kuni jo‘nab ketishingiz mumkin, deb o‘ylayman.

– Bu taklif sizga ma‘qulmi, doktor Uotson?

– Ma‘qul.

– Demak, boshqa biror voqea ro‘y bermasa, biz shanba kuni soat o‘n-u o‘ttizda Paddington vokzalidan jo‘naymiz.

Xayrlashmoqchi bo‘lib o‘rnimizdan turishimiz bilan Baskervil to‘satdan qichqirib yubordi va burchakda turgan javonning ostidan jigarrang oyoq kiyimini tortib olib, xursand bo‘lib dedi:

– Mana, yo‘qolgan oyoq kiyimim.

– Qolgan jumboqlarimiz ham mana shunday osonlik bilan yechilsin! – dedi Sherlok Xolms.

– Lekin har holda bunisi juda qiziq, – dedi doktor Mortimer. – Nonushtaga o‘tirmasdan oldin uyning hamma yog‘ini qidirib chiqqan edim.



– Men ham, – dedi Baskervil. – Titkilab koʻrmagan joyim qolmagan edi. Oyoq kiyimimni hech qayerda koʻrmagan edim.

– Demak, biz nonushta qilib oʻtirganimizda dahliz xodimi oyoq kiyimni u yerga tiqib qoʻygan ekan-da.

Nemisni chaqirtirib keldik, lekin u hech nima ayta olmadi, har qancha surishtirsak ham, hech bir natija chiqmadi. Shunday qilib, ketma-ket roʻy berib turgan juda bemaʼni jumboqlar qatoriga yana bir jumboq qoʻshildi. Ser Charlzning fojiali oʻlimini bir yoqqa qoʻyib turganda ham faqat ikki kun ichida roʻy bergan va sababi aniqlanmagan qator voqealar bizning koʻz oldimizda roʻy berdi; gazetadan qirqib olingan soʻzlardan tuzilgan xat, kebdagi sersoqol notanish kishi, yangi jigarrang oyoq kiyim yoʻqolgani, uning ketidan eski qora oyoq kiyimi ham yoʻqolgani, endilikda esa jigarrang oyoq kiyimi topilib qolgani, xullas, juda qiziq voqealar boʻldi.

Xolms kebgga tushib, Beyker-stritga borayotganida yoʻl-yoʻlakay indamay oʻtiraverdi, Xolmsning qovogʻi soliqligi va tikilib oʻtirgani, men kabi u ham bir-biri bilan bogʻliq boʻlmagandek tuyulayotgan mana shu gʻalati faktlarning hammasini bir tizimga solishga urinayotganidan dalolat berardi. Shu kun qolgan vaqtning hammasini va kechqurungi vaqtni ham u oʻz xonasida ketma-ket papiros chekib va oʻylash bilan band boʻlib oʻtkazdi.

Ovqatlanishga oʻtirish paytimizda bizga ikkita telegramma keltirib berishdi.

Birinchi telegrammada:

«Berrimor uyda ekanligini hozirgina xabar qilishdi. Baskervil», – deyilgan edi.

Ikkinchi telegrammada:

«Yigirma uchta mehmonxonani aylanib chiqdim. «Tayms» gazetasining qirqilgan sahifasini, afsuski, topolmadim. Kartrayt», – degan soʻzlar yozilgan edi.

– Mana, ikkita ip ham birdaniga uzildi, Uotson. Hamma xuddi senga qarshi til biriktirayotgandek boʻlib koʻringan ishdan koʻra yaxshiroq narsa boʻlmaydi. Ana shundagina ishning payiga tushib, uni bir yoqlik qilmaguncha tinchimaydigan boʻlib qolasan. Nima ham derdik, boshqa izdan boramiz-da.

– Bizning ixtiyorimizda yana bir ip bor, oʻsha notanish kishini oʻz kevida olib borgan kebmenni aytmoqchiman.

– Juda toʻgʻri. Uning familiyasini va manzilini bilib berishni Roʻyxat kontorasidan iltimos qilib qoʻydim. Shu savolimga hozir javob kelib qolsa, men bunga ajablanmayman.

Qoʻngʻiroqning jiringlashi Xolmsning muntazir boʻlgan javobi hatto kutganidan koʻra ham oldinroq kelganidan darak berdi, chunki xona eshigida novcha bir kishi koʻrindi, u kebmanning xuddi oʻzi boʻlsa kerak.

– Ikki ming yetti yuz toʻrtinchi raqamni mana shu manzildagi kishi soʻragan edi, deb kontoradagilar menga aytishdi, – deb soʻz boshladi u. – Men yetti yildan beri aravakashlik qilaman, shu vaqtgacha hech kim mendan shikoyat qilmagan edi. Aybim boʻlsa yuzimga aytishsin, deb oʻzim oldingizga keldim.

– Siz hech bir ayb qilganingiz yo‘q, oshnam, – dedi Xolms. – Aksincha, savolinga to‘ppa-to‘g‘ri javob bersangiz, sizga yarim soveren<sup>46</sup> beraman.

– Qayerda yo‘qotib, qayerdan topishingni ham bilmas ekansan kishi, – deb jilmaydi kebmen. – Xo‘sh, xizmat, ser?

– Avvalo, familiyangizni va manzilingizni aytib bersangiz, keyin kerak bo‘lib qolsangiz, sizni qidirib ovora bo‘lmay.

– Jon Kleyton, Borouda, Tarpi-stritdagi uchinchi uyda turaman. Kebim Shiqli-Yardda, Vaterloo vokzali oldida turadi.

Sherlok Xolms bularning hammasini yozib oldi.

– Endi siz, Kleyton, bugun ertalab soat o‘nda shu uyni kuzatib turgan, keyin sizning kebingizga tushib Rijent-stritda ikkita jentlmenni kuzatib borgan kishi haqida menga bilganingizni gapirib bering.

Kebmen hayron bo‘lib Xolmsga tikildi, chamasi, biroz cho‘chidi.

– Nima deya olaman, hammasini o‘zingiz mendan ko‘ra yaxshiroq bilar ekansiz-ku, – deb javob berdi u. – U kishi men xufiyaman, buni hech kimga gapirib yurma, dedi.

– Shuni bilib qo‘yingki, oshnam, bu juda jiddiy ish. Agar siz mendan biror nimani yashiradigan bo‘lsangiz, ishingiz juda chatoq bo‘lishi mumkin. Demak, u o‘zini xufiyaman, dedi deng?

– Ha, ser.

---

<sup>46</sup> Soveren – Angliyada bir funt sterlingga teng oltin pul. (Tarj.)

– Buni u sizga qachon aytdi.

– Kira haqini to'layotganda.

– Yana boshqa biron nima dedimi?

– O'zining familiyasini aytdi.

Xolms menga g'olibona nazar bilan qaradi.

– O'zining familiyasini aytdimi? Juda ehtiyotsizlik qilibdi-ku! Xo'sh, uning oti nima ekan?

– Uning oti mister Sherlok Xolms ekan, – dedi kebmén.

Kebmenning javobi do'stimni juda sarosimaga solib qo'ydi. Uning qiyofasida bunday sarosimalik alomatini umrim bo'yi ko'rmagan edim. Ikki daqiqacha u lol bo'lib turdi, so'ngra xoxolab kulib yubordi.

– Boplabdi, Uotson! Juda ham boplabdi. Qilich o'zining tezligi jihatidan ham, aniq zarba berish jihatidan ham mendan qolishmaydigan raqibimning qo'liga tushibdi. Bu safar u meni juda ham laqillatdi. Demak, uning oti Sherlok Xolms, deng?

– Ha, ser, uning o'zi shunday dedi.

– Juda soz! Endi siz menga u kebingizda qayerda o'tirganini va keyin nimalar bo'lganini aytib bering.

– U ertalab soat to'qqiz yarimda Trafalgar skverda meni chaqirdi. «Men xufiyaman» dedi va aytganimni aniq bajarsang, biror narsani so'rab boshimni qotirmasang, senga ikki gineya pul beraman, deb va'da qildi. Bunaqa puldan kim qaytadi, deysiz. Uni «Norsamberlend» oteliga eltib qo'ydim va o'sha joyda to'xtab turdim. So'ngra ikkita jentlmen chiqib, birjadan keb chaqirishdi va shu ko'chaga eltib qo'yishimni buyurishdi.

– Xuddi mana shu uyning oldiga olib kelgansiz,  
– dedi Xolms.

– Ehtimol. Buni kebinga tushgan kishidan soʻrash kerak, u yaxshiroq biladi. Menga u kvar-talning taxminan oʻrtasida toʻxtab turishni buyur-di, oʻsha joyda biz yana yarim soat chamasi kutib turdik. Soʻngra oʻsha ikki jentlmen yonimizdan oʻtishdi va biz ularning ketidan Beyker-stritga joʻnadik, keyin burilib...

– Buni bilaman, – dedi Xolms.

– Rijent-stritga oʻtishimiz bilan u kebnig ust-ki darchasini ochib: Vaterloo vokzaliga haydang, deb qichqirdi. Men otimni choptirib ketdim, oʻn daqiqa ichida vokzalga yetib bordik. U yerda menga u ikki gineya berdi, aldamadi va vokzal tomon yoʻl oldi. Bora turib qayrilib qarab: «Siz kimligimni bilgingiz kelayotgan boʻlsa kerak? Sherlok Xolmsman», – dedi. Bor gapning ham-masi mana shu.

– Tushundim. Siz keyin uni koʻrmadingizmi?

– Yoʻq, keyin koʻrmadim.

– Endi siz oʻsha mister Sherlok Xolmsning basharasi qandayligini aytib bering.

Kebmen boshini qashib turib dedi:

– Qandayligini aytib berish unchalik oson emas. Yoshi qirqlar chamasida boʻlsa kerak, oʻrta boʻyli, sizdan ikki dyuymcha pastroq desam boʻladi, ser. Toza kiyingan, qora quyuc soqoli bor, oʻzi rang-parroq. Boshqa qanday belgilari borligini aytib berolmasam kerak.

– Koʻzining tusi qanaqa?

– Bunisini payqamabman...

– Bundan boshqa hech bir belgisini eslab qololmadingizmi?

– Yo‘q, ser.

– Yaxshi. Mana bu yarim soveren sizga. Agar o‘sha odam to‘g‘risida yana biron nimani bilib aytib bersangiz, qolgan yarmisini ham olasiz. Xayr, sog‘ bo‘ling.

– Sog‘ bo‘ling, ser. Sizga tashakkur.

Jon Kleyton jilmayib chiqib ketdi. Xolms esa yelkasini qisib va hafsalasi pir bo‘lgandek tabassum qilib menga qaradi.

– Uchinchi ip ham chidash berolmadi, – dedi u. – Endi ishni boshidan boshlayvering. Bunaqa ayyorni ko‘rmagan edim! Uyimizning raqamini bilib olibdi, ser Genri Baskervil maslahat so‘rab bu yerga kelganini bilib olibdi. Rijent-stritda meni ko‘ribdi va kebnings raqamini bilib olganimni va kebmenni qidirayotganimni fahmlabdi, nihoyat meni masxara qilmoqchi bo‘libdi. Gapim esingizda bo‘lsin, bu safar biz munosib raqibga duch keldik. Londonda mag‘lubiyatga uchradim. Devonshirda yutib chiqaman, degan umiddaman. Har holda bir narsa meni juda tashvishga solyapti.

– Nima?

– Sizning safaringiz. Buni sira yaxshi ish deb bo‘lmaydi, Uotson. Yomon va xatarli ish. Bu ishni o‘ylagan sari menga tobora yoqmay qolyapti. Siz, do‘stim, kulavering, ammo agar siz Beyker-stritga sog‘ va salomat qaytib kelsangiz, men juda xursand bo‘laman.

## VI BOB

### Baskervil-xoll

Ser Genri Baskervil va doktor Mortimer tayinlangan kungacha o'zlarining hamma ishlarini tamomladilar va biz oldindan gaplashib qo'yganimizdek, Devonshirga jo'nab ketdik. Mister Sherlok Xolms vokzalgacha kuzatib borayotganida butun yo'l bo'yi menga lozim bo'lgan ko'rsatmalar va maslahatlarni berib bordi.

– Kimdan shubhalanayotganimni, qanday taxminlar qilayotganimni sizga gapirib o'tirmayman, Uotson, chunki sizda oldindan biror fikr paydo bo'lib qolishini istamayman, – dedi Xolms. – Menga juda batafsil bayon qilib berilgan faktlar kerak, bu faktlarni esa o'zim taqqoslab ko'raman.

– Xo'sh, sizni nimalar qiziqtiradi? – deb so'radim.

– Shu ishga ozmi-ko'pmi taalluqli bo'lgan narsalarning hammasi, ayniqsa, yosh Baskervil bilan uning qo'shnilari o'rtasidagi munosabatlarga taalluqli narsalarning hammasi qiziqtiradi. Mabodo, ser Charlzning vafoti to'g'risida biror yangilik eshitsangiz, buni ham yozib yuboring. Keyingi kunlarda ba'zi bir narsalarni surishtirib ko'rdim, lekin afsuski, erishgan natijalarim bilan maqtana olmayman. Men faqat bir narsani bilib olishga muvaffaq bo'ldim: eng yaqin voris bo'lgan mister Jeyms Desmond yoshi ancha ulg'ayib qolgan, haqiqatan, juda yaxshi odam ekan, demak, uning bu ishda hech qanday makr-hiylalari yo'q. Bundan buyon u bilan sira shug'ullanmasak bo'ladi, deb o'ylayman. Binobarin, biz ser Genri

Baskervilga bevosita yaqin turgan kishilar bilan-gina shug'ullanishimizning o'zi kifoya qiladi.

– Er-xotin Berrimorlardan ham birato'la voz kechib qo'ya qolsak, yaxshiroq bo'lmaydimi?

– Aslo! Ulardan voz kechish eng qo'pol xato qilish bo'lur edi. Agar ularda hech bir ayb bo'lmasa, bizning bunday qilishimiz adolatsizlik bo'lardi, agar aybli bo'lsalar, ularni keyin qidirib topib bo'lmaydi. Yo'q, yo'q! Ular bizning shubhamiz ostida tura berishsin. So'ngra, agar yanglishmasam, u yerda bir otboqar, ikki fermer, chamamda, g'oyat sof vijdonli do'stimiz doktor Mortimer va uning xotini bor. Ammo uning xotini to'g'risida bizga hech narsa ma'lum emas. Tabiatshunos Stepltonni va singlisini ham unutmang, uni juda yoqimli xonim deyishadi. So'ngra, Lefter-xolldagi mister Frenklend bor, u ham bizga noma'lum kishi, yana ikki-uchta boshqa qo'shnilar ham bor. Siz mana shu kishilarni doimo kuzatib turishingiz kerak.

– Yuzimni shuvut qilmaslikka urinib ko'raman.

– Qurol oldingizmi?

– Ha, kerakli toshning og'irligi bo'lmaydi, deb o'ylayman.

– Albatta. To'pponchani kecha-yu kunduz yoningizda olib yuring, hushyorligingizni bir soniya ham bo'shashtirmang.

Do'stlarimiz poyezd chiptalarini birinchi klass vagon uchun olib, bizni platformada kutib turishgan ekan.

Do'stimizning savoliga javoban doktor Mortimer:

– Hech bir yangilik yo'q. Qasam ichib ayta olamanki, keyingi ikki kun ichida bizni hech kim



poylab yurganini sezmadim. Biz bu narsani sira unutganimiz yo'q, shu sababli hech kimni nazar-e'tiborimizdan qochirmadik, – dedi.

– Shu kunlarda sizlar bir-biringizdan ajralmagan bo'lsangiz kerak, deb o'ylayman.

– Ha, kechagi kunni hisoblamaganda, bir-birimizdan ajralganimiz yo'q. Mening eskidan bir odatim bor – shaharga kelishim bilan bir kunni o'zimni ovutishga bag'ishlayman, shu odatimni qilib kecha Xirurgiya kollejining muzeyida bo'ldim.

– Men bo'lsam sayr qilib yurganlarni tomosha qilish uchun parkka bordim, – dedi Baskervil. – Hech bir hodisa ro'y bergani yo'q.

– Shunday bo'lsa ham, sizlarning bu qilganingiz yaxshi emas, – dedi Xolms qovog'ini solib va boshini silkitib. – Ser Genri, sherigingiz bo'lmasa, ko'chaga chiqmaslikni sizdan iltimos qilaman, aks holda biror falokatga uchrab qolishingiz mumkin. Oyoq kiyimingizning ikkinchi poyini topdingizmi?

– Yo'q, ser, benom-u nishon yo'qoldi.

– Shunday deng? Qiziq! Xo'sh, yaxshi boringlar, – deb ilova qildi u poyezd siljishi bilan. – Ser Genri! Doktor Mortimer bizga o'qib bergan o'sha g'alati afsonada aytilgan nasihatni esingizdan chiqarmang, yovuz kuchlar bemalol hukmronlik qiladigan tungi paytlarda torf botqoqliklariga sira chiqa ko'rmang.

Derazadan boshimni chiqarib qaragan edim, olisda, platformada qimirlamay, ko'zdan uzoqlashib borayotgan poyezdga qarab turgan Xolmsning novcha gavdasini ko'rdim.

Bizning poyezdimiz g'izillab borardi, men ham o'zimni juda yaxshi his qilmoqda edim. Ham-

rohlarim bilan tanishib olib, doktor Mortimerning spaniel iti bilan o'ynashib boraverdim. Oradan ikki-uch soatcha vaqt o'tgach, temir yo'l bo'yidagi qoramtir yerlar orqada qolib, qizil tUSDagi yerlar boshlandi, g'ishtin uylar o'rniga toshdan yasalgan uylar ko'rina boshladi, atrofi g'ov bilan to'sib qo'yilgan sero't o'tloqlar va bu o'tloqlarda maza qilib o'tlab yurgan qizil sigirlar esa bu joylarda havo har qancha nam bo'lsa ham, iqlim sharqdagiga qaraganda ancha yaxshiroq ekanligidan dalolat berib turardi.

Genri Baskervil vagon derazasidan nari ketmay, o'zi tug'ilib o'sgan Devonshir manzaralarini ko'rib xursand bo'lib qichqirardi.

– Bu yerdan ketganimdan keyin men ko'rma-  
gan joylar qolgani yo'q, doktor Uotson! – dedi u.  
– Shunday bo'lsa ham, bu joylarni ularning hech qaysisiga alishmayman.

– O'z Devonshiriga qoyil bo'lmagan birorta de-  
vonshirlik kishini bizga topib berolmaysiz.

– Bunda gap faqat Devonshirning o'zidagina  
emas, Devonshirda yashab turgan odamlarda  
ham gap ko'p, – dedi doktor Mortimer. – Xushgap,  
serg'ayrat, kelt<sup>47</sup> irqiga mansub bo'lgan odamlarni  
tanib olmoq uchun do'stimizning dumaloq bosh  
suyagiga bir nazar solishning o'zi kifoya qiladi.  
Marhum ser Charlzning bosh suyagi juda noyob  
bir tarzda tuzilgan edi – uning yarmisi gallarniki-  
ga, yarmisi ibroniylarnikiga o'xshardi. Ser Genri,

---

<sup>47</sup> Kelt – qadim zamonlarda Janubiy Angliyada yashagan xalq.

siz yosh bolalik chog'ingizdan beri Baskervil-xollni ko'rmagan bo'lsangiz kerak?

– Men umrim bino bo'lib uni ko'rgan emasman, chunki biz janubiy sohildagi kichkina kottejda yashar edik. Padarimiz o'lganlarida yoshim o'n ikkiga to'lib o'n uchga o'tgan edi, o'sha vaqtning o'zidayoq Amerikadagi do'stlarimiz oldiga ketib qolganman. Bu joylar doktor Uotson uchun bo'lganidek, men uchun ham butunlay, deyarli yangi desa bo'ladi, torf botqoqliklariga yetishimizni sabrsizlik bilan kutyaapman.

– Hali shunaqa deng! Unday bo'lsa, murodinizga yetdingiz – mana o'sha botqoqliklar, ko'rib maza qilishingiz mumkin, – dedi doktor Mortimer derazadan ko'rinayotgan yerlarni ko'rsatib.

Olisda chor burchak yam-yashil yaylovlar va bamisoli to'liqinlanib turgan daraxtzor nariyog'ida tushda paydo bo'ladigan g'alati bir narsadek o'rkachsimon ko'rimsiz kulrang tepalar ko'rindi. Baskervil ko'zini olmay o'sha tomonga qarab borardi, uning sira to'ymay tikilib borayotgani qon jihatidan o'ziga yaqin bo'lgan, shu qadar uzoq vaqt yashab, o'zlaridan keyin shu qadar chuqur iz qoldirgan odamlar bilan va ularning mashaqqatli umr kechirgan o'lkasi bilan birinchi tanishish uning uchun g'oyat ahamiyatli ekanini bildirib turardi. Sportchilar kiyimini kiyib olgan va amerikancha talaffuz bilan so'zlayotgani ochiq sezilib turgan bu yigit oddiy temiryo'l vagonida yonimda o'tirar ekan, men uning bug'doyrang ma'nodor yuziga qarab, bu yigit o'sha tinib-tinchimas va shijoatli odamlarning chinakam avlodi ekan-

ligini his qilmoqda edim. Qalin qoshlar, burun kataklarining nozikligi va katta quralay ko'zlar uning mag'rur, shijoatli va kuchli kishi ekanidan dalolat berardi. Mabodo, ko'rimsiz torf botqoqliklari bizga mashaqqatli va xatarli jumboqni ro'para qiladigan bo'lsa, bunday kishi uchun deb har qancha qiyinchiliklarga bardosh berish mumkin, chunki u har qanday qaltis va mashaqqatli tashvishga bemalol sherik bo'la oladi.

Poyezd noobod kichkina stansiyada to'xtadi va biz vagondan tushdik. Pastak oq devorning orqasida ikkita kichikroq abjir ot qo'shilgan arava turgan ekan. Bizning kelishimiz bu yerdagilar uchun katta voqea bo'lsa kerak, chunki stansiya boshlig'ining o'zi va yuk tashuvchilar, xullas, hamma atrofimizni o'rab olib, bizga yordamlashishga tutindi. Bu yer yoqimli kichik bir qishloq ekan, lekin platformadan chiqaverishda qora mundir kiygan ikki askarni ko'rib taajjublandim. Askarlar o'zlarining karabin multiqlariga tayanib, bizga tikilib turardilar. Afti g'adir-budirroq va o'zi qovushmaganroq yigit bo'lgan kucher boshidan shlyapasini olib, ser Genri Baskervilga salom berdi va oradan besh daqiqa o'tgach, biz uning aravasida keng oq yo'lga tushib olib, g'izillab ketaverdik. Yo'lning ikki tomonida qirlardagi yam-yashil yaylovlar, qalin daraxtzorlar orasida tomlarning uchi cho'qqayib turgan imoratlari ko'rinardi, ammo oldinda, mana shu tinch, serquyosh yerlarning nariyog'ida kechki osmon ufqida torf botqoqliklarining ko'rimsiz manzarasi qorayib ko'zga tashlanardi, botqoqliklar orasida

onda-sonda mudhish tepaliklarning dikkaygan uchlari ko'rinib turardi.

Bizning aravamiz yon tomondagi yo'lga burildi, ana shunda bundan bir asr muqaddam tepaliklar orasini yorib o'tkazilgan chuqur yo'l bo'ylab yuqorilikka ko'tarila boshladik, tepaliklar ustini qirq-bo'g'in deb atalgan o'tlar va nam bosgan yo'sinlar qoplagan edi. Atrofdagi o'sib yotgan qirqquloq va maymunjon barglari botib borayotgan quyosh nurida yaltirab turardi. Biz yuqorilikka ko'tarila borib, kulrang toshlar orasidan ko'pirib oqayotgan sersuv tezoqar soy ustidagi tor tosh ko'prikdan o'tib ketdik. Yo'l ham, soy ham eman va qarag'ay daraxtlari qalin bo'lib o'sgan vodiy orqali ilonizi bo'lib o'tgan edi.

Lekin yo'lning har bir burilishida Baskervil tevarak-atrofga qiziqib ko'z tashlab, xursand bo'lib qichqirib yuborar edi va bizga behisob savollar yog'dirar edi. Uning nazarida, bu yerda hamma narsa chiroyli bo'lib ko'rinar, lekin kuz hidi kelib, huvillab turgan bu yaylovlar va adirlar menda g'amginlik hislarini tug'dirgandi. Yer bag'irlab uchib yurgan xazon so'qmoq yo'llarini gilam kabi qoplamoqda edi. Aravamizning g'ildiraklari chirib borayotgan qalin o'tlar ustidan o'tib borar ekan, shu g'ildiraklarning taqillagan ovozi ham asta-sekin o'chib qoldi. «Baskervil-xollning yangi xo'jayini oyoqlari ostiga tabiat o'zining ayanchli poyandozlarini to'shayapti», – deb o'yladim.

– Qarang! – deb birdan qichqirib yubordi doktor Mortimer. – Anavi nima?

Ustini supurgigul o'tlari qoplagan tik adir ro'paramizda ko'zga tashlanib turardi, bu adir torf botqoq-

liklari yaqinligidan xabar beruvchi birinchi darakchi edi. Shu adirning tepasidan miltiq o'q talib, ot minib turgan bir kishi xuddi baland supaga o'rnatilgan otliq sarboz haykaldek qaqqayib turardi. U biz bo'rayotgan yo'lni kuzatib turardi.

– O'zi nima gap, Perkins! – deb so'radi doktor Mortimer.

Aravakashimiz bizga qayrilib qarab dedi:

– Prinstaun turmasidan bir mahbus qochgan ekan, ser. Uni uch kundani beri qidirib yurishibdi. Hamma yo'llarga, hamma stansiyalarga soqchilar qo'yishdi, ammo hozirgacha topilgani yo'q. Bu yerning odamlari bunga juda norozi, ser.

– Nega? Qochgan mahbusning qayerdaligini ko'rsatib bergan kishiga besh funt mukofot beriladi-ku.

– Shundog'ku-ya, ser, lekin besh funt olishga umid juda kam, ammo u o'zining payiga tushgan odamni bo'g'izlab ketishi turgan gap. Bunaqa odam hech balodan qaytmaydi axir, u shunchaki mayda o'g'ri emas-da.

– Kim ekan u?

– Nottingxilda odam o'ldirgan Selden degan kishi.

Selden voqeasini men yaxshi bilaman, chunki Sherlok Xolms ham Selden odamlarni shafqatsizlik bilan o'ldirganiga va u yovuzning hamma harakatlarida bema'ni yirtqichlik izlari borligiga qiziqib, o'z vaqtida bu voqea bilan shug'ullangan edi. Seldenning jinoyati shu qadar dahshatli edi-ki, hatto sudyaning o'zi ham uning aqli rasoligiga shubhalanib qolgan, shu sababli uni qatl etish o'rniga turma jazosiga hukm qilgan edi.

Arava adir tepasiga chiqib oldi va bizning ko'z oldimizda poyonsiz torf botqoqliklari paydo bo'ldi, shu botqoqlikda tog' toshlaridan yasalgan dolmenlar<sup>48</sup> va tosh ustunlar onda-sonda ko'rinib turardi. Botqoqlik tomonidan esayotgan izg'irin shamol suyaklarimizgacha o'tib, bizni junjiktirmoqda edi. Mana shu yoqimsiz va ko'rimsiz botqoqlikning qayeridadir odam qiyofasidagi iblis bamisoli yovvoyi yirtqich hayvondek o'z uyasiga kirib olib, o'zini jamiyatdan quvg'in qilgan odamlarga nafrat o'tini qalbida saqlab yotgan bo'lsa kerak. Bizning ko'nglimizni g'ash qilib turgan va ko'z oldimizda yotgan poyonsiz sahro, izg'irin shamol va qorong'ilik bosayotgan osmon sababli tug'ilayotgan mudhish hislarga o'sha iblisning vahimasi ham qo'shildi. Hatto Baskervil ham jim turib qoldi va paltosiga burkanib oldi.

Unumdor joylar orqamizda va bizdan pastda qolib ketdi. Orqamizga qayrilib qaragan edik, botib borayotgan quyosh nurlari oqib turgan soy suvlarini bamisoli oltin tasmaga aylantirib yuborganini, bu nurlar plug bilan haydalgan erda va qalin chakalakzorda yarqirab ko'zga tashlanayotganini ko'rdik. Katta-katta toshlar dumalab yotgan tusi qizg'ish dovonlarni kesib o'tgan yo'l tobora noobod va ko'rimsiz holatga o'ta berdi. Goho-goho bizning oldimizda atrofi tosh devorlar bilan o'rab olingan, hattoki devorlariga chirmashib o'sgan pechak o'tlari ham bo'lmagan kottejlar ko'rinardi. So'ngra esa chuqur vodiya, shu vodiya asrlardan

---

<sup>48</sup> Dolmenlar – juda qadim zamonlardan qolgan va qo'pol ravishda tarashlangan toshlar.

beri esib yotgan qattiq shamollar bukchaytirib va qayirib yuborgan nimjon eman va qarag'ay daraxtlari ko'zga tashlanardi. Daraxtlar orasida baland, ingichka ikkita minora qaqqayib ko'rinib turardi. Bizning aravakashimiz qamchi bilan ko'rsatib dedi:

– Baskervil-xoll ana shu.

Shu yer-mulklarning egasi aravada ro'yi-rost turib oldi – uning chehrasiga qizil yugurdi, ko'zlari olovdek yonmoqda edi. Bir necha daqiqadan so'ng biz suvog'i ko'chgan ikkita ustun o'rtasiga qurilgan jimjimador naqshli cho'yan darvozaning oldiga yetib keldik. Ustunlarning boshida Baskervillarning gerbi – to'ng'iz boshi o'rnatilgan edi. Qasr posbonining g'ishtin uyi eski imorat bo'lib, uning tomidagi yog'ochlar ochilib qolgan ekan, lekin uning ro'parasida hali qurilib bitmagan yangi imorat turardi. Bu ser Charlz Janubiy Afrikadan olib kelgan oltinning bergan birinchi samarasi edi.

Darvozadan o'tganimizdan keyin ikki tomonda o'sayotgan baland qadimiy daraxtlarga ko'zimiz tushdi, shu daraxtlarning shoxlari bir-biriga tutashib, tepamizni mudhish qubbadek qoplab olgandi. G'ildiraklarning taqillashi xazonlarning shitirlashi orasida yana g'oyib bo'ldi. Baskervil ichi qorong'i uzun xiyobonni ko'rib, titrab ketdi, xiyobonning etagida esa imoratning aniq zihlari ko'rinib turardi.

– O'sha hodisa shu yerda bo'lganmidi? – deb so'radi sekingina u.

– Yo'q, yo'q, qarag'ayzor xiyobonda, narigi tomonida.



Baskervil tevarak-atrofga xo'mrayib nazar soldi.

– Amakim bu yerda hamisha qandaydir bir ofat bo'lishini kutib yashaganiga sira taajjublanmayman, – dedi u. – Bu yerda har qanday odam yuragini oldirib qo'yadi. Hali qarab turing, yarim yil o'tar-o'tmas men bu yerga elektr keltiraman, ana o'shanda bu joylarni tanimay qolasiz! Darvozaning oldida har biri ming shamlik Edison va Svan<sup>49</sup> fonuslarini yondirib qo'yaman.

Xiyobondan keyin keng gulzor oldiga chiqdik va uning yonidan o'tib uyga yetdik. G'ira-shirada men bu uyning salobatli ayvonigagina sal-pal ko'zim tushdi. Uyning hamma tomonini pechak-gul qoplab olgan edi. Faqat derazalarning o'rni va gerblar pechak qoplamasdan ochiq qoldirilgan edi. Shinaklari bo'lgan ikkita qadimiy dabdabali minoralar binoning shu qismi ustida qad ko'tarib turardi. Binoning keyingi vaqtlarda qora granit toshdan qurilgan o'ng va chap tomonida ikki qanoti bor edi. Juda ko'p derazalardan gulzorga xira yorug' tushib turardi, uchi ingichka va tik qilib yopilgan tom tepasidagi baland mo'rilardan pag'a-pag'a qora tutun chiqib turardi.

– Xush kelibsiz, ser Genri! Xush kelibsiz, Baskervil-xollga!

Ayvondagi qorong'ilikdan chiqib kelgan novcha kishi aravaning eshigini ochdi. Uy yorug'i tushib turgan eshikda bir xotinning sharpasi ko'rindi.

---

<sup>49</sup> Edison Tomas – amerikalik mashhur ixtirochi. Asosan u ichidagi simi qizib yorug'lik beradigan elektr lampochkasini takomillashtirgani va fonograf ixtiro qilgani bilan mashhur bo'ldi. Svan – elektr lampochkasini ixtiro qilganlarning biri.

U ham bizning oldimizga kelib, mazkur erkakka jomadonlarimizni aravadan olishga yordamlashdi.

– Ser Genri, agar men to‘ppa-to‘g‘ri uyimga ket-sam qarshi emasmisiz? – dedi doktor Mortimer.

– Meni xotinim kutyapti.

– Damingizni oling, birga ovqatlanamiz!

– Yo‘q, ilojim yo‘q. Ishim ham juda to‘planib qolgan bo‘lsa kerak. Uyni men sizga o‘zim bajoni-dil ko‘rsatar edim-u, ammo Berrimor bu vazifani mendan ko‘ra yaxshiroq bajara oladi – uning o‘zi juda yaxshi gid. Yaxshi qoling! Men sizga xoh kunduzi, xoh kechasi, qachon kerak bo‘lsam, hech bir tortinmay odam yuboravering. Buni es-dan chiqarmang.

G‘ildiraklarning taqillashi xiyobonda asta-sekin eshitilmay qoldi; biz uyga kirishimiz bilan orqa-mizdan qalin eshik yopildi.

Biz kirgan uy juda chiroyli edi – o‘zi keng, ba-land, qo‘yilganiga ko‘p vaqt bo‘lgani sababli qora-yib ketgan yo‘g‘on eman xarilar shiftda ko‘zga tashlanib turardi. Yonida o‘tin taxlab qo‘yiladigan cho‘yan panjarasi bo‘lgan qadimiy kaminda olov charsillab yonardi. Uzoq yo‘l yurib, sovqotgani-miz uchun ser Genri ikkimiz qo‘llarimizni darrov olovga tutdik. So‘ngra uyning eman qoplangan devorlariga, rang-barang oyna solingan baland, tor derazalariga, devorlarga osib qo‘yilgan kiyik boshlariga va gerblarga, xira nur berib turgan va arang ko‘rinayotgan qandilga ko‘z yugurtirib chiqdik.

– Men bu joylarning hammasini xuddi shun-day deb tasavvur qilgan edim, – dedi ser Genri.

– Haqiqatan ham, aslzoda kishilar yashagan joyligi bilinib turibdi, shunday emasmi? Mening ota-bobolarim shu uyda besh asrdan beri yashab kelganlar. O‘ylab qarang, axir! Shularni eslasang, beixtiyor kayfing chog‘ bo‘lib ketadi.

Uning chehrasida bolalarga xos xursandlik alo-matlari ko‘rinib turardi. U qandildan tushayotgan yorug‘ gardishida turgani uchun ham gavdasining uzun soyasi devorlarga yoyilgan va tepasi quyuq chodirga o‘xshardi. Berrimor jomadonlarimizni o‘z xonalarimizga eltib qo‘yib qaytib keldi, yoshligidan tarbiyalangan xizmatkorga xos odob bilan bizning oldimizda ta‘zim qilib, bosh egib turdi. U baland bo‘yli, ko‘rinishi yoqimtoy kishi edi, qalin qora soqoli nuroniy oq chehrasiga husn bo‘lib turardi.

– Ovqatga taklif qilsam bo‘ladimi, ser?

– Pishdimi?

– Bir necha daqiqadan keyin tayyor bo‘ladi. Xonalarigizda issiq suv bor. Bir necha kun bu yerda qolsak, xotanim bilan men o‘zimizni baxtiyor hisoblagan bo‘lamiz, ser Genri. Ammo yangi tartib o‘rnatganingizdan keyin sizga ko‘p xodimlar kerak bo‘ladi.

– Qanaqa yangi tartib?

– Shuni aytmoqchi edimki, ser Charlz yolg‘iz o‘zi xilvat yashashni yaxshi ko‘rardi va biz ikkalamiz uning xizmatini bemalol bajara olardik, ammo ser, sizning mehmonlaringiz ko‘proq bo‘lsa kerak, shuning uchun ham, bu yerda hamma narsani yangicha qilarsiz, deb o‘ylayman.

– Demak, xotiningiz bilan bizning xizmatimizdan bo‘shamoqchimisiz?

– Agar sizga malol kelmasa, ser.

– Lekin sizning ota va bobolaringizning bir necha avlodi Baskervil-xollda yashaganlar-ku. Bu yerga birinchi qadam qo'yishim bilanoq eski oilaviy aloqalarni uzishni sira istamas edim.

Eshik og'asining oqargan qiyofasida hayajon alomatlari paydo bo'lganini ko'rib qoldim.

– Bunday qilish men bilan xotiningga ham oson emas, ser. Lekin sizga rostini aytsam, biz ser Charlzga juda o'rganib qolgan edik, uning vafotidan keyin shu vaqtgacha ham o'zimizga kelolmayapmiz. Bu yerda qolish biz uchun og'ir. Endi biz o'zimizni Baskervil-xollda avvalgidek his qila olmaymiz.

– Xo'sh, nima qilmoqchisiz?

– Biror ish topib olarmiz, degan umiddaman, ser. Ser Charlz bizni o'z marhamatlaridan benasib qoldirmaganlar. Agar endi ijozat bersangiz, xonalarigizni ko'rsatsam.

Bu qadimiy zalning ust tomoni galereya bilan o'rab olingan edi. Panjarali galereyaga ikki tomondagi zinadan chiqilar edi. O'sha galereyadan chiqiladigan va butun bino bo'ylab cho'zilgan ikkita uzun dahliz bor edi, har bir yotoqxonaning eshigi shu dahlizga ochilar edi. Mening yotoqxonam Baskervilning yotoqxonasi bilan bir qanotda bo'lib, eshiklarimiz deyarli bir-birimiznikiga ro'para edi. Bu xonalar imoratning markaziy qismidagi xonalarga qaraganda ancha zamonaviyroq ekan, xonaning devorlariga yopishtirilgan gulqog'ozlar va yoqib qo'yilgan juda ko'p shamlar Baskervil-xollda kelishim bilan menda tug'ilgan og'ir taassurotni darhol yengillashtirdi.

Biroq pastki qavatdagi ovqatlanadigan xona o'zining yoqimsiz ko'inishi bilan bizni hayratda qoldirdi. Bu uzun xonaning bir tomonida xizmatkorlarning ovqatlanishi uchun stol qo'yilgan edi, shu xonaning xo'jayinlar ovqatlanadigan qismiga xizmatkorlar ovqatlanadigan qismidan bir pog'ona zina bilan chiqilar edi. Xonaning to'rida sozanda va xonandalar uchun ajratib qo'yilgan maxsus joy bor edi. Bizning tepamizda qorayib ketgan yo'g'on xarilar va dud bosgan shift ko'rinib turardi. Ehtimolki, qadim zamonlarda lovillab yonib turgan mash'allar, aysh-ishrat avj olgan quvnoq ziyofatlar bu ko'rimsiz xonaga husn bag'ishlab turgandir, ammo hozir bitta-yu bitta abajurli lampa yonib turgan shu xonada boshdan oyoq qora kiyim kiygan ikki jentlmen past ovozda gaplashib o'tirar edilar va ularning kayfi anchagina past edi. Qirolicha Yelizaveta zamonidagi to'ralar kiyimida tasvirlangan suratlardan tortib, Regentlik zamoni-dagi olifta kiyimlarda tasvirlangan suratlargacha, juda xilma-xil kiyimdagi ota-bobolarning suratlari devorlardan bizga qarab turar va ularning indamay tikilib turishi ko'nglimizda ma'yuslik tug'dirar edi. Dasturxon ustida suhbatimiz qizimadi, ovqatlanib bo'lganimizdan keyin chekib olish uchun bilyardxonaga chiqdik, zamonaviy tarzda jihozlangan shu xonaga o'tganimizdan keyin o'zimizni ancha yengil his qildik.

– Nimasini aytasiz, vaziyat xursand qiladigan darajada emas, – dedi ser Genri. – Bularning hammasiga ko'nikib qolish mumkin, albatta, lekin hozir men o'zimni begonaroq his qilyapman.

Amakim bunday uyda yolg'iz o'zi turib, asabiy-lashib qolganiga taajjublanmasak bo'ladi. Endi o'z xonalarimizga tarqalishsak ham bo'ladi. Ertalab uyqudan tiniqib turganimizdan keyin bu joylar bizga unchalik yoqimsiz ko'rinmaydigan bo'lib qolar.

Yotishdan oldin deraza pardasini ko'tarib, tashqariga qaradim. Ko'cha eshigi oldidagi gulzor derazadan ko'rinib turardi. Gulzorning naryog'ida baland daraxtlar shamoldan silkinib, g'ijirlardi. Tez suzib borayotgan bulutlar orasidan oy mo'ralab boqardi. Daraxtlar orqasida qoyalarning notekis qatori va yastanib yotgan botqoqlik oy-dinda ko'rinib turardi. Baskervil-xolldan qolgan birinchi taassurotim oxirgi taassurotimdan qolishmasligiga qanoat hosil qilib, pardani tushirib qo'ydim.

Lekin bu taassurot oxirgisi bo'lib chiqmadi. Charchagan bo'lishimga qaramay, baribir, ko'zimga uyqu kelmadi va uxlarmikanman deb, dam u yonboshimga, dam bu yonboshimga ag'darilib yotaverdim. Soatning har o'n besh daqiqada urgan bongi qayerdandir, olisdan eshitilib turardi. Bu uydagi mana shu mudhish jimjitlikni soat zangidan boshqa hech narsa buzmas edi. Jimjit yarim kechada qulog'imga to'satdan aniq bir tovush eshitildi, bu nimaning tovushi ekaniga shubhalanishga o'rin yo'q edi. G'am-g'ussadan qalbi tars yorilgan xotinning goh ho'ngrab, goh entikib, alam-iztirob bilan yig'layotgan tovushi edi bu. Men karavotda turib olib, shu tovushga diqqat bilan quloq sola boshladim. Yig'i ovozi shu

uyning o'zida, qayerdandir yaqinroq bir joydan keldi. Butun vujudim bilan quloq solib yarim soatcha kutib turdim, lekin soatning bong urishi va devorga yopishib o'sgan pechakning shitirlashidan boshqa hech narsa eshitmadim.

## **VII BOB**

### **Merripit-xausda turuvchi Stephtonlar**

Baskervil-xolli birinchi ko'rishda ko'nglimiz g'ash bo'lib qolgan edi, ammo tongning yoqimli latofati bu g'ashlikni esimizdan chiqarib yubordi. Ser Genri bilan nonushta qilishga o'tirganimizda, quyoshning yorqin nuri oynalariga rangdor gerblarning surati tushirilgan tor derazadan uyni yoritib, daraxtlardan tushgan soya bilan olachalpoq bo'lib turardi. Dud bosgan shiftdagi qoplama eman zarrin nur tegib, bronzadek yarqiramoqda edi, kuni kechagina bizning tabiatimizni bu uy kechqurun shu qadar g'amginlikka solganini endi tasavvur qilish qiyin bo'lib qoldi.

– Ko'nglimiz g'ash bo'lishiga bu uy sababchi emas ekan, ayb o'zimizda bo'lsa kerak, – dedi baronet. – Yo'l yurib charchab kelganimiz va sovqotib qolganimiz uchun hamma narsa ko'zimizga xunuk bo'lib ko'rindi. Kechasi dam olib hordiq chiqardik, shuning uchun ham, o'zimizni yaxshi his qilmoqdamiz va tevarak-atrof ham ko'zimizga chiroyli ko'rinyapti.

– Biroq bu ko'ngil g'ashlikning boisi faqat charchaganimizning natijasi deb bo'lmaydi, – deb

javob berdim. – Menga bir narsani ayting, masalan, yarim kechada kimningdir, chamamda, xotin kishining yigʻlaganini eshitmadingizmi?

– Sizga aytsam, shunday bir ovoz uyqu aralash qulogʻimga chalindi. Ancha vaqtgacha quloq solib turdim, keyin tushimda shunday boʻlgandir, deb qoʻya qoldim.

– Yoʻq, men yigʻi tovushini juda aniq eshitdim, xotin kishining yigʻisi ekanligiga aminman.

– Buni hozirning oʻzidayoq Berrimordan surishtirib bilish kerak.

U qoʻngʻiroq chalib, eshik ogʻasini chaqirdi va kechasi eshitalgan yigʻi tovushi qayoqdan kelganini soʻradi. Berrimorning boʻzargan chehrasi xojayinning bu savolini eshitganidan keyin menga yana ham oqarib ketgandek boʻlib koʻrindi.

– Bu uyda faqat ikkita xotin bor, ser Genri, – deb javob berdi Berrimor. – Shu xotirlarning biri – idish-tovoq yuvib yuradigan xotin, u uyning narigi qanotida yotadi, ikkinchisi – mening xotinim, lekin sizni ishontirib aytamanki, xotinim kechasi yigʻlagani yoʻq.

Shunday boʻlsa ham, Berrimor bizga gapning rostini aytmadi, chunki nonushtadan keyin men dahlizda, juda yorugʻ joyda missis Berrimorga duch keldim. U baland boʻyli, yalpoq yuzli, lablarini chimirib yuradigan, koʻrinishidan juda odmi xotin ekan. Lekin qizarib ketgan koʻzlari, qovogʻining boʻrtib turgani kechasi yigʻlagan xotin u ekanligini sezdirib qoʻydi. Demak, kechasi oʻsha xotinning oʻzi yigʻlagan ekan, ammo uning yigʻlaganini eri bilmasligi mumkin emas edi. Shunday boʻlsa



ham, uning eri hatto tutilib qolishidan qo'rqmay, yolg'on gapirdi. Nega shunday qildi? Nechun bu xotin shu qadar ho'ngrab yig'ladi? Nuroniy bo'lib ko'ringan, chehrasi bo'zarib ketgan bu qora soqol kishida mudhish bir sir borligi sezilib turardi. Ser Charlzning jasadini birinchi bo'lib shu kishi topgan, chol Baskervil qanday holatda o'lgani bizga faqat uning aytgan so'zlaridagina ma'lum. Yo bo'lmasa, biz Rijentstritda kebda ko'rgan kishimiz mana shu Berrimorning o'zimikin? Har holda, soqoli juda o'xshaydi. Kebmen uni o'rta bo'yli kishi degan edi, ammo uning ko'ziga shunday ko'ringan bo'lishi mumkin. Haqiqatni men qanday qilib bilib olsam bo'larkin? Avvalo, albatta, Grimpendagi pochta kontorasining boshlig'i bilan gaplashib, bizning telegrammamizni u Berrimorning o'z qo'liga bergan-bermaganligini bilib olishim kerak. Har ikki holda ham Sherlok Xolmsga xabar qilishim uchun loaqal biror ma'lumot qo'limda bo'ladi-ku.

Nonushtadan keyin ser Genri o'z ishiga taalluqli qog'ozlarni ko'rib chiqishga kirishdi, shu sababli men o'z vaqtimdan bemalol foydalanishim mumkin. Botqoqlik chekkasidagi yaxshi yo'ldan to'rt mil chamasi yurib borib, ko'rimsiz, kichkina bir qishloqning oldidan chiqdim. Bu qishloqda, avvalo, boshqa binolarga qaraganda basavlatroq ikkita binoni – mehmonxonani va doktor Mortimerning uyini ko'rdim. Bu yerdagi pochta kontorasining boshlig'i shu qishloqning o'zida baqqolchilik ham qilar ekan. Biz yuborgan telegrammani u unutmagan ekan.

– Albatta esimda, ser, – dedi u, – men telegrammani shu telegrammaning o‘zida aytilganidek mister Berrimorga yubortirganman.

– Uni kim eltib bergan edi?

– O‘g‘lim. Jeyms, sen telegrammani Baskervil-xollga olib borib mister Berrimorga topshirganmiding?

– Ha, dada.

– Uning o‘z qo‘liga berganmiding? – deb so‘radim men.

– Yo‘q, mister Berrimor chordoqda ekanlar, telegrammani xotinlarining qo‘liga berdim, xotinlari darrov erimga topshiraman, deb va‘da berganlar.

– Mister Berrimorning o‘zini ko‘ribmiding?

– Yo‘q, ser, men aytdim-ku, ular chordoqda edilar.

– Uni o‘zing ko‘rmagan bo‘lsang, chordoqda ekanligini qayoqdan bilding?

– Ularning qayerdaligini xotinlari bilishlari kerak-ku, – dedi achchiqlanib pochta boshlig‘i.

– Telegramma eltib berilgan ekanmi, axir? Agar biror xato ro‘y bergan bo‘lsa, mister Berrimorning o‘zi shikoyat qilsin.

Surishtirishni davom ettirishning endi foydasi yo‘q edi, ammo Xolmsning ayyorlik bilan ishlatgan nayrangini hech bir natija bermagani va o‘sha kuni Berrimor Londonga borganmi yoki yo‘qmi, bilolmasligimiz ravshan bo‘ldi. Uni Londonga borgan edi, deb taxmin qilaylik. Ser Charlzning hayotligida oxirgi marta ko‘rgan kishi – mana shu Berrimorning o‘zi. – Deylik, Charlzning vorisi Angliyaga kelishi bilanoq birinchi bo‘lib uning iziga

tushgan. Bundan qanday xulosa kelib chiqadi? Berrimor kimningdir buyrug'i bilan ish qilayotganmikin yoki o'zining makrli rejaları bormikin? Baskervillarni ta'qib qilishning endi nima keragi bor? Gazetadan qirqib olib yopishtirilgan so'zlarda aytilgan g'alati ogohlantirish esimga tushdi. Nahotki, buni Berrimor qilgan bo'lsa? Ehtimolki, bu ogohlantirish xatini ser Genriga xalaqit bermoqchi bo'lgan boshqa biror kishi yuborgandir? Bu savollarga ishonsa bo'ladigan birdan bir javobni ser Genrining o'zi berdi: agar Baskervillar qo'rqib, o'zlarining yer-mulklarini tashlab ketsalar, er-xotin Berrimorlar umrlarining oxirigacha shu joyda bemalol yashaydigan bo'lib qoladilar, dedi u. Ammo, yosh baronetni ustalik bilan ishlatayotgan murakkab nayrang tuzog'iga ilintirmoq uchun mana shunday maqsadning o'zi kifoya qiladimi? Xolmsning o'zi, men tekshirib aniqlab bergan barcha mashhur chigal ishlar orasida bu ish ayniqsa chigal va murakkab ish bo'ldi, deb aytgan edi-ku.

Odamsiz huvillagan yo'ldan qaytar ekanman, do'stim tezroq o'z ishlaridan bo'shab bu yerga kelsin-u, bu og'ir mas'uliyatni bo'ynimdan soqit qilsin, deb Xudodan iltijo qilardim.

Orqamdan tez-tez qadam tashlab kelayotgan kishining shipillashi xayolimni to'satdan qochirib yubordi. Kimdir otimni aytib chaqirdi. Doktor Mortimer chaqirayotgan bo'lsa kerak, deb qayrilib qaradim, lekin soqolini yaxshilab qirdirgan, ingichka cho'ziq dahanli, o'rta bo'yli, o'ttiz besh-qirq yoshlar chamasi, oriqdan kelgan oppoq bir kishi orqamdan shoshilib kelayotganini ko'rib

taajjublandim. Kulrang kostyum kiygan u kishining boshidagi poxol shlyapaga ko'zim tushdi. U botaniklar ishlatadigan temir qutichani yelkasi-dan osiltirib, qo'lida kapalak tutadigan ko'kimtir doka matrabchani ushlab olgan edi.

– Jur'at qilganim uchun kechirasiz, doktor Uotson, – deb gap boshladi notanish kishi nafasini rostlab olishga hali ulgurmay turib. – Biz shu yerning betakalluf kishilaridanmiz va rasmiy ravishda tanishtirishni kutib o'tirmaymiz. Ikkalamizning ham do'stimiz bo'lgan Mortimerdan mening kimligimni eshitgan bo'lsangiz kerak. Men Stepltonman. Shu yerda Merripit-xausda turaman.

Mister Steplton tabiatshunos ekanligi menga ma'lum edi.

– Sizning qutichangiz va matrabchangizni ko'rib, tanib olish qiyin emas, – dedim. – Ammo kimligimni siz qayerdan bildingiz?

– Mortimerning oldida o'tirgan edim, – siz uning qabulxonasi yonidan o'tib borayotganingizda u sizni derazadan ko'rsatgan edi. Men ham shu yoqqa ketayotganim uchun sizga yetib olib, o'zimni tanishtirmoqchi bo'ldim. Ser Genri uzoq safardan keyin unchalik charchamagan bo'lsa kerak, deb o'ylayman.

– Yo'q, u o'zini yaxshi his qilyapti, hol so'raganingiz uchun tashakkur.

– Ser Charlzning ayanchli vafotidan keyin yangi baronet bu yerda yashashni istamas deb hamma-miz xavotirda edik. Badavlat bir kishining shunday gadoy topmas joyda o'zini tiriklayin ko'mib

qo'yishini talab qilish qiyin, lekin uning bu yerda yashashi bizning bu yerlarimiz uchun naqadar manfaatli ekanini o'zingiz ham bilasiz-ku, axir. Ser Genri irim-sirimlarga ishonmasa kerak, shuning uchun ham, o'sha voqea uni qo'rqitib yubormagan bo'lsa kerak, deb o'ylayman.

– Yo'q, qo'rqmagan bo'lsa kerak.

– Bir dahshatli it bor, o'sha it Baskervillar avlodini ta'qib qilib yuribdi, degan afsonani eshitgan bo'lsangiz kerak?

– Ha, eshitganman.

– Bu yerdagi fermerlar juda irimchi odamlar-da! Hayron qolasan kishi! Ularning hammasi ham o'sha dahshatli itni botqoqlikda ko'rganmiz, deb qasam ichishga tayyor. – Steplton tabassum bilan gapirayotgan bo'lsa ham, lekin u o'zi aytayotgan so'zlarni ancha jiddiy bir narsa deb hisoblayotganini ko'zlaridan payqab oldim. – Bu afsonaga ser Charlz astoydil ishonar edi, uni fojiali o'limga olib kelgan narsa ham shu afsona bo'ldi.

– Qanday qilib?

– Odamning asablari tarang bo'lib qolganidan keyin har qanday itning paydo bo'lishi uning kasal qalbiga halokatli ta'sir o'tkazishi mumkin. Chamamda, o'sha kuni kechki paytda ser Charlz qarag'ayzor xiyobonda shunga o'xshash bir narsani ko'rgan bo'lsa kerak. Men u cholni juda yaxshi ko'rardim, uning kasalligidan xabardor bo'lganim sababli, shunday bir falokatga uchrasa kerak, deb ham o'ylar edim.

– Uning yuragi kasalligini siz qayoqdan bilgan-siz?

– Do‘stim Mortimer aytgan.

– Demak, sizning gapingizga qaraganda, ser Charlzga qandaydir bir it tashlangan-u, u qo‘rqib, yuragi yorilib o‘lgan ekan-da?!

– Ehtimol, sizning qo‘lingizda boshqa ishonchliroq ma‘lumotlar bormi?

– Yo‘q, hali men biror muayyan xulosaga kelolganim yo‘q.

– Mister Sherlok Xolms-chi?

Shu so‘zlarni eshitib, bir soniya nafasim tiqilib qolgandek bo‘ldi, lekin suhbatdoshimning chehrasidagi osoyishtalik va qarashidagi qat‘iyat meni u o‘z savoli bilan dovdiratib qo‘yaman, deb o‘ylamaganini ko‘rsatib turardi.

– Doktor Uotson, o‘zimizni sizni bilmagan kishiga solishimizning nima keragi bor? – dedi u.

– Jinoyatlar tagini ochib beruvchi mashhur xufiya to‘g‘risidagi ovozarlar bu yerlarga ham yetib kelgan, siz uning shuhratini yoyaverib, o‘zingiz panada qola olarmidingiz? Siz o‘sha doktor Uotsonning o‘zi ekanligingizni Mortimer bizdan yashirgani yo‘q. Modomiki, siz bu yerda paydo bo‘lgan ekan-siz, demak, mister Sherlok Xolms bu ish bilan qiziqib qolibdi, shuning o‘zidan ma‘lumki, men bu ish to‘g‘risida uning fikrini bilishga qiziqaman.

– Afsuski, sizning savolingizga javob berolmayman.

– Bo‘lmasa, ijozatingiz bilan bir narsani so‘rayman: u kishi iltifot qilib bu yerga kelarmikanlar?

– Hozir u Londonni tashlab ketolmaydi. Uning boshqa ishlari bor.

– Attang! Hammamiz uchun noma‘lum bo‘lgan sirni u kishi ochib berishlari mumkin edi. Lekin

siz ham bu ishni tekshirayotgan bo'lsangiz kerak, doktor Uotson, agar biror yordamim kerak bo'lib qolsa, tortinmasdan mendan foydalanavering. Kimdan shubhalanayotganingizni, ishga qanday kirishmoqchi bo'lganingizni jindek shama qilib qo'ysangiz bas, agar lozim bo'lsa, hozirning o'zida ham maslahatim yoki gapim bilan sizga yordam berolgan bo'lur edim.

– Siz gapimga ishonavering: bu yerga do'stim ser Genrinikiga mehmon bo'lish uchun kelganman, xolos, menga hech qanday yordamning keragi yo'q.

– Ofarin! – deb xitob qildi Steplton. – Siz juda to'g'ri harakat qilyapsiz, birinchi galda ehtiyot bo'lib ish qilgan yaxshi! Shilqimligim uchun shunday zarba yeganim juda to'g'ri bo'ldi. Bundan buyon bu masala to'g'risida og'iz ochmayman, deb va'da beraman.

Biz u bilan shu tariqa gaplashib yurib, yo'lning o'ng tomonida botqoq orasiga kirib ketgan sero't so'qmoq boshlangan joyga kelib qoldik. Yo'lning chap tomonida katta-kichik toshlar yoyilib yotgan tik tepalik bor edi, qadim zamonlarda shu tepalikda granit tosh qazib olinar ekan. Shu tepalikning bizga qaragan tomoni tik ko'tarilgan qiyalikdan iborat bo'lib, shu qiyalikda yo'sin va maymunjon o'sardi. Olisda, ufqda pag'a-pag'a tutun ko'tarilardi.

– Mana shu so'qmoqdan borgan kishiga Merripit-xaus unchalik uzoq emas, – dedi Steplton. – Agar bir soat vaqtingizni ayamasangiz, singlimni sizga mamnuniyat bilan tanishtirib qo'yaman.

Dastlab, hozir ser Genri yonida bo'lishim kerak edi, deb o'yladim, lekin uning stoli ustida uyulib yotgan hisob-kitobdan iborat qog'oz va xatlar esimga tushib qoldi. Bu ishda esa unga men yordamlasha olmasdim. Xolms esa Baskervil-xoll atrofida yashovchi kishilar bilan tanishib olishni mendan iltimos qilgan edi. Stepltonning taklifini qabul qildim va biz o'ng tomonga burildik.

– Bu yerlar juda yaxshi joyda! – dedi u to'liqlar-day ko'tarilib turgan tepaliklarga qarab. Ko'm-ko'k o't bosib yotgan tepaliklarning usti granit toshlardan iborat ajib bir manzarani tashkil etar edi. – Bu botqoqliklarga siz hech qachon nazar-e'tibor bermaysiz, ammo poyoni yo'q, sirli sahro kabi bu botqoqliklarda yechilmagan jumboqlar juda ko'p.

– Ularni siz yaxshi bilasizmi?

– Bu yerga kelganimga ikki yil bo'ldi, xolos. Bu yerning xalqi meni yangi odam deyishsa kerak. Ser Charlz bu yerga kelganidan keyin sal o'tmay biz ham ko'chib kelganmiz, ammo tabiyotchi bo'lganim sababli bu yerlarda men tekshirib chiqmagan joy qolgani yo'q. Torf botqoqliklarini mendan ko'ra yaxshiroq biladigan odam endi kam topiladi, desam bo'ladi.

– Bu joylarni tekshirib bilish shunchalik qiyin ishmi?

– Juda qiyin ish. Mana, masalan, anovi tekislikda onda-sonda ko'tarilib turgan tepaliklarga bir qarang. O'sha tekislikning ajoyibligini nimada deb bilasiz?

– Ot choptirib yurishga yaxshi.

– Sizning o'rningizda bo'lgan har bir kishi, albatta, shunday deydi, ammo ko'p kishilar shun-



day xato fikrga berilib, jonidan judo bo'lgan. Anavi ko'm-ko'k o'tloqlarni ko'ryapsizmi?

– Ha, tuprog'i yaxshiroq yerlar bo'lsa kerak.

Stepleton kulib yubordi.

– Grimpen botqoqligi deb atalgan katta botqoqlik mana shu, – dedi u. – Shu botqoqlikka kirib qolgan odammi yoki hayvonmi, ehtiyotsiz qadam qo'ysa, bas, jonidan judo bo'ladi. Kechagina o'zim kimningdir bir oti botqoqlikka kirib qolganini ko'rdim. Bu ot qaytib chiqolmay halok bo'ldi. Botqoqqa botib borayotgan o'sha otning boshi ancha vaqtgacha ko'rinib turdi. U botqoqdan chiqib olish uchun bo'ynini harchand cho'zib uringan bo'lsa ham, lekin bechorani botqoq oxiri yutib yubordi. Qurg'oqchilik vaqtlarida ham shu botqoqlikka borish xafvli. Kuzgi yomg'irlardan keyin esa bu botqoqliklarga borgan tirik jon qaytib kelolmaydi. Shunday bo'lsa ham, men Grimpen botqoqligining qoq o'rtasiga necha martalab borganman va tirik qaytib kelganman. Qarang, yana bir bechora ot botib ketyapti!

Ko'm-ko'k o'tlar orasida qandaydir qora bir narsa lopillab urinmoqda edi. Keyin o'tlar orasida otning qiynalib cho'zilgan bo'yni ko'rindi, dahshatli kishnash botqoqlikni qopladi, qo'rqqanimdan badanim jimirlab ketdi, lekin yo'ldoshimning asablari menikidan ko'ra baquvvatroq ekan.

– Ha, botqoqlik yutib yubordi bechorani! – dedi u. – Ikki kun ichida o'zim ikkita otning botqoqqa botib yo'q bo'lib ketganini ko'rdim. Men ko'rmay qolib halok bo'lganlar ozmuncha deysizmi? Qurg'oqchilik vaqtlarida otlar bu yerga kelib,

o'tlab yurishga odatlanib qolishadi va kuzgacha kelaverishadi, nihoyat botqoqlikka botib, halok bo'lishadi. Ha, Grimpen botqoqligi juda mudhish joy.

– Shunday bo'lsa ham siz o'sha yerlarga bora-sizmi?

– Ha, bu yerlarda ikki-uchta so'qmoq yo'llar bor, epchil odam shu so'qmoq yo'ldan o'tib borsa bo'ladi. So'qmoqlarni o'zim qidirib topganman.

– Bunday xatarli joylarga borishingizni nima keragi bor?

– Olisdagi hu anavi tepaliklarni ko'ryapsizmi? O'sha tepaliklarni hamma tomoni oyoq bosib bo'lmaydigan botqoqliklar bilan o'rab olingan chinakam orolchalar desa bo'ladi. Siz o'sha tepaliklarga bir amallab borib olsangiz, naqadar noyob o'simliklarni, ajoyib kapalaklarni ko'rasiz!

– Unday bo'lsa, bir kun bir amallab boraman. Steplton taajjublanib menga qaradi.

– Xudo haqi, bu fikrni sira xayolingizga keltirmang, – dedi u. – Siz halok bo'lsangiz, umrbod vijdon azobida qolaman. U yerdan sira qaytib kelolmaysiz, gapimga ishonavering. Men juda murakkab belgilarni bilganim uchungina u yerga borishga jur'at qilaman. To'xtang! – deb qichqirib yubordi u. – Nima bu?

Tasvirlab bo'lmas darajada g'amgin uvillagan ovoz sekin va cho'zilib eshitildi. Bu ovoz butun botqoqlikka yoyildi. Lekin bu uvillash qayoqdan kelayotganini aniqlashning imkoni yo'q edi. Avval ingragan tarzda boshlangan bu tovush, keyin bo'kirishga aylandi, so'ngra yurakni ezadigan

tarzda ingrashga aylanib, yana to'xtab qoldi. Steplton g'alati nazar bilan menga qaradi.

– Bu botqoqliklarning siri ko'p, – dedi u.

– Nimaning tovushi bo'ldi ekan?

– Fermerlar, Baskervillarning iti o'zi chovut qilmoqchi bo'lgan kishini qidirganida mana shunday uvillaydi, deyishadi. Men bunaqa tovushni ilgari ham eshitgan edim, lekin bugun nima uchundir juda ham qattiq eshitildi.

Qo'rqqanimdan badanimni ter bosdi, ufqqa borib taqalgan, ustini ko'm-ko'k to'qay bosgan keng tekislikka qaradim. Na shitirlagan tovush, na unda hayot belgisi bor edi – faqat ikkita qarg'a orqamizdagi qaqqaygan toshga o'tib olib qag'illamoqda edi, xolos.

– Siz ilmi odamsiz, bunaqa bema'ni narsa sizni cho'chitmaydi, – dedim. – Bu uvillashni siz qanday izohlaysiz?

– Botqoqlikdan ba'zan juda g'alati tovushlar chiqadi. Botqoqlik cho'kayotgani uchunmi, yoki suv botqoqlik betiga ko'tarilayotgani uchunmi yoxud boshqa biror sababdanmi, shunday g'alati tovushlar chiqib turadi, kim biladi, deysiz?

– Yo'q, yo'q! Bu tirik maxluqning ovozi.

– Ehtimol. Siz mushtgirning qichqirgan tovushini eshitganingiz bormi?

– Yo'q, eshitmaganman.

– Angliyada hozir bu qush juda kam uchraydigan bo'lib qoldi, yo'qolib ketdi desa bo'ladi, lekin bunday botqoqliklarda shunaqa qushlar bo'lishi mumkin. Shu turdagi qushlardan oxirgi nusxasining qichqirgan ovozini eshitgan bo'lsak

kerak, agar shunday bo'lsa, men bunga sira ta-ajjublanmayman.

– Bunaqa g'alati va mudhish tovushlarni umrim bino bo'lib eshitmagan edim!

– Nimasini aytasiz, bu joylarda sir ko'p. Anavi tepalikka bir qarang, siz uni qanaqa tepalik deb o'ylaysiz?

Tepalikning tik qiyamalari kulrang toshlar bilan halqa kabi qoplanganday bo'lib ko'rinardi. Men yigirmatacha tosh sanadim.

– Nima u? Qo'ylar qo'tonimi?

– Yo'q, qadimiy bobolarimizning makoni. Tarixdan burungi odamlar shunaqa torf botqoqliklarda yashaganlar, ular yo'q bo'lib ketib, bu joylar odam yashamaydigan bo'lib qolganidan keyin kulbasi ham butunligicha, buzilmay qolavergan. Faqat tomi yo'q, xolos. Agar istasangiz, u yerga borib tarixdan burungi odamning kulbasini va yotar joyini ko'rish mumkin.

– Axir, u o'zi butun bir shaharcha-ku! U yerda odamlar qachon yashagan?

– Neolit odamlari<sup>50</sup> yashagan – qaysi davr ekanligi aniq belgilangan emas.

– Ularning kasb-kori nima bo'lgan?

– Shu joyning o'zida, tepaliklarning yonbag'irlarida mol boqib yurgan, toshboltaning o'rnini bronza cho'qmor ola boshlaganidan keyin qalay qazib olishni o'rgangan. Ro'paradagi tepalikda qora-yib turgan zovurni ko'ryapsizmi? Bu zovur neolit

---

<sup>50</sup> Neolit odamlari – tosh asrining eng oxirgi davrida yashagan odam, toshdan yo'nib yasalgan buyumlar tarixdan burungi shu odamning xarakterli belgilaridir.

odamlari qilgan ishning izi. Ha, doktor Uotson, bizning bu yerdagi botqoqliklarda g'alati narsalarni ko'p topasiz. Sabr qiling! Bu Cuclopides bo'lsa kerak.

Bizning yonimizdan kichkina kapalak uchib o'tdi, Steplton g'oyat tez va chaqqonlik bilan uning ketidan yugurdi. Kapalak to'ppa-to'g'ri botqoqlikka tomon uchib borayotganini ko'rib qo'rqib ketdim, lekin yangi tanishim hech narsa bo'lmagandek ko'm-ko'k matrachasini lopillatib do'ngma-do'ng sakrab bormoqda edi. Tanishimning kulrang kostyumi va chaqqon sakrashlari bamisoli juda katta kapalakka o'xshar edi. Men unga goh qoyil qolib, goh qo'rqib qarab turaverdim, nazarimda, u toyib, botqoqlikka botib ketayotgandek ko'rinardi. To'satdan kimdir orqamdan kelayotgandek bo'ldi. Qayrilib qaragan edim, bir xotinning yonimga kelib qolganini ko'rdim. Bu xotin Merripit-xaus yaqinligi sezilib turgan va tutun chiqayotgan tomondan keldi, lekin uning kelayotganini oldinroq payqay olmadim, chunki u yurib kelgan so'qmoq yo'l pastlikka qarab ketgan edi.

Men uning miss Steplton ekanini darrov fahmladim, chunki bu yerlarda boshqa xonimlarga duch kelishning imkoni yo'q edi. Bundan tashqari, menga uni chiroyli qiz deb aytishgan edi. So'qmoq yo'ldan kelayotgan xonim esa o'zining go'zalligi – odatdan tashqari chiroyliligi bilan haqiqatan meni hayratda qoldirdi. Singlisi bilan akasi bir-biriga shu qadar o'xshamagan odamlarni tasavvur qilish qiyin edi. Akasining ko'zi kulrang, nursiz, oqimtir odam, ammo singlisi qorachadan kelgan jonon

edi. Bunday jozibali, qorachadan kelgan qizni Angliyada shu vaqtgacha uchratmagan edim. U qomati kelishgan, nozik, baland bo'yli qiz ekan. Uning latif, mag'rur chehrasi shu qadar chiroyli ediki, agar xushbichim og'ziga va javdirab turgan qora ko'zlarining tez-tez qarashiga nazar solmasangiz, uni oldingizda turgan jonsiz surat deb his qilishingiz mumkin edi. Qomati kelishgan, shu qadar xushbichim kiyim kiygan bunday ayolni torf botqoqliklari orasida ilonizi bo'lib cho'zilgan odamsiz so'qmoq yo'lda ko'rish menga juda g'alati tuyuldi. Men qayrilib nazar tashlaganimda, u olisdagi Stepltonga tikilib turgan edi, lekin shu ondayoq u tez-tez qadam tashlab yonimga keldi. Men nima uchun bu yerga kelib qolganimni tushuntirmoqchi bo'lib boshimdan shlyapamni olishim bilanoq uning og'zidan chiqqan so'zlar mening fikrimni to'satdan butunlay boshqa yo'lga burib yubordi.

– Keting bu yerdan! – dedi u. – Darhol Londonga jo'nang.

Men bunga javoban unga hayron tikilib qoldim. U ko'zlarini javdiratib, sabrsizlik bilan yer tepindi.

– Nega ketishim kerak? – deb so'radim.

– Sababini surishtirmang. – U sekin, tez va sal-pal duduqlanib gapirmoqda edi. – Xudo haqi, maslahatinga quloq soling. Jo'nang, bu botqoqliklarga qaytib oyoq bosmang.

– O'zim kechagina keldim-ku!

– Tavba, – deb xitob qildi u, – nahotki, sizga yaxshilik qilmoqchi bo'lganimni tushunmasangiz, Londonga jo'nang! Shu bugunoq jo'nang! Bu yerda

qolishingiz mumkin emas. Ts! Akam kelyapti! Bu gaplarni unga ayt mang!.. Anavi orxideya gulini menga uzib bersangiz-chi! Bunaqa gullar bu yerda juda ko'p edi, lekin siz biroz kechikib qoldingiz: kuz boshlanishi bilan bu gullarning ochilishi to'xtaydi, bu yerning manzarasi o'z chiroyini ancha yo'qotib qo'yadi.

Stepleton kapalak quvlashni bas qilib, qizarib, bo'rtib va hansirab bizning oldimizga keldi.

– Ie, senmiding, Beril! – dedi u, ammo uning bu gapida unchalik samimiyat borligini his qilmadim.

– Juda ham bo'rtib ketibsan, Jek!

– Ha, men Cuclopidesning ajoyib nusxasini quvlab ketuvdim. Bunaqa kapalaklar kech kuzda bu yerda kam topiladi. Tutolmaganim juda alam qildi-da!

U osoyishta, beparvo ohangda gapirayotgan bo'lsa ham, ammo kichkina kulrang ko'zlari singlisiga emas, hamisha menga tikilardi.

– Sizlar tanishib olganga o'xshaysizlar deyman.

– Ha. Ser Genriga hozir botqoqliklarimizning gashtini surishga kechikib qoldingiz, orxideya ham gullab bo'ldi, deb turgan edim.

– Nima? Nima? O'zingni kim bilan gaplashyapman deb o'ylading!

– Ser Genri Baskervil bilan.

– Yo'q, yo'q, – dedim men, – o'zganing unvonini menga taq mang. Men ser Genrining do'sti doktor Uotsonman, xolos.

Xonimning yoqimtoy chehrasida afsuslanish alomati paydo bo'ldi.

– Demak, bir-birimizni tushunmasdan gaplashibmiz-da, – dedi u.

– Ha, gaplashish uchun vaqtingiz ham unchalik ko‘p bo‘lmagan edi, – deb qo‘ydi Steplton, singlisiga tikilib qararkan.

– Men doktor Uotsonni qo‘shnimiz deb o‘ylabman, – dedi xonim. – Bu yerda orxideya gullaydimi yoki yo‘qmi, uning uchun butunlay ahamiyatsiz bo‘lsa kerak. Lekin shunday bo‘lsa ham, bizning Merripit-xausga kirib chiqasizmi?

Bir necha daqiqa yo‘l yurib, biz ko‘rinishi yoqimsiz fermaga yetib keldik. Ilgari vaqtlarda ferma biror o‘ziga to‘q chorvadorning uyi bo‘lganga o‘xshaydi, keyinroq esa qayta qurilib, unga zamonaviy tus berilgan. Fermaning atrofiga kichkina bog‘i bor ekan; hamma botqoqlik yerlarda bo‘lgani kabi bu bog‘da ham daraxtlar pastakkina va qovjirab yotardi. Bu joy o‘zining g‘aribliyi bilan kishida ma‘yuslik tug‘dirardi. Bizga eshikni ochgan xizmatkor ham shu uyga munosib ekan, aftini ajin bosgan bu cholning egnidagi syurtukning tusi o‘zgarib ketgan edi. Lekin bu uydagi xonalar o‘zining kattaligi va yaxshi bezatilgani bilan meni taajjublantirdi; xonalarning yaxshi bezatilgani xonimning didi bilan qilingan ish bo‘lsa kerak. Uzoqdagi ufqqa borib tutashgan, onda-sonda granit toshlar cho‘qqayib turgan bepoyon botqoqlikka derazadan qarar ekanman, xayolimga bir narsa keldi: «Shunday o‘qimishli bir kishi va uning go‘zal singlisi bunday bema’ni joylarga nima sababdan kelib qoldi ekan?» – deb o‘yladim.

– Ko‘chib kelib o‘rnashish uchun g‘alati joyni tanlabmizmi? – dedi Steplton o‘ylagan fikrimni



sezgandek. – Shunday bo'lsa ham, biz bu yerda yaxshi yashayapmiz. Shunday emasmi, Beril?

– Ha, juda yaxshi yashayapmiz, – deb javob berdi Beril, lekin uning so'zlari qandaydir dudmalroq bo'lib tuyuldi.

– Shimoliy grafliklarning birida maktabim bor edi, – dedi Steplton. – Mizoji menikiga o'xshagan kishi uchun bunaqa ish yoqmaydi, bunaqa quruq ish uni qiziqtirmaydi ham, lekin yoshlar bilan hamisha yaqin bo'lish meni shu ishga moyil qilib qo'yan edi. O'zingda bo'lgan narsalarni, o'z g'oyalaringni yoshlarga o'rgatish, shu yoshlarning aql sohibi bo'lib o'sayotganini ko'rish kishi uchun katta baxt-ku! Lekin taqdir bizga bu ishni ko'p ko'rdi. Maktabda epidemiya boshlanib, uch bola o'ldi. Shu zarbadan keyin biz o'zimizni o'nglab ololmadik. Topgan-tutgan sarmoyamning ko'p qismi sarf bo'lib ketdi. Shunday bo'lsa ham, agar o'zimiz uchun aziz bo'lgan shu bolalardan ajralganimni hisobga olmaganda, bu muvaffaqiyatsizlikka quvondim, desam bo'ladi, chunki botanikaga va zoologiyaga men kabi hirs qo'yan kishi uchun bu yerda ishning poyoni yo'q, singlim ham tabiatga ishqibozlikda mendan qolishmaydi. Bu gaplarni o'z og'zim bilan aytishimga o'zingiz sababchi bo'ldingiz, doktor Uotson. Agar siz derazadan bizning botqoqliklarimizga g'amgin nazar solib turmaganizda, bu gaplarni aytmagan bo'lur edim.

– Ha, rost, haqiqatan men bu yerda yashash sizdan ko'ra singlingizni ko'proq zeriktirsa kerak, deb o'ylab turuvdim.

– Yo'q, zeriktirayotgani yo'q, – deb tez javob berdi Beril.

– Biz ilmiy ish bilan bandmiz, katta kutubxonamiz bor va juda yaxshi qo‘shnilarimiz bor. Doktor Mortimer o‘z sohasida bilimdon va o‘qimishli kishi. Bechora ser Charlz ham dilkash hamsuhbatimiz edi. Biz bir-birimizga juda yaqin bo‘lib qolgan edik. Bu judolik bizga naqadar og‘ir bo‘lganini hatto tasvirlab berishim qiyin. Bosharti, bugun men ser Genri huzuriga borib kelsam nima deysiz? Unga xalaqit bermaymanmi?

– Sizlar bilan tanishsa, u juda xursand bo‘ladi, deb o‘ylayman.

– Agar unday bo‘lsa, borishimizni unga aytib qo‘yishingizni iltimos qilaman. U yangi joyga ko‘nikkuncha dastlabki paytlarda, ehtimol, bizning yordamimiz kerak bo‘lib qolar... Endi, doktor Uotson, yuqoriga chiqaylik, sizga tanga qanotlilardan tuzgan kolleksiyamizni ko‘rsataman. Angliyaning bu qismida shunchalik mukammal kolleksiyani topolmaysiz, desam bo‘ladi. Kolleksiyaning ko‘rib bo‘lgunimizcha ovqat ham tayyor bo‘ladi.

Lekin men do‘stim ser Genrining oldiga borishga shoshilmoqda edim. Botqoqlikdan iborat bu yerlarning g‘amginligi, bechora otning halok bo‘lgani, Baskervillar avlodida og‘izdan og‘izga o‘tib kelgan mudhish afsonaga qandaydir aloqador bo‘lgan sirli uvillash, mana shularning hammasi meni ma‘yuslikka solib qo‘ygan edi. Mana shu g‘alati taassurotlarga miss Stepltonning dangal aytgan so‘zlari ham qo‘shildi. Bu so‘zlar shunday qat‘iyat bilan aytilgan ediki, bu so‘zlarni aytishga olib kelgan sabablarning

jiddiyligiga va chuqurligiga menda hech qanday shak-shubha qolmagan edi. Meni ovqatga taklif qilsalar ham, bu taklifni rad qilib, o'sha so'qmoq yo'l bilan uyimga jo'nadim.

Lekin bu so'qmoq yo'ldan boshqa ancha qisqaroq yana bir so'qmoq yo'l bo'lsa kerak, chunki katta yo'lga chiqishga ulgurmasimdanoq miss Steplton ro'paramda turganini ko'rdim. Uning yuzlarida lovillab turgan qizillik husniga yana ham husn bo'lib tushgan edi; u yo'l bo'yidagi toshga o'tirib olib, qo'llarini ko'kragiga qo'yib og'ir nafas olardi.

– Yo'lingizni to'sib chiqmoqchi bo'ldim, doktor Uotson, shuning uchun ham bu yergacha yugurib keldim, – dedi u. – Hatto shlyapamni kiyishga ham ulgurmadim. Sizni uzoq ushlab turolmayman, akam yo'qligimni sezib qolishi mumkin. Tentaklik bilan xato qilib qo'yganim uchun sizdan kechirim so'ramoqchiman: sizni ser Genri deb o'ylabman. Iltimosim shuki, mendan eshitgan gaplaringizni unuting. Bu gaplarning sizga sira daxli yo'q.

– Qanday qilib unuta olaman, miss Steplton, do'stim ser Genrining taqdiri meni juda qiziqtiradi. Uni Londonga qaytib ketishga nima uchun qistaganingizning sababini aytib bermaysizmi?

– Xotinlarga xos injiqlik-da, doktor Uotson! Siz bilan biz yaqinroq tanishib olganimizdan keyin men aytgan so'zlarim va qilgan ishlarimning sababini hamisha ham tushuntirib berolmasligimga o'zingiz ham qanoat hosil qilasiz.

– Yo'q, yo'q! Siz naqadar hayajonlanib gapirganingiz, ko'zlaringiz javdirab turgani hali ham

esimda. Miss Steplton, menga ochig'ini aytavering, iltimos qilaman! Men bu yerga kelishim bilanoq atrofimda qandaydir sharpalar to'planayotgani-  
ni darrov sezib qoldim. O'zingni xuddi Grimpen botqoqligida borayotgandek his qilasan kishi: o'sha ko'm-ko'k o'tloqlardan birida botib qolayotgandek, seni botqoqlikdan chiqarib olishga hech kim yordam bermayotgandek tuyuladi. Siz nimaga shama qilganingizni menga tushuntirib bering, sizning ogohlantirib aytgan gaplaringizni ser Genriga yetkazaman. Miss Steplton chehrasida ikkilanish alomatlari paydo bo'ldi, lekin oradan bir soniya ham o'tmay, uning qarashi qat'iy tus oldi va menga bunday javob berdi:

– So'zlarimga haddan tashqari katta ahamiyat beryapsiz, doktor Uotson. Ser Charlzning o'limi akam bilan menga juda qattiq ta'sir qildi. Biz marhum bilan tez-tez uchrashib turardik, chunki u bizning uyimizga olib boradigan anavi so'qmoq yo'lda sayr qilib yurishni yaxshi ko'rardi. Bas-kervillar avlodining kushandasi bor, degan afsona ser Charlzning ko'nglini g'ash qilib qo'ygan edi, u halok bo'lganini eshitishim bilanoq bunday xavotirlanish uchun asos borligini tushundim. Ser Charlzning vorisi bu yerga kelgani endi meni juda tashvishga solib turibdi, tahlika solayotgan xafv to'g'risida uning o'zini ogohlantirib qo'yish lozim deb hisoblayman, hamma gap mana shu; men boshqa bir narsa demoqchi emasdim.

– Lekin bu tahlika nimadan iborat deb o'ylaysiz?

– It to'g'risidagi afsonani bilasizmi?

– Bu bema’ni gapga ishonmayman!

– Ammo men ishonaman. Agar ser Genriga o‘zmoz gapingiz o‘tadigan bo‘lsa, uni bu yerdan olib keting. Bu joy Baskervillarga ofat keltiradigan joy. Dunyo keng, ser Genrining shunday tahlikali joyda yashashining nima hojati bor?

– Shuning uchun ham bu yerga kelib yashashga jazm qildi-da. U shunaqa xarakterli kishi. Agar siz aniqroq biror gap aytmasangiz, bu yerdan uni olib ketishga muvaffaq bo‘lolmayman.

– Sizga bundan ko‘ra muayyanroq ma’lumot berolmayman, chunki menda bunaqa ma’lumotlar yo‘q.

– Agar shunday bo‘lsa, miss Steplton, ijozatingiz bilan sizga bir savol beraman. Agar menga aytishingiz mumkin bo‘lgan gaplarning hammasi faqat shu bo‘lsa, nega siz, akam eshitib qolmasin, deb qo‘rqdingiz? Unga yoki boshqa biror kishiga yoqmaydigan biror gapni aytganingiz yo‘q-ku!

– Baskervil-xollning bo‘sh yotishini akam sira istamaydi; bu joy bo‘sh qolib ketsa, shu botqoqlikda yashovchi kambag‘al odamlarga ko‘p zarar yetadi. Ser Genriga o‘z ta’sirimni o‘tkazmoqchi bo‘lganimni akam bilib qolsa, mendan juda xafa bo‘lar edi. Lekin o‘z burchimni ado qildim, aytadigan boshqa gapim yo‘q. Endi men ketishim kerak. Aks holda akam bu yerdaligimni sezib qolsa, siz bilan gaplashdi, deb gumon qiladi. Xayr!

Beril orqasiga qayrilib ketdi va tez orada toshlar orasida g‘oyib bo‘ldi, men bo‘lsam qandaydir noma’lum vahimaga tushib, Baskervil-xoll tomon yo‘l oldim.

## VIII BOB

### Doktor Uotsonning birinchi hisoboti

Shu bugundan boshlab men voqealarning borishini mister Sherlok Xolmsga yuborgan xatlarimda yozilganicha bayon qilaman. Bu xatlar hozir mening oldimdagi stolda turibdi. Shu xatlarning yo'qolib qolgan bir varag'i hisobga olinmasa, yozganlarimning hammasini batamom saqlab qo'yanman. Fikr va gumonlarimning barini shu xatlar faqat o'z xotiramga asoslanib aytib bera olishimga qaraganda aniqroq ifodalab beradi. Lekin shuni aytishim kerakki, o'sha kunlardagi fojiali voqealar hali ham esimdan chiqqani yo'q.

*Baskervil-xoll*  
*13-oktabr*

Azizim Xolms!

Dunyoning mana shu eng tashlandiq burchagida keyingi vaqtlarda ro'y bergan hodisalarning hammasi sizga bundan oldin yozgan xatlarim va telegrammalarimdan ma'lum bo'lsa kerak. Bu yerda naqadar ko'proq yashasangiz, shu botqoqliklarning befayzligi, mana shu bepoyon, lekin hatto o'zining qandaydir ko'rimsiz latofatini yo'qotmagan yerlar tobora ko'proq joningizga tega boshlaydi. Shu keng maydonlarga chiqishim bilan men o'zimni hozirgi Angliyadan ancha uzoqqa ketib qolgan kishiday his qilaman. Atrofimda hozirgi Angliyani emas, balki tarixdan burungi odam yashagan joylarning va o'sha odam qilgan mehnatining izlarigina ko'rinadi. Allaqachonlar yo'q bo'lib ketgan mana shu tarixdan oldingi

qabila hamma joyda o'zini sezdirib turadi – anavi g'orlar, anavi qabrlar, aftidan, uning kulbasi bo'lgan anavi joydagi juda katta tosh uyumlari – shularning hammasi o'sha qabilani esimizga solib turadi. O'sha g'orlar qorayib ko'zga tashlanib turgan tepaliklarning ibtidoiy ish quroli bilan ilma-teshik qilib tashlangan yonbag'irlariga qarasangiz, hozir o'zingizning qay asrda yashab turganingizni unutib qo'yasiz, desam bo'ladi.

Mabodo, ana shu g'orlarning biridan yirtqich hayvon terisiga burkangan va badanini jun bosgan bir maxluq chiqib, qo'lidagi o'q-yoy uchiga tosh o'rnatilgan o'qni o'qtalib, sizga ro'para bo'lib qolsa, siz uning bu yerdaligi o'zingizning bu yerda bo'lishingizga qaraganda o'rinliroq deb his qilgan bo'lardingiz. O'sha odamlarning mana shu unumsiz yerlarda shu qadar zich yashagani menga hamma narsadan ko'ra g'alatiroq tuyuladi. Men arxeolog emasman, lekin tarixdan burungi o'sha odamlar aslo urishqoq kishilar bo'lmasa kerak, balki boshqalar voz kechgan narsalar bilan qanoatlanib kun kechirgan mazlum qabila bo'lsa kerak, deb o'ylayman.

Biroq mana shularning hammasining bu yerda bo'lishiga daxli yo'q. Siz kabi g'oyat amaliyot ahli bo'lgan kishiga bularning hammasi sira qiziq bo'lib ko'rinmasa kerak. Quyosh Yer atrofida aylanadimi yoki Yer Quyosh atrofida aylanadimi, degan masalaga butunlay parvosizlik bilan qaraganingizni hanuzgacha unuta olmayman. Bu gaplarni bas qilib, endi Genri Baskervilga bevosita aloqador faktlarga o'taylik.

Sizga aytadigan hech bir gapim bo'lmagani sababli keyingi bir necha kun ichida men biror ma'lumot yozib yubora olmadim. Lekin shundan beri g'alati bir voqea ro'y berdiki, bu haqda vaqti-soati kelishi bilan sizga ma'lum qilaman. Ammo hozir ishimiz uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa holatlar to'g'risida fikr yuritaylik.

O'zi juda ahamiyatli bo'lsa ham, lekin xatlarimda deyarli tilga olmagan holatlarning biri haqida, u ham bo'lsa, shu yerdagi botqoqliklarda yashirinish yotgan, katorgadan qochib kelgan mahbus to'g'risida gapirmoqchiman. Mazkur mahbus bu yerdagi yakka-yolg'iz fermalarda yashab turgan kishilarni g'oyat quvontirib, bu yerlardan ketib qolgan bo'lsa kerak, deb taxmin qilish uchun hamma asoslar bor. U qamoqdan qochib ketganidan beri oradan ikki hafta vaqt o'tgan bo'lsa ham, undan xabar yo'q. Odamning shu botqoqliklarda ikki haftadan beri tirikchilik qilib yurishini tasavvur qilish qiyin. Durust, botqoqlik orasida yashirinish mumkin bo'lgan joylar bor. Mazkur mahbus tosh tepaliklardagi g'orlardan istaganini o'ziga makon qilib olishi mumkin edi. Lekin ovqatsiz tirikchilik qilib bo'lmaydi-ku. Mahbus bu yerlardan ketib qolganiga menda hech qanday shak-shubha yo'q. Shuning uchun ham, uzoq fermadagi kishilar endilikda xafv-xatarsiz uxlaydigan bo'lib qoldilar.

Biz Baskervil-xollda istiqomat qilib turgan sog'lom, baquvvat to'rt erkak biror hodisa ro'y berib qolsa, o'zimizni himoya qila olamiz, lekin sizga rostini aytsam, Stepltonlarni o'ylaganimda meni tashvish bosadi. Ularning yaqin qo'shnilari



yo'q, binobarin, biror kishidan yordam kutishi qiyin. Merripit-xausda xizmatchi xotin, malay chol, aka va singildan boshqa hech kim yashamaydi. Stepltonning o'zini aslo kuchli kishi deb bo'lmaydi. Asli nottinxillik bo'lgan o'sha qotil, mabodo, Stepltonlarning uyiga kirib qolsa, ular o'zlarini himoya qilolmay, o'jiz bo'lib qoladilar. Ser Genri bilan biz ular to'g'risida juda tashvishlanib, hatto otboqar Perkinsni Merripit-xausga kechalari yotib qolish uchun yubormoqchi ham bo'ldik, Stepltonning bu maslahatimizga quloq solgisi kelmadi.

Gap shundaki, bizning do'stimiz bo'lgan baronet qo'shnisi go'zal qizga juda qiziqadigan bo'lib qoldi. Bunga taajjublanish uchun ham o'rin yo'q, chunki u ishchan yigit kishi-ku. Bunday tashlandiq joy uni zeriktirib qo'yyapti, ammo shuni e'tirof qilish kerakki, qo'shnimizning singlisi esa juda jozibador va chiroyli qiz. Akasi sovuqqon va butunlay loqayd kishi bo'lishiga qaramay, mazkur qizda qandaydir jozibali sho'xchanlik bor. Ayni vaqtda uning akasi qalbida o't yonib turgani, garchi ko'rinmasa ham, sezilib turibdi. Chamamda, uning singlisiga ta'siri katta bo'lsa kerak, gaplashib turgan vaqtimizda mazkur qiz o'zi aytayotgan so'zlarni akasiga ma'qullatmoqchi bo'lgandek, hamisha unga ko'z qirini tashlab turganini necha martalab sezib qoldim. Ular bir-birlari bilan totuv bo'lib ketadilar, degan umiddaman. Ko'zlarining bunday chaqnab turishi va chimirilgan lablarining nozikligi u kishining qattiq, ehtimolki, omonsiz xarakter sohibi ekanligidan dalolat beradi. Har holda, mazkur tabiatshunos diqqatga sazovor

kishi bo'lishi kerak, uni ko'rsangiz siz ham qiziqib qolgan bo'lur edingiz.

O'sha kuniyoq u ser Genri huzuriga hol-ahvol so'rab keldi, ertasi kuni ertalab esa bizni u shaloq Gugo to'g'risidagi afsona bilan bog'liq bo'lgan voqea ro'y bergan joyga olib bordi. Biz bir necha mil yo'l bosib, botqoqlikning ichkarisiga kirib ketdik va kichikroq bir vodiya chiqib qoldik. O'sha vodiya shu qadar befayz ediki, mazkur afsonaning tug'ilishiga uning mana shunday befayzligi ham sabab bo'lgan bo'lishi mumkin. Nurab yotgan tosh ustunlar orasidagi tor yo'l bizni botqoqlik o'tlari bilan qoplangan ochiq o'tloqqa olib chiqdi. O'tloqning o'rtasida tepaga tomon ingichkalashib ketgan va qandaydir mudhish maxluqning juda katta chirik tishlarini eslatib turgan ikkita g'oyat katta tosh yotar edi. Bu yerdagi narsalarning hammasi qadimiy fojia bo'lib, o'tgan manzarani aniq eslatib turadi. Ser Genri tevarak-atrofiga qiziqib ko'z tashlar ekan, Stepltondan, nahotki siz ham odamlarning ishlariga g'ayritabiiy kuchlar aralashuvi mumkinligiga ishonsangiz, deb ko'p martalab so'radi. Garchi u loqayd bir tarzda gapirayotgan bo'lsa ham, ammo shu voqealarning hammasiga juda jiddiy nazarda qarayotgani bilinib turardi. Steplton pinagini buzmay javob berib, ko'p narsalarni chalakam-chatti gapirib berdi, yosh baronetni chulg'ab olgan his va tuyg'ularga sira parvo ham qilmadi. U bizga qandaydir yovuz kuchlar ta'sirini necha-necha avlodi boshidan kechirgan oilalar bilan shu xilda ro'y bergan bir necha voqeani hikoya qilib berdi, shu

gaplardan keyin bizda, Steplton bu yerdagi ko'p kishilar qatori Baskervillar iti to'g'risidagi afsonaga ishonar ekan, degan taassurot tug'ildi. Qaytib kelayotib, ovqatlanish uchun Merripit-xausga kirdik. Ana shunda ser Genri miss Steplton bilan tanishib oldi. U birinchi uchrashishdayoq qizga mahliyo bo'lib qoldi, agar men ularning ikkovi ham bir-biriga yoqib qoldi, deb aytsam, xato qilmagan bo'laman. Uyga qaytib kelayotganimizda ser Genri nuqul o'sha qiz to'g'risida gapiraverdi. Shundan beri har kun deyarli Stepltonlar bilan uchrashib turadigan bo'lib qoldik. Bugun ular biznikida ovqatlanishyapti, ser Genri bo'lsa, kelasi hafta ularnikiga boramiz, deb gapirib turibdi.

Stepltonning singlisi uchun ser Genridan ko'ra yaxshiroq yer topilmasa kerak, ammo shunday bo'lsa ham, har safar ser Genri qizga iltifot qila boshlasa, qiz xo'mrayib qarayotganini payqab turaman. Steplton singlisiga juda o'rganib qolgan bo'lsa kerak, shuning uchun ham, uning yakka o'zi yashashi ancha qiyin ko'rinadi. Ammo singlisini bir qadam ham nari siljitmaslik va shunday yaxshi kuyov topilib turgan bir paytda ularning turmush qurishiga to'sqinlik qilish o'taketgan xudbinlik-ku, axir! Ammo ochiq ko'rinib turgan fakt shuki, Steplton yigit bilan qiz o'rtasidagi bu do'stlikning muhabbatga aylanib ketishini sira istamayapti. Bilishimcha, u yigit bilan qizni sira xilvatda qoldirmaslikka harakat qilmoqda. Kezi kelganda shuni aytib o'tayki, agar shu do'stlik murakablashib, oshiq-ma'shuqlikka aylanib ketsa, u

holda ser Genridan ko'zingni uzma, deb bergan yo'rig'ingizni bajarishning imkoni bo'lmay qoladi. Agar shu ko'rsatmani bajaraman deb qattiq urina bersam, bu yerda obro'yimni ancha to'kib qo'yishimni ham o'ylab ko'ring.

Yaqinda, aniqrog'i, payshanba kuni doktor Mortimer biznikiga kelib, nonushta qildi. U Uzun jardagi eski bir tepalikni kovlattirayotgan ekan, o'sha tepalikdan tarixdan burungi odamning bosh suyagini topib olib, juda ham xursand bo'lib ketdi. O'z ishiga jon-u dili bilan berilgan boshqa shunday bir serg'ayrat kishini topish qiyin bo'lsa kerak. Nonushta qilib bo'lganimizdan keyin Stepltonlar kelib qolishdi va ser Genrining iltimosi bilan xushfe'l doktorimiz Mortimer hammamizni o'sha fojiali kechada ro'y bergan voqeani ko'rsatmoq uchun qarag'ayzor xiyobonga olib bordi. Bu xiyobon ikki chekkasida qirqib pastak qilib o'stirilgan tig'iz qarag'ay daraxtlari ko'm-ko'k bo'lib turgan va ingichka yo'l qilib chim bostirilgan uzundan uzoq xiyobon ekan. Shu xiyobonning narigi boshida buzilib-yorilib yotgan shiyponcha turibdi. Botqoqlikka chiqiladigan eshikcha xiyobonning qoq o'rtasida ekan. Chol Baskervil mana shu eshikcha oldida to'xtab, chekib turgan sigarasining kulini qoqib tushirgan ekan. Oqqa bo'yalgan mana shu yog'och eshikchaning zanjiri solib qo'yilgan edi. Eshikchaning nariyog'ida bepoyon botqoqlik ko'zga tashlanadi. Shu yerda ro'y bergan voqea xususida siz aytib bergan faraz esimga tushib, mazkur voqeaning qanday sodir bo'lganini tasavvur qilishga urindim. Keksa Bas-

kervil eshikcha oldida botqoqlik tomonidan o'ziga yaqinlashib kelayotgan nimanidir ko'rib qolib, shu qadar qo'rqib ketganki, natijada o'zini yo'qotib qo'yib, qocha boshlagan. Nihoyat darmonsizlanib va benihoya qo'rqib ketganidan yiqilib, o'sha ondayoq jon bergan. U uzun, qorong'i xiyobonga chopib borgan. Lekin uni qochishga majbur qilgan narsa nima? Botqoqlik tomondan kelgan biror tozi itmi? Yoki afsonada hikoya qilingan bahaybat, qora tovushsiz itmikin? Ehtimolki, shularning hammasi odamning qo'li bilan qilingan ishmikin? Hamisha xavotirlanib yuruvchi afti bo'zargan Ber-rimor, ehtimolki, o'zi gapirib berganiga qaraganda ko'proq narsani bilarmikin? Bularning hammasi menga butunlay qorong'i, ammo shu voqealarning hammasining orqasida sira nari ketmaydigan soya kabi jinoyat turibdi.

Sizga oxirgi xatimni yuborganimdan beri qo'shnilarimizdan yana biri – bizdan to'rt mil janubdagi Lefter-xollda istiqomat qiluvchi mister Frenklend bilan tanishib olishga muvaffaq bo'ldim. U yuzi qizg'ish va juda jizzaki mo'ysafid ekan. Mister Frenklend Britaniya qonunlariga fidoyi kishi bo'lib, shu qonunlarni yaxshi bilganini isbotlash niyatida har kimlar bilan sudlashib yurib, buning uchun juda ko'p pul sarflabdi. U bunday sudlashishdan maza topib, huzur qiladigan kishi. Sudda u goh da'vogar bo'lib, goh javobgar bo'lib qatnashadi, o'zingizga ma'lumki, bunaqa ermaklar arzonga tushmaydi. To'satdan uning xayoliga, hovlining yonidan aravalarning o'tishini taqiqlab qo'yaman – buning noto'g'riligini jamoa

boshliqlari isbotlab ko'rsin-chi! – degan fikr kelib qoladi. So'ngra u birovning eshigini o'z qo'li bilan buzib tashlaydi-da, qadim zamonlardan beri shu yerdan arava yo'li o'tgan, deb da'vo qiladi, mening gapim noto'g'ri bo'lsa, sudga beringlar, deb aytadi. Agar birovga qarashli yerning chegarasini buzgan bo'lsam, buning noto'g'riligini sud isbotlasin, deb jar soladi. U qadimiy jamoa huquqini yod biladi va ba'zan o'zining shu bilimlarini qo'shni qishloq bo'lgan Fernvorsni manfaatlari uchun ishlatadi, ba'zan esa shu qishloqning ziddiga yuradigan ishlarni qiladi, shuning uchun ham, mazkur qishloq aholisi goh uni ko'chalarda tantana bilan ko'tarib olib o'tadilar, goh uning shaklini ifodalovchi qo'g'irchoq yasab, shu qo'g'irchoqni yondiradilar va unga la'nat o'qiydilar. Mister Frenklendning qo'lida hozir sudlashiladigan yettita ish bor, deyishadi. Agar u mana shu ishlar ustida sudlashadigan bo'lsa, bor pulidan ajrashi turgan gap. Shundan so'ng, u bor-yo'g'idan ajrab, hech kimga zarari tegmaydigan yuvosh chol bo'lib qoladi. Uning shu qiliqlarini hisobga olmaganda, o'zi yumshoq, oqko'ngil odam. Siz mendan qo'shnilarning hammasini tasvirlab bergin, deb talab qilganingiz uchungina mazkur cholni esga oldim.

Hozir mister Frenklend o'ziga juda g'alati ish topib olibdi. Havaskor astronom bo'lgani uchun uning juda yaxshi va katta durbini bor, shuning uchun u uyining tomiga chiqib olib, qochgan mahbusni ko'rib qolarmikinman, degan umid bilan butun kun-bo'yi botqoqqa durbindan qa-

rab yotibdi. Mister Frenklend bitmas-tuganmas g'ayratini faqat shu ishga sarf qilsa, juda yaxshi bo'lar edi-ya, ammo u doktor Mortimerni qandaydir bir qabrni shu qabrga ko'milgan kishining qarindoshlaridan ruxsat olmay kovlab ochdi, deb javobgarlikka tortmoqchi bo'lib yuribdi, degan ovozarlar tarqalgan. O'zingizga ma'lumki, doktor Mortimer Uzun jardagi tepalikni kovlab, tarixdan burungi neolit odamning bosh suyagini topib olgan edi. Mister Frenklend shuning uchun uni javobgarlikka tortmoqchi bo'lsa kerak. Xullas, mister Frenklend o'zining shunday qiliqlari bilan bizga ermak topib bermoqchi. Hozirgi vaqtda esa bu narsa bizga juda asqotib turibdi.

Qamoqdan qochgan mahbus to'g'risida, Stepltonlar, doktor Mortimer va Lefter-xolldagi mister Frenklend to'g'risida bilgan va eshitgan narsalarimning hammasini sizga aytib berdim, endi eng muhim masalaga o'taman va Berrimorlar to'g'risida, jumladan, bugun kechasi sodir bo'lgan g'alati voqealar to'g'risida hikoya qilaman.

Berrimor o'sha kuni uyida bo'lganmi yoki yo'qmi, bilmoq uchun siz Londondan yuborgan telegrammangizdan boshlayman. Pochta mudiri bilan suhbatlashganimni, bizning o'sha tekshirishimiz hech bir natija bermagani va o'zimizga kerakli ma'lumotlarni ololmaganimiz o'sha suhbatdan ma'lum bo'lganini o'zingiz bilasiz. Bizning shu ishimiz muvaffaqiyatsiz bo'lib chiqqanini ser Genriga aytgan edim, u to'g'riso'z kishi bo'lgani uchun darhol Berrimorni chaqirtirib, telegramma to'g'risida unga savol berdi. Berrimor telegrammani olganini aytdi.

– Telegrammani bola sizning qo‘lingizga berganmidi? – deb savol berdi ser Genri.

Berrimor taajjublanib unga qaradi va bir daqiqa o‘ylab qoldi.

– Yo‘q, – dedi u. – Bola telegrammani olib keldanda men chordoqda edim, telegrammani menga xotinim keltirib berdi.

– Javobni o‘zingiz yozganmidingiz?

– Yo‘q, qanday javob yozish kerakligini xotininga aytdim, u pastga tushib javob yozib berdi.

Kechqurun Berrimor o‘z tashabbusi bilan yana shu to‘g‘rida gap ochdi.

– Ser Genri, – dedi u. – O‘sha telegramma to‘g‘risida nima uchun mendan surishtirganingizni tushunolmayapman. Yoki men biror ayb qilib, sizning ishonchingizni yo‘qotib qo‘ydimmi?

Ser Genri bunday emasligini Berrimorga tushuntirishga urindi va uni uzil-kesil xotirjam qilish uchun o‘zining eski buyumlaridan anchasini unga tortiq qildi, chunki uning Londonda sotib olgan buyumlari Baskervil-xollga olib keltirilgan edi.

Missis Berrimor meni juda qiziqtiriyapti. U juda kelishgan, basavlat, kamgap xotin bo‘lsa ham, ammo unchalik ziyrak bo‘lmasa kerak. Bu qadar beg‘am xotinni tasavvur qilish qiyin desa bo‘ladi. Lekin sizga ma‘lumki, biz bu yerga kelgan kunimizning birinchi kechasiyoq uning ho‘ngrab yig‘laganini eshitgan edim. Shundan beri uning yuzida ko‘zyosh izlari borligini bir necha marta payqab qoldim. Bu xotinning dilini g‘ash qilib yotgan qandaydir og‘ir g‘ami borga o‘xshaydi. Ba‘zan



xayolimga bu xotinni vijdon azobi qiynamayotganmikin, degan fikr ham keladi. So'ngra esa men Berrimor zolim er bo'lsa kerak, deb gumon qila boshlayman. Bu odam menga shubhali, g'alati kishi tuyular edi, o'tgan kuni kechasi bo'lgan voqealar esa mening bu gumonimni batamom kuchaytirib yubordi.

Aslini olganda, bu voqea unchalik ahamiyatli ham emas. Mening uyqum unchalik qattiq emasligini bilsangiz kerak, ammo bu yerda, Baskervil-xollda hamisha xavotir bo'lib yurganim sababli uyqum, ayniqsa, ziyrak bo'lib qoldi. Kecha kechasi soat ikkiga yaqinlashib qolganida, xonamning yonida kimningdir shipillab kelayotganini sezib qoldim. O'rnimdan turib, eshikni ochib dahlizga qaradim. Dahlizda kimningdir uzun soyasini ko'rib qoldim. Bu soya qo'lga sham ko'tarib, sekin qadam tashlab borayotgan kishining soyasi edi. U ko'ylakchan, egnida shim, oyoq-yalang kishi edi. Men faqat uning sharpasini ko'rgan bo'lsam ham, lekin novchaligidan Berrimor ekanini payqadim. U sekin qadam tashlab astagina bormoqda edi. Har bir qadami, har bir harakati o'g'rilarning ehtiyotlik bilan qilayotgan harakatini eslatardi.

Mening xatlarimdan sizga ma'lumki, xollni aylanib o'tgan galereya ikkala dahlizni kesib o'tadi. Berrimor ko'zimdan g'oyib bo'lishini kutib turib, so'ngra uning orqasidan izma-iz bordim. Galereyaga chiqqanimda u olisdagi dahlizning oxiriga yetib qolgan edi, so'ngra eshigi ochilib turgan bir xonadan chiroq yorug'i ko'rindi, de-

mak, u o'sha xonaga kirgani ma'lum bo'ldi. Sizga shuni aytishim kerakki, bu xonalarda hech kim yashamaydi va hatto mebellari ham yo'q, binobarin, Berrimorning bu qilmishi juda sirli ish bo'lib qoldi. U xonaning ichida qaqqayib turgan bo'lsa qerak, chunki shamning yorug'i lipillamay qolgan edi. Imkonim boricha sekin-sekin qadam tashlab dahlizning boshiga bordim va ochiq eshik panasiga o'tib oldim, xonaga ko'z tashladim.

Berrimor shamni deraza oldida oynaga yaqinlashtirib yashirinib turardi. Uni yon tomonidan ko'rdim: diqqat bilan kutib turgan chehrasini, tim qorong'i botqoqlikka tikilib turganini payqadam. U bir necha daqiqa derazaga tikilib turdi, so'ngra, sekingina inqillab sabrsizlik bilan shamni o'chirdi. Men darhol o'z xonamga qaytib keldim va sal fursatdan so'ng eshik ortida lipillab o'tgan qadam tovushini eshitdim. Oradan ancha vaqt o'tgach, qayerdadir qulfga kalit solib buralgani uyqu aralash qulog'imga chalindi, lekin bu tovushning qayerdan kelganini aniqlab olish qiyin edi.

Bu hodisaning boisi nimaligini tushunolmay qoldim, ammo mudhish bu uyda qandaydir sirli ishlar bo'lmoqdaki, bu ishlarning sirini axir bir kun bilib olamiz. Bu xususda menda qanday fikrlar tug'ilganini aytib sizni ovora qilmoqchi emasman, chunki siz mendan faqat faktlarni yozib yuborishni iltimos qilgansiz. Bugun ertalab men ser Genri bilan uzoq gaplashdim, kechasi ko'rgan narsalarimga to'xtalib, nima ishlar qilishimiz kerakligining rejasini ikkalamiz

tuzib qo'ydik. Lekin hozir bu rejalarimni sizga aytmayman, kelgusi xatimda yozib yuboraman. Chunki shu tufayli kelgusi xatim maroqliroq bo'ladi, deb o'ylayman.

## **IX BOB**

### **Doktor Uotsonning ikkinchi hisoboti**

*Baskervil-xoll,  
15-oktabr*

Azizim Xolms!

Yuborgan vakilingiz bu yerga kelganidan keyin dastlabki vaqtlarda yangiliklarni yozib yuborib, sizni xursand qilmagan edi. Endi u shularning o'rnini to'ldirayotganiga o'zingiz ham tan berishingiz kerak, chunki voqealar ketma-ket sodir bo'lib turibdi. Sizga yuborgan oxirgi hisobotimni Berrimorning bo'sh xona derazasi oldida turganini batafsil tasvirlash bilan tamomlagan edim. Shundan beri menda juda ko'p yangiliklar to'planib qoldi. Bu yangiliklar sizni g'oyat taajjublantirishi shubhasiz. Ahvol shu darajaga borib etishi sira xayolimga ham kelmagan edi. Keyingi ikki kun ichida vaziyat, bir tomondan, ancha ravshanlashdi, ikkinchi tomondan, tag'in ham murakkabroq bo'lib qoldi. Ammo shu voqealar to'g'risida fikr yuritishni o'zingizga havola etib, ularni birma-bir hikoya qilib beraman.

Tungi voqeaning shohidi bo'lganimdan keyin ertasiga ertalab nonushta qilmasdanoq Berrimor kirgan xonani tekshirib chiqdim. U tikilib qaragan derazaning uydagi boshqa hamma derazalarga

nisbatan bitta afzalligi shuki, shu derazadan qaragan kishi botqoqlikni juda yaxshi ko'radi. Deraza oldida o'sgan daraxt orasidan qaragan kishiga botqoqlik xuddi kaftingizda turganday ko'rinadi, ammo boshqa derazalardan qaragan kishiga botqoqlik deyarli ko'rinmaydi. Demak, Berrimor bepoyon torf botqoqliklarida kimnidir yoki nimanidir ko'rish uchun xuddi shu deraza yoniga kelgan ekan. Ammo tun qop-qorong'i edi, shuning uchun ham, Berrimor nimani ko'rmoqchi bo'lganini tushunolmadim. So'ngra xayolimga bir narsa kelib qoldi, ehtimol, uning qandaydir oshiqlik qiliqlari bordir? Agar shunday bo'lsa, u holda hamma narsa: uning juda ehtiyotsizlik bilan harakat qilgani ham, xotininin alam-iztiroblari ham ravshan bo'lib qoladi. Sirtidan qaraganda xushbichim bo'lgan bu kishi biror qishloqi qizni o'ziga bemalol mahliyo qila oladi, binobarin, bunday gumon qilishim uchun asos yo'q emas. O'sha kuni kechasi xonamga qaytib kelganimdan keyin qayerdadir eshik ochilganini eshitgan edim. Ehtimol, Berrimor biror ayol bilan maxfiy uchrashuvga borgan bo'lsa kerak. Ertasi kun ertalab ham butun xayolim shu gumon bilan band bo'ldi. Keyinroq bu gumonlarim asossiz bo'lib chiqishi mumkin, ammo shunday bo'lsa ham, buni sizga xabar qilishni zarur deb hisoblayman.

O'sha kechasi bo'lgan voqealar to'g'risida Berrimorning nima sababdan shunday harakat qilgani aniqlanmaguncha indamay turadigan bo'lsam, bu bilan haddan tashqari katta mas'uliyatni zim-mamga olgan bo'laman, deb his qildim. Baronet

bilan nonushta qilib bo'lganimizdan keyin uning xonasiga bordik va men bo'lgan voqealarning hammasini unga gapirib berdim. Baronet bu voqealarga qiziqar deb kutgan edim, ammo u gaplarimga juda osoyishtalik bilan quloq solib turdi.

– Berrimor kechalari izg'ib yurganini men ham bilaman, – dedi u. – Bu to'g'rida ko'pdan beri siz bilan gaplashmoqchi bo'lib yurgan edim, xuddi siz kabi men ham tunning ayni shu soatlarida dahlizda Berrimorning yurganini bir necha marta eshitganman.

– Ehtimol, u har kuni kechasi o'sha deraza oldiga boradigandir?

– Ehtimol. Agar shunday bo'lsa, uning ketidan poylab, u yerda nimalar qilayotganini ko'rish kerak. Do'stingiz Xolms bunday holda qanday harakat qilgan bo'lardi, shuni aytib berolmay-sizmi?

– Sizni ishontirib ayta olamanki, u ham xuddi shunday harakat qilgan bo'lur edi, – dedim. – Berrimorning ketidan poylab borib, u yerda niman ko'rmoqchi bo'lganini bilib olgan bo'lur edi.

– Bo'lmasa, biz ham shunday qila qolaylik.

– U bizni eshitib qoladi!

– Yo'q, Berrimorning qulog'i og'ir, lekin shunday bo'lsa ham, tavakkal qilib ko'rish kerak. Siz mening xonamga keling, uni biznikida kutib turamiz.

Ser Genri bu yerda o'zi o'tkazayotgan zeriktirarli, bir maromdagi hayotiga qandaydir xilma-xillik kiritmoq uchun oz-moz imkoniyat topilganiga xursand bo'lsa kerak, huzur qilgandek qo'lini ishqaladi.

Ser Charlz uchun qo‘rani qayta qurish loyihalari tayyorlab bergan arxitektor bilan baronet uchrashishga ulgurgan va Londondan pudratchini ham chaqirtirgan edi, xullas, yaqin fursatda bu yerda katta o‘zgarishlar bo‘lishini kutmoq kerak. Xonalarni bezovchi va mebellar tayyorlab beruvchi ustalar Plimutdan yetib kelishdi. Shularning hammasi bizning do‘stimiz juda katta ishlar qilmoqchi bo‘lganini va o‘z zotining o‘tmishdagi ulug‘ligini tiklamoq uchun mehnatini ham, pulni ham ayamaslikka jazm qilganini ko‘rsatib turardi. Uy batamom ta‘mirlanib, yangidan jihozlanib bo‘lgandan keyin uni baronet o‘zi orzu qilgan holga keltirib takomillashtirmog‘i uchun endi uylanishdan boshqa ishi qolmas edi. Sizga shuni aytayki, shunday bo‘ladi, deb faraz qilmoq uchun hamma asoslar bor, chunki u qo‘shnisi miss Stepltonga nihoyat darajada oshiq bo‘lib qolgan edi. Biroq oshiq-ma‘shuqlik bu yerdagi holatda kutilishi mumkin bo‘lgan tarzda silliq bormayapti. Masalan, bugun mana shu oshiq-ma‘shuqlik dengizida kichkina to‘lqin paydo bo‘ldi. Bu esa do‘stimizni juda taajjublantirdi va ko‘nglini xijil qilib qo‘ydi.

Berrimor to‘g‘risida gaplashib olganimizdan keyin ser Genri shlyapasini kiyib, qayoqqadir otlandi. Men ham u bilan birga bormoqchi bo‘lib otlandim, albatta.

– Siz men bilan bormoqchimisiz, Uotson? – deb so‘radi u menga qandaydir g‘alati bir tarzda qarab.

– Bu narsa sizning qayoqqa borishingizga bog‘liq. Agar botqoq tomonga borsangiz, men ham siz bilan birga boraman, – deb javob berdim men.

– Botqoq tomonga boraman.

– Menga qanday vazifa topshirilgani o‘zingizga ma’lum-ku. Sizga xalaqit bermoqchi emasman, lekin Xolms sizni, ayniqsa, botqoqqa borganingizda yolg‘iz qoldirmaslikni buyurgan edi. Bu gapni o‘zingiz ham eshitgansiz.

Ser Genri yoqimli tabassum bilan qarab, yelkamga qoqib qo‘ydi.

– Aziz do‘stim, – dedi u. – Xolms har qancha uzoqni ko‘rsa ham, lekin u mening bu yerdagi hayotim qanday kechishini va uning hamma tafsilotlarini oldindan bilib qo‘yolmas edi. Nima demoqchi bo‘lganimni tushunasizmi? Boshqalarni qo‘yaving-a, ammo siz menga xalaqit berishni aslo istamassiz, deb o‘ylayman. Yo‘q, yolg‘iz o‘zimni qo‘yib yuboraving.

Shu gaplardan keyin qanday ahvolga tushib qolganimni o‘zingiz o‘ylab ko‘ring. Nima deyishimni, qanday yo‘l tutishimni bilmay, xijolatda qolib, hayron bo‘lib turgan edim, shu payt ser Genri hassasini olib jo‘nab qoldi.

Lekin nega uning yolg‘iz ketishiga yo‘l qo‘ydim, deb vijdonim qiynala boshladi. Xo‘sh, Londonga qaytib borganimdan keyin sizga, mening bu lapa-shangligim boshimizni kulfatga solib qo‘ydi, deb aytishga majbur bo‘lib qolsam, unda nima bo‘ladi? Shu fikr xayolimga kelishi bilanoq isitmam chiqib ketdi. Hali ham kech emas, unga yetib olish mumkin. Men darhol Merripit-xausga jo‘nadim.

Men yo‘lda ser Genrini ko‘rmay tez-tez qadam tashlab boraverdim, botqoqlikning ichkarisiga olib boradigan so‘qmoq yo‘l boshlanadigan joy-

ga bir necha daqiqada yetib oldim. Shu paytda menda, tanlagan yo'lim to'g'ri bo'ldimikin, degan gumon tug'ildi, shundan so'ng botqoqlikning tevarak-atrofi ko'rinadigan tepalik ustiga – bir vaqtlar tosh kavlab olinadigan o'sha tepalik ustiga chiqdim. Tepalikka chiqishim bilan darrov baronetni ko'rdim. U mendan taxminan chorak mil narida so'qmoq yo'ldan borardi, uning yonida esa bir ayol ham bor edi, bu ayol miss Stepltonning xuddi o'zi edi. Ularning ikkovi uchrashmoqchi bo'lib, allaqachon kelishib qo'rganlari menga ravshan bo'ldi, demak, bugungi uchrashuv tasodifiy emas. Ular gapga mahliyo bo'lib, juda sekin qadam tashlab borishardi, miss Stepltonning qo'lini paxsa qilib gapirayotganiga qaraganda u qiz ser Genriga nimalarnidir uqtirmoqchi bo'layotgani ko'rinib turardi. Ser Genri esa uning gaplariga diqqat bilan quloq solmoqda va goh-goh rad javobi berayotgandek, boshini qimirlatib qo'ymoqda edi. Men nima qilishimni bilmay, toshlar orasida qaqqayib turaverdim. Ularga yetib olib oshiqona suhbatni buzish sira ham mumkin emas edi. Xo'sh, mening vazifam nima? Mening vazifam shuki, ser Genrini bir soniya bo'lsa ham ko'zdan qochirmasligim kerak. Do'sting ketidan poylab yurish juda bo'lmag'ur ish. Lekin boshqa iloj topolmay, tepalik ustida turib kuzatishni davom ettirishga, so'ngra esa ko'rgan-bilganlarimning hammasini baronetning o'ziga aytib, vijdonimni poklab olishga jazm qildim. Durust, mabodo, to'satdan u xafv ostida qolsa, unga darrov yordam berolmas edim, chunki undan ancha olisda edim,



lekin o'zingiz ham bilishingiz kerakki, mening boshqa ilojim yo'q edi.

Do'stimiz ser Genri bilan qiz bir necha qadam yo'l yurib va o'zlarining suhbatlariga berilib ketib, to'xtab qolishdi, ana shunda ularning uchrashuvini ko'rib turgan birdan bir shohid faqat men emasligim to'satdan menga ravshan bo'lib qoldi. Toshlar orasida qandaydir ko'm-ko'k narsa ko'zimga chalindi. Tikilib qaragan edim, tayoqqa ilib qo'yilgan ko'k lattaga ko'zim tushdi, bu tayoqni esa so'qmoq yo'l tomon borayotgan kishi ko'tarib olganini ko'rdim. U kishi o'zining kapalaklar ovlaydigan matrabchasini ko'tarib olgan Steplton ekan. Ser Genri bilan uning yonida turgan qizga Steplton mendan ko'ra ancha yaqinlashib qolgan edi va u to'ppa-to'g'ri ularning yoniga bormoqda edi. Shu daqiqada ser Genri miss Stepltonni quchoqlab oldi, qiz esa uning quchog'idan chiqishga urinib, orqaga tisarildi. Ser Genri yana quchoqlamoqchi bo'lib urinayotgan edi, qiz qo'li bilan uni itardi... So'ngra esa ular birdaniga bir-birlaridan ajralib, orqalariga qaradilar. Chunki ular matrabchasini bema'ni silkitib, chopib kelayotgan Stepltonni ko'rib qolishgan edi. Steplton zo'r berib qo'llarini paxsa qilar va oshiq-ma'shuqlarga yaqinlashganidan keyin benihoya hayajonlanib, dag'dag'a qilishga kirishdi. Bu harakatlarning boisi nimaligini tushunolmay qoldim, lekin Steplton nimalarnidir gapirib, ser Genrini ayblayotgan, u esa o'zini oqlashga urinib, asta-sekin jig'ibiyron bo'la boshlagan bo'lsa kerak. Qiz esa mag'rurona sukut qilib, ularning yonida turaverdi. Nihoyat, Steplton

birdaniga burildi, singlisiga buyruq berganday qo'l siltadi, qiz esa ser Genriga ma'sumona nazar tashlab, akasining ketidan yo'lga tushdi. Tabiatshunosning achchiqlanib, qo'l siltashlari, uning singlisidan ham g'azablanayotganini ko'rsatib turardi. Baronet ular orqasidan qarab turdi, so'ngra boshini quyi solib, asta-sekin qadam tashlagan holda orqasiga qaytdi.

Mening ko'z oldimda ro'y bergan bu voqeadan hech bir narsani tushunolmadim va do'stimning ijozatisiz bu voqealarning shohidi bo'lganim uchun o'z-o'zimdanda nihoyat darajada xijolat chekdim. Tepalikdan tushib, pastda baronetni kutib olishdan boshqa ilojim qolmadi. G'azabining zo'rligidan u qizarib ketgan, qoshlari chimirilgan edi: nima qilishini, nima deyishini bilmay qolgani ko'rinib turardi.

– Xello, Uotson! Bu yerga qayoqdan kelib qoldingiz? Baribir orqamdan izma-iz kelaverdingizmi?

Men uni nima uchun yolg'iz yubora olmaganimni, qanday qilib uning ketidan izma-iz kelganimni va ularning uchrashuvini hamda shu uchrashuvdan keyin bo'lgan voqealarni, xullas, hamma gapni tushuntirib berishga to'g'ri keldi. Ser Genri menga o'qrayib qaradi-yu, ammo ochiq ko'ngil bilan hamma gapni aytib berganim uni jahldan tushirdi va shuning uchun garchi noilojlikdan bo'lsa ham kulib yubordi.

– Sahro kabi shunday yerda xilvat joy toparmikinman, deb o'ylagan edim, lekin bo'lmadi! Ham-malaringiz xuddi til biriktirib qo'ygandek, qiz bilan uchrashishimni tomosha qilishga chiqqan ekan-

siz-da! Ammo bu ulfatchilik juda muvaffaqiyatsiz bo'lib chiqdi. Siz qayerda turgan edingiz?

– Anovi tepalikda.

– Demak, juda yaxshi ko'rinadigan joyda turgan ekansiz-da, ammo qizning akasi birinchi qatordan joy olgan ekan. Qizning akasi bizning ustimizga qanday yopirilib kelganini ko'rdingizmi?

– Ha, ko'rdim.

– Bu shaxsning aqli unchalik joyida emas, degan fikr hech qachon xayolingizga kelmaganmidi?

– Yo'q, kelmagan edi.

– Mening ham xayolingga kelmagan edi. Shungacha men Stepltonni juda aqli raso kishi deb hisoblab yurardim, ammo endi, chamamda uni, ehtimolki meni ham, jinnixonaga eltib qo'yish kerakka o'xshaydi. Nahotki, shu qadar yomon odam bo'lsam? Siz men bilan bir necha haftadan buyon birgasiz, Uotson. Ochig'ini ayting. O'zim sevgan qizga yaxshi er bo'lishimga nima xalaqit beryapti?

– Menimcha, xalaqit beradigan hech narsa yo'q.

– Jamiyatda tuzukkina obro'yim bor, bu to'g'rida u menga ta'na qilolmaydi, demak, o'zimning biror kamchiligim bo'lsa kerak. Unga nima yomonlik qilibman? Umrimda birovga yomonlik qilgan kishi emasman. Shunday bo'lsa ham, u shaxs meni singlisiga hatto yaqin yo'latgisi kelmaydi.

– O'zi ham shunday dedimi?

– Ha, bundan ko'ra yomonroq gaplarni ham aytdi. Bilasizmi, Uotson, u qiz bilan tanishganimga bir necha hafta bo'ldi, xolos, lekin birinchi uchrashganimdayoq u qiz men uchun yaratilgani ravshan bo'ldi. U qiz... u qiz... ham...

menga moyil edi, buning uchun qasam ichishga tayyorman! Ayollarning dilidagi narsani tillaridan ko'ra ko'zlari yaxshiroq aytib beradi. Lekin akasi bizning bir-birimizga yaqinlashishimizga qarshilik qilib keldi. Faqat shu bugungina qiz bilan xilvatda uchrashishga muvaffaq bo'lgan edim. Qiz ham bu uchrashishga xursandlik bilan rozi bo'lgan edi, bunga nega rozilik berganini bilasizmi? Bir-birimizga bo'lgan muhabbatimiz to'g'risida gaplashmoq uchun uchrashgan bo'lsa kerak, deb o'ylarsiz? Yo'q, agar qizning qo'lidan kelganida edi, meni ham indamaslikka majbur qilgan bo'lur edi. Qiz menga: bu yer siz uchun xatarli, Baskervil-xolldan jo'nab ketmaguningizcha ko'nglim tinchimaydi, dedi, xolos. Men unga siz bilan uchrashganimdan keyin bu yerdan hech qayoqqa ketmayman, basharti, ketishim shu qadar zarur bo'lsa, men bilan siz ham birga keting, dedim. Xullas, unga uylanish niyatida ekanligimni aytdim, lekin bu gapimga qiz hatto javob qaytarishga ham ulgur olmadi, chunki xuddi shu daqiqada uning go'yo mehribon akasi xuddi jinnidek ustimizga yopirilib keldi. Uning g'azabdan butun vujudi bo'zarib ketgan edi, nursiz ko'zlaridan esa bami-soli o't chaqnab turardi. Hech narsa qilganim yo'q-ku! Nahotki, mendan g'azablanadigan ayolga muhabbat izhor qilib, uning pinjiga kirsam! Menga u, siz baronet bo'lganingiz uchun xohlagan ishingizni qilaverasizmi, deb o'shqirdi. Agar u qizning akasi bo'lmaganida edi, men unga nima javob qilishimni o'zim bilardim. Bu qizga bo'lgan hislarimda uyatli biror narsa yo'q va axir, bir kun

kelib miss Stepltonni xotinim deb atash sharafiga muyassar bo'lgurman, degan umiddaman, dedim xolos. Lekin bu gaplarim unga zarracha ta'sir qilmadi, nihoyat, mening ham jahlim chiqib ketdi, ammo qiz oldimizda turgani uchun bunchalik qizishmasligim kerak edi, shundan so'ng u singlisini olib ketganini o'zingiz ham ko'rdingiz, men esa hayron bo'lib, yolg'iz o'zim qolaverdim. Endi, Uotson, shu voqealarning boisi nimaligini menga tushuntirib bering, bu yaxshiligingizni umrbod unutmayman!

Unday deb ham o'ylab ko'rdim, bunday deb ham o'ylab ko'rdim, lekin rostini aytsam, bu voqealarning hammasi meni ham hayratda qoldirdi. Do'stimizning unvoni, davlati, yoshligi, fe'l-atvori, ko'rinishi, xullas, shularning hammasi uning yaxshi odam ekanligidan dalolat berib turibdi. Uning oilasi boshiga tushgan sirli qismatni hisobga olmaganda, do'stimizning biror yomon narsasi borligini bilmayman. Haqiqatan ham, ser Genrining taklifi shu qadar keskinlik bilan va hatto qizning xohishiga ham qaramay rad etilgani qiziq. Qizning o'zi ham bu voqealarning hammasiga shu qadar parvosizlik bilan qaragani bundan ham qiziq. Ammo bizning shubhalarimizni o'sha kuniyoq Stepltonning o'zi bartaraf qildi. U qo'pol muomala qilgani uchun kechirim so'rab keldi, ser Genrining xonasida u bilan uzoq suhbatlashib o'tirdi, shundan so'ng ularning o'rtasida hech qanday mashmasha ro'y bermagandek bo'lib qoldi, u bizni kelasi juma kuni Merripit-xausga ziyofatga chaqirib, jo'nab ketdi.

– Men u odamning aqli raso kishi ekanligiga hali ham shubhalanaman, – dedi ser Genri, – bugun ertalab bizning ustimizga yopirilib kelganidagi vajohati hali ham ko‘z oldimda turibdi, lekin unga qoyil qolish kerak, juda qoidasini keltirib uzr so‘radi, hech bir gina qiladigan joy qoldirmadi.

– Nega shu qadar g‘azablanganining sababini aytdimi?

– Singlisini jonidan ham yaxshi ko‘rar ekan. Shunday bo‘lishi ham tabiiy. U singlisini shu qadar qadrlayotganiga juda xursandman. Ular umrbod bir-birlaridan ajramay yashab kelganlar va o‘zining aytishiga qaraganda, ularning boshqa yaqin kishilari yo‘q, binobarin, u singlidan ajralib qolishi mumkinligidan juda ham qo‘rqardi. U singlisiga bo‘lgan mening hislarimdan bexabar emish, buni o‘z ko‘zi bilan ko‘rganidan keyin singlidan ajralib qolishi mumkinligini tushunibdi va shu fikr xayoliga kelishi bilanoq o‘zini yo‘qotib qo‘yibdi. U o‘zining qilib qo‘ygan qiliqlaridan juda pushaymon bo‘lib gapirdi va miss Steplton singari shu qadar chiroyli qizni yonimdan siljitmay o‘tirish mening uchun xudbinlik bo‘ladi va bu narsa mening ahmoqligimni ko‘rsatadi, deb o‘zi tan oldi. Basharti, singlimdan ajralish taqdirga yozilgan bo‘lsa, siz qo‘shnimsiz, singlim sizga tega qolsin, dedi. Har holda, singlidan ajralib qolish uning uchun katta zarba bo‘lib tusharmish, bunga chidab turishim qiyin bo‘lsa kerak, dedi. Agar men bu qizga bo‘lgan muhabbatim to‘g‘risida yaqin uch oy ichida og‘iz ochmaslikka va faqat qiz bilan do‘st bo‘lib yurish bilangina kifoyalanishga va‘da

bersam, u menga to'sqinlik qilmas emish. Unga shunday deb va'da berdim, shu bilan ikkalamiz yarashib oldik.

Ko'rib turibsizki, kichkina sirlarimizdan biri endi ma'lum bo'lib qoldi. Ammo biz tushib qolgan botqoqlik tagini oyoq bilan paypaslab ko'rish hazilakam ish emas. Steplton o'z singlisining oshig'iga, ya'ni ser Genri kabi hammaning havasi keladigan yigitga nima uchun shunday yomon nazar bilan qarayotgani endi bizga ma'lum bo'lib qoldi.

Endi men shu chigal bo'lib qolgan kalavadan yana bir ipni tortib olishga urinib ko'raman. Kechalari ho'ngrab yig'lashlarning sababi nimaligini, nega missis Berrimorning yig'idan chehrasi kepchib yurganini va eshik og'asining botqoq tomonga borib yurishining siri nimaligini tekshirishga o'taylik. Siz, azizim Xolms, meni tabriklayvering va yordamchim ko'nglimdagidek kishi ekan deb aytavering. Siz meni bu yerga ishonib yuborgan edingiz, bu ishonchingiz juda o'rinli bo'lib chiqdi. Navbatdagi bu jumboqni yechish uchun bir kechaning o'zi kifoya qildi.

Men «bir kecha» deyapman, lekin «ikki kecha» deyish to'g'riroq bo'lur edi, chunki birinchi kechasi biz hech bir narsani bilib ololmadik. Ser Genrining xonasida ertalab soat uchgacha poylab o'tirdik, desak bo'ladi, ammo zinaning tepasidagi soatning urgan bongidan boshqa hech bir tovush eshitolmadik. Bu zeriktirarli darajada bedor bo'lib o'tirishning oxiri shu bo'ldiki, ser Genri ham, kamina ham oromkursida o'tirib uxlab qolibmiz. Ammo bu muvaffaqiyatsizlik hafsalamizni pir qilib qo'ymadi, yana

bir marta kechasi bilan uxlamay poylab chiqishga qaror qildik. Ertasi kuni kechasi lampani o'chirib qo'yib, ketma-ket papiros chekib, indamay o'tira berdik. Vaqtning o'tishi juda qiyin bo'ldi, ammo qopqon oldida sabrsizlik bilan ov kutib turgan ovchi kabi bizdagi qiziqish o'zimizga dalda bermoqda edi.

Soat bir bo'ldi, ikki ham bo'ldi, endigina g'ijina boshlagan edik, to'satdan o'zimizni sira char-chamagandek his qilib qoldik – men ham, ser Genri ham qaddimizni beixtiyor rostladik. Dahlizda kimningdir shipillab kelayotganini eshitdik. O'g'rincha kelayotgan qadamlar bizning xonamizga yaqinlashdi, so'ngra uzoqlashib asta-sekin g'oyib bo'ldi. Baronet sekingina eshikni ochdi. Biz ovimiz orqasidan izma-iz boraverdik. U galereyadan o'tib ketishga ulgurgan edi, dahliz esa tim qorong'i edi. Biz juda ehtiyotlik bilan dahlizning oxiriga yetib olganimizda, oyoq uchi bilan engashibroq borayotgan qora soqolli novcha kishining sharpasi ko'rindi. U lip etib o'zini o'sha eshikning panasiga oldi, qo'lidagi sham bir soniya uni yoritib yubordi, so'ngra esa qorong'i dahlizga shamning ingichka nuri tushdi. Biz har qadamimizni avaylab bosib, o'sha nur tomon yurdik. Yalangoyoq bo'lsak ham gavdamizning og'irligidan eski pol g'ijirlab nola qilgandek bo'lardi. Polning g'ijirlashini eshitmaslik mumkin emasdek bo'lib tuyilardi menga, lekin baxtimizga Berrimorning qulog'i haqiqatan og'ir ekan, yana buning ustiga uning butun e'tibori o'zi qilayotgan ish bilan band edi.

Nihoyat, eshik oldiga yetib olib, xonaga ko'z tashladik. Eshik og'asi qo'lidagi sham bilan deraza



oldida uning oynasiga yuzini yopishtirgandek bo'lib turardi, bundan ikki kun avval ham kechasi uni shu deraza oldida mana shunday holatda ko'rgan edim. Qanday harakat qilishimiz kerakligini oldindan tuzib qo'ymagan edik. Ammo baronet qat'iy harakatni o'ziga odat qilib olgan kishilardan desa bo'ladi. U dadillik bilan xonaga kirib bordi. Berrimor derazaning oldidan darrov beriga kelib hansiragan holda, butun gavdasi bilan qaltirab, o'likday bo'zarib, bizing oldimizda qaqqayib qoldi. Uning oqarib ketgan yuzida yonib turgan qora ko'zlari juda qo'rqib ketganini bildirardi. U sarosimada, goh menga, goh ser Genriga tikilardi.

– Berrimor, bu yerda nima qilyapsiz?

– Hech nima, ser. – Hayajonlanganidan tili g'uldirab qoldi; qo'lidagi sham qaltirab, devorga va shiftga notekis soya solib turardi. – Deraza, ser... Men hamma derazalar yopilganmikin, deb kechalari tekshirib yuraman.

– Hatto, ikkinchi qavatdagi derazalarni hammi?

– Ha, ser, hamma uydagi derazalarni tekshirib chiqaman.

– Gapimga quloq soling, Berrimor, – dedi qat'iy ohangda ser Genri, – siz bizga haqiqatni aytib berishingiz kerak, binobarin, bor gapni naqadar tez aytib bersangiz, o'zingizga shu qadar yaxshi bo'ladi. Qani endi sir bekitishni bas qiling! Nima uchun bu yerga keldingiz?

Eshik og'asi bizga ojizona nazar tashladi va juda xijolatda qolib, g'ijinib turaverdi:

– Men hech bir yomon ish qilganim yo'q, ser! Faqat sham bilan derazani yoritib turgan edim.

– Nega sham bilan derazani yoritdingiz?

– Buni mendan so‘ramang, ser Genri... So‘ramang! Sizga qasamyod qilib aytamanki, bu mening sirim, bu sirimni sizga aytib berolmayman. Agar bu sir faqat o‘zinga taalluqli bo‘lganida edi, sizdan hech bir gapni yashirmagan bo‘lur edim.

Xayolimga to‘satdan bir fikr kelib qoldi, shu ondayoq deraza tokchasida turgan shamni qo‘limga oldim.

– Bu sham shartli belgi bo‘lsa kerak. Qani biz ham yoritib ko‘raylik-chi, bunga biror javob bo‘larmikin?

Men xuddi Berrimor qilganidek shamni deraza oynasiga yaqinlashtirib, qorong‘i zulmatga ko‘z tashladim. Oy bulutlar orasiga yashirindi, birinchi daqiqada keng botqoqlikka soya solib turgan daraxtlar qatorini ko‘rdim, xolos. Derazaning qora kvadratida tun qorong‘iligini yorib o‘tib, yiltirab turgan kichkina sariq nuqtani ko‘rishim bilanoq birdaniga quvonib qichqirib yubordim.

– Ana, qarang!

– Yo‘q, yo‘q, ser!.. – g‘uldiradi eshik og‘asi. – Sizni ishontirib aytamanki...

– Shamni o‘ng tomonga olib o‘ting, Uotson, – deb qichqirdi baronet. – Ko‘ryapsizmi? Anovi chiroq ham joyidan qo‘zg‘aldi... Qani, ablah, endi ham indamay turaverasizmi! Axir bu signal-ku! Qani, rostini ayting, sherigingiz kim? Nima qilmoqchi edingiz?

Eshik og‘asi unga o‘qrayib qaradi:

– Bu mening ishim emas, bu ishning sizga daxli yo‘q. Men sizga hech nimani aytmayman.

– Shunday bo'lsa o'zingizni ishdan bo'shatilgan deb hisoblashingiz mumkin.

– Xo'p, ser. Demak, boshqa ilojim yo'qqa o'xshaydi.

– Men sizni sharmanda qilib haydayman! Uyaling! Ota-bobolarimiz yuz yildan ko'proq vaqtdan beri birga yashab kelishgan bo'lsa-yu, siz menga qarshi qandaydir fitna qilishni o'ylab yuribsiz.

– Yo'q, yo'q, ser! Sizga qarshi emas!

Bu so'zlarni xotin kishi aytayotganini eshitdik. Qayrilib qaragan edik, eshik oldida o'lgudek qo'rqib ketgan missis Berrimorni ko'rdik, bu xotinning bo'zargan basharasi erinikidan qolishmas edi, shol ro'mol yopinib olgan, ichki yubkadagi bu yo'g'on xotinning haddan tashqari qo'rqqani chehrasidan bilinib turmaganda edi, u juda kulgili taassurot qoldirgan bo'lur edi.

– Bizni ishdan bo'shatishdi, Eliza. Oqibat shu bo'ldi... Bor, narsalaringni yig'ishtir, – dedi Berrimor.

– Jon! Jon! Boshingga qanday kunlarni solib qo'ydim-a! Hamma ayb menda, ser Genri. U faqat meni deb shu ishni qildi... Faqat meni deb!

– Qani, ayting! O'zi nima gap?

– Mening bechora ukam ochligidan botqoqlikda halok bo'lyapti. Eshigimiz oldida ukamning o'lib ketishiga chidab turolmaymiz-ku axir. Ovqat tayyor bo'lganini bildirib, Jon unga signal beryapti, u esa ovqatni qayerga eltib qo'yishni ko'rsatyapti.

– Demak, sizning ukangiz o'sha...

–... qochib yurgan mahbus, ser... Qotil Selden.

– Bu gapning hammasi rost, ser, – deb tasdiqladi Berrimor. – Men birovning sirini ocholmayman,

deb sizga aytdim-ku, endi hamma gapni o'z qu-log'ingiz bilan eshitdingiz, sizga qarshi hech bir yomon niyatda emasligimizni endi o'zingiz bilib oldingiz.

Kechasi sham ko'tarib sirli yurishlarning boisi mana shunday ayon bo'lib qoldi! Ser Genri bilan biz hayron bo'lib, missis Berrimorga qaradik. Nahotki bu loqayd, basavlat xotin bizning mamlakatimizdagi eng dahshatli jinoyatchilardan biri bilan qon-qardosh bo'lsa-ya?

– Ha, qizlik vaqtimdagi familiyam Selden bo'lgan, u mening ukam. Biz uni bolalik chog'idanoq erkalatib o'stirgan edik, hamisha ko'ngliga qarardik, shu tariqa u nimaiki qilsam ham, menga hech kim hech nima deymaydi, butun dunyo faqat mening huzur-halovatim uchun yaratilgan degan his bilan o'sib ulg'aydi. O'spirin bo'lib qolganidan keyin yomon odamlarga ulfat bo'ldi, ukamni bami-soli shayton yo'ldan ozdirdi. U onamning yuragini vayron qilib, nomimizni balchiqqa bulg'adi. Kundan kunga battar bo'laverdi, ketma-ket jinoyat qilaverdi. Nima uni dor tagidan qutqarib qoldi? Faqat Xudoning shafqati. Lekin ser, men uchun u hali ham yoshligimda o'zim erkalatib o'ynatib yurgan jingalak soch kichkina bola bo'lib qola berdi. Shuning uchun ham u turmadan qochib ketdi – mening bu yerdaligimni va yordam berishimizni bilar edi. U kechasi ochiqib, horib bu yerga yetib keldi, uni esa izma-iz quvlab kelishmoqda edi. Ukam shunday mushkul ahvolga tushib qolgani-da, biz nima qilishimiz kerak edi? Biz uni uyimizga olib kirib ovqatlantirdik, qo'limizdan kelgan yor-

damni berdik. So'ngra, ser, siz keldingiz, shundan so'ng u shovqin-suron bosilguncha botqoqlikka yashirinib yotish yaxshiroq, degan qarorga keldi, shundan beri botqoqlikda yashirinib yuribdi. Biz bo'lsak, bir kecha o'tib ikkinchi kechasi uning u yoq-bu yoqqa ketib qolmaganini tekshirib turamiz, derazani yoritib, unga xabar qilamiz, agar u javob bersa, erim belgilab qo'yilgan joyga non va go'sht eltib beradi. Ehtimol, ketib qolgandir, deb har kuni umid qilamiz, lekin modomiki, u shu yerda ekan, biz uni tashlab qo'ymaymiz. Men xudojo'y xotinman, sizga yolg'on gapirmayman. Agar bu ishining biror yomonligi bo'lsa, buning uchun erim aybli emas – u faqat meni deb shunday qilyapti.

Xotin shunday hissiyot bilan gapirdiki, uning gapiga ishonmay bo'lmas edi.

– Shu gaplar rostmi, Berrimor?

– Ha, rost, ser Genri. Bu gaplarning bitta ham yolg'oni yo'q.

– Mayli, xotiningizning sadoqati uchun sizni koyib o'tirmayman. Sizga aytgan gaplarimni unutib yuboring. Ikkovingiz uyingizga boring, bu voqeaning hammasini ertalab bafurja muhokama qilamiz.

Ular ketishganidan keyin biz yana derazaga qaradik. Ser Genri derazani qiyalatib ochib qo'ydi, deraza ochilishi bilan tungi sovuq shamol yuzimizga urildi. Uzoq qorong'i zulmatda kichkina sariq chiroqcha hali ham lipillab turardi.

– Uning qo'rqmaganiga hayronman, – dedi ser Genri.

– Chiroq faqat shu yerdangina ko‘rinsa kerak.  
– Ehtimol. Siz u chiroqni qayerda deb o‘ylaysiz?  
– Tosh ustunlarning tevarak-atrofida bo‘lsa kerak.

– Ikki mildan ko‘p emasdir?

– Bunga ham yetmaydi.

– Ha. Agar Berrimor ovqatni u yerga eltib berayotgan bo‘lsa, demak, uzoq emas ekan. Hozir u ovqat olib kelishini kutib turgandir. Yo‘q, Uotson, men borib u ablahni tutib olaman!

Mening xayolimga ham shu fikr keldi. Berrimorlar bizni o‘z ixtiyorlari bilan bu sirdan voqif qilganlari yo‘q-ku – ularni bu sirlarni aytib berishga biz majbur qildik. U odam jamiyat uchun xafvli. Bunaqa odamni ayab ham, oqlab ham bo‘lmaydi. Imkoniyat borligidan foydalanib, biz uni hech kimga zarar yetkaza olmaydigan joyga qaytarishimiz kerak. Aks holda bizning bo‘shangligimiz boshqalarga, masalan, Stepltonlarga yomonlik keltirishi mumkin. Bir kuni kechasi Stepltonlarga hujum qilishi mumkin. Ser Genrini dadil harakat qilishga shu fikr yo‘llagan bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman.

– Men ham siz bilan birga boraman.

– Agar borsangiz, to‘pponchani olib, etik kiyib oling. Tezroq borish kerak. Bo‘lmasa, u chiroqni o‘chirib, qochib ketadi.

Oradan besh daqiqa ham o‘tmasdanoq biz kuz shamolining bir maromdagi uvillashiga va to‘kilayotgan xazonlarning shitirlashiga quloq sola-sola qorong‘i xiyobondan tez-tez qadam tashlab boraverdik. Chirindi va zax yerlarning o‘tkir hidi

dimog'imizga urilmoqda edi. Oy osmonni qoplagan qora bulutlar orasidan ahyon-ahyondagina mo'ralab qarardi, biz botqoqlikka chiqib olishimiz bilan shivalab yomg'ir yog'a boshladi. Sariq chiroqcha olisda hali ham miltillab turardi.

– Siz o'zingiz bilan biror nima oldingizmi? – deb so'radim men.

– Ha, qamchi oldim.

– U o'ziga kelib qolib, qarshilik ko'rsatmasligi uchun tezroq harakat qilaylik. Aytishlariga qaraganda, u hech narsadan qaytmasmish. Uni birdaniga tutib olaylik.

– Ayting-chi, Uotson, – to'satdan gap boshladi baronet. – Bu xususda Xolms nima derdi? Esingizdami? «Yovuz kuchlar cheksiz hukmronlik qilayotgan tun paytida...»

Xuddi shu so'zlarga javob berganday, qayerdadir olisda, mudhish keng botqoqlik orasida bundan bir necha kun avval, Grimpen botqoqligida meni hayratda qoldirgan g'alati tovush paydo bo'ldi. Shamol dastlab bizning qulog'imizga irilagan, so'ngra esa bo'kirgan tovushni olib keldi, bu tovush asta-sekin ma'yus uvillashga aylandi. Bu yovvoyi, bahaybat tovushlar ketma-ket ayni bir tarzda takrorlanib, havoda yangramoqda edi. Baronet yengimdan ushlab oldi, men hatto tim qorong'ilikda ham uning yuzi oqarib ketganini ko'rdim.

– Xudoyo tavba, Uotson, bu nima ekan?

– Bilmadim. Bunaqa tovushlar botqoqda tez-tez eshitilib turadi, deyishadi. O'zim ham eshitganman.

Uvillash yana to'xtab qoldi, jimjit sukunat boshlandi. Biz butun vujudimiz bilan quloq solib turavardik, lekin atrofimizdagi sukunatni ortiq hech narsa buzmasdi.

– Uotson, – dedi baronet, – bu tovush itning tovushi.

Tomirlarimdagi qon muzlab qolgandek bo'ldi, chunki ser Genrining ovozi qo'rqqanidan qaltirab ketdi.

– Ular bu tovushni kimniki deyishadi? – savol berdi baronet.

– Kim?

– Shu yerlik odamlar.

– Axir ular butunlay nodon kishilar-ku! Ularning bu tovushni qanday izohlashlari sizga baribir emasmi?

– Uotson, ayting-chi, ular bu to'g'rida nima deyishyapti?

Bir daqiqa ikkilanib turdim, lekin savol shunday bir tarzda berilgan ediki, javob bermaslikka ilojim qolmasdi:

– Ular Baskervillarning iti shunday uv tortadi, deyishyapti.

Ser Genri oh tortib yubordi. Uzoq jim turgandan keyin yana gap boshladi.

– Ha, faqat itgina shunday uvillashi mumkin, lekin u qayerdadir olisda, anavi tomonda bo'lsa kerak.

– Uvillagan ovoz qayerdan kelayotganini aniqlab berolmayman.

– Bu ovozni shamol olib keldi. Ayting-chi, Grimp-en botqoqligi qayerda? Hu, anavi yerda emasmi?

– Ha.



– Demak, ovoz o‘sha tomondan keldi. Endi rostini ayting, Uotson, o‘zingiz ham bu tovush it-niki ekanini bilasiz. Men yosh bola emasman-ku. Qo‘rqmay gapning rostini ayta bering.

– Men o‘sha tovushni eshitgan vaqtimda Stepl-ton yonimda edi. U qandaydir qushlar mana shu-naqa qichqiradi, dedi.

– Yo‘q, bu itning tovushi. Xudoyo tavba! Nahotki, shu uydirmalarning hammasida loqaal zarracha haqiqat bo‘lsa? Nahotki qandaydir no-ma‘lum xafv meni ta‘qib qilayotgan bo‘lsa! Siz bunga ishonmaysizmi, Uotson!

– Yo‘q, yo‘q!

– Lekin shunday bo‘lsa ham, bunaqa bema‘ni gaplardan Londonda kulish boshqa-yu, qorong‘i zulmatda, botqoqlikda turgan vaqtingizda bun-day uvillagan tovushni eshitish butunlay boshqa narsa. Xo‘sh, amakim-chi? Uning jasadi yonida it izlarini topishgan edi-ku. Shularning hamma-si bir-biriga bog‘liq. Men aslo qo‘rqoq emasman, Uotson, lekin shu tovushlarni eshitganimda, tomirlarimdagi qon to‘xtab qolayotgandek seza-yotirman. Qo‘limni ushlab ko‘ring.

Uning qo‘li marmar toshdek sovuq edi.

– Hechqisi yo‘q, ertaga hammasi unutilib ketadi.

– Yo‘q, men bu uvlagan tovushni hech qachon unutmayman. Xo‘sh, endi nima qilishimiz kerak?

– Uyga qaytamizmi?

– Aslo! O‘sha ablahni tutib olishga keldikmi, de-mak, uni tutib olishimiz kerak. Siz bilan biz qochqin mahbusni ovlab yuribmiz, dahshatli it esa ehtimol,

bizni ovlab yurgandir. Yuring, yuring, Uotson! Butun jahannamning dahshati shu botqoqlikka yopirilib kelsa ham, baribir orqaga qaytmaymiz.

Har qadamda qoqila-qoqila asta-sekin olg'a boraverdik. O'ng tomonimizda ham, chap tomonimizda ham tosh tepalarning qorong'ilikda unchalik ko'rib bo'lmaydigan sharpalari ko'zga tashlanardi. Old tomonda hali ham kichkina sariq chiroq miltillab turardi. Qorong'i zulmatda masofani belgilashdan ko'ra qiyinroq ish bo'lmaydi. Chiroqcha goh ufqning tagida, goh bizdan bir necha qadam narida miltillardi. Lekin nihoyat yiltirab turgan chiroqning qayerdaligini aniq ko'rdik va endi unga yetishimizga oz masofa qolganini tushundik. U toshlar o'rtasidagi pana joyga qo'yilgan, erib tamom bo'lay deb qolgan sham edi. Bu toshlar shamni shamoldan ham, begona odamlarning ko'zidan ham himoya qilar, faqat Baskervil-xoll tomondangina ko'rinib turardi. Ro'paramizda katta granit tosh borligi bizning yaqinlashib borayotganimizni sham turgan tomondan yashirgandi. Biz o'zimizni tosh orqasiga olib, ehtiyotlik bilan sham tomonga qaradik. Botqoqlik ichida bu yolg'iz shamni ko'rish bizga g'alati tuyuldi! Shamning sariq nuri toshni yoritib turardi, atrofda hayot alomati yo'q.

– Endi nima qilamiz? – deb shivirladi ser Genri.

– Shu yerda kutib turamiz. U shu atrofda bo'lsa kerak. Ehtimol, hozir ko'rinib qolar.

Gapimizni tugatmasdanoq uning o'zi kelib qoldi. Sham yonib turgan toshlar orasida dahshatli bashara paydo bo'ldi, yirtqichlik qiliqlarining

izlari qolgan bu bashara odamnikiga o'xshamasdi. Chirk bosgan, soqollari o'sib ketgan, chuvalgan sochlar qoplab olgan bu basharani ko'rgan kishi uni bir vaqtlar mana shu tepaliklarning etaklarida yashagan yovvoyi odamlardan biri bo'lsa kerak, deb o'ylashi mumkin edi. Shamning shu'lasi uning qorong'ilikda ovchilar hidini sezib qolgan yirtqichning ko'zidek tevarak-atrofga g'azab bilan o'qrayib qarayotgan kichkina ayyor ko'zlarida aks etardi. U nimadandir shubhalangan bo'lsa kerak. Uning Berrimor bilan kelishib qo'ygani va bizga noma'lum bo'lgan biror nishonasi borligidanmi yoki u ishning chatoqligini sezib qolganidanmi, har holda jirkanch aftida qo'rquv alomatlari paydo bo'lganini darhol payqadam. U har soniyada shamni o'chirib, qorong'ilikda g'oyib bo'lishi mumkin edi. Oldinga qarab chopdim, ser Genri ham orqamdan yugurdi. Mahbus faryod qilib, bizga tosh ota berdi, bu toshlar yonimizda turgan katta xarsanglarga urilib, parcha-parcha bo'lib ketaverdi. Uning keng yelkali, past bo'yli odam ekaninigina fahmlab qoldim. Yaxshiki, shu daqiqada bulutlar orasidan chiqib kelayotgan oy ko'rindi. Biz tepalikka chiqa boshladik, mahbus esa shu tepalikning narigi tomonidan xuddi tog' echkisiidek epchillik bilan toshdan toshga sakrab, ko'tarila berdi. Uni nishonga olib otsak, jarohatlantirish mumkin edi, lekin men qurolsiz kishining orqasidan otishgina emas, balki o'zimizni himoya qilish uchungina to'pponchani ko'tarib olgan edim.

Men ham, ser Genri ham chopishga mohirmiz, biroq unga yetib olishimiz mahol ekanini tez ora-

da tushundik. U oydinga bizdan narida ancha vaqtgacha ko'rinib turdi, nihoyat olisdagi tepalik bag'rida tez yugurib borayotgan kichkina nuqtaga aylanib, ko'zdan deyarli g'oyib bo'ldi. Biz bilan uning orasidagi masofa tobora ko'paya berdi. Nihoyat, holdan toyib, toshlar ustiga o'tirib oldik va uning uzoqlashib borayotgan qorasiga qarab tura berdik.

Ana shu paytda g'alati va aslo kutilmagan bir hodisa ro'y berdi. Behuda quvlashdan foyda yo'q, degan qarorga kelib, o'rnimizdan turganimizda oy bizning o'ng tomonimizda edi. Tosh ustunning g'adir-budur tepasi oydinga aniq ko'rinib turardi. Shu paytda men o'sha tosh ustunning tepasida xuddi qora yog'ochdan yasalgan haykal kabi harakatsiz qaqqayib turgan bir odamni ko'rdim. Uni xayolimda paydo bo'lgan bir narsa deb o'ylamang, Xolms. Men o'zimning ko'zimga bu safar har qachongidan ham ko'proq ishondim, desam bo'ladi. U baland bo'yi, ozg'in-roq kishi ekanini aniq ko'ra oldim. U oyoqlarini salgina kerib, qo'llarini ko'kragiga qovushtirib, boshini engashtirib, xuddi xayolga cho'mgandek ro'parasidagi torfzor va toshlar makoniga tikilib turardi. Bu yerdagi botqoqliklar ruhi mening nazarimda xuddi mana shunday gavdalandi. U mahbus emas edi. U mahbus yashiringan joydan olisda turardi, uning bo'yi ham balandroq edi. Kutilmagan bu hodisadan qichqirib yuborib, baronetga burildim va uning qo'lidan ushlab oldim. Mening bunday harakat qilishimga bir necha soniya vaqt o'tdi, shu soniyalarning o'zi

o'sha odamning g'oyib bo'lishi uchun kifoya qildi. Tosh ustunning uchi avvalgidek oy gardishi tomon ko'tarilib turardi, ammo uning ustidagi harakatsiz, indamas odam g'oyib bo'lgan edi.

Darrov o'sha joyga borib tosh ustunni qarab chiqish kerak, degan qarorga keldim, lekin u bizdan ancha olisda edi, baronetning esa bu narsa bilan qiziqishga majoli qolmagandi: dahshatli oilaviy afsonani eslatgan mudhish uvillashdan so'ng u hali o'zini o'nqlab ololmagan edi. Yana buning ustiga men ko'rgan narsani u ko'rmagan edi, binobarin, bu g'alati manzara uni hayajonlantira olmas edi.

– Siz ko'rgan kishi mahbusni poylash uchun qo'yilgan soqchi bo'lsa kerak, – dedi u. – Mahbus qochganidan beri bunaqa soqchilar botqoqlikda juda ko'p.

Ehtimol, ser Genrining gapi to'g'ridir, lekin men uni o'z ko'zim bilan ko'rib, qanoat hosil qilishni istar edim! Bugun biz Prinstaundagi hukumat odamlariga qochgan mahbusning yashirinib yotgan joyini aytamiz. Lekin uni o'zimiz tutolmaganimiz va tantana bilan turmaga eltib qc'ya olmaganimiz alam qildi!

Keyingi kechadagi ko'rgan voqealarimiz shu bo'ldi, azizim Xolms, shu voqealar to'g'risida sizga mukammal hisobot yozib yuborilganini e'tirof qilishingiz lozim. Shu hisobotda aytgan gaplarimning ko'pchiligi bizning ishimizga hech bir aloqasi bo'lmagan gaplar desa bo'ladi, lekin o'zimning xatlarimda hamma faktlarni sizga yozib yuborishni lozim deb topdim – shu faktlardan ishimizga

foydasi tegadiganlarini o'zingiz tanlab ola bering. Endi biz Berrimorlarning g'alati harakatlariga sabab bo'lgan narsalarning hammasini bilib oldik, bu esa vaziyatni ancha ravshanlashtirdi. Ammo torfzor botqoqliklarining siri, shu botqoqliklardagi g'alati narsalarning siri hali ham ochilgani yo'q. Kelgusi xatimda, ehtimol, shu sirlarni qoplab yotgan pardani oz-moz ko'tarishga muvaffaq bo'lsam kerak. Ammo o'zingiz bu yerga kelsangiz, juda ham yaxshi bo'lur edi.

## **X BOB**

### **Doktor Uotsonning kundalik daftaridan olingan parchalar**

Baskervil-xollga kelganimdan keyin dastlabki kunlarda Sherlok Xolmsga yuborib turgan hisobotlarimni bayon qilib o'tdim, men qilayotgan hikoyam uchun shu damgacha mana shu hisobotlarning o'zi kifoya qilib turdi. Endi hikoyaning shunday bir joyiga keldikki, bu usulni tark etib, yana o'z xotiramda qolgan faktlarni bayon qilishga, bu faktlarni o'zimning kundalik daftarimdan olingan parchalar bilan to'ldirishga majburman. Quyidagi ikki parcha bizni mening xotiramda abadiy saqlanib qolgan voqealarga tamomila yaqinlashtiradi.

Hikoyamni qochgan mahbusni quvlashimiz muvaffaqiyatsiz bo'lib chiqqani va undan keyin ro'y bergan voqealarni tasvirlash bilan to'xtatgan edim. O'sha voqea ro'y bergan kunning ertasi ertalab nimalar sodir bo'lganini birma-bir bayon qilaman.

**16-oktabr.** Ertalabdan hamma yoqni tuman bosdi, yomg'ir shivalab turibdi. Baskervil-xoll osmonini qora bulutlar qopladi, goh-goh bu bulutlar siyraklanib qoladi, shunday paytlarda olisda torfzor botqoqliklarining befayz manzarasi, shu botqoqliklarda kumushday yiltirab turgan tepaliklarning yonbag'irlari va nam toshlar ko'rinib qoladi. Uy ham, ochiq havo ham – hamma narsa ko'ngilni g'ash qilib turibdi. Tungi voqealardan keyin baronetning mashqi pasayib qoldi. Men ham ko'nglimda qandaydir g'ashlik sezyapman, bir falokat ro'y berishi muqarrarligini sezib turibman – bu qanaqa falokatligini bilolmasligim ko'nglimga tag'in ham ko'proq dahshat solyapti.

Bunday bezovta bo'lish uchun asos yo'q deysizmi? Buning uchun ro'y bergan voqealarni eslash kifoya qiladi, bir-biriga bog'langan voqealar bu yerda qandaydir yovuz kuchlar borligidan dalolat beradi. Baskervil-xollning oxirgi egasi qanday o'lgani oilaviy rivoyatlarda bayon qilingan voqealarni aniq eslatadi. Botqoqlikda goho-goho paydo bo'lib qoladigan g'alati maxluq to'g'risida fermerlar aytgan naqlarni ham eshitdik. Olisda vovillagan itning ovoziga o'xshash tovushni o'zim ham ikki marta aniq eshitdim. Axir, bularning hammasi tabiat qonunlaridan tashqari bir narsa ekanligiga ishonish mumkin emas-ku!

Yerda izini qoldirib ketayotgan va baland ovoz bilan vovillayotgan afsonaviy itni aytmay sizmi? Yo'q, bu narsalarning sirini bilmaslik aslo mumkin emas! Steplton, uning ketidan esa Mortimer ham shu yerdagi umumiy kayfiyatga berilish-

lari mumkin, ammo mening aqlim raso-ku, bu mening fazilatim-ku, demak, bid'atlar ta'siriga sira berilmasligim kerak. Agar bu ta'sirga beriladigan bo'lsam, bu yerdagi fermerlar darajasiga tushib qolgan bo'laman. Ular qandaydir dahshatli it to'g'risida to'qilgan hikoyalar bilan qanoatlanib qolmay, yana o'sha itni ko'zlaridan va og'zidan alanga chiqib turadigan bir maxluq degan gaplarni ham to'qiganlar. Xolms bunday bema'ni gaplarga hatto quloq solib ham o'tirmas edi, men bo'lsam uning bu yerdagi vakiliman. Biroq faktlarni rad qilib bo'lmaydi: o'sha itning uvillaganini o'zim ikki marta eshitdim. Xo'sh, haqiqatan ham botqoqlikda qandaydir juda katta it izg'ib yurgan bo'lsa-chi? Shu fakt ham isbotlansa, hamma narsa ravshan bo'lib qolur edi! Lekin u qayerda yashirib yotibdi, nima bilan tirikchilik qiladi, qayerdan paydo bo'lgan, nega uni kunduzi hech kim ko'rmagan? Shuni e'tirof qilish kerakki, agar biz shu savollarning hammasiga haqiqatga o'xshash javob topishga urinadigan bo'lsak, tag'in ham ko'proq qiyinchiliklarga duch kelamiz. Lekin hatto itni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yganimizda ham, Londonda sodir bo'lgan voqealarni qanday izohlab bo'ladi? Kibdagi noma'lum odamni, ser Genrini torfzor botqoqliklarga chiqmang deb ogohlantirib, gazetalardan qirqib yozilgan xatni nima bilan izohlash mumkin? Bu ochiq ko'rinib turgan faktlarda g'ayritabiiy bir narsa yo'q-ku, axir. Shu ikkala faktni do'stlar yoki dushmanlar tomonidan qilingan ish deb o'ylash ham mumkin. Ammo o'sha do'st yoki dushman hozir qayerda?



Londonda qoldimi yoki bizning orqamizdan bu yerga keldimi? Nahotki... Nahotki, tosh ustun tepasida ko'rganim o'shaning o'zi bo'lsa?

Durust, u ko'zimga bir onda ko'rinib, g'oyib bo'ldi, xolos, lekin shunday bo'lsa ham uning ba'zi nishonlarini payqab oldim va buni qasam ichib tasdiqlashga tayyorman. U bu yerlik odamlardan emas edi: hozir men ser Genrining qo'shnilarining hammasini bilaman. Uning bo'yi Stepltonnikidan tikroq edi va o'zi Frenklenddan ancha orig'roq edi. Uni Berrimor deb o'ylash mumkin edi-yu, lekin Berrimor uyda qolgan edi. Berrimorning bizga sezdirmay orqamizdan poylab kelolmasligiga aminman. Demak, Londonda bo'lgani kabi bu yerda ham noma'lum odam bizni poylab yuribdi. Shu vaqtgacha biz undan qutulolmayapmiz. Agar men o'sha odamni tutib ololsam edi, gumonlarimizning hammasi darhol yechilgan bo'lur edi. Mening maqsadim mana shu, bu maqsadga yetish uchun butun kuchimni sarflayman.

Dastlab rejalarimni ser Genriga aytib berishim kerakdek tuyuldi, ammo biroz o'ylab ko'rganimdan keyin mo'ljallangan ishlarimni yakka o'zim qilishim, bu to'g'rida kamroq gapirishim kerak, degan qarorga keldim. Baronet kamgap odam, u o'z fikri bilan band. Botqoqlikda biz eshitgan uvilash unga juda ta'sir qildi. Men uning bezovtaligini oshirmaslikka qaror qildim, lekin niyatimdan qaytmayman, nimayiki bo'lsa ham, yakka o'zim harakat qilaveraman.

Bugun nonushtadan keyin kichikroq bir manzaraning shohidi bo'ldik. Berrimor, siz bilan

gaplashishga ijozat bering, deb ser Genridan iltimos qildi va ular xonaga kirib ketishdi. Men bilyardxonada o'tirganimda, ularning ovozi baland chiqayotganini eshitdim va gap nima haqda borayotganini darrov payqab oldim. Sal fursatdan so'ng xona eshigi ochildi va baronet meni chaqirdi.

– Berrimor bizdan xafa bo'libdi, – dedi ser Genri. – U bizga, qaynimning sirini sizlarga o'z ixtiyorim bilan aytgan edim, uning iziga tushganingiz insofdan emas, – dedi.

Eshik og'asi bo'zarib ketgan bo'lsa ham, lekin o'zini ushlab turardi.

– Ehtimolki, men biroz qizishgandirman, ser, agar shunday bo'lsa, kechirishingizni so'rayman. Lekin sahar paytida sizlarning qadamingizni eshitib va Seldenni tutib olmoqchi bo'lganingizni bilib, juda hayron bo'ldim. Uning izini odamlarga bildirib qo'yishimning sira keragi yo'q edi, u bechoraning ahvoli busiz ham chatoq.

– Agar siz, – dedi baronet, – haqiqatan ham o'z ixtiyoringiz bilan Seldenning sirini ochib bergan bo'lsangiz edi, bu boshqa gap bo'lur edi. Lekin siz, to'g'risi, sizning xotiningiz bu gaplarning hammasiga faqat bizning siquvimiz natijasida iqrор bo'ldingiz-ku. Boshqa ilojingiz qolmagan edi.

– So'zimdаn tutib olasiz, deb o'ylamagan edim, ser Genri. Sira o'ylamagan edim.

– Selden – jamiyat uchun xafvli. Axir u hech narsadan qaytmaydi-ku, bu narsa uning vajohatidan ham ko'rinib turibdi! Bu yerlarda odamlarning kulbasi onda-sonda uchrashini o'ylab ko'ring. Loaqal mister Stepltonni olib ko'raylik – hujum

bo'lib qolgan taqdirda u o'z kuchidan boshqa hech qayerdan yordam umid qila olmaydi-ku. U odamni tutib yana turmaga qamab qo'ymagunlaricha, biz o'zimizni xafv-xatarsiz deb his qilolmaymiz!

– Selden hech kimga tegmaydi, ser, men bunga qasam ichaman! Bu yerdagi odamlarga endi uning zarari tegmaydi. Gapimga ishona bering, ser Genri, bir necha kundan keyin hammasi bir yoqli bo'ladi, u Janubiy Amerikaga jo'nab ketadi. Sizdan o'tinib so'rayman, Selden hali ham shu yerda, botqoqlikda yuribdi, deb politsiyaga xabar qilmang. Uni qidirmay qo'yishgan, u paroxod kelishini bemalol kutib turishi mumkin. Agar siz politsiyaga xabar qilsangiz, xotinim bilan mening sho'rimiz quriydi. Sizdan iltimos qilaman, ser, politsiyaga aytmang!

– Uotson, siz bunga nima deysiz?

Men yelkamni qisdim.

– Agar u Angliyadan chiqib ketsa, bu yerdagi soliq to'lovchilar erkin nafas oladigan bo'lib qoladilar, – dedim.

– Agar ketguncha biron yomonlik qilib qo'ysa-chi!

– Yo'q, ser! Axir, u aqldan ozgan kishi emas-ku! Biz unga nimaiki kerak bo'lsa, hammasini berdik. Yangi jinoyat qilsa, bu bilan o'zini tutib bergan bo'ladi.

– Bu gapingiz to'g'ri, – dedi ser Genri. – Yaxshi, Berrimor...

– Xudo xayringizni bersin, ser! Bu yaxshiligingizni sira unutmayman! Agar Seldenni tutib olishsa, xotinim bu alamga chiday olmaydi.

– Bundan chiqdi, Uotson, siz bilan biz jinoyatchini yashirayotgan ekanmiz. Lekin endi uni tutib berishni vijdonim qabul qilmasa kerak. Yaxshi, bu gapni bas qilaylik. Siz ketishingiz mumkin, Berrimor!

Eshik og‘asi o‘zining qaltiragan ovozi bilan minnatdorchilik so‘zlarini g‘uldirab, eshik tomon yurdi, lekin ostonada to‘satdan to‘xtab qoldi...

– Siz menga, ser, shu qadar ko‘p yaxshilik qildingizki, buning uchun tashakkurimni bildirishim kerak, – deb dovdiragandek gap boshladi u. – Men ba‘zi narsalarni bilaman, ser Genri... Shu vaqtgacha indamay yurganim ehtimolki, noto‘g‘ri bo‘lgandir, ammo tergov tamom bo‘lganidan keyin ba‘zi narsalar aniqlanib qoldi. Men buni hali hech kimga aytganim yo‘q... Bu gap ser Charlzning o‘limiga taalluqli.

Baronet bilan biz o‘rnimizdan sapchib turdik.

– Uning qanday holatda o‘lgani sizga ma‘lummi?

– Yo‘q, ser.

– Bo‘lmasa, nima demoqchisiz?

– Xiyobondagi eshikcha oldida yarim kechada u nima uchun turganining sababini bilaman. U bir ayol bilan uchrashmoqchi edi.

– Ayol bilan uchrashmoqchi edi? Ser Charlz-a?

– Ha, ser.

– Kim ekan u ayol?

– Uning nomini bilmayman, ser. Faqat birinchi harflarinigina bilaman: «L.L.»

– Buni qayoqdan bildingiz, Berrimor?

– Ser Genri, o‘sha kuni ertalab amakingiz bir xat olgan edi. Odatda, uning nomiga juda ko‘p xat

kelar edi, axir, u ma'lum, mashhur va o'z saxovati bilan tanilgan kishi edi-da. Hamma unga o'z dardini aytar edi. Lekin o'sha kuni ertalab faqat bitta xat keldi, shuning uchun ham o'sha xat esimda qoldi. Konvertdagi manzil ayol kishining qo'li bilan yozilgan edi, konvert shtampida esa: «Kumbi-Tresi» degan so'zlar bor edi.

– Xo'sh?

– Agar xotinim aytmaganda, bu xat esimga tushmagan bo'lur edi. Bundan bir necha hafta oldin xotinim ser Charlzning xonaini uning vafotidan keyin birinchi marta supurib-sidirayotganida kamin ichidan bir varaq qog'oz topib oldi. Bu qog'ozning ko'p qismi kuyib kulga aylangan bo'lsa ham, lekin uning kichik bir parchasi – eng oxiri – butun qolgan edi, garchi olovning tafti siyoh izlarini xiralantirib yuborgan bo'lsa ham, ammo qog'ozdagi so'zlarni o'qib olish mumkin edi, qog'ozning o'zi ko'mirga aylangan edi. Qog'ozda qolgan so'zlar keyin yozilgan ilova bo'lsa kerak, biz quyidagi so'zlarni o'qidik: «Sizni jentlmen deb o'tinaman: bu xatni yondirib tashlang va kechqurun soat o'nda xiyobondagi eshikcha oldiga kelib, kutib turing». Shu so'zlar ostida: «L.L.» degan ikkita harf bor edi.

– Siz o'sha xat parchasini saqlab qo'yibsizmi?

– Yo'q, ser. Qog'oz qo'limda sochilib ketdi.

– Bundan oldin ham ser Charlz xuddi shu qo'l bilan yozilgan xatlarni olganmidi?

– Bilmayman, ser, bunga e'tibor bermaganman. Shu xatning o'zi ham o'sha kuni kelgan birdan bir xat bo'lgani uchungina esimda qoldi.

– Siz «L.L» kimligini ham bilmaysizmi?

– Yo‘q, ser, sira bilmayman. Lekin agar shu xonimni qidirib topa olsak, ser Charlz o‘limining ba‘zi tafsilotlarini bilib olgan bo‘lur edik, deb o‘ylayman.

– Men sizga tushunolmay qoldim, Berrimor! Shunday muhim ma‘lumotlarni nega shu vaqt-gacha yashirib yurdingiz?

– Bilasizmi, ser, shu voqea ketidan darhol o‘zimizning boshimizga ham katta kulfat tushdi. Bundan tashqari, xotinim ikkimiz ser Charlzni juda yaxshi ko‘rar edik va uning saxovatlarini esdan chiqarmas edik. Eski gaplarni kavlashtirib nima qilamiz, deb o‘yladik. Bechora xo‘jayinimizga bu narsa bari bir yordam bermaydi, modomiki, bu ishga ayol kishi aralashgan ekan, ehtiyotlik bilan harakat qilish kerak. Axir, eng baobro‘ kishilar ham...

– Demak, siz bu narsa uning xotirasini tah-qirlashi mumkin, deb o‘ylabsiz-da?

– Ha, ser, bu ishdan hech bir yaxshilik chiq-maydi, degan qarorga keldik. Lekin siz bizga juda ko‘p yaxshilik qildingiz... Shuning uchun ham, bilganlarimni sizdan yashirgim kelmadi.

– Yaxshi, Berrimor, ketishingiz mumkin. Eshik og‘asi chiqib ketganidan keyin ser Genri menga qarab:

– Xo‘sh, Uotson, bu yangilik to‘g‘risida nima deysiz? – dedi.

– Menimcha, bu yangilik qorong‘ilikni zulmatga aylantirib yubordi.

– Ha, gapingiz to‘g‘ri! Ammo agar biz ana shu «L.L.»ning kimligini bilib olsak, hamma narsa

ravshan bo'lib qolur edi. Endi biz ko'p narsadan xabardor bo'lgan bir ayol borligini bilib oldik, shuning o'zi ham katta muvaffaqiyat! Endi u xotinni topish kerak, xolos. Xo'sh, endi nima qilamiz?

– Bu gaplarning hammasini darhol Xolmsga xabar qilish kerak. Ehtimol, bu narsa uning jinoyat izini topib olishiga yordam berar. U darhol bu yerga yetib kelishiga deyarli aminman.

Men xonamga borib bugun ertalab bo'lgan voqealar to'g'risida Xolmsga batafsil hisobot yozdim. Do'stim keyingi vaqtlarda ish bilan juda band bo'lsa kerak, chunki Beyker-stritdan tobora juda kam xat kelyapti, xatlar ham tobora qisqa yozilyapti. Shu xatlarda mening hisobotlarim to'g'risida bir so'z ham aytilmayapti, bu yerga kelishimdan kuzaatilgan maqsad haqida esa ora-sira tilga olinyapti, xolos. Katta g'irromlik to'g'risidagi ish Xolmsning butun kuchini band qilib qo'yganga o'xshaydi. Lekin keyingi voqealar, hech shubhasiz, uning e'tiborini jalb qiladi va unda biz tekshirayotgan ishga yana qiziqish tug'diradi. Do'stimning bu yerga kelishini juda ham istardim!

**17-oktabr.** Bugun kuni bilan yomg'ir yog'ib turibdi: og'ir tomchilar qalin bo'lib o'sgan pechak-gulga shitirlab tushmoqda, karnizlardan tomib turibdi. Tevarak-atrofi yalang, befayz botqoqlik ichida yashirinib yotgan mahbus esimga tushdi. Bechora! U har qanday jinoyat qilgan bo'lsa ham, tortgan azoblari uning gunohini ma'lum darajada yuvib yuboradi. So'ngra, anavi, boshqa kishi ham esimga tushdi... Keb derazasida bir ko'rinib g'oyib

bo'lgan bashara va oydinda yaqqol ko'zga tashlangan kishining gavdasi. Nahotki, o'sha tutqich bermayotgan ayg'oqchi, o'sha zulmat ko'makchisi ham hozir mana shunday sharros yomg'irda izg'ib yurgan bo'lsa?

Kechqurun suv o'tkazmaydigan plashimni kiyib, dahshatli manzaralarni xayolimda tasvirlab, botqoqlikning ichkarisiga jo'nab ketdim. Yomg'ir betimga shitirlab urib turardi, quloqlarimda shamol g'uvillardi. Hozir Grimpen botqoqligi tevaragida yurgan kishilarni Xudoning o'zi saqlasin! Mana shunday yog'ingarchilik paytida hatto bu yerdagi tepaliklarning etagi ham botqoqlikka aylanadi. Tepasida yolg'iz odam qaqqayib turgan o'sha tosh ustunni qidirib topdim va uning g'adirbudir ustiga chiqib, pastdagi befayz botqoqlikka nazar soldim. Pastlikdagi yerlarni yomg'ir suvi bosib, halqob qilib yuborgan edi, qora, qo'rg'o-shin kabi og'ir bulutlar yer ustini qoplab olgandek ko'rinardi, bulut parchalari orasida esa tepaliklarning ajoyib manzarasi ko'zga tashlanardi. Olishda, mening chap tomonimda jardagi daraxtlar tepasida Baskervil-xolldagi ingichka minoralar tumanda sal-pal ko'rinib turardi. Tarixdan burungi davrdan qolgan, tepaliklarning yonbag'rini o'yib kirgan g'orlarni hisobga olmaganda, faqat o'sha minoralarning o'zigina bu joylarda odam borligidan dalolat berardi. Bundan ikki kun avval kechasi mana shu tosh ustunning tepasida men ko'rgan notanish odamning izi hech qayerda ko'rinmasdi!

Qaytib kelayotganimda o'zining aravasida Chirik botqoq tomondan kelayotgan doktor Mortimer



orqamdan yetib oldi. Shu vaqtgacha doktorning bizga iltifoti juda katta edi, deyarli har kun Baskervil-xollga kelib, bizdan hol-ahvol so'rab turardi. Doktor meni aravasiga o'tkazib oldi va uyimga eltib qo'yimoqchi bo'lganini aytdi. U spaniel iti yo'qolganidan juda xafa. It botqoqqa qochib ketdi-yu, keyin qaytib kelmadi. Qo'limdan kelganicha doktorni yupatar ekanman, Grimpen botqoqligiga botib ketgan otni esladim, Mortimer endi itini ko'rolmasa kerak, deb o'yladim.

O'nqir-cho'nqir yo'llardan borayotgan aravalarda doktor bilan birga liqillab bora turib, unga:

– Aytganday, doktor, bu yerda yo'lingiz tushgan joylardagi odamlarning hammasini bilsangiz kerak? – dedim.

– Hammasini bilaman.

– Unday bo'lsa, siz nomi «L.L.» harflari bilan boshlanadigan biror ayolning to'liq ismini va familiyasini aytib berolmaysizmi?

Mortimer o'ylab qoldi, so'ngra javob berdi:

– Yo'q. Rostini aytsam, bu yerdagi lo'lilarning va fermalardagi xodimlarning nomlarini bilaman, deb kafil bo'lolmayman, lekin fermalar va jentri-lar<sup>51</sup> orasida nomi shu harflar bilan boshlanadigan biror kishi borligi esimga tushmay turibdi. Yo'g'-e, to'xtang, – dedi birozdan so'ng u. – Laura Layons degan bir ayol bor. – «L.L.» uning xuddi o'zi. Lekin u Kumbi-Tresida turadi.

– U kim o'zi? – deb so'radim.

– Frenklendning qizi.

---

<sup>51</sup> Jentri – Angliyada yer-mulki unchalik katta bo'lmagan dvoryanlar.

– Iye! O'sha savdoyi cholning qizimi?

– Xuddi shunday. U bu yerga suratlar chizish uchun kelgan. Layons familiyasi bir rassomga erga tekkan edi. Rassom bema'ni odam ekan, uni tashlab ketdi. Ammo eshitishimga qaraganda, butun aybni bir tomonga to'nkab bo'lmaydi. U qiz otasidan ruxsat olmay erga tekkani uchunmi, yo bo'lmasa, boshqa bir sabab bilan bo'lsa kerak, otasi uni oq qilgan. Xullas, ikki yomon odam: chol ham, yigit ham bechora qizning joniga tegishdi.

– Ayol nima bilan tirikchilik qiladi?

– Qariya Frenklend qiziga oz-moz pul berib tursa kerak, ammo beradigan puli uncha ko'p emas, chunki uning o'zi ayanchli ahvolda. Lekin qizining gunohi har qancha ko'p bo'lsa ham, uning bunchalik tubanlashib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak edi. Uning voqeasi bu yerda ma'lum bo'lib qolgandan keyin qo'shnilari, ya'ni Steplton bilan ser Charlz unga yordam qilishdi, halol mehnat qilib tirikchiligini o'tkazishiga imkoniyat berishdi. Men ham oz-moz yordam qildim. Biz uning mashinkada bosishni o'rganib olishini istagan edik.

Mortimer mendan:

– Nega bunchalik qiziqyapsiz? – deb so'radi.

Men ham tafsilotlarni bayon qilmay, uni qondiradigan javoblarni berdim, chunki ishimizdan o'zga odamlarni xabardor qilishimizning sira hojati yo'q edi.

Ertaga ertalab Kumbi-Tresiga borib kelaman, agar o'sha suyuqoyoqligi bilan tanilgan xonimni – missis Laura Layonsni ko'rishga muvaffaq bo'lsam,

jumboqlarimizdan birini yechish uchun katta ish qilgan bo'lamiz.

Ammo kamina bora-bora dono ilonga aylanib qolmoqda. Mortimer haddan tashqari ko'p narsalarni surishtiravergandan keyin men gapni boshqa yoqqa burib, undan Freklendning bosh suyagi qanaqa tipga kiradi, deb so'radim va shu bilan suhbat mavzusini o'zgartirib yubordim. Yo'lning qolgan qismini uning kraniologiya<sup>52</sup> ga doir ma'ruzasini eshitish bilan o'tkazdim. Sherlok Xolms bilan birga o'tkazgan yillarim meni ham ko'p narsaga o'rgatgan edi.

Kishini zeriktiradigan mana shu seryomg'ir kunning tasvirini tamomlamoq uchun yana bir gapni, ya'ni Berrimor bilan bo'lgan gapimizni eslatib o'taman. U bilan gaplashish qo'linga shunday bir kuzir berdiki, xonasi kelganda men shu kuzirni bosaman. Mortimer biznikida qoldi, tushki ovqatdan keyin ular qarta o'ynashga kirishdilar. Eshik og'asi qahvani xonaimizga keltirib berdi, men ham fursatdan foydalanib, unga bir necha savol berdim.

– Xo'sh, Berrimor, qayningiz nimalar qilib yuribdi? Jo'nab ketdimi yo hali ham botqoqlikda yashayaptimi?

– Bilolmadim, ser. Tezroq jo'nab ketsa yaxshi bo'lardi. Qaynim tufayli juda ko'p tashvish tortdik. Unga oxirgi marta, ya'ni bundan uch kun oldin ovqat eltib berganimdan beri xabarim yo'q.

– O'shanda uni ko'rganmidingiz?

---

<sup>52</sup> Kraniologiya – odamlar va hayvonlarning bosh suyagini o'rganuvchi fan.

– Yo‘q, ser, lekin keyin tekshirsam, ovqat qo‘ygan joyimda yo‘q.

– Agar ovqatni topa olmagan bo‘lsangiz, demak, hali ham u o‘sha yerda ekan-da.

– Shunday bo‘lsa kerak, ser, basharti, ovqatni anavi boshqa kishi yeb qo‘ymagan bo‘lsa.

Qahvani ko‘targanimcha to‘xtab qoldim va butun vujudim bilan Berrimorga tikildim.

– U yerda boshqa birov borligini bilaman, deng?

– Ha, ser, botqoqlikda yashirinib yurgan yana bir kishi ham bor.

– Siz uni ko‘rganmisiz?

– Yo‘q, ser.

– Bo‘lmasa, u odamni qayoqdan bilasiz?

– Buni menga bundan bir yarim hafta burun Selden aytgan edi. U odam ham yashirinib yuribdi, lekin chamamda, mahbuslardan bo‘lmasa kerak...

To‘satdan Berrimorning og‘zidan bir gap chiqib ketdi:

– U odam menga sira yoqmaydi, doktor Uotson, sira ham yoqmaydi.

– Gapimga quloq soling, azizim! Bu yerda faqat men xo‘jayiningiz manfaatini ko‘zlab yuribman. Faqat unga yordam beraman, deb bu yerga kelganman. Menga to‘g‘risini ayting, u odamning sizga nimasi yoqmaydi?

Berrimor beixtiyor shu gapni aytib yuborganiga afsuslangandek bo‘libmi yoki yuragini titkilab turgan hislarni ifodalab beradigan munosib so‘z topolmaganidanmi, har holda, bir daqiqa ikkilanib turdi.

– Xullas, u yerda bo‘layotgan narsalarning hammasi menga yoqmaydi, ser! – dedi nihoyat Berrimor va botqoqlik tomonga qaragan, yomg‘ir suvi shaldirab oqib turgan derazani ko‘rsatib. – Bu narsa yaxshilikka olib kelmaydi. U yerda juda yomon bir ish qilmoqchilar, bu gapimga ishonavering! Hozir men faqat bir narsani aytishni istayman: ser Genri bu yerdan tezroq Londonga jo‘nab ketsin.

– Sizni nima bunchalik qo‘rqityapti?

– Siz ser Charlzning o‘limini eslang! Tergovchi nima desa deyaversin! Botqoqlikda kechalari nimalar bo‘layotganiga bir quloq soling. Quyosh botganidan keyin hech kim, har qancha pul bersangiz ham, botqoqlikka borishga rozi bo‘lmaydi-ku... Ammo u odam botqoqlikda yashirinib, kimnidir poylab yuribdi, kimni poylab yuribdi? Bularning boisi nima bo‘ldi ekan? Yo‘q, Baskervil nomli kishilarga bu voqealar yaxshilik keltirmaydi. Ser Genrining yangi xizmatchilari kelib, mening o‘rnimda ishga tushadigan va bu yerdan jo‘nab ketishim mumkin bo‘lgan kunni ko‘rolmasam kerak.

– O‘sha odam to‘g‘risida menga gapirib bering, – dedim. – U haqda nimalar bilasiz? Selden nimalar dedi? Uning qayerda va nima uchun yashirinib yotgani ma‘lummi?

– Selden uni ikki marta ko‘ribdi, lekin u ehtiyotkor, ayyor odam. Dastlab Selden uni politsiya bo‘lsa kerak, deb o‘ylabdi, ammo keyin u butunlay boshqa odam ekanligiga qanoat hosil qilibdi. Ko‘rinishdan u jentlmen odamga o‘xsharmish,

lekin u yerda nima qilib yurganini sira tushunolmaysan kishi.

– Uning joyi qayerda ekan?

– Seldenning aytishiga qaraganda, tepalik yonbag‘ridagi eski g‘orlarni makon qilib olibdi. Qadim zamonlarda odamlar yashagan tosh g‘orlarni o‘zingiz ham bilsangiz kerak.

– U nima bilan tirikchilik qilar ekan?

– Qandaydir bir bola uning oldiga kelib yurganini Selden ko‘rib qolibdi. Unga ovqat va boshqa kerakli narsalarning hammasini o‘sha bola Kumbi-Tresidan keltirib berib tursa kerak.

– Yaxshi, Berrimor. Bu to‘g‘rida siz bilan boshqa bir vaqtda yana gaplashamiz.

Eshik og‘asi chiqib ketganidan keyin deraza oldiga bordim va shamol silkitayotgan daraxtlarga, osmonda suzib yurgan bulutlarga xira oynadan qarab turdim. Shunday yog‘ingarchilikda hatto uy ichida ham odamning ko‘ngli g‘ash bo‘lib turgan bir mahalda botqoqlikdagi tosh g‘or ichida ahvol qanday bo‘ldiykin! Shunday joyga va shunday mahalda o‘rnashib olib, poylab o‘tirgan kishining ko‘nglida juda katta nafrat to‘plangan bo‘lsa kerak! U odam o‘zini shunchalik qiynoqqa solishining boisi nima bo‘ldiykin?

Fikrimni band qilib qiynab turgan vazifaning mohiyati o‘sha g‘orlardan birining ichidan topilsa kerak. Qasamyod qilib aytamanki, oradan bir kun ham o‘tkazmay, qo‘limdan kelgan hamma chorani ko‘raman va shu sirning nimaligini bilib olaman!

## XI BOB

### Tosh ustun tepasidagi odam

Kundalik daftarimdan olinib, oxirgi bobni tashkil qilgan parchalar bizni 18-oktabr kuniga yaqinlashtirib olib keldi, ya'ni shu kundan boshlab mana shu aql bovar qilmaydigan voqealarning hammasi o'zining dahshatli poyoniga tezlik bilan yaqinlashaverdi. Keyingi kunlardagi hodisalar miyamda shu qadar mahkam o'rnashib qoldiki, bu hodisalarni men yozib qo'ygan daftarimga qaramasdan ham hikoya qilib bera olaman.

Demak, birinchi darajada ahamiyatli bo'lgan ikkita holatni kecha aniqlab olganimdan keyin ertasiga nimalar bo'lganini aytib beray. Birinchi aniqlagan narsam shu bo'ldiki, Kumbi-Tresidagi missis Laura Layons ser Charlz Baskervilga xat yozib, u bilan uchrashadigan joyni tayinlab qo'ygan ekan, ser Charlz Baskervilning xuddi o'sha joyda, hattoki, o'sha belgilab qo'yilgan soatda o'ligi topilgan edi. Ikkinchi narsa shu bo'ldiki, botqoqlikka yashirinib yurgan odamni tepalik yonbag'ridagi tosh g'orlarning ichidan qidirish kerak. Mana shu ikki jumboqni yechmoq uchun faqat mardlik va ziyraklik kerak, men buni his qilib turibman.

O'sha kuni kechqurun baronetga missis Layons to'g'risida bilganlarimni gapirib berolmadim, chunki doktor Mortimer u bilan yarim kechagacha qarta o'ynab o'tirgan edi. Lekin ikkinchi kuni nonushta vaqtida men unga o'z bilganlarimni aytib berdim va birgalashib Kumbi-Tresiga borishni taklif qildim. Dastlab u mening bu taklifimga

darrov rozi bo'ldi, lekin biroz o'ylashib, yaxshisi, yolg'iz o'zim borganim tuzuk bo'ladi, degan qarorga keldik. U yerga borishim qancha rasmiy tusda bo'lsa, biz shuncha kam natijaga erishgan bo'lur edik. Shuning uchun ham men o'zimni xijolatga qo'ymay, ser Genrini uyda qoldirib, yangi faktlarni qidirish uchun jo'nab ketdim.

Kumbi-Tresiga borganimdan keyin otlarni ushlab turishni Perkinsga topshirib, o'zim mo'ljalagan odamlardan Laura Layonsni surishtirdim. Bu xonimning uyini qidirib topish qiyin bo'lmadi: uning uyi qishloqning qoq o'rtasida ekan. Eshikni ochgan xizmatchi xotin ortiqcha surishtirib o'tirmay, meni mehmonxonaga olib kirdi, u yerda yozuv mashinkasi oldida bir xotin o'tirardi. U yoqimli tabassum bilan meni kutib olish uchun o'rnidan turdi, lekin notanish kishiligimni ko'rib, qoshlarini chimirgancha yana stol yoniga o'tirdi va mendan nima uchun kelganimni so'radi.

Birinchi qarashdayoq missis Layons o'zining go'zalligi bilan meni hayratda qoldirdi. U qo'y ko'z, qo'ng'ir soch, garchi ikki yanog'i sepkil bosgan bo'lsa ham qip-qizil xotin ekan. Uning yuzidagi qizil, oq atirgulning o'rtasidagi jozibali qizil tusni eslatardi. Takror aytamanki, birinchi ko'rishda bu xotin menda juda zo'r taassurot qoldirdi. Biroq sinchiklab qarar ekanman, uning kamchiliklari ko'zimga tashlana berdi. Uning chehrasida qandaydir yoqimsiz, qo'pol alomat borligi sezilib turardi: labining chetidagi ajinlarmi yoki qarashining qattiqligimi, har holda, nimadir uning go'zalligini buzib turardi. Birinchi daqiqada esa oldimda juda



chiroyli xotin turganini va bu ayol mendan nima uchun kelganimni so'rayotganini his qildim. Ana shundagina mening bu kelishimdan kuzatilgan maqsadning naqadar qaltis ekani ravshan bo'ldi.

– Otangiz bilan tanish edim, – dedim. Gapni boshlashim ancha muvaffaqiyatsiz chiqdi. Xonim ham buni menga darrov sezdiradi.

– Otam bilan hech qanday aloqam yo'q, – dedi u. – U bilan aloqam uzilib ketgan, shu sababli uning do'stlarini o'z do'stlarim deb hisoblay olmayman. U ota bo'lib, men uchun o'zini koyitayotgani yo'q. Agar marhum ser Charlz Baskervil va ba'zi bir rahmdil kishilar bo'lmaganda edi, men och qolgan bo'lardim.

– Men ham siz bilan marhum ser Charlz Baskervil haqida gaplashgani kelgan edim.

Uning oqarib ketgan chehrasidagi sepkillar darrov bo'rtib ko'ringandek bo'ldi.

– Xo'sh, siz nimalarni so'ramoqchisiz? – deb savol berdi u va g'ijinganday bo'lib, mashinka klavishlarini barmoqlari bilan titkilay boshladi.

– Siz u bilan tanishmidingiz?

– Undan ko'p yaxshiliklar ko'rganimni ayt-dim-ku. Asosan u menga shu qadar yaxshilik qilgani tufayligina o'zimni o'nqlab olganman.

– Siz unga xat yozib turarmidingiz?

Xonim menga darrov tikilib qaradi va uning qo'y ko'zlarida alam, iztirob belgilari paydo bo'ldi.

– Bu savollardan muddaongiz nimaligini menga aytib bering, – dedi keskinlik bilan u.

– Buni surishtirishdan muddaom faqat bitta, u ham bo'lsa, sizga malol keladigan sir ochilib

qolmasin, deyman. Yaxshisi, shu yerda gaplashib olaylik, aks holda fursatni qo'ldan berib qo'yamiz, buning oqibati esa yomonroq bo'lib chiqadi.

U avvalgidan ko'proq bo'zardi va anchagina sukut qilib turdi. So'ngra birdaniga menga qarab, jahl qilgandek keskin ovoz bilan dedi:

– Yaxshi, roziman. Muddaongiz nima?

– Siz ser Charlzga xat yozib turarmidingiz?

– Ha, ikki marta yozganman, oliyjanoblighi va himmati uchun tashakkur aytganman.

– Xatlarni qachon yozganingiz esingizdami?

– Yo'q.

– O'zingiz u bilan uchrasharmidingiz?

– Bir-ikki marta, o'shanda ham u Kumbi-Tresiga kelgan vaqtda uchrashganman. Ser Charlz juda kamtar odam edi, u qilgan yaxshiliklarini ko'z-ko'z qilishni yoqtirmasdi.

– Siz unga kamdan kam xat yozar, u bilan kamdan kam uchrashar ekansiz-u, shunday bo'lsa ham, u sizning ishlaringizdan yaxshi xabardor bo'lib turgan, hatto sizga yordam ham bergan ekan-da. Buni qanday tushunsa bo'ladi?

U ilmoqli savolimga o'ylab turmay javob berdi:

– Ayanchli ahvolimdan xabardor bo'lgan boshqa jentlmenlar ham birgalashib menga yordam berib turishgan. Ser Charlzning qalin do'sti va qo'shnisi mister Steplton shu jentlmenlarning biri edi. U menga nihoyat darajada yaxshilik qildi, ser Charlz u orqali men bilan tanishgan edi.

Ser Charlz Baskervil biror xayr-ehson qiladigan bo'lsa, bu ishni bajarishni Stepltonga topshirar edi. Bundan xabardor bo'lganim uchun xonimning bu javobini juda o'rinli deb topdim.

– Yana bir savolim bor: siz ser Charlzga yozgan xatlaringizda u bilan shaxsan uchrashishni talab qilganmidingiz?

Bu savolimga xonimning jahli chiqdi:

– Menimcha, bu savolingiz o‘rinsiz bo‘ldi, ser!

– Kechirasiz, xonim, lekin savolimni takrorlashga majburman.

– Yaxshi, javob beraman: sira talab qilgan emasman!

– Hatto, ser Charlz o‘ladigan kunda ham talab qilmaganmisiz?

Shu ondayoq xonimning yanoqlaridagi qizillik yo‘qolib, menga qarab turgan chehrasi murdani-kiday oqardi. Lablari qaqrab, qaltiray boshladi, uning faqat yana bir marta «yo‘q» deb beradigan javobini eshitishdan ko‘ra, aft-angoridan tezroq bilib oldim.

– Esingizdan chiqqani ko‘rinib turibdi. Yozgan xatingizdagi bir jumlaning hatto eslatib o‘tishim mumkin. O‘sha xatda: «Sizni jentlmen deb o‘tinaman: bu xatni yondirib tashlang va kechqurun soat o‘nda xiyobondagi eshikcha oldida kutib turing», – deyilgandi.

Nazarimda, yana bir soniyadan so‘ng missis Layons hushini yo‘qotib qo‘yadigandek edi, lekin u ming mashaqqat bilan o‘zini qo‘lga oldi.

– Demak, dunyoda insofli jentlmenlar qolmabdi-da? – degan so‘zlar og‘zidan chiqib ketdi.

– Ser Charlzga nisbatan bunday deyishingiz noto‘g‘ri: u sizning iltimosingizni bajo keltirgan. Lekin ba‘zan hatto kuydirib tashlangan xatni ham o‘qib bilish mumkin. O‘sha kuni siz unga xat yozganingizga endi iqroormisiz?

– Ha, yozgan edim. Buni inkor qilmayman! – xonim ko'nglidagi butun alamini shu so'zlarda ifodalaganday xitob qildi. – O'sha xatni yozganimga sira ham uyalmayman. Men undan yordam so'ragan edim.

– Agar shunday bo'lsa, u bilan uchrashmoq uchun shunday kechki paytni tayinlaganingizning sababi nima?

– Ertasi kun u Londonga, ehtimol, bir necha oyga ketib qolishini bilgan edim. Oldinroq bori-shimning esa iloji yo'q edi, buning uchun sabablarim bor edi.

– Bo'lmasa, nima uchun parkda uchrashmoqchi bo'ldingiz? Uyida uchrashsangiz bo'lmasmidi?

– Xotin kishining kechki paytda bo'ydoq odamning uyiga borishi mumkin, deb o'ylaysizmi?

– Yaxshi. Uchrashmoqchi bo'lgan joyingizga borganingizda nimani ko'rdingiz?

– Hech qayoqqa borganim yo'q.

– Missis Layons!!!

– O'zim uchun muqaddas bo'lgan narsalarning hammasini shafe keltirib qasam ichamanki, u yerga borganim yo'q! Bir ishkal chiqib qoldi.

– Qanaqa ishkal ekan?

– Bu mening shaxsiy ishim, buni sizga aytib berolmayman.

– Binobarin, siz ser Charlz vafot etgan joyning xuddi o'zida, hatto xuddi o'sha soatning o'zida u bilan uchrashmoqchi bo'lgan ekansiz-u, lekin o'zingiz o'sha joyga kelmabsiz-da.

Har qancha surishtirsam ham, boshqa javob ololmadim, u aytgan gapida turaverdi.

Uzoq davom qilgan va natijasiz bo'lib chiqqan so'roqlarimni tamomlab:

– Missis Layons, siz gapning rostini aytishni istamayapsiz, bu bilan o'z zimmangizga katta mas'uliyat olyapsiz. Sizning ahvolingiz juda qaltis. Agar men yordam so'rab politsiyaga murojaat qilsam, natijada bu qilg'ingiz bilan o'z obro'yingizni to'kayotganingizga qanoat hosil qilasiz. Sizda hech qanday ayb yo'q, deb faraz qilaylik, agar shunday bo'lsa, nega ser Charlz o'lgan kuni unga xat yuborganingizni birinchi so'rashimdayoq bo'yningizga olmadingiz? – dedim.

– Men bundan noto'g'ri xulosa chiqariladi va chatoq ishga men ham aralashib qolaman, deb qo'rqvdim.

– Xatingizni kuydirib tashlashni ser Charlzdan talab qilganingizning sababi nima?

– O'sha xatni o'qigan bo'lsangiz, buni o'zingiz tushungan bo'lishingiz kerak!

– Xatning hammasini o'qidim deb aytganim yo'q.

– Xatdagi butun bir jumlaning yoddan aytib berdingiz-ku.

– Faqat oxirgi jumlaning. Xat kuydirib tashlangan, uni batamom o'qib chiqqan olganim yo'q, deb sizga aytdim-ku. Savolimni yana bir marta takrorlayman: ser Charlzdan, xatimni kuydirib tashlang deb talab qilganingizning sababi nima?

– Buni faqat o'zim bilaman.

– Agar shunday bo'lsa, siz oshkora tekshirish o'tkazilmasligidan, ayniqsa, ko'proq manfaatdor bo'lishingiz kerak.

– Yaxshi, sizga hammasini aytib beraman. Achchiq taqdirim to‘g‘risidagi ovozalari sizning ham qulog‘ingizga yetgan bo‘lsa, surishtirib o‘tirmay erga tekkanimni va bunga afsuslanish uchun asoslarim borligini bilishingiz kerak.

– Ha, ba‘zi gaplarni eshitdim.

– Men yomon ko‘rib qolgan erim shundan beri payimga tushib yuribdi. Qonun uning tomonida, o‘zi bilan yana birga yashashga meni majbur qilishi mumkin, har kuni shunday xafv ostida yuribman. Ser Charlzga xat yozishdan oldin erimdan qutulishim mumkinligini, lekin buning uchun pul kerakligini bilib qoldim. Erimdan qutulsam, ko‘nglim ham tinchir edi, o‘zim ham baxtli bo‘lur edim, o‘zimning nazarimda qadrim ham oshardi, xullas, maqsadimga yetardim! Ser Charlzning oliyjanobligi hammaga ma‘lum, agar dardimni unga aytib bersam, yordamini ayamaydi, deb o‘ylagandim.

– Agar shunday bo‘lsa, nega siz u bilan uchrashish uchun bormadingiz?

– Chunki u bilan uchrashadigan vaqt kelguncha boshqalardan yordam kelib qoldi.

– U holda siz unga ikkinchi xat yozib nima uchun borolmasligingizni aytishingiz kerak edi!

– Uning vafot etgani to‘g‘risida gazetalarda yozilgan xabarni ertasi kuni ertalab o‘qimaganimda edi, shunday qilgan bo‘lur edim.

Xonimning gaplari ancha mantiqiy edi, savollarim shu gaplarning haqiqatga o‘xshab kelayotganini bo‘shashtira olmadi. Bularning hammasini faqat bitta yo‘l bilan tekshirib ko‘rish mumkin edi,

ser Charlzning fojiali vafotidan so'ng darrov missis Layons eridan taloq xati olish uchun sudga ariza berganmi yoki yo'qmi, bilish kerak edi.

Ser Charlz bilan uchrashish uchun kelmadim, deb yolg'on gapirishga Layons botinolmasa kerak, chunki Baskervil-xollga sharabanga<sup>53</sup> tushib borib, Kumbi-Tresiga qaytib kelguncha tong otib qolgan bo'lar edi. Bunday safarni sir saqlab bo'lmaydi. Binobarin, xonim haqiqatni yoki loaqal haqiqatning bir qismini gapirib berdi, deyish mumkin.

Nima qilishimni bilmay va muvaffaqiyatsizlikka uchraganimdan xafa bo'lib, qaytib keldim. Mo'ljallangan maqsadimga olib boradigan yo'llarning hammasini to'sib turgan qalin devor yana oldimda turardi. Shunday bo'lsa ham, o'sha xotinning chehrasini va gaplashgan vaqtimdagi harakatlarini eslar ekanman, u ko'p narsalarni mendan yashirib qolganiga tobora ko'proq qanoat hosil qilaverdim. Nega u to'satdan bo'zarib ketdi? U xotin har bir so'zni zo'rma-zo'raki aytishga majbur bo'lganining sababi nima? Fojia sodir bo'lgan soatda u ayolning tayinlagan joyga uchrashish uchun kelmay qolganining sababi nima? Bu sabablar ayol menga tushuntirmoqchi bo'lgan darajada oddiy sabablar bo'lmasa kerak. Zotan, bu sabablarni ayol bilan gaplashib bilib olishning ham iloji yo'q! Botqoqlikdagi tosh g'orlarga olib boradigan boshqa izlarni qidirib bu savollarning javobini topmasam bo'lmaydi.

---

<sup>53</sup> Sharaban – bir ot qo'shiladigan ikki g'ildirakli arava (Tarj.).

Lekin bu izlar nihoyatda noaniq edi, bunga men tarixdan burungi odam yashagan joylarning qoldiqlari bilan to'lgan tepaliklar yonidan qaytib kelayotganimda qanoat hosil qildim. Berrimor noma'lum kishi o'sha tashlandiq g'orlarning birida yashirinib yotganini aytgan edi, lekin bunaqa tashlandiq g'orlar bu yerlarda juda ko'p-ku!

Ammo Berrimorning aytgan gaplaridan boshqa, mening mulohazalarim bor edi, chunki mazkur noma'lum odamni tosh ustunning tepasida o'z ko'zim bilan ko'rganman. Binobarin, qidirishni ham o'sha yerdan boshlash kerak. O'sha joydagi har bir g'orni tekshirib chiqaman, nihoyat o'zimga kerak bo'lgan g'orni topaman. Agar noma'lum odamga duch kelib qolsam, uni o'zining kimligini aytib berishga majbur qilaman, bizni shu qadar zo'r berib ta'qib qilayotganining sababi nimaligiga iqror bo'lishga majbur qilaman. U gavjum Rijent-strit ko'chasida Xolmsning nazaridan g'oyib bo'lishga muvaffaq bo'ldi, lekin bu yerda, kimsasiz botqoqliklarda bizning nazarimizdan qochib qutulolmaydi. Agar men o'sha kishi yashirinib yotgan g'orni topsam-u, lekin bu g'orda uni uchratolmasam, u holda shu g'orga qaytib kelgunicha kutib o'tiraveraman. Xolms uni Londonda nazaridan qochirib yubordi. Agar uni tutib olsam, bu bilan ustozimdan ham o'zib ketgan bo'lar edim, ana shunda xursandligimning cheki bo'lmas edi!

Bu tekshirish vaqtida baxt qushi bir necha marta qo'limizdan chiqib ketdi, lekin endi uni men tutib oladigan bo'ldim. Mo'ysafid, qizil yuzli mister Frenklendning o'zi baxt qushining qayerdaligini



menga bildirgan darakchi bo'ldi, deyish mumkin. U o'z bog'ining katta yo'lga ochiladigan eshigi oldida meni ko'rib qoldi. Mister Frenklend o'zining odatdagi xushfe'lligi bilan nomimni aytib chaqirdi.

– Marhabo, doktor Uotson! Otlaringizga dam bering, axir! Kulbanga kiring, men bilan vaqti-chog'liq qiling, bir stakandan vino ichaylik.

Mister Frenklendning qiziga bo'lgan munosabati to'g'risidagi gaplarni eshitganimdan keyin unga nisbatan menda do'stona hislar bo'lishi mumkin emas edi, lekin Perkinsni har qanday qilib bo'lsa ham uyiga qaytarib yubormoqchi bo'ldim, chunki bunday bahona menga juda asqotdi. Aravadan tushar ekanman, tushki ovqat mahaligacha qaytib borishimni ser Genriga aytib qo'yishni Perkinsga buyurdim va Frenklendning orqasidan yurib to'ppa-to'g'ri ovqatlanadigan xonaga kirdik.

– Bugun tantanali kunim, ser, men uchun chinakam bayram! – dedi u qiqillab kulib. – Ikkita suddagi ish mening foydamga hal bo'ldi. Endi bu yerdagi xaloyiq qonunning kuchi kuch ekanligini, men qonun kuchi bilan itoatsizlarning adabini berib qo'yishdan qo'rqmasligimni tushunib oldi. Midlton cholning parkidan, xuddi parkning o'zidan, ser, cholning eshigidan yuz qadamcha naridan ot-aravalarni bemalol o'tkazaverish huquqini olishga muvaffaq bo'ldim! Xo'sh, siz bunga nima deysiz? Biz la'nati magnatlarimizning yana adabini berib qo'yamiz! Endi ular jamoa huquqlarini bemalol poymol qilishlariga hech kim yo'l qo'ymasligini bilib qo'yishsin. Bundan tashqari, men odamlarni o'rmonga ham kirmaydigan

qilib qo'ydim, bu yerdagi xaloyiq shu o'rmonda maishatbozlik qilishga odatlanib qolgan edi. Bu ablahlar xuddi xususiy mulk huquqlari yo'q deb o'rmonga bermalol kiraverar edilar! Ular bo'sh shishalarni va qog'oz parchalarini hamma joyda qoldirib ketaverish mumkin, deb o'ylaydilar. Suddagi ikkala ish tugadi, doktor Uotson, ikkovi ham mening foydamga hal bo'ldi. Ko'pdan beri shu bugungidek baxtiyor bo'lmagan edim – ser Jon Morlendni o'zining daraxtzorida quyonlarni qonunga xilof ravishda ov qilib yurgani uchun javobgarlikka tortgan kunimdan beri shu bugungidek xursand bo'lmagan edim.

– Xo'sh, bunga qanday qilib muvaffaq bo'ldingiz?

– Agar siz sud arxivlarini o'qib chiqsangiz, ser, buning uchun ketgan vaqtingizga afsuslanmaysiz. «Frenklend Morlendga qarshi». Bu ish Londondagi sudda ko'rilgan edi. Ikki yuz funt pulim ketgan bo'lsa ham, lekin bu ishni yutib chiqdim!

– Bundan qanday manfaat ko'rdingiz?

– Hech manfaat ko'rganim yo'q, ser, menga zarracha manfaati bo'lgani yo'q. Bu ishlardan shaxsan manfaatdor emasligim bilan faxrlanaman. Men faqat ijtimoiy burchimni bajaryapman. Bugun kechasi Fernvorsi qishlog'ining aholisi mening tulupimni gulxan qilib yoqishlariga aminman. Ular oxirgi marta shunday qilganlarida men politsiyadan bu bema'nilikka chek qo'yishni talab qilgan edim. Lekin bizning graflikdagi politsiya ma'murlari o'zlarini sharmandali ahvolga solib qo'ymoqdalar, ser! Ular meni himoya qiladilar deb umid etishga haqliman, ammo ular meni hi-

moya qilishmayapti! Hali qarab turing, «Frenklend politsiyaga qarshi» degan ish jamoatchilikning e'tiborini o'ziga tortadi. Mahalliy ma'murlar menga nisbatan juda yomon muomala qilayotganlariga bir kun pushaymon bo'ladilar, deb ogohlantirib qo'yg'an edim, mana endi aytgan gaplarim ro'yobga chiqdi.

– Qanday qilib? – deb so'radim. Chol menga ma'nodor qarab qo'ydi:

– Ular bir narsani o'lgudek bilgilar keladi, ammo mening bu to'g'rida ba'zi gaplardan xabarim bor. Lekin men bu ablahlarga tilla bersalar ham yordam qilmayman!

Bu mahmadonadan tezroq qutulish uchun bahona topolmay turgan edim, lekin uning keyingi so'zlariga qiziqib qoldim. Biroq bu bachchag'ar cholning qiliqlari menga yaxshi ma'lum edi: uning gapiga qiziqqa boshlashingiz bilan indamay turib olishini bilar edim, shuning uchun ham, sira parvo qilmagandek bo'lib savol berdim:

– Qonunga xilof ravishda ov qilish to'g'risidagi ishlardan yana birini aytmoqchidirsiz?

– Ha, ha! Yo'q, do'stim, bu ish juda jiddiy. Bu ish qochib ketgan mahbusga taalluqli ish bo'lsa nima deysiz?

Yuragim shuv etib ketdi.

– U qayerda yashayotganini bilasizmi?

– Aniq joyini ehtimol bilmasman, ammo uning izini politsiyaga ko'rsatib bera olaman. Unga kim ovqat eltib berayotganini poylab yurib bilib olganimizdan keyingina tutib olishimiz mumkinligi, nahotki, xayolingizga kelmagan bo'lsa?

Chol haqiqatga shu qadar yaqinlashib qolgan ediki, men o'zimni yo'qotib qo'yishimga sal qoldi.

– Ha, gapingiz rost, – dedim. – Mahbus hali ham botqoqlikda yashirib yotibdi deb o'ylaysizmi?

– Chunki unga ovqat eltib qo'yayotgan kishini o'z ko'zim bilan ko'rganman.

Bu kishi Berrimor ekanligini o'ylashim bilan yuragim siqilib ketdi. Agar u hech narsadan qaytmaydigan mana shu yovuz cholning qo'liga tushib qolsa, uning ishi yomon bo'ladi. Lekin cholning keyingi gaplarini eshitib, ancha ko'nglim tinchidi.

– Bilasizmi, unga ovqatni bir bola eltib beryapti! – deb davom qildi Frenklend. – Men uni har kuni tomdagi katta durbindan ko'rib turaman. U ayni bir yo'l bilan ayni bir vaqtda boradi. Kimga deysizmi? Albatta, mahbusning oldiga boradi.

Mana endi, nihoyat, omadim keldi! Lekin men bu gaplarga naqadar qiziqayotganimni hatto sezdirmadim. Bola deyapti-ya! Berrimor bir bola o'sha noma'lum kishiga ovqat eltib berayotganini aytgan edi. Demak, Frenklend shu kishining iziga tushibdi, mahbusning esa bunga hech qanday aloqasi yo'q. Agar choldan bilgan narsalarimning hammasini aniqlab ololganimda edi, bu narsa meni uzoq va tinkani quritadigan qidirishlardan xalos qilgan bo'lur edi. Lekin hali ham bu o'yinda o'zimning ishonmasligim va butunlay parvosizligimdan dastak tariqasida foydalanaverdim:

– Chamamda, u bola bu yerdagi biror podachining o'g'li bo'lsa kerak. Otasiga ovqat eltib berayotgandir-da.

Shaddod cholning gapiga zarracha qarshilik qilish uni lovillatib yuborar edi. U g'azab bilan menga o'qrayib qaradi va quturgan mushukdek hurpaydi.

– Siz shunday deb o'ylayapsizmi, ser? – Chol shu savolni berib, ro'paramizdagi botqoqlikni qo'li bilan ko'rsatdi. – Huv anavi tosh ustunni ko'ryapsizmi? Yaxshi! Uning nariyog'idagi mayda daraxtlar o'sib yotgan kichkina tepalikni ham ko'ryapsizmi? Bu botqoqlikda eng ko'p tosh bosgan joylar o'sha yer bo'ladi. U yerda podachi nima qiladi? Taxminingizda hech ma'no yo'q, ser!

– Bularni o'ylamagan ekanman, – deb cholning gapiga indamay rozi bo'ldim. Darrov rozi bo'lganim Frenklendga yoqib tushdi va u gapini davom ettiraverdi:

– Men hech qachon shoshma-shosharlik bilan xulosa chiqarmaymay, bunga amin bo'lavering, ser. Tugun ko'tarib borayotgan o'sha bolani birinchi marta ko'rayotganim yo'q. U har kuni, ba'zan esa bir kunda ikki marta... to'xtang-chi, doktor Uotson!.. Ko'zim yanglishmayaptimi yoki anavi tepalikning yonbag'rida biron narsa qimirlayaptimi?

Darhaqiqat, men hatto bir necha mil naridagi o'sha xiragina ko'karib turgan tepalikning yonbag'rida qora nuqta qimirlaganini ko'rib qoldim.

– Yuring, ser, boramiz! – deb qichqirdi Frenklend zinadan yuqoriga chiqa turib. – Siz uni o'z ko'zingiz bilan ko'rasiz!

Yassi tomda uch oyoqqa o'rnatilgan juda katta durbin turar edi. Frenklend durbinga yopishib olib, xursand bo'lib chaqirdi:

– Tezroq, doktor Uotson, tezroq keling! U tepalikning orqasiga o'tib ketmasdan ko'rib qoling!

Haqiqatan ham, tugunni orqalab olgan bola tepalikka tirmashib chiqib bormoqda edi. Ana u tepalikning ustiga chiqib oldi, juldur kiyim kiygan uning beso'naqay gavdasi qaqqayib turganini ochiq ko'rdim. Uning orqasida ko'm-ko'k sovuq osmon ko'rinib turardi. Bola, orqamda bиров poylab turmaganmikin, deb o'ylagan bo'lsa kerak, atrofiga alanglab qaradi va tepalikning orqasiga o'tib g'oyib bo'ldi.

– Xo'sh, gapim rost ekanmi?

– Haqiqatan, uning bola ekani aniq bo'ldi, bolaning u yerga maxfiy ravishda borib yurishining sabablari bordir?

– Buning maxfiy sabablari borligini hatto politsiya vakili ham payqab olgan bo'lur edi. Lekin men ularga bu to'g'rida bir so'z ham aytmayman, bu to'g'rida og'iz ochmaslikni sizdan ham iltimos qilaman, doktor Uotson! Tushundingizmi? Og'iz ochmang!

– Xohishingiz.

– Ular meni sira nazar-pisand qilishmayapti. «Frenklend politsiyaga qarshi» deb atalgan ishning tafsilotlari oshkor bo'lishi bilan mamlakatda g'azab to'lqini kuchayib ketadi. Yo'q, ular mendan yordam kutishmasin! Agar bu ablahlar tulupimni emas, balki o'zimni yoqib yuborsalar ham politsiya bu to'g'rida churq etmagan bo'lur edi... Xo'sh, ketmoqchimisiz! Mana shunday quvonchli voqea sharafiga manavi grafinni ichib, kayf qilishimga, nahotki, yordam bermasangiz?

Ammo hech qanday o'tinchlarga quloq solmadim, chol uyimizgacha kuzatib qo'ymoqchi bo'lganini aytganida, men uni bunday qilmaslikka arang ko'ndirdim. Uning ko'zidan g'oyib bo'lgunimcha yo'ldan ketaverdim, lekin so'ngra o'sha bola yashiringan tosh tepalikka tomon burildim.

Hamma ish xuddi ko'nglimdagidek bo'lmoqda edi, shuning uchun ham taqdirning o'zi menga tortiq qilgan shu baxtli hodisadan foydalanishga muvaffaq bo'lsam, bunga faqat o'zimning g'ayratim va matonatim tufayli erishgan bo'laman, deb xayolda qasamyod qilib qo'ydim.

Tepalikka chiqqanimda quyosh botib borayotgandi, shuning uchun ham bu tepalik yonbag'rlarining bir tomoni zarhal, yam-yashil bo'lib, ikkinchi tomoni kulrang soyaga botib turar edi. Olisda, ufqning tepasini tuman qoplagandek bo'lib ko'rinardi, shu tuman orasidan Tulki ustunning ajib shakli ko'rinardi. Tevarak-atrofdan na tovush eshitilar, na bir harakat borligi sezilardi. Faqat chag'alaymi yoki kronshnepmi – qandaydir kulrang katta qush ko'm-ko'k osmonda qanot qoqib suzib borardi. Osmonning juda katta gardishi bilan uning ostida yoyilib yotgan sahro o'rtasida o'sha qush bilan mendan boshqa tirik jon ko'rinmasdi. Qup-quruq bepoyon botqoqlik, odamsizlik, yechilmagan sir va men bajarmoqchi bo'lgan vazifaning muhimligi – mana shularning hammasi yuragimga g'ulg'ula solib, badanimdan muzdek ter chiqarmoqda edi. Hech qayerda bola asari ko'rinmasdi. Ammo tepaliklar orasida, pastlikda qadimiy tosh g'orlar ko'zga tashlanib turardi, shu

g'orlar orasida usti buzilib ketmay, butun qolgan faqat bitta g'orgina odamni qor-yomg'irdan saqlashi mumkin edi. O'sha g'orni ko'rishim bilan yuragim shuv etib ketdi. Men qidirayotgan odam mana shu g'orni makon qilib bekinib yotgan bo'lsa kerak. Agar shu g'orning ichiga kirishga muvaffaq bo'lsam, uni qo'lga tushirishim turgan gap.

Steplton matrachasini ko'tarib olib, kapalakni tutish uchun naqadar ehtiyotlik bilan harakat qilsa, men ham xuddi shunday sekin-sekin qadam tashlab, g'or tomon yurdim! G'orga yaqinlashib, ichiga ko'z tashlab, u odam makoni bo'lib qolganini ko'rib qanoat hosil qildim. G'or oldida mayda toshlar ustida sezilar-sezilmas so'qmoq yo'l borligini payqadim. G'ordan churq etgan tovush chiqmasdi. Noma'lum kishi yo g'orning ichida bekinib yotibdi, yoki botqoqlikda izg'ib yurgan bo'lsa kerak. U bilan uchrashish payti kelishini kutar ekanman, asablarim nihoyat darajada tarang tortilgandi. Papirosimni uloqtirib tashlab, to'pponchamni qo'lga oldim va darrov g'or og'ziga borib, ichiga qaradim. G'orda hech kim yo'q edi.

Lekin g'or xuddi men o'ylaganday bo'lib chiqdi: unda kimdir makon qilib olgani ochiq ko'rinib turardi. Bir vaqtlar neolit odamning yotog'i bo'lgan tosh ustida yomg'ir o'tmaydigan plashga o'ralgan ko'rpa qo'yilgan edi. Bu ibtidoiy kulbadagi o'choqda kul uyumi ko'rinib turardi. Uning yonida qandaydir ro'zg'or asboblari va yarmi suv bilan to'ldirilgan chelak turardi. Bir uyum bo'sh konserva bankalari bu yerda odam bir qancha vaqtdan beri yashab turganidan dalolat berar-



di. Ko'zim g'orning xira zulmatiga ko'nikkandan keyin burchakda turgan tunuka krujkani va ozmoz ichilgan viski butilkasini ko'rdim. G'orning o'rtasida stol vazifasini bajarib kelgan yassi tosh, uning ustida esa kichkina tugun turardi. Bu tugun men durbinda qaraganimda bola orqalab borayotgan tugunning o'zi bo'lsa kerak. Tugunda non va ikkita konserva bankasi bor edi. Bularning biri pishirilgan til konservasi, ikkinchisi esa sharbatga solingan shaftoli konservasi edi. Shularning hammasini ko'zdan kechirib, tugunchani o'rtaga qo'ymoqchi bo'lib turgan edim, yuragim birdan shuv etib ketdi: tosh ustida nimalardir yozilgan bir varaq qog'ozga ko'zim tushdi. Qog'ozni qo'lga olib, qalam bilan yozilgan quyidagi so'zlarni bir amallab o'qib chiqdim:

«Doktor Uotson Kumbi-Tresiga ketdi».

Qog'ozni qo'limda ushlaganimcha bir daqiqa qaqqayib turib qoldim va qisqa maktubning mag'zini chaqishga urindim. Bundan chiqdi, nomal'um odam ser Genrining emas, balki mening payimga tushgan ekan-da? Meni u o'zi poylab yurmasdan, balki boshqa bir kishini, ehtimolki, o'sha bolani poyloqchi qilib qo'ygan ekan-da? Bu xat o'sha bola yozib qoldirgan oxirgi ma'lumot bo'lsa kerak. Bu yerga kelganimdan beri, har bir qadamimni kuzatib yurishgan bo'lsa kerak. Zotan, bu yerda qandaydir ko'zga ko'rinmas kuchlar harakat qilayotgani, bu kuchlar bizning atrofimizni qurshab olish uchun juda ehtiyotlik va mohirlik bilan tuzoq qurayotgani, ahyon-ahyondagina, juda qaltis daqiqalardagina shu tuzoq

borligini his qilayotganimiz menga hamisha sezilib turgandek bo'lardi.

Men topib olgan xat bu yerga keltirib qo'yilgan xatlarning birinchisi bo'lmasa kerak. Atrofimga ko'z yugurtirib chiqdim, lekin arzigulik hech bir narsa topmadim. O'ziga shunday g'alati joyni makon qilib olgan o'sha kishining yoki o'sha kishidagi niyatlarning qandayligi to'g'risida fikr yuritishga biror imkon beradigan boshqa hech bir izni ham topolmadim. U kishi to'g'risida faqat shuni aytish mumkinki, o'zi juda qanoatli odam bo'lsa kerak va yashash uchun o'ng'aylik tug'diradigan narsalarga unchalik ahamiyat bermasa kerak. Keyingi kunlarda sel ko'p yog'ganini eslab va g'or tepasidagi katta tuynukni ko'rib, bu kishining o'z ishiga naqadar butun vujudi bilan berilganini angladim. U hatto, shu ish deb mana shunday o'ng'aysiz makonda mashaqqatli hayot kechirishdan ham qaytmaganini tushundim. U qanaqa odam bo'ldi ekan? U bizning yovuz dushmanimizmi yoki bizning mehribon himoyachimizmi? Mana shu savollarimning hammasiga javob topmagunimcha bu g'ordan chiqmayman, deb qasam ichdim.

Quyosh botib, osmonning g'arbi qizarib turardi, Botayotgan quyoshning shu'lalari olisdagi Grimpen botqoqligiga qizg'ish dog'lar tushirardi. Uzoqda Baskervil-xollning minoralari ko'rinar, nariroqda esa Grimpendagi tomlar tepasida burqsib chiqayotgan tutun arang ko'rinar edi. Shu tomlar bilan Baskervil-xollning o'rtasida, tepalikning orqasida Stepltonlarning uyi ko'zga tashlanardi.

Shom paytining oltin shu'lasini mana shularning hammasiga o'ziga xos latofat va jimjitlik bag'ishlab turardi! Lekin ko'nglim tabiatni qoplayotgan bu tinchlikka ishonmasdi, har daqiqa sayin muqarrar yaqinlashib kelayotgan qo'rqinchli noma'lum uchrashuvning oqibati qanday bo'lishini o'ylab, yuragim dukillab urmoqda edi. Asablarim nihoyat darajada tarang bo'lib qolgan edi, lekin shunday bo'lsa ham, hech narsadan qaytmayman deb qorong'i g'or ichida o'tiraverdim va bu g'orning egasi qaytib kelishini sabrsizlik bilan kutdim.

Nihoyat, uning tovushini eshitdim. Ana uning poshnasi toshga urildi. Yana bir marta... yana bir marta urildi... qadamlari tobora yaqinlashmoqda. O'rnimdan turib g'orning eng qorong'i burchagiga borib, to'pponchamni otishga tayyor qilib turdim, u odamning kimligini ko'rib, aniqlab olmaguncha unga o'zimni ko'rsatmaslikka qaror qildim. Tashqari jimjit bo'lib qoldi: u to'xtab turgan bo'lsa kerak. So'ngra qadam tovushlari yana eshitildi, kimdir g'or og'ziga kelib to'xtadi.

Menga yaxshi tanish kishining ovozi eshitildi:

– Bugungi oqshom juda huzur qiladigan oqshom bo'ldi-da, doktor Uotson. Siz nega bu dim joyda o'tiribsiz? Tashqarining havosi biram yaxshiki...

## **XII BOB**

### **Botqoqlikdagi o'lim**

O'z quloqlarimga ishonmay, bir yoki ikki daqiqa qotib qoldim va bu kutilmagan hodisadan o'zimga kelolmadim. So'ngra, o'zimni tutib olib, gapirishga

qodir bo'ldim va yelkamdan katta tog' tushgandek his qildim. Bu sovuq, zaharxanda ovoz butun dunyoda faqat bir kishiniki bo'lishi mumkin edi.

– Xolms! – deb qichqirib yubordim. – Xolms!

– Chiqavering, – dedi u, – lekin to'pponchaga ehtiyot bo'ling.

G'ordan chiqishim bilanoq uni ko'rdim. Xolms toshga o'tirib olgan va uning sho'xchan ko'zlari hayratda qolgan vajohatimga tikilib turardi. Men ko'rganimdan buyon u ancha ozib qolibdi, lekin ko'rinishi bardam, xotirjam, afti oftob nuridan qorayibroq qolgan edi. U sportchilar kiyimini, qalpog'ini kiyib olgani uchun xuddi botqoqliklarda sayr qilib yurgan sayyohga o'xshardi. U xuddi mushuk kabi ozodalikka rioya qilish odatini ham tark qilmabdi: soqolini sip-silliq qilib qirdirgani, ko'ylagida bitta ham dog'i yo'qligi ko'rinib turardi. Men o'zimni u bilan xuddi Beyker-stritda uchrashgandek his qildim.

Uning qo'lini mahkam siqib dedim:

– Bu yerda sizni ko'rib benihoya xursand bo'ldim!

– Yana taajjublandim ham, deb qo'ya qoling!

– Ha, gapingiz to'g'ri.

– Lekin sizni ishontirib ayta olamanki, do'stim, bunga faqat siz o'zingizgina taajjublanganingiz yo'q. Mening vaqtincha makonimni topishga muvaffaq bo'lishingiz xayolinga ham kelmagan edi, bu yerda sizni uchrataman deb sira ham o'ylamagan edim. Siz bu yerdaligingizni g'orga etishimga atigi yigirma qadam qolganidagina payqadam.

– Siz izlarimni bilib oldingizmi?

– Yo‘q, Uotson! Dunyodagi boshqa juda ko‘p izlar orasidan sizning izingizni aniqlab olish qo‘limdan kelmaydigan ish bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman. Mabodo, kelgusida meni bir amallab adashtirmoqchi bo‘lsangiz, sizga, avvalo, tamaki do‘konini o‘zgartirishni maslahat qilardim, chunki «Breydli Oksford-strit» markali papirosni ko‘rishim bilan darrov do‘stim Uotson shu oradagi yaqin bir joyda ekanini payqab olaman. Mana, siz chekib tashlab ketgan papiros, so‘qmoq yo‘ldan topib oldim. Bo‘sh yotgan makonimga bosib kirishga jazm qilgan daqiqangizda uni uloqtirib tashlagan bo‘lsangiz kerak.

– Juda to‘g‘ri.

– Men ham shunday deb o‘ylagandim... Sizing xarakteringizni oldindan bilganim uchun g‘or ichida pistirma qurib, shu g‘or egasining qaytib kelishini to‘pponcha ushlab kutib turgan bo‘lsangiz kerak, degan fikr xayolimga keldi. Demak, siz haqiqatan ham meni jinoyatchi kelyapti, deb o‘yladingizmi?

– Sizing kimligingizni bilmagan edim, lekin bilib olishga jazm qilib qo‘ygandim.

– Juda soz, Uotson! Xo‘sh, bu makonimni qanday topdingiz? Mahbusni quvlab yurgan vaqtimda meni ko‘rgan bo‘lsangiz kerak, o‘shanda befahmlik qilib, oydinga ro‘para bo‘lib qolgandim.

– Ha, o‘shanda sizni ko‘rib qoldim.

– Shundan keyin siz mana shu g‘orni topguncha boshqa hamma g‘orlarni birma-bir tekshirib chiqqan bo‘lsangiz kerak?

– Yo‘q, izingizni menga bolangiz sezdirib qo‘ydi, uni bu yerda yana kimdir kuzatib yuribdi.

– Iye! Durbinli jentlmen chol bo‘lsa kerak! Durbinning linzasiga quyosh shu‘lasi tushib yaltiraganini ko‘rgan edim. Avval nima yaltirayotganini bilolmadim. – U o‘rnidan turib, g‘or ichiga qaradi. – Demak, Kartrayt bu yerga kelib ketibdi. Bu qog‘ozga nimalarni yozgan ekan? Iye, siz Kumbi-Tresiga borib kelibsiz-da!

– Ha.

– Missis Laura Layons bilan uchrashish uchunmi?

– Xuddi shunday.

– Juda soz. Qidirish ishlarini olib borishda siz bilan biz yonma-yon yo‘ldan borganga o‘xshaymiz. Agar shunday bo‘lsa, topgan ma‘lumotlarimizni endi bir-birimizga aytib berishimiz kerak, shundagina bu ish to‘g‘risida ozmi-ko‘pmi ravshan tasavvur hosil qilgan bo‘lamiz.

– Bu yerga kelganingizga g‘oyat xursandman! Mana shu sirlarning hammasi va ustimdagi mas‘uliyat menga shu qadar og‘ir yuk bo‘lib tushdiki, toqatim toq bo‘lishiga sal qoldi. Xo‘sh, siz bu yerga qanday kelib qoldingiz? Bu yerda nimalar qilyapsiz? Men bo‘lsam, Xolms Beykerstritda o‘tirib, g‘irrom qimorbozlar to‘g‘risidagi ish ustida bosh qotiryapti, deb o‘ylab yuribman!

– Siz xuddi shunday deb o‘ylashingizni istagan edim.

– Demak, yordamimdan foydalanyapsiz-u, ayni vaqtda menga ishonmayotgan ekansiz-da? – deb xafa bo‘ldim men. – Bunga sazovor bo‘lmagan edim, Xolms!

– Do'stim, bu ishda ham, boshqa ko'p ishlarda ham siz menga hamisha bebaho yordam berib keldingiz. Agar siz, Xolms meni laqillatibdi, deb o'ylayotgan bo'lsangiz, o'tinamanki, bunga jahlingiz chiqmasin! Ochig'ini aytsam, men faqat sizni deb shunday qildim. Siz xafv ostida qolayotganingizni sezib, ishni shaxsan tekshirish uchun o'zim shu yerga keldim. Agar men ser Genri va siz bilan birga bo'lganimda edi, mening nuqtayi nazarim sizlarnikidan hech farq qilmagan bo'lardi, raqiblarimiz ham sergaklikni qo'ldan bermagan bo'lur edilar. Baskervil-xollga kelish meni juda bog'lab qo'ygan bo'lardi, ammo bu yerga oshkora kelmasdan bermalolroq ishlashga qaror qildim. Shuning uchun ham o'zim panada turib, eng qaltis payt kelganda maydonga chiqishga shaylandim.

– Lekin o'zingizni mendan ham yashirib yurishingizning nima hojati bor edi?

– Agar siz bu yerdaligimni bilganingizda, buning biror narsaga yordami tegmasdi, ehtimolki, buning oqibatida o'zim fosh bo'lib qolgan bo'lur edim. Ehtimolki, siz biror narsani menga aytgiz kelib qolur edi yoki odatingizcha menga yaxshilik qilmoqchi bo'lib, bu yerda men uchun qulaylik tug'dirish payiga tushib qolgan bo'lur edingiz. O'zimizni behuda xafv-xatarga duch keltirishning nima keragi bor? O'zingiz bilgan o'sha kontoradagi yugurdak bola esingizdami? Men o'sha Kartraytni birga olib keldim, u menga juda yaxshi xizmat qilib turibdi. Mening qanoatli ekanimni bilasiz-ku: bir burda non, toza yoqa, yana buning ustiga bitta

yordamchi kishi bo'lsa, bas! Bundan tashqari, Kartrayt mening uchun yana bir juft ko'z-u, yana juda tez yuguradigan bir juft oyoq xizmatini qiladi. Unisi ham, bunisi ham xizmatimga hamisha tayyor.

– Demak, bekorga ovora bo'lib hisobotlar yozib yurgan ekanman-da, – dedim qaltiragan ovoz bilan va shu hisobotlarni yozishga naqadar ko'p mehnat sarflaganimni va bu ish uchun naqadar faxrlanib yurganimni esladim.

Xolms cho'ntagidan taxlab qo'yilgan xatlarni chiqardi.

– Mana, sizning hisobotlaringiz. Uotson, bularni juda sinchiklab o'rganib chiqqanman, bunga shak-shubha qilmasangiz bo'ladi. Men aloqani shunday yaxshi yo'lga qo'ydimki, siz yuborgan xatlar narisi bilan faqat bir kun kechikib qo'limga tegadigan bo'ldi. Buning uchun sizni chin ko'ngildan tabriklayman. Bunday, odatdan tashqari qiyin ishda zo'r matonat va kuzatuvchanlik bilan harakat qilganingizni har qancha maqtasam ham oz.

Meni laqillatish uchun shu qadar mohirlik qilingani natijasida ko'nglimda paydo bo'lgan g'ashlikni hali sira yo'qota olmagan bo'lsam ham, ammo Xolmsning yoqimli so'zlari menga taskin bo'ldi. Bundan tashqari, do'stimning qilgan ishi haq ekanligini chin yurakdan his qilmoqda edim va ish manfaatlarini o'ylaganda uning bu yerga kelganini bilmasligim kerakligiga tan bermoqda edim. U chehram ochilganini ko'rib, dedi:

– Barakalla, azamat! Endi menga missis Laura Layons huzuriga borganingizni gapirib bering. Siz



qanday odam oldiga borganingizni darrov payqab oldim, chunki u Kumbi-Tresida biron narsani bilib olishimizga imkon beradigan birdan bir odam ekanligi endi menga ravshan. Ochig'ini aytsam, agar siz bugun uning oldiga borib kelmasangiz, ertaga o'zim, albatta, borgan bo'lardim.

Quyosh botib ko'zdan g'oyib bo'lgan, botqoqlikni qorong'ilik qoplagan edi. Havo darrov salqin bo'lib qoldi, shuning uchun ham biz g'orga kirib oldik. G'orda Xolmsning yoniga o'tirib olib, missis Layons bilan nimalarni gaplashganimni unga aytib berdim. Gaplarimga u shu qadar qiziqib ketdiki, Layonsdan eshitganlarimning ko'pini ikki martadan takrorlashim lozim bo'lib qoldi.

– Eshitgan gaplaringizning hammasi juda muhim, – dedi Xolms gapimni tamomlaganimdan keyin. – Bu g'oyat murakkab ish. Bunda men shu vaqtgacha to'ldirolmayotgan bir raxna bor edi. Steplton missis Layons bilan qalin do'st ekanini bilsangiz kerak?

– Yo'q, ularning do'stligi to'g'risida hech narsa eshitmadim.

– Ularning do'stligi aniq. Ular bir-birlari bilan uchrashib, xat yozishib turishadi. Umuman ular bir-birlari bilan juda inoq, bu esa bizning qo'limizga katta kuzir beradi. Agar uning xotiniga ta'sir qilmoq uchun mana shu kuzirni ishga solsak...

– Uning xotini bormi?

– Siz aytib bergan ma'lumotlar evaziga men ham ba'zi bir narsalarni gapirib beraman. Bu yerda Steplton singlim deb yurgan qiz, aslida xotini.

– Xudoyo tavba, Xolms! Siz bunga aminmisiz? Agar shunday bo'lsa, nega u ser Genrining missis Stepltonga oshiq bo'lib qolishiga yo'l qo'ydi?

– Ser Genrining oshiqligi faqat ser Genrining o'ziga xafv tug'dirardi, xolos. Steplton u ayolni baronetga yaqin yo'latmaslikka zo'r berib urinayotganini o'zingiz ham payqagan bo'lsangiz kerak. Takror aytamanki, u xonim Stepltonning singlisi emas, balki xotini.

– Lekin bunaqa nayrangbozlikning nima keragi bor?

– Buning sababini ham aytib beraman. Bu xotinning ersiz xotin rolini o'ynashi ko'proq foyda yetkazishini Steplton oldindan o'ylab qo'ygani edi.

Menga ravshan bo'lmagan gumonlarning hammasi, ko'nglim sezib turgan narsalarning hammasi birdaniga qalqib yuzaga chiqdi va tabiatshunos tevaragida bir-biriga tutashdi. Boshiga poxol shlyapa kiyib, kapalak ovlash uchun qo'lga matrabcha ko'tarib yurgan ana shu yuvosh nursiz kishidan qandaydir dahshat hidi kelib turardi. U o'zini sabrli, odmi kishi qilib yurgan bo'lsa ham, uning lablaridagi tabassum ayyorlik alomati ekani, qalbida esa hasad o'ti qaynab toshayotgani endi menga ayon bo'lib qoldi...

– Demak, raqibingiz o'sha ekan-da? Demak, Londonda sizni poylab yurgan kishi ham o'sha ekan-da?

– Ha, men bu jumboqni mana shunday yechdim.

– Ogohlantiruvchi xatni-chi... Uni o'sha ayol yuborgan ekanmi?

– Xuddi shunday.

Yarmisi ko‘zim bilan ko‘rgan, yarmisini o‘zim payqagan mudhish yovuzlik alomatlari men uzoq adashib yurgan zulmatdan ko‘zimga yaqqol ko‘rinib qoldi.

– Nahotki, shu gaplar to‘g‘ri bo‘lsa, Xolms? Siz u ayol Stepltonning xotini ekanini qayoqdan bildingiz?

– Steplton siz bilan birinchi uchrashganida gapga berilib ketib, o‘z tarjimayi holining bir qismini aytib qo‘yganini o‘zi ham sezmay qoldi. Bunga shu vaqtgacha pushaymon qilib yurgan bo‘lsa kerak. Haqiqatan ham, Angliyaning shimolida uning maktabi bo‘lgani rost. Muallimni qidirib topishdan oson ish yo‘q. Buning uchun maktab agentliklari deb atalgan tashkilotlar bor. Bu agentliklar muallimlik kasbiga aloqador bo‘lgan har qanday kishi to‘g‘risida sizga ma‘lumot topib berishadi. Men ham buni surishtirib ko‘rdim. Sal fursat o‘tmay, bir maktabda juda ko‘ngilsiz voqea ro‘y berganini va shu maktabning direktori xotini bilan qochib ketganini bilib oldim – u vaqtda familiyasi boshqacha edi. O‘sha maktab direktorining hamma belgilari Stepltonning belgilariga aynan o‘xshaydi. Steplton entomologiya<sup>54</sup> ga berilgan kishi ekanini bilganimdan so‘ng ko‘nglimdagi shubha butunlay yo‘qoldi. Atrofimni o‘rab turgan zulmat asta-sekin yorisha boshladi, lekin uning qorong‘iligida ko‘rinmayotgan narsalar hali ham ko‘p edi.

---

<sup>54</sup> Entomologiya – zoologiyaning hasharotlarga bag‘ishlangan

– Agar o'sha ayol Stepltonning xotini bo'lsa, bunga missis Laura Layonsning nima aloqasi bor? – deb savol berdim.

– Bu narsa o'zingiz biroz ayonlashtirib bergan moddalarning biri. Siz Kumbi-Tresiga borib kelganingizdan keyin menga ko'p narsa ravshan bo'ldi. Masalan, missis Layons eridan taloq xati olmoqchi bo'lib yurganini bilmas edim. U Stepltonga tegmoqchi bo'lib yurgan bo'lsa kerak – axir u Stepltonning xotini borligini bilmaydi-ku!

– Buni bilib qolsa-chi?

– U holda xonim biz uchun juda foydali bo'lishi mumkin. Ikkovimiz ertagayoq uni ko'rishimiz kerak. Endi, Uotson, vazifangizga qaytadigan vaqtingiz kelib qolmadimikan? Siz Baskervill-xollda bo'lishingiz kerak.

Quyoshning g'arbdagi oxirgi qizil shu'lalari so'ndi, botqoqlikni qorong'ilik qopladi. Qizargan osmonda yulduz miltillab turardi.

– Yana bitta, oxirgi savolim bor, Xolms, – dedim o'rnimdan turib. – Bir-birimizdan yashiradigan gapimiz yo'q. Shuncha hiyla-nayranglarning ma'nosi nima? Bu hiyla-nayranglar nimaga olib boradi?

Xolms menga bo'g'iq ovoz bilan javob berdi:

– O'ldirishga, Uotson... Puxta o'ylangan o'ldirishga. Tafsilotlarini mendan so'ramang. Steplton ser Genrini o'z tuzog'iga ilintirmoqda, ammo men uni o'z tuzog'imga ilintiryapman. Sizning yordamingiz bilan uni tuzog'imga ilintirdim, desam ham bo'ladi. Endi biz faqat bitta xafv ostida turibmiz – u birinchi bo'lib bizga zarba

berishi mumkin. Yana bir kun, eng ko'pi bilan ikki kundan keyin hamma narsam tayyor bo'ladi, mehribon ona o'zining kasal bolasini qanday avaylab asrasa, siz ham o'sha kun kelguncha ser Genrini asrab turing. U yerdan bugun sizning ketib qolganingizni kechirsa bo'ladi, ammo men uni sira tashlab ketmagan bo'lardim... Eshityapsizmi?

Dahshat va alam bilan to'la mudhish faryod sukunat bosgan botqoqlikda yangrab eshitildi. Men uni eshitdim-u, tomirlarimdagi qon to'xtab qolganday his qildim.

– Xudoyo tavba! Nima bu? Bu qanaqa ovoz?

Xolms o'rnidan sapchib turdi, uning baland gavdasi g'or og'zini qopladi. U g'or og'zida engashib, bo'ynini cho'zib qorong'ilikka diqqat bilan quloq solib qoldi. Menga shivirlab:

– Damingizni chiqarmang! – deb aytishga ulgurdi, xolos.

Bizni hayratda qoldirgan bu qichqiriy botqoqlikdagi qop-qorong'i zulmat ichidan kelmoqda edi. Lekin endi u yaqinroqdan, aniqroq eshitila boshladi.

– Qayerdan kelyapti? – deb shivirladi Xolms, asablari temirday mustahkam bo'lgan bu odamning ovozi qaltirab ketganidan bu faryod uning ham yuragini tirmalaganini payqadim. – Qichqiriy qayoqdan kelyapti, Uotson?

– Menimcha, anov tomondan. – Men qo'limni cho'zib qorong'ilikni ko'rsatdim.

– Yo'q, manavi tomondan!

Alamli qichqiriy jimjit qorong'ilikni yana yangratib yubordi, lekin bu safar tag'in ham yaqinroq

joydan, tag'in ham balandroq eshitildi. Endi qichqiriq ovozigga qandaydir boshqa tovushlar – dengizning to'xtovsiz hayqirig'ini eslatadigan bo'g'i q bo'kirish tovushlari aralashib ketdi.

– Itning ovozi bu, – deb qichqirdi Xolms. – Chopaylik, Uotson, chopaylik! Chopaylik! Kechikib qolmasak bo'lgani!

U qorong'ilikka tomon yugurdi, men ham uning ketidan yugurdim. To'satdan qayerdadir bizning ro'paramizda toshlarning orqasida iztirobli faryod, so'ngra esa bo'g'i q, og'ir taqillagan tovush eshitildi. Biz to'xtab quloq soldik. Lekin ko'ngilni g'ash qilib turgan shamolsiz tun sukunatini buzuvchi boshqa ovoz eshitilmadi.

Xolms esini yo'qotib qo'yg'an kishidek, boshini ushlab olib, yer tepinganini ko'rdim.

– U bizdan oldinroq kelibdi, Uotson! Kechikib qolibmiz! Yo'g'-e, unday bo'lmasa kerak!

– Nega men imirsilab qoldim! Siz ham shoshil-tirmadingiz-a, Uotson! Baskervilni yolg'iz qoldirib kelaverdingiz, mana endi buning oqibati! Yo'q, garchi fojيانing oldini olish imkoni bo'lmasa ham, lekin baribir ablahdan o'ch olaman.

Dahshatli qichqiriq ovozi kelgan tomonga yo'l qayerdaligini surishtirmay yugurdik. Biz goh tepaliklar ustiga chiqib, pastga yugurib tushib, goh qorong'ilikda toshlarga qoqilib, kiyimlarimiz yirtilganiga qaramay, tikanzor orasidan yugurib borar edik. Har bir tepalikka chiqqanimizda do'stim darrov tevarak-atrofga nazar solardi, lekin qorong'i zulmat botqoqlikni qoplab yotardi, shuning uchun ham, bu mudhish

keng botqoqlikda biror harakat borligini payqab bo'lmadi.

– Siz biror narsa ko'ryapsizmi?

– Hech narsa ko'rinmaydi.

– To'xtang! Nima bu?

Xirillab ingragan tovush qulog'imga chalindi. Bu tovush chap tomondan kelayotgandi. O'sha tomonda tikka tushgan tosh qiyamalik ostida katta-kichik toshlar uyulib yotardi, ana shu toshlar orasida qora narsa ko'zga tashlandi. Yugurib borgan edik, o'sha qora narsa ko'zimizga tag'in ham aniqroq ko'rina boshladi. Bu qora narsa yerga muk tushib yotgan odamning gavdasi edi. Uning boshi yerga yopishgan, yelkasi ko'tarilib, ko'zga ochiq ko'rinib turardi. Odamning bunday g'alati holatda yotgani, dastlabki daqiqada uning ingrashi o'lim oldidagi ingrash ekanini payqab olishimga xalaqit berdi. Biz uning ustiga engashib, quloq solib turdik, lekin na xirillagan tovushni eshita oldik, na shitirlagan ovozni payqay oldik. Xolms harakatsiz yotgan gavdani qimirlatib ko'rib, qo'rqqanidan qichqirib yubordi va shu ondayoq gavdani ushlab turgan qo'lini tortib oldi. Yoqilgan gugurtning shu'lasini uning qonga belangan barmoqlarini va o'likning yorilgan boshidan sekin oqib tushayotgan qonni yoritdi. Yuragimiz to'xtab qolgudek bo'ldi – gugurt yorug'ida biz ser Genri Baskervilning o'lib yotgan gavdasini ko'rdik.

Mana shu qizg'ish jigarrang kostyumni, baronet Beyker-stritga birinchi marta kiyib kelgan kostyumning o'zini unutish mumkinmi, axir? Bir soniyaning o'zidayoq uni tanib oldik, so'ngra

gugurt yana lovillab yondi va bizdagi umidning oxirgi uchquni so'nganidek o'chib qoldi. Xolms oh tortib yubordi, hatto qorong'ilikda ham uning chehrasi oqarib ketganini aniq ko'rdim.

– Ablah! Ablah! – Qo'llarim o'z-o'zidan musht bo'ldi. – Xolms, men uni yolg'iz tashlab ketganim uchun o'zimni sira kechirmayman!

– Mening aybim ko'proq, Uotson, bu ishni yakunlayman, poyoniga yetkazaman degan bo'lib, mijozimni qurbon qilib qo'ydim. Xufiyalik ishi bilan shug'ullana boshlaganimdan beri umrimda boshqa shunday bir zarbaga uchraganimni eslay olmayman. Lekin har qancha ehtiyotlik choralarini ko'rishimga qaramay, u yakka o'zi botqoqlikka chiqadi, deb o'ylash kimning xayoliga kela olar edi, kim shunday deb o'ylardi!

– Biz uning faryodini eshitdik – Xudoyo tavba, jonimizni sug'urib olgudek faryod qildi! Shunday bo'lsa ham unga darrov yordamga yetib kelolmadik! Uning o'lishiga sabab bo'lgan dahshatli it qayoqqa g'oyib bo'ldiykin? Ehtimol, u hozir ham shu atrofda izg'ib yurgandir! Steplton qayerda bo'ldiy ekan? Bu voqea uchun u javob beradi!

– Ha, shu voqealarning hammasi uchun u javob beradi, men buning chorasini ko'raman. Amakisi ham, jiyani ham – ikkovi o'ldirildi. Bittasi o'sha dahshatli itni ko'rishi bilanoq qo'rqqanidan jon berdi, chunki uni favqulodda maxluq deb hisoblab yurar edi, ikkinchisi, o'sha dahshatli maxluqdan qochib halok bo'ldi. Lekin endi biz shu kishi bilan it o'rtasida bog'lanish borligini isbot



qilishimiz kerak. Biz itning vovillaganini eshitdik, lekin buni hali dalil deb bo'lmaydi, chunki ser Genri yiqilganida boshi yorilib o'lgan bo'lsa kerak. Shunday bo'lsa ham, bizning raqibimiz har qancha makkor bo'lishiga qaramay, uni ertaga qo'lga tushiraman, buning uchun qasamyod qilaman!

Biz uzoq davom etgan mashaqqatli mehnatimizning oxirini shu qadar g'amgin natija bilan yakunlagan, to'satdan paydo bo'lib qolgan va sira tuzatib bo'lmaydigan bu kulfatda hayajonga tushib, majaqlangan jasad oldida turib qoldik. So'ngra bulutlar orasidan oy ko'rinishi bilan baland tosh tepasiga chiqib, oydin yoritib turgan botqoqlikka nazar soldik (bizning baxtsiz do'stimiz shu tosh tepasidan ag'darilib tushgan edi). Olisda, qayerdadir Grimpen atrofida sariq chiroq ko'rinib turardi. Bu chiroq faqat Stepltonlarning xilvat uyidagina yonishi mumkin edi. Men qo'limni musht qilib va la'natlar o'qib, o'sha tomonga tahdid qildim.

– Nimani kutyapmiz? Uni darrov ushlab olish kerak!

– Ish hali tugagani yo'q, ammo u ehtiyotkor, makkor odam. Biz ko'p narsalarni bilamiz-u, ammo buni isbotlash qiyin. Bitta ehtiyotsiz qadam qo'yishimiz bilan u ablah bizning qo'limizdan chiqib ketadi.

– Bo'lmasa, nima qilish kerak?

– Ertaga qiladigan ishimiz ko'p. Ammo bugun bechora ser Genriga oxirgi xizmatimizni ko'rsatishimiz kerak, xolos.

Biz qiyalikdan pastga tushib, oydinda ko'rinib turgan toshlar orasida yotgan va qorayib ketgan murdani oldiga bordik. Azoblanib o'lgan bu kishining jasadini ko'rishim bilanoq yuragimni alam bosdi va ko'zim jiqqa yoshga to'ldi.

– Bizga yordamlashadigan bir odam topmasak bo'lmaydi, Xolms, biz uni o'zimiz olib ketolmaymiz... Tavba, sizga nima bo'ldi? Esingizni yeb qo'yibsiz!

Xolms qichqirib yubordi va ser Genrining jasadiga engashdi. To'satdan u xoxolab mening qo'limni silkitib, o'yinga tusha boshladi. Hamisha o'zini tuta biladigan do'stim, nahotki, shu qadar yengiltaklik qilsa? Yashirinib yotgan alanga sirtga otilib chiqqanida shunaqa bo'lar ekan-da!

– Soqolini qarang! Uning soqoli bor-ku!

– Soqoli deysizmi?

– Bu ser Genri emas! Tavba, bu mening qo'shnim, mahbusning o'zi-ku.

Biz juda tez murdani o'nglab qo'ydik, uning qonga belangan soqoli endi sovuq oydinda cho'qqayib turardi. Endi hech qanday shak-shubha bo'lishi mumkin emas! Tor peshana, maymunniki singari cho'kib ketgan ko'zlar. Toshlar orasida sham yorug'ida menga lip etib ko'ringan kishining xuddi o'zi edi – qotil Seldenning o'zi edi bu.

Ana shunda men hamma narsani tushundim. Baronet o'zining eski kiyimlarining deyarli hammasini Berrimorga tortiq qilgani esimga tushdi. Demak, safarga chiqish oldidan kiyinib olgin, deb Berrimor o'sha kiyimlarni Seldenga bergan ekan. Mana u oyoq kiyimlarini, ko'ylakni, qalpoqni, mana shularning hammasini bir vaqtlar

ser Genri kiyib yurardi. Durust, fojia fojialigicha qola berdi, lekin bu odam baribir mamlakatimiz qonunlariga binoan o'ldirilishga sazovor kishi edi. Xursandligimdan o'zimni yo'qotib qo'ygudek bo'lib, bu hodisalarning hammasi qanday ro'y berganini Xolmsga tushuntirdim.

– Demak, bu bechora shu kostyumni kiyib olgani sababli halok bo'libdi-da, – dedi Xolms. – Ser Genrining biror buyumini itga iskatgan bo'lishlari kerak. – Itga iskatilgan buyum otelda yo'qolgan oyoq kiyimining o'zi ekani ehtimoldan xoli emas. Shu buyumni iskagan it mahbusning ketidan quvlagan. Aniqlanmagan faqat bir narsa qoldi: Selden orqasidan kimdir quvlab kelayotganini qorong'ida qanday ko'rdi ekan!

– Eshitgan bo'lsa kerak.

– Botqoqda it chopib kelayotganini eshitgan-u, tutilib qolmay deb yordam so'rab qichqirgan deysizmi? Yo'q, yo'q, mahbus bunaqa narsalardan qo'rqmaydi. Bir narsani bilish kerak: Selden orqasidan it quvib kelayotganini qanday ko'rdi ekan?

– Menimcha, bundan ko'ra g'alatiroq narsalar bor. Farazlarimizni to'g'ri deb o'ylasak, nega bu itni...

– Men hech narsani faraz qilayotganim yo'q.

– Yaxshi. Nega bu itni kechasi botqoqlikka chiqarib yuborishdi ekan? Itni hamisha shunday bemalol qo'yib yuborishmasa kerak. Ser Genrining bu yerga kelishini Steplton kutgan bo'lishi, ehtimol.

– Mening jumbog'im bundan ko'ra qiyinroq. Sizning jumbog'ingizga tez javob topamiz, ammo

mening bu jumbog'im, baribir, echilmasdan qolsa kerak. Endi bu bechorani nima qilish kerakligini o'ylab ko'raylik. Uni bu yerda tulkilarga va kalxatlarga yem qilib qoldirib bo'lmaydi-ku!

– Politsiyaga xabar bergunimizcha, biror g'orda yota tursin.

– To'g'ri, uni g'orga bir amallab eltib qo'yamiz. Qarang, Uotson! Nima bu? Nahotki, uning o'zi bo'lsa? Uning yuragini qarang-al.. Gumonlarimiz to'g'risida og'iz ochmang, churq etmang. Aks holda rejalarimizning hammasi barbod bo'ladi.

Botqoqlik ichkarisidan bir kishi bizga yaqinlashib keldi. U chekayotgan sigara olisdan miltillab ko'rinardi. Oydin uni yoritib turardi, uning oriq gavdasini va tez, pildirab yo'l bosib kelayotganini ko'rib, tabiatshunos ekanligini darrov fahmladim. U bizni ko'rib, to'xtab oldi-da, yana oldinga yurdi.

– Doktor Uotson! O'zingizmisiz? Sizni kechasi botqoqlikda uchrataman, deb sira o'ylamagan edim, tavba! Tavba! Nima bu? Qanday hodisa ro'y berdi! Yo'q, ishongim kelmaydi! Nahotki, bu bizning do'stimiz ser Genrining o'zi bo'lsa?

Stephton yonimdan yugurib o'tib, o'likka engashib tikildi...

Uning harsillab nafas olayotganini eshitdim, qo'lidagi sigarasi tushib ketdi.

– Kim?.. Kim bu?! – duduqlanib g'o'ldiradi u.

– Bu Selden, Prinstaun turmasidan qochgan mahbus.

Stephton o'likday oqargan basharasini bizga o'girdi. U o'zining taajjublanganini va umidi

puchga chiqqanini bizga sezdirmaslikka urinib, ming mashaqqat bilan o'zini qo'lga oldi. U dastlab Xolmsga, so'ngra menga tikildi.

– Tavba, naqadar dahshatli voqea ro'y beribdi! Nega shunday bo'ldi ekan?

– Anavi qiyamalikdan ag'darilib tushib, bo'y-nini sindirgan bo'lsa kerak. Biz oshnam bilan botqoqlikni tomosha qilib yurgan edik, kimningdir qichqirganini eshitdik.

– Men bo'lsam, shu qichqirgan tovushni eshitib, uyimdan chiqdim. Ser Genridan xavotir edim.

O'zimni to'xtatolmay:

– Nega siz ser Genridan xavotir bo'lasiz? – dedim.

– Bugun u biznikiga kelishi kerak edi, nima uchundir kelmadi, men bunga juda hayron bo'ldim. Botqoqlikdan qichqiriq ovozini eshitishim bilan, tabiiyki, ser Genri emasmikin, deb xavotirlandim. Aytganday, – Steplton mendan yana yuzini burib, Xolmsga qaradi, – sizlar shu qichqiriqdan boshqa hech nima eshitmadingizmi?

– Yo'q, – dedi Xolms, – Siz-chi?

– Men ham eshitganim yo'q.

– Unday bo'lsa nega so'rayapsiz?

– Aslo so'ramang, bu yerda qandaydir vahimali it borligi va shunga o'xshash ajoyibotlar to'g'risidagi gaplardan o'zingizning ham xabaringiz bor-ku! Bu yerdagi fermerlar o'sha vahimali it har kun kechasi botqoqlikda izg'ib yuradi, deyishadi. Shuning uchun, mabodo, uning ovozini eshitmadingizmi, deb so'rayapman.

– Yo'q, biz hech nima eshitmadik, – dedim.

– Bu bechoraning halok boʻlganiga sabab nima deb oʻylaysiz?

– Men aminmanki, u tutilib qolaman, deb hamisha xafvlanib yurib, qoʻrqqanidan miyasini yeb qoʻygan boʻlsa kerak. Aqldan ozgan jinnilardek jazavasi tutib, botqoqlikda chopib yurgan, nihoyat, qiyalikdan agʻdarilib tushib, boʻynini sindirgan boʻlsa kerak.

– Ha, gapingiz rostga oʻxshaydi, – dedi Steplton va ustidan ogʻir yuk tushgandek erkin nafas oldi.

– Xoʻsh, siz bunga nima deysiz, mister Sherlok Xolms?

– Fahmingizga tasanno! – dedi doʻstim unga taʼzim qilib.

– Sizni biz koʻpdan beri, doktor Uotson bu yerga kelgandan beri kutar edik. Siz ayni oʻz vaqtida – fojia roʻy bergan vaqtda yetib keldingiz.

– Ha, darhaqiqat shunday! Doʻstim bu fojiani toʻgʻri izohlab berishiga aminman. Ammo ertaga men koʻnglim gʻashligicha Londonga joʻnab ketaman.

– Iye! Ertaga ketasizmi?

– Ketmoqchiman.

– Lekin sizning bu yerga kelishingiz bizlarni taajjubga solib qoʻygan shu voqealarning hammasini izohlab beradi, albatta.

Xolms yelkasini qisib qoʻydi:

– Ishimiz hamisha ham muvaffaqiyatli boʻlib chiqavermaydi. Tekshirish oʻtkazayotganda afsonalar va ovozalarga emas, balki faktlarga tayanish kerak. Bu ishni tekshirishda biror natija chiqara olmayotibman.

Do'stim juda tabiiy ohangda va juda osoyishtalik bilan shu gaplarni aytdi. Steplton unga diqqat bilan tikilib qaradi. So'ngra menga qarab:

– Bu odamning o'ligini uyimga olib borib qo'yishni bajonidil taklif qilar edim-u, lekin singlim qo'rqib ketsa kerak, uni biznikiga olib bormaganimiz ma'qul. Uning yuziga biror nima yopib, shu yerda qoldiraveraylik. Ertalabgacha unga hech nima bo'lmaydi, – dedi.

Bu taklifga rozi bo'lib, o'likni joyida qoldirdik. Stepltonning Merripit-xausga sizlarni olib boray, degan taklifini rad qildik va yakka o'zi uyga qaytib ketishiga ruxsat berib, o'zimiz Baskervil-xollga jo'nadik. Bir necha qadam bosganimizdan keyin qayrilib qaragan edik, uning botqoqlikda imirsilab borayotgan gavdasini, nariroqda, uning ketida esa oydinda yorishib turgan tepalik yonbag'rida, shu qadar dahshatli bir tarzda halok bo'lgan kishi yotgan joyda qorayib turgan narsani ko'rdik.

– Nihoyat biz u bilan yakkama-yakka duch keldik! – dedi Xolms men bilan yonma-yon bora turib. – Lekin uning yuragini qarang-a! Tez o'zini o'nqlab olganini qarang-a? Vaholanki, u qattiq zarbaga duch kelgan edi – mo'ljallab yurgan odamidan butunlay boshqa kishi o'ldirilganini ko'rgan edi. Men sizga, Uotson, Londonda bir gapni aytgan edim, bu gapimni hozir ham takrorlayman, biz hech qachon shu qadar munosib raqibga duch kelmagan edik.

– Hali ham u bizni ko'rib qolganiga afsuslanaman!

– Dastlab men ham bunga afsuslanuvdim. Lekin ilojimiz qancha!

– Siz bilan uchrashgani uning rejalariga ta'sir qilarmikin, bunga nima deysiz?

– Ha, endi tag'in ham ehtiyotroq bo'lib harakat qiladi yoki tavakkal deb, yana bir ish qilib qo'yadi. Zehni o'tkir jinoyatchilarning ko'pchiligi kabi Steplton ham o'zining makkorligiga haddan tashqari ko'p umid bog'layotgan va bizlarni laqillatdim deb o'ylayotgan bo'lsa kerak.

– Nega uni qamoqqa olishni istamadingiz?

– Azizim, Uotson! Siz serharakat odamsiz. Sizning mijozingiz juda keskin choralarni ko'rishni talab qiladi. Yaxshi, kechasi u qamoqqa olinadi, deb faraz qilaylik. Bundan bizga nima foyda? Biz hech narsani isbot qilolmaymiz. U tuzgan rejalarining o'taketgan makkorligi ham mana shunda. Agar Stepltonning ko'makchisi odam bo'lganida edi, biz undan dalil bo'ladigan ba'zi bir narsalarni bilib olgan bo'lur edik, lekin bahaybat itni gapirtirib bo'lmaydi-ku! It egasining bo'yniga sirtmoq solsak, bizga buning yordami tegarmidi?

– Lekin jinoyat qilingani yaqqol ko'rinib turibdi-ku!

– Aslo bunday emas! Bu gaplarning hammasi taxminlardan boshqa narsa emas. Agar mana shunday fantastik voqeani sudda aytib bersak va isbotlamoq uchun bunday taxminlarni dalil qilib ko'rsatsak, bizni masxara qilib kulishadi.

– Ser Charlz-chi?

– Uning o'ligi topilgan, lekin uning tanasida zo'rlab o'ldirilganini ko'rsatuvchi izlar topilgani yo'q. U qo'rqqanidan o'lganini va nimadan qo'rqqanini biz bilamiz. Lekin bu ishni ko'rishda



sud maslahatchisi bo'lib qatnashadigan o'n ikkita befahmga qanday isbotlab bo'ladi? Bu jinoyatga qandaydir bir it aralashgan degan taxminni qanday asoslab bo'ladi? It qopganini ko'rsatuvchi izlar qani? Itlar o'liklarni qopmasligini, ser Charlz it yopishmasdanoq o'lganini ham faqat biz bilamiz. Lekin bu gaplarni isbotlash kerak, ammo isbotlaydigan dalilimiz yo'q.

– Bugun kechasi bo'lgan voqea-chi?

– Bu voqea bizning qo'limizga tuzukroq hech bir dalil bergani yo'q. It bilan mahbusning halok bo'lgani o'rtasida bari bir hech qanday bevosita bog'lanish yo'q. U itni hech kim ko'rmagan. Durust, itning tovushini eshitdik, lekin it mahbusni quvlab kelganini ko'rsatuvchi dalillar qo'limizda yo'q. Buni isbotlab bo'lmaydi! Yo'q, do'stim, fakt faktligicha qolaveradi: jinoyatni isbotlovchi dalillarni ko'rsatib berolmaymiz. Lekin buni isbotlamoq uchun o'zimizni har qanday baloga duchor qilsak arziydi.

– Xo'sh, nima qilmoqchisiz?

– Missis Laura Layonsdan umidim katta. U mana shu voqealarning haqiqiy mohiyatini bilib olganidan keyin bizga jiddiy yordam ko'rsatadi. Bundan tashqari, mening boshqa bir rejam ham bor. Lekin ertaga g'alaba meniki bo'lishiga garchand har qancha umid qilsam ham, bunga qanday erisha olishimizni oldindan aytib o'tirishning keragi yo'q.

Xolmsdan boshqa biror gapni bilib ololmadim va Baskervil-xoll darvozasiga yetguncha har birimiz o'z o'yimizga cho'mib, indamay kelaverdik.

– Siz ham kirasizmi?

– Ha. Endi yashirinib yurishning ahamiyati qolmadi. Lekin sizga yana bir soʻzim bor. Uotson, koʻrgan voqeamizni ser Genriga aytmang. Mahbusning halok boʻlganini Steplton bizga qanday sabablar bilan tushuntirishga uringan boʻlsa, u ham Seldenni shunday sabablar bilan oʻldi, deb oʻylayversin. Siz yuborgan keyingi hisobotda yozgan gaplaringizni agar men unutmagan boʻlsam, ser Genri ertaga Merripit-xausga ziyofatga borganida boshiga tushadigan kulfatga bardosh berishi osonroq boʻladi.

– Lekin bu ziyofatga meni ham taklif qilishgan.

– U holda siz bu taklifdan voz kechishingiz kerak. Yolgʻiz oʻzi boraversin, bunga uni koʻndirish oson... Demak, gapimni tushundingiz? Tushki ovqatga kechikkan boʻlsak kerak, ammo kechki ovqatga oʻz vaqtida yetib keldik.

### XIII BOB

#### Tuzoqlar qoʻyildi

Ser Genri uyiga kelgan yangi mehmonni koʻrib, ajablanishdan koʻra koʻproq xursand boʻldi, chunki Sherlok Xolms keyingi kunlardagi voqealarni eshitib Londonda qololmasligiga amin edi. Shunday boʻlsa ham, baronet doʻstim yuksiz kelganini va hatto buning sababini tushuntirib bermaganini payqab taajjublangan holda qoshini chimirdi. Shu ondayoq Xolmsga lozim boʻlgan narsalarning hammasini taxt qilib qoʻyishdi, kechki ovqat vaqtida esa biz oʻz boshimizdan kechirgan sarguzashtlarning baronet bilishi lozim

boʻlgan qismini hikoya qilib berdik. Lekin bundan oldin men bitta ogʻir vazifani bajarishga – Selden halok boʻlganini Berrimorga va xotiniga xabar qilishga majbur boʻldim. Berrimor bu xabarni yengil tortganday boʻlib va oʻzining bu holatini yashirmay eshitdi, lekin xotini etagi bilan yuzini yopib, hoʻngrab yigʻlab yubordi. Hammaning nazarida Selden iblis yoki yirtqichsifat yomon jinoyatchi boʻlib koʻrinardi, ammo Berrimorning xotini nazarida esa hali ham u bolalik chogʻida opasining qoʻliga yopishib, shoʻxlik qilib yurgan oʻgʻil bola boʻlib tuyulardi. Oʻlganidan keyin biror xotin achinib yigʻlamagan kishini haqiqatan ham yovuz maxluq desa boʻladi!

– Siz ketganingizdan beri, Uotson, uydan chiqmay zerikib oʻtiribman, – dedi baronet. – Shunchalik itoatli boʻlganim uchun menga rahmat deysiz, deb oʻylayman. Botqoqlikka chiqmayman, deb sizga vaʼda bermaganimda edi, bugungi oqshomni ancha xursandchilik bilan oʻtkazgan boʻlur edim, chunki Steplton meni ziyofatga taklif qilib xat yuboribdi.

– Ha, siz kechqurungi vaqtingizni ancha xursandlik bilan oʻtkazgan boʻlur edingiz, bunga shak-shubha qilmayman, – dedi pinagini buzmay Xolms. – Aytganday, boʻyni singan kishini koʻrib, sizga achinib yigʻlaganimizdan xabaringiz boʻlmasa kerak?

Ser Genri koʻzlarini katta ochib, hayron boʻlib qoldi:

– Bu nima deganingiz?

– Chunki badbaxt mahbus sizning kiyimingizni kiyib olgan ekan. Bu kiyimni u Berrimordan

olgan, buning uchun Berrimor politsiyada tergov berishi mumkin.

– Yo‘q, unday bo‘lmasa kerak. Agar men yanglishmasam, kiyimlarimda hech qanday belgi yo‘q edi.

– Unday bo‘lsa, yaxshi, bu mahbusning baxti, sizning ham baxtingiz, chunki hammangiz qonunga xilof ishlarga aralashganingiz ko‘rinib turibdi. Rostini aytsam, men halol ishlaydigan xufiya bo‘lganim uchun hamma ulfatlaringizni darhol qamoqqa olishim kerak edi. Uotsonning xatlari sizlarni fosh qiluvchi hujjat bo‘la oladi.

– Yaxshisi, ishimizning tafsilotini gapirib bera qoling! – deb iltimos qildi baronet. – Siz bu chigalni yecha oldingizmi? Biz Uotson bilan bu yerga kelganimizdan beri hech narsani bilib olganimiz yo‘q.

– Yaqin fursatda ko‘p narsa ma‘lum bo‘lib qoladi, deb o‘ylayman. Bu ish nihoyat darajada qiyin va chigal bo‘lib chiqdi. Bu ishning ba‘zi jihatlari hali ham menga qorong‘i... Lekin tagi ochiladi, albatta, ochiladi!

– Botqoqlikda nimalarni eshitganimizni Uotson sizga gapirib bergan bo‘lsa kerak. Binobarin, bular oddiy afsona emas. Bir vaqtlar men itlar bilan shug‘ullanganman, bunaqa ishda hech kim meni chalg‘ita olmaydi – itning vovillashini bilib olmaslik mumkin emas. Agar siz o‘sha itning tumshug‘iga to‘r qoplab, zanjirlab qo‘yishga muvaffaq bo‘la olsangiz, sizni dunyoda eng katta xufiya deb hisoblagan bo‘lur edim.

– Uning tumshug‘iga to‘r ham taqiladi, zanjirlab ham qo‘yiladi, faqat menga yordam bersangiz bas.

– Nimaiki buyursangiz, hammasini qilaman.

– Juda soz! Lekin «nega» va «nima uchun» degan hech qanday savol bermay, batamom itoat qilishingizni talab qilaman.

– Talabingiz bajo keltiriladi.

– Agar shu talabga rozi bo'lsangiz, u holda biz vazifamizni hal qilamiz. Hech shubhasiz, men...

Xolms gapni tamomlamay to'xtab qoldi va qayoqqadir yuqoriga tikildi. Lampaning yorug'i uning chehrasini yoritib turardi – lampa yorug'ida u ko'zimga bamisoli klassik haykaldek harakatsiz bo'lib ko'rindi. U hayajon va ehtiyotkorlik timsoli edi.

– O'zi nima gap? – deb ser Genri ikkimiz xitob qildik.

Xolms qayrilib qaradi, shunda men u o'zidagi hayajonni bosishga urinayotganini payqadim. Uning chehrasi hali ham hech bir narsani ifodalamasdi, lekin uning g'alabani qo'lga kiritgani ko'zidan sezilib turardi.

– Meni afv etasiz, lekin xursandligimdan o'zimni tutolmay qoldim, – dedi u ro'paradagi devorda osilib turgan portretlarni ko'rsatib. – Uotson menga rassomlik nimaligini tushunmaysiz, deb yuradi, lekin menga rashk qilganidan shunday deydi, chunki san'at asarlariga baho berishda har birimizning fikrimiz boshqa-boshqa bo'lib chiqadi. Ammo bu portretlar haqiqatan ham zo'r mahorat bilan chizilgan.

– Shunday baho berganingizga xursandman, – dedi ser Genri va taajjublanib do'stinga qaradi.

– Men rassomlar chizgan suratlarni unchalik

tushunmayman. Ot yoki buqachaning surati bo'lsa, boshqa gap. Lekin san'atga qiziqish uchun sizning vaqtingiz bor, deb o'ylash kimning xayoliga kelishi mumkin!

– Xotirjam bo'lavering, yaxshi narsani men hamisha payqab olaman. Havorang shoyi ko'y-lakdagi anavi xonimning suratini rassom Miller chizgan. Parik kiyib olgan semiz jentlmenning suratini esa hech shubhasiz, Reynoldo chizgan. Buning uchun bahslashishga tayyorman. Bular oilaviy portretlar bo'lsa kerak?

– Hammasi ham oilaviy portretlar.

– Siz ularning nomlarini bilasizmi?

– Berrimor bu xususda menga juda ko'p gapirdi, bilganlarimni tutilmay aytib bera olaman, deb o'ylayman.

– Durbin ushlab turgan anavi jentlmen kim?

– U Vest-Indiyada xizmat qilgan kontr-admiral Baskervil. Ko'k syurtuk kiygan va qo'lida o'ralgan qog'oz ushlab turgan anavisi ser Vilyam Baskervil. U Pit<sup>55</sup> davrida umumpalata komissiyasining raisi bo'lgan.

– Uqa tutilgan qora baxmal kamzulli anavi ro'paramdagi kavalер-chi?

– O! Siz u bilan tanishib olishingiz kerak. Hamma kulfatlarning sababchisi ana o'shaning o'zi – Baskervillar iti to'g'risidagi afsona o'sha kishidan boshlanadi. Biz uni tez unutib yubormasak kerak.

Men portretga qiziqib va biroz taajjublanib qarab turdim.

---

<sup>55</sup> Pit Vilyam – (kattasi) (1708 –1778) – Angliyaning davlat arbobi, 1766-yildan 1768-yilga qadar bosh ministr.

– Tavba! – dedi Xolms. – Ko‘rinishdan juda yuvosh, bosiq odamga o‘xshaydi-ku. Durust, ko‘zlarida yovuzlik alomatlari sezilib turibdi. Men Gugoni vajohati bosqinchilarnikiga o‘xshagan bunaqa zabardast kishi bo‘lar, deb tasavvur qilmagan edim.

– Bu portretida Gugoning xuddi o‘zi tasvirlangan, bunga zarracha shak-shubha bo‘lishi mumkin emas. Suratning orqasiga uning nomi va surat bir ming olti yuz qirq oltinchi yilda chizilgani yozib qo‘yilgan.

Shundan so‘ng Xolms kamgap bo‘lib qoldi, lekin bebosh Gugoning portreti uning butun diqqatini o‘ziga tortib qo‘ygandek edi, kechki ovqat vaqtida ham portretidan deyarli ko‘z olmay o‘tirdi. Biroq ser Genri o‘z xonasiga chiqib ketganidan keyingina do‘stim nimalarni o‘ylayotgani menga ayon bo‘ldi. Xolms tungi stolchasi ustida turgan shamni olib, men bilan birga ziyofat zaliga qaytib keldi, ko‘p zamonlar o‘tganidan xira tortib qolgan portretga shamni yaqinlashtirdi.

– Siz bu portretida biror narsa borligini payqamayapsizmi?

Men keng hoshiyali shlyapaga, uqa tutilgan oq yoqaga va parikning uzun fatilalari cho‘ziq chehrasini qoplab turgan Gugoga uzoq qarab turdim. Bu chehrada na qo‘pollik alomati, na shafqatsizlik belgisi bor, deb hech kim ta‘na qila olmas edi, lekin chimirilgan ingichka lablarida, sovuq, shijoatli qarashida qandaydir betamizlik, shafqatsizlik, dag‘allik alomati borligi sezilib turardi.

– Sizga u hech kimni eslatmayaptimi?

– Uning dahani ser Genrinikiga o'xshab ketadi.

– Ha, andak o'xshashlik bor. Lekin sal sabr qiling!

U stulga chiqib va chap qo'lida shamni ushlab turib, bukilgan o'ng qo'li bilan keng hoshiyali shlyapani va uzun fatilalarni to'sdi.

– Xudoyo tavba! – deb beixtiyor taajjublanib qichqirib yubordim. Suratda tasvirlangan kishi Stepltonning xuddi o'zi edi.

– Ana! Ko'rdingizmi? Mening ko'zlarim odamning qiyofasini o'rab turgan narsalardan farq qilishga odatlanib qolgan. Niqob orqasidagi narsani ko'ra bilish – xufiyaning asosiy xislati.

– Taajjub! Xuddi uning portretiga o'xshaydi!

– Ha, ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan o'tmishga qaytishning diqqatga sazovor namunasi bu. Oilaviy portretlarni mana shunday o'rgana boshlasang, odamning joni bir kishidan ikkinchi kishiga o'tadi, degan gaplarga ishonadigan bo'lib qolasan kishi. U ham Baskervillarning biri. Bu ochiq ko'rinib turibdi.

– U ham merosxo'r bo'lmoqchi.

– Hech shubhasiz. Mening ko'zim tasodifan tushib qolgan bu portret biz topishimiz qiyin bo'lgan eng katta kamchiliklardan birining o'rnini to'ldirishimizga yordam berdi. Endi biz uni tutib oldik deyavering, Uotson, endi u bizning qo'limizga tushdi! Qasamyod qilib aytamanki, uning kapalaklari matrachada qanday tipirchilasa, ertaga kechasi uning o'zi ham bizning tuzoqlarimizda shunday tipirchilaydi.



To'g'nag'ich, po'kak, yorliqcha, xullas, Beyker-stritdagi kolleksiyamizga yana bir nusxa qo'shiladi.

Xolms qah-qah urib portretidan nariga siljidi. Men uning bunday kulishini juda kam eshitganman. Shunday bo'lsa ham, uning bu kulishi biror yovuzning boshiga katta kulfat solinishidan hamisha darak berardi.

Ertasi kun ertalab kiyina turib derazaga qaragan edim, ko'zim Xolmsga tushdi, u mendan oldinroq o'rnidan turgan ekan va qayoqqadir borib kelishga ham ulgurgan ekan.

– Ha, bugun ishimiz ko'p bo'ladi, – dedi u, – bajarishimiz lozim bo'lgan ishlarning lazzatini totganday bo'lib va quvonib, qo'llarini bir-biriga ishqaladi: – Sal fursatda ish boshlaymiz. Tuzoqlar joy-joyiga qo'yilgan. Tishi o'tkir, katta cho'rtanbaliq tuzoqqa ilingan yo ilinmagani yoxud ilinmay qochib ketgani kechqurun ma'lum bo'ladi.

– Siz botqoqlikka borib kelishga ulgurdingizmi?

– Grimpengacha bordim va Seldenning o'lgani to'g'risida u yerdan Prinstaunga telegramma berdim. Bu ish munosabati bilan hech kim sizlarni bezovta qilmas, deb o'ylayman. Bundan tashqari, sadoqatli yigitcham Kartraytni ham topib gaplashdim, aks holda u mendan tashvishlanib g'or og'zida xuddi xo'jayinining qabri ustida jon bergan itdek o'lib qolishi mumkin edi.

– Xo'sh, bugun ishni nimadan boshlaymiz?

– Avvalo, ser Genrini borib ko'ramiz. Ana, o'zi ham kelib qoldi!

– Salom, Xolms! – dedi baronet. – Siz bo'lajak jangning rejasini shtab boshlig'i bilan muhokama qilayotgan generalga o'xshaysiz.

– Haqiqatan ham shunday qilmoqdamiz. Uotson nima qilish kerakligini bilib olish uchun kelibdi.

– Men ham shuni so‘ragani keldim.

– Juda soz. Agar yanglishmasam, do‘stlaringiz bo‘lgan Stepltonlar sizni bugun ziyofatga taklif qilishgan bo‘lsa kerak?

– Siz ham borasizmi? Ular mehmondo‘st odamlar, borsangiz juda xursand bo‘lishadi.

– Afsuski, biz Uotson bilan birga Londonga ketishimiz kerak.

– Londonga dedingizmi?

– Ha. Hozirgi mavjud holatda bizning Londonda bo‘lganimiz yaxshiroq.

Baronet bu gaplardan taajjublandi.

– Men bo‘lsam, sizlar bu ish tamom bo‘lguncha yolg‘iz o‘zimni tashlab ketmassizlar, deb o‘ylabman! Ochig‘ini aytsam, Baskervil-xollda o‘zim zerikib qolaman.

– Do‘stim, menga so‘zsiz itoat qilishingiz va talablarimning hammasini bajarishingiz lozim. Biz jon deb borar edik, lekin zarur ish chiqib qolib, Londonga jo‘nab ketganimizni do‘stlaringizga aytib qo‘ying. Ammo tez fursatda Devonshirga qaytib kelamiz. Shu gaplarni ularga aytib qo‘yishni unutmaysizmi?

– Talabingiz bajo keltiriladi.

– Sizni ishontirib aytamanki, boshqa iloj yo‘q.

Bu so‘zlarga javoban baronetning qovog‘i solinib ketganini ko‘rib, u xafa bo‘lganini va bizning ketishimizni qochoqlik deb hisoblayotganini tushundim.

– Qachon yo‘lga chiqmoqchisiz? – deb sovuq-qonlik bilan so‘radi u.

– Nonushta qilib bo‘lishimiz bilanoq yo‘lga chiqamiz. Kumbi-Tresigacha otda boramiz, lekin Uotson o‘z buyumlarini sizga garovga qoldiradi, binobarin, uning qaytib kelishini kutib turing. Uotson, siz Stepltonga ziyofatga borolmaganingiz uchun kechirim so‘rab xat yozib qoldiring.

– Mening ham Londonga ketgim kelyapti, – dedi baronet. – Nega bu yerda yolg‘iz o‘zim qolishim kerak?

– Chunki siz o‘z postingizni tashlab ketmasligingiz kerak. Chunki hamma buyrug‘ingizga quloq solaman, deb menga so‘z bergansiz. Shuning uchun ham, endi sizga bu yerda qoling, deb aytyapman.

– Yaxshi, shu yerda qolaman.

– Yana bitta iltimosim bor. Siz ot qo‘shirib Merripit-xausga boring. Ekipajni qaytarib yuboring va Stepltonga, uyimga piyoda qaytaman, deb ayting.

– Botqoqlik orqali piyoda qaytaman, deyinmi?

– Ha.

– Lekin botqoqlikdan o‘tma, deb meni o‘zingiz necha martalab ushlab qolgan edingiz-ku!

– Ammo endi botqoqlikda bemaalol yuraverishingiz mumkin. Mardligingizga ishonganim uchungina sizdan shuni talab qilyapman.

– Yaxshi, aytganingizni qilaman.

– Agar joningizdan sal-pal umidingiz bo‘lsa, Merripit-xausdan Grempen yo‘liga olib chiqadigan so‘qmoqdan sira chetga burilmang, zotan, Baskervil-xollga olib boradigan eng yaqin yo‘lning o‘zi ham mana shu.

– Aytgan gaplaringizning hammasini aniq bajaraman.

– Bu gapingiz juda yaxshi. Londonga kunduzi yetib borish uchun nonushta qilib bo'lishimiz bilanoq yo'lga tushamiz.

Garchi kecha kechqurun Xolms ketmoqchi bo'lganini Stepltonga aytib qo'ygani esimdan chiqmagan bo'lsa ham, lekin uning bu ish rejasi meni juda taajjublantirdi. U men bilan birga jo'naydi, yana o'zi juda qaltis payt keldi, degan mana shunday paytda yo'lga chiqadi, degan fikr kimning xayoliga kelishi mumkin edi?! Zotan, do'stimning gapiga so'zsiz itoat qilishdan boshqa ilojim qolmagan edi, biz ma'yuslangan baronet bilan sal vaqtdan so'ng xayrlashdik, ikki soatdan keyin esa sharabanni uyga qaytarib yuborib, Kumbi-Tresidagi stansiya platformasiga yo'l oldik. U yerda bizni bo'yi pastak bir bola kutib turardi.

– Qanday buyruqlaringiz bor, ser?

– Kartrayt, hozir poyezdga o'tirib, Londonga borasan. Yetib borishing bilan mening nomimdan ser Genri Baskervilga darrov telegramma yubor. Telegrammada unga mening yo'qotgan yozuv daftarchamni biron joydan topib olmadingizmi, agar topib olgan bo'lsangiz, banderol qilib Beykerstritga jo'nating, deb yoz.

– Xo'p, ser.

– Hozir sen stansiya kontorasiga borib, mening nomimga biron nima kelgan-kelmaganini bilib kel.

Bola sal o'tmay telegramma ko'tarib qaytib keldi; Xolms uni o'qib, menga uzatdi. Telegrammada quyidagi so'zlar yozilgan edi: «Telegrammangizni

oldim. Qamashga order olib yo'lga chiqaman. Soat besh-u qirq daqiqada yetib boraman. Lestreyd».

– Bu ertalabki telegrammaning javobi. Lestreyd – eng yaxshi professional xufiya, uning yordami bizga kerak bo'lib qolishi mumkin... Mana endi, Uotson, bizning vaqtimiz bor, hozir tanishingiz missis Laura Layonsning uyiga borish uchun eng qulay vaqt, deb o'ylayman.

Xolms qilmoqchi bo'lgan ishlarining rejasi daqiqa sayin menga ravshan bo'lib bormoqda edi. Baronetning yordami bilan u Stepltonlarni biz bu yerda yo'qligimizga ishontiradi, haqiqatda esa yordamimiz kerak bo'lgan paytgacha qaytib kelamiz. Agar ser Genri Xolmsning Londondan yuborgan telegrammasini olganini ham aytsa, bu narsa Stepltonning oxirgi shubhasidan asar qoldirmaydi. Qo'ygan tuzoqlarimiz tishi cho'rtanbaliqni tobora siqib kelayotgani endi xayolimda gavdalanmoqda edi.

Missis Laura Layons o'zining ishxonasida o'tirgan ekan. Sherlok Xolms gapning lo'ndasini to'ppa-to'g'ri aytib berishga kirishganda, u xotin taajjubdan baqrayib qoldi.

– Ser Charlz Baskervil qanday holatda o'lganini tekshiryapman, – deb gap boshladi Xolms. – Do'stim doktor Uotson shu munosabat bilan siz aytib bergan va aytib bermaslikni o'zingiz lozim topgan gaplarning hammasini menga topshirdi.

– Men nimani aytmay qoldiribman? – dedi missis Laura Layons jiddiylashib.

– Siz ser Charlzni kechqurun soat o'nga xiyobondagi eshikcha oldiga keling, deb cha-

qirganingizga iqrор bo'libsiz. U xuddi shu soatda va xuddi shu joyning o'zida o'lganini bilamiz. Mana shu ikki fakt o'rtasida bog'lanish borligini aytmadingiz.

– Bu ikki fakt o'rtasida hech qanday bog'lanish yo'q.

– Agar shunday bo'lsa, ikki faktning aynan bir vaqtga to'g'ri kelib qolgani haqiqatan juda qiziq. Lekin axir bir kun biz shunday bog'lanish borligini aniqlab olamiz, deb o'ylayman. Siz bilan ochiq gaplashyapman, missis Layons. Bunda gap bir odamning o'ldirilgani to'g'risida boryapti, bu ishga doir shunday dalillar borki, natijada faqat do'stingiz mister Stepltongina emas, balki uning xotini ham tergovga tushib qolishi mumkin.

Missis Layons oromkursidan sapchib turdi:

– Uning xotini dedingizmi?

– Endi bu narsa hech kimga sir emas. U singlim deb yurgan odam haqiqatda uning xotini.

Missis Layons yana joyiga o'tirdi va oromkursining dastasiga barmoqlarini shu qadar kuch bilan botirdiki, tirnoqlari oqarib ketdi.

– Uning xotini! Uning xotini!.. Lekin u bo'ydoq-ku! Sherlok Xolms yelkasini qisib qo'ydi.

– Buni isbotlab bering! Isbotlab bering! Agar isbotlay olmasangiz... – Uning g'azab bilan chaqnagan ko'zlari aytmoqchi bo'lgan gapini har qanday so'zdan yaxshiroq ifodalab turardi.

– Buni isbotlash oson, – dedi Sherlok Xolms, cho'ntagidan qandaydir qog'ozlarni ola turib. – Mana bu o'sha yer-xotinning bundan ko'p yil muqaddam Yorkda oldirgan surati. Suratning

orqasiga: «M-r va m-s Bandler» degan soʻzlar yozilgan. Siz erkakni taniysiz, albatta. Agar koʻrgan boʻlsangiz, bu xotinni ham taniysiz. Bundan tashqari, mana bu uchta hujjatga juda ishonsa boʻladigan odamlar qoʻl qoʻygan. Bunisi bir vaqtlar «Sent-Oliver» deb atalgan xususiy maktabning sohibi boʻlgan mister va missis Bandlerlarning tasviri. Shu hujjatlarni oʻqib chiqsangiz, bu tasvirlangan odamlar haqiqatan tanish kishilar ekanligi toʻgʻrisida sizda zarracha shak-shubha qolmaydi.

Missis Layons oldida turgan qogʻozlarga koʻz yugurtirib chiqdi va soʻngra bizga qaradi. Koʻnglidagi iztirob uning chehrasini niqobga aylantirib yuborgan edi.

– Mister Xolms, – dedi u, – bu ablah menga agar taloq xatingizni olsangiz, sizga uylanaman, deb vaʼda bergan edi. Demak, uning birorta soʻziga ham ishonmaslik kerak ekan-da? Demak, u hamisha meni aldab yurgan ekan-da? Lekin nega shunday qildi? Nega? U faqat mening gʻamimni yeb yuribdi, deb oʻylabman. Bundan chiqdi, uning qoʻlida qurol boʻlib qolgan ekanman-da. Shu qadar yolgʻonchi bir kishiga nega vafodor boʻlishim kerak? Nega uni himoya qilishim kerak? Oʻzining qilgan yovuzligi uchun jazosini torta bersin! Nimani xohlasangiz, soʻrayvering! Hech nimani yashirmayman. Sizga qasam ichib aytamanki, oʻsha xat eng yaxshi doʻstim ser Charlzni halok qilishi tushimga ham kirmagan edi.

– Har bir soʻzingizga ishonaman, – dedi Sherlok Xolms. – Bilganlaringizni aytib berish sizga juda

og'ir bo'lsa kerak. Biz bunday qilaylik: hammasini o'zim gapirib beraman, mabodo gapimning biror joyida xatosi bo'lsa, siz bu xatomni to'g'rilab borasiz. O'sha xatni Stepltonning undashi bilan yozganmidigiz?

– O'zi aytib turgan edi.

– U sizga taloq xati olish uchun bo'ladigan sudning hamma xarajatlarini ser Charlz o'z bo'yniga oladi, deb aytgan bo'lsa kerak?

– Ha.

– Xatni yuborganingizdan keyin sizni u uchrashishga borma, deb ko'ndirganmidi?

– U menga sud xarajati uchun pulni boshqa biror kishi bersa, o'zinga hurmatim qolmaydi, degan edi. Har qancha kambag'al bo'lsam ham, bizni bir-birimizdan judo qilib turgan oxirgi to'siqni yo'q qilish uchun oxirgi penni pulimni ham sarflayman, deb qasam ichgan edi.

– U juda usta odam bo'lsa kerak! Shundan keyin bo'lgan voqealardan xabaringiz bo'lmadimi? Ser Charlzning o'lgani haqidagi xabarni faqat gazetalardan o'qib bildingizmi?

– Ha.

– U bilan uchrashmoqchi bo'lganingizni hech kimga aytmalikka va'da bering, deb Steplton sizni majbur qildimi?

– Ha. U menga ser Charlzning o'lishi juda sirli bo'ldi, agar unga xat yozganingizni bilib qolishsa, shubha ostida qolasiz, dedi. U meni qo'rqitdi, indamay qo'ya qoldim.

– Tushunib turibman. Lekin shunday bo'lsa ham, sizda qandaydir gumon paydo bo'ldimi?



Missis Layons javob berishga botinolmagan bo'lsa kerak, ko'zini yerga qaratdi.

– Men u kishini yaxshi bilardim, – dedi nihoyat missis Layons. – Agar u meni aldamaganida, sirini ochmagan bo'lardim.

– Xullas, falokatingiz aridi, – dedi Sherlok Xolms. – U sizning qo'lingizda edi va buni juda yaxshi bilardi, shunday bo'lsa ham, siz omon qoldingiz. Keyingi oylarda siz jar yoqasiga borib qolgan edingiz. Endi, missis Layons, siz bilan xayrlashishga ijozat bering. Lekin yana ko'rishsak kerak.

London ekspressining kelishini kutib, yana stansiya platformasiga chiqib olganimizdan keyin Xolms gap boshladi:

– Mana endi asta-sekin hamma narsa ravshanlashmoqda, tuman tarqalmoqda. Sal fursatda bu jinoyat qanday sodir bo'lganini moddama-modda gavdalantirib aytib bera olaman – bu zamonimizning eng sensatsiyali jinoyati deyish mumkin. Jinoyatshunoslar shunga o'xshash jinoyatlar bo'lgan edi, deb aytishlari mumkin, albatta, Ukrainadagi Grodnoda 1866-yilda bo'lib o'tgan odam o'ldirish voqeasini va Shimoliy Karolinada Andersen shu taxlitda o'ldirilganini esga olurlar, lekin hozir biz tekshirayotgan ishning butunlay o'ziga xos ba'zi belgilari bor. Biz bu makkor ayyorga hatto hozir ham bevosita dalillarni ro'para qila olmaymiz. Lekin so'zim esingizda bo'lsin, Uotson, uyimizga yetib yostiqqa bosh qo'ygunimizcha hamma narsa ravshan bo'ladi.

London ekspressi guvillab stansiyaga kelib to'xtadi, uning birinchi klass vagonidan qaysi joyidir buldog itga o'xshab ketgan past bo'yli, abjir bir kishi platformaga sakrab tushdi. Biz salomlashdik, Lestreyd o'rtog'imga tavoze bilan muomala qilganini ko'rib, ular birga ishlay boshlaganlaridan beri u ko'p narsani tushunib olgani menga ravshan bo'lib qoldi. Nazariyaga ishqiboz bo'lgan do'stimning mantiqiy xulosalari amaliyotchi bo'lgan bu kishini bir vaqtlar naqadar g'ijintirgani hanuzgacha esimdan chiqmagan edi.

– Xo'sh, katta ishmi? – deb savol berdi Lestreyd.

– Ko'pdan beri bunaqa katta ish bo'lmagan edi, – dedi Xolms. – Yana ikki soat bo'sh vaqtimiz bor. Shu vaqtdan foydalanib, ovqatlanib olaylik, so'ngra, Lestreyd, sizni Dartmurning juda pokiza tungi havosi bilan mehmon qilamiz va Londonning tumanidan halqumingizni tozalab olishingizga yordam beramiz. Ilgari bu yerlarda bo'lmaganmidingiz? U holda siz bu yerda birinchi tanishib, bilib olgan narsalaringizni tez unutib yubormaydigan bo'lasiz.

#### **XIV BOB**

#### **Baskervillarning iti**

Sherlok Xolmsning kamchiliklaridan biri shuki (agar buni kamchilik deb aytish mumkin bo'lsa), u o'z rejaları amalga oshirilmaguncha hech qachon hech kimga aytmas edi. Bu odam atrofida gilarga buyurib ish qildirishni va ularni hayratda qildirishni yaxshi ko'rganidanmi yoki behuda tavakkal qilishga imkon bermaydigan

professional ehtiyotkorlikdanmi, har holda, u o'z rejalarini mana shunday pinhon tutardi. Bu pinhonlikning sababi qanday bo'lishidan qat'i nazar, Sherlok Xolmsning bu xildagi tabiati unga agent yoki yordamchi bo'lib ishlagan kishilarni ko'pincha mushkullikda qoldirar edi. O'zim uning bu tabiatidan ko'p martalab mashaqqat tortganman, lekin zulmatdan uzoq yurib tortgan azoblarim esa o'tmishda duch kelgan mushkulliklardan oshib tushdi. Biz ancha og'ir mashaqqatga bardosh berishimiz kerak edi, lekin hal qiluvchi oxirgi zarbani berishga tayyor edik. Ammo Xolms sira churq etmay yuraverdi, men bo'lsam, ziyrakligim tufayligina uning rejalarini payqab oladigan bo'lib qoldim. Sabr-toqatim tugay deganda to'satdan esgan sovuq shamol yuzimga urildi va qorong'ilikka, tor yo'lning ikkala tomonida cho'zilib ketgan keng bo'shliqqa qarashim bilan yana botqoqlikka chiqib qolganimizni tushundim. Otlarning har bir qadami, g'ildiraklarning har bir burilishi bizni barcha voqealar jumbog'ini yechishga yaqinlashtirmoqda edi.

Kumbi-Tresida biz yollagan aravakash oldida ishimiz to'g'risida gapirib bo'lmas edi, har qancha hayajonlanib turganimizga qaramay, qandaydir arzimas narsalar to'g'risida suhbatlashib boraverdik. Yo'ldan sal nariroqda Frenklendning uyi ko'rinishi bilan o'zimni yengil his qildim, chunki shu uydan Baskervil-xollga va fojining oxirgi ko'rinishi o'ynaladigan joyga qadar bo'lgan masofa ikki-uch mildan oshmas edi. Uyning

oldida to'xtamay, qarag'ayzor xiyobondagi eshikcha oldiga aravadan tushmay borib, so'ngra aravakashning kira haqini to'ladik, uni Kumbi-Tresiga qaytarib yubordik, ammo o'zimiz Merripit-xaus tomon yo'l oldik.

– Yoningizda qurolingiz bormi, Lestreyd?

Jikkak xufiya jilmaydi:

– Modomiki, shim kiyib olgan ekanman, demak, shimning orqasida cho'ntagi ham bo'ladi, shimning orqa cho'ntagi bor ekan, demak, u bo'sh bo'lmaydi.

– Juda soz! Uotson bilan biz ham ro'y berishi mumkin bo'lgan har qanday kutilmagan hodisalarga shaylanib qo'yganimiz.

– Kayfiyatingiz juda jiddiy ekanligi ko'rinib turibdi, mister Xolms. Ayting-chi, bu o'yinda bizdan nima talab qilinadi?

– Sabrli bo'lish. Kutib turaylik-chi.

– Darhaqiqat, bu yerlarning unchalik fayzi yo'q ekan! – Xufiya yelkasi bilan burilib, tepaliklarning yonbag'irlariga va Grimpen botqoqligi ustida ko'l kabi yoyilib yotgan tumanga qaradi. – Huv anavi joyda chiroq ko'rinyapti.

– Merripit-xaus degan joy o'sha bo'ladi, – dedi Xolms, – biz o'sha joyga borishimiz kerak. Endi sizdan mumkin qadar tovush chiqarmaydigan qilib qadam tashlashingizni va shivirlab gapirishingizni iltimos qilaman.

Uy tomonga olib boradigan so'qmoq yo'ldan ehtiyotlik bilan boraverdik, lekin o'sha uyga ikki-uch qadam qolganida Xolms to'xtadi.

– Nari borishning keragi yo‘q, – dedi u. – Anavi toshlar bizni o‘z panohida juda yaxshi saqlab tura oladi.

– Shu yerda kutib turaveramizmi?

– Ha, shu yerda pistirma qilamiz. Siz, Lestreyd, shu joyda turing. Uotson, siz uyida bo‘lgan edingiz, shekilli? Xonalarning qayerdaligini bilasizmi? Anavi pardali derazani ko‘ryapsizmi, u qanaqa xona?

– Oshxona bo‘lsa kerak.

– Undan keyingisi, chiroq yonib turgani-chi?

– Ovqatlanish xonasi.

– Pardalar ko‘tarildi. Bu uyga qanday kirishni siz mendan ko‘ra yaxshiroq bilasiz. Derazaga qarang-chi, ular nima qilishyapti? Xudo haqqi, sekinroq! Sizni tag‘in eshitib qolishmasin.

Stepiltonlarning daraxtlari qovjirab qolgan bog‘chasining pastak toshdevori oldiga oyoq uchida sezdirmay bordim va devorning soyasiga o‘tib, pardasi ko‘tarilgan derazaga qarab turish mumkin bo‘lgan joyga yetib oldim.

Xonada ikki erkak – ser Genri bilan Stepilton bor edi. Ular dumaloq stol atrofida bir-birlariga ro‘para bo‘lib, sigara chekib o‘tirishardi, ularning menga faqat yon tomoni ko‘rinardi. Oldilarida qahvali piyolalar va vino turibdi. Stepilton nimalarnidir jon-jahdi bilan gapiryapti, baronet bo‘lsa, bo‘zarib uning gaplariga diqqat bilan quloq solib o‘tiribdi. U mudhish botqoqliklardan o‘tib, tez orada uyga qaytishi lozimligini o‘ylab, bezovga bo‘layotganga o‘xshaydi.

Lekin Steplton o'rnidan turib, xonadan chiqib ketdi, ser Genri esa stakanga vino quyib qo'ydi va sigarasini tutatib, stulga suyanib oldi. Eshik g'ijirlaganini, so'ngra so'qmoqdagi shag'al tosh shitirlaganini eshitdim. Qadam tovushlari menga yaqinlashib kelmoqda edi. Ko'tarilib devordan qaragan edim, tabiatshunos bog'ning burchagida kichkina hujra oldida to'xtaganini ko'rdim. Qulf shiqillab ochildi, hujradan esa qandaydir tapirtupir tovush eshitildi. Steplton hujra ichida ikki daqiqadan ortiq turgani yo'q, yana qulf shiqilladi, u yonimdan o'tib ketdi va uyga kirib g'oyib bo'ldi. U o'zining mehmoni oldiga qaytib kelganini ko'rdim, ehtiyotlik bilan o'rtoqlarim oldiga kelib, shularning hammasini gapirib berdim.

Gapimni tamomlaganimdan keyin Xolms so'radi:

– Demak, ularning yonida ayol kishi yo'q ekan-da!

– Yo'q.

– Qayerda bo'ldi ekan? Oshxona bilan ovqatlanadigan xonadan bo'lak hamma derazalar qorong'i-ku.

Ayol kishi qayerdaligini men ham bilolmadim.

Grimpen botqoqligi ustini qalin oq tuman qoplaganini hali aytib o'tgan edim. Tuman asta-sekin biz tomonga yoyilib kelaverdi, bizni o'ng tomondan ham, chap tomondan ham past, lekin bamisoli qalin devor kabi qurshab oldi. Yuqoridan tushib turgan oydin yorug'i tumanni yiltirab turgan muzlikka aylantirib yubordi, olisdagi tosh ustunlarning uchi tumanning ustida bamisoli

qora cho'qqidek qaqqayib turardi. Xolms o'sha tomonga burilib va asta-sekin surilib kelayotgan ana shu oq devorga qarab sabrsizlik bilan to'ng'illadi:

– Qarang, Uotson, tuman to'ppa-to'g'ri bizga bostirib kelyapti.

– Tuman bo'lishi yaxshi emasmi?

– Undan ko'ra yomonrog'i bo'lmaydi. Mening rejalarimni buzishi mumkin bo'lgan birdan bir narsa mana shu tumandir. Lekin ser Genri u yerda o'tirib qolmaydi. Hozir soat o'n bo'ldi. Endi hamma narsa – bizning muvaffaqiyatimiz ham, hatto ser Genrining hayoti ham u tuman so'qmoq yo'lni qoplab olmasdan oldin yo'lga chiqib olishiga yoki chiqib olmasligiga bog'liq.

Tungi osmon musaffo edi, bitta ham bulut ko'rinmasdi. Osmondagi yulduzlar miltillab, oy nuri botqoqlikni xiragina yoritib turardi.

Tomi tik qilib yopilgan imorat ro'paramizda qop-qorayib turar, uning mo'rkon mo'rilari esa yulduzliosmongaintilayotgandaybo'libko'rinardi. Uyning pastki qavatidagi derazalardan keng yorug'lik bog'ga, undan ham nari botqoqlikka tushardi. Derazalardan birida chiroq to'satdan o'chdi. Xizmatkorlar oshxonadan chiqishdi. Endi chiroq faqat ovqatlanadigan xonada yonardi. Bu xonada ikki kishi – uy egasi bo'lgan qotil va hech narsadan xabari yo'q mehmon sigara chekib, o'z suhbatlarini davom ettiraverdilar.

Botqoqlikni deyarli batamom qoplab olgan oq tuman har daqiqada uyga yaqinlashib borardi. Bu tumanning bir uchi chiroq ko'rinib turgan

derazani ko'rinar-ko'rinmas to'sib qo'ya boshladi. Bog'ning olisdagi devorini tuman qoplab ko'rinmay qoldi, tuman orasida faqat daraxtlarning uchigina ko'rinib turardi. Mana, tumanning oqimtir halqalari uyning ikki tomonida paydo bo'lib, qalin to'lqin kabi asta-sekin bir-biriga qo'shildi, uyning yuqori qavati va tomi tuman orasida afsonaviy dengiz to'lqinlarida qalqib turgan mo'jizakor kemadek ko'rindi. Xolms bizni yashirib turgan toshni jahl bilan mushtladi va toqati toq bo'lib yer tepindi:

– Agar u chorak soatdan keyin uydan chiqmasa, so'qmoqni tuman qoplaydi, yarim soatdan keyin esa biz bu zulmatda o'z qo'limizni ham ko'rolmaydigan bo'lib qolamiz.

– Bir oz nariroqqa boraylik, u yer balandroq.

– Ha, shunday qilmasak bo'lmaydi.

Tuman bizga yaqinlashgan sari tobora nari chekina berdik, nihoyat, uydan yarim mil nariga borib qoldik. Lekin oydinda usti kumushday oqarib turgan tuman dengizi biz turgan joyga ham yetib keldi, o'zining sekin, to'xtovsiz hujumini davom ettiraverdi.

– Biz juda uzoqlashib ketdik, – dedi Xolms. – Endi ish chatoq bo'ladi: u bizning oldimizga kelishga ulgurmasdanoq orqasidan yetib kelishlari mumkin. Mayli, nima bo'lsa bo'ldi, shu yerdan siljimaymiz.

Xolms cho'kkalab yerga qulog'ini tutdi.

– Xudoga shukur! Kelayotganga o'xshaydi! Jimjit botqoqlikda tez yurib kelayotgan kishining qadam tovushlari eshitildi. Biz toshlar



orqasida engashib olib, yaqinlashib kelayotgan kumushrang quyuq tumanga bor kuchimiz bilan tikilib turardik. Qadam tovushi tobora yaqinlashaverdi, nihoyat, biz kutgan kishi xuddi pardani ko'tarib yuborgandek, tuman orasidan chiqdi. U yulduzlar chaqnab turgan osmonni ko'rib, atrofiga taajjublanib nazar soldi. So'ngra tez qadam tashlab, so'qmoq yo'lga o'tib oldi, yonimizdan o'tib, biz turgan toshlarning narigi tomonidagi qiyama tepalikka ko'tarila boshladi. U borayotib, bir narsadan xavotir bo'lgandek hamisha orqasiga qayrilib qarab qo'yardi.

– Tss, – deb shivirladi Xolms va to'pponchasini otishga tayyorladi. – Qarang! Ana u qotil!

Bizga yaqinlashib kelayotgan quyuq tuman orasida bir maromda taqillayotgan qadam tovushi eshitildi. Bamisoli devor kabi oq tuman bizdan ellik qadam chamasi narida edi, o'sha tomondan qanday mudhish maxluq paydo bo'lishini bilmay, uchovimiz o'sha tuman tomonga tikilib qarab turdik. Yonimda turgan Xolmsga ko'z qirim bilan qaragan edim, uning oqarib ketgan, hayajonlangan chehrasini, oydinda yonib turgan ko'zlarini ko'rdim. To'satdan uning chehrasi o'zgardi; qarashida jiddiyat va qat'iyat paydo bo'ldi, hayratlanganidan og'zi ochilib anqayib qoldi. Xuddi shu soniyada Lestreyd qo'rqqanidan baqirib yuborib, yerga mukkayib yotib oldi. Men qaddimni roslab va ko'zimga ko'ringan mudhish manzaradan o'zimni yo'qotib qo'ygandek, kuchsizlanib qolgan qo'lim bilan to'pponchaga yopishdim. Ha! Men ko'rgan narsa qop-qora,

juda katta bahaybat it edi. Lekin bunaqa itni inson bolasi shu kungacha ko'rmagan desa bo'ladi. Uning ochilgan og'zida o't yonib turar, ko'zlari uchqun sochar, tumshug'ida va yolida miltillagan olov tovlanardi. Tuman orasidan sapchib chiqqan bunday jahannam maxluqi singari dahshatliroq, jirkanchroq maxluqni hech kim tushida ham ko'rmagan bo'lsa kerak.

Mudhish maxluq do'stimizning izlarini iskab, so'qmoqdan katta-katta qadam tashlab borardi. U yonimizdan g'izillab o'tib ketganidan keyingina o'zimizga keldik. Ana shunda men ham, Xolms ham birdaniga o'q uzdik, biz to'pponcha otishimiz bilan dahshatli bo'kirgan tovushni eshitdik. Ana shunda biz otgan o'qlarimizdan loaqal bittasi mo'ljalga borib tekkaniga qanoat hosil qildik. Lekin it to'xtamasdan oldinga g'izillab boraverdi. Ser Genri atrofga alanglab, rangi o'lgudek oqarib, qo'rqqanidan qo'lini ko'targanini va o'ziga yetib kelayotgan dahshatli maxluqdan ko'zini uzmay mana shunday ojiz bir holatda qaqqayib turib qolganini oydinda ko'rdik.

Lekin itning og'riq alamiga chidolmay ingrangan tovushi bizdagi qo'rquv hislarining hammasini tarqatib yubordi. Tirik jonning hammasi o'ladi, agar uni jarohatlantirish mumkin ekan, demak, o'ldirish ham mumkin. Tavba, o'sha kun kechasi Xolmsning chopishini ko'rib hayron qoldim. Men hamisha yaxshi chopqir kishi deb hisoblanib kelganman, lekin jikkak xufiyadan men o'zib ketgan edim, Xolms esa mendan o'zib ketdi. Biz so'qmoq yo'ldan chopib borar ekanmiz, ser

Genrining tinmay qichqirayotganini va itning bo'g'iq bo'kirishini eshitib bordik. It ser Genriga yopishib, uni ag'dargan va bo'g'ziga chovut solmoqchi bo'lib turgan daqiqada yetib bordim, lekin Xolms itning yonboshiga ketma-ket beshta o'q tekkizdi. It oxirgi marta ingrab, g'azabidan tishlarini g'ijirlatib, chalqancha ag'darildi va to'rt oyog'ini talvasada tipirchilatib jon berdi. Ko'p chopganimdan harsillab itning ustiga engashdim va uning yarqirab turgan dahshatli tumshug'iga to'pponchamning og'zini qadadim, lekin otishga hojat qolmadi. Bahaybat it o'lib yotardi.

Ser Genri it yetib olgan joyda behush yiqilgan edi. Biz uning yoqasini olib tashladik, Xolms esa jarohatlanmaganiga va o'z vaqtida yordamga yetib kelganimizga qanoat hosil qilib, taqdirga tasanno aytdi. Ser Genrining ko'zi ochilgandek bo'ldi va salgina qimirladi. Lestreyd konyak to'ldirilgan flyaganing og'zini ser Genrining tishlarini yorib turib tiqdi va oradan bir soniya o'tgach, qo'rquv bosgan ikki ko'z ochilib bizga qaradi.

– Tavba! – deb pichirladi baronet. – Nima balo bo'ldi? Qani u?

– Uni yo'q qildik, – dedi Xolms. – Sizlarning avlodingizni ta'qib qilib kelgan mudhish maxluq o'ldirildi.

Oldimizda yotgan mudhish maxluq o'zining kattaligi va bahaybatligi bilan har qanday odamning ham esxonasini chiqarib yuborishi mumkin edi. Bu it zotli tozi it ham emas, zotli mastif it ham emas, balki kattaligi yosh urg'ochi sherdan

qolishmaydigan duragay, baquvvat, dahshatli ko'ppak bo'lsa kerak. Uning juda katta og'zidan hali ham zangori alanga yorug'i ko'rinib turardi, chuqur vahshiy ko'zlarining atrofi bamisoli o'tli gardish bilan o'ralgandek ko'rinardi. Men o't kabi yaltirab turgan boshini ushlab ko'rdim va qo'limni tortib olib qarasam, qorong'ulikda barmoqlarim ham yarqirayotganiga ko'zim tushdi.

– Fosfor, – dedim.

– Ha, qandaydir alohida preparat bu, – dedi Xolms, gapimni tasdiqlab va hidlab ko'rib. – It hid bilmaydigan bo'lib qolmasin deb bu preparat hidsiz qilib tayyorlangan. Sizni shunday dahshatli sinovga duch qilganim uchun bizni kechiring, ser Genri. Itni ko'rishga tayyorlangan edim-u, lekin bu it shu qadar dahshatli maxluq bo'lib chiqishini sira kutmagan edim. Yana buning ustiga bizga tuman xalaqit berdi, shuning uchun ham biz bu itni munosib kutib ololmadik.

– Sizlar jonimni saqlab qoldingiz.

– Avval xavf ostida qoldirib, so'ngra saqlab qoldik. Xo'sh, o'rningizdan tura olasizmi?

– Menga yana bir qultum konyak bering, uni ichib o'zimga kelaman. Rahmat! Endi sizlarning yordamingiz bilan turaman. Xo'sh, endi nima qilmoqchisizlar?

– Hozircha sizni bu yerda qoldiramiz, bu kecha ko'p kulfat tortdingiz, so'ngra esa bittamiz siz bilan birga uyingizga qaytib boramiz.

Baronet turishga har qancha urinsa ham, lekin turolmadi. U dokadek oqarib ketgan edi va butun vujudi qaltirardi. Biz uni tosh oldiga

olib keldik, u butun vujudi bilan qaltirab toshga o'tirdi va qo'llari bilan yuzini berkitdi.

– Endi ketmasak bo'lmaydi, – dedi Xolms. – Boshlagan ishimizni tamomlashimiz kerak. Har bir daqiqa g'animat. Jinoyatni isbotlaydigan dalillarning hammasi endi mavjud, faqat jinoyatchini ushlab olish qoldi.

Xolms so'qmoq yo'lda biz bilan yonma-yon tez-tez qadam tashlab borarkan, gapini davom ettirdi:

– Sizlar bilan bahslashishim mumkin: u uydan allaqachon chiqib ketgan. O'q tovushini eshitmasligi mumkin emas, shuning uchun ham, u siri ochilib qolganini tushungan bo'lishi kerak.

– Yo'g'-e. Uning uyidan ancha olisda o'q otildi-ku, yana buning ustiga tuman tovushni unchalik eshittirmaydi.

– U itning ketidan izma-iz yo'lga chiqqaniga shak-shubha bo'lishi mumkin emas, chunki itni ser Genridan ajratib olishi kerak-ku axir. Yo'q, biz uni uydan topolmaymiz! Lekin shunday bo'lsa ham, uyning hamma tomonini qidirib ko'rish kerak.

Uyning eshigi ochiq qoldirilgan ekan, biz uyga yugurib kirib hamma xonalarni darrov ko'zdan kechirib chiqdik, dahlizda bizni kutib olgan qari xizmatkor hayron bo'lib qarab turaverdi. Faqat ovqatlanadigan xonadagina chiroq yonib turardi. Lekin Xolms u yerdan lampani olib, uyning hamma burchaklarini tekshirib chiqdi. Biz qidirgan odam dom-daraksiz g'oyib bo'lgan

edi. Biroq ikkinchi qavatdagi yotoqxonalaridan birining eshigi yopiq ekan.

– Bu yerda birov bormi? – qichqirdi Lestreyd. Xona ichida sekingina ingragan va shitirlagan tovush eshitildi. Xolms eshikni bir tepgan edi, u lang ochilib ketdi. Biz to'pponchalarimizni otishga tayyorlab xonaga bostirib kirdik.

Lekin qidirib yurgan ablahni bu yerdan ham topmadik. Uning o'rniga nihoyat darajada g'alati va kutilmagan bir narsani ko'rib, joyimizda qotib qoldik.

Bu xona bamisoli kichkina muzeyga o'xshardi. Devorlarida oynavonli qutilar juda ko'p ekan. O'sha murakkab va jinoyatchi shaxsning eng sevgan narsalari – xilma-xil kapalaklar kolleksiyasi shu qutilarda saqlanar ekan. Xonaning o'rtasida bir uchi shiftdagi chirik xariga tegib turgan yo'g'on ustun ko'zga tashlandi. Shu ustunga oq choyshab bilan boshidan oyog'igacha o'ralib bog'lab qo'yilgan kishi turardi, birinchi daqiqada bu odam erkakmi yoki xotinmi, hatto darrov payqab ololmadik. Bir sochiq bilan uning tomog'i o'rab qo'yilgan, ikkinchi sochiq bilan dahani burkalgan-u lekin faqat ko'zi ochiq qoldirilgan edi. Dahshat va uyat bilan to'lgan bu ko'zlar bizga savol bergandek mo'ltirab turardi. Bir nafasda biz choyshab va sochiqlarni yechib tashladik, ana shunda oldimizga xuddi missis Stepltonning o'zi ag'darilib tushdi. Uning boshi egilib, ko'kragiga tegib turardi, ana shunda uning bo'ynida darra zarbidan qolgan qizil chandiqni ko'rdik.

– Ablah! – deb qichqirib yubordi Xolms. – Lestreyd, konyak qani? Uni stulga o‘tqazib qo‘ying. Bunaqa qiynoqlar har qanday odamni ham hushidan ketkizib qo‘yadi.

Missis Steplton ko‘zlarini ochdi.

– U omon qoldimi? – deb so‘radi xotin. – U qochib ketdimi?

– U bizdan qochib qutulolmaydi, xonim.

– Yo‘q, yo‘q, men erimni so‘rayotganim yo‘q. Ser Genri... qutulib qoldimi?

– Ha.

– It-chi?

– O‘ldirildi.

Ayol chuqur xo‘rsindi.

– Xudoga shukur! Xudoga shukur! Ablah! Qarang, u meni nima qilib qo‘ydi! – Xotin ikkala yengini shimargan edi, biz uning qo‘llari momataloq bo‘lib ketganini ko‘rdik. – Lekin faqat shugina emas... Bunisi ham mayli. U jonimni qiynab yubordi, qonimga tashna qildi. U kishi meni sevadi, degan ozgina umid tufayli hamma narsaga chidab keldim, hamma narsaga: yomon muomalaga, yovuzlikka, nuqul aldashdan iborat hayot kechirishga – hamma narsaga chidab turaverdim... Lekin u meni aldayverdi, men uning qo‘lida qurol bo‘lib qoldim! – Ayol chidolmay ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

– Ha, xonim, unga yaxshilik tilash uchun bizda hech qanday asos yo‘q, – dedi Xolms. – Bas, shunday ekan, uni qayerdan qidirish kerakligini bizga aytib bering. Siz uning sherigi bo‘lgan ekansiz, o‘z aybingizni yuvish uchun kelgan fursatdan foydalaning – bizga yordam bering.

– U faqat bir joyga yashirinishi mumkin, boshqa boradigan joyi yo‘q, – deb javob berdi xotin. – Botqoqlikning qoq o‘rtasida bir vaqtlar tosh kavlab olingan quruq joy bor. Itni ham u o‘sha joyda saqlar edi, mabodo qochish kerak bo‘lib qolsa, lozim bo‘ladi, deb hamma narsani o‘sha joyga tayyorlab qo‘ygan edi.

Xolms lampani derazaga tutdi. Tuman oq paxtadek deraza oynasiga yopishib olgan edi.

– Bu yoqqa qarang, – dedi u. – Bugun kechasi hech kim Grimpen botqoqligiga yo‘l topib borolmaydi.

Missis Steplton chapak chalib, kulib yubordi. Uning ko‘zlari chaqchayib ketdi.

– U yerga-ku yo‘l topib boradi, ammo qaytib kelolmaydi, – dedi xotin. – Mana shunday qorong‘i kechada yo‘ldagi belgilarni ko‘rib bo‘ladimi? Botqoqlik orasidan o‘tgan so‘qmoq yo‘lni topib olish uchun belgilarni ikkovimiz qo‘yib chiqqanmiz. Attang, o‘sha belgilarni bugun olib tashlash esimga kelmapti-ya! Belgilarni olib tashlaganimda edi, u sizlarning qo‘lingizga tushgan bo‘lur edi!

Mana shunday tumanda uni quvlab borishning iloji yo‘q edi. Biz Lestreydni Merripit-xausga to‘la huquqli xo‘jayin qilib qoldirib, o‘zimiz ser Genri bilan Baskervil-xollga qaytib keldik. Stepltonlar voqeasini endi undan yashirib bo‘lmas edi. U o‘zi sevgan xotin to‘g‘risidagi butun haqiqatni eshitganidan keyin bu zarbaga mardlarcha bardosh berdi.

Biroq tungi mudhish voqealar baronetga ta‘sirsiz qolmadi. Ertalabgacha isitmasi chiqib,



behush bo'lib qoldi va doktor Mortimer uning oldidan nari ketmadi. Oradan ancha vaqt o'tgach, ikkovi butun dunyoni aylanib sayohat qilishdi, shundan so'nggina ser Genri Angliyadagi o'zining mana shu kasofat yer-mulkiga merosxo'r bo'lib kelgan vaqtidagidek yana xushchaqchaq, sog'lom kishi bo'lib qoldi.

Endi g'alati qissamning oxiri tez yaqinlashib kelmoqda. Hayotimizni shu qadar uzoq zaharlab kelgan va oxiri mana shunday fojia bilan tugagan vahimali voqealarning hammasini va mujmal jumboqlarning hammasini kitobxon biz bilan birga o'z ko'zi bilan ko'rgandek bo'lsin, degan umid bilan bu qissani yozib chiqdim.

Ertalab tuman tarqaldi va missis Steplton bizni botqoqlik orasidan o'tgan so'qmoq yo'l boshlangan joyga olib bordi. Bu xotin bizni erining iziga shu qadar bajonidil va xursandlik bilan yo'llab qo'ydi, ana shundagina biz uning hayoti naqadar dahshatli bo'lganini aniq angladik. Botqoqlik ichiga yarimorol kabi suqilib kirgan tor torfzor oldida xotin bilan xayrlashdik. Goh u joyga, goh bu joyga tiqib qo'yilgan kichkina novdalar do'ngalakdan ilon izi bo'lib buralib o'tgan so'qmoqchani ko'rsatib turardi, bu do'ngaklar ko'm-ko'k o't qoplagan botqoqlik ichida bamisoli yashil derazadek bo'lib ko'rinardi. Bu joylarni bilmagan kishilar yo'l topib yurolmasdi. Chirigan qamishdan va loyqa bosgan suv o'tlaridan ko'tarilgan bug' botqoqlikni qoplab turardi. Ba'zan bilqillagan botqoqlikka botib ketib, yo'limizni arang topib

olardik. Oyoqlarimizga yopishib olgan balchiq qadam bosishni qiyinlashtirar, mahkam ushlab olgan akashak qo'ldak oyoqlarimizni botqoqlik ichiga tortar edi. Bu xatarli yo'ldan biz birinchi marta bormayotganimizni ko'rsatuvchi faqat birdan bir dalilga ko'zimiz tushdi. Botqoqlik o'ti o'sgan do'ngalakda nimadir qorayib yotardi. Xolms u yerga bormoqchi bo'lib qadam qo'yan edi, darrov yarim belidan botqoqlikka botib ketdi, agar biz bo'lmaganimizda, u hech qachon qattiq yerga chiqib ololmasdi. Xolms eski qora oyoq kiyimini qo'lida ushlab turardi. Oyoq kiyimining ichida: «Meyers. Toronto» degan belgini ko'rdik.

– Mana shunday narsani topish uchun balchiq vannaga tushganimga achinmayman. Do'stimizning yo'qolgan oyoq kiyimi mana shu!

– Steplton shoshilganidan tashlab ketganmikin?

– Xuddi shunday. U itni ser Genrining iziga yo'llamoq uchun bu oyoq kiyimini itga iskatgan-u, o'zi u bilan birga qo'shilib chopib ketgan, so'ngra shu yerga tashlagan. Endi biz Steplton loaqal shu yergacha eson-omon yetib kelganini bilamiz.

Garchi biz ko'p narsalarni taxmin qila olsak ham, lekin boshqa hech narsani bilolmadik. So'qmoq yo'lda biror izni ko'rishning imkoniyati yo'q edi, chunki har qanday iz botqoqlikka cho'kib, darrov yo'q bo'lib ketardi. Biz quruqroq joydagi izlarni ko'rib qolarmiz, deb o'ylagan edik, lekin har qancha qidirsak ham, natija chiqmadi. Agar yer haqiqatni gapiradigan bo'lsa, Steplton

o'sha unutilmas tumanli kechada bormoqchi bo'lgan makoniga baribir yetib ololmaganini gapirib bergan bo'lar edi. U berahm, shafqatsiz odamni qo'lansa Grimpen botqoqligi o'z qa'riga yutib yubordi va shu botqoqlikning qoq o'rtasida u abadiy ko'mildi.

Biz atrofini botqoqlik o'rab olgan va Steplton o'zining dahshatli sherigini yashirincha saqlagan orolchada uning bir talay izlarini topdik. Juda katta darvoza va yarmisiga shag'al uyub tashlangan shaxta bir vaqt bu yerda toshlar qazib olinganini bildirib turardi. Ularning yonida tog' qazuvchilarning ag'darilib tushgan kulbalari turardi, botqoqlikdan chiqayotgan zaharli bug'larga chidolmagan tosh qazuvchilar bu yerni tashlab ketgan bo'lsalar kerak, shunday kulbalardan birida devorga qoqib qo'yilgan halqani, zanjirni va kemirilgan juda ko'p suyaklarni topdik. Steplton o'zining itini mana shu joyda saqlagan bo'lsa kerak. Axlat orasida bir tutam sariq juni qolgan itning skeleti sochilib yotardi.

– Tavba! – deb xitob qildi Xolms. – Bu spanielning suyaklari-ku! Bechora Mortimer sevgan itini endi aslo ko'rmaydigan bo'пти. Mayli, menimcha, endi bu orolcha o'zining hamma sirlarini bizga ochib berdi. Itni yashirib qo'yish qiyin ish emas, lekin uni indamaslikka majbur qilib ko'ring-chi. Hatto kunduz kuni ham odamlarni vahimaga solgan, uvillagan tovush mana shu yerdan eshitilardi. Juda zarur bo'lib qolgan taqdirda Steplton itni uyiga yaqinroq joyga,

hujraga olib borib saqlashi mumkin edi, lekin o'zi qilmoqchi bo'lgan jinoyat payti yaqinlashib qolganiga imoni komil bo'lgan vaqtdagina, faqat juda qaltis daqiqalardagina u shunday qilishga botina olardi. Mana bu tunuka qutidagi dori esa uning o'z itiga surtib qo'ygan va shu itni olovdek yarqiratib turadigan moddaning xuddi o'zi. Baskervillarning mudhish iti bor, degan afsonagina unda shunday fikrni tug'dirgan va shu tariqa u ser Charlzni yo'qotishga qaror qilgan. Bebaxt mahbus qorong'ilikda shunday dahshatli maxluqqa duch kelib, dod-faryod bilan qochganiga endi ajablanmasak bo'ladi. Bizning do'stimiz ham xuddi shunday qildi, zotan, o'zimiz ham shunday qilishga yaqinlashib qolgan edik. Ayyor Steplton xo'p o'ylab topibdi-da! Bu it Stepltonga raqibini o'ldirishga yordam berishi mumkinligini aytmaganda ham, bu yerdagi fermerlarning qay biri bunaqa itga yaqin yo'lashga botina olgan bo'lur edi! Bunday mudhish maxluq bilan bir marta uchrashishning o'zi kifoya. Vaholanki, ko'p kishilar uni botqoqlikda ko'rishgan. Men sizga, Uotson, Londonda bir gap aytgan edim va bu gapni yana takrorlayman: hozir oldimizda yotgan kishidek xatarli kishiga biz hech qachon duch kelmagan edik! – U shu gapni aytar ekan, olis-olislarda ham cheti ko'rinmayotgan ko'kimtir kulrang botqoqlikni, tepaliklarga borib tutashgan torfzor botqoqlikni ko'rsatdi.

## **XV BOB**

### **Moziyga bir nazar**

Noyabrning oxiri edi. Osmonni bulut qoplab, tuman bosgan oqshom paytida Xolms ikkimiz uning Beyker-stritdagi xonasida lovillab olov yonib turgan kamin oldida o'tirardik. Devonshirga qilgan safarimizning oxirida ro'y bergan fojidan keyin do'stim ikkita juda jiddiy ishni tamomlashga ulgurgan edi. Birinchi ishni tekshirish natijasida u «Patritsiy» klubida qartabozlik chog'ida ro'y bergan janjalli voqeaga aralashgan polkovnik Epvudni fosh qilishga, ikkinchi ishni tekshirish natijasida esa – o'gay qizi, yoshgina mademuazel Karerni o'ldirishda ayblangan bechora Monpense xonimning bo'ynidagi aybni butunlay olib tashlashga muvaffaq bo'lgandi. Ma'lumki, keyin Karerning Nyu-Yorkda ekani aniqlandi va o'sha yerda u yerga tegib baxtli bo'ldi. Mana shunday ikkita qiyin va jiddiy ishni tekshirish muvaffaqiyatli tugaganidan keyin Xolmsning kayfi juda chog' edi va men shundan foydalanib, undan Baskervildagi sirli voqeaning ba'zi tafsilotlarini so'rab olmoqchi bo'ldim. Xolms bir necha ish bilan boshini bir yo'la band qilishni yaxshi ko'rmasligini va miyasini o'tmishdagi ishlarni eslash bilan navbatdagi ishlardan chalg'itmasligini bilar edim, shuning uchun ham uni gapga solish uchun qulay fursat kelishini sabr qilib kutdim.

Xuddi shu kunlarda ser Genri bilan doktor Mortimer Londonga kelishgan edi. Baronet charchagan asabini mustahkamlab olsin,

deb shifokorlar unga uzoq safarga chiqishni buyurishgan edi. Shuning uchun ham, ular mana shu safar hozirligini ko'rishmoqda edi. Ertalab ular biznikiga tashrif buyurishdi, shu tariqa men o'zinga kerakli mavzuda gap boshlamoq uchun yaxshi bahona topdim.

– O'zini Steplton deb atab yurgan kishining nuqtayi nazaridan qaraganda, – deb gap boshladi Xolms, – voqealar xuddi risolada bitilgandek ochilib bormoqda edi, lekin bu voqealarning hammasi bizga g'oyat murakkab ish bo'lib ko'rinardi, chunki o'sha vaqtda biz uning qanday maqsadni ko'zlab harakat qilayotganidan butunlay bexabar edik va bizga faqat ba'zi bir faktlargina ma'lum edi. O'sha voqeadan beri men missis Steplton bilan ikki marta gaplashdim, natijada hamma narsa ravshan bo'lib qoldi. Endi bu voqeaning jumboq bo'ladigan hech nimasi yo'q deb o'ylayman. Kartotekada «B» belgisi ostida shu ishga doir yozib qo'ygan narsalarimni ko'rib chiqishingiz mumkin.

– Balki voqealar qanday borganini o'zingiz eslab gapirib berarsiz?

– Bajonidil, lekin voqeaning hamma tafsilotlari esimda qolgan deb kafil bo'lolmayman. Biror ish bilan diqqat-e'tiborim band bo'lib turganida o'tmishda bo'lib o'tgan voqealar xayolimdan ko'tarilib qoladi. O'zining navbatdagi ishini yoddan bilgan va shu ish uchun sudda jang-u jadal qilayotgan advokat oradan ikki hafta o'tgach, bu ishni butunlay unutilib yuboradi. Men ham xuddi shundayman: har bir yangi ish

ustida tekshirish o'tkazayotgan vaqtimda oldingi ishni esdan chiqarib yuboraman, xuddi shunday Baskervil-xoll to'g'risida miyamda qolgan xotiralarning o'rnini mademuazel Karer voqeasi butunlay egallab oldi. Ertaga, ehtimol, yana bir jumboqni yechishga to'g'ri kelar, bu jumboq ham fransuz jononini va g'irrom qartaboz Epvudni esimdan chiqarib yuboradi. Lekin shunday bo'lsa ham, men sizga shu voqeaning hammasini aytib berishga urinib ko'raman, mabodo biror nimani unutib qo'ysam, siz esimga solib turasiz.

Surishtirib ko'rish natijasida oilaviy portret xuddi men o'ylaganday bo'lib chiqdi va o'sha kishi haqiqatan ham Baskervillar zotidan ekanligi ma'lum bo'ldi, bunga uzil-kesil qanoat hosil qildim. U Janubiy Amerikaga qochib ketgan va u yerda uylangan Rojer Baskervilning o'zi, ya'ni ser Charlzning ukasi bo'lib chiqdi. Rojer Baskervildan bir o'g'il qolgan va bu o'g'il otasining familiyasida yurgan. Ana shu o'zingizga ma'lum bo'lgan shovvoz Kosta-Rikaning eng go'zal jononlaridan biri bo'lgan Beril Garsia degan bir qizga uylangan.

Davlatning juda ko'p pulini o'g'irlab qo'yan, shundan so'ng familiyasini o'zgartirib, Bandler degan nomda Angliyaga qochib kelgan va bu yerda tez orada Yorkshirning sharqiy qismida maktab ochgan. O'qituvchilik kasbini tanlaganining sababi shuki, o'zi yo'lda bir o'qituvchi bilan tanishib, uning bilimlarini va tajribalarini o'rganib olgan, shu bilim va tajribalardan foydalangan. Ammo uning Frezer

deb atalgan ana shu o'qituvchi sherigi sil kasaliga muhtalo bo'lgani sababli tez orada vafot etgan. Maktabning ishi kundan kunga battar bo'la bergan, nihoyat sharmanda bo'lib, bu maktabni yopib qo'yishga majbur bo'lgan. Er-xotin Bandler o'z familiyalarini o'zgartishdan boshqa ilojlari qolmagan va shundan beri ular Stepltonlar deb ataladigan bo'lib qolganlar. So'ngra Steplton davlatining qolgan-qutganlarini yig'ishtirib, kelajak uchun yangi rejalar tuzib va entomologiyaga ishqiboz bo'lib, Angliyaning janubiga ko'chib ketgan. Britaniya muzeyiga borib surishtirgan edim, Bandler o'z sohasida obro'li bo'lib tanilganligini va Yorkshirda bo'lgan chog'idayoq fanga noma'lum bo'lgan bir kapalakni topganini va mazkur kapalakka uning nomi berilganini bilib oldim.

Endi uning hayotida biz uchun qiziqarli bo'lgan davrga o'taylik. U Baskervil-xollga da'vogar edi, ammo maqsadiga erishmog'i uchun unga faqat ikki kishi to'sqin bo'lib turganini surishtirib bilib olgan bo'lsa kerak. U Devonshirga kelish taraddudini ko'rayotganida bu to'g'ridagi rejalari hali unchalik takomillashmagan bo'lsa ham, ammo qora niyati to'la ravishda hal etilgan edi, xotinini avval boshdanoq hammaga singlim deb tanishtirgani bejiz emas, albatta. U xotinidan amalga oshirilmoqchi bo'lgan jinoyat uchun qurol tariqasida foydalanish fikrini darrov ishga sola boshlagan, ammo keyin buning oqibati nima bo'lib chiqishini o'sha vaqtda unchalik tasavvur qilmagan bo'lishi mumkin. Uning maqsadi



Baskervil-xolldagi yer-mulknini egallab olish edi, bu maqsadni ro'yobga chiqarish uchun u hech narsadan va har qanday jinoyatlar qilishdan qaytmadi. Binobarin, o'z rejasini amalga oshirish uchun avval u Baskervil-xollga mumkin qadar yaqinroq bir joyga ko'chib kelishi kerak edi, so'ngra esa ser Charlz bilan va boshqa qo'shnilari bilan yaqin do'st bo'lib olishi kerak edi.

It to'g'risidagi afsonani unga baronetning o'zi aytib bergan va shunday qilib, baronet o'zini halok qiladigan yo'lga qadam qo'ygan. Steplton (men uni ana shu ilgarigi nomi bilan atayveraman) keksa ser Charlzning yuragi kasalligini va kuchli hayajon uni o'ldirib qo'yishi mumkinligini bilar edi. Bu gaplarning hammasini u doktor Mortimerdan eshitgan. Bundan tashqari, ser Charlz xurofiy gaplarga ishonadigan va o'sha mudhish afsonaga katta ahamiyat berayotgan kishi ekani Stepltonga ma'lum edi. Steplton aqli o'tkir kishi edi, shuning uchun ham, u baronetni qanday usul bilan o'ldirish mumkinligini va shu bilan birga o'ziga nisbatan gumon va shubha tug'dirmaslik yo'lini darhol topib oldi.

Steplton shu yovuzlikning rejasini tuzib, bu rejani o'ziga xos mohirlik bilan amalga oshirishga kirishdi. Bunaqa ishlarda oddiy jinoyatchi qopog'on itning o'zi bilangina kifoyalaniq qo'ya qolar edi, lekin bu itni do'zax maxluqiga aylantirish kerak, degan fikr tug'ildiki, bunday yovuz fikr Stepltondan boshqa hech kimning xayoliga ham kelmas edi. Steplton bu itni Londonda, Fulxemrouddagi Ross bilan

Menglsdan sotib oldi. Bu it bozordagi eng katta va eng qopog'on itlarning ham eng yomoni edi. So'ngra u mazkur itni yetaklab, Shimoliy temir yo'l bilan Devonshirga keldi va itni o'zining uyiga sezdirmay olib borish uchun botqoqlik orqali ancha yo'lni piyoda bosdi. U kapalaklar qidirib yurgan vaqtlarida Grimpen botqoqligining ichkarisiga olib boradigan yo'lni topib oldi, itni yashirib qo'yish uchun bundan ko'ra xilvatroq joyni topib bo'lmasdi. U itni o'sha joyga zanjirga bog'lab yashirib qo'ydi va qulay payt kelishini kutib yuraverdi.

Lekin bunday qulay payt hadeganda kelavermadi: ser Charlzni kechasi o'z mulkidan tashqariga bir amallab chiqarishning iloji topila bermadi. Steplton itni ushlab olib, ser Charlzni ko'p martalab xilvat joylarda kutib turdi, lekin uni sira uchrata olmadi. Unga ko'makchi bo'lgan it botqoqlikda mana shunday behuda izg'ib yurgan vaqtlarda o'sha yerdagi fermerlarning ba'zilari itni ko'rib qolishgan-u, ana shuning uchun ham mudhish it to'g'risidagi afsona yana avj olgan bo'lsa kerak. Poylashdan natija chiqmagandan keyin Steplton bu rejasini amalga oshirmoq uchun xotinidan foydalanish payiga tushgan, ammo bu safar xotini uning so'ziga kirmay, to'satdan qattiq turib olgan. Missis Steplton chol ser Charlzga qarshi o'zining maftun qiluvchi husnini ishga solishdan qat'iyan bosh tortgan, chunki bu narsa cholni halok qilishi mumkinligini bilar edi. Steplton xotiniga do'q qilib ham, hatto kaltaklab ham uni ishga sololmagan. Xotin erining makrli

ishida qatnashishni istamaganidan keyin uning ahvoli vaqtincha tang bo'lib qolgan.

Lekin u mana shu tang holatdan chiqish yo'lini topgan. Ser Charlz Stepltonga bora-bora do'st bo'lib qolgan va uni o'z nomidan vakil qilib, missis Laura Layons huzuriga yuborgan. Steplton o'zini bo'ydoq qilib ko'rsatib, bechora xotinni butunlay maftun qilib qo'ygan va agar eringizdan taloq xatini olishga muvaffaq bo'lsangiz, sizga, albatta, uylanaman, deb shama qilgan. Shu orada Steplton o'z rejasini sira kechiktirmay amalga oshirishi kerakligi ma'lum bo'lgan, chunki doktor Mortimerning qistovi bilan ser Charlz Londonga ketish taraddudini ko'ra boshlagan. Steplton esa doktor Mortimerning bu taklifiga o'zini rozi bo'lgan kishi qilib ko'rsatgan. Demak, Steplton bir daqiqani ham qo'ldan bermay, rejasini amalga oshirishi lozim bo'lib qolgan, aks holda ov qo'ldan chiqib ketishi mumkin edi. Steplton missis Layonsni ser Charlzga xat yozishga majbur qilgan, shu xatda missis Layons ser Charlzdan, Baskervil-xolldan jo'nab ketmasingizdan bir kun oldin men bilan uchrashishingizni iltimos qilaman, deb o'tinib so'ragan. So'ngra Steplton ma'qul tushadigan bir vajni ro'para qilib, missis Layonsni ser Baskervil bilan uchrashishga bormaslikka ko'ndirgan. Ana endi Steplton ko'pdan beri kutib yurgan qulay payt kelgan.

Steplton kechqurun Kumbi-Tresidan qaytib kelib, darhol iti turgan joyga borgan, itning og'zi va ko'ziga jahannam dorisini surkab chol mazkur

Layons bilan uchrashadigan joyga itni olib kelgan. Egasi gijgijlab turgan it xiyobondagi eshikchadan sakrab o'tib, bechora baronet orqasidan yugurgan, baronet esa xiyobonda dod solib qochishga tutingan. Bu dahshatli manzara qanday bo'lgani ko'z oldimda gavdalandi. Hammayoq timqorong'i, mana shu zulmatda tumshug'i yarqirab, ko'zlari yonib turgan bahaybat narsa cholning orqasidan quvib kelyapti. Bu dahshatga baronetning yuragi bardosh berolmagan va u xiyobonning oxiriga yetganida yuragi yorilib yiqilgan. It tor chimzor yo'ldan quvib kelgan, xiyobonning o'zida odam izidan boshqa hech qanday iz topilmaganining sababi ham shu.

Ser Charlz yiqilganidan keyin it uni iskab ko'rgan bo'lsa kerak, ammo o'lib yotgan odamga tegmay, qochib ketgan. Doktor Mortimer ko'rgan iz ana shu edi. Steplton itini chaqirib olib, uni darrov Grimpen botqoqligining ichkarisiga olib ketgan. Politsiyani dovdiratib qo'ygan, atrofdagi odamlarning hammasini g'ulg'ulaga solgan va nihoyat tekshirish uchun bizga topshirilgan jumboqning paydo bo'lish tarixi mana shu.

Ser Charlz Baskervilning o'limiga taalluqli gaplarning hammasini aytib berdim. Steplton o'z ishini naqadar yovuz makkorlik bilan bajarganini tushungan bo'lsangiz kerak!

Bunaqa ishda jinoyatchini fosh qilishning imkoni yo'q! Jinoyatchining faqat bitta sherigi bor, ammo bu sherik tilsiz bo'lgani uchun hech bir narsani aytib berolmaydi, bu yovuz niyat aql bovar qilmaydigan, fantastik xarakterda bo'lgani

uchun ham tergovni batamom chuvalashtirib yuborgan. Bu ishga aloqador bo'lgan ikkala xotin – missis Steplton ham, missis Laura Layons ham ser Charlzni aslida kim o'ldirganini bilmas edilar. Missis Steplton eri cholga qarshi yovuz niyatda ekanini, it borligini ham bilar edi. Missis Layonsning na undan, na bundan sira xabari yo'q edi, lekin xiyobondagi eshikcha oldida amalga oshmay qolgan va Stepltondan boshqa hech kimning xabari bo'lmagan uchrashuv soati ser Charlzning o'limi bilan bir vaqtga to'g'ri kelganini eshitib, hayratda qolgan edi. Ammo shu ikkala xotin batamom Stepltonning ta'sirida edilar, shuning uchun ham, Steplton ulardan hayiqmasdi. Shunday qilib, Steplton oldiga qo'yg'an vazifaning birinchi yarmi muvaffaqiyatli bajarildi-yu, ammo ikkinchi yarmini bajarish benihoya qiyin edi.

Avval Steplton Baskervil-xollning Kanadada yana bir merosxo'ri borligini hatto xayoliga ham keltirmagan bo'lishi mumkin. Lekin sal fursatda u bunday merosxo'r borligini oshnasi doktor Mortimerdan eshitdi, hatto uning qaysi kuni Baskervil-xollga kelishini ham doktor Stepltonga aytib berdi. Avval o'sha kanadalik yigitni Devonshirga yetib kelmasdanoq Londonda bir yoqlik qilib qo'ysam bo'lmasmikin, degan fikr ham uning xayoliga keldi. Steplton endi xotiniga ishonmay qo'yg'an edi, chunki bu xotin chol Baskervilni o'z tuzog'iga ilintirishdan bosh tortganini esdan chiqarmagan edi. U xotini uzoq vaqt yolg'iz qoldirib ketishga ham botina

olmadi – bunday holda xotin uning ta'siridan chiqib ketishi mumkin edi. Shuning uchun ham, u Londonga xotini bilan birga kelishga majbur bo'ldi. Keyin men aniqlab bilishimcha, ular Kreven-stritdagi «Meksboro» oteliga kelib tushganlar. Kartrayt ham «Tayms» gazetasining qirqilgan sahifasini qidirib o'sha otelga kirib chiqqan edi. Steplton xotini xonaga qamab qo'yib, o'zi soxta soqol yopishtirib olib, doktor Mortimer ketidan izma-iz yurib, Beyker-stritga, vokzalga «Norsamberlend» oteliga borgan. Missis Steplton eri qanday rejalar tuzayotganidan shubhalangan bo'lsa ham, ammo undan nihoyat darajada qo'rqar edi. Erining berahmigidan qo'rqib qolgan bu xotin ser Genriga xat yozishga va shu tariqa uni boshiga tushadigan tahlikadan xabardor qilishga botinolmadi. Agar bunday xat Steplton qo'liga tushib qolsa, meni o'limdan kim saqlab qolar edi, deb xavotirda edi. Nihoyat, xotin makr ishlatishga qaror qildi (biz buni bilamiz): gazetadan kerakli so'zlarni qirqib oldi va o'zining xatini o'zgartirib manzil yozdi. Bu xat baronetning qo'liga tegdi va uni ogohlantirgan birinchi hujjat bo'ldi.

Steplton itni ser Genri iziga yo'llab yuborish lozim bo'lib qolsa, kerak bo'ladi, deb uning kiyimlaridan biror narsani har qanday qilib bo'lsa ham, qo'lga kiritishi kerak edi. Hamisha tez va dadil harakat qiladigan bu odam bu safar ham sustkashlik qilib o'tirmadi. Mehmonxonaning xodimi ham, xizmatchi xotin ham bu ishda Stepltonga yordam ko'rsatganliklari uchun undan

katta pul olganlariga shak-shubha qilmasak bo'ladi. Ammo birinchi o'g'irlangan oyoq kiyimi sira kiyilmagan, binobarin, Stepltonga yaroqsiz narsa bo'lib chiqdi. U oyoq kiyimini qaytarib berib, buning evaziga boshqasini oldi. Men bu faktdan juda muhim bir xulosa chiqardim. Bu ishda unga yordam beradigan chinakam it borligi menga ravshan bo'lib qoldi, chunki Steplton eski oyoq kiyimini olishga intilganini faqat shu bilan izohlash mumkin edi. Biror detal sizga qanchalik bema'ni va beso'naqay bo'lib ko'rinsa, unga shu qadar ko'p e'tibor berish kerak. Birinchi qarashda ishni faqat murakkablashtirayotgan bo'lib ko'ringan narsa ko'pincha sizni jumboqni yechishga olib keladi. Bunday detallarni faqat yuzaki emas, balki sinchiklab tekshirib ko'rish kerak.

Ertasi kun ertalab do'stlarimiz biznikiga tashrif buyurishdi. Steplton esa ularni uzoqdagi keb ichida o'tirib, kuzatib turdi. Ko'pgina belgilardan, loaqal u meni taniganidan, manzilimni bilganidan shunday xulosaga keldimki, Stepltonning jinoyatchiligi Baskervil ishi bilan-gina cheklanmagan bo'lishi kerak, men bunga aminman, desam bo'ladi. Masalan, keyingi uch yil ichida g'arbdagi grafliklarda to'rtta katta talonchilik ro'y berdi, ammo jinoyatchilar qo'lga tushmay qoldi. Shu jinoyatlardan birida – Folkstoun-Kortda may oyida bo'lgan talonchilikda – hatto qon ham to'kildi. Niqob kiyib olgan talonchini xizmatchi bola tutib olmoqchi bo'lganida, bolani u to'pponchadan otib o'ldirdi.

Steplton puturi ketgan moliyaviy ishlarini shunaqa yo'llar bilan to'g'rilab yurganiga va u allaqachondan beri xatarli jinoyatchi bo'lib qolganiga endi shak-shubha qilmayman.

O'sha kuni ertalab Steplton juda ustalik bilan bizning qo'limizdan qochib qutulgani va so'ngra o'sha kebmenni topib olishimni juda yaxshi bilib, kebmenga o'zini Xolmsman deb ko'rsatgani uning zehni o'tkir va shaddod kishi ekanini bizga yaqqol ko'rsatdi. O'shandayoq Steplton Londonda hech bir ish chiqara olmasligini, chunki men bu ishning payiga tushganimni tushungan. U Dartmurga qaytib borib, baronetning kelishini kutib turaverdi.

– To'xtang! – dedim Xolmsning gapini bo'lib.

– Siz voqealarning borishini juda aniq bayon qilib berdingiz, lekin bir narsa menga hali ham ravshan emas. Steplton Londonga jo'nab ketganidan keyin itga kim qarab turdiykin?

– Bu savolingiz juda muhim, o'zim shu masalaga qiziqdim. Steplton hamma rejalarini hech kimga aytmagan bo'lsa ham, lekin uning qandaydir sherigi bo'lgan, albatta, (bu rejalardan boshqa birovni to'la ravishda xabardor qilish qo'lga tushish bo'lur edi). Uning Merripit-xausdagi xizmatkori – chol Antoni esingizdami? O'sha chol Stepltonlarning maktabi bo'lgan vaqtdayoq ularnikida bir necha yil yashagan, ularning er-xotin ekanligini ham bilar edi, albatta. Ana o'sha Antoni dom-daraksiz g'oyib bo'ldi, u Angliyada yo'q. Yana shu narsaga ham e'tibor qilingki, Antoni degan nom bizda juda



kam uchraydi. Ispaniyada va Lotin Amerikasida esa Antoniyya har qadamda duch kelasiz. Chol inglizchani gapirishda missis Stepltondan qolishmas edi, lekin u ham inglizchani g'alati talaffuz bilan gapirar edi. U Steplton belgilar qo'yib chiqqan so'qmoq yo'ldan Grimpen botqoqligining ichkarisiga borayotganini o'zim ham ko'rganman. Shu sababli, garchi Antoniyya xo'jayini itni botqoqlikda qanday maqsad bilan saqlab turganidan bexabar bo'lsa ham, ammo xo'jayini Londonga kelgan vaqtda itni shu xizmatkor boqib turgan bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Xullas, Stepltonlar Devonshirga qaytib borishganlaridan keyin sal fursat o'tmay, u yerga siz ham ser Genri bilan keldingiz. Endi o'zimning qilgan ishlarim to'g'risida bir-ikki og'iz gapirib o'taman. Esingizda bo'lsa kerak, ser Genriga yuborilgan xatni ko'zimga yaqinlashtirib qaraganimda, shu xat yozilgan qog'ozning ichida sezilmaydigan belgilar bor-yo'qligini bilmoqchi bo'ldim. Qog'ozni ko'zimga yaqinlashtirganimda dimog'imga xushbo'y bir hid urildi, bu – «Oq yosuman» atirining hidi edi. Yetmish uch xil atir bor, tajribali xufiya shu atirlarning hidini bir-biridan farq qila bilishi kerak. Jinoyatlarni muvaffaqiyatli tekshirish bir qancha marta mana shu hidlarni bilishga bog'liq bo'lganini o'z tajribamda ko'rib, bunga qanoat hosil qilganman. Agar atirdan yosuman gulining hidi kelayotgan ekan, demak, bu xatni xotin kishi yozgan bo'ladi, ana shunda men Stepltonlarga

qiziqqa boshladim. Xullas, it haqiqatan mavjud ekanligini tushundim. Devonshirga bormasimdan oldinoq jinoyatchining kimligini payqab oldim.

Stepltonni poylab yurish kerak edi. Lekin sizlarning orangizda turib, Stepltonni poylab yuradigan bo'lsam, u darhol ehtiyot chorasini ko'rgan bo'lur edi. Shu sababli hammani, shu jumladan, sizlarni ham aldashga to'g'ri keldi. Men Londonda qolaman, deb aytdim-u, ammo o'zim sizlar ketishingiz bilan yo'lga chiqdim. Men ko'rgan qiyinchiliklar sizlar o'ylagandek qattiq qiyinchiliklar emas. Zotan, bunday mayda-chuyda narsalar bizning ishimizga xalaqit bermasligi kerak. Men, asosan, Kumbi-Tresida yashadim, ammo voqea bo'ladigan joyga yaqinroq turish lozim bo'lib qolgan hollardagina botqoqlikdagi g'orga borib kelib turdim. Kartrayt Devonshirga men bilan birga borgan edi, u hamma joyda qishloqi bola bo'lib, aylanib yurib, katta yordam ko'rsatdi. Bundan tashqari, u meni ovqat va toza ko'ylak-ishton bilan ta'minlab turdi, Steplton bilan shug'ullanayotgan vaqtimda u sizlarni kuzatib yurdi. Binobarin, ko'rib turibsizki, hamma iplarning uchi mening qo'limda edi.

Siz yozgan hisobotlarning hammasi Beykerstritdan darhol Kumbi-Tresiga qaytarilib turganini o'zingiz bilasiz. Men shu hisobotlardan, ayniqsa, Stepltonlarning tarjimayi holidayi birdan bir haqiqiy hodisa yozib yuborilgan hisobotdan juda ko'p narsalarni bilib oldim. Shundan so'ng ularning ikkovi kimligini aniqlab olishim uncha

qiyin ish bo'lmadi va ularning qanaqa odamlar ekanligini tushunib oldim. Biroq oraga suqilib qolgan bir hodisa – mahbusning turmadan qochgani va u bilan Berrimorlar o'rtasidagi aloqa biz o'tkazayotgan tekshirishni murakkablashtirib qo'ydi. Lekin siz bu chigalni ham yechib berdingiz, zotan, o'zimning kuzatishlarimga asoslanib men ham shunday xulosaga kelib qolgan edim.

Meni botqoqlikdagi g'ordan qidirib topgan vaqtingizgacha jinoyatning manzarasi uzilkesil ravshan bo'lib qolgan edi, lekin bu ishni sudga olib chiqish uchun hali vaqt erta edi. Hatto Stepltonning ser Genriga qilgan, baxtsiz mahbusning halok bo'lishi bilan tugagan muvaffaqiyatsiz suiqasdi ham jinoyatni isbotlash uchun bevosita dalil bo'lolmas edi. Dalil topish uchun bitta yo'l qolgan edi: ser Genrini ro'para qilib qo'yib, uni jinoyat ustida ushlab olish kerak edi. Baronet go'yo hech kim muhofaza qilmayotgan kishidek bo'lib, yolg'iz o'zi yo'lga chiqishi lozim edi. Biz ham shunday qildik va do'stimizni og'ir xafv ostida qoldirib bo'lsa ham, o'zimiz o'tkazayotgan tekshirishni tugallashga muvaffaq bo'libgina qolmasdan, shu bilan birga Stepltonning halok bo'lishiga ham erishdik. O'z mijozimni shunday sinovga duchor qilganim uchun men, tekshirishni yomon o'tkazyapti, degan malomatga sazovorman, albatta, lekin biz o'zimiz naqadar dahshatli va hayratda qoldiradigan manzaraga duchor bo'lishimizni hech kim oldindan aytib berolmas edi-ku axir, kechasi hamma yoqni tuman bosishini va it

shu tumanning orasidan bizga qarab chiqib kelishi mumkinligini hech kim oldindan bizga xabar berolmas edi-ku! Bizning maqsadga erishuvimiz juda qimmatga tushdi, lekin ikkala shifokor – asab kasalliklarining mutaxassisi ham, doktor Mortimer ham – meni ser Genri tez tuzalib ketadi, deb ishontirishyapti. Sayohat qilish do'stimizning shikastlangan asablarini mustahkamlab olishigagina yordam berib qolmasdan, shu bilan birga, uning yurak yaralarini ham davolashga yordam beradi. Axir uning missis Stepltonga bo'lgan shu qadar samimiy va chuqur muhabbati puch bo'lib chiqdi-ku! Mana shu narsa uni ko'proq qiynayapti.

Endi men bu mudhish voqeada missis Steplton qanday rol o'ynaganini aytib berishim kerak. Steplton uni o'z ta'siriga butunlay bo'ysundirib olganiga shak-shubha qilmayman. Buni nima bilan izohlab bo'ladi? Missis Steplton uni sevarmidi yoki undan qo'rqarmidi yoki uni qo'rqish ham, muhabbat ham Stepltonga mute qilib qo'yganmidi? Bu ikkala his babbarobar mavjud bo'lishi mumkin-ku axir. Har holda Steplton dangal harakat qilaverdi. Missis Steplton o'zini uning singlisi qilib ko'rsatishga rozi bo'ldi-yu, odam o'ldirishda bevosita sherik bo'lishdan qat'iyan bosh tortdi. Ana shunda Steplton hamma ishda ham xotiniga so'zi o'tavermasligini tushunishga majbur bo'ldi. Missis Steplton ser Genrini tahlika ostida turgani to'g'risida ogohlantirishga bir necha marta urinib ko'rdi, lekin shu bilan birga, erini xafv ostida

qoldirmaslikka ham intildi. Steplton serrashk, kunchi odam bo'lsa kerak, shuning uchun ham, baronet o'ziga yoqib qolgan bu xonimga muhabbat izhor qila boshlashi bilan (garchi shunday bo'lishi uning rejasida ko'zda tutilgan bo'lishiga qaramay) shu vaqtgacha sezdirmaslikka urinib, yashirib kelgan rashkini darg'azab bo'lib, jahli chiqqanida bildirib qo'ydi. Shunday bo'lsa ham, u ser Genri Merripit-xausga tez-tez mehmon bo'lib keladigan bo'lib qoldi va axir bir kun tuzog'imga ilinadi, degan umid bilan xotinini unga ko'z-ko'z qilaverdi. Lekin hal qiluvchi daqiqa kelganida, xotini tug'yon ko'tardi. Xotin qochib yurgan mahbus halok bo'lganini eshitib qoldi va ser Genri ziyofatga kelishi lozim bo'lgan oqshomda it hovlidagi hujraga olib kelinganini bilib qoldi. Ularning ikkovi o'rtasida janjal chiqdi. Missis Steplton erini jinoyatchi deb aytdi va o'zining kundoshi borligini birinchi marta erining og'zidan eshitdi. Xotinning ilgarigi vafodorligi endi nafratga aylandi. Steplton, xotinim meni tutib beradi va ser Genrini ogohlantirib qo'yishi mumkin, deb uni bog'lab qo'ydi. Baronet o'ldi, degan xabar tarqalgan taqdirda, Baskervillar zotining kushandasi borligi to'g'risidagi afsona graflikdagi odamlarning esiga yana tushardi, ana shunda xotinimni yana o'zimga itoat qildirib, og'iz ochirmay qo'yaman, degan umid bilan Steplton shunday qildi. Uning bu umidi ham puch bo'lib chiqdi. Biz aralashmasdanoq uning taqdiri hal bo'lib qolgan edi. Tomirida ispan qoni oqayotgan xotin o'ziga xiyonat qilgan bu erni aslo kechirmas edi...

Butun gap mana shu, azizim Uotson. Agar sizga bu odatdan tashqari ish to'g'risida bundan ko'ra batafsilroq hisobot kerak bo'lsa, yozib qo'ygan daftarlarimga ko'z tashlashga to'g'ri keladi. Lekin men voqeaning hamma muhim joylarini qoldirmay aytib berdim, deb o'ylayman.

– Nahotki Steplton, ser Genri ham bahaybat itni ko'rishi bilan qo'rqqanidan o'lib qoladi, deb o'ylagan bo'lsa?

– It butunlay yovvoyi edi, bundan tashqari, itni u yarim ochlikda saqlamoqda edi. Garchi ser Genri o'sha joyning o'zida o'lmagan taqdirda ham, har holda bu dahshatli manzara uni batamom holdan toydirgan va u hech qanday qarshilik ko'rsatolmagan bo'lur edi.

– Ha, shunday bo'lishi mumkin edi. Endi faqat bir savolim bor. Basharti, Steplton Baskervill-xollga egalik qilishga o'zining haqli ekanligini isbot qilolsa, u merosxo'r bo'la turib, yana shu mulkning yaqinida butunlay boshqa nom bilan yurganini nima bilan izohlagan bo'lur edi? Nahotki bu narsa shubha tug'dirmasa?

– Bu savolingizga javob berolmasam kerak, siz mendan qurbim yetmaydigan narsani talab qilyapsiz. Men bo'lib o'tgan va hozir bo'layotgan voqealar bilan shug'ullanaman. Kelgusida kim nima qilmoqchi bo'lganini aytib berolmayman. Missis Stepltonning aytishiga qaraganda, eri bu to'g'rida ko'p martalab bosh qotirgan ekan. U uch xil yo'l topishi mumkin edi. Birinchisi, Janubiy Amerikaga borib, u yerda Britaniya elchixonasiga kirib, o'zining haqiqatan kimligini

guvohlantirib olishi va Angliyaga kelmay turib, merosni o'sha yerda turgan holida talab qilishi mumkin edi. Ikkinchisi, oldin o'zini tanib bo'lmaydigan darajada o'zgartirib, shu ishlarning hammasini Londonda qilishi mumkin edi. Uchinchi yo'l shuki, butunlay boshqa bir kishini zarur hujjatlarning hammasi bilan ta'minlab, shu kishining o'zini merosxo'r qilib ko'rsatishi, daromadlarning ma'lum qismini berib turishni shu odamga shart qilib qo'yishi mumkin edi. Steplton qanday odamligini bilganim uchun u mana shu yo'llardan birini ishga solishi mumkinligiga shubhalanmasak bo'ladi.

Endi, do'stim, fikrimizni boshqa yaxshiroq narsalar bilan band qilaylik. Bir necha hafta shu qadar og'ir mehnat bilan shug'ullanganimizdan keyin bu oqshomni yallo qilib o'tkazishga haqlimiz. Men operadagi lojani sotib oldim. «Gugenotlar» operasi, de Retskening yoqimli ovozi eshitganmisiz? Binobarin, marhamat qilib yarim soatda kiyinib taxt bo'ling. Ana shunda biz yo'l-yo'lakay Marsiniga kirib, u yerda bermalol ovqatlanib olamiz.

## MUNDARIJA

RAQQOS ODAMCHALAR .....	3
TILLA BANDLI PENSNE .....	43
TOVLAMACHINING TUGATILISHI .....	82
SHERLOK XOLMS O'LIM TO'SHAGIDA .....	112
TO'RTLAR BELGISI .....	137
BASKERVILLAR ITI.....	312



*Adabiy-badiiy nashr*

ARTUR KONAN DOYL

**SHERLOK XOLMS BA  
DOKTOR UOTSONNING  
SARGUZASHTLARI**

Muharrir  
Ma'mura QUTLIYEVA,

Badiiy muharrir  
Uyg'un SOLIHOV

Texnik muharrir  
Surayyo AHMEDOVA

Musahhih  
Muhabbat MENGNOVA

Kompyuterda sahifalovchi  
Dildora JO'RABEKOVA

Litsenziya raqami: AI № 252. 2014-yil 02.10 da berilgan.  
Bosishga 12.03.2015-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1\32.  
Garnitura «Bookman Cyr+Uzb». Ofset qog'oz.  
Bosma tobog'i 15,375. Shartli bosma tobog'i 25,83.  
Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 70.  
Bahosi kelishilgan narxda.

«Yangi asr avlodi» nashriyotida tayyorlandi.  
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.

***Murojaat uchun telefonlar:***

Nashr bo'limi – 278-36-89;  
Marketing bo'limi – 128-78-43. faks – 273-00-14;  
e-mail: yangiasravlodi@mail.ru

**«YANGI ASR AVLODI» NMM  
2015-YILDA «KAMOLOT KUTUBXONASI»  
RUKNIDA CHOP ETILGAN QUYIDAGI  
KITOBLARNI TAQDIM ETADI:**

**Fyodor Dostoyevskiy**

**«JINOYAT VA JAZO»**

**84x108 1/32, 876 bet, qattiq muqova**

Jahon va o'zbek adabiyotining durdona asarlaridan tarkib topgan «Kamolot kutubxonasi» rukni bu gal atoqli rus yozuvchisi Fyodor Dostoevskiyning «Jinoyat va jazo» romanini taqdim etadi.

«Kambag'allik ayb emas, biroq yo'qchilik – illat. Birinchisida inson tug'ma olijanob fazilatlarini saqlab qola oladi, ammo yo'qchilikda ularni hech qachon va hech kim saqlab qola olmaydi», asardagi personajlaridan biri bosh qahramonga bu gapni hayotiy misollar asosida izohlab beradi. Universitetning sobiq talabasi bo'lgan Raskolnikov esa bu gapdan tegishli xulosa chiqara olmaydi. Natijada, yo'qchilikdan qutulish, tezda boyib ketish va yuqori mavqega ega bo'lish maqsadida aql bovar qilmaydigan jinoyat sodir qiladi. Fojiali jihati – qahramon o'z jinoyatini oqlaydi. Ammo hayot qonunlari adolatli – jinoyatni jazosiz qolishiga imkon bermaydi. Ruhij jazo jinoyatchini o'z aybiga iqrar bo'lishga majbur etadi.

**Ivan Turgenev**

**«OTALAR VA BOLALAR»**

**84x108 1/32, 320 bet, qattiq muqova**

Mashhur rus yozuvchisi I.S.Turgenevning o'z davrida katta shuhrat qozongan ushbu «Otarlar va bolalar» romani rus adabiyotshunosligida yozuvchi

ijodining cho‘qqisi sifatida talqin etiladi. Adib bosh qahramon Bazarov obrazida hurfikrlilik va yangilik sari intilish kabi fazilatlarini mujassamlantirgan. Asardagi voqealar o‘sha davrda chiriyl boshlagan jamiyatni shunchaki isloh etish emas, balki poydevorini tag-tugi bilan yo‘q qilib, yangisini barpo etish kerakligini ko‘rsatib beradi. Turgenev Bazarovdagi nigilizmni (barcha narsalarni inkor qilish) tasvirlash orqali rus yoshlariga xos salbiyl jihatlarini ham namoyon etgan. Kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilishga o‘rgatuvchi ushbu asar mutolaasi kitobxonga zavq baishlaydi, degan umiddamiz.

### **Jadid adabiyoti namoyandalari**

**«ODOB-AXLOQ KITOBI»**

**84x108 1/32, 192 bet, qattiq muqova**

O‘tgan asr boshlarida yangi tuzum maktablarining tashkil etilishi nafaqat davr farzandlarining, balki millat bolalarining ma‘naviyatida tub burilishi yasadi, desak xato bo‘lmaydi. Zamon ma‘rifatparvarlari o‘quvchilar uchun qator darsliklar yaratishdi, risolalar chop etishdi, gazeta va jurnallar ochishdi.

Bugungi o‘quvchilar aynan o‘sha maqolalarni, asarlarni, kitoblarni qayta-qayta o‘qishi lozim, chunki ustozlarimizni, borihgki ustozlarimizning ustozlarini ma‘rifatga chorlagan, ilmga oshno qilgan, ziyoli qilgan asarlar bugungi davr uchun ham qadrli, ham zarur.

Mazkur kitobda XX asr boshlaridagi adabiyot – ilm va chin insoniylikka chorlovchi asarlar jamlandi.

**Stendal**

**«QIZIL VA QORA»**

**84x108 1/32, 788 bet, qattiq muqova**

Mashhur frantsuz yozuvchisi Stendalning «Qizil va qora» romani haqli ravishda dunyo adabiyoti durdonalari qatoridan o'rin olgan.

Roman qahramoni bo'lmish Jyulen bilan de Renal xonim o'rtasidagi muhabbat shu qadar tabiiy hamda tiniq tasvirlanadiki, kitobxon beixtiyor ravishda ularning musaffo tuyg'ulariga maftun bo'lib qoladi.

**Alber Kamyu**

**«BEGONA»**

**84x108 1/32 , 476 bet, qattiq muqova**

Alber Kamyu – XX asrning frantsuz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri, adabiyot bo'yicha Nobel mukofotining sohibi, mohir adib, dramaturg, faylasuf, «Tubanlashuv», «Vabo», «Sifiz haqida asotir», «Kaligula», «Asotir va qiyofa», «Isyonkor odam», «Begona» kabi asarlar muallifi.

A.Kamyu o'z asarlarida Ikkinchi jahon urushi dahshati oqibatida paydo bo'lgan insoniy taqdirning absurd hissiyotlarini kuylaydi.

Alber Kamyuning «Vabo» va «Begona» asarlari Ahmad A'zam tomonidan mohirona tarjima qilingan. «Hikmatlar», «Yon daftarchalar» asarlari esa I.Bek tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan.

Asar keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

**Yohann Volfgang Gyote**

**«FAUST»**

**84x108 1/32, 536 bet, qattiq muqova**

Buyuk nemis shoirining bu yirik asari jahon adabiyotining durdonalaridan sanaladi. Unda ikki mangu qarama-qarshi kuch: yaxshilik va yovuzlik, iqror va inkor kurashadi. Faust – hayot oshig'ri, taraqqiyot jangchisi, adolat jarchisi. Mefistofel – hayot yovi, taraqqiyot dushmani, adolat kushandasi. Asardagi murakkab voqealar silsilasi shu ikki qahramon xatti-harakatlari orqali rivojlanib boradi.

**Ilya Ilf, Yevgeniy Petrov**

**«O'N IKKI STUL»**

**84x108 1/32, 456 bet, qattiq muqova**

«O'n ikki stul» – ushbu asar 1927–1928-yillarda yaratilgan bo'lib, o'tkir yumoristik romanlar qatorida e'tirof etiladi. Asar hayotda sodir bo'lgan voqealarga asoslangan. Roman qahramonlari Ostap Bender hamda Ippolit Matveevich Petuxova xonim boyliklarini izlab topish maqsadida birgalikda sayohatga o'tlanadilar va juda ko'p sarguzashtlarni boshdan kechiradilar. Ular mahoratli usta Gambs tomonidan yaratilgan ajoyib san'at namunalari bo'lmish o'n ikki stul jamlanmasini birma-bir qo'lga kiritishga intiladilar. Bu ikki hamtovoq o'z maqsadiga erishish uchun eng qabih jinoyatlarni amalga oshirishdan toymaydi.

O'quvchi ushbu asar orqali jinoyat jazosiz qolmasligi va birovning mulkiga ko'z olaytirish qanday fojialarga olib kelishi mumkinligini fahmlaydi.

**Fenimor Kuper**

**CHINGACHGUK FOJIASI YOXUD**

**SASKUIXANNA MANBALARIDA**

**84x108 1/32, 672 bet, qattiq muqova**

Mashhur amerikalik adib Fenimor Kuperning o'zbek kitobxoniga havola qilinayotgan ushbu romani «Ko'n Paypoq» beshlik – pantalogiyasining to'rtinchi kitobidir. Asarda abjir ovchi Natti Bampo bilan Oliver Edvardsning sarguzashtlari hamda mogikanlar sardori Chingachgukning fojiali o'limi aks ettiriladi.

Ushbu asarda Vatanga muhabbat, do'stlik, sevgi va sadoqat singari ezgu tuyo'ular qadrlanadi.

**Aleksandr Sergeevich Pushkin**

**YEVGENIY ONEGIN**

**84x108 1/32, 224 bet, qattiq muqova**

A.S.Pushkin jahon she'riyatini yangi taraqqiyot bosqichiga ko'targan, asarlari dunyo xalqlari tillariga tarjima qilingan va hamon sevib o'qilayotgan Firdavsiy, Nizomiy, Navoiy, Bayron, Gyote singari buyuk shoirlar sirasiga kiradi. Uning kitobxonlarni ham, mutaxassislarni ham hayratga solib kelayotgan she'riy dahosi «Evgeniy Onegin» asarida o'zining, ayniqsa, porloq badiiy tajassumini topgan.

1936-yilda buyuk shoir va adib Oybek tomonidan katta mahorat bilan tarjima qilingan bu asar o'zbek xalqining rus shoiri ijodini kashf etishida muhim ahamiyatga molik bo'ldi, o'zbek she'riyatiga yangi adabiy janr va uslublarning kirib kelishi, she'riyatimizda poetik tafakkur va lirizmning chuqurlashishiga samarali ta'sir ko'rsatdi.

Rus she'riyatining bu o'lmas durdonasini adabiyot shaydolari qizo'in kutib oladilar, degan umiddamiz.

**«YANGI ASR AVLODI» NASHRIYOT MATBAA MARKAZI,  
SHUNINGDEK, QUYIDAGI KITOBLARNI NASHRGA  
TAYYORLAMOQDA:**

- Anton Chexov – «Buqalamun» – 200 bet  
Janni Rodari – «Rim ertaklari» – 320 bet  
Edgar Allan Po – «Hikoyalar» – 252 bet  
Gabriyel Garsia Markes – «Oshkora qotillik qissasi»  
– 300 bet  
Teodor Drayzer – «Amerika fojiasi» 1-2-qismlar –  
1400 bet  
Robindranat Tagor – «Halokat» – 300 bet  
Lermontov – «Zamonamiz qahramoni» – 180 bet  
«XX asr o'zbek she'riyati» – 300 bet  
«XX asr sharq she'riyati» – 300 bet  
«XX asr rus she'riyati» – 300 bet  
«XX asr jahon she'riyati» – 300 bet  
Asqad Muxtor – «Opa-singillar» – 400 bet  
J.Oldrij – «Dengiz shunqori» – 280 bet  
O.Genri – «Ishbilarmon kishilar» – 200 bet  
Jek London – «Martin Iden» – 480 bet  
O'lmas Umarbekov – «Odam bo'lish qiyin» – 224 bet  
Ivan Krilov – «Masallar» – 200 bet  
Gogol – «Dikanka qishlog'i oqshomlari» – 220 bet  
Kipling – «Maugli» – 280 bet  
Nodar Dumbadze – «Men, buvim, Iliko va Illarion» –  
380 bet  
Dante Aligre – «Ilohiy komediya» – 244 bet  
Sadrididdin Ayniy – «So'dxo'ring o'limi» – 300 bet  
Lev Tolstoy – «Urush va tinchlik»  
Gyustav Flober – «Bovari xonim» – 520 bet  
Fridrix Shiller – «Makr va muhabbat» – 280 bet  
Rable – «Gargantyua va Pantagryuel» – 280 bet  
Said Ahmad – «Yo'qotganlarim va topganlarim» –  
30 bet

Gi de Mopassan – «Azizim» – 480 bet  
Somerset Moem – «Chandiqli kishi» – 200 bet  
Dino Butstsati – «Hikoyalar» – 200 bet  
Melvill – «Mobi Dik» – 320 bet  
Nozim Hikmat – «Inson manzaralari» – 380 bet  
Usmon Nosir – «Yurak sensan mening sozim» – 200 bet  
Erix Maria Remark – «Essizgina yoshligim» – 160 bet  
Emil Zolya – «Ayol baxti» – 360 bet  
Jorj Simenon – «Migre va Daydi» – 160 bet  
Stefan sveyg – «Qalb besabrligi» – 240 bet  
Martti Larni – «Zo'raki muttaham» 340 bet  
Mixail Sholoxov – «Tinch Don» – 460 betdan 4 ta kitob  
Charlz Dikkens – «Oliver Tvistning boshidan  
kechirganlari» – 340 bet